

**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**



YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

(IKKINCHI QISM)

Toshkent – 2023

O'UK: 821.512.133-1

KBK: 72.52

D 14

“Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar”: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: «Ganjina» nashriyoti, 2023. 636-bet.

Mas’ul muharrir:

Olimjon DAVLATOV

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

**M.Kaxarova, M.Musayev, Sh.To‘rayev, B.Qodirov, Sh.Axrorova,
K.To‘rayev, A.Madraximov, X.Serobov, N.Xusanova**

Ushbu to‘plamda **“Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi.

To‘plam siyosatshunoslik, sotsiologiya, din, falsafa, ma’naviyat, ta’lim yo‘nalishlari mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9943-9321-8-0

© Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, 2023

© «Ganjina» nashriyoti, 2023

I. TA'LIM VA TARBIYA: MAKTABGACHA, MAKTAB VA OLIY TA'LIM TIZIMLARIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY VA MA'RIFIY TARBIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH MASALALARI

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich,

*SamDChTI Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektori, falsafa fanlari doktori, professor*

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lganyoshlarni, inson qalbi va ongini egallash uchun qaratilgan turli xil yot g'oyalarni mafkuralar va tajovuzlardan asrab qolish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalaga haqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda"[1].

Bugun yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida barcha sohalar kabi ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya sohasi ham innovatsiyalarga muhtoj. Yevropada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiyada yoshlar tarbiyasining ilmiy strategiyalari bilan shug'ullanadigan yuzlab tashkilot, fond, assotsiatsiyalar bor. Ularning tajribasini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarini olib kelib, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maqsadlarida foydalanish oliy ta'lim modernizatsiyasining muhim talablaridan biri bo'lib turibdi. Zero, olib borilayotgan barcha islohotlar, Taraqqiyot strategiyamizning samaradorligi inson omiliga, uning ma'naviyatiga bog'liq. Shu sababli milliy g'oya, g'oyaviy tarbiya va ma'naviyat-ma'rifat masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. G'oyaviy tarbiyaga befarq va loqayd bo'lgan millat va mamlakatlar yer yuzidan nomi va o'zi yo'qolib ketishiga sabab bo'lsa, yoshlarni zamonaviy milliy g'oya ruhida tarbiyalagan millat bardavom yashaydi. Shu sababli xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy, va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, yon-

atrofda yoz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch osoyishta hayotimizga xavf tug'dirish mumkin bo'lgan tajavuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi[2] muhim masala hisoblanadi.

G'arb davlatlari hayotning turli sohalarida, xususan, madaniy hayotda yuz berayotgan inqiroziy jarayonlarga xolis yondashayotgan mutaxassislar, G'arb dunyosi halokot toman borayotganligini qayg'u bilan qayd etmoqdalar. Jamiyatimizga o'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlarini qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymonlilik, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik kabi milliy ma'naviy hislatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning ahloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalilik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat" yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Mamlakatimizning kelajagi, yangi O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvofaqiyati ko'p jihatdan pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, saviyasiga, fidoiyligiga, yosh avlodga ta'lim berishva barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga bo'lgan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat avvalambor xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga tayanadi. Zero bu meros milliy mafkura, ma'naviyatimizning mustahkam manbaidir.

Bugungi kun talabasi, bo'lajak mutaxassislarni g'oyaviy tarbiyalash ilgari qo'yilmagan yangi vazifani amalga oshirishni talab qiladi. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, endi ulardan ana shu bilimlarini hayotda qo'llashni o'rgatish talab etiladi. Zero g'oyaviy tarbiya o'z mazmun mohiyatiga ko'ra talaba yoshlarni ijtimoiy faol mutaxassislar etib tarbiyalashni ko'zda tutadi. Modernizatsiyalashgan g'oyaviy tarbiya g'oyaviy hushyorlikni, kompetensiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquqlariga, xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning texnologik komponentlari – aholi, yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar va mustahkam mafkuraviy immunitetni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi usul va uslublarni anglatadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar texnologiyasining mazmunini

oilada, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, harbiy qismlarda, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, barcha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan quyidagi yo'nalishlar tashkil etadi:

- mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini, muxlislik madaniyatini har tomonlama rag'batlantirib borish, xalqimiz turli qatlamlari orasida kino, teatr san'atining ahamiyatini yuksaltirish, ommaviylikni ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;

- oila, mahalla, maktab, akademik litsey, oliy o'quv yurtlari va ta'limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta'sirchan usullar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish;

- xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy va diniy qadriyatlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar malakasini oshirish tizimini yaratish, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kadrlar zahirasi shakllantirish, zahiraga qo'yilgan kadrlar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida ilg'or tajribalar, innovatsion g'oyalarni hayotga joriy etishni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

- bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalarga mo'ljallangan, milliy ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlangan hamda ma'rifiy yo'nalishdagi dolzarb mavzulardagi hujjatli va badiiy filmlar, shuningdek, o'quv filmlari yaratish ishlarini tashkil qilish;

- yoshlar bilan ishlashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, bu borada zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida samarali mexanizmini yaratish;

- aholi va yoshlarning ma'naviy-axloqiy, siyosiy-ijtimoiy, diniy masalalarga oid ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy muhit va jamoatchilik kayfiyatini o'rganish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish shular jumlasidandir.

OTMlardagi tarbiya tizimi nazariyasi va amaliyotini o'rganish, tizimning zamonaviy faoliyatini taxlil etish, pedagogik va boshqa ilmiy adabiyotlarni kompleks o'rganish talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimi faoliyatini tashkillashtirishda didaktika va tarbiya nazariyasi inobatga olinishini ko'rsatadi. Talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimiga qo'yiluvchi asosiy talablar quyidagi tamoyillarda o'z aksini topadi:

- maqsadga muvofiqlik tamoyili – tizimning ma'lum konsepsiyalar, bosh g'oya, dasturlar, vazifalar maqsadlarga mos ravishda tashkiliy-tuzilmaviy qurilishi;

- integrativlik tamoyili – tizimning alohida differentsiyalashgan qismlari va funksiyalarining bir butunlikka birlashishini taqozo etadi va ushbu jarayonga yaxlitlik bag'ishlaydi;

- tarbiyalovchi ta'lim tamoyili – talabalarning shaxsiy rivojlanishi, o'zi ustida ishlashi uchun ijobiy motivatsiyaning shakllanishi va o'qishdan tashqari ijodiy-amaliy faoliyatga yo'naltirish maqsadida o'qitilayotgan fanlar mazmunidagi tarbiyaviy potensialidan faol foydalanish;

- professor-o'qituvchilar va guruh murabbiylariga qo'yiluvchi talablarining bir xilligi tamoyili – tarbiyaviy jarayonning barcha obyektlari talablarining o'zaro kelishilgan bo'lishini nazarda tutadi;

- adaptivlik tamoyili – pedagogik tizimni tashqi va ichki omillar, sharoitlarga moslashtirish orqali amalga oshadi;

- ilmiylik tamoyili – tarbiyaviy tizimlarning faoliyati va rivojlanishining kotseptual jihatlarini asoslashda ilmiy yondashuv;

- kasbiy yo'nalganlik tamoyili – bo'lajak mutaxassislar tomonidan kasbiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy qoidalarining o'zlashtirilishi;

- talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimi faoliyatining tizimlilik, davomiylik va uzluksizligi tamoyili barcha vazifalarni kompleks bajarib, muvozanatsizlik va tarqoqlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikni taqozo etadi[3].

Yuqoridagi fikrlar zamonaviy g'oyaviy tarbiyani modernizatsiyalashda qator muammolarni hal etishni taqozo etadi. Jumladan:

- jamiyat hayotida keng ko'lamli mafkuraviy axborot muhiti yaratish;
- yoshlarda milliy g'oyaga doir bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish va bu bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- yoshlar ongida milliy g'oyani singdirining pedagogik asoslarini zamonaviylashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy ma'rifiy tadbirlarning ko'lami hamda sifatini oshirish va ularning hayotiyligini ta'minlash shular jumlasidandir. Zero dunyodagi mafkuraviy tortishuvlar va axborot xurujlari o'sib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash oldiga yangi, zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim muassasalarida yot mafkuralarning ta'sirini zararsizlantirish zarurati alohida ta'kidlanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar muayyan tamoyillarga tayangandagina o'z samarasini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga: milliy mafkuraviy yunaltirilganlik, nopartiyaviylik, ta'lim va tarbiya birligi, hayotiylik, integrallik, ong va xulq-atvor birligi, amaliylik, ommaviylik, talabalar tashabbusini rag'batlantirish, yaxshi fazilatlarini rag'batlantirish, ma'naviy illatlarga qarshi "Jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurashish, talabalarning bo'lajak kasbiy xususiyatlarini inobatga olish, uzviylik kabilar kiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kun talabasi, bo'lajak mutaxassislarini g'oyaviy tarbiyalash O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri talablari asosida, ilmiy pedagogik asosda modernizatsiyalashuvi talabalarni mustaqil kasbiy ma'naviy hayotga tayyorlash doirasida amalga oshirishni talab qiladi. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, modernizatsiyalashgan g'oyaviy tarbiya g'oyaviy hushyorlikni, kompetensiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquvlariga, xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi. Zero hozirgi bosqichda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish talabalardan ma'naviy-axloqiy fazilatlar mazmunini bilishnigina emas, balki o'zining kundalik amaliy faoliyatida qo'llash uquviga ega bo'lishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. *Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.* – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 504-505-бет.

2. *Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-451 Қарори. 25.08.2006.* // *Халқ сўзи.* - Тошкент, 2006. - № 94 Б.1-2.

3. Кудрявцев Ю.М. *Основные принципы и закономерности функционирования и развития воспитательной системы высшего учебного заведения.* / Ю.М.Кудрявцев, О.Ю.Макарова // *Вестн. КНИТУ, 2012, № 8.* - С. 451–458.

TA'LIM TEXNOLOGIYASINING INNOVATSION MODELI – TA'LIMDA YUQORI SAMARADORLIK GAROVIDIR

O' .N. Sultonova,

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti
Aniq va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, prof., DSc*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim texnologiyasining innovatsion modelini takomillashtirishda dars mashg'ulotlarini tashkil etilishida foydalaniladigan metodlar yoritib berilgan. Talabalarda shakllantirish ko'zda tutilayotgan kompetensiyalar, vazifa va uning mohiyatining muhimligi hamda hozirgi davrda, kompetensiyaviy yondashuv umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonida talabalar o'zlarining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotlarida samarali foydalanishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakaga yega bo'lishi mumkin ekanligi dolzarb mavzu muammo sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tayanch, kompetensiya, loyihalash, metodlar, talabalar, suyuqlik, fizik, shakllantirish, muammo, ta'lim.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 mart PQ-5032-son qarorida "fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish, chuqurlashtirib o'qitish va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilinishining samarali mexanizmini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa fizika fanini o'qitish metodi mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilishini talab etadi. Shu sababli ilmiy, ta'lim- tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muammosining yechimini topishda ushbu maqola xizmat qiladi deb o'ylayman.

Ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- o'qitish maqsadlarini aniq ifodalash;
- nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni o'quvchilarga yetkazishning yo'llarini aniqlash;
- mavzuning tayanch tushuncha va iboralarini ajratish;
- o'qishga qiziqtirishga yo'naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;
- o'quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etish;
- o'quv mashg'ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o'quv faoliyatidan oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;
- kutilayotgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi vazifalarni belgilashdir.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida talaba egallashi va u tomonidan bajarilishi zarur harakatlar bo'lib, bu harakatlar orqali o'qituvchi talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni dars mashg'ulotida qo'yilgan o'quv maqsadiga mos ekanligini bilish va haqqoniy xulosalash (baholash) imkoniga ega bo'ladi. Bunda: talabaning dastlabki bilimlari aniqlanadi. Pedagogik texnologiya g'oyasi – qo'yilgan modul maqsadidan kelib chiqib kafolatlangan natijaga ta'lim sub'ektlari birgalikda intilishlari uchun ularning tanlagan interaktiv metodlari dars mashg'ulotini ijobiy natijaga olib keladi. Yangi zamonaviy metodlar – ta'lim oluvchilarining birgalikda fikrlashidir, o'qituvchining talabaga ta'sir qilish usuli dars mashg'ulotini olib borishning asosiy qismi bo'ladi. Interaktiv metodlar ta'lim sub'ektlari (o'qituvchi va talaba)ning birlashgan xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim to'g'risida G.V.Repkina, Ye.V.Zayka kabi pedagog va psixologlar ta'limni rivojlantirish uchun shunday shart sharoitlar yaratish lozimki, unda talaba o'quv jarayoniga intilsin, bu esa talabani ijobiy tomonga o'zgarishga muxit yaratadi va o'ziga ehtiyoji majburiyat sezadi. Talaba uchun bilimni boyitib borish uning ehtiyojiga aylanadi, u endi majburiy ravishda emas, kelajak uchun bilim kerakligini, o'z istagi bilan o'rgana boshlaydi. Talabalarning maxsus tayyorgarligini ko'rish uchun testlar o'tkaziladi. Testlar psixiologik tahlilning zamonaviy usuli bo'lib ko'p mexnatni talab qilmaydi. Fizika o'qituvchisi ham o'zining psixiologik testlarini o'tkazib berish maqsadga muvofiqdir. Jumladan: «O'quv faoliyatdagi intilish», «Muvaffaqiyatga erishish», «Sen kim», «Sen qandaysan», «O'zingni angla», «O'zingga baho ber» kabi testlar talabaning tafakkuri fikrlarini aniqlaydigan eng ustuvor yo'nalishdir deyiladi. M: Taqqoslash testlari. «Sen o'z fikrning ilmiy g'oya innovatsiyalarini bayon qila olasanmi» kabi testlar. Buning natijasida talaba o'ziga nima o'zgarish bo'layotganini sezadi. Talabani barcha ruhiy holatlari o'zgaradi. M: His qilish, qabul qilish, diqqatni jamlash, xotirani kuchaytirish, taasurot va fikrlash jarayonini ijobiy tomonga o'zgarishga sabab bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida “Molekular fizika va termodinamika asoslari bobidagi suyuqlik va uning xossalarini talabalarga yetkazishda dastlab ularning darslarga bo'lgan o'quv motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kundagi ta'limga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri ham talabalarga ular olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Aynan mana shu omillardan biri – talabalarning o'qishga bo'lgan


motivatsiyasini uyg'otishdir. Bugungi axborot asridagi talaba, kechagidan o'zining qo'yayotgan talablari, dunyoqarashi, yangilikka bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan keskin farq qiladi. Zero, bu davr o'ziga yarasha zaruriy zamonaviy talablarni, ya'ni, barcha sohalarida raqobatbardoshlikni taqozo etadi. Raqobatbardosh komil inson tarbiyasi esa Davlat tomonidan qo'yilayotgan standart talablaridir. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, talabalarda o'qishga, u yoki bu fanga qiziqishlari, istaklarini, ya'ni, motivatsiyasini uyg'otish orqali amalga oshiriladi.

Fizika fanidan "Suyuqlik va uning xossalari" mavzusida talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda dars mavzusiga oid muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali talabalarda motivatsiyani uyg'otishga harakat qilamiz.

1. Stakanning qaysi biridagi suv sho'roq?

2. Muz, ayniqsa qor parchalari yorug'lik nurlarini juda kuchli sindiradi. Agar nurni kamroq sindirsa, tabiatda qanday holatlar yuz beradi?" Suyuqlik va uning xossalari" mavzusida talabalarning suyuqliklarning asosiy xossalari,

1. Stakanning qaysi biridagi suv sho'roq?



2. Muz, ayniqsa qor parchalari yorug'lik nurlarini juda kuchli sindiradi. Agar nurni kamroq sindirsa, tabiatda qanday holatlar yuz beradi?



fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini eshitish, gapirish orqali o'z fikrini og'zaki aniq va tushunarli bayon qila olishlari, suvning tabiatdagi va inson organizmidagi ahamiyati, kimyoviy formulalarini yozish orqali ularning yozma nutqi shakllanadi, fizik hodisalarning fanlar bilan aloqadorligini, mavzuga oid fizik terminlarning boshqa tillarda nomlanishini bilishi va o'z bilimiga asoslangan holda boshqalar fikrini hurmat qilgan holda qat'iy fikrga ega bo'lish, turli muammoli vaziyatlarda, o'z bilim va ko'nikmalariga tayangan holda har bir fizik hodisa, tushuncha va qonuniyatlar asosida qaror qabul qila olishi orqali talabada ushbu kompetensiya shakllanadi.

Rasmda suyuqlikning qanday xususiyatlari namoyon etilganini soʻzlab bering?



Berilgan fanlardan qaysi biri berilgan rasmdagi suyuqlik xossasini tavsiflaydi



Masalan, “Suyuqlik va uning xossalari” mavzusini oʻrganishda suyuqlik haqidagi manbalarni topish, tanlash va undan samarali foydalanish, suyuqlik xossalari, xususan, suvning inson hayotidagi ahamiyati, kundalik turmushdagi qoʻllanilishini tahlil qilish orqali mazkur kompetensiya shakllantiriladi. Masalan, “Tabiatda suvchalik sirli suyuqlik mavjud emas. Uning faqat oʻziga tegishli xususiyatlari mavjud.

- Suv ulkan xotiraga ega boʻlib, u axborotlarni toʻqima va tana boʻylab uzata oladi.
- Yer yuzasining qariyb 75% suv bilan qoplangan. Issiqlik sigʻimining yuqoriligi tufayli suv quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasining katta qismini yutib qoladi va ortiqcha qizib ketishdan saqlaydi” kabi maʼlumotlar beriladi hamda talabalarga yangi axborotlarni eslash va izlab topish vazifasi beriladi.

Savol mazmuni	Javobi
Muz yordamida olov chiqarish mumkinmi?	Ha, muzdan linza yasasa
Inson tanasi va suyaklarining necha foizi suvdan iborat?	Tanada – 70% gacha. Suyakda – 22 % gacha suv toʻgʻri keladi.
Nima uchun kichik temir boʻlagi suvga choʻkadi, ammo ulkan kema suv yuzida suza oladi?	Arximed qonuni eslash, kemanding shakli, hajmi...

“Suyuqlik va uning xossalari“ mavzusini mustahkamlash uchun yer yuzidagi suv va quruqlik maydonlari nisbati, shoʻr va chuchuk suv havzalari, yomgʻir va qorning hosil boʻlishi, inson organizmidagi suyuqlik miqdori va uning almashinish jarayonini tushunish, qish va yokunlaridagi ichayotgan suyuqlik (suv) nisbatlarini asoslay olish, sogʻlom turmush tarziga amal qilishda suyuqlikning ahamiyati haqida hayoti davomida oʻqib-oʻrgangan, bilim, tajribasiga tayangan holda masala yechimiga mustaqil ravishda intellektual yondashish koʻnikmalari shakllantiriladi.

1. Rasmdagi fizikaviy hodisada suyuqlik o'zining qanday xossalari namoyon qilmoqda?



2. Berilgan rasmning suyuqlikka aloqadorligini izohlab bering?



2. Tajribalar o'tkazish, va xulosa chiqarish

“Suyuqlik va uning xossalari” mavzusini o'tishda talabalarga suyuqlik hajmi, zichligi, massasi, issiqlik sig'imi, formulasi, birliklari hamda ularni qanday o'lchash haqida bilim beriladi. Mavzuni mustahkamlash fizik kattaliklarni o'lchash, aniqlash va amaliyotda qo'llay olish maqsadida masalalar beriladi.

Jumladan: suvning bug'lanish va qaynash haroratlari, cho'milish uchun vanna to'ldirishda issiq suv va sovuq suv miqdorlarini, ob-havo ma'lumotlarida havoning nisbiy namligini mm.sim.ust. da e'lon qilganda, nisbiy namlikning nafas olishga qo'rsatadigan ta'sirini talaba dars jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayangan holda xulosa chiqaradi. Zaruriy fizik kattaliklarni tarozi, termometr, psixrometr, kalorimetrlar yordamida o'lchay oladi.



“Suyuqlik va uning xossalari“ mavzusini mustahkamlashda buloq suvlarining qishin-yozin bir hil haroratda bo'lishi, uning tarkibi, buloqdagi baliqlarning erigan minerallardan oziqlanishi, xususan, “Nurota” shahrida ajdodlarimiz qoldirgan boy meros “Chashma” madaniy- me'moriy majmuasini avaylab asrash, u yerda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, an'ana va marosimlarini hurmat qilish orqali talabalarda ushbu kompetensiya shakllanadi.

XIV-XV asrlarda Amir Temur qurdirgan «Oqsaroq» inshootiga 38 metr balandlikda suv olib chiqishda qanday fizik qonuniyatdan foydalanishgan.



3. Fizik asboblardan amaliyotda foydalana olish

“Suyuqlik va uning xossalari” mavzusida suyuqlik temperaturasi moddaning issiqlik holatini aniqlaydigan fizik kattalik ekanligi, birligi, ularning shkalalari haqida hamda temperaturani qanday asboblardan yordamida o‘lchanishi haqida bilim beriladi. Mavzu oxirida amaliy topshiriq ekskavator va kranlarning ishlashida, binolarni isitishda suyuqliklarning o‘rni va ahamiyati haqida ma‘lumot beriladi. Termometr, barometr, manometrlar shkalalari, o‘lchov kattaliklari va ularning turlari bilish hamda fizik bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali ushbu kompetensiya shakllanadi.



9-rasm. Fizik asboblardan amaliyotda foydalana olish

Albatta, kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuzish o‘qituvchi tomonidan katta mehnatni talab qiladi. Kartochkalar tayyorlash, matnlarni yozish va uni ko‘paytirish, topshiriqlarning bajarilganini tekshirish, hikoyalarni o‘qib chiqish kabi ishlar ko‘p vaqtning va qog‘ozni talab qiladi. Lekin, bir marta tayyorlangan materiallarni keyingi yillarda boyitgan holda ishlatish mumkin bo‘lishi, talabalarda kompetensiyalarning shakllanishi, ularning fanga qiziqishining ortishi o‘qituvchi mehnatini taqdirlaydi.

Fizika fani bo‘limlarini oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishni samarali tashkil qilish uchun, avvalambor, o‘qitish jarayonini oldindan rejalashtirib olish lozim. Buning uchun oliy o‘quv yurtlarida “Fizika fani bo‘limi nima uchun

o'qitiladi?", "unda nima o'rganiladi?", "qanday o'qitish kerak?", "nima yordamida o'qitish kerak?" degan savollarning kun tartibiga qo'yilishi yangi kompetentlikka erishish uchun maqsadga muvofiq bo'ladi. Fizika fani bo'limida har bir darsni rejalashtirish va dars ishlanmalarini tuzib chiqishda o'qitish maqsadlarini oldindan aniq belgilab olish asosiy o'rin tutadi.

Xulosa. maqsad oldindan belgilangan natijaga erishish mahsuli bo'lib, u ta'lim jarayonida uning sub'ektlari (o'qituvchi va talaba)ning birgalikdagi faoliyati yakunida rejalashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlarining oldindan *kafolatlanishidir talabaning mustaqil bilim egallay olishi, anglashi, rivojlanishi yo'lida doimiy yordam ko'rsatish va uni shunga ishontrish;*

Prezidentimiz tomonidan oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish sohasida olib borilayotgan sa'y-harakatlarga muvofiq har bir fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kommunikativ yondashuv asosida dars mashg'ulotiga tatbiq qilishning asosiy yo'li ta'lim samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan eskicha o'qitish tizimidan voz kechishdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlarida fizika fani bo'limiga oid har bir dars mashg'ulotlarining loyihalarini kommunikativ yondashuv sohasida pedagogik texnologiya tamoyillari asosida ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy qilish bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonova O'. *Fizikadan masalalar yechish to'garagini tashkil etish va o'tkazish metodi // J.Pedagogik ta'lim. -2005. -№ 4. -B. 24-26.*

2. Sultonova O'. *Fizika darslarida musobaqalardan foydalanish // J. Pedagogik ta'lim. -2005. -№ 5. -B. 84-87.*

3. Sultonova O'. *Fizikadan uyda bajariladigan mustaqil ishlar // J. Pedagogik ta'lim. -2006. -№ 4 - B.110-111.*

4. Sultonova O'. *Fizika darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish // J. Pedagogik ta'lim. -2006. -№5. -B. 38-39.*

5. Sultonova O'.N. *Fizikadan didaktik o'yinlarni tashkil etish. // Aniq va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy konferensiyasi tezislari. -T.: TDPU, 2005. B. -29-33.*

6. Sultonova O'.N. *Fizikaviy muammolar tahlili // Oliy o'quv yurtlarida fizika, matematika, informatika fanlarini o'qitish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Guliston.: GDU, 2005. - B. 38-41.*

NAVOIY ASARLARIDAGI AYOLLAR TIMSOLIDA KOMILLIK TALQINI

Ziyoda G'AFFOROVA,
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
"Umrboqiy meros" O'zbekiston madaniyati va
san'ati targ'ibot markazi direktori o'rinbosari*

Annotatsiya: *Ma'ruzada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ayollar timsoli orqali komil inson g'oyalari targ'ibining ayrim jihatlari o'rganiladi. Buning uchun uning xalq orasida hikmatli so'zga aylanib ketgan bir necha baytisharhlanadi, shuningdek, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr", "Tarixi muluki Ajam" asarlaridagi ba'zi xotinqizlar timsollari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, ayollar timsoli, komil inson g'oyasi, hikmatli so'z, bayt, hikoyat, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr", "Tarixi muluki Ajam".*

Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto, kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal etish – mushkul. Jamiyat o'zgarayotgan, ong yangilanayotgan bir zamonda yashayotgan ekanmiz, bu masalalarni hal qilishda bugungi ayollarimizning mavqei qanday bo'lishi – kerak? Yoki, umuman, ayol ma'naviyati deganda nimalarni tushunishimiz – lozim?

Bu savollarga javob topishdan oldin "ayol" so'zining ma'nosiga bir e'tibor beraylik. Asli arabcha "ayol" so'zi – "oila" kalimasi bilan o'zakdosh. Eski tilimizda "oila a'zolari" tushunchasi "ahli ayol" birikmasi bilan ifodalangani – shundan.

Chindan ham, oilaning fayzu barakasi – ko'p jihatdan ayolga bog'liq. Xalqimiz bekorga ayollarimizni "uy bekasi", "xonadon farishtasi" deb ulug'lamaydi. Demak, ayol ma'naviyati – oila ma'naviyati tushunchasining uzviy qismini tashkil etadi.

Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi o'g'il-qizlarimizning qanday insonlar bo'lib yetishishi – hammadan burun ayollarimizga vobasta. Shuning uchun aksariyat buyuk qalam sohiblari ayollar timsolida ham komil inson g'oyasi targ'ibini amalga oshirishgan.

Rost, o‘zbek ayoli zimmasiga o‘ta milliy, sharqona ma’naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksak darajalarda, zamonaviy asoslarda davom ettirish mas’uliyati yuklangan.

Hayo, ibo, iffat, farosat, nazokat, samimiylik, kamtarlik, oqilalik, uddaburrolik...

Eh-he, chinakam ma’naviyatli ayollarimizga xos qanchadan-qancha fazilat – bor! Xususan, o‘zbek ayolidagi vafodorlikni aytmaysizmi? Bu jihatdan millatimizga jahonning hech bir xalqi teng kelolmasa kerak.

Hazrat Navoiyda ajib bir bayt – bor. Unda lirik qahramon shoirga dalda berib, *agar yoring bevafo bo‘lsa, zinhor o‘ksima, chunki u sanamning chiroyida ham vafo yo‘q, – bu go‘zallikning o‘zi ham – baribir, o‘tkinchi*, deydi:

*Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish oning sanga,
G‘am yemokim, anga ham husni vafosi qolmamish.*

Alloh ayol zotini shunchalar go‘zal, nazokatli xilqat qilib yaratganki, endi shunga shukr qilib, bu husnu malohatni saqlay bilish, uni bozordan olib, bozorga solmaslik ham – buyuk bir insoniylik, yuksak ma’naviyat.

Bandasiga berilgan fazilat bir-birini to‘ldirib keladi.

Oqibatsiz, hayosiz, uyatsiz kishida oriyat, vafo bo‘lmaydi. Buni Navoiy bir hikmatli baytida shunday ifodalagan.

*Hayosizda vafo yo‘q,
Vafosizda hayo yo‘q.*

Ayolning vafosi – uning pokligida. Nazarimda, xuddi shu jihatlari bilan ular erkaklardan ajralib turadi.

Navoiy:

*Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotunlar ayog‘ining izi, –
deganida, ehtimol, shuni ko‘zda tutgandir.*

Navoiy asarlaridagi qator hikoyat va rivoyatlarda ezgu fazilatlar qalamga olingan. Ular faqat erkak timsollari orqaligina emas, ayollar misolida ham keng targ‘ib etilgan.

Ne-ne ulug‘larni, buyuklik darajasiga olib chiqqan ham – onalar. Shu o‘rinda yana Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan bir muhim hikoyatni eslab o‘tish – joiz. Asarda Iskandar mukammal inson sifatida tasvirlanadi. Lekin dostonidagi jahongirning onasiga yozgan maktubi berilgan bobda Iskandarday mukammal inson ham o‘limi yaqinlashganda o‘zini onasi oldida aybdordek bilganini aytadi. *“Bir umr sening xizimatingni qilsam, bo‘lmas edimi?”* – deydi.

Garchand Iskandar shunchalik aqli, dunyoning katta qismidagi ko‘p mamlakatlarni egallagan jahongir bo‘lishiga qaramay, hayotining oxirida

uni shunchalik buyuklikka, ulkan zafarlarga musharraf etgan onasi ekanini anglaydi, ammo farzand sifatida uning xizmatida bo'la olmaganidan afsuslanadi, o'g'illik burchini ado etolmagani uchun o'zini aybdor his qiladi. Shuning uchun u maktubi orqali volidasidan kechirim so'raganday, shu tariqa o'ziga o'zi tasalli berganday bo'ladi.

Asarda Iskandar o'limidan keyin yetti iqlimdan donishmandlar uning onasiga ta'ziya bildirgani kelishgani tasvirlanadi. Shu yo'l bilan shoir onaga baho beradi. Aflotun Iskandar onasini zamonasining eng oqila, sheryurak, yuzlab mard sherlarga barobar zot ekanini, Suqrot uning eng yetuk, barkamol ayolligini, Balinos hushyor, donoligini, Buqrot tog' kabi vazmin, sabrli, Xurmus bilimdonligini, Farfunyus so'zlari gavhar, purma'noligini, Arastu g'amga bardoshli ekanini aytib, ta'riflaydi, shu tariqa unga dalda beradi. Ana shu ta'riflar orqali Navoiy Iskandar onasining komilaligini qayd etib, zimdan onalarimizni har tomonlama mukammal bo'lishga da'vat qiladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida keltirilgan bir hikoyatda bir shohga bir ustunlik uy qurish orzusi tushadi. Xizmatchilari qidira-qidira bir to'g'ri o'sgan baquvvat daraxt topishadi. Uning egasi bir qari kampir edi. U yog'ochini sotishga rozi bo'lmaydi. Nihoyat kampirga yog'och og'irligida oltin tortib berishadi. Uyni qurib, ichini gavharlar bilan bezatganlaridan keyin ustunni ham zarnigor qilganlar. Kunlardan bir kuni kampir imoratni tomosha qilishga keladi va yog'ochni o'pib: *“Sen to'g'ri bo'lib o'sganing tufayli o'zingni ham, meni ham oltinga ko'mding!”* – deydi.

To'g'ri o'sgan chiroyli bir daraxt kishini shunchalik baxtiyor qiladigan bo'lsa, to'g'ri so'z va halol bir odamning qilgan ishi uning fazilatini ta'riflab bitirish – mumkinmi? Hikoyatda Navoiy onalar farzandlarini to'g'ri tarbiyalab, voyaga yetkazsalar, ular bu ezgu fazilatlar bilan ota- onasiga sharaf, jamiyatiga katta foyda keltirishini tik o'sgan daraxt misolida targ'ib etadi.

Hazrat Alisher Navoiy oltmish yillik umri davomida, avvalo, millatimiz, qolaversa, umumbashariyat ma'naviyati va ma'rifati ravnaqi uchun abad ul-abad xizmat qiladigan boy adabiy meros qoldirdi. U barcha asarlarida insoni sharifini ulug'laganiga guvoh bo'lamiz. Buyuk shoirning falsafiy aqidasi ko'ra, butun borliq, jamiki mavjudot inson tufayli va inson uchun yaratilgan. Shu sabab insonparvarlik uning asarlari bosh g'oyasi hisoblanadi. Shoir komil insonga xos fazilatlarini targ'ib etish bilan birga ayollarda uchraydigan illatlarni ham qattiq qoralagan.

Bu, xususan, “Xamsa”ning birinchi dostoni – “Hayrat ul-abror”da juda kuchli namoyon bo‘lgan. Bu dostonni, *o‘ziga xos odobnoma*, desa bo‘ladi.

Dostonning asosini 20 maqolat tashkil etgan va har bir maqolatda bir muhim hayotiy masala badiiy tahlil etilgan va buning hayotiy tasdig‘i sifatida unga bittadan hikoyat ilova qilingan.

6-maqolat – maxsus odob haqida. Unga ilova tarzida No‘shirvon hikoyasi berilgan. Bu shahzodadagi hayo misolida qizlarimizda undan ham yuksakroq fazilatlar bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Yozilishicha, No‘shirvon bir chamanda gulrux yori bilan suhbat quradi va go‘zal tomon qo‘l uzata turib, ko‘zi birdan nargis guliga tushib qoladi. U gul No‘shirvonga odam ko‘zini eslatadi. Shunda No‘shirvon, *men beodoblik qilyapman*, deb o‘ylab, guldan uyaladi va uzatgan qo‘lini tortadi.

Bu hikoyatda Navoiy yigit kishida hayo, ibo, uyat tuyg‘usini ta’riflash orqali zimdan ayollarimizda bunday fazilatlar ulardan ko‘ra ko‘proq, yuksakroq bo‘lishi lozimligi g‘oyasini ilgari suradi.

“Lison ut-tayr” asarida keltirilgan bir hikoyatda erkaklar ayol kishiga muhabbat qo‘yib, shunga berilib ketib, ilmdan, ma’rifatdan uzoqlashib qolmasligi tanqid ostiga olinadi. Ayolning chiroyiga mahliyo bo‘lib, yigit o‘z maqsadlaridan voz kechmasligi lozimligi uqtiriladi.

Arastuning shogirdlari orasida ilmiy anjumanlarda kimsan – Aflotun bilan ham bahs qila oladigan zo‘r bir yigit bor edi. Ustoz uni farzanddek ko‘rar edi. Lekin yigit bir mohiliqoga oshiqi beqaror bo‘lib qoldi. To‘ydan keyin kitob o‘qishni ham unutib, yorining oldidan jilmay qoldi. Ustozning pand-nasihatlarini kor qilmadi. Qarasaki, shuncha mehnat zoe ketyapti. Oshqlik bir umidli olimni ilmdan ayirayotibdi. Arastu bir maxfiy chora qilib, kelinga dori ichirdi. Yigit, qancha yugurib-yelsa ham, kelin dardiga chora topolmay, ustozni oldiga bordi. Ustoz shogirdini Iskandar xizmatiga yuborib, kelinni davoladi. Xizmatkorlariga kelinning qusganlarini yig‘ib qo‘yishlari tayinladi. Nihoyat kelin qusib, bujmaygan bir holatga kelib qoldi. Yigit kelib, qarasaki, uning oldingi go‘zalligidan asar ham qolmagan. Ustozni shogirdiga kelinni ko‘rsatib, go‘zallik o‘tkinchiligiga ishora qildi.

Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida otasiga vafo qilmagan qizni ayanchli taqdirini tasvirlaydi. Toyir podshohning “*Malika*” ismli go‘zal qizi bor edi. “*Shopur*” degan yosh bir podshoh Toyir yurtiga yurish qilib, saroyini qamal qiladi. Malika Shopur ta’rifini eshitib, unga g‘oyibona mahliyo bo‘ladi. Otasining saroyi darvozalarini ochib berishga imkoniyat yaratadi. Shopur mamlakatni egallab, Toyirni o‘ldiradi. Malikaga uylanadi. Bir kuni Malika uxlolmay qiynalganini ko‘rganlar podshohga buni bildirishadi.

Shopur surishtirsa, bir murud bargi to'shak ostida qolgani uchun u shuncha bezovta bo'lgan ekan. Shopur xotinidan: "Seni ne nav' tarbiyat qilibdurlarkim, muncha nozuk bo'lubsen?" – deb so'raydi. Malika otasi uni ilik ustiga novvotni un qilib sepib berib boqqanini aytadi. Shunda Shopur: "Andoq parvarish bergan otag'a ne vafo qildingkim, manga qilg'aysen?!" – deb, uni o'limga mahkum etadi.

Navoiy bu hikoyat orqali otasi, Vatani, xalqiga vafo qilmagan ayol eriga ham vafo qilmasligi masalasini o'rta qo'yadi.

"Nasoyim ul-muhabbat..." tazkirasida yozilishicha, Bahouddin Naqshband yoshlik paytlari tushida yassaviya pirlaridan Hakim Ota, ya'ni Sulaymon Boqirg'oniyni ko'radi. U Bahouddinni bir darvesh ixtiyoriga topshiradi. Bu tushini bolakay ona bibisiga aytib berganida, u: "Ey farzand, senga yassaviya shayxlaridan bir nasiba bo'ladi", – deb bashorat qiladi. Yillar o'tib, Bahouddin o'sha darveshni o'ngida ko'rib, unga bir necha yil muridlik qiladi. Bu Xalil Ota edi. Demak, Bahouddinning ona tarafdan bibisida ham fazilat mavjud edi.

Ana shu "Nasoyim ul-muhabbat..." tazkirasi oxirida Navoiy "erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri"ni beradi. Biz shu tariqa islom olamida o'tgan 35 nafar avliyo ayol haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Xullas, Navoiyning qaysi bir asarini o'qimaylik, u xuddi bugun yozilgandek bizga ma'naviyat ulashadi, demak, ular hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi. Bu ijod namunalari hozir ham yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'rifatini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy asarlari o'zining boy mazmuni, chuqur g'oyalari bilan abad ul-abad kishilar qalbini rom etaveradi. Shu tariqa ular har zamonning eng zamonaviy so'zi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 7.* – Toshkent: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 11.* – Toshkent: Fan, 1993.
3. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 12.* – Toshkent: Fan, 1996.
4. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 17.* – Toshkent: Fan, 2001.
5. Olim S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA FALASAFIY FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

Samatov Dilshodbek Toxirjonovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida falsafa fanining dolzarbligi hamda uning zarurati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda falsafa fanini o'qitishdagi mavjud muammolar va pedagog uchun keladigan eng xarakterli shart-sharoitlar, falsafa shakllanganidan buyon to hozirgacha uning asliy predmeti, o'rganuvchilarning tabiati, o'rganishning tashkillash shakllari hamda tinimsiz va katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: renesans, yangilanayotgan O'zbekiston, ta'lim va tarbiya, globallashuv, falsafa, ta'lim texnologiyalari, pedagog, kontsepsiya, prognozlashtirish.

Globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirga vaqtda jahon miqyosida oliy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng oldingi muhim yo'nalishi xisoblanmoqda. Bu esa o'z o'rnida oliy ta'lim tizimi masalasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirib, uni rivojlantirishning turli yo'llarini kashf etmoqda. Chunki XXI asrga kelib bitiruvchilarga bo'lgan talabning ortib borishi, ulardan talab qilinadigan bilim va ko'nikmalarning ko'payishi natijasida oliy ta'lim muassasalarining amaldagi qadriyat va an'analari o'zgarib bormoqda. Bu kabi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va mavjud muammolarni hal qilish uchun esa ma'lum bir ilmiy tadqiqotlar zaruratga aylanmoqda. [2]

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va yuksaltirish bo'yicha asosiy islohotlar oxirgi olti yil ichida boshlandi. Oliy ta'lim tizimiga davlat iqtisodiyotining asosiy boshlovchisi sifatida qarash, buning uchun esa tizimni jahondagi eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari namunasidan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". [1]

Har tomonlama yangilanayotgan respublikamizda oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga

asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bakalavriat bosqichining barcha yoʻnalishlarida falsafa fanini oʻqitish gʻoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa fani bakalavriat yoʻnalishlarining oʻquv rejasida oʻqitilgan fanlar mazmuniga asoslangan holda tuziladi. Fan dasturida falsafaning rivojlanish tarixi, borliqning oʻzaro aloqadorligi va rivojlanish qonun va kategoriyalari, ontologik, substantsional, munosabatdosh kategoriyalarning oʻziga xos xususiyatlari, tabiat va inson borligʻi, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari, metod, metodologiya metodika tushunchalari, asosiy evristik tamoyillar, global muammolar va globallik mezonlari, prognozlashtirish masalalari, tushunish va tushuntirishning oʻzaro mutanosibli, haqiqat va amaliyot biriligi, bilim turlari va shakllari, axborot maʼlumot bilim tushunchalarining oʻzaro aloqasi va farqi, axborot texnologiyalari va axborotlashgan jamiyat nazariyasi, tarix falsafasi, axloq nazariyasi va olamni estetik idrok etish, kabi masalalar qamrab olinishi zarur [3]. Fanning asosiy vazifasi - talabalarning borlik tushunchasining maʼnosi sof borlik gʻoyasi, borlik va yoʻqlik dialektikasi, falsafa tarixida borlikka munosabat, energiya va energetizm, informatsion energetik axborot almashinuvi, tabiat borligʻi, inson borligʻi, maʼnaviy borlik virtual borlik, qonun va kategoriyalarni, munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi, bilish, darajalari va turlari, xaqiqatning kogerent pragmatik va korrespondent, kontseptsiyalarini, ilmiy inkiloblarning asosiy davrlarini, dunyoning ilmiy manzarasini hamda ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va koʻnikma hosil qilishdan iboratdir.

Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalarida falsafa fanini oʻqitishda pedagog duch keladigan eng xarakterli shart-sharoit shundaki, falsafa shakllanganidan buyon to hozirgacha uning asliy predmetida ham, uni oʻrganuvchilarning tabiatida ham, uni oʻrganishning tashkillash shakllarida ham tinimsiz va katta oʻzgarishlar sodir boʻlgan. Eng oxirgi oʻzgarish yurtimizda uchinchi renesans poydevori qoʻyilishi munosabati bilan dogmalashgan va biryoqlama falsafaning inkor etilishi va uning oʻrniga oʻz milliy falsafamizni shakllantirish masalasining koʻndalang boʻlishi munosabati bilan amalga oshmoqda. Vaholanki, bunga qadar ham falsafaning predmetida umumjahon miqyosida ikki juda yirik oʻzgarish sodir boʻlgan [5]. Ulardan birinchisi falsafaning ratsionallashuvi va differentsiiallashuvi tufayli uning fanga aylanishi va keyinchalik pozitivizm oqimi tomonidan keraksiz ekanining koʻrsatilishi boʻlgan edi. Ikkinchisi, XX asrning oʻrtalariga kelib Gʻarb tafakkurida asl falsafaning, yaʼni, platoncha

irratsional-ezoterik yoki sharqona mistik falsafaning nimaligini qayta kashf etilishi, ratsionalistik klassik falsafadan noklassik falsafaga – neometafizikaga o‘tishning sodir bo‘lishi bo‘ldi [4].

Mamlakatimizda yangi davrga qadam qo‘yilishiga qadar esa bizda ratsionalistik falsafaning ham faqatgina bir shakli mutloq haqiqat sifatida o‘qitib kelingan edi [8]. O‘qitish uslublari va uni tashkillash shakllari ham shunga moslashgan edi. Demak, endilikda biz avtokratiya sharoitida juda cheklab qo‘yilgan o‘z falsafiy tafakkurimizni, bir tomondan, o‘tmish mafkurasi tomonidan unuttirilgan, siqib chiqarilgan o‘z o‘tmish milliy falsafamiz mazmunini eslab olishga va uni zamonamizga muvofiqlashtirgan holda qayta tiklash va rivojlantirishga, ikkinchi tomondan, yuqorida qayd etilgan jahon falsafiy madaniyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni chuqur tahliliy va tanqidiy o‘rganib chiqib, ularni o‘z dunyoqarashimizni kengaytirishga jalb etishimiz, uchinchi tomondan, shu yuqoridagilar asosida o‘z yangi milliy falsafamiz asoslarini ishlab chiqishga, to‘rtinchi tomondan, shu jarayonlar bilan barobar falsafani o‘qitish ishlarini olib borishga qaratishimiz kerak. Yana boz ustiga bizni tinglovchi auditoriya qadimgi falsafani o‘rgatishdagi kabi hikmatni sevgani uchun asl elitar falsafani bilishga qiziqadiganlardan emas, aksincha, totalitar sotsializm mafkurasi davridagi safsatabozliklar tufayli obro‘sizlangan falsafa qiyofasini esda saqlab turganlarni farzandlari ekanini ham hisobga olishimiz joiz. Aniqroq qilib aytganda ayganda, totalitar sotsializm falsafasi shakllanib bo‘lgan, tayyor va inkor etish mumkin bo‘lmagan mutloq to‘g‘ri ilmiy ta‘limot sifatida o‘qitib kelingan edi [6]. Hozirgi davrda (bir asrdan buyon) g‘arbda qayta tiklanayotgan asl ma‘nodagi falsafa, ya‘ni neometafizika esa aslida xoslar madaniyati, elitar bilimga qaytishni taqozo etmoqda. Ya‘ni falsafani o‘rganish u olis davrlarda “hos insonlar bilan hos tilda so‘zlashmoq”ni bildirgan va uni jiddiy o‘rganish, bir tomondan, davlatni boshqarish amaliyoti uchun jiddiy zarurat bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni o‘rganish hayotining ma‘nosini tushunish, barkamol inson bo‘lish vositasi bo‘lib kelgan edi [7]. Endilikda esa biz falsafani o‘z milliy falsafamizning mashaqqatli shakllanishi, tug‘ilishi jarayonida o‘qitmoqdamiz. illiy falsafiy qadriyatlar bilan, ham jahon falsafasi mazmunida sodir bo‘lgan yirik o‘zgarishlar bilan, ham shakllanaboshlagan yangi falsafaning o‘z asosiy mavzulari bilan, ham milliy g‘oyamiz-mafkuramiz mazmuni Bilan chuqur tanishtirishga ulgurish yo‘llarini izlashimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda o‘quv jarayonida falsafiy ma‘ruzalarning asosiy vazifalari falsafiy ta‘limot bajaradigan barcha vazifalarni o‘z talablariga

yetkazishdan iborat. Buning amalda qanday namoyon bo'lishini tasavvur etmoq uchun falsafaning barcha vazifalariga konkret to'xtalmoq kerak. Avvalo, falsafa dunyoqarash vazifasini bajaradi. Demak, falsafa avvalo dunyo nima, inson nima, inson va dunyo, insoniyat bilan dunyo orasida qanday munosabatlar bo'lishi mumkin va lozim kabi masalalarni yoritadi va tegishli savollarga o'z munosabatini bildirib, talabalar munosabatini ham aniqlaydi, ularni nazariy va amaliy jixatdan sog'lom va to'g'ri yo'nalishga solishga intiladi. Ikkinchidan, falsafa ontologik vazifani bajarishini uqtirib berar ekan, o'qituvchi "Borliq nima", "yo'qlik nima", "inson, tabiat, jamiyat borlig'ining ma'nosi nimada", "Moddiy va ma'naviy borliq nima, ular o'zaro qanday bog'langan va qanday rivojlanadi" kabi masalalarni yoritir ekan, talaba ongida mazkur vazifani izchil amalga oshuviga intiladi, Buning uchun ustozning o'zida mazkur masalalarda pishiq-puxta bilim bo'lishi kerak.

Uchinchidan, falsafaning gnoseologik vazifasi ochib beriladi. Bunda "Bilish nima, uning qanday bosqichlari, shakllari, vositalari bor", "Haqiqat nima", "Ilmiy bilim nima", "Ratsional bilim nima", "Intuitiv bilim nima" kabi masalalari yoritib bera olinsa, falsafaning ushbu vazifasi amalga oshirilgan deb hisoblanishi mumkin. To'rtinchidan, darslarda falsafa mafkuraviy vazifani bajarishini doimo esda tutish zarur. Zero falsafa siyosiy amaliyot bilan ayni shu vazifasi vositasida bog'lanadi. Ya'ni mafkura siyosiy amaliyotning nazariy asosi, uning teran tafakkuridir. Shu ma'noda bizda shakllanadigan yangicha falsafiy dunyoqarashning mazkur funksiyasi bilan totalitar sotsializm mafkurasi orasida keskin farq bo'lishi tabiiy. Zero totalitar sotsializm mafkurasi aslida mafkura emas edi, to'g'rirog'i avvalgi davrida shunday vazifani bajargan esada, keyinchalik faqat siyosatning «soyasi» ga, uning madxiyaboziga aylanib, aynib ketgan edi. Bugungi kun mafkurasidan esa siyosiy amaliyotning fikriy negizi bo'lish talab qilinmoqdaki, ushbu talab mafkuraning asl vazifasiga muvofiqdir. Ushbu vazifaning amal qilishini yo'lga qo'ymoq falsafani siyosiy amaliyot bilan bevosita bog'lanishini xamisha ko'rsatib turishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi:* <https://president.uz/oz/lists/view/5774>.
2. A.Egamberdiyev .*O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi transformasiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: Avtoref. Fal.fan.dok (DSc). Namangan, 2022 –5b.*
3. Shermuxamedova N. *Falsafani o'qitish metodikasi.* –T.:Noshir, 2015.-31b.

4. Shermuxamedova N. *Falsafani o'qitish metodikasi (Elektron darslik)*. O'zMU. 2012.-17b.
5. Qahhorova Sh. *Falsafaga kirish*. –T.: Universitet, 2005.-56b.
6. Emirova Ye. *Metodika prepodavanii filosofii*. O'zMU.2008.-73b.
7. Qahhorova Sh. B. *Falsafani o'qitish metodikasi*. T. Universitet. 2006.-56b.
8. Qaxxarova, M. (2021). *Social-spiritual environment of society and spiritual ideal*. *Oriental Journal of Social Sciences*, 32 p.

SOG'LOM OILA- SOG'LOM TARBIYA TA'LIMNING BARCHA BO'G'INLARIDA TA'LIMYIY IMKONIYATLAR MANBAI

Narzieva Mastura,

*Buxoro viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus,
ta'lim" kafedrasining mudiri*

Annotatsiya: Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota – onalar bolaning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidirlar. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo'lga qo'yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish hamda sulola an'analari davom ettirish masalalariga alohida e'tibor berib kelingan.

Kalit so'zlar: Oila, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim.

Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bagrikenglik, ajdodlarimiz merosida mexr, yuksak ma'naviyat egasi bulish xamda boshka millatlarga nisbatan xurmat bilan karaydigan, tinchlik va barkarorlikni asrab-avaylab, qadriga yetadigan, xar xil taxdidlarga karshi o'z mustaqil fikriga ega , insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda o'zaro chambarchas bog'lik uch omil - oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Ular orasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish jamiyatning birinchi kichik bo'g'ini oilalarda sog'lom oila mug'itini oqilona shakllantirish, ularda yuz berayotgan turli mojaro, nizo, ajrimlar va bolalar tarbiyasidagi illatlarning

oldini olishga, bugungi kunning yetuk yoshlarini tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota – onalar bolaning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidirlar.

Oila ijtimoiy jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida muayyan xalq, millat yoki elatning milliy xususiyatlari, shuningdek, mavjud tuzum mazmunini o'zida namoyon etadi. Oilalarning mustahkam bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka erishuvi u mansub bo'lgan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma'naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosat mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo'lga qo'yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish hamda sulola an'analarini davom ettirish masalalariga alohida e'tibor berib kelingan.

Darhaqiqat, oila muhitida shaxsning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur bo'lgan omillar, chunonchi, oila xo'jaligini boshqarish jarayonida oila a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va hokazo mazmundagi oilaviy munosabat, muomala aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya'ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustaqil harakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjuddir. Shu bois O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida, ijtimoiy jamiyatda yangilanish, keskin o'zgarishlar yuz berayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy raqobat qaror topayotgan o'tish davrida sog'lom oilalarni shakllantirish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota – onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy va undan tashkaridagi hayotning tashkil etilishidagi ijtimoiy psixologik xodisalardan iborat. Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik va psixologik hususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilarda uz ifodasini topishi mumkin:

- Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalarning zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart.

- Ota – onalar farzandlariga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi.

- Ko'pgina ota – onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la xis qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik va psixologik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan, oilaviy tarbiya, avvalo, ota – onalarning o'zlarini – o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir obyekti va subektidir.

Oila hayotini to'g'ri tashkil etish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Chunki, xar bir xodisa, vaziyat, narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy turlicha xulq – atvor xususiyatlari paydo bo'ladi. Ota – onalarning xatti – harakatini bolalar uzluksiz ixtiyoriy, ixtiyorsiz, bevosita va bilvosita kuzatib turadi.

Har bir ota – ona farzandini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham mafaatdordir. Ota – onaning fuqarolik burchi ham shuni taqazo etadi.

Ota – ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashi, shubxasizdir. Ularning oqilona o'g'itlari, pand – nasihatlarining hyech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahillik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom ahloqiy muhit, ijobiy psixologik iklim muhim amamiyatga ega.

Oilada bolalarni sevish, ularni shahsiyatini hurmat qilish va hyech qachon ularni izzat – nafsiga tegmaslik zarur. Noo'rin jazolash usuli bola naftratini kuchaytiradi. Har qanday xaddan tashkari g'amho'rlik yoki talabchanlik xam salbiy samara beradi.

Bola tarbiyasida ota – onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni – qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini xisobga olish, bolani axloqiy jixatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

“Nima eksang- shuni olasan” kabi xalq iborasi oddiylikiga qaramasdan o‘z ichiga ilmiy dalillarni olgan holda inson hayoti davomida oila sharoitida, o‘zlariga tanish bo‘lgan kishilar bilan o‘zaro munosabatlarida egallagan xulq namunalari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

“Bola-ota-ona” munosabati tizimidagi hayotning mazmun-mohiyati kattalarning maqsadga qaratilgan va savodli o‘zaro hamkorlikda jarayonlarni tashkil etishiga, ya‘ni ularning psixologik va pedagogik jihatidan mutanosibligiga bog‘liq. Bu mavzuda maqtovgga sazovor ishlarni hamma oilaga ham taalluqli deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ota-onalarga bolalar ta‘lim- tarbiyasiga oid masalalarda yordam berish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday ishlarning samaradorligini ta‘minlovchi omillardan biri bu oila va ta‘lim tarbiya muassaasining o‘zaro hamkorlikda olib boriladigan ishlaridir. Birinchi navbatda diqqatni pedagog va ota-onaning o‘zaro muloqotiga asoslangan holda oilaning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarining ustunligini tan olishlikka qaratish lozim. Ota-onalarga qo‘yiladigan talablarning yo‘nalishini o‘zgartirish, ya‘ni: ota-onalarning pedagogik tajribasini va qiziqishlarini rad etishdan-hamkorlikka va sherikchilikka indamaslikdan-maqsad, vazifalarni qo‘yishda, xulosalar chiqarish va uni qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Ota – onalarning kamol topib borayotgan bolaga ko‘rsatadigan ta‘sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta‘sir etishiing asosi ularning bolaga nisbatan beg‘araz muhabbati, uning vaqtida talabchanlik bilan qo‘shib olib boriladigan g‘amxo‘rligidir. Mehr-muhabbat har qanday yahshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir.

Bolani yoshligidan boshlab oilaviy odob – ahloq qoidalariga odatlantirish, yaxshi xulq – atvorli bo‘lishga o‘rgatish ota – ona uchun ham qarz, ham farzdir. Ota – onaning jamiyatda tutgan o‘rni, nufuzi farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu narsa mansab bilan belgilanmaydi. Eng yahshi obro‘ va e‘tibor halol mehnatdir. Halol mehnat bilan jamiyatda orttirilgan obro‘ oilada farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir qiladi. Farzand ham ota – onalaridek bo‘lishga intiladi.

O‘zbek oilalarida bolalarning jamiyatning munosib farzandlari etib tarbiyalash bo‘yicha ijobiy tajribalar to‘plangan. Lekin kichkintoylar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yadigan oilalar ham uchrab turadi. Bu esa bolaning kelgusidagi kamolatiga salbiy ta‘sir etadi va ularni qayta tarbiyalashdek murakkab muammolarni keltirib chiqaradi.

Sog‘lom oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlar, xususan, qizlarni oila qurish, mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish,

oilada sogʻlom ruhiy muhitni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini samarali tashkil etish jarayoniga muvaffaqiyatli tayyorlashdir. Mazkur jarayonning mohiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

birinchidan, yoshlarda nikoh hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins oʻrtasidagi munosabatlar mohiyati borasida toʻgʻri tushunchalar hosil boʻladi;

ikkinchidan, ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga ruhiy jihatdan tayyorlaydi;

uchinchidan, yoshlarda nikohga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish (oila aʼzolari oʻrtasida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, oila aʼzolari (qaynota, qaynona, qaynsingil va qaynogʻalar) bilan muloqotni yoʻlga qoʻyish, oila xoʻjaligini boshqarish, pazandalik hamda bichish - tikish ishlarini yuritish, biologik qovushish, farzandlar tarbiyasini olib borish va hokazo jarayonlarni tashkil etish borasida amaliy koʻnikma hamda malakalarni shakllantiradi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda esa oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ota-onalarning oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida toʻla maʼlumotga ega emasliklari.

Milliy etnopsixologik xususiyat (Ota-onalarning oʻz farzandlari bilan maʼlum masalalarda ochiq oydin muloqotda boʻla olmasliklari, ichki kechinmalarini atrofdagilarga oshkor qilavermaslik lozimligi, oilani moddiy jihatdan taʼminlash erkak kishining burchlaridan biri ekanligi, farzandlar tarbiyasi uchun masʼullik keksa avlod zimmasiga yuklangan asosiy vazifalardan biri ekanligi borasidagi qarashlar, shuningdek, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yanga (kelin oyi) lari, yigitning oshnalari zimmasiga yuklash anʼanalarining mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, chunonchi, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini toʻla tushunmasliklariga sabab boʻlmoqda.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil jilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni oʻrganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sog'lom oilani shakllantirishda er, xotinlik, qaynona, kelinlik, ota ona va bolalar munosabatlarini yaxshilash, barcha turdagi nizolarni oldini olish, oilada qizlarni mustaqil hayotga to'g'ri va oqilona tayyorlash oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish oila sog'lom oila muammuosining ijobiy yechimga ega bo'lishini kafolatlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdurahimova F.Yu. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati: 13.00.01. – T.: O'zPFITI, 2007. – 23 b.*

2. *Akramova F.A., Abdullayeva R.M. "Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari", Risola. T., Respublika "Oila" ilmiy markazi. 2002, 28 b.*

3. *Akramova F.A., Abdullayeva R.M. "Oilaviy hayotga doir tavsiyalar". Risola. T., Respublika "Oila" ilmiy markazi. 2002, 40 b*

4. *Arabayeva D.K. Sharq olimlarining oila va ayollar xususida qarashlari. O'zbekistonda amaliy psixologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.1-tom. 27 sentyabr 2008. Toshkent.: 2008.212 b.B.36-38.*

SHAXS IJTIMOYIY QARASHLARINING SHAKLLANISHI JARAYONIDA IJTIMOYIY MENTALITET VA TARBIYA MUTANOSIBLIGI

Mahsudjonov Otabek Zokirjon o'g'li

*Namagan davlat chet tillari instituti tuzulmasidagi
Is'hoqxon Ibrat qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori*

Annotasiya. *Maqolada ijtimoiy ongning murakkab elementlarini o'rganish va ular shaxsiy va guruhiiy darajalarda qaysi qonuniyatlarga muvofiq amal qilishi haqida tasavvur hosil qilish uchun ularning tuzilishini ko'rib chiqilgan. Falsafa fanida bo'lganidek, siyosat falsafasida ham ongni tahlil qilishda elementlarning ikki guruhini – motivasiya va bilish bilan bog'liq elementlarni farqlash odat tusini olgan.*

Kalit so'zlar. *shaxs, mentalitet, ijtimoiy faoliyat, xulq-atvor, ijtimoiy ong.*

Ijtimoiy ongning motivasiya bilan bog'liq elementlarini ularning biri – mo'ljal misolida ko'rib chiqamiz. Mo'ljal subyektning o'ziga xos holati bo'lib, u subyektning muayyan vaziyatdagi muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakatni bajarishga tayyorligini tavsiflaydi. Mo'ljal harakatdan oldin keladi va uning dastlabki bosqichi, harakatga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Mo'ljal D.N.Uznadze fikricha, bir tomondan, vaziyat bilan, boshqa tomondan esa – ehtiyoj bilan uzviy bog'liq[1]. Bu qoida mo'ljalni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan tashqi omillarni va shaxs eqtiyojlari bilan belgilanadigan ichki omillarni belgilovchi oraliq o'zgaruvchi sifatida tushunishga asoslanadi. Mo'ljal inson xulq-atvori va ongining motivasion mexanizmlaridan o'rin olganining sababi shu bilan belgilanadiki, birinchidan, u faoliyatni muayyan ob'yektga yo'naltirish uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, ehtiyojlar va motivlarning nisbatan barqaror shaklini ta'minlaydi. G.G.Diligenskiy fikriga ko'ra, mo'ljallar tufayli subyekt ehtiyojlari va ularni qondirish usullari nimadan iborat ekanligini muntazam ravishda aniqlashiga hojat qolmaydi: ular mo'ljallarda qayd etilgan bo'ladi[2].

Ijtimoiy faoliyatda mo'ljal inson yoki guruh xulq-atvorini tartibga soluvchi omil hisoblanadi. U hokimiyatga, davlatga nisbatan shaxsning ijobiy yoki salbiy munosabatini shakllantiradi. Odatda tadqiqotchilarni va ularning buyurtmachilarini aniq mo'ljallar, chunonchi: siyosiy tizimga, umuman tuzumga, muayyan siyosiy institutlarga, siyosiy liderlarga va hatto u yoki bu siyosiy qarorlar yoki ijtimoiy voqealarga mo'ljallar qiziqtiradi.

Agar siyosatshunos aholi u yoki bu guruhining, aytaylik, saylovdagi ehtimol tutilgan harakatlarini tasavvur qilishi lozim bo'lsa, u mazkur saylov arafasida tegishli ijtimoiy mo'ljallarni o'rganadi. Bunday taomil zamirida har qanday siyosiy harakat insonda unga nisbatan muayyan (ijobiy yoki salbiy) mo'ljal vujudga kelgan taqdirdagina yuz berishi mumkin, degan faraz yotadi.

Falsafiy tadqiqotlarda mo'ljal tuzilishida uch element: kognitiv, emosional va xulq-atvorga oid elementlarni farqlash odat tusini olgan. Bu elementlarning har biri "subyekt faolligini tartibga soluvchi nisbatan mustaqil kichik tizimlarni" tashkil etadi.

Mo'ljalning kognitiv elementi shaxsda dastlabki bilimlar, ijtimoiy hayotga, siyosatga qiziqish mavjudligini nazarda tutadi. Mazkur elementning mavjudligi shaxs o'zi biladigan uning e'tibori qaratilgan partiyalar, siyosatchilar va jarayonlar haqidagi axborotning saralanishini tushuntiradi. Ijtimoiy ob'yektga emosional munosabat (yoqadi – yoqmaydi,

yoqimli – yoqimsiz, ishonadi – ishonmaydi), odatda, u haqidagi axborotni tanqidiy idrok etishdan oldin vujudga keladi. Mazkur elementsiz irqiy andozalar, diniy va milliy sabr- toqatsizlik hollari bu darajada ulkan ahamiyat kasb etmagan bo‘lar edi. Nihoyat, mo‘ljalning xulq-atvorga oid elementi harakatga, chunonchi: ovoz berishda qatnashish, namoyish yoki mitingda ishtirok etish, partiyaga a‘zo bo‘lish yoki terrorchilik harakatida ishtirok etishga tayyorlikni anglatadi.

Fuqarolarning ijtimoiy ongi ancha ziddiyatli xususiyat kasb etadi. Birinchidan, ularning tasavvurlari ba‘zan o‘zaro muvofiq kelmaydi. Bu fenomen ba‘zan barqaror jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ammo keng ko‘lamli siyosiy inqiroz sharoitida shaxs darajasida ijtimoiy ongning ziddiyatliliigi ayniqsa yuksak darajaga ko‘tariladi va shaxsning ikkilanishiga yaqinlashadi. O‘z tadqiqotimiz doirasida biz eski avtoritar va yangicha demokratik qarashlarning yonma-yon mavjudligigagina emas, balki ayrim mo‘ljallar yoki liderlarni oqilona ma‘qullash bilan qarama-qarshi mo‘ljallar yoki liderlarga emosional simpatiya o‘rtasidagi ziddiyatga ham duch keldik.

Ijtimoiy mo‘ljallar tadqiqotchilar va amaliyotchilarda qiziqish uyg‘otayotgani shu bilan belgilanadiki, ularni qarorlar qabul qiluvchilar va qarorlarni bajaruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa vositasi sifatida hisobga olish zaruriyati paydo bo‘ldi. Mo‘ljallar bir-biridan, eng avvalo, ular shaxsda qay darajada rivojlangani bilan farq qiladi.

Fikr tarzidagi ijtimoiy mo‘ljallarga bag‘ishlangan tadqiqotlar ayniqsa keng tarqalgan. Fikrlar ijtimoiy mo‘ljalning beqarorlik bilan ajralib turadigan turlaridan biridir. Fikrlar, avvalo, ongning yuzaki, verbal qatlamini aks ettiradi va teranroq shaxsiy tuzilmalarga doim ham muvofiq kelavermaydi.

Mo‘ljalning boshqa bir turi – umumiy munosabat shakliga ega bo‘lib u barqaror tizimlarda amal qiladi. Mo‘ljalning uchinchi turi – e‘tiqodlar sifatida shaxsning ijtimoiy ruhiy holatini aks ettiradi. Liderlarni o‘rganuvchi siyosatchilar ularning ko‘p sonli e‘tiqodlari orasida odamlar va institutlarga ishonchsizlikning mavjudligiga alohida e‘tiborni qaratadilar. E‘tiqodlarning bu ikki turi avtoritarizmning nazariy asosini tashkil etadi. Yana bir muhim e‘tiqod siyosatchining voqealar o‘z nazorati ostida ekanligiga bo‘lgan ishonchidir. J.Rotter testi yordamida individning subyektiv nazorati darajasi aniqlanadi. Bu test inson o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarida o‘z-o‘zini yoki taqdiri, vaziyat taqozosini va hokazolarni ayblashini aniqlash imkoniyatini beradi. Bizning ma‘lumotlarimizga ko‘ra siyosatchilar boshqa fuqarolardan subyektiv nazorat darajasi ularda o‘rtacha fuqaronikidan

yuqori ekanligi bilan farq qiladi. Siyosatchida demokratik mo'ljallar mazkur ko'rsatkichning yuksak darajasi bilan bog'lanishini tasdiqlovchi dalillar ham mavjud.

Ijtimoiy ongning motivasion elementlari to'g'risida so'z yuritganda, yana shuni ham qayd etib o'tishni istar edikki, mo'ljallar siyosiy muhitning tashqi omillarini belgilovchi shaxs ichki mexanizmlarining harakatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ongning mazkur tuzilmalari shu bilan tavsiflanadiki, ular siyosiy jarayonlar va hodisalarni idrok etish dinamikasini belgilaydigan emosiyalardan iboratdir.

Ijtimoiy falsafa ongning boshqa bir tomoni – bilishni ham farqlaydi. Empirik tadqiqotlarda uning ko'rsatkichlari sifatida shaxsning siyosatga bo'lgan qiziqishi, uning xabardorlik darajasi, siyosiy voqealar va liderlar haqidagi bilimlari va nihoyat, uning tasavvurlari muayyan mafkuraviy sxemaga solinganligi amal qiladi.

Hozirgi ijtimoiy falsafada odatdagi siyosiy tizimlar bilan taqqoslaganda fuqaroning siyosatga bo'lgan qiziqishi ancha kuchaygani kuzatiladi. Buni so'nggi o'n yilliklarda turli mamlakatlarda olingan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, GFRda 80-90-yillar mobaynida siyosat bilan qiziquvchi shaxslar ulushi 22 foizdan 49 foizgacha o'sgan, siyosatga umuman qiziqmaydiganlar ulushi esa 39 foizdan 9 foizgacha kamaygan. Fransiyada 1999-2019 yillarda siyosat bilan qiziquvchilar ulushi uch baravar o'sgan. Italiyada siyosiy voqealarni faol kuzatib boradigan shaxslar soni 1988-2018 yillarda 24 foizdan 48 foizgacha o'sgan. G'arbiy Yevropada 1991 yilda so'rovdan o'tkazilganlarning taxminan 40% siyosatga qiziqishini bildirgan. Yana bir karra ta'kidlaymiz: bu yerda gap demokratiya an'analari rivojlangan barqaror siyosiy tizimlarga xos bo'lgan tendensiya haqida bormoqda.

Sobiq Ittifoq hududidagi siyosiy jarayon uzoq muddatli kontekstda avtoritar siyosiy madaniyat unsurlari mavjud bo'lgan mamlakatlarga xos tarzda namoyon bo'ladi. Sho'ro davrida aholining siyosatda ishtirok etish darajasi yuqori (boshma-bosh ovoz berish) bo'lsa-da, siyosatga qiziqish uncha kuchli bo'lmagan. Qayta qurishning dastlabki yillarida 1991 yilga qadar ommaviy siyosatga qiziqish behad kuchaygan va shu bilan bir vaqtda siyosiy harakatlarning odatdagi shakllarida ishtirok etuvchilar soni kamaygan, uning noan'anaviy shakllari esa ko'paygan.

O'zbekiston respublikasida 2009 va 2019 yillardagi tadqiqotlarda qayd etilgan siyosiy qiziqish dinamikasiga binoan, siyosatga juda qiziquvchilar soni keyingi yillar ichida ko'paygan.

Xabardorlik va siyosatga qiziqishdan tashqari, ijtimoiy ongning bilishga doir jihatida yana ikki muhim elementni qayd etish lozim. Bu yerda gap kognitiv uslub va operatsional kod haqida bormoqda. Kognitiv uslub – fikrlash uslubini tavsiflovchi atama. Kognitiv uslub tavsiflari orasida faylasuflar mazmun jihatidan murakkablik yoki soddalikni, sherikka ishonch yoki ishonchsizlikni, instrumental aksent («ish»ga qarab mo'ljall olish)ni farqlaydilar. Ayrim kishilarga siyosatni oq-qora tusda idrok etish xos bo'lsa, ayrimlarga uni teran idrok etish, siyosiy nuqtai nazarlar tuslarining rang-barangligi xosdir. Kognitiv uslubning birinchi tipi – integrativ murakkablik darajasi past bo'lgan tafakkur uslubi odatda moslashuvchan bo'lmagan, aqidaparast, yangilikni idrok etmaydigan kishilarga xosdir. Ayrim tadqiqotchilar mazkur kognitiv uslubning muayyan siyosiy mo'ljallar bilan aloqasini aniqlaganlar. Chunonchi, integrativ murakkablik darajasi past bo'lgan tafakkur uslubi konservativ siyosatchilar va ularning tarafdorlarida liberal siyosatchilar va ularning tarafdorlariga qaraganda ko'proq uchrashi isbotlangan. Hokimiyat obrazlariga bag'ishlangan tadqiqotda so'rov ishtirokchilarining hokimiyat xususidagi tasavvurlari respondentlarning yarmidan ko'prog'ida avvalgi bosqichlarda ham, hozir ham kognitiv jihatdan murakkab ekanligi aniqlangan.

Xullas, siyosiy ong tuzilishi haqida bayon etilgan fikr-mulohazalarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, u o'z tarkibiga ko'ra mutanosib emas. Unda ayrim elementlar yetuk va raso, ayrimlari esa yetilish bosqichida bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ongning kamol topish jarayoni o'z yo'lida subyektiv va ob'yektiv to'siqlarga duch keladi. Yaqin o'tmishda siyosat fuqarolar ongida aniq aks etishiga eng avvalo mafkuraviy qoliplar to'sqinlik qilgan. Hozir esa, aksincha, aksariyat olimlar jamiyatda muayyan insonga dunyoning o'z siyosiy manzarasini milliy manzara bilan "taqqoslash"ga yordam beradigan barqaror mafkuraviy sxemalarning borligida deb biladilar. Ularning fikricha, mazkur sxemalar inson dunyoda mo'ljall olishini yengillashtiradi.

Yuqorida biz shaxs ijtimoiy ongi to'g'risida so'z yuritdik va u qanday shakllanishini asosan chetlab o'tdik. Holbuki, ijtimoiy-siyosiy fikrlash uslublaridagi, ijtimoiy-siyosiy tizimni aks ettirish tiplaridagi farqlar siyosiy ijtimoiylashuv xususiyatida o'z ildizlariga ega. Vazifasi tarbiya bilan shug'ullanishdan iborat bo'lgan barcha institutlar, odatda, o'z kuch-g'ayratini tizimning shaxsga ta'sirini takomillashtirishga qaratadilar. Zero A.Mamanov ta'kidlaganidek "Insonning baxtililigining eng muhim sharti nafaqat uni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirilgan holati, balki unda

qoʻrquvsiz erkin yashash hissining mavjudligidir”[1]. Ammo, oʻz ichki qonunlari, yosh va boshqa xususiyatlariga ega boʻlgan shaxs bu taʼsirlarni doim ham oʻz-oʻzidan qabul qilavermasligini koʻrmaslik ham mumkin emas. Shaxs kamol topishining turli bosqichlarida uning jamiyat hayotini, siyosiy-ijtimoiy axborotni tahlil qilish imkoniyatlarini hisobga olish juda muhimdir.

Falsafa fanining inson tafakkuri genezisi haqidagi maʼlumotlari ijtimoiy-siyosiy tafakkur va ong yetilishi tahlilining nazariy poydevori boʻlib xizmat qiladi. Siyosat falsafasi va ijtimoiy hayot sohasidagi tadqiqotlar mazkur yoʻnalishining asoslaridan biri bola tafakkuri yetilishining va u kattalar tafakkuridan butunlay farq qilishining oʻz sxemasini taklif qilgan shveysariyalik atoqli psixolog Jan Piaje asarlaridir.

J.Piaje fikriga koʻra, nutqiy tafakkurning shakllanishi bola hayotining ikkinchi yilida boshlanadi. Bu yoshda bolaning harakatlari ilk bor fikr tarzida aks ettiriladi. Shu yoshdan boshlab taxminan yetti yoshgacha bola fikrlashning ilk operasional bosqichidan oʻtadi. Uni Piaje “egosentrizm” bosqichi sifatida tavsiflaydi (keyinchalik olim uni “syentrizm” bosqichi deb nomlagan). Ushbu bosqichga “men” nuqtai nazaridan fikrlash, tushunchalardan emas, balki obrazlardan foydalanish, asosiy eʼtiborni hozirgi davrga qaratish xos.

7 yoshda konkret operasiyalar bosqichiga oʻtish yuz beradi. Bola tafakkurida “desentrizm” jarayonlari yuz beradi, u bevosita idrok etishlar va yanglish tasavvurlardan xoli boʻla boshlaydi. Bola turli xil nuqtai nazarlar mavjudligini tushuna boshlaydi, egosentrizm oʻrnini sosiosentrizm egallaydi. 11 yoshdan keyin bola tafakkuri yangi bosqichga – formal operasiyalar bosqichiga oʻtadi. Bu bosqich 15 yoshga borib asosan tugaydi va deduktiv mushohada yuritish, gipotezalar tuzishga qodir boʻlgan “raso aql”ni tavsiflaydi[1].

J.Piajening bola tafakkuri yetilishining bosqichlari haqidagi tasavvurlarini oʻz siyosiy syujetlariga, yaʼni bolalar va oʻsmirlarning qonunlar, fuqarolarning individual huquqlari va shu kabilar haqidagi tasavvurlariga tatbiqan rivojlantirdi. Bu ishni birinchilardan boʻlib amerikalik J.Adelson boshladi. Uning tadqiqot guruhi GFR, Angliya va AQSHda 11 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlarning ijtimoiy-siyosiy tafakkuridagi oʻzgarishlarni oʻrgandi.

Sharqda shaxs tarbiyasi masalalari bilan shugʻullangan mutafakkirlar: Abu Nasr Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida risola», «Fazilatli xulklar», «Fozil odamlar shahri», Abu Ali Ibn Sino «Axloq haqida risola», «Burch hakida risola», «Nafsni pokiza tutish», «Badanni boshkarish», «Adolat hakida kitob», Imom Gʻazzoliy «Diniy ilmlarning tiriltirilishi», Yusuf Xos Xojib «Qutadgʻu bilig», Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarlarida

shaxs ijtimoiy ongining shakllanish masalasini atroflicha yoritib berganlar. Shaxs ijtimoiy ongining shakllanish jarayoni uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, bir qancha omillar: ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi, bolaning psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uning jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim va qadriyatlar tizimini samarali o'zlashtirishi asosida, ijtimoiy hayotga moslashishi, ko'nikishi jarayonidir.

Mana shunday bir vaqtda biz kelajagimiz poydevori hisoblangan yoshlarimizni turli xildagi salbiy illatlardan asrashimiz, ularda vatanparvarlik, mehr-oqibat, saxiylik, samimiylik, kamtarinlik kabi xislatlarning mustahkam tarzda shakllanib borishiga erishishimiz lozim.

Bizning fikrimizcha, siyosiy tizim yaratishi lozim bo'lgan ustuvor mafkura tizimi vazifasini bajarishga maktab o'qituvchisining qurbi yetmaydi. U tayyor mafkuradan foydalanishga odatlangan. Ammo o'z o'quvchilari bilan yuzmayuz qolganda, o'qituvchi ularning savollaridan hech qayoqqa qochib qutulolmaydi va ularning ko'z o'ngida obro'li shaxs bo'lib qolishni istasa, og'ir siyosiy savollarning barchasiga javobni mustaqil izlashga majbur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Узнадзе Д.Н. Экспериментальные основы психологии установки. // Психологические исследования. - Москва: Наука, 1966. - С.158.
2. Дилигенский Г.Г. Социально политическая психология. - Москва: Новая школа, 1996. - С.56.
3. Маманов А. Миллий менталитет: хусусиятлар ва омиллар. - Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 2015.- Б.152.
4. Пиаже Ж. Когнитивное развитие ребенка. <https://www.psychologos.ru>

YOSHLAR ONGIGA MODDIY MADANIYATIMIZ - MILLIY CHOLG'ULAR MEROSINI SINGDIRISH.

Karimova Mavlyuda Madaminovna,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Musiqiy cholg'ular moddiy madaniyat maxsuloti hisoblanib, ma'naviy madaniy madaniyatga ham aloqadordir. Cholg'ularning tizilishi, ularning imkoniyatlari musiqiy tafakkur qonuniyatlarini hamda ma'lum darajada jamiyat rivojining muayyan bosqichda qaror topgan estetik didni ham aks ettiradi. Shuni nazarda tutish kerakki musiqiy cholg'ular yoki ularning

madaniy yodgorliklarda saqlanib qolgan tasvirlari jamiyatning musiqiy hayoti haqidagi ma'lumotlarning yagona manbai hisoblanadi. Shu jihatdan musiqiy cholg'udan uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan turli afsona va rivoyatlar ham tariximizning musiqiy olami manzarasini chizib beradi.

***Kalit so'zlar:** mifologiya, totemizm, matriarxat, miniatyura, maqom, shashmaqom, pardalar, dup (tut), nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qonun.*

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi”.

Sh.Mirziyoyev.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'anasiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsallariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'mat'ari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim” [1].

Inson paydo bo'lishi bilan uning tili, urf-odatlarini, an'analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlarini vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, turmush tarzi, o'y-xayollari aks etgan. Qadriyat atamasi arabcha “qadr” so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali degan ma'noni anglatadi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma'naviy omillar yig'indisidir.

Jamiyatga va o'ziga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishda muhim omil – bilim egallashdir. Bilimsizlik – kishilarni nodonlikka olib keladi.

Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida doimo og'oh va sergak bo'lish, hamda milliy kadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish bizning burchimizdir.

Barchamizga ayonki, kuy – qoshiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Musiqiy cholg'ular xalqimizda qadim-qadimdan merosdir. Ular ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, har biri o'ziga xosdir.

Musiqiy cholg'ularning kelib chiqishini o'rganishda O'rta va Yaqin Sharq musiqiy olami mifologiyasiga tegishli totemizmga e'tibor qaratish joiz. Totemizm iptidoiy jamoa tizimining qadimgi davrida, matriarxat hukmronligida yuzaga kelgan bo'lib, uning ilk tasavvurlari farishtalar, devu - jinlar, hayvonlar va o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu davrga oid

afsonalarda rivoyat qilinishicha, kunlardan bir kun, bir olim yo'lda ketayotib, dam olish uchun bir dataxt tagiga o'tiribdi. U shoxdan- shohga sakrab yurgan maymunni ko'ribdi. Birdan maymun o'tkir shoxga ilinib, qorni yorilib ketibdi va ichaklari ikkita shox orasiga tortilib qolibdi. Biroz vaqt o'tgach, bu ichaklar quribdi, shamol esib, undan yurakni maftun etuvchi tovush taralibdi. Olim bu ichaklarni olib, qiyshiq taxtaga tortib qo'ygani ekan, undan yana ham go'zal tovushlar taralibdi. So'ngra u bir necha tor yasab, taxta ostiga qovoq o'rnatibdi. Va natijada musiqiy cholg'u asbobi paydo bo'libdi. Bundan keyin olimlar bu asbobni qonun va rebab cholg'ulari yasalgunga qadar turlicha takomillashtirilgan [2].

Yana shunga o'xshash rivoyatlardan birida hikoya qilinishida, tanbur, dutor, nay, g'ijjak cholg'ulari to'rtta farishta, ya'ni elchi farishta Jabroil, olamni harakatlantiruvchi farishta Mikoil oxiratta karnay chaluvchi bo'ron farishtasi Isrofil, Jon oluvchi farishta Azroillarning jonni Odam Ato tanasiga kiritishdagi sa'yi – harakatlari tufayli vujudga kelgandir. Sozanda va mehtarlik risolalarida qayd etilishicha, ular jannatdan "Dup", ya'ni tut yog'ochini olib chiqib cholg'ularni yasagan ekanlar [3].

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, musiqiy cholg'ularning kelib chiqishi qadim-qadim davrlarga borib taqaladi, ular insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlaridan o'tib, takomillashib bordi va o'rta asrlarga kelib ilk bora al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvishali Changiy singari mutaffakirlarning risolalarida ilmiy jihatdan o'z ifodasini topdi. O'rta asr olimlarining musiqiy cholg'ularining yaratilishi, sozlarning texnologik tuzilishi va qo'llanishi haqidagi ma'lumotlari nihoyatda qimmatli hisoblanib, cholg'ularning kelib chiqishidan boshlab, to bugungi kunga qadar boshdan kechirgan taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi.

Umuman olganda, o'rta asrlarga oid tarixiy materiallar musiqiy cholg'ularning mavjudlik manzarasini to'la qonli aks ettiradi. Bunda ilm ahli (Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvishali Changiy) musiqiy cholg'ularni nazariy tomonlama ta'riflagan bo'lsa, adabiyot va san'at ahli (Navoiy, Firdavsiy, Bobur) esa ularning amaliy tadbiqu, hayotdagi o'rnidan hikoya qiladi.

O'rta asrlarda yaratilgan tasviriy miniatyuralarda ko'plab musiqiy cho'g'ular o'z aksini topgan. Bunda qo'lida soz tutgan cholg'uchilar ansamblari keng o'rin egallaydi. XV –XVII asr miniatyuralari va yozma manbalarini o'rgana turib, musiqiy hayot, turli yig'inlar va saroy qabullarida xilma-xil musiqiy cholg'ularning aks etganini kuzatish mumkin. Bu davrga kelib, O'rta Osiyo va Xurosonda cholg'u ijrochiligi madaniyati yuksak

darajaga erishgan. Aksariyat hollarda musiqachilar oddiy hunarmandlar orasidan chiqqan bo‘lib musiqachilik kasbi ularga yuqori tabaqaga kirish uchun yo‘l ochib bergan. Natijada, ud, nay, g‘ijjak, tanbur va qonun ijrochiligida yuqori darajaga erishgan hunarmand yoshlar ziyoli insonlarning she‘riy va musiqiy majlislarida qatnashish huquqini qo‘lga kiritganlar. Musiqani tushunish, uning xususida fikr yurita olish har qanday ma‘rifatli inson uchun majburiy hisoblangan. Yoshlar cholg‘u ijrochiligi bobida kim o‘zarga harakat qilar edilar. Bu davr she‘riyatini varaqlaganda turli xil musiqiy cholg‘ularning nomlarini uchratish mumkin. Bunda cholg‘ular yurakda ehtirosli muhabbat yoqa olish imkoniyatiga ega ekanligi aytiladiki, bu xususiyat o‘rta asrlarda nihoyatda qadrlangan.

Alisher Navoiy o‘z zamonasining cholg‘ularini shunday tafsiflaydi: Nay – “dard o‘tiga yel beradi”; G‘ijjak – “cho‘ziq nolalar chekib, yolvoradi”; Tanbur – “maftunkorlik bilan halok etadi, uning halovat pardasini chok etadi”; Chang – “sozlanib, bo‘g‘zini cho‘zadi”; Ud – “tilining ingrab yuborishi changnikidan ham ortadi”; Rubob – “boshini yerga qo‘yib iltimos qilganda”; Qonun – “nolasi quloqqa eshitaladi” [4].

Hazrat Navoiy musiqiy sozlarga shunday ta‘rif berar ekan har bir cholg‘uda inson qiyofasini ko‘radi, har bir cholg‘uning xususiyatini inson ruhiyati va tafakkuri bilan bog‘laydi, har bir cholg‘uni odamzod dunyosi bilan chambarchas bog‘laydi.

Umuman olganda, o‘rta asr mutafakkiriga xos bo‘lgan estetik dunyo qarashga mansub falsafiylik, mushohadaviylik, fikrga o‘ta nosik bo‘yoq berish xususiyati san‘at sohasida, xususan, musiqiy cholg‘ular sohasida yaqqol aks etadi.

O‘rta asrlarda musiqiy cholg‘ularga nisbatan bo‘lgan bunday ehtirom keying asrlarda ham an‘anaga aylanib, davom etaverdi. Tabiiyki keyingi o‘tgan vaqt ichida davr tafakkurining o‘zgarishi, mamlakatlararo aloqalarning ta‘siri, ilm-fan, madaniyat va san‘at sohalarining rivoji natijasi o‘laroq, musiqiy sozlar ham san‘at ustalari qo‘lida takomillashib, mukammallik darajasiga yetib bordi.

O‘zbek xalqi musiqa merosi qadimiy tarixga ega. Tarixiy manbalarining dalolat berishicha qadimiy Xorazm, Baqtriya, Sug‘d yerlarida eramizdan bir necha asr oldin, nihoyatda boy va rang-barang musiqa san‘ati mavjud bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda ko‘pgina olimlar yashab, musiqa nazariyasi va amaliyotini boyitib, o‘zlarining musiqa risolalariga, musiqa asboblari, ularning turlari haqida noyob, fikrlarini bildirganlar.

Bu borada Abu Nasr Muhammad al-Farobiy (871-950)ning “Kitabul – musiqiy al-Kabir” (“Musiqaga doir katta kitob”); “Kitabul - musiqiy” (Musiq kitobi); “Kilamu fil musiqiy” (“Musiqaning uslublari haqida kitob”);

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning “Risolatun fi – ilmil musiqiy” (“Musiq ilmi haqida risola”);

Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Al Kotib Al Xorazmiy (IX – X asr) ning “Mafotix ul-ulum” (Ilmlar kaliti) ensiklapediyasining musiq nazariyasiga bag‘ishlangan qismi hamda yana bir qancha olimlarning musiq risolalari alohida ahamiyat kasb etib, fikrimizning yaqqol dalili bola oladi.

Musiq nazariyasiga bag‘ishlab turli davrlarda yaratilgan bu risolalarda ayrim masalalar yuzasidan ba’zi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Sayfiddin Abdulmo‘min al – Urmaviy, al – Farobiyning ilmiy tadqiqotlariga suyanib musiq nazariyasi haqida ancha yangi fikrlar bildirdi.

Musiq nazariyasi so‘nggi davrlarda yashab ijod qilgan olimlar Al-Husayniy (XV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), va boshqalarning asarlarida yanada rivoj topgan.

Sharq olimlari o‘zlarining kitoblarida, dastlab musiqani falsafa fanlaridan biri deb hisoblanganlar, shu bilan birga, falsafa fanlarining biri sifatida o‘z asarlariga kiritganlar. So‘ngi davrlarda esa musiq ilmi matematika fanlarining biri sifatida ensiklapediya tarzida kitoblarga kiritilgan edi. Bu olimlarning musiq risolalarida maqom masalasi musiq nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. Bu davr o‘rta asr adabiyoti va san’ati tarixida ajoyib mo‘jizalar yaratdi va O‘rta Osiyo xalqlarining o‘ziga xos adabiyoti va san’atining turli sohalarida o‘lmas yodgorliklar qoldirdi. Bu davr – Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy kabi buyuk siymolarni yetkazib berdi.

XIV –XV asrlar O‘rta Osiyo xalqlari uchun madaniyatning gullagan davri bo‘ldi. Bu davrda bizga yaqin bo‘lgan davrdagi musiq asarlariga bog‘liq masalalar, ya’ni maqom masalalari ustida mulohaza yuritildi.

Maqomlarni yaratilishi juda qadim zamonlarga borib taqalsada, biz uning o‘n ikki maqom shaklida musiq risolalarida berilgan mulohazalariga suyanibgina sharxlay olamiz. Maqomlar asrlar o‘tishi bilan birlashtirilib XVIII asr o‘rtalariga kelib Shashmaqom shakllandi.

Maqomlar o‘z boshidan juda ko‘p zamonlarni kechirdi. Shu sababli Shashmaqomda O‘rta Osiyo xalqlari yashagan sharoit, tarixiy hodisalar o‘z izini qoldirdi.

Yuqorida keltirilgan qiyosiy misollar va dalillardan ma’lum bo‘lishicha, Shashmaqom o‘zbek-tojik xalqlari musiq merosining asosini tashkil etadi.

Shashmaqom cholg'ʻu, ashula bo'limidagi kuy va ashula yo'llarining tinglovchilarga to'liq etib borishi, ularga zavq va lazzat bag'ishlay olishi ularning yaxshi ijro etishiga bog'liq.

Yetakchi janr hisoblangan maqomlar musiqa tafakkurining eng yuksak ko'rinishlaridan biridir. Maqomlarni yuqori saviyada ijro etish puxta bilim, tajriba, alohida mahorat talab qiladi. Bu masalalarni chuqur idrok qilish uchun ham ma'lum darajada tayyorgarlik lozimdir.

O'zbek xalqi og'zaki an'anadagi professional musiqasi, shu jumladan, an'anaviy ijrochilik va xalq cholg'ʻu ijrochiligi ham ustozdan shogirdga og'zaki ravishda o'tib kelgan.

Dastlab o'zbek xalq va an'anadagi professional musiqasini nota yozuviga olishga V.A.Uspenskiy, N.M.Mironov, Y.Y.Romanovskayalar o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Keyinchalik bu yo'lni Boboqul Fayzullayev, Shoxnazar Soxibov, Fazliddin Shaxobov, Yunus Rajabiy, Ishoq Rajabiy hamda Fayzullo Karomatov singari davomchilari bo'lib o'zbek musiqa madaniyatini yangi bosqichga ko'tardilar. Natijada olti tomlik Shashmaqom kitobi 1966 yilda to'la-to'kis uchinchi marotaba nashr qilindi. O'zbekistonda maqomlarni to'plashda va notaga olishda akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari benihoya kattadir. Xususan, Yunus Rajabiy maqomlarining mukammal matnini tayyorlash maqsadida uzoq yillar davomida izlanishlar olib borib, pirovardida maqom nota yozuvlari qayta ishlanib, uni uch marta chop ettirdi. Shuningdek, Xorazm maqomlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Matniyoz Yusupov tomonidan notaga olindi.

“Ustoz -shogirdga” og'zaki tarzda meros bo'lib o'tib kelgan an'anaviy musiqa san'atimiz endilikda yosh sozanda-yu xonandalarga mutaxassis ijrochi bo'lib shakllanishlarida o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bunda nota yozuvlari, gramplastinka va magnit yozuvlar, hozirgi vaqtda kompakt disklar ko'makdosh vositalardir.

Ma'lumki, har bir cholg'ʻu sozida maqomlar yoki yirik shakldagi an'anaviy musiqa asarlarini ijro etish imkoniyatlari turlichadir. Ustozlarimiz har bir maqomning asosiy pardalariga e'tibor bergan holda notaga olganlar. Bunda tanbur sozining yetakchi bo'lganligi bizga ayon. Hozircha maqom cholg'ʻu va ashula yo'llarini o'rganishda biz asosan ustozlarimiz tomonidan yozilgan kitoblarga murojaat qilamiz. Endilikda har bir cholg'ʻu sozining imkoniyat darajasiga ahamiyat bergan holda alohida sozlarga (qashqar rubob, ud, dutor, qo'shnay, nay, chang va boshqa) moslashtirilgan kuy to'plamlarini, o'quv qo'llanmalarni, darsliklarni nashr qildirish mutaxassis

ijrochilar zimmasiga yuklatilgan. Har bir xalq o'zining milliy musiqiy merosini sevsa, ajdodlar an'anasini ardoqlasa, uni munosib tarzda o'zlashtirsa va qadriga yetsa, o'zga xalqlar san'atini ham baholay oladi. Bu borada xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan maqomlar, maqom yo'llariga mansub bo'lgan mumtoz musiqa asarlari o'zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularni o'rganish, tadbiiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va ehtiyojida bo'lgan dolzarb masalalardan biri.

Xulosa. O'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ularga boy bo'lib, qashqar rubob, tanbur, dutor, g'ijjak, nay, qo'shnay, sunray, chang, qonun, ud, doira va nog'ora kabi cholg'ular o'zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o'rin topgan. Chunki har bir cholg'u o'zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barchasi siru-sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami).*- T; "O'zbekiston", 1997. 198 bet.
2. *Ziya at-Din Naxshabiy. "Tuti name" To'tikush kitobi. Persid tilidan tarjima. E.E.Bertel'sa. M., 1982, 83 bet.*
3. *Matyoqubov B. "Xorazm dostonlarining musiqiy xususiyatlari". (Musiqia ijodiyoti masalalari). T., 1997, 31-32 bet.*
4. *A.Navoiy. Mahbub ul-qulb. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. 14-bet.*

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SHAXS TARBIYASI VA AJDODLAR MEROSI

Ubaydullaev Shuxrat Narzullaevich,
*p.f.n., dotsent Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri, Namangan davlat pedagogika instituti*

Annотatsiya: maqolada yani O'zbekiston sharoitida ta'limning o'ziga xos shakli, milliy tarbiyani tashkil etishda ajdodlar merosi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, milliylik, shaxs, dunyoqarash, faollik, jarayon, pozitsiya, ta'lim, asos.

Kirish Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda" [1], – degan so'zi yangradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda hayotimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini nechog'lik ahamiyatli ekanligini namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqilligimizning dastlabki davrlarida biz milliy o'zlikni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyatini tushunish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jiplashib "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish" g'oyasini sobit-qadamlilik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topib, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar mujassamligi e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har qanday davlatning poydevori, uning mustahkamligi, barqarorligi, kelajagi ana shu yurtda voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama ma'naviy – axloqiy jihatdan kamol topishiga bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, bu vazifani a'lo darajada bajarish davlatning olib borayotgan siyosati, barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarga bevosita bog'liqdir.

Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchi muallim" deb ulug'lanadigan Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zidan, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotganligini anglash mumkin [6].

Forobiy asarlarida ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinishi asoslab beriladi [2].

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o'qitishdan ko'ra jamoa, sinf tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: «O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar

birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar».

Ulug'bek darsliklar qanchalik mazmunli va tushunarli bo'lmasin, ta'lim jarayonida o'qituvchi asosiy o'rinda turishi, o'z pedagogik mahorati bilan namuna bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Demak, Ulug'bek o'z hayoti va ilmiy-pedagogik (mudarrislik) faoliyatida yetuk, bilimdon va yuksak mahoratli olim-ustoz sifatida ilmiy farazlarni emas, balki bu bilimlardan maqsad nima ekanini aniq anglab, o'z bilimlarini takomillashtirib borish, ularni hayotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berishdek bugungi zamonaviy ta'limdan farq etmaydigan mukammal amaliy ta'lim shaklini yaratadi [6].

Alisher Navoiyning asarlarida maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiya usullari, ta'lim olish tamoyillari, talabalarga bilim beradigan muallimlar, mudarris va ustozmurabbiylarning o'zlari bilimli, dono va tarbiyali, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarurligi g'oyasi ta'lim texnologiyasida yetakchi o'rinlarni egallagan [6].

Zahiriddin Muhammad Boburning ta'lim texnologiyasidagi bosh masala inson kamoloti uchun ilmning naqadar zarurligi hisoblanadi.

Ulug' mutafakkirmiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'kidlanganidek, "Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor inson bo'lib chiqar" – degan hikmatli fikrni yozib qoldirgan [4].

Dunyoga kelgan go'dak ma'lum yoshga hadar individ hisoblanadi. «Individ» lotincha «individium» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bo'linmas», «alohida», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni qiladi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi.

Shaxs sifati "individuallik" tushunchasi bilan to'ldiriladi. Individuallik deganda, bir kishining boshqasidan o'ziga xos xususiyatlari va farqlari tushuniladi. Individuallik, qoida tariqasida, mijozning o'ziga xos xususiyatlariga, uning ijtimoiy faolligiga va oqilona xatti-harakatlariga tegishlidir. Insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tasvirlash uchun "individual" tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak. "Individ" atamasi bitta, faqat, bitta odamni bildiradi. U insoniyatning alohida vakili sifatida talqin qilinadi. Ya'ni, har qanday aqli raso odam shaxs bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, shaxs hayot davomida rivojlanadi va shakllanadi. Rivojlanish - bu,

birinchi navbatda, shaxsning miqdor va sifat o'zgarishi jarayonidir. Inson tug'iladi va o'sadi, organizm organlari va tizimlari kengayadi, u so'zga, so'ngra so'z boyligiga ega bo'ladi. Har xil ijtimoiy xususiyatlar va axloqiy ko'nikmalarni, mehnat ko'nikmalarini egallaydi. Inson rivojlanayotgan haqiqiy hayotga muhit deyiladi. Shaxsning rivojlanishiga turli tashqi omillar, jumladan, geografik, ijtimoiy, ta'lim va oilaviy hayot ta'sir ko'rsatadi.

NATIJALAR

Butun dunyo hamjamiyati e'tirof etganidek, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilmiy fanga asos bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

“Ajdodlaring shuhratiga suyanma, o'zingga o'zing shuhrat top. Kimda kim obro'li qarindoshlariga nisbat berib, ularni vosita qilsa va hech narsa qilmay, faqat o'lgan ajdodlari bilan faxrlanib yursa, o'sha kishining o'zi o'lik va ajdodlari esa, tirik sanaladi”, deb aytgan edi mutafakkir Abu Rayhon Beruniy.

Shaxs – o'z pozitsiyasiga, dunyoqarashiga, o'z hayotiga nisbatan ongli munosabatga ega bo'lgan insondir, bunday inson o'z qiyofasiga ega bo'ladi. Shaxs uchun ong nafaqat tashqi olam haqida bilimlar hosil qiluvchi sifatida, balki munosabat sifatida ham fundamental ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hayotiy munosabatlarning ikkita asosiy turi mavjud: dunyoga bo'lgan ongli-axloqiy munosabat, bu insonning boshqa insonlarga va tabiatga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi hamda insonning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, bunda sub'ekt o'z hayotini ko'rib chiqadi, o'z manfaatlarini boshqalar manfaatlari bilan bog'laydi. Shaxsning pozitsiyasi insonning dunyoqarashi, prinsiplari va xatti-harakatlarini, uning ijtimoiy va kasbiy faoliyatining samaradorligini belgilaydi hamda hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hayotiy pozitsiyaning ichki asosini ustuvor e'tiqodlar, qadriyatlar va prinsiplar tashkil etadi. Uning yo'nalganlik hususiyati ustuvor manfaatlar bilan belgilanadi hamda faoliyatda, dunyoga va sotsiumga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so‘zlab bergan edi. “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adash-magan bo‘lamiz... Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda” [1], – deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoev.

Shaxsini tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish haqidagi o‘ziga xos innovatsion pedagogik g‘oyalar, ta’lim-tarbiya nazariyasining maqsadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o‘quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an’anaviy udumlar, to‘y, ma’raka va boshqa kam guruhli va ko‘p sonli odamlar ishtirok etadigan yig‘inlar, sayillar, mehmondorchilik, mehmon kutish, ommaviy axborot vositalari, afsonalar, romanlar va boshqalar vosita bo‘lishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o‘quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ana shu ma’noda pedagogik jarayonda yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Pedagogik maqsadlarga qanday vositalar bilan, qanday ketma-ketlik va qaysi ma’noda erishishga bog‘liq. Birinchisi zamonaviy ta’lim va tarbiyaning bir shaklini tanlansa, ikkinchisi o‘zgacharoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo‘l tutadi. Shu jumladan, xalq, elatning o‘z udumi, odati, turmush tarzi bor. Xalqning umumiy pedagogik madaniyatida shaxs tarbiyalanib, o‘qib rivojlanishida o‘ziga xos innovatsion pedagogik g‘oyalarga aksiologik yondashishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs axloqiy ma’naviy tarbiyasi bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusi <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/>.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1996.

4. Abu Rayhon Beruniy. *Hikmatlar*. – Toshkent: Yoshgvardiya, 1973.
5. Boboev H., G'ofurov Z., Islomov Z. *Milliy istiqloq mafkurasi va taraqqiyot*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
6. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. *Pedagogika tarixi*. – T.: «O'qituvchi», 1996. – 79-b.
7. Mamatkulov, S.T. (2020). *Shaxsning hyotiy pozitsiyasi klassifikatsiyasi*.// *Konsensus*, 1(1), 118-126. (Mamatkulov, S.T. (2020). *Classification of the life position of the person*. *Consensus*, 1(1), 118-126.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Safarov Firuz Sulaymonovich,
BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya Maqolada boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish muammolari va imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: boshlang'ich ta'lim sifati, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda kompetent bo'lish, o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini aniqlash va baholash, ta'limni rivojlantirish bo'yicha yangicha ko'rsatma va maqsadlar.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sifati egallangan bilim darajasida emas, balki hayoti davomida bilim olishga bo'lgan qiziqishida, kasbiy va shaxsiy rivojlanishida, egallangan bilimlarni kichik hayotida qo'llay olish kompetensiyasida belgilanadi.

Zamonaviy dunyoda – inson kapitali har bir mamlakatning barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlashdagi siyosiy va iqtisodiy resursiga aylanmoqda. Davlat ta'lim tizimi siyosatini ishlab chiqishda mamlakatning global makonda raqobatbardoshligiga qanday ta'sir qilishini, o'zgarishlar qanday ta'lim sifati natijalariga olib kelishini, kelajakda jamiyatning rivojlanish darajasiga mos kelishini inobatga olishi lozim.

Ta'limning rivojlanish darajasi quyidagi asosiy omillarga bog'liq:

– Jahon hamjihatining ta'lim jarayonidagi hamkorligi (kengayib borayotgan ijtimoiy makonda individul muhitning xilma-xilligi va ko'p sonliligi, shaxslar va guruhlararo muloqotning turli shakllari, ko'rinishlari, yashash muhitining rivojlanishi);

– Jahon fuqarolik jamiyatida insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish (hayotiy faoliyatga mas’uliyat bilan qarashni rivojlantirishda har bir shaxs huquq va erkinliklarini himoyalash);

– Shaxsning faol, mustaqil va intensiv ijtimoiy (o‘ziga xoslik) xarakterdagi yangi ma’naviy olamini shakllantirish, jamoa va o‘z manfaati uchun shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi – bu insonning butun umri davomida o‘rganishga va qayta o‘qishga tayyorligini bildiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan har bir omil to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim sohasi va zamonaviy ta’lim sifatiga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda maktabga bo‘lgan talab o‘zgardi. Endi o‘quvchi jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun bilimni hayotda qo‘llashni o‘rganishi lozim. Chunki zamonamizda shu orqali ta’limning sifati baholanmoqda.

Biz o‘zlashtirilgan bilim darajasi bilan belgilanadigan sifatning ana’naviy tizimidan cheklanib, yangicha zamonaviy talablarga e’tiborni qaratishimiz kerak: ya’ni, *shaxsiy va kasbiy rivojlanishda kompetentli bo‘lish, hayot davomida o‘qishga bo‘lgan mustahkam ishtiyoq mavjudligi*. Bu talablarni bajarishda boshlang‘ich ta’lim jarayoni asosiy o‘rinni egallaydi. Endi boshlang‘ich ta’lim maktablari oldida turgan vazifa ham o‘zgardi. Bilimlarni sayqallovchi va yetkazuvchi – oliy ta’lim muassasasi insonparvarlik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan holda, jamiyatda yashash san’atini o‘rgatuvchi, o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydigan institutga aylandi. Bu institutlar yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalovchi kardlarni yetkazishda yetakchilik qiladi. Pedagog-kadr qanchalik sifatli tayyorlansa, boshlang‘ich ta’lim sifati ham shu daraja yuqori bo‘ladi.

Ayni damda ta’lim maydonida natija nuqtai nazaridan ta’lim sifatini aniqlashda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

Birinchi yondashuv, o‘quvchilarning ilmiy yutuqlarini aniqlash va baholash bo‘lib, an’anaviy baholashga yaqin turadi. Bu yondashuv davlatda ta’lim sifati ko‘rsatkichi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Ta’lim sifati darajasini aniqlashning yetakchi usuli test sinovidir. Bizga sir emaski, test sinovlari ta’lim sifati darajasini aniqlashda o‘ziga xos kamchiliklarga ega. Shu sabab sifatni baholashda faqat uning natijasiga tayanish samarasizdir. Dunyoning aksariyat yetakchi davlatlari mana 30 yildan oshiq vaqt mobaynida buni o‘z tajribasida sinab ko‘rganligini ommaviy axborot vositalarida muntazam kuzatib borish mumkin. Ayrim davlatlarda faoliyat yuritayotgan umumiy va boshlang‘ich ta’lim sifatini baholovchi dasturlar:

– Ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida: MATURA (yetuklik, o‘rta ma’lumot to‘g‘risidagi yoki umumiy (to‘liq) o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi guvohnoma);

– AQShda: SAT (Reasoning testi, Qo‘shma Shtatlardagi universitetlarga kirish uchun standartlashtirilgan test) va ACT (Qo‘shma Shtatlardagi kollej va universitetlarga kirishda, shuningdek, biridan ikkinchisiga ko‘chirish uchun standartlashtirilgan test);

– Rossiya: ЭГЕ (yagona davlat imtihoni);

– Singapur: PSLE, GCE N, GCE O, GSE A (PSLE ingliz tili, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlaridan boshlang‘ich ta‘lim uchun yakuniy imtihon, umumiy o‘rta ta‘limda yakuniy imtihon uch darajada olinadi: GCE N darajasi, GCE O darajasi, GCE A daraja).

– Buyuk Britaniya: A-daraja;

– Germaniya va Avstriya: Abitur;

– Fransiya: Baccalauréat en France (Bac) (Fransiyada bakalavr);

– Xitoy: Gaokao (kollejga kirish imtihoni);

– Ukraina: Tashqi mustaqil baholash;

– Qozog‘iston: Yagona milliy test;

– Belarusiya: Markazlashtirilgan test;

– Qirg‘iziston: ORT - umummilliy test;

O‘zbekistonda ham yuqoridagi kabi ta‘lim sifatini baholash, monitoring qilish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishganligi barchamizga ma‘lum. Boshlang‘ich ta‘lim sifati odatda, maktab, tuman xalq ta‘limi bo‘limi va viloyat xalq ta‘limi boshqarmasi monitoring bo‘limi tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi. Baholash ichki va tashqi shakllarda o‘tkaziladi. Oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlari davlat test markazi tomonidan tashkil etiladi. Bizda hali respublika bo‘yicha ta‘lim sifatini baholashning yagona tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Yaqin kunlarda Milliy dastur loyihasi asosida milliy reyting yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

Ikkinchi yondashuv ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha yangicha ko‘rsatma va maqsadlar bilan bog‘liq. Uning doirasiga baholashning yangi texnologiyalarini izlash, ya‘ni, ijodiy, hissiy jihatdan o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, ehtiyojlar ko‘lamidagi o‘zgarishlar, xulq-atvori, olamga bo‘lgan munosabatini baholashdan iborat. Bu ta‘lim sifatini baholashning kam qo‘llaniladigan usuli. Tabiyki, uni o‘tkazish va natijalarni umumlashtirish juda katta mablag‘ni talab etadi. Boshlang‘ich ta‘lim sifatini baholashning yangicha yondashuvi hali ta‘lim tizimida endi kirib kelmoqda. Bu baholashning an‘anviy baholashdan farqi shundaki, u ta‘lim natijalari bilan emas, balki mazmuni bo‘yicha tayanch va fanga oid kompetensiyalarni qo‘llay olish ko‘nikmasi bilan bog‘liq.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'lim sifatini baholovchi va monitoring qiluvchi qator dasturlar shakllangan. Bu dasturlarning ayrimlari:

1. TIMSS – (Trends International Mathematics and Science Study) – 4-va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi xalqaro dastur (O'zbekiston 2023-yilda bu dasturga ishtirok etadi);

2. PIRLS – (The Progress in International Reading Literacy Study) – 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro dastur (2021-yil 5-14-aprelda O'zbekiston ilk marotaba ishtirok etdi, bunda 180 ta maktabning 6000 yaqin 4-sinf o'quvchisi qatnashdi);

3. PISA – (Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o'quvchilarning matnni tushunish, matematik va tabiiy fanlardan hayotiy ko'nikmalarni baholovchi xalqaro dastur;

4. EGRA – boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (AQSH dasturi);

5. EGMA – boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini baholash (AQSH dasturi);

Zamonaviy olimlarning xulosasiga ko'ra, maqsad – bitiruvchini emas, balki o'quvchining fan bo'yicha egallangan bilimlarini kichkina hayotida qo'llay oladigan, ravon nutqga ega shaxsni tarbiyalash. Ta'limni nazariyaga emas, amaliyotga yo'naltirish lozim. Nazariyaning quruq og'och bo'lib qolganligi, bilim va ko'nikmalarning amaliyotga yo'naltirilmaganligi hayotiy ko'nikmaning shakllanishida to'sqinlik qilmoqda. Albatta bugungi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta nazariy bilim bazasiga ega, lekin biz ularda o'quv vaziyatlaridan tashqaridagi hayotga chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishimiz kerak.

Monitoringlar shuni ko'rsatadiki, dunyo nazariy mavzudagi bilim va ko'nikmalarga emas, balki hayotiy ko'nikma va malakalariga asoslanadi, turli xil vaziyatlar, sharoitlarda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ustunlik qaratiladi (nafaqat ta'lim, shaxsiy, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotga moslashish). Baholashda ham aynan shu jihatlarga urg'u qaratiladi, ya'ni o'quvchining kompetentligi, ta'limning turli shakllaridan foydalana olishi, bir fan yo'nalishida egallangan bilimni boshqa fandagi amaliy muammoni yechishda (o'rtoqlari bilan hamkorlik qila olishi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kira olishi, jamoaviy ishlarda faol ishtirok etishi, o'z faoliyatini uyushtirishi) qo'llashini nazarda tutadi. Bu kabi ko'nikmalar asosan boshlang'ich sinflarda shakllantiriladi. Bu esa shu bosqichning qay darajada rejalashtirilishiga bog'liq, shu orqali

keyingi ta'lim sifati va samaradorligi ta'minlanadi. O'quvchida hayotiy ko'nikmalar shakllanishi uchun butun ta'lim jarayonida uning o'zi ham faol bo'lishini unutmazlik lozim. Chunki, bir muloqot qilishni o'rganish uchun turli ko'rinishdagi nutq turlarini o'zlashtirish, tillarni o'rganish, o'z fikrini erkin bayon qilish, tushuntirish, tanqidiy fikrlash, turli vaziyatlarda tasavvur va tushunchasini yetkazish va hokazolar albatta o'quvchidan faollikni talab etadi.

YUNESKOning ta'limni rivojlantirish dasturi, ko'p davlatlarning milliy ta'lim tizimi, shu jumladan O'zbekiston ta'lim tizimining "sifat", "samaradorlik", "natijadorlik" darajasi zamon talablariga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan. Bu esa aksar davlatlar mahalliy ta'lim tizimi talab darajasida emasligidan dalolat beradi. Shu asosda o'quvchiga sifatli ta'lim berish, har bir bolaning milliy ta'limda o'z yo'lini topishi uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish vazifasi belgilab qo'yildi.

YUNESKOning "Ta'lim hamma uchun" (2000) xalqaro dasturiga ko'ra boshlang'ich ta'lim samaradorligi va sifatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega: bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb eish; o'zlashtirishi ortda qolgan yoki sinfdan qoldirish xarakteridagi asoslarni aniqlash; bolaning ta'lim tizimidan chiqib ketish sabablari.

Ta'lim sifatini oshirish albatta uning mazmuni bilan belgilanadi. Mazmun qancha mukammal ishlansa, sayqallansa sifat darajasi ham shun darajada oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистондаги болалар вазиятининг таҳлили. 2019-2020. UNISEF таҳлиллар, ҳисоботлар, тавсиялар. UNICEF 2020 Бирлашган Миллатлар ташкилоти Болалар Фонди томонидан нашр этилган. Тошкент. 2020.*

2. *Delors J. Ta'lim – sirli xazina//YUNESKOning XXI asrda ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasi materiallari. - Belgrad, 1996-yil.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.*

3. *Boshlang'ich ta'lim fanlari o'quv dasturi. Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil, 3-iyundagi 190-sonli buyrug'i.*

4. *Семенович А.В. Нейропсихологическая коррекция в детском возрасте. – 2-е изд. – М.: Генезис. 2008.*

TARBIYA — BEBAHO NE'MAT

Isaev Sardor Alisherovich,

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy
tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, podpolkovnik.*

Abduvaliyev Ulug'bek Shavkat o'g'li,

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy
tadqiqotlar markazi katta mutaxassis stajyor tadqiqotchi, leytenant*

Annotatsiya. *Maqolada muallif "tarbiya" so'zi ma'nosi, ta'limning mazmuni va mohiyati, ta'limning maqsadi, shuningdek tarbiya va ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam berishi to'g'risida fikrlar bildirgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, burch, ma'naviy sifatlar, tarbiyalanuvchi, tarbiyalovchi, yoshlar tarbiyasi, malakali kadrlar.*

O'zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirmay ma'naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunda belgilangan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etishi kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda. Hurmatli Prezidentimiz Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi" asarida "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz". Va yana "Yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan odamlarning etishmasligi bizning olg'a siljishimizda hamon katta to'siq bo'lib turibdi. Bunday kadrlarni, avvalambor, yosh kadrlarni topish, o'stirish, tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda", deb juda o'rinli ta'kidlangan.

Avvalambor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga suyanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma'lumotiga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to’g’risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, uning “asosiy maqsadi- ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash”, zarurligi va “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb, ta’kidlanishi bejiz emas albatta.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o‘zgarishlar natijadorligi maktab ta’limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalmoqda. Shu bois maktab direktorlari va muallimlarga ko‘p narsa bog‘liq bo‘lmoqda. Ular qishloq va shaharlarda ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’naviyat tarqatadigan fidoyi kishilardir. Maktablar nafaqat ta’lim maskani, balki mahallaning madaniy, intellektual markazi bo‘lishi zarur.

Shu bois, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

“Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”. – dedi davlat rahbari Sh.Mirziyoyev.

Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishidir.

Ta’lim — bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ta’lim mohiyat e’tibori bilan dars berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatini, umuman

o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy tarixiy tajribalari yosh avlodga Ta'lim orqali o'tadi.

Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, Ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruv-chi kuchli omildir.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir deyishadi.

“Tarbiya” so'zi arabcha “robba” (ar. تَرْبِيَةٌ [tarbiyat]) fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiya siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Ayrim adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Tarbiya keng ma'noda yoshlarning, insonlarning obyektiv va subyektiv ta'sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir. Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya va b. ni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi .

Tarbiyalanuvchi va tarbiyalovchi munosabatlari nuqtai-nazaridan esa tarbiya – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Biron bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

a) talabaning qaysidir xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi; b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi; v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qaysisini va qayerda ishlashni rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta’lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash uchun uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatni sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi.

Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So‘ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta’sirli narsa yo‘qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to‘g‘risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmiy va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o‘zida kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib yetishishlariga undagan.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi

nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko‘li sultoniy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xitoy donishmandi Syun-Tszi *“Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”*, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi .

Tarbiyaga e‘tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o‘z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e‘tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e‘tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z otalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”.

Alixonto‘ra Sog‘uniy tarbiya xususida shunday yozadi: “Yolg‘iz insonga emas, barcha jonli mavjudotlarda ta‘lim-tarbiya ta‘siri ko‘z oldimizda ko‘riilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O‘qitish-o‘rgatish buyon tursin, suhbat o‘zi ham, suhbatdoshlarga o‘t bilan suvdek tez o‘tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo‘ldoshlariga qarab baho beriladi”.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta‘lim va tarbiya tufaylidir.

Ma‘lumki, ulug‘ mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg‘unligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Allomaning “Tadbiri manzil” risolasida tarbiya masalasi ko‘proq tahlil etilgan. Xususan, “Tadbiri manzil”da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, avvalgi ajdodlar an‘analari, ta‘lim-tarbiya

o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir.

Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul: "Bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan, uning tili to'g'ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgalar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o'rgatib borish lozim".

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go'zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ustoz-muallimlarning sa'y-harakatiga ham bevosita bog'liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi//<https://president.uz>
3. Komiljon Hoshimov. Ta'lim //<https://qomus.info>
4. Qozoqboy Yo'ldoshev. Tarbiya //<https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarbiya-uz>
5. Nodirjon Abdulaxatov. Tarbiya — buyuk ne'mat// <https://yuz.uz>

ZAMONAVIY TA'LIMDA PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI INTEGRASIYASINI TA'MINLASH

Toshboltayev Faxriddin O'rinboyevich
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik va axborot texnologiyalarini integrasiya qilish bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayon va bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorgarligini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalari integrasiyasini ta'minlash va bu orqali salohiyatli

pedagogni tarbiyalashning mazmuni, qonunchilik asoslari va mavjud xolatlari tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: *pedagog, integrasiya, axborot, axborot texnologiyalari, metod, pedagogik mahorat, qonunchilik asoslari.*

Kirish

Bugungi kunda “yangi davlat ta’lim standartlari”ning joriy etilishi yana bir bor o’qituvchiga kasbiy faoliyatni sezilarli o’zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to’ldiruvchi talablarni qo’ymokda. Chunki mazkur standartlar kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo’lib, ular ajdodlaridan bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga layoqatli shaxsni tarkib toptirishga yo’naltirilganligi bilan farq qiladi. Shunday ekan, o’qituvchi kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi rolining o’zgarishi ularni ta’lim jarayonidagi jadal o’zgarishlarga tez moslashish, o’ta faollik, doimiy o’zini rivojlantirish va mustaqil bilim olishga tayyor bo’lish, o’qitishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalaridan boxabar bo’lish hamda ularni samarali qo’llay olish sifatlariga ega bo’lishlarini taqozo qiladi[1]. Shunday ekan, bo’lajak o’qituvchilarni metodik tayyorgarligini oshirishda ularning pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan kompetentligi integrasiyasini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. Bo’lajak o’qituvchilarni metodik tayyorgarligini rivojlantirishda integrativ yondashuvni qo’llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo’yicha o’ziga xos innovasion yondashuv bo’lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o’zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Zamonaviy ta’limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integrasiyasini ta’minlash masalalarining qo’yilishi M.Tillashaxova, O.Abduquddusov, D.I.Yusupova, I.Ya.Raxmonov, B.Boltayev, O.Yu.Kovalenko, N.Kayumova, U.N.Taylaqov, R.G’.Safarova, va B.X.Raximov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, muammoga oid ma’lumot va nazariyalarni Amerikalik tadqiqotchilar K.Zeyxner (Zeichner) va S.Rey (Wray)lar axborot texnologiyalari integrasiyasini ta’minlashni talqin etganlar.

Jahon pedagog-psixologlarining fikricha, bilimlarning boshqarishning mumkin bo’lgan yo’li - o’zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqning

o'zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir. Bu sohada yaxshiroq ishlangan tizim P.Ya.Galperinning aqliy harakatlarni bosqich(bosqichma-bosqich) bo'yicha tarkib toptirish nazariyasiga asoslangan ta'lim tizimidir. Bu nazariyaga muvofiq odamning ontogenetik rivojlanishidagi harakatlar interiorizatsiyasi degan jarayonlar, ya'ni tashqi harakatlarning asta-sekin ichki aqliy harakatlarga aylanish jarayonlari ro'y beradi. Dastavval o'quvchilar tashqi moddiy harakat bilan ish ko'radi "faqat shundan keyingina harakatning integratsiyasi, ya'ni uning ichki harakatga, endi butunlay bolaning aqlida voqea bo'ladigan harakatga aylanishi ro'y beradi",- deb yozadi A.N.Leontyev[2].

Tahlil va natijalar

Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida texnik vositalar bilan bir qatorda maxsus dasturiy vositalardan ham foydalaniladi. "O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturiy vosita – bu biror fan sohasini o'rganishda o'z aksini topgan dasturiy vosita bo'lib, bunda shu fan sohasini o'rganish texnologiyasi va u bilan bog'lik har xil o'quv faoliyatlarini amalga oshirish shartlari ta'minlanadi. Har xil turdagi o'quv jarayonlarini bunday funksional ta'minlovchi dasturiy vositalar pedagogik dasturiy vositalar deb ataladi. Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning har xil turlari va guruhlari mavjud. Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitasion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slydlar, videofilmlar); o'quv-o'yin dasturlari; bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan dasturlar (kompyuter o'yinlari: quvnoq o'yinlar, strategik o'yinlar, boshqariluvchi o'yinlar, mantiqiy o'yinlar, sport o'yinlari va hokazo)"[3].

Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik tizimi maqsadidan kelib chiqib, "sifatli pedagog tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri mutaxassislik fanlari laboratoriyalari darslarida bevosita pedagogik faoliyatni tashkil etish: dars ishlanmalari, darsning texnologik xaritalarini ishlab chiqib, o'z guruhdoshlariga darslar o'tib berish, tahlil qilish orqali talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tayyorlashdir"[4]. Demak, raqobatbardosh kadr, zamonaviy pedagog shaxsiyatini tarbiyalash uchun ham metodik tayyorgarlik tizimini takomillashtirish kerak bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borishga tayyor bo'lishi, "turli darajadagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'qitishni tashkil qilishi, metodik tizim, uni tashkil etuvchi elementlarni bilishi kerak. Pedagogik va axborot texnologiyalari integrasiyasida o'qituvchining metodik tizimini ishlab chiqish uchun mutaxassislikning har bir darsi davomida o'qituvchi tomonidan talabalar ongida metodik tizim, uni tashkil etuvchi elementlari shakllantirilib borilsa, talabada metodik tizimni yaratishga refleksiv yondashuv hosil bo'ladi"[5].

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik va axborot texnologiyalari integrasiyasi asosida metodik tayyorgarligini oshirishda hukumatning axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olish ham maqsadga muvofiq. Unga ko'ra:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash;

- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

- xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;

- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;

- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investisiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirishdan iborat [6]. Mazkur ustuvor yo'nalishlar asosida bo'lajak o'qituvchi o'zining axborot texnologiyalariga oid bilimlarini o'stirishi va mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalari bilan integrasiya qila olishi kerak bo'ladi. Mazkur integrasion vazifani uddalay olgan pedagog o'zining pedagogik faoliyatida yuqori natijalarni ko'rsata oladi. Ta'limda innovasion

metodik faoliyatni rivojlantirish muammosi o'z ichiga ko'p mustaqil masalalarni oladi va bir qator konseptual qoidalarni belgilab beradi. Bular pedagogning innovasion metodik tayyorgarligining konkret texnologik masalalarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Bular quyidagilardan iboratdir:

- integrasyon va diiferensial ta'lim texnologiyalarini yaratish;
- yangicha ta'limiy jarayonlar haqida tasavvurlar tizimini shakllantirish;
- ta'limning integrasyon komponentlari aloqadorligini taminlovchi pedagogik vositalar;

- oliy ta'lim muasasasida innovasion muhitni yaratish;

- yangicha metodik faoliyatni amalga oshirishda individual xususiyatlarni aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi texnologik va metodik omillar. Ko'rsatib o'tilgan konseptual qoidalar innovasion metodik faoliyatni rivojlantirish jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim subyekti o'rtasida dialektik aloqadorlik bo'lishini taqozo qiladi. Innovasion ta'limiy metodik faoliyat integral tushuncha bo'lib, uning tarkibiy qismlari madaniy bilimdonlik, professional madaniyat, ijodkorlik madaniyati, intellektual mulk huquqi madaniyati, yangilikni idrok etish madaniyati, boshqarish madaniyati, jismoniy madaniyat kabi tuzilmalardan tashkil topadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi pedagogning kasbiy faoliyatida uning pedagogik faoliyatini axborot texnologiyalari bilan integrasiyalashi zaruriy talab hisoblanadi. Chunki bugungi ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish imkonsiz ekan, unda o'qituvchining ularni chuqr bilishlari ham muhim hayotiy talabga aylanadi. Biroq ularni integrasiyalash qanday va qay shaklda, nimalarni hisobga olgan holda bo'lishi kerakligini asoslash, ilmiy tadqiq etish va muhim ilmiy xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Bo'lajak o'qituvchilarni integrallashgan metodik faoliyatga tayyorlashda ularning umummadaniy salohiyati, mutaxassislik bilimlari hamda shaxsiy fazilatlarini shakllanishida uyg'unlikka erishish taqozo qilinadi. Shu bois o'quv rejalarida ko'zda tutilgan barcha bilimlarga oid fanlarning integrasiyalashuv zarurati yuzaga keladi. Demak, integrallashgan metodik faoliyatni o'qitishda fanlararo aloqalarni mustahkamlashga asoslanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishida mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir.

Binobarin, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamkorlik pedagogikasi, kichik guruhlarda ishlash usullari ta'sirida yaxshi samara berishi mumkin. Ta'lim texnologiyalari samaradorligini yanada oshirishda zamonaviy axborot kommunikasiyalarini keng joriy etish yaxshi natija beradi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integrasiyasini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflarni berish mumkin bo'ladi:

- integrasion va diiferensial ta'lim texnologiyalarini yaratish;
 - yangicha ta'limiy jarayonlar haqida tasavvurlar tizimini shakllantirish;
 - ta'limning integrasion komponentlari aloqadorligini taminlovchi pedagogik vositalar;
 - oliy ta'lim muasasasida innovasion muhitni yaratish;
 - yangicha metodik faoliyatni amalga oshirishda individual xususiyatlarni aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi texnologik va metodik omillar.
- Ko'rsatib o'tilgan konseptual qoidalar innovasion metodik faoliyatni rivojlantirish jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim subyekti o'rtasida dialektik aloqadorlik bo'lishini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimova Sh.O. *Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishga innovasion yondashuv. "Ta'lim va innovasion tadqiqotlar" jurnali 2021 yil №3. –B. 178.*

2. Leontovich A.V. *Uchebno-issledovatel'skaya deyatelnost shkolnikov kak model pedagogicheskoy texnologii/A.V. Leontovich// J. Narodnoye obrazovaniye. №10. 1999. –S.52-58.*

3. Tillashayxova M.A. *Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalari. "Science and Education" Scientific Journal. 2020. № 2. –B.586.*

4. Kayumova N. A. *Pedagogical Practice as Important Process of Forming Students' Professional Competence. // Eastern European Scientific Journal. Germaniya. 2017. № 6. -P. 21-26. www.auris-verlag.de*

5. Kayumova N. *Pedagogik va axborot texnologiyalari integrasiyasida informatika o'qituvchisini tayyorlashning metodik tizimini ishlab chiqish. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2018. №4. –B. 35-39.*

6. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 1-son, 2-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda.

TA'LIM VA TARBIYANING BARCHA TA'LIM BOSQICHLARIDA UZVIYLIGINI TA'MINLASH – MUHIM MASALA

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ta'lim-tarbiyaning barcha ta'lim bosqichlarida uzviyligini ta'minlash, bu borada oila va mahallaning o'rni masalalari muhokama qilingan. Ushbu uzviylik tizimining ayrim jihatlari tahlil qilinib, yanada takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohaza hamda takliflar bildirib o'tilgan. Bunda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish masalasiga alohida urg'u qaratilgan. Milliy va xorijiy olimlar, adiblar asarlaridan misollar, fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, oliy ta'lim, universitet, gumanizm

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir.

Abdulla Avloniy,

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat [1]” deya ta'kidlab o'tgan edilar.

Haqiqatdan ham ilm bir ummon bo'lsa, uni o'zanga soluvchi kuch bu tarbiya va ma'naviyatdir. Buyuk ajdodlarimiz ta'kidlaganlaridek, har qanday ilm manfaatli bo'lishi, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat rivoji, taraqqiyoti uchun xizmat qilishi lozim. Afsuski, salbiy illatlarning ham o'z ilmi bor. U o'g'rilikmi, firibgarlikmi yoki boshqa jinoyatmi, har birining o'z ilmi

mavjudligi hammamizga ma'lum. Yoki yaxshi manfaatlar keltirishi uchun yaratilgan ixtirolar yomonlik yo'lida ham qo'llanilishi mumkin.

Birgina olovning yaratilishini olaylik. Bizga shirin ovqatlar tayyorlashga xizmat qiladigan olov vaqti kelganda kishilar boshiga kulfat ham yog'dirishi mumkin. Yoxud tog'-kon sanoatida qo'llash uchun yaratilgan Alfred Nobel ixtirosi – dinamit kabi qirg'inbarot urushlarda millionlab kishilarning yostig'ini quritishga sababchi bo'lishi mumkin. Albatta, ayb ixtiroda emas, balki undan ana shu razil maqsadlarda foydalanishdadir. Aks holda, Nobel bir umr yaratgan ixtirosi oqibatlaridan azoblanib o'tmagan bo'lar edi [2].

Shu sababdan ham dunyo tuzugi bir me'yorda saqlanishi, sodda qilib aytganda, dunyo buzilib ketmasligi, aksincha, rivojlanib, taraqqiy topib borishi uchun ma'naviyat va uning egalari bo'lgan ma'rifatli shaxslarga bo'lgan talab har doim yuqori bo'lib kelgan. Bunday shaxslarni tarbiyalash va voyaga yetkazish esa aslo bir yoki ikki kunda amalga oshiriladigan masala emas.

Ma'lumki, so'nggi yillarda yurtimizda ta'lim-tarbiyaga Davlat rahbari darajasida e'tibor qaralilib kelinmoqda. Zero, Birinchi va Ikkinchi renessans poydevori ham shuning ustiga qurilgan edi. Ma'mun akademiasining barpo etilishida xorazmshoh Ma'muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg'onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va temuriy avlodlar, xususan, Mirzo Ulug'bekning hissasi beqiyos edi. Har ikki sulola hukmdorlari o'z davrining yorqin iste'dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to'plagan va g'amxo'rlik qilib, kerakli shart sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo'lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar.

Barcha davrlarda ma'rifatchilik yo'nalishi asosan uch soha orqali taraqqiy topib borgan. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot (gazeta va jurnallar) [3].

Ushbu sohalar rivoji bizning bugungi kunimiz uchun ham muhimdir. Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Shu sababdan ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi uzviylik – bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla – tizimi har jihatdan muhimdir. Umuman, o'tgan renessanslar tajribasi ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligi haqidagi sharqona falsafaning yaqqol isbotidir.

Bu boradagi islohotlar eshiklari allaqachon ochilgan va bugungi kunda ham jadal tarzda olib borilmoqda. Xususan, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

bugungi kunda respublikada 30 mingga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 milliondan ziyod o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. Tizimga bolalarni qamrab olish ko'rsatkichi 72 foizga yetgan [4];

Umumta'lim muassasalari soni so'nggi 5 yilda 748 taga oshgan [5];

2017–2021 yillarda xalq ta'limi tizimiga 45,3 ming nafardan ortiq erkak o'qituvchilar qaytarilgan [5];

O'zbek yoshlarining xorijda oliy ta'lim olishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Yuzlab yoshlar "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan har yili jahonning ko'plab nufuzli universitetlariga davlat hisobidan o'qishga yuborilmoqda. Birgina 2022 yilda stipendiyalar kvotasi 420 o'rin etib tasdiqlandi. Jamg'arma dasturlari kesimida bakalavriatga 120 o'rin, magistraturaga 180 o'rin va doktoranturaga 120 o'rin ajratildi [6];

Oliy ta'lim qamrovi kengaydi. 2022/23 o'quv yili boshlangan paytda talabalarning umumiy soni 1 040 400 nafarga yetgan [7];

Xususiyy va davlat ta'lim muassasalarining soni ortishi natijasida ularning soni 191 taga yetdi [7];

Xotin-qizlarning oliy ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ular uchun qo'shimcha kvotalar ajratilmoqda. Magistraturada to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarga kontrakt mablag'lari to'lab berilmoqda;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish choralari ko'rildi [8];

Ta'lim tizimining huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Jumladan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [9].

Mazkur ro'yxatni yana ko'p davom ettirish mumkin.

Albatta, bu borada ko'plab yangi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish hamda ko'pgina yangi binolarni qurish mumkin. Jahonning nufuzli universitetlaridan professorlarni olib kelish yoki minglab yoshlarimizni nufuzli universitetlarga o'qishga jo'natish imkoniyati ham bor. Biroq bularning hammasi moddiyatga taalluqli holatlardir. Shu sababli millatning ma'naviyatini yuksaltirish zarur.

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Ushbu holat hech kimga sir emas. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va

ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti [1]. Mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni – 30 yoshgacha bo'lganlar [10] tashkil etayotgan bir vaqtda bu juda katta xatardir.

Shunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash belgilangani bejizga emas.

Ushbu uzviylikni ta'minlash bo'yicha ishlar bugun yangi bosqichga ko'tarilgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMT Taraqqiyot Dasturi loyihalari bilan birgalikda "Fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoniga jalb qilish" qo'shma tanlovi doirasida "Muloqot" jamoat birlashmasi tomonidan yaratilgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan "Aksilkorrupsiya alifbosi"ni keltirish mumkin [11]. Mazkur alifbo jajji o'g'il-qizlar tushunishi oson bo'lgan tilda, illyustratsiyali atamalar va tushunchalar shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, xuddi shu uslubda "Ma'naviyat alifbosi"ni yaratish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, yangi uslub va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda maktabning har bir sinfi uchun, oliy ta'lim yoshidagi talabalar uchun ma'naviyat bo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish kerak.

Bunda eski uslubdagi vositalardan va o'ta ilmiy yondashuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'limning har bir bosqichiga alohida yondashuv talab etiladi.

Shuningdek, ma'naviy tarbiyani, ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalari asoslangan yangi O'zbekiston mafkurasini o'qitishni bog'chadan boshlash zarur. Buning uchun bizga milliy asotirlar, afsonalar, xalq og'zaki ijodi namunalari – dostonlar, ertaklar, mumtoz adabiyot hikoyatlari, zamonaviy bolalar tilida yozilgan milliy va xorijiy yozma ertaklar va qissalardan foydalanish kerak. Ushbu sanab o'tilgan manbalarni o'qitish bolalarda umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishga xizmat qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi amalga oshiriladi.

Umumiy o'rtta ta'limda bolalarda milliy ruhni singdirishga e'tibor qaratish kerak. Millatning ruhi uning adabiyotidir. Ayniqsa, umuminsoniy tuyg'ular, xususan, Vatan himoyasiga oid dostonlar, asarlar, tariximizni anglatuvchi asarlarni o'qitishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xalq dostonlari, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat ("Abulfayzxon"), Cho'lpon, Qodiriy, Said Ahmad ("Ufq" trilogiyasi), Ozod Sharofiddinov, Asqad Muxtor ("Davr mening taqdirimda", "Buxoroning jin ko'chalari"), Chingiz Aytmatov ("Asrni qaritgan kun"), Abdulla Oripov ("Sohibqiron", "O'zbekiston"), Erkin Vohidov ("O'zbekim", "Ruhlar isyoni"), Tog'ay Murod ("Otamdan qolgan dalalar"), Muhammad Ali ("Ulug' saltanat") va Sirojiddin Sayyid ("Egasi bor yurtning – ertasi bordir") kabi ijodkorlarning asarlari bunga yordam bermasdan qolmaydi.

"Buxoroning jin ko'chalari" yoki "Asrni qaritgan kun" asarlarini o'qigan har qanday inson, aminmanki, uning ayrim qahramonlariga o'xshab manqurt yoki xorijiy hayot shaydosiga aylanib qolmaydi, balki o'z yurti uchun kerakligi, uning taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishi lozimligi xususidagi hislarni qalbidan o'tkazadi.

Oliy ta'limda o'qiyotgan talabalar esa o'zlari muallif va bosh qahramon bo'lgan hayot asarining bahor atalmish birinchi kitobi qahramonlaridir. Ularda bir oz bo'lsada hayot, undagi sinovlar haqida tasavvur, tushuncha shakllangan bo'ladi. Shu sababli ularning ta'lim-tarbiyasida o'zidan kichik bolakay sifatida emas, balki do'st, birodar, dugona bo'lib munosabatda bo'lish talab etiladi va bu borada barcha professor-o'qituvchilarda imkoniyatlar yetarlidir.

Hozirgi kunda jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish uchun e'tibor har tomonlama ortdi. Bu judayam yaxshi. Biron tadbirlarga borsak, sovg'aga mashina yoki qo'g'irchoq emas, yoshga mos kitoblar sovg'a qilinayotganiga ko'p bora guvoh bo'lyapmiz. Ammo hammaning ham kitob sotib olishga qurbi yetmasligi mumkin. Shu sababli bizga kutubxonalar zarur. Afsuski, ko'p yillar davomida sohaga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sababli axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 2000 yilda shahar joylarda 1013 tani, qishloq joylarda esa 5014 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib shahar joylardagi markazlar soni 365 tagacha, qishloq joylardagi markazlar soni 37 tagacha kamayib ketgan. Bu haqda Statistika agentligi ochiq ma'lumotlar bazasida ma'lumot bergan [12].

Bizningcha, kutubxonalar har bir qishloq, har bir mahallada bo'lishi kerak va ularning boshqaruvi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga berilishi zarur. Zero, adabiyot ruhiyat alifbosi, ma'naviyatni shakllantiruvchi kuchdir.

Keltirilgan fikrlar uchun kamina xodimingizni bir tomonlama yondashuvda ayblashingiz mumkin. Negaki ta'lim-tarbiyaga e'tiborni faqat ta'lim va davlat tomonidan amalga oshiriladigan ish sifatida tasvirladim go'yo. Aslo unday emas. Ta'lim-tarbiyaning eng birinchi maskani bu oiladir. Olimlarning ta'kidicha, miya tuzilishi bolada uch yoshgacha shakllanadi. Ayni shu davrda bola uchun nihoyatda zarur axborotlar olinadi. Ammo bu vaqtda o'qituvchi yoki boshqa bir shaxs emas, balki ota-ona, bobo-buvi bola bilan birga bo'ladi. Qush esa uyasida ko'rganini qiladi.

Ammo yapon olimi Masaru Ibuka aytganidek, bolalarni tarbiyalashdan avval ota-onani tarbiyalash zarur [13]. Chunki bola sof tabiat – fitrat bilan tug'iladi. U uchun birinchi o'rnak bu uning ota-onasi. Bola ulardan o'rnak oladi, o'sha oila muhitida ularning dunyoqarashi bilan shakllanadi. Shu bilan birga, ota-onasi uzoq safarga ketgan, vasiy yoki homiy qaramog'idagi bolalar, yetimlar, chin yetimlar bilan ishlashda o'qituvchi-murabbiylarga katta mas'uliyat yuklanadi. Ular bolalarning individual salohiyatidan kelib chiqqan holda ular bilan birma-bir ishlashlariga to'g'ri keladi. Buni men qariyb o'ttiz yildan beri bolalarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan onamning pedagogik ish tajribalaridan kelib chiqib aytmoqdaman. Shu sababli oilalarda tinchlik, barqarorlik hukm surishi, qobil va komil farzandlar yetishib chiqishi uchun bolalarga oila masalalari ta'limini boshlash vaqti keldi, nazarimizda.

Bunda bizga Abdurauf Fitratning "Oila", Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtli oila", "Sog'lom bola", Is'hoqjon Muhammadjon o'g'lining "Ta'lim va tarbiya", Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech", "Uchgacha ayni vaqti" kabi asarlari ko'makchi bo'la oladi, deya o'ylaymiz.

Sodda qilib aytganda, ota-ona nafaqat bola uchun moddiy, balki ma'naviy ozuqa manbai bo'lib ham xizmat qilishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichida tibbiy ta'lim, qurollar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi tahlikali zamonda bu yoshlar uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Bundan tashqari yana bir masala borki, unga bo'lgan e'tibor kelajakka e'tibordir. Mazkur masala – o'rgimcha to'ri – internet masalasidir. Bejizga "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarorida aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ustuvor yo'nalish qilib belgilanmagan. Bugun biz bolaning qo'lga smartfon berar ekanmiz,

ushbu kichkina quticha bilan dunyoni, insonning aqli-shuuriga sig'maydigan axborot manbasini ham berayotganimizni unutmasligimiz kerak. Smartfon va boshqa zamonaviy texnologiyalardan maqola debochasida ta'kidlangan olov yoki dinamit singari ham foydali yo'lda, ham zararli yo'lda birdek foydalanish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar asosiy axborot manbasiga aylanishga ham ulgurdi, televizorni mutlaqo siqib chiqardi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Ammo yurist-pedagog sifatida ayta olamanki, kamdan-kam ota-ona bolasining smartfondan qay maqsadda foydalanayotganini biladi. Buni oddiygina "ota-ona nazorati" dasturi orqali amalga oshirish mumkinligini ham bilmaydi. Natijada, tegishli nazoratsiz bola berilgan imkoniyatdan o'z ixtiyoricha foydalanadi yoki g'arazli kimsalar tuzog'iga ilinadi. Shu sababli ushbu soha bo'yicha ham tizimli ishlarni amalga oshirish, ota-onalar o'rtasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish, kompyuter savodxonligini kuchaytirish bo'yicha choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borar ekanmiz, bolani ta'lim olish, o'qituvchi-tarbiyachini unga ta'lim berish maqsadidan chalg'itmagan holda shunday tarbiya berilishi kerakki, u o'zida milliy ruhni namoyon qilsin, maktabni bitirishdan asosiy maqsadi universitetga kirish, universitetni bitirishdan asosiy maqsadi yaxshi ishga joylashish emas, balki haqiqiy shaxs – Hazrati Inson bo'lib yetishish bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.* URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4089>

2. *Alfred Nobel – a man of contrasts.* URL: <https://studfile.net/preview/2983624/page:4/>

3. *Aziz Hakimov. Milliy ta'lim va tarbiya tizimi rivojlantirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asosidir* URL: <https://yuz.uz/news/milliy-talim-va-tarbiya-tizimi-rivojlantirishuchinchi-renessans-poydevorini-yaratishning-asosidir>

4. *Maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqiladi* URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/17/preschool-education/>

5. *O'zbekistondagi maktablar soni so'ngi ikki yilda 233 taga ko'paygan* <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistondagi-maktablar-soni-songi-ikki-jilda-233-taga-kopajgan>

6. *2022 yilda qancha talaba byudjet hisobidan xorijda o'qishi ma'lum qilindi* URL: <https://kun.uz/84036274>

7. O'zbekistonda talabalar soni 1 milliondan oshdi <https://kun.uz/news/2023/02/14/ozbekistonda-talabalar-soni-1-milliondan-oshdi>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son

10. Firuza Muhiddinova. Yangi O'zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat>

11. "Aksilkorrupsiya alifbosi". Atamalar va tushunchalar to'plami. "Muloqot" NNT. Toshkent – 2022. 25 bet

12. Oxirgi 20 yilda O'zbekistondagi kutubxonalar soni 15 barobarga kamayib ketgan. URL: <https://kun.uz/news/2023/06/29/oxirgi-20-yilda-ozbekistondagi-kutubxonalar-soni-15-barobarga-kamayib-ketgan>

13. Uchdan keyin kech / Masaru Ibuka. O'zbek tiliga Nargiza Nurmuhammad tarjimasi. – Toshkent: Akademnashr, 2021 – 232-bet

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

B.M. Yalgashev,
tadqiqotchi

Hozirgi vaqtda jamiyat ta'lim muassasalari oldiga ta'lim xizmatlarining yuqori darajasini, shuningdek, bolalarning barcha toifalari uchun ta'limning mavjudligi va tengligi kabi global vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalarning bajarilishi ta'lim muassasalarida qulay ta'lim muhitini yaratishga hamda o'quvchilarning bunday ta'lim muhitida bilim olishlariga imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, bugungi kun ta'lim dargohlari avvalo, o'quvchilarning tengligini tan olish, ular uchun umumiy ta'lim muhitini tashkil etish vazifalarini bajarish birlamchi vazifalar qatorida turadi. Bu esa, ulardan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ham inklyuziv sharoitda o'qitish va ularga zarur sharoitlarni ta'minlashni talab etadi.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy salomatligini yoshligidan tashhishlash, ularni doimiy nazorat ostiga olish, ularni sifatli ta'lim muhiti bilan qamrab olish maqsadida inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirish islohotlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida ham «Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi» deb belgilanishi mazkur sohada davlat siyosati darajasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda «Yangi, erkin va demokratik davlatda jamiyatning har bir a'zosi bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash, o'z iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, mehnat bilan band bo'lish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'lishi shart». [1] Shu bois, alohida ta'limga muhtoj o'quvchilarni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etish bugungi kunda davlat ta'lim siyosatida o'z yechimini kutayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 15% ni, ya'ni 1 mlrd.dan ortiq qismini imkoniyati cheklangan shaxslar tashkil qiladi. [2] O'zbekistonda bu ko'rsatkich jami aholining 2,1% qismini (800 mingga yaqin) tashkil etadi. Shuningdek, ularning 111,3 ming nafari 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan yoshlardan iborat. Aynan, bu yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi maktabgacha va maktab ta'lim dargohlarining inklyuziv ta'limni amalga oshirish faoliyati bilan bog'liqdir.

Rivojlangan xorij davlatlarining tajribalariga e'tibor qaratilganda, aynan, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyasi ta'lim bosqichining dastlabki bog'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab yo'lga qo'yilganligini ko'rish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalari bevosita imkoniyati cheklangan bo'lalarni maktab ta'limida o'qish va moslashishlariga yordam beradi.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida 2019 yil 16 dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» O'RQ-595-son Qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning ahamiyati shundan iboratki, aynan **alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar, inklyuziv ta'lim va tarbiya tushunchalariga aniqlik kiritilgan.** Qonunda ta'riflanishicha, «**inklyuziv ta'lim va tarbiya** – bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual

imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayondir». [3]

Mazkur Qonunning ijrosi sifatida, 2019 yil 15 aprel kuni Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanidagi 369-sonli MTT davlat-xususiy sherikchilik asosida, xayriya faoliyati shaklida tashkil etilgan birinchi muassasa hisoblanadi. Unga ham sog'lom tarbiyalanuvchilar, ham jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar qatnash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur MTTda psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun 7 ta guruh (1 guruhda 15 nafargacha bolalar nazarda tutilgan) hamda inklyuziv yo'nalishdagi umumiy ta'lim bo'yicha 7 ta guruh (1 guruhda 25 nafargacha bolalar nazarda tutilgan) faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ixtisoslashtirilgan guruhlariga bolalar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida qabul qilinadi. Ta'lim dasturi «Ilk Qadam» davlat dasturining moslashtirilgan varianti hisoblanib, unga defektolog bilan har kungi mashg'ulotlar kiritilgan. [4, B.242-246.] O'zbekiston tajribasidagi dastlabki inklyuziv MTT imkoniyati cheklangan bolalarni yoshligidan boshlab, ta'limga, jamoaga ijtimoiylashishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda maktab ta'limi tizimida ham inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni kuchayib bormoqda. Xususan, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha ishlar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Vazirlik) tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bolalar va o'smirlarga har tomonlama tuzatish-pedagogik yordam ko'rsatishda davlat va nodavlat tashkilotlari, ota-onalar va ko'ngillilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida Vazirlik huzurida Inklyuziv ta'lim resurs markazi tashkil etildi.

Joriy 2023 yil holati bo'yicha, O'zbekistonda 10 ming 289 ta maktab bino va inshootlari mavjud bo'lib, ularda 5 mln. nafardan ziyod o'quvchilar ta'lim bilan qamrab olingan. Maxsus internat maktablari bilan qamrab olingan o'quvchilar 48 ming nafardan ziyodni tashkil etmoqda. Aynan bu yoshdagi o'quvchilarni ommaviy maktablarga inklyuziv ta'limga o'tkazishda birinchi navbatda maktab binolarini imkoniyati cheklangan o'quvchilarning xususiyatidan kelib chiqib moslashtirish talab etiladi.

Dunyo tajribasida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni inklyuziv ta'limga qamrab olishda infratuzilma holati quyidagi talablarga mos bo'lishi talab etiladi:

birinchidan, barcha o'quvchilar uchun teng harakatlanish imkoniyatlarini yaratish lozim. Maktab binolarining an'anaviy zinopoyalari rampalar

bilan, kirish eshiklari panduslar, qavatlar orasi liftlar bilan hamda maktab maydonlari sesorli va ovoqli yo'l ko'rsatuvchi jihozlar bilan ta'minlanishi lozim;

ikkinchidan, ta'lim olish uchun zarur jihozlarni barchaning qo'llari teng yetadigan joylarga joylashtirish kerak. Sinf xonalaridagi stollar, kitob javonlari va boshqa sinf jihozlari yoshga xos balandlikda o'rnatilishi kerak;

uchinchidan, inklyuziv maktablar yetarlicha tabiiy yorug'likka, ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'k, binafsha, yashil, sariq ranglarga, yaxshi akustikaga (shovqinsiz muhitga) hamda moslashuvchan sinf mebellariga ega bo'lishlari lozim.

Mazkur talablardan kelib chiqib, O'zbekistonda inklyuziv maktablarning infratuzilma holati o'rganilganda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun zarur maxsus jihozlar, o'quv adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar, masofaviy o'qitish elementlari bilan ta'minlanishi hamda inklyuziv ta'limning resurs markazlari soni yetarli darajada emasligi aniqlandi.

1-jadval

Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari)

Nº	INDIKATOR NOMI	O'lchov birligi	Chegaraviy qiymat	Amalda
III. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash				
1	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun zarur maxsus jihozlar, o'quv adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlangan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushi	foiz	<8	>2,4
2	O'quv jarayonlarini tashkil etishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun masofaviy o'qitish elementlarini joriy qilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni	soni	<1500	-
3	Tashkil etilgan inklyuziv ta'limning resurs markazlari soni	soni	<203	>5

Inqiroz oldi - 1	Inqiroz oldi - 2	Inqiroz oldi - 3	Inqiroz - 1	Inqiroz - 2	Inqiroz - 3
------------------	------------------	------------------	-------------	-------------	-------------

Xulosa qilib, aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim bosqichida inklyuziv ta'limni tashkiliy jihatlarini kuchaytirish hamda bolalarni maktablarga borishdan oldin ijtimoiy moslashuvlarini ta'minlash muhimdir. Maktabgacha ta'limda sog'lom bolalar bilan tarbiyalangan bola maktab bosqichida erkin ta'lim olishiga imkoniyat yaratiladi. Bunda esa, maxsus pedagog (defektolog) va tyutorlarni tayyorlash muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021 yil 3 dekabr sanasida Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaatidan. <https://president.uz/uz/lists/view/5748>
2. JSST. Invalidnost i zdorove, 2021. <https://www.who.int/ru/newsroom/fact-sheets/detail/disability-and-health>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» O'RQ-595-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4646908>
4. Tursinboeva M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ilk qadam dasturidan foydalanish. *Scientific Progress. Volume 3 | Issue 3 | 2022. – B. 242-246.*

TA'LIM SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Rivojlanayotgan davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarixdan shuni ko'rishimiz mumkinki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan tortib, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh panellari va boshqa yuqori texnologiyalarni kashfetishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Shu bilan bir qatorda ta'lim sohasi tizimiga, qolaversa jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o'zining aks ta'sirini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion hodisa, psixologiya, pedagogika, innovatsion siyosat, inqiroz, ijtimoiy tizim, zamonaviy innovatsiyalar, motivatsiya.

Yangi ta'lim sohasini loyihalash va yaratish o'quvchi shaxsini uning psixofizik xususiyatlari va funksional imkoniyatlari nuqtai nazaridan har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Maktabda qobiliyatli, iqtidorli bolalar ham, pedagogik e'tiborni kuchaytirishni talab qiladigan past o'zlashtiruvchi bolalar ham o'qiydi. Ba'zi bolalarda o'qish uchun yuqori motivatsiya yuqori intensivlikdagi o'quv ishlari sharoitlariga moslashishni osonlashtiradi va o'quv-bilish motivatsiyasi juda past bo'lgan bolalar maktabga yomon moslashadi. Ko'pgina bolalarning jismoniy salomatligi dastlab zaif bo'ladi.

Izlanishlarimiz davomida maktabning asosiy tashvishi rivojlantiruvchi sog'liqni saqlash muhitini yaratish; o'quvchilar o'rtasida oqilona ehtiyojlar tizimini shakllantirish va birinchi navbatda, sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj; maktab bitiruvchisi shaxsini modellashtirish va modellashtirish vositasini takomillashtirish – ta'lim-tarbiya jarayonini valeologik ta'minlashdan iborat edi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, intellektual va ijodiy tarkibiy qismlar va uning yashash joyining holati hayot tarzini shakllantirish va sog'liqni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari. 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi [1].

Maktabning rivojlanayotgan ta'lim sohasi maktab o'quvchilarining ekologik bilimlarning muhimligini anglashini bildiradi. Ekologik ta'lim va tarbiya mazmunini belgilab, tabiat bilan hamkorlik, ekosferani optimallashtirish dasturining asosiy ijrochilari kelajak avlod vakillari bo'lishidan kelib chiqdik [5].

Tajriba ishlarini tashkil etishning boshida: O'quvchilarning 45 foizi "Sog'lom turmush tarzi" tushunchasini yoritib bera olmadi;

55% - kun tartibi yo'q;

40% - sport bilan shug'ullanmaydi;

30% - gipodinamiyadan aziyat chekadi;

Bolalarni valeologik ta'limga bo'lgan ehtiyoji aniq paydo bo'ldi:

- valeologik madaniyatning dastlabki shakllarini tarbiyalash;

- o‘z sog‘lig‘ini nazorat qilish va saqlashning dastlabki amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish;

- valeologik ong va umumiy valeologik madaniyatni rivojlantirish.

Ta‘lim jarayoni sub‘ektlarining sog‘lig‘ini saqlash va asrashning muhim sharti axborot-ma‘rifiy faoliyat edi.

Valeologik ta‘lim maktab tomonidan nafaqat o‘quvchilar va ularning ota-onalari, balki maktab mikrorayoni aholisi o‘rtasida ham olib borildi. Bir necha yillik ustuvorliklar quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

- muntazam jismoniy faoliyat;
- ratsional ovqatlanish;
- chekish, alkogolizm, giyohvandlikdan xoli muhit yaratish;
- stressni, depressiyani, tajovuzkor xatti-harakatlarni kamaytirish.

Sog‘lom turmush tarzi uchun motivatsiya yaratishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ommaviy umumta‘lim maktabida maktab o‘quvchilarining individual imkoniyatlarini baholash va ma‘lumotlarni ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish imkonini beradigan ijtimoiy-pedagogik, psixologik, psixo-pedagogik metodlarning ilmiy asoslangan tizimi hali ham mavjud emas, o‘qituvchi, psixolog, psixoterapevt, shifokorlarning birgalikdagi faoliyati kompleks texnologiyasi zarur.

Ta‘limga individual yondashish bolaning imkoniyatlarining, ya‘ni maksimal darajadagi intellektual, asabiy taranglik, stress, charchoq, tana funksiyalarining pasayishi, kasalliklarning individual chegarasini aniqlashni talab qiladi [2].

Kompleks diagnostika asosida bolalar guruhleri (yoki individual) uchun quyidagi masalalar bo‘yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mehnat va dam olish rejimini takomillashtirish; o‘qitish, ovqatlanish shartlari;

- birinchi sinfga o‘quvchilarni qabul qilish;
- uzaytirilgan sinflar to‘plami;
- chuqurlashtirilgan o‘rganish uchun fanlarni tanlash;
- modullarni tanlash;
- individual va guruhli psixologik korreksiyaning amalga oshirish;
- jismoniy rivojlanish korreksiyaning amalga oshirish;
- o‘quvchilar o‘rtasida sog‘liq muammolarining birlamchi profilaktikasi;
- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini bilish, o‘quvchilarning kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashini shakllantirish vositalari va metodlarini tanlash;

Bir necha yillar davomida operativ metodikalar banki tomonidan taqdim etilgan ishlab chiqilgan psixologik diagnostika dasturi sinovdan

muvaffaqiyatli o'tdi. Maktab har bir o'quvchining individual xususiyatlarini yoritib berishga qaratilganligini anglagan holda, o'quvchining o'zini bilishi va yaratishiga, o'qituvchiga esa har bir o'quvchiga ta'lim usullari va sharoitlarini moslashtirgan holda, bolani o'rgatishda yordam berish zarurligini ko'ramiz. Va bizning asosiy vazifamiz - ta'lim muhitini, fanni rivojlantiruvchi muhitini, psixologik-pedagogik yordamni yaratish yoki yaratilgan ta'lim muhiti har bir o'quvchi uchun moslashish va reabilitatsiya muhitini yaratishdir [2].

Kompleks diagnostika bolalarning yoshini hisobga olgan holda ta'lim muhitini shakllantirish imkonini beradi. Shunday qilib, *innovatsion maktab* birinchi sinflari va umuman birinchi bosqich uchun o'quv rejasiga haftalik 4 soat jismoniy tarbiya kiritildi: 2 soat jismoniy tarbiya, 1 soat suzish, 1 soat xoreografiya. Yilning vaqtidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ochiq havoda o'tkaziladi, bu esa yorug'lik omilini kuchaytirish, yopiq, cheklangan makon omilini olib tashlasha imkon beradi.

Jismoniy mashqlar to'plamiga suyak buzilishlarning oldini olish (tuzatish) mashqlari va ko'zlar uchun gimnastika kiradi. Gipodinamiya bilan og'rigan bolalar uchun maxsus o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich maktabda shaxsni rivojlantirish xizmati tavsiyalari asosida uy vazifalari hajmi keskin qisqartirildi, topshiriqlar individuallashtirildi; darsning ruhiy gigienasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amalga oshirildi; o'qituvchining ish usullari o'zgardi, eng yuqori kuchlanishli xotira, e'tibor, fikrlash talab qilindi; kalendar-mavzuli reja tuzilmasi o'zgartirildi; sport-sog'lomlashtirish markazi muammolariga e'tibor kuchaytirildi (fizioterapiya, fitoterapiya, massaj, suzish havzasi); mutaxassislarning individual maslahatlari, muloqot soatlari, treninglar, musiqa-o'yin terapiyasi joriy etildi [3].

Bolaning psixofiziologik rivojlanishini monitoring qilishning individual xaritalari orqali biz o'quvchiga o'z rivojlanish yo'nalishini, bir maktab ichida "o'z" sinfini topishga imkon beradigan tabaqalanishni yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz, shuning uchun maktabda "lingvistik", "iqtisodiy", "fizika-matematika", "kadet", "tezlashtirilgan o'qitish sinflari", "ta'limga yuqori motivatsiya sinflari", modulli va yo'nalishsiz o'qitish guruhleri paydo bo'ldi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda biz sog'liq - insonning hayotiy asosi, uning tarkibiy qismlari: jismoniy salomatlik, ruhiy salomatlik, intellektual salomatlik, axloqiy salomatlik tamoyillaridan kelib chiqamiz.

Tana holatidagi buzilishlar aniqlanganda, shaxsni rivojlantirish xizmati mutaxassisleri guruhi maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, amaliy maktab psixologlari, ota-onalar va o'quvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. Bunday tavsiyalar, masalan, tezlashtirilgan o'quv mashg'ulotlarini yaratishda yuqori darajadagi tashvish va moslashish mexanizmlari kuchlanishining kuchayishi aniqlanganda yaratilgan.

Sinfidagi o'quvchilarning shaxsiy kartalarini tahlil qilish psixologik-pedagogik yordamni farqlash uchun guruhlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- Zaxirasi yuqori yoki yetarli bo'lgan, hech qanday og'ishlari bo'lmagan o'quvchilar bilan ishlash ularning sog'lig'i holatini joriy monitoring qilishdan iborat [4].

- Funksional holati biroz yomonlashgan, charchoq bo'lgan, hayajoni yuqori o'quvchilar uchun o'qish va dam olishni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, psixolog, shifokor maslahatlari o'tkaziladi. Guruh mashg'ulotlari, suv-musiqa-fitoterapiya, dinamik monitoring o'tkaziladi.

- Funksional holati sezilarli darajada yomonlashgan, hissiy stressli o'quvchilar uchun individual tuzatish va reabilitatsiya kartalari ishlab chiqiladi, bolalar maktab shifokori, psixolog va psixoterapevt bilan doimiy aloqada bo'lishadi.

Sog'liqni saqlashning yomonlashuvini nazorat qilish va o'z vaqtida yetarli darajada tuzatish muammosi turli xil o'qitish tezligida ixtisoslashtirilgan sinflarda o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq holda ayniqsa muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytamizki bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy motivatsiya va ta'limning bolaning manfaatlariga mos kelishi bilan ham, o'quvchilar tomonidan katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish markaziy asab tizimiga sezilarli stress, charchoq, xavotirning kuchayishi bilan birga keladi va salomatlik holatida og'ishlar chastotasi ortib boradi.

Ixtisoslashgan sinflarida va tezlashtirilgan o'qitish sinflarida o'qishni boshlagan o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun bolalarning motivatsion sohasi; hissiy-irodaviy soha; tengdoshlar guruhidagi o'quvchining pozitsiyasi; temperament xususiyatlari; tashvish; o'zgartirilgan jamoada o'quvchilarning moslashish darajasi; belgilarga urg'u; o'z faoliyati natijalaridan qoniqishni aniqlash imkonini beradigan metodikalardan foydalanilsa ta'lim samaradorligi ko'zlangan bosqichga ko'tariladi. Buning uchun biz o'qituvchilardan tinimsiz mehnat, o'z ustida ishlash, zamonaviy pedagogik mahorat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/3107036>.
2. Burgin M.S. Pedagogikadagi innovatsiyalar va yangilik // Sovet pedagogikasi. - 1989. 12-son 45-46 b.
3. G'afforov. Ya. X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Scientific Journal. 2020, 482 b.
4. Qorayev S.B. Pedagogika. –T.: “Zebo-Print”. 2023 y 54-57 b.
5. Azamov SH.X “Rivojlantiruvchi ta'lim sohasini tashkil etishda fanlararo munosabatlar” Jizzax “Tafakkur ziyosi” jurnali 2023-yil

“TARBIYA” FANINING JORIY ETILISH MA'NAVYI TARBIYA STRATEGIYASINING VOSITASI SIFATIDA

Ahmedova O'g'ilhon Nomozovna

Farg'ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda “Tarbiya” fanining joriy etilganligi ma'naviy tarbiya strategiyasining vositasi ekanligi ilmiy o'rganilgan. Jamiyatdagi mavjud jarayonlarni o'z davri va bosqichlarida yuksalishi shaxs ma'naviy qiyofasiga bevosita bog'liqdir. Bu esa ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi.

Kalit so'zlar. “Tarbiya” fani, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya strategiyasi, ta'lim muassasasi, maktab ta'limi, ma'naviy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlar.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni yoshlar qalbiga singdirishda ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalari katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu bilan jamiyat a'zolarining xususan yoshlarni haqiqatparvarlik, ezgulik, toqatlilik, e'tiqodlilik, sabrlilik kabi abadiy insoniy qadriyatlarni puxta egallash ma'naviy tarbiyaning strategik maqsadini ifodalaydi. Bizningcha bu jarayon ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalarini izlash zarurligini taqozo etadi. Pirovard natijada tadqiqot maqsadi – “kelajak odami”ni tarbiyalashga erishiladi. Bu borada dolzarb bo'lgan ma'naviy

tarbiya strategiya zarurati haqida "...mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak"[1.287.]. Chunki O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ochiqlik, oshkoralik muhiti ta'sirida jamiyatdagi ma'naviy muhitning salbiy qirralari namoyon bo'lib qolmoqda. Unga qarshi faqat yangicha kurash usullari bilan qarshilik qila olish mumkin. Shaxsning ma'naviy olamiga ta'sir kuchining turfa xilligi yoshlardagi axloqiy tarbiyani ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va jamiyat axloqiy turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonda tizimlashtiriladi. Bu xususida "Odam otadan tug'iladi, ammo uning axloq-odob borasidagi fazilatlar jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi"[2.3.], degan qarash naqadar to'g'ri ekanligini anglatadi. Jamiyatda ma'naviy tarbiya strategiya shaxsning butun hayotiy davri ma'naviy bosqichidagi rivojlantirishining tizimli natijasidir. Bunda jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning mavjudligi va ularni yaratishda shaxsning ishtiroki bilan tavsiflanadi. "Bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o'xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchidan qabul qiladilar"[3.56.]. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati samara berishi mumkin.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", - deya alohida ta'kidlaydi.

Ma'naviy tarbiya strategiyasining vositasi sifatida maktab tizimi olinadigan bo'lsa, "Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr - 7(6)-10 yoshli davrda - boshlang'ich sinflarda;

ikkinchi davr - 11-17 yoshli davrda - o'rta va yuqori sinflarda.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetentsiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi"[4.], deb belgilab qo'yilgan. Bu esa yoshlarni asosiy ma'naviy tarbiyasini shakllantirish vositasi ekanligini bildiradi. Bizningcha bu jarayonda birinchidan, o'quvchilarning ma'naviy tajribasining barcha manbalarini yuksaltirish, jamoada bolalar o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchilar va ularning o'qituvchilari va otionalari o'rtasidagi munosabatlar, kundalik hayotiy estetik darajalari ortib boradi. Ikkinchidan, turli yosh bosqichlarida faoliyat va ta'lim shakllarining to'g'ri o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi. Uchinchidan, axloqiy mezonlarni istisnosiz barcha turdagi faoliyat turlarini va o'quvchilar shaxsining namoyon bo'lishini baholashga kiritish.

Maktab tizimidagi ma'naviy tarbiya vositalariga umumiy va xususiy usul va shakllar kiradi. Ma'naviy tarbiya usullaridan biri sifatida o'quvchilarni axloqiy sohada xabardor qilishdan iborat. Bunda o'quvchilarga axloqiy me'yor va qadriyatlar haqidagi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladigan tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir usuli - o'quvchilarni faoliyatga jalb qilish, ya'ni, jismoniy mehnat, ijtimoiy foydali, badiiy-ijodiy, o'quv va kognitiv, sport va dam olish jarayonlarida ma'naviy tarbiyani berish zarur bo'ladi. "Ta'lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz"[5.], bu esa maktab tizimi jamiyat uchun juda muhim ekanligini anglatadi. Bu yoshlar e'tiborini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"Qarori[6.] qabul qilindi. Unda belgilanganidek, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi

ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish" maqsadida Tarbiya fani joriy etilganini ta'kidlash mumkin.

Bugungi shiddatli zamon sharoitidan kelib chiqib dunyoda ta'lim va tarbiyaga e'tibor kuchayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya masalasiga e'tibor yangi bosqichga kutarilmoqda. Chunki Tarbiya fanini joriy etilishi maktablarda dars beruvchi pedagog-o'qituvchilardan o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llay olish, ularga yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish, Tarbiya fanini o'qitish metodikasining umumiy va xususiy tamoyillaridan xabardor bo'lishni dolzarblashtiradi. Bu esa ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalarini asosida o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zlangan natijalarga erishish samaradorligini yuqori darajaga ko'taradi.

"Ma'naviy jarayonlar transformatsiyasi murakkab ma'naviy-axloqiy voqelikni, insonning sadoqatidan kelib chiqadigan asosiy qadriyatlarni yangilanishni ifoda etadi. Shuningdek, ma'naviyatning uch turi tahlil etilib, birinchi turini individual va shaxsiy fazilatlar bilan tavsiflanadigan aql-idrokka kiritish mumkinligi qayd etilgan. Aql-idrokning individual fazilatlarini tabiiy muhitga moslashtirish xarakterini, shaxsiy fazilatlar esa aqlni jamiyatga, aql rivojlanishining obyektiv shartlariga, ta'limga, o'zini tutishning yuqori madaniyatiga moslashtirishni tavsiflashi keltirilgan. Ma'naviyatning ikkinchi turi ichki faollik va ruhiy holatlarning intensivligi, shaxs uchun ruhiy taranglikning doimiy namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ma'naviy holatlarining yuksak o'sish davrlarini va uning qo'llash davrlarini ajratish mumkin. Uchinchi turdagi ma'naviyat-psixologik erkinlik bilan tavsiflanishi, bu sub'ektning tabiat va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini anglash asosida o'z xohish-irodasini namoyon etish imkoniyatini anglatish"[7.15.], zarurligini ta'kidlaydi. Bu jarayonning muhim jihati ikkita asosiy maqsadda namoyon bo'ladi, *birinchidan*, uning vazifasi jamiyat tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatlarning bir qismini individuallashtirish, *ikkinchidan esa*, ma'naviy tarbiyaning vazifasi madaniy va estetik qadriyatlarni idrok etish uchun ma'lum qobiliyatlarni yaratishdir.

Bizningcha, "Tarbiya" fanining joriy etilish ma'naviy tarbiya strategiyasining vositasi sifatida quyidagilar bilan ifodalanadi;

Birinchidan, jamiyat yuksak ma'lumotli, yuksak ma'naviyatli, nafaqat bilim, balki mukammal shaxsiy fazilatlariga ega insonlarni tarbiyalash zarurati ekanligi.

Ikkinchidan, zamonaviylashib borayotgan davrda yoshlarning yetuk bo'lmagan aql-zakovati va his-tuyg'ularini axloqqa zid bo'lgan salbiy xislatlar ta'siridan xolos etish kerak.

Uchinchidan, ta'limda yuqori darajadagi axloqiy tarbiyaga e'tibor berish bilan insonning kundalik xulq-atvorida uning boshqa shaxslarga bo'lgan munosabatini hurmat va xayrixohlik asosida belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent. O'zbekiston. 2022.
2. Yusupov E. *“Ma'naviy kamolot omillari”*. Toshkent. Universitet, 1995.
3. Fitrat. A. *“Rahbari najot” asaridan. “O'zbek pedagogikasi antologiyasi”*. 2-jild. Toshkent. O'qituvchi. 1999.
4. www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son Qarori.
5. Prezident videoselektorda maktab ta'limi tizimidagi kamchilik va muammolarni tanqid qildi. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/mirziyoyev>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 422-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son
7. Sharipov A. Z. *Yangi O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy islohotlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Buxoro. 2021.

YOSHLAR VA OLIY TA'LIM ISLOHOTLARI

Xaitov Bahodir Tursunovich,

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar, ularni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar orasida uchrayotgan ayrim muammolar sanab o'tilgan.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida olib borayotgan islohotlar va ularning yoshlar hayotida tutgan o'rni qisqacha yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. *Yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, oliy ta'lim, oliy ta'limdagi islohotlar, yoshlar tarbiyasi.*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, mamlakatning rivoji, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon turmush tarzi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beriladigan e'tibor darajasi bilan bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz. Bu borada "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.[4]

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, eskremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligini alohida ta'kidlab o'tgan edilar. [5]

Insoniyatning yangi asrga qadam qo'yishi, ilm-fan sohasida qo'plab yutuqlarni qo'lga kiritish bilan birgalikda yangidan-yangi muammolarni yuzaga keltira boshladi. Bu davrda yoshlar tafakkurini zaharlashga qaratilgan mafkuraviy tahdidlarning tobora kuchayib borishi natijasida yoshlarni turli ko'rinishdagi zararli va yot mafkuralarning ta'siridan himoya qilish, yoshlar orasida ularga nisbatan milliy immunitet tizimini joriy etish va sog'lom mafkurani shakllantirish muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Yoshlar orasida ba'zi yot g'oyalarning tarqalishi, ularning turli diniy oqimlarga kirib qolishi, yoshlar mafkurasida yuzaga kelgan bo'shliq, yoshlar orasida turli yuqumli kasalliklar, jumladan OITS, giyohvandlikning paydo bo'lishi, jinoyatchilikning ko'payishi, ishsizlik va uning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy keskinlik, yoshlarda beqarorlik kayfiyatining ortib borishi,

o'z taqdiridan norozilik kabilar nafaqat ma'lum bir mintaq, balki butun jahonda yuz berayotgan global muammolardan biriga aylanib bordi.

Ushbu holatlarning tobora ortib borishi davlatlarning yoshlarga oid davlat siyosatiga e'tiborli munosabatda bo'lishini taqozo eta boshladi. Mamlakatimizda 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. [1]

Ushbu Qonunning eng muhim jihati, avvalombor, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar, yosh oila, yosh mutaxassis kabi qator tushunchalarga alohida to'xtalib o'tildi. Unga ko'ra quyidagi tushunchalar bo'yicha yagona to'xtamga kelindi: **yoshlar** – o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar; **yosh oila** – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol); **yosh mutaxassis** – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch yildan ko'p bo'lmagan o'ttiz yoshdan oshmagan xodim. [1]

So'nggi yillarda yoshlarga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik har qachongidan ham oshib bormoqda. Jumladan, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, san'at va adabiyot sohasidagi iqtidorli yoshlarning salohiyatlarini yanada yuksaltirish maqsadida Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Namangan va boshqa viloyatlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasida ijod va ixtisoslash-tirilgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni imzolandi. [2]

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va

ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

Yangilanayotgan O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida olib borayotgan izchil islohotlari oliy ta'lim muassasalarga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik berish, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilimli va malakali qilib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazilmoqda. Asos sifatida Yevropaning ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi qabul qilindi.

Ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida "Raqamli universitet" loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS - Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Bu tizim "Ma'muriy", "O'quv", "Ilmiy" va "Moliyaviy" jarayonlarini boshqarish modullarini o'z ichiga oladi.

2021-yil 1-sentabrdan boshlab bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalarida joriy etish orqali "O'quv jarayoni" modulida guruh jurnali, dars jadvali, imtihonlar jadvallari, talabaning reyting daftarchasi, o'zlashtirish qaydnomalari, davomat hisobotlari, diplom va akademik ma'lumotnomalar raqamlashtirildi.

O'quv reja va o'quv dasturlar tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi amaliyoti bekor qilindi. Oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik berilib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab barcha o'quv rejalar va o'quv dasturlar har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi tartibi joriy etildi.

Oliy ta'lim islohotlarining mahsuli sifatida mamlakatimizda oliy ma'lumot olmoqchi bo'lgan har qanday fuqaro uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Aniqroq aytganda, yoshidan qat'i nazar, oliy ma'lumotni kunduzgi,

kechki va sitqi ta'lim shaklida olishga sharoit yaratildi. Bundan tashqari, mehnat staji, ish tajribasiga ega bo'lgan fuqarolar o'zlari ishlayotgan korxonaning yuqori tashkilotlari tavsiyasi bilan imtihonsiz, suhbat asosida oliy o'quv yurtiga kirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jumladan, kamida 5 yil ish stajiga ega xodimlarini 2021/2022 o'quv yilida davlat OTMlarining sirtqi va kechki ta'lim shakliga o'qishga kirishi uchun Respublikamizdagi 71 ta tashkilotga tavsiya berish huquqi berildi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli oliygohlarimiz salkam 3 barobarga ko'payib, 200 tadan oshib ketdi, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. [7]

Maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2030-yilda 50 foizga yetkaziladi. Shuni hisobga olib, oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlari 2 barobar ko'paytiriladi. [3]

Oliy ta'limning qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish, tizimda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, o'quv yuklamalarini maqbullashtirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 4,5 barobarga oshirilishi – oliy ta'lim islohotlarining ilk natijalaridandir.

Shuningdek, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etilishi, talabalarga imtiyozli kreditlar ajratilishi, chet tili ta'lim dasturlari bo'yicha eng yuqori ballarni to'plagan iqtidorli yoshlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, abituriyentlarning bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish imkoniyati kabi ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar yoshlarning bilim va salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq 2018-2019-o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlarida test sinovlari o'rniga ijodiy imtihonlar joriy etildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor

yoʻnalishiga aylandi. 2022-yil 18-iyulda imzolangan “Oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tashkilotlarida xotin-qizlarning taʼlim olishlarini qoʻllab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga binoan 2022-2023-oʻquv yilidan boshlab, taʼlim kontraktlarini toʻlash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi. [4]

Shu bilan birgalikda 2022-2023-oʻquv yilidan boshlab, magistraturada oʻqiyotgan qizlarning kontrakt pullari toʻliq budjetdan qoplab berila boshlandi. Shuningdek:

– har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuboriladi;

– har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yoʻqotgan 150 nafar qizlarning taʼlim kontrakti mahalliy budjetdan toʻlab beriladi;

– yosh farzandi bor talaba-qizlarning masofaviy oʻqishiga sharoit yaratiladi;

– doktorantura yoʻnalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi belgilandi.

Keyingi yillarda oliy taʼlim tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, shuningdek, koʻplab xorijiy oliy oʻquv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobiy holat boʻldi. Bir jihatdan oliy taʼlimning qamrovi kengaysa, ikkinchidan, davlat va nodavlat taʼlim muassasalari oʻrtasida ijobiy maʼnodagi oʻzaro raqobatni taʼminlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi. Zero uning natijasi muhim hisoblanadi, chunki har bir oliy oʻquv muassasasi sifatli kadrlar tayyorlash uchun kurashadi. Raqobat va bozor sifatsiz mahsulotlarni yoqtirmaydi. Natijada raqobatbardosh mahsulot yaratish har bir oliy taʼlim muassasasining asosiy maqsadiga aylanadi, natija kutilganidek yuqori boʻladi. Shularning oʻziyoq taʼlimdagi islohotlar chuqur oʻylangan holda olib borilayotganini anglatadi.

Yoshlarning taʼlim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar boʻlib ulgʻayishi yoʻlida zamonaviy, ilgʻor-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun Oʻzbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, maʼnaviy yetuk, jismonan sogʻlom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga eʼtibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori boʻladi.

Jumladan, yotoqxona bilan qamrab olinmagan, ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy taʼlim muassasalari talabalariga 2021-yil 1-maydan boshlab, ular tomonidan toʻlanadigan oylik ijara toʻlovining 50 foizi Davlat

budjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi. Bunda ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida - bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari, qolgan hududlarda - bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravaridan oshmasligi, ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi birinchi navbatda ehtiyojmand oila farzandlariga, o'rnak ko'rsatgan va faol talabalar uchun berilishi belgilib qo'yildi.

Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi oshib borishi bilan bir qatorda, yotoqxonalariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. 2021-yilda talabalar turar-joylaridagi yashash xonalarini optimallashtirish va ikki yarusli krovatlarni joriy etish orqali qo'shimcha 20 ming o'rin yaratilgan bo'lsa, unga qo'shimcha ravishda yana 11 ming o'rinli 28 ta yotoqxonalar tashkil etilib, foydalanishga topshirildi.

Natijada davlat OTMdagi talabalar turar-joyining soni 256 taga yetkazilib, 91 ming nafar talabani joylashtirish imkoniyati yaratildi va yotoqxonaga bo'lgan ehtiyojning 41 foizi ta'minlandi.

Shunga qaramasdan, hozirda qo'shimcha talabalar turar-joylariga ehtiyoj mavjud. Mazkur ehtiyojni bartaraf etish uchun 2022-yilda 18 800 o'rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish, 2026-yilga qadar esa 72 400 o'rinli 181 ta talabalar turar-joyi barpo etish natijasida talabalarni yotoqxonalar bilan ta'minlash darajasini 60 foizdan oshirish belgilab qo'yilgan. [3]

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash eng oliy maqsadlarimizdan biridir.

XXI asrda yoshlarga munosabat masalalarida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo'lgan qonuniyatning mavjudligi; ya'ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega oddiy manbadan taraqqiyotni ta'minlaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi katta kuchga aylanib bormoqda.

Ularning bilimi, kasbiy malakasi, ma'nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol subyektiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham har bir yosh o'z xalqi, millatining sha'ni, qadr-qimmatini joyiga qo'yish, vatanparvarlik tuyg'usi bilan yashash, millat taraqqiyotining davomiyligini ta'minlash kafolatidir. Yoshlar siyosiy jarayonlarga o'ziga xos demokratik o'zgarishlar, yangiliklar olib kirish bilan uni yanada boyitadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, faol yoshlar

siyosiy jarayonlarga uni yanada demokratlashtirish, yangilash hamda modernizatsiyalash ko‘zi bilan qaraydi.

Bugungi globallashuv davri oldimizga qo‘yayotgan dolzarb muammolar siyosat, yoshlar va bandlik tushunchalari bir-biri bilan har qachongidan ham bevosita, chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bandlik masalasi endi tor iqtisodiy darajadan, ya‘ni aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganligini ifodalovchi iqtisodiy kategoriyadan global siyosiy muammo darajasiga ko‘tarildi.

Shuning barobarida nafaqat hech qayerda o‘qimaydigan, ishlamaydigan yoshlarning, ayni paytda o‘quvchi, talaba, ishlayotgan, armiya safida xizmat qilayotgan, xullas barcha-barcha yoshlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda qanchalik faolligi, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyalanganligi, ya‘ni ularning ongu tafakkurini, ijtimoiy foydali vaqtini qanday qiziqishlar, qarashlar band etgan degan masalalar yanada muhim ahamiyat kasb etmokda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning qudratini belgilaydigan omillar ko‘p. Biroq ularning eng asosiylaridan biri shu yurtda voyaga yetayotgan yuksak ma‘naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol avloddir. Zero, el-yurtning kelajagi bugun kamolga yetayotgan yoshlar qo‘lida. Mard va jasur, ona Vatan uchun jon fido eta oladigan, buyuk alloma va mutafakkirlarga munosib farzand, sarkarda bobolarimizga davomchi bo‘la oladigan yoshlar oila bag‘rida, ta‘lim-tarbiya maskanlarida voyaga yetadi.

Shunday ekan, biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 37-son, 3-modda.*

2. *“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.*

3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.*

4. “Oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tashkilotlarida xotinqizlarning taʼlim olishlarini qoʻllab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2022-yil 18-iyul.

5. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. –T.: “Oʻzbekiston”. 2018.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr.

8. Xaitov B.T. Evolution of State Policy on Youth in the Republic of Uzbekistan. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (WOS). Volume 2 No 5 (May 2023), 5-10.

9. Xaitov B.T. Vatanparvarlik – yuksak insoniy tuygʻu. “Pedagog” respublika ilmiy jurnali. 15-yanvar, 2023-yil 5-son, 429-434.

www.lex.uz.

www.stat.uz

www.prezident.uz

www.strategy.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AKMEOLOGIK QOBILIYATNI TARKIB TOPTIRISH

G.Toʻrayeva-

Andijon viloyat pedagoglarni yangi
Metodikalarga oʻrgatish milliy markazi,
maktabgacha maxsus va boshlangʻich
taʼlim kafedrasini oʻqituvchisi

Anotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda akmeologik qobiliyatni tarkib toptirishda bolalarning kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarini keng joriy etish, akmeologik yondashuv asosida bolalarning bilish kompetentligini rivojlantirish, bolalarning individual taʼlim traektoriyasini samarali tashkil etish orqali bilish faolligini oshirishda muhim oʻrin egallagan.

Kalit soʻzlar: iqtisodiy intellektual resurs, akmeologik qobiliyat, integrativ, model, kompetent, korreksiya

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda jahonning rivojlangan mamlakatlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi tajribalarini o'rganish, mahalliy shart- sharoitlar, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining maktabgacha ta'lim sohasida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi natijalarga va yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirib, muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda akmeologik qobiliyatni tarkib toptirish, bolalarning kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarini keng joriy etish, akmeologik yondashuv asosida bolalarning bilish kompetentligini rivojlantirish, bolalarning individual ta'lim traektoriyasini samarali tashkil etish orqali bilish faolligini oshirish muhim o'rin egallamoqda.

Shningdek, maktabga tayyorlash jarayonida bolalarning ta'limiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida kompetensiyaviy yondashuv bilan bolalarning maktabga tayyorlik tizimining o'zaro uyg'unligini ta'minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish, bolalarning individual ta'lim traektoriyasini loyihalash, tayanch kompetensiyalar natijasi sifatida bolalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishga doir kuzatish, taxlil qilish ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga, bo'lajak maktab o'quvchilarida kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini akmeologik ta'lim muhiti bilan integrativligini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarda o'z-o'zini takomillashtirish istagini qaror toptirish, mustaqil bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini, kreativlik, yangi qadriyatlarni o'zlashtirishga, qobiliyatlilikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda

xorijiy tillarni o'rgatish, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni kompetentligini rivojlantirish, tarbiyachilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishning didaktik parametrlari, ta'limni axborotlashtirish sharoitida tarbiyachilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ayrim jihatlari alohida muxim ahamiyatga ega. Biroq akmeologik yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish mazmuni, tuzilmasi, komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari, kognitiv kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi sifatida akme shaxs modeli, maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning texnologik jihatlarni tadqiq etish zarur..... Bu esa, akmeologik yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishning texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot olib borishni taqozo etdi. [1] 142

Tadqiqot davomida biz asosiy maqsad sifatida akmeologik yondashuv asosida

bo'lajak o'quvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat etib tanlab oldik hamda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

- kredit-modul tizimida kognitiv kompetentlikning o'rni va ahamiyatini yoritib berish;

- bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi sifatida akme shaxs modelini takomillashtirish;

- bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik texnologiyasini takomillashtirish.

Mazkur tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy yangiliklarni quyidagilardan iborat:

- ♣ bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi (komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari) axborotlarni izlash, qayta ishlash va qo'llash bo'yicha shaxsiy tajribani to'plashga imkon beruvchi motivatsion-irodaviy, o'quv-bilish, xulq-atvor va refleksiv-baholovchi faoliyat natijasini aks ettiruvchi shaxsning integrativ dinamik xususiyatiga barqaror ustuvorlik berish asosida aniqlashtiriladi;

- ♣ bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik xususiyatlari shaxsiy akmeologik, yo'nalishlararo, produktiv,

refleksiv-innovatsion, kreativ-shaxsiy rivojlanish, tadqiqotchilik mezonlarini o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini korreksiyalash, o'z-o'zini aktuallashtirish bilan semantik aloqasini ta'minlash orqali takomillashtiriladi;

♣ kognitiv kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi sifatida akme shaxs

- modelining jarayonli-mazmunli bloki obyektiv, sub'ektiv, obyektiv-sub'ektiv omillarini hisobga olish asosida didaktik o'zaro ta'sir sifatida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish orqali takomillashtiriladi;

♣ bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning texnologik bosqichlari (o'z-o'zini anglash, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini rivojlantirish) o'quv-bilish faoliyati tavsifiga mos keluvchi muammoli, hamkorlikda o'qitish, individuallashtirish, izlanishli-tadqiqotchilik, o'quv axborotlari ustida ishlash jarayonida yuqori motivatsiyani rag'batlovchi metodlarni (emotsional-axloqiy vaziyatlarni yaratish; rag'batlash; bilishga doir o'yinlar; o'quv munozarasi; istiqbolni prognozlash, o'quv loyihasi) tizimli qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalardagi kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holati yoritib berilishi, bolalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning akmeologik texnologiyasini joriy etishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilishi nazarda tutilgan.

Akmeologiyaning predmetida shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etuklikka ega bo'lishi lozim degan konsepsiya yuzaga kelgan. Maksimal etuklik shaxs rivojining yuqori cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada "akme" deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Akmeologiya izchillik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu – inson hayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'zini-o'zi takomillashtirishga moyillik anglanadi. B.G.Ananevning fikricha, akmeologiyaning ilmiy asosi, insonning rivojlanishida individ, shaxs, individuallik va sub'ektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan. Akmeologiya predmeti-odamning ijodiy salohiyati bo'lib, u inson tomonidan o'ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlar va iqtidorni qanday qilib, qanday shart-sharoitlarda, qaysi qonuniyatlar ta'sirida ruyobga chiqarishini kompleks tarzda o'rganadi. Akmeologiyada maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy faoliyati va o'z hayotini o'zi belgilashi, o'zini-o'zi rivojlantirishi va ijodkorlik qobiliyatini

shakllantirishi, uning hayotiy faoliyati sub'ekt sifatida qarab chiqiladi. Akmeologiya fanining asosiy vazifasi ongli faoliyat sub'ekti bo'lmish shaxsni ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani turli faoliyat jarayonlarida, xususan, davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi asosida maktabga tayyorlanish doirasida o'z ijodiy salohiyatini to'la ochish va amalda namoyish etishiga bog'liq bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar, texnologiyalar bilan ta'minlashdir. [2]

V. Karimova “ har bir taraqqiyot davrining o'ziga xos ahamiyatli tomoni bor, oxirgi yillarda akmeologiya fani paydo bo'ldiki, u aynan etuklikka erishishning shart-sharoitlari va omillarini o'rganadi, davr nuqtai nazardan ayni muhokama qilina yotgan yosh davrlarining xususiyatlarini o'rganadi” [3], deb ta'kidlaydi.

Demak, har bir yosh davrlarida shaxsda turli dinamik xususiyatdagi akmeologik rivojlanishni bashorat qilish mumkin.

M.M. Kashapov inson yosh davrlarida psixik va kasbiy rivojlanish bosqichlarini quyidagicha bosqichlarga ajratgan:

I. Kasbgacha bo'lgan rivojlanish

- 1.1. O'yindan oldingi rivojlanish (3yoshgacha);
- 1.2. O'yin bosqichi (maktabgacha bolalik 3-7 yoshgacha);
- 1.3. O'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi (7-8 dan 11-12 gacha bo'lgan yosh)

II. Kasb tanlash davridagi rivojlanish

- 2.1. Optatsiya bosqichi (hayotga ongli tayyorgarlik, mehnat, kasb yo'lini rejalashtirish, kasb tanlash davri 13-13 dan 14-18 yoshgacha)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'murov B.B. Bolalarni oilada jismoniy tarbiyalashning ijtimoiy psixologik omillari//Psixologiya.- Buxoro. 2013,-N^o2. B.56-57. (13.00.00 N^o14)

2. Ma'murov B.B. Uzluksiz pedagogik ta'limni tashkil etish soxasidagi xalqaro tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari//Uzluksiz ta'lim.- Toshkent. 2014, - N^o1. B.120-127. (13.00.00 N^o9)

3. Ma'murov B.B. Akseologicheskiy podxod v podgotovke buduuqix pedagogov k proektirovaniyu uchebnogo protsessa // Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka. – Moskva. 2015, - N^o6. S 120-124. (13.00.00 N^o12)

4. Ma'murov B.B. SHaxsga yo'naltirilgan ta'limga akmeologik yondashuv// Pedagogik mahorat. Buxoro. 2017, - N^o2. B.128-132. (13.00.00 N^o23) II Bo'lim (II chast; II part) 18. Ma'murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariya

INTERNET TEXNOLOGIYALARINING MASOFAVIY TA'LIMNI JORIY ETISHDAGI ROLI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Sotiboldiyev G'ayratjon Otamirzayevich,
Namangan muhandislik-qurilish instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tarmoqlari va ta'lim platformalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi, uning afzalliklari hamda muammolari haqida so'z yuritiladi. Ta'limning an'anaviy shakli keyinchalik axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi innovatsion shaklga o'tishi prognoz qilingan. Shu bilan birga internetning ushbu sohada tutgan o'rnini va roli, ta'limning onlayn shakliga o'tishining pandemiya tufayli tezlashuvi masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pandemiya, masofaviy ta'lim, internet, MOODLE, HEMIS, "Kundalik.com", "ZiyoNET", onlayn.

O'zbekistonda internet tarmoqlarini kirib kelishi XX asrning 90-yillariga to'g'ri kelsada, ta'lim jarayoniga kirishi XXI asrga to'g'ri keladi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli – masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Ta'lim tizimiga internet texnologiyalarining keng joriy etish borasida avvalo, ushbu tizimdagi muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 2018 yil 9 yanvarda Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida yig'ilish o'tkazilib, unda mas'ullarga Internetga kirish uchun narxlarni kamaytirish, ulanish tezligini 2020 yilgacha kamida 4 baravar oshirish hamda MDH mamlakatlari darajasiga olib chiqish haqida ko'rsatma berildi[1]. Davlat rahbari bergan ko'rsatmalar, keyingi yillarda o'z samarasini bera boshladi. 2018 yil 5 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni[2] imzolandi. Bunda xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, shu jumladan, barcha muassasalarning telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash, barcha foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar manbasini yaratish, ularning faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda ta'limga oid 307 ta, ilmga oid 55 ta sayt faoliyat ko'rsatmoqda.[3]

Internetning ta'limga kirishi jarayoni 2020 yil martdan boshlab tezlashib ketdi. Buning asosiy sababi 2020 yil 15 martdan pandemiya tufayli respublikada karantin holati joriy qilindi. Respublika ta'lim muassasalarida vaziyat taqozo qilgani va insonlar salomatligi muhim bo'lgani uchun yangi, o'zgacha ish tartibiga o'tildi. Ta'lim uzilishlarining oldini olish maqsadida 30 martdan boshlab teledarslar, Internet tarmoqlari orqali video va onlayn darslar rejimga o'tkazildi.

Pandemiya tufayli tizimga masofaviy texnologiyalar joriy qilinib, 10 mingdan ziyod ta'lim dargohlaridagi 7 million o'quvchi va 500 ming talabaga onlayn dars berish yo'lga qo'yildi. Bu yangi mexanizm karantin sharoitida fanlar o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlab berdi. Shu bilan birga, jahon ekspertlari pandemiya tufayli joriy qilingan qat'iy karantin qoidalari ta'lim, jumladan, oliy ta'lim uchun yangi imkoniyatlar yaratganini e'tirof etishmoqda. [4] Mutaxassislar fikricha, pandemiya davri ta'lim tizimiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yutuqlar haqida: Birinchidan, onlayn ta'lim mazkur tizimni kamida 10 yilga rivojlantirishga xizmat qildi. Ma'lumot uchun: 2018 yilda xalqaro THE (Time higher education) nashri e'lon qilgan ma'ruzada 2030 yilga kelib, faqat elita universitetlarning onlayn ta'limga o'tishini prognoz qilgan edi. Bugun kunda COVID-19 pandemiyasi ushbu jarayonni tezlashtirib yuborganini guvohi bo'lib turibmiz.

Ikkinchidan, yoshidan qat'i nazar barcha professor-o'qituvchilarda ta'lim platformalari bilan ishlash, masofaviy ta'lim va uni olib borish sohasidagi bilim va ko'nikmalari shakllandi yoki rivojlandi. Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar esa tahlil etib borilmoqda. Masofaviy ta'lim ayni paytda kelajak uchun eksperiment vazifasini o'tamoqda, desak adashmaymiz.

Uchinchidan, respublika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan hamkorligi faollashdi. Bir qator universitetlar jahonning yetakchi o'quv dargohlari bilan onlayn konferensiya, vebinarlar uyushtirdi. Qisqa muddatda yangi sharoitga moslashishga to'g'ri keldi, Zoom internet platformasida ishlash misli ko'rilmagan imkoniyatlarni berdi. Nafaqat o'qituvchi, balki talabalar ham yangi ko'nikmalarga ega bo'ldi.

To'rtinchidan, masofaviy ta'lim yoshlarni xorijiy tillarni o'rganish, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kurslarni o'rganishga zamin yaratdi. Bundan tashqari ta'limga oid kurslarning aksariyati onlayn tartibda

amalgga oshirilmoqda, chunki onlayn ta'limda tinglovchilarning auditoriyasi ko'pchilikni qamrab oladi.

Masofaviy va onlayn ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va talabalar bir qator muammolarga duch kelishdi, jumladan:

- mamlakat masofaviy va onlayn ta'limga o'tishga hali tayyor emas edi, jumladan, bu borada professor-o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar qilinmagan edi. Shuning uchun o'qitishning sifati, uni tashkil etish hamda hududlardagi aloqa tizimi bilan bog'liq muammo va qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shuningdek, videodarslarning vaqt me'yori 80 minutni tashkil qilmaydi (buning bir nechta sabablari bor: internet tezligi nihoyatda past, talabalarning moddiy imkoniyati mavjud trafiklarga yetmaslik ehtimoli kattaligi va h.k.). Shu jihatdan, o'qituvchilar o'zlarining 80 daqiqalik ma'ruzasini metodik mahorat orqali qisqa vaqtga (20-30 daqqa) keltirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim edi;

- talabalarning mamlakatning turli hududlari – poytaxt, viloyat markazi, tuman markazidan eng chekka qishloqlarda istiqomat qilishi hamda ularda aloqa tizimining ham hududlariga qarab har xil bo'lishidir. Bu videodarslar (xususan, Zoom platformasida) o'rtacha 100 nafar talabadan 20-25 tasining ishtirok etishiga olib keldi;

- talabalarda texnik vositalarning yetishmasligi, aksariyat hollarda oilada bitta gadjet bo'lib, undan foydalanish uchun navbatga turishga to'g'ri keldi;

- masofaviy ta'lim auditoriyada kechadigan jonli ta'limdan farqlangani tufayli ta'lim jarayonida muloqot qilish samaradorligi past darajada kechadi. Respublikada masofaviy ta'limning rivojlanish istiqbollari kelsak, masofaviy ta'lim ikki yo'nalishda, ya'ni real vaqt rejimiga asoslangan sinxron yoki real vaqt rejimiga asoslanmagan nosinxron tarzda kechishi mumkin. Ammo ikki yo'nalish uchun ham Internet tezlik jihatidan yaxshi ishlashi kerak. [5]

Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish uchun esa odatiy masofaviy ta'limni boshqarish tizimi, ya'ni Moodle kabi ta'lim platformalarini takomillashtirish, ularni qulay va yanada tushunarli funksiyalar bilan boyitish o'ta muhimdir. Buning uchun pedagog va axborot texnologiyalari mutaxassislarining yaqindan hamkorligi talab etiladi.

Pandemiya davrida oliy ta'lim muassasalari MOODLE masofaviy ta'lim platformasidan foydalangan bo'lsa, endilikda barcha oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga o'tib HEMIS ta'lim platformasidan foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021 yil 6

sentyabrdagi “Ta’lim jarayonini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to’g’risida” gi 284-sonli buyrug’iga muvofiq, respublikada faoliyat olib borayotgan 6028 ta umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Kundalik.com” platformasi joriy etildi.[6] Ushbu platforma o’quvchilar bilimni baholash jarayonini raqamlashtirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan bo’lib, bu o’qituvchiga ma’lum bir qulayliklarni yaratgan. Afzalligi shundaki, qo’yilgan baholarni o’zgartirib bo’lmaydi, ota-onalar uchun qo’yilgan baho ko’rinadi, ortiqcha qog’ozbozlikka hojat yo’q. Shu bilan birgalikda ushbu platformaning ma’lum bir kamchiliklarini ham ko’rsatib o’tish kerak. Elektron jurnal o’qituvchiga ko’ringani singari ota-onaga ham bir xil ko’rinmaydi, ya’ni ota-ona faqat o’z farzandini bahosini ko’ra oladi. Unda ota-ona farzandini boshqa o’quvchilar bilan taqqoslay olmaydi. Bundan tashqari respublikaning olis internet yaxshi ishlaymaydigan hududlarida o’qituvchilarga elektron jurnalni to’ldirish muammolar tug’dirmoqda. Bu tizimni internet bilan ta’minlanganlik darajasiga qarab joriy qilish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Ta’lim tizimida bunday platformalarning joriy etilishi o’qituvchi va o’quvchi-talabalarni baholash jarayonlarini raqamlashtirishga va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilishi ko’rsatilgan. Masalan HEMIS platformasida talaba o’ziga kerakli manbani platformadan qidirishi, dars jadvalidan tortib, talabaning shaxsiy ma’lumot hujjatlari: reyting daftarchasi, o’qiyotganligi haqida ma’lumotnoma, to’lov shartnomasi kabilarni o’z ichiga jamlagan. Bundan tashqari platformada talaba uchun ham, o’qituvchi uchun ham qulayliklar o’zaro aloqalar uchun zamin yaratilgan. Ushbu platformalarning ravon va xatosiz ishlashi uchun albatta, internetning o’rni katta hisoblanadi. Ayrim mobil aloqa tarmoqlari tomonidan talaba yoshlar uchun tariflar joriy etildiki, lekin bu yetarli emas deb hisoblanadi. Shu o’rinda shuni taklif qilish mumkinki, ta’lim platformalarini mobil aloqa tarmoqlari bilan ham bog’lash zarur. Bunda ta’lim platformasida qayd etilgan shaxs, ya’ni, talabaga internet tariflarini kerak bo’lsa tekin qilib berish kerak. Chunki davlatning kelajagi, yurtning farovonligi bevosita ta’limga bog’liqdir. Ta’limga internet texnologiyalarning joriy etilishi O’zbekiston Respublikasini jahon raqamli iqtisodiyotidagi o’rnini ko’rsatib beradi.[7] Ta’lim bilim, ko’nikma va malakalarga yo’naltirilgan sanoat jamiyati sharoitida XX asr an’anaviy tarzda yaxshi bo’lgan model o’tmishda qolmoqda. Mavjud inqiroz sharoitida an’anaviy ta’lim tizimi o’z vaqtida sezilarli darajada kechikadigan ta’sirlari bilan raqamli transformatsiya vazifalariga moslashishga vaqt topa olmasligi ayon bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Марзияев Ж.К., Алишова А.Б. Перспективы развития Интернет журналистики в Узбекистане. В сборнике: Донецкие чтения 2018: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности. Материалы III Международной научной конференции. Под общей редакцией С.В. Беспаловой. 2018. С. 221-222.

2. "Xalq sўzi", 2018 йил 6 сентябр, 184 (7142) Б.–2.

3. WWW.UZ миллий қидирув тизими сайтлар каталоги 2023 йил 2 май ҳолатига.

4. Махмутходжаева Л.С. Онлайн образование и цифровые средства обучения в вузах Узбекистана. Открытое образование. 2021. Т. 25. № 3. С. 46-61.

5. Fayzullayeva N .S. Pandemiya sharoitida oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlarining transformatsiyasi Oliy ta'lim: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqola va tezislar to'plami, – Toshkent; 2020 yil 25 may. B. – 44.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilimini baholash jarayonini raqamlashtirish va ta'lim jarayonida shaffoflikni ta'minlash" to'g'risida 2022 yil 24 iyundagi 205-son buyrug'i.

7. Shamsiyeva I. M. Tarixni o'qitish jarayonida QR-kodlar: O'zbekistonda uni qo'llashning imkoniyatlari, muammo va istiqbollari //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2019. – №. 18. - tadqiqot.uz

“YANGI O‘ZBEKISTONDA MA‘RIFATLI SHAXS TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

То‘rayeva Sayyora Sattorovna

*Surxandaryo viloyat xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish hududiy markazi katta o'qituvchi*

ANNOTATSIYA Maqolada o'quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ijtimoiy, fuqaroviy va yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish dolzarb masala ekanligi bayon etilgan.

***Kalit soʻzlar:** eʼtiqodlilik, maʼrifatlilik, diniy va milliy bagʻrikenglik, ijtimoiy, fuqaroviy va yuksak maʼnaviy fazilatlar, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyat*

Bugungi kunda shiddat bilan oʻzgarayotgan dunyoda oʻquvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sogʻlom eʼtiqodlilik, maʼrifatlilik, diniy va milliy bagʻrikenglik, ijtimoiy, fuqaroviy va yuksak maʼnaviy fazilatlarni shakllantirish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi Oʻzbekistonni bunyod etishga kirishganlarining ilk davridayoq yosh avlod tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratdilar va bu masala hayot-mamot masalasi ekanligini qayd etdilar: “Maʼlumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega boʻlib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya mukammal boʻlishi uchun esa bu masalada boʻshliq paydo boʻlishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi”. [1.504-505-b]

Yurtboshimiz ota-onalar, ustoz va murabbiylarga «har bir bola timsolida avvalo shaxsni koʻrish zarur»ligini uqtirmoqda. Butun taʼlim-tarbiya mana shu imkoniyatni roʻyobga chiqarishga, jism-u jonimizda yashirinib yotgan shu qobiliyatni kashf qilib, uni takomillashtirishga qaratilmogʻi lozim. Boshqacha aytganda, har bir inson tugʻilishidanoq tayyor shaxs boʻlmaydi. Erkin va mustaqil, chuqur va keng fikrlash, hamma narsa toʻgʻrisida xolis mushohada yuritish, hayotda ongli turmush kechirish esa insonni komillik – mukammallikkaeltadi. Dunyoda narsa va hodisalarning son-sanogʻi yoʻq. U toʻgʻrisida har bir fan oʻzining ilmiy qarashlarini ilgari suradi. Ilmning boʻlsa, chek-u chegarasi yoʻq. Yaʼni, narsa va hodisalar mohiyatini oʻrganish mangu davom etaveradi. Oʻz fikriga, shaxsiy qarashiga ega boʻlmagan, aytayotgan gapi yoki qilayotgan ishi uchun javob berish masʼuliyatini his qilmaydigan odam shaxs degan yuksak mavqega koʻtarila olmaydi. Demak, har birimiz har qanday narsa va hodisa toʻgʻrisida oʻzimizning mustaqil fikrimizga ega boʻlishimiz, uni himoya qila olishimiz bizni koʻplab yomonliklardan asrab qoladi. Shundagina biz turli buzgʻunchi fikrlar, gʻoyalar taʼsiriga tushib qolmaymiz, vayronkorlikka daʼvat etuvchi kimsalar ortidan ergashmaymiz. Oʻzligimizni, milliyligimizni, kelajagimizni saqlab qolamiz. Erkin va mustaqil, chuqur va keng fikrlash oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi. Buning uchun odam koʻplab bilimlarni oʻzlashtirishi aql-u idrokini boyitishi, koʻnikma va tajribalar orttirishi talab

etiladi. Ezgu fazilatlar esa ko'cha-ko'ya emas, balki ma'rifat dargohlarida - ta'lim-tarbiya o'choqlarida o'zlashtiriladi. Mazkur qarashga, chinakam hayot falsafasiga amal qilibgina jamiyatda komil insonni voyaga yetkazishi mumkin. Bizning xalqimiz ilmli, ko'p narsani biladigan kishilarni nihoyatda hurmat qiladi, qadrlaydi. Bunday kishilarga mahalla-ko'ya ham, mehnat jamoalarida ham, yor-u do'stlar orasida ham alohida e'tibor, diqqat qaratiladi. Lekin faqat bitta shart bilan: agar o'sha bilimli, ko'p narsani biladigan kishi, avvalo, insongarchilikni ham bilsa, olgan ta'limi tarbiyasiga mos kelsa, aytayotgan gapi bilan qilayotgan ishi o'rtasida tafovut, ziddiyat bo'lmasa. Eng muhimi - o'sha odam faqat olim bo'lishnigina emas, odam bo'lish ilmini ham mukammal egallagan, boshqalarga hurmat va e'zoz ko'rsatish tajribasini ham o'zlashtirgan bo'lsa.

Muhokama. Yurtboshimiz tomonidan yoshlar tarbiyasi sohasida belgilab berilgan konseptual vazifani bajarish esa, yoshlar tarbiyasidagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishni talab etmoqda. Kuzatish va tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlar ko'zga tashlanadi.

Hozirgi paytda yoshlar tarbiyasida qanday bo'shliqlar mavjud?

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini etarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Globalashuv yanada chuqurlashib borayotgan davrda fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bugungi yoshlardagi mustaqil fikr, tezkor qarorlar qabul qilishi, innovatsion tafakkur, valelogik ong, intellektual salohiyatga kundalik hayot ehtiyoji sifatida qaralmoqda.

Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari o'quvchilarini ma'naviyaxloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar: o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi;irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi;ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi;sifatlarning rivojlanishi;o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish; xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi;axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi;pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar;mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi.

Keyingi paytlarda nafaqat ta'lim sohasi, balki tarbiya sohasida ham innovatsiyalardan foydalanishni mukammal yo'lga qo'yish borasida pedagog olimlarimiz ilmiytavsiyalar berib kelmoqdalar.

Pedagog olimlar V.Ishmuhammedovva M.Yuldashevlarning ta'kidlashicha: "...O'quvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag'ishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslahatlarni pedagogik kadrlarga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir" [2.92,93-b].

Haqiqatda ham "Tarbiya" fani o'qituvchisi milliy urf-odat va marosimlar haqidagi masalalarini tushuntirganda "Kichik guruhlarda ishlash" interfaol metodidan foydalansa yaxshi samara beradi. Bunda sinf to'rtta guruhga bo'linib, har bir guruhga urf-odat va marosimlarning qaysidir turini topish va uning ahamiyatini izohlash topshiriladi. Bunda birinchi guruhga yoshlarni Vatanga, o'z xalqiga muhabbat ruhida tarbiyalashni shakllantirishga qaratilgan urf-odat va marosimlar tizimini aniqlash topshiriladi;

Ikkinchi guruhga- yoshlarda fuqarolik burchi, tanlagan kasbiga mas'uliyat hissini shakllantiruvchi urf-odat va marosimlar;

Uchunchi guruhga- yoshlarning axloqiy fazilatlarini takomillash-tirishga qaratilgan urf-odat va marosimlar;

To'rtinchi guruhga- kelgusida urf-odat va marosimga aylanishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar tizimini bayon qilishini topshirish mumkin.

Barcha guruhlar o'z taqdimotlarini qilib bo'lgandan so'ng, o'qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi va to'ldiradi. O'quvchilarga taqdimot davrida o'zlariga berilgan topshiriqlarga boshqa guruh a'zolarining munosabat bildirishi, hayotiy misollar keltirishiga, tanqidiy tahlilga ruxsat beriladi. Guruhlarda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi jarayonni o'ta sergaklik bilan boshqarib boradi, guruhlarning javoblari rag'batlantirib turiladi.

Ushbu innovatsion ta'lim texnologiyasini qo'llash jarayonida o'quvchilarni hayotda mavjud urf-odat va marosimlar, ularning barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati bilan birgalikda to'rtinchi guruhning javoblari ham qiziqtiradi. Tajribamiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kelgusida urf-odat va marosimga aylanishi mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritadilar:

“Yosh kitobxonlar konferensiyalari”, “Yosh kitobxon” ko'rik-tanlovlari, “Tarixiy joylarga ekskursiya”, “Men sevgan kasb” festevallarini o'tkazishni taklif etadilar.

Tanlangan innovatsion ta'lim metodining afzalligi shundaki, butun dars davomida o'quvchilar izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar va har bir masalaga o'z nuqtai nazarlarini bayon qiladilar. Dars oxirida o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. “Tarbiya” fanini o'qitishda ana shunday innovatsion ta'lim texnologiyalarida foydalanib dars o'tish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Natija.Yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qila bilmaslik, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olmaslik hollari uchrab turibdi. Bular o'z navbatida oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi, loqaydlik, huquqbuzarlik, “ommaviy madaniyat” ning turli ko'rinishlari osonlikcha qabul qilinishi kabi illatlarning tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Natijada, yoshlar tarbiyasida prinsipial, yangicha yondashuvlar va innovatsiyalarni takomillashtirish, strategik maqsad hamda vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish ehtiyoji kun tartibiga qo'yildi.

Shu ehtiyoj asosida tarbiya fani konsepsiyasi, davlat ta'lim standarti, dasturlar ishlandi, zamonaviy darslik yozishga kirishildi.

“Tarbiya” fani konsepsiyasini yaritish jarayonida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur, Avstraliya, Birlashgan Arab Amirliklarining ushbu sohaga oid ilg'or tajribalari tahliliy o'rganildi.

Endilikda milliy qadryatlarimizga asoslangan tarbiya metodlari “Tarbiya” fani konsepsiyasiga asos qilib olindi. Chunki Sharq tarbiyasining durdonalari: millatimizdagi andisha, hamjihatlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, kattaga hurmat, kichkinaga izzat fazilatlarini kamdan-kam xalqlar tarbiyasida uchratish mumkinligini xorijiy tajribani o'rganish jarayonida esdan chiqarilmadi. Taniqli pedagog olimlarimiz ta'kidlagandek, “Zero, sog'lom demokratik jamiyatni yaratishning muhim shartlaridan biri, avvalo, har jihatdan sog'lom, ma'naviyati yuksak, mustaqil fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalashdan iboratdir”[3.7-b]

O'quvchi yoshlarda yuqorida qayd etilgan xislatlar mentalitetimizga xos etnopisixologiya, urf-odat, turmush tarzi, odob-axloq, qadryatlar va ta'lim-tarbiya mazmuni ta'sirida shakllanadi. Shuningdek, bu xususiyatlar ularning hayotini, undagi jarayonlar va munosabatlarni o'zlari kuzatishi, idrok qilishi va anglab yetishiga imkon yaratadi. Shu bois ijtimoiy munosabatlarning globallashuvi va jadallashuvi kuchayib borayotgan bugungi kunda ma'naviy tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturiga kiritilgan "Tarbiya" fanining o'qitilishiga zamonaviy yondashuv yoshlarni ongi va qalbini yovuz va g'arazli maqsadlarni amalga oshirishga harakat qilayotgan kuchlar va tahdidlardan himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturiga "Tarbiya" fanining kiritilishi juda dolzarb va o'z vaqtida qilingan qaror bo'ldi. "Tarbiya" fanidan dars berayotgan o'qituvchi zamonaviy dars mashg'ulotlarini tashkil etish uchun ta'lim innovatsiyalaridan unumli foydalanishi talab etiladi.

Taklif va mulohazalar. "O'qituvchi shaxsini ham o'qish va o'zi ustida muntazam ishlashga undovchi motivlar bo'lishi lozim. Maktabda ta'lim olish va uning sifatiga bo'lgan qat'iy talabni maktab rahbariyati, o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan doimiy ehtiyojga aylantirilsa o'zining ustida muntazam ishlayotgan o'qituvchi munosib rag'batlantirib borilsa, aksincha, o'zini rivojlantirishga e'tiborsiz o'qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhiti shakllantirilsa – o'qituvchida o'zi ustida muntazam ishlash, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi"[4.9-b].

Mustaqil malaka oshirish va bilim olishga undovchi motivlar sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- maktabda ta'lim olish va uning sifatiga bo'lgan qat'iy talabni kuchaytirish;

- o'quvchilar va ularning ota-onalari o'qituvchining ta'lim berish sifati bilan doimiy qiziqishi hayotiy ehtiyojga aylantirishlari;

- o'zining ustida muntazam ishlayotgan o'qituvchi muntazam rag'batlantirilib borilishi;

- uzluksiz kasbiy rivojlanishga e'tiborsiz o'qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish;

- rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kasbiy litsenziyalash yoki kasbiy sertifikatlash amaliyotini yo'lga qo'yish;

- mazkur jarayon o'qituvchidan avvalgi faoliyati davrida amalga oshirgan ishlarini portfolio shaklida namoyish qilish, dars beradigan fani va uni o'qitish metodikasi, shuningdek, pedagogika va psixologiyadan turli (suhbat, yozma ish, test shaklidagi) layoqat sinovlaridan o'tishni taqozo qiladi;

Xulosa, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bunyod etilayotgan yangi O‘zbekistonda “Tarbiya” fanining umumiy o‘rta ta‘lim maktablari dasturiga kiritilishi ta‘lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish borasidagi dadil qadamlardan yana biri bo‘lib, ta‘lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish va jahonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, “O‘zbekiston”, T., 2017. 1, 504-505; 592 b*

2. *Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2013, 3.92-93; 277 b*

3. *Safarov O., Maxmudov M. Oila ma‘naviyati. T., “Ma‘naviyat”, 2009, 2.7; 248 b.*

4. *Baxramov A. Xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etishni takomillashtirish masalalari. (A.Avloniy nomidagi Xalq ta‘limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2020-yil 29-may). T., 2020-yil, 9-bet*

5. *Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”, 2019 yil 31 dekabr.*

TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI VA TARKIBIY QISMLARI

Egamova Anbarjon Atanazarovna-UrDPI
“Texnologiya va jismoniy madaniyat”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada texnologiya fani o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar, ularda shakllantiriladigan kasbiy madaniyat, nutq, ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishning ahamiyati, dolzarbligi, o‘ziga xos xususiyatlari, tadqiqotchilarning fikrlari, mamlakatimiz ta‘lim tizimida pedagogik omillarni joriy etilishi bilan bog‘liq jarayonlar to‘g‘risida fikr-mulohazalar, tavsiyalar berilgan

Kalit soʻzlar: Shaxs, tarbiya, oʻqituvchi, nutq, intelegentlilik, pedagog, agogeyn, nutqning toʻgʻriligi, nutqning aniqligi, nutqning ifodaviyligi, nutqning sofligi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan taʼlim siyosatining muhim omillaridan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Inson shaxsi haqida gap ketganda albatta koʻz oʻngimizda komillikka intilgan maʼnaviy jihatdan yetuk jamiyatning taraqqiy etishiga munosib hissa qoʻsha oladigan yurt ravnaqining buguni va ertasini oʻylaydigan shaxsni keltiramiz. Shu oʻrinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[2]

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni boʻlib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Oʻzbekiston Respublikasida oʻqituvchi kadrlarning maʼnaviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qoʻymoqda. Chunonchi, bu borada Oʻzbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz boʻlish uchun, boshqalarning aql-idrokini oʻstirish, maʼrifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega boʻlishi kerak» [1]

1. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun oʻqituvchisi shaxsiga nisbatan qoʻyilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy oʻqituvchi qanday boʻlishi zarur? Oʻqituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yoʻnalishlari boʻyicha maxsus maʼlumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatuvchi shaxs sanaladi. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq taʼlim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishlariga yoʻl qoʻyilmaydi. Bizning nazarimizda, zamonaviy oʻqituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon boʻla olishi kerak (soʻz yuritilayotgan sifatlar mohiyatan

o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi): [3]

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda

tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'qituvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'qituvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'qituvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.[8]

Pedagogik madaniyat –o'qituvchining o'qituvchilar bilan munosabatlar jarayonida zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar majmuasi, pedagogning meyoriy-ma'naviy qarashlarga asoslangan odobidir. Ma'lumki o'qituvchilarda ma'naviy –axloqiy, xususan, pedagogik qiyofasini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko'p qirralidir.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko'p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko'zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko'rsatkichlari o'rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini angelaydilar.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi:

- umumiy bilimdonlik;
- o'z fanini bilish;
- pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib borish;

- pedagogik kasbini sevish;
- odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik;
- ko'zatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish;
- jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: Ijodiy individuallik- sezgi, farosat, odob, intuistiya. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi. Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi:

- intelegentlilik;
- bilimlar doirasining kengligi;
- kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi;
- ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati; - pedagogik faoliyatda bilim va mahoratlardan foydalana bilishi.

Pedagogik madaniyat muamolarini o'rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkoniyat beradi.

O'qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo'nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g'oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to'plamidan iborat bo'ladi.

Shunday o'qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo'nalganligi o'zida uning g'oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o'quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi. Demak yoshlar va kasb tanlash kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy shakllanishi sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topishi lozim. Aks holda kasbiy madaniyat bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi va mutaxasis talabga javob bermaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda asosan yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi shu bilan o'lchanadiki u tinib-tinchimaydigan shaxs bo'lib doim izlanishda bo'ladi. Dars-mashg'ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga

mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida e'tibor qaratishi zarur.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o'qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o'qituvchiga hurmat-e'tibor va unga quyilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda. Bu o'rinda Respublikamizda 1 oktabrni «Ustoz va murabbiylar kuni» deb e'lon qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ma'lumki, "shaxs va davr" yoki "davr va shaxs" munosabati muammolari tahlilida uchta holat bo'lishi mumkin:

Birinchidan, shunday shaxslar bor - ular davr bilan hamnafas, o'zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi toifa shaxslar o'z davrining ruhi, maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya'ni zamondan orqada qoladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o'zib ketadi, ayni paytda o'z davrining ruhini chuqur his etadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g'oyasi va faoliyat yo'nalishida kelajakni ko'ra oladi.

O'qituvchi shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxs bo'lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma'naviy olami yuqori bo'lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topadi, uning g'oyalari jamiyatga singadi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamalakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs-komil insonlar vujudga keladi.

Ikkinchidan yurtboshimiz so'zi bilan aytganda: «ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi», «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. «Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi».

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko'zlangan maqsadlarga erishishi ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ruhini chuqur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi:

o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta'limiy tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, kasbiy va pedagogik madaniyatning aniqlangan tarkibiy qismlari uning mohiyatini va xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.* – T.: O'zbekiston, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoev SH.M. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz* – T.: "O'zbekiston". 2017. – 592 b.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'PQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PF-5106 – sonli Farmoni. 5 iyul 2017 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori.
6. Hasanboev J. va boshq. *Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. - 420 b.
7. Inoyatov U.I. va boshq. *Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.*-Toshkent: TDPU – 2013. – 256 b.

BO'LAJAK PSIXOLOGLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI O'RGANILGANLIGI

Axmedov Akmal Yusufovich,
FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentsiyasini o'rganilganlik darajasi hamda kommunikativ kompetentsiyaning tuzilishi va rivojlanish darajalarini aniqlashda olimlar tomonidan berilgan turli xil yondashuvlar mavjud. Pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika-psixologiya talabalarining

kommunikativ kompetensiyasi o'ziga xos psixologik va kasbiy xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum ko'nikma va qobiliyatlar to'plami bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: *Kommunikativ kompetensiya, muloqot, kompetensiya, kommunikativ bilim, kuzatuv, bo'lajak psixologlar*

KIRISH

Kommunikativ kompetensiya bu insonning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy tan olinishi, hurmat qilinishi, o'zini o'zi anglash ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv jarayoniga yordam beradi. Muloqot samaradorligini oshirish va psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Kommunikativ kompetensiya psixolog ega bo'lishi kerak bo'lgan eng asosiy kompetensiya sifatida qaraladi. Ushbu shaxsning kommunikativ kompetensiyasi muammosining turli jihatlarini ishlab chiqqan olimlar mahalliy ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiyani tushunishning bir nechta yondashuvlarini keltirganlar, ammo ilmiy manbalarda hali ham pedagogik psixologlarning kommunikativ kompetensiyasining mohiyati, xususiyatlari va aniq tuzilishi to'g'risida aniq tushuncha mavjud emas, bu esa keyingi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Respublikamiz olimlaridan N.N.Azizxo'jaeva, U.SH.Begimqulov, R.X.Jo'raev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdieva, F.R.Yuzlikaev, Z.E.Azimova, A.A.Xoliqov, X.A.Yulbarsovalarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlarini tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Yu.N.Emel'yanov, V.A.Kan-Kalik, S.L.Bratchenko, A.N.Ivashov, V.N.Grishina, U.Tomas, A.A.Bodalyov, A.I.Dontsov, Yu.M.Jukovlarning tadqiqotlarida shaxslararo hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish tamoyillari, shaxslararo muloqotning ijtimoiy-psixologik masalalari yoritib berilgan.

Xorijiy davlatlar olimlari Dj.Bivin, Dj.A.Grexem, Dj.Raven, D.Shonlarning ilmiy izlanishlarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy, psixologik va lingvistik jixatlari ochib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari orasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi A.A. Bodalevlar tomonidan "ichki resurslar (bilim va ko'nikmalar) mavjud bo'lganda boshqa odamlar

bilan samarali aloqalarni oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyati” deb talqin qilishdi. Bir qator MDH respublikalari olimlari tomonidan kommunikativ kompetensiyaga taʼriflar berildi

Jumladan M.A. Vasilik kommunikativ kompetensiyani “individning oʻz qobiliyatlari va ijtimoiy mavqei doirasida professional muhitda va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur boʻlgan boshqalar bilan oʻzaro munosabatlarning shaxsiy va kasbiy tajribasini shakllantirishning maʼlum darajasi” deb taʼriflaydi.

F.I. Sharkov kommunikativ kompetensiyani “muayyan vaziyatda maʼlumotni adekvat idrok etish va maqsadli uzatishni taʼminlaydigan kommunikativ kodni tanlash qobiliyati” deb tushunadi. L.D. Stolyarenko kommunikativ kompetensiya bu boshqa odamlar bilan zarur muloqot oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyatidir, deb taʼkidlaydi.

Kommunikativ kompetensiya deganda, L.A. Petrovskaya boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash qobiliyatini, shuningdek, shaxslararo oʻzaro taʼsirning maʼlum bir qator vaziyatlarda samarali kommunikativ harakatni yaratish uchun zarur boʻlgan ichki resurslar tizimini tushunadi.

Uning tadqiqotida kommunikativ kompetensiya muloqot jarayonining muvaffaqiyatiga hissa qoʻshadigan fazilatlar orqali aniqlanadi va muallif bu fazilatlarni shaxsning kommunikativ qobiliyatlari bilan belgilaydi. Kompetensiya kommunikativ jarayonning samarali oqimini taʼminlovchi kommunikativ bilim va koʻnikmalarning maʼlum bir toʻplamini oʻz ichiga oladi. E.V. Klyuev va I.N. Gorelova kommunikativ kompetensiyani shaxs yoki shaxslar guruhiga xos boʻlgan kommunikativ taktika va strategiyalarning ishchi toʻplami sifatida belgilaydi. V.N. Kunitsiyana kommunikativ kompetensiyani “murakkab muloqot qobiliyatlari va koʻnikmalariga ega boʻlish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat koʻnikmalarni shakllantirish, muloqotda madaniy meʼyorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, anʼanalarni bilish, muloqot sohasida odob-axloq qoidalari, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi tarbiya; milliy mentalitetga xos boʻlgan va uni ifodalovchi kommunikativ vositalarga yoʻnaltirilganlik, ushbu kasb doirasidagi rol repertuarini oʻzlashtirish” deb taʼriflaydi.

Yu.N. Emelyanov kommunikativ kompetensiyani vaziyatga moslashish va ijtimoiy xulq-atvorning ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan vositalarida ravonlik, insonparvarlik shaxsiy fazilatlari (muloqot, muloqot) asosida boshqalar bilan ularning taʼlim, tarbiya, rivojlanish darajasida maqsadga muvofiq munosabatda boʻlish qobiliyati sifatida belgilaydi. samimiylilik,

xushmuomalalik, empatiya, mulohaza yuritish va boshqalar) va suhbatdoshning kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olgan holda, lekin ko'zda tutilgan ta'sir qilish harakatlarining muvaffaqiyat darajasi va boshqa odamlarni hayratda qoldirish vositalaridan foydalanish sifatida kommunikativ kompetentsiya o'Ichovidir.

NATIHALAR

Kommunikativ bilim - bu muloqot nima ekanligi, uning turlari, bosqichlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida bilimdir. Bu qanday aloqa usullari va usullari mavjudligi, ular qanday ta'sir ko'rsatishi, ularning imkoniyatlari va cheklovlari haqida bilimdir. Bu ham bilimdir turli odamlar va turli vaziyatlar uchun qanday usullar samarali. Bu soha, shuningdek, u yoki bu muloqot qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va qaysi usullarning o'z faoliyatida samarali ekanligi va qaysi biri samarasiz ekanligi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

Muloqot ko'nikmalari - bu o'z fikrlarini to'g'ri, malakali, tushunarli tushuntirish va ma'lumotni adekvat idrok etish ko'nikmalari - bu shaxsning yuqori nazariy va amaliy tayyorgarligiga asoslangan ongli kommunikativ harakatlar majmuasi bo'lib, u bilimlarni aks ettirish va o'zgartirish uchun ijodiy foydalanish imkonini beradi.

Muloqot qobiliyatlari boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli aloqa o'rnatishga, kommunikativ, tashkiliy, pedagogik va boshqa faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi. Bo'lajak o'qituvchi-psixologning kommunikativ kompetentsiyasi kasbiy faoliyatning ushbu sohasiga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, psixologning kommunikativ kompetensiyasi "psixolog kasbiy mahoratining o'zagi", chunki odamlar bilan muloqot qilish uning kasbining mazmunini tashkil etadi. Psixologning kasbiy faoliyatining xususiyatlarini o'rganish muammosiga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan. Darhaqiqat, psixolog-maslahatchining ishi o'z mavzusida juda o'ziga xosdir - insonning individualligi maslahatchi shaxsi deyarli barcha nazariy tizimlarda maslahat berish jarayonida "eng muhim shifo vositasi" sifatida ajralib turadi, deb hisoblaydi. O'ziga xoslik psixologning o'zi ham shaxs sifatida, unga to'liq huquqqa ega bo'lgan shaxs sifatida harakat qilishida ham namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, maslahatchi-psixolog kasbining ijtimoiy mavqei bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud, masalan, uning ishining samaradorligi mezonlari muammosi, uning malakasi darajasi va pirovardida, maslahatchilarni tayyorlash muammolari. Psixolog kasbi, har qanday psixologik faoliyat bilan shug'ullanadigan mutaxassisning shaxsiyatiga

alohida talablar qo'yadi. Ushbu talablardan biri konsultatsiyaning professional muammolarini hal qilish uchun rivojlangan qobiliyatdir.

Maslahat berish kompetensiyasi bir qator o'zaro bog'liq jihatlarga ega, ular orasida eng muhimlaridan biri kommunikativ kompetensiyani egallashdir, chunki maslahat berishning asosiy usuli ma'lum bir tarzda tuzilgan suhbatdir.

MUHOKAMA:

Bo'lajak psixologning kommunikativ malakasi quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- suhbatdoshiga ma'lumot mazmunini to'liq tushuntira olishi
- ijobiy kayfiyat, konstruktiv pozitsiyalardan tanqidiy ma'lumotlarni taqdim etish;
- jamiyatida umume'tirof etilgan qadriyatlar, tamoyillar, ideallarga munosabatda bo'lish;
- suhbatdoshining qadr-qimmati kamsitmaslik, tajovuzkorlik hulq-atvorini namoyon qilmaslik
- muloqotda o'z nuqtai nazarini yakuniy, ishonchli himoya qilish;
- suhbatdoshning shaxsiy fazilatlariga ta'sir qilmasdan, ma'lumotlarning mazmuniga, muhokama qilinayotgan mavzuga e'tibor qaratish
- o'zaro suhbat vaqtini nazorat qilish, suhbatdoshiga o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatini berish

Psixologning kommunikativ kompetensiyasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- muloqotga bo'lgan suhbatdosh bilan aniq yo'nalishni belgilab olish;
- maqsadlilik
- xushmuomalalik;
- moslashuvchanligi
- hamkorlikning doimiy tomonidan erishilgan muloqot jarayonining mahsuldorligi
- tajriba (bilim, ko'nikma, odatlar)
- aqliy jarayonlar
- psixologik xususiyatlar
- xarakter
- refleksivlik, shaxsiy munosabatlar tizimi
- muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlari
- motivatsion ehtiyoj sohasi
- hissiy-irodaviy xususiyatlar

- ijtimoiy qobiliyatlar
- shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
- usullari, ko'nikmalari, muloqot va o'zaro ta'sir qilish qobiliyatlari
- ijtimoiy-madaniy normalarni amalga oshirish

Psixologning kommunikativ kompetensiyasini tashkil etuvchi malakalar majmuasiga quyidagilar kiradi

- kommunikativ vaziyatni tahlil qilish va baholash
- maqsadni shakllantirish, rejani amalga oshirish uchun vositalarni tanlash va ishlatish va uni tuzatish

- natijaning samaradorligini baholash
- vaziyatga adekvat aloqa strategiyalarini tanlash qobiliyati
- jinsi, yoshi, ijtimoiy-madaniy, maqom xususiyatlarini hisobga olgan holda odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyati

- vaziyatdagi o'zgarishlarga faol javob berish, sherikning hissiy kayfiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda aloqani qayta qurish qobiliyati

- muzokaralar olib borish, muzokaralar olib borish, kelishuvlarga erishish qobiliyati

- muloqot psixoterapiyasini amalga oshirish uchun so'zdan foydalanish qobiliyati, aloqa nizolarni tahlil qilish

Psixologning samarali kasbiy faoliyati uchun mos keladigan kommunikativ kompetentsiya darajasi quyidagi qobiliyatlardan iborat

- muloqot qilish uchun kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish;

- kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini dasturlash

- aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish

- turli xil psixologik masofalarda aloqa o'rnatish

- psixologik pozitsiyalarni o'zgartirishda moslashuvchanlik va adekvatlik

E.A. Klimov o'qituvchi-psixologning kommunikativ kompetensiyasi-ning asosiy xususiyatlarini aniqladi

- rahbarlik qilish, o'rgatish, tarbiyalash qobiliyati

- tinglash va tinglash qobiliyatlari

- keng fikrli

- nutq (kommunikativ) madaniyati

- ongning ma'naviy yo'nalishi, insonning his-tuyg'ulari, ongi va xarakterining namoyon bo'lishini kuzatish, uning xatti-harakati, shaxsiy

ichki dunyosini aqliy ifodalash, modellashtirish va unga o'ziga xos yoki boshqa narsalarni bog'lamaslik qobiliyati yoki qobiliyati.

- hamdardlik

- inson har doim yaxshiroq bo'lishi mumkinligiga ishonishga asoslangan odamga dizayn yondashuvi

- kuzatuv;

- g'ayrioddiy vaziyatlarni hal qilish qobiliyati

- o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasi

Psixologning muhim kommunikativ fazilatlarini qatoriga quyidagilar kiradi: odamlar bilan muloqot qilish tendentsiyasi, xushmuomalalik, nizolarni samarali hal qilish qobiliyati, og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarida ravonlik, qulaylik, mantiqiy va aniq nutq, xushmuomalalik, xushmuomalalik; hazil tuyg'usi va boshqalar.

XULOSA

Kommunikativ kompetentsiyani egallashning asosiy manbalari quyidagilardir: muloqot tillarini bilish, biznesdagi, kundalik va bayramona vaziyatlarda shaxslararo muloqot tajribasi; bilim, umumiy eruditsiya va muloqotni o'rgatishning ilmiy usullari

Ushbu manbalardan pedagogika-psixologiya yo'nalish talabalarini shaxsining kommunikativ kompetentsiyasini tashkil etuvchi kommunikativ bilim va ko'nikmalarning murakkab majmui shakllanadi. Ushbu kompleks quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muloqot normalari va qoidalarini bilish;

- muloqot jarayonida odamga axborotni erkin uzatish va idrok etish imkonini beruvchi nutqni rivojlantirishning yuqori darajasi;

- og'zaki bo'lmagan muloqot tilini tushunish

- jinsi, yoshi, ijtimoiy-madaniy, maqom xususiyatlarini hisobga olgan holda odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyati

- vaziyatga adekvat munosabatda bo'lish va o'z aloqa maqsadlariga erishish uchun uning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish qobiliyati

- suhbatdoshga uni o'z tomoniga ishontiradigan, dalillarining kuchliligiga ishontiradigan tarzda ta'sir qilish qobiliyati.

- suhbatdoshni shaxs sifatida, potentsial raqobatchi yoki sherik sifatida to'g'ri baholash va ushbu baholashga qarab o'z muloqot strategiyangizni tanlash qobiliyati

- suhbatdoshda o'z shaxsiyatini ijobiy his qilish qobiliyatini uyg'otish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Екатерины, К.В. Психологические Особенности Коммуникативной Компетентности Будущих Педагогов-Психологов*
2. *А.Ахмедов. Бўлажак ўқитувчиларда коммуникатив компетентликни шакллантириш технологиялари Педагогика назарияси ва тарихи (фаолият тури бўйича) магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация*
3. *Yusufovich, A. A. (2022). Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning dolzarb masalari. Ijodkor o'qituvchi, 2(23), 120-124.*
4. *Yusufovich, A. A. (2022). Bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning dolzarb masalalari. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 224-227.*
5. *Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.*
6. *Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 59-60.*
7. *Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).*
8. *Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.*
9. *Yusufovich, A. A. (2022). Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning dolzarb masalari. Ijodkor o'qituvchi, 2(23), 120-124.*
10. *Yusufovich, A. A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. Science and Innovation, 1(1), 572-586.*

TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Amirov Nurbek

Qarshi muhandislik iqtisodiyot
instituti katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarida olib borilayotgan jadal islohatlar, xalq ta'limi tizimida, oliy ta'lim tizimi sohasidagi islohotlarning pirovard maqsadi o'z sohasining yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim tizimini rivojlantirishga xos bo'lgan ilg'or tamoyillarning tavsifi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillarini tahlili xususida fikrlar bayon qilingan.*

Bugun O'zbekistonda ta'lim tizimini barcha bo'g'inlarida jadal islohatlar olib borilmoqda. So'nggi 3 yil davomida yangi O'zbekistonni shakllantirishning fundamental poydevori yaratildi, deyishga asoslarimiz bor. Ayniqsa, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etadigan islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga kata e'tibor berildi. Mazkur islohotlarning zamirida yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish, bugungi global dunyoning faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadlari yotadi [1].

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari o'tkazgan tahlilga ko'ra, o'rta ta'limda: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan respublikamizda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan baholash amaliyotining tatbiq etilishi uchun huquqiy asos yaratilgan edi. 2019-yilda BMTning bolalar jamg'armasi - UNICEF bilan hamkorlikda 4-sinf o'quvchilarining o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan baholash natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra o'quvchilar:

- tabiiy-ilmiy yoʻnalishda demokratik jamiyat, fuqarolarning huquq va burchlari tushunchasiga (71,1%), matematika yoʻnalishida tenglama va tengsizliklarni yechish koʻnikmasiga (67,2%) egaligi boʻyicha eng yuqori ball toʻpladi;

- tabiiy-ilmiy (tarixiy sanalar, atrof-muhit, inson salomatligi va xavfsizligi, ekologiya), matematika (hisoblash va tenglamalar) hamda matnni oʻqish (berilgan aniq maʼlumotlarni topish) yoʻnalishlaridagi savollarga javoblar boʻyicha jahondagi oʻrtacha koʻrsatkich (55%) dan yuqori natijaga erishdi;

- gʻoyalarni talqin va integratsiya qilish (oʻqish) va tadqiqot koʻnikmalari (tabiiy-ilmiy) boʻyicha chegaraviy qiymat darajasida (50%) ekanliklarini koʻrsatdi;

-kommunikatsiya va muammolarni hal qilishning umumiy strategiyasi (matematika) (34,1) hamda toʻgʻridan-toʻgʻri xulosa chiqarish (oʻqish) koʻnikmalari boʻyicha eng past ballni toʻpladi.

2022-yilda USAID bilan hamkorlikda 3-sinf va 5-sinf oʻquvchilarining oʻqish va matematika boʻyicha (EGRA) koʻnikmalarini baholash natijalari eʼlon qilindi. Unga koʻra, oʻrta taʼlimning sifati (5-sinf oʻquvchilarining natijalari) boshlangich taʼlim (3-sinf oʻquvchilarining natijalariga qaraganda) sifatidan ortda qolayotgani, maktabga muntazam qatnovchi oʻquvchilarning natijalari vaqti-vaqti bilan dars qoldiruvchi oʻquvchilarnikidan yuqoriligi aniqlandi.

2022-yilda 15 yoshli oʻquvchilarning oʻqish, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar boʻyicha savodxonlik koʻnikmalari (PISA) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlikda baholandi. Oʻrta taʼlimning 3-, 6-, 7- va 10-sinf oʻquvchilari uchun darsliklar baholash natijalari asosida, baholash jarayonida aniqlangan zaif jihatlarni bartaraf etishni hisobga olgan holda qaytadan chop etildi.

Oliy taʼlim tizimida esa Prezidentimizning 2019-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni tizimni isloh qilish uchun huquqiy asos yaratdi. Natijada 2017-2023 yillar mobaynida:

- “QS World University Rankings”da eng yaxshi mingtalikka kirgan xorijiy oliy taʼlim muassasalarining filiallari soni 3 tadan 9 taga;
- jami xorijiy oliy taʼlim muassasalarining soni 7 tadan 28 taga;
- xususiy oliy taʼlim muassasalari soni 53 taga yetdi.

Shuningdek, oliy ta'lim xizmatlari bilan aholining barcha qatlamlarini qamrab olish uchun alohida kvotalar ajratildi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi.

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar sezilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining qiyofasi o'zgarib, moddiy-texnika bazasi yaxshilanmoqda. O'z navbatida, ularda ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaytirilayotgani, jumladan, professor-o'qituvchilarning daromadi ortib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, innovatsiya yo'nalishidagi alohida davlat tuzilmalari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarida ham yangi bo'linmalar ochilmoqda. Bularning barchasi oliy ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirib, uning sifati hamda darajasini ko'tarishga xizmat qilishi aniq.

- Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishning huquqiy-meyoriy asoslari takomillashtirilmogda. 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi tarixiy voqea bo'ldi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning pirovard maqsadi o'z sohasining yetuk mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Shu talablardan kelib chiqib, oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish har qanday ta'lim muassasasi faoliyatining mazmunini tashkil qiladi. Prezidentimizning tashabbusi bilan oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish kabi yangicha yondashuv shakllandi. Buning natijasida jahon standartlariga mos ravishda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bizning bitiruvchilarimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jarayonlari samaradorligini yanada oshirdi. Bu yo'lda oliy ta'lim muassasalarining quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to'lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish jarayoni boshlandi.

- 1996 yildan buyon faoliyat yuritayotgan akademiya bank sohasi uchun eng yaxshi kadrlar, yuqori malakali moliyachilarni tayyorlaydigan muhim dargohga aylandi [2]. U shu vaqtga qadar to'rt ming nafar bitiruvchi chiqardi. Bugun ular orasida banklar, moliya tashkilotlari va davlat boshqaruvi organlari rahbarlari borligi biz uchun faxrdir.

Bank-moliya akademiyasi o'z tarixida jarayonlarni faollashtirish va yangi darajaga ko'tarish davrlarini bir necha bor o'tkazdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 31-oktabrdagi "Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu akademiya faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'ldi. Ushbu qaror bilan bank-moliya sektorlarida kadrlar tayyorlash tizimini jadallashtirish va takomillashtirishning yangi bosqichi boshlandi.

Xalqaro standartlarga muvofiq, eng yaxshi xorijiy amaliyotlarni hisobga olgan holda o'qitish, xodimlarga haq to'lash tizimini ularning malakasi asosida amalga oshirish, xodimlarda raqamli ko'nikmalarni tayyorlash, eng yangi texnologiyalarni biladigan boshqaruv xodimlarini tayyorlash, umumiy biznes tamoyillari va korporativ madaniyatni shakllantirish, xorijiy banklarda malaka oshirish va stajirovkalarga yuborish yangi bank-moliya tizimining ustuvor yo'nalishlaridandir. Har qanday ta'lim uning meyoriy ta'minotini takomillashtirib borishni talab qiladi. So'nggi ikki yil davomida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlari ishlab chiqildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu harakatlar o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirishga olib keldi. Bu jarayon oliy ta'lim muassasalari Vasiylik kengashlari, mahalliy hokimiyat organlari va homiylar tomonidan investitsion jarayonlarning faollashuvi bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur o'zgarishlar talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etishga xizmat qilishi shubhasiz, albatta.

- Mustaqillikning ilk yillarida shakllangan ta'lim tizimi innovatsion faoliyatni rivojlantirishni maqsad qilmagan edi. Lekin bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarining texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish hayotiy dolzarb masalaga aylandi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Ularga nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, Science Direct va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash, budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi korxonalarini tashkil etish vazifalari yuklatildi [3].

Qisqa vaqt ichida oliy ta'lim muassasalariga xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda. Pullik xizmatlar ko'lami kengaydi, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e'lon qilish deyarli 3 barobarga oshdi [4]. Demak, ilm-fan rivojida bunday qadam o'z samarasini beradi, deb aytish mumkin. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Yana 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi berilishi kutilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o'zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan mazkur tizimni takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori.*

2. *R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017-y.*

3. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva. *Pedagogik texnologiya. Darslik. Toshkent, 2012-y.*

4. N.N.Azizxo'jayeva. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2009-y.*

5. M.Ochilov. *Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi, 2000-y.*

YANGI O'ZBEKISTONDA O'QUVCHI YOSHLARNI MA'RIFATLI QILIB TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qulmatov Norqobil Eshmamatovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali katta o'qituvchi,
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlarbo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolaning mazmunida mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida ilm-fanning rivojlanishi asosida o'quvchi yoshlarni ma'rifatli qilib tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari, ma'naviy tarbiyaning samarali va ta'sirchan usullari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, o'quvchi yoshlar, ilm-fan, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, ma'rifatli inson, ma'naviy tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Tadqiqot ishining dolzarbligi: Yangi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarining rivojlanish jarayonlarida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning, jumladan o'quvchi yoshlarimizning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi mamlakatimiz rivojlanish taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonlari nihoyatda keskinlashib borayotgan bir paytda o'quvchi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida kamol toptirib ma'rifatli qilib tarbiyalashda, ularning qalbi va ongiga kirishga urinayotgan ma'naviy tahdidlarning zararli oqibatlarini oldini olishda ta'lim tarbiyaning, jumladan ma'naviy tarbiyaning o'рни va roli beqiyosdir. O'quvchi yoshlarimizni ma'rifatli qilib tarbiyalashda eng asosiy vazifalarimizdan biri bu o'tmish ajdodlarimiz va ota-bobolarimiz qoldirgan boy ma'naviy madaniy va moddiy merosimizni izchil o'qitib-o'rgatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglatgan holda, yuksak ilm-fan

cho‘qqilarini egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta‘minlab qo‘yishimiz lozim bo‘ladi. Bugungi kunda yangi O‘zbekiston jamiyatida o‘quvchi yoshlarni ma‘rifatli qilib tarbiyalash eng muhim dolzarb ustuvor masalalaridan biri bo‘lib turar ekan, bu haqida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday deydilar: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchunchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldilariga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”[1], degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz”. Haqiqatdan ham ulug‘ ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning o‘rnini bosadigan bugungi kun o‘quvchi yoshlarimiz aynan ana shunday bilim va qadriyatlar asosida voyaga etgan taqdirdagina savodli va ongli insonlar bo‘lib, mafkuraviy immunitetlari kuchli va har qanday ko‘rinishdagi ma‘naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladigan yetuk komil insonlar bo‘lib voyaga yetadilar. Shunday ekan biz tanlagan “Yangi O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini ma‘rifatli qilib tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari” mavzusi bugungi kun uchun eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. **Muammoni hal qilish yo‘llari:** Avvalo ma‘rifatli inson to‘g‘risidagi nazariya va uslubiyot metodologik jihatdan mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov asarlarida, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma‘ruzalarida, murojaatnomalarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda, kadrlar tayyorlash milliy dasturida va boshqa bir qator hujjatlarda har tomonlama keng va mukammal ishlab chiqilgan. Ma‘naviyati boy, yuksak axloqiy, ma‘naviy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg‘un bo‘lgan insongina ma‘rifatli komil inson bo‘la oladi. Bugungi kunda hammamizga yaxshi ma‘lumki, dunyodagi har qanday davlat, har bir millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi o‘rinda, o‘zining yuksak ma‘naviyatli va ma‘rifatli fuqarolari, o‘quvchi va talaba yoshlari bilan kuchlidir. Yuksak ma‘naviy fazilatlar egasi

bo'lgan ma'rifatli inson, nafs xurujini, moddiy lazzatlarga bo'lgan moyillik o'zligini yenga oladigan insondir. Insonni ma'rifatli va mukarram komil inson martabasiga ko'tarish uning ma'naviyatini yuksaltirish demakdir. Har bir jamiyat tayanadigan milliy ma'naviy qadriyatlar qanchalik umuminsoniy mazmunga ega bo'lsa u shunchalik umrboqiydir. **Taklif va tavsiyalar:** Yangi O'zbekiston zaminimizda ezgu maqsadlar yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish esa hozirgi davrda davlatimiz siyosatining diqqat markazida turganligi bilan izohlanadi. O'quvchi yoshlarni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash yoshlarimizning onglilik, bilimlilik darajasini boyitadigan eng muhim omil hisoblanadi. O'quvchi yoshlarimizni ma'rifatli qilib tarbiyalash jarayonlarning amalga oshirilishida oliy va o'rta maxsus, xalq ta'limi muassasalari xodimlarining faoliyatlaridagi mas'uliyat va fidoiylik hissining ahamiyati aniq-ravshan bo'ladi. Oliy va o'rta maxsus, xalq ta'lim muassasalari xodimlari o'quvchi va talaba yoshlarimiz taqdirleri uchun javobgar shaxs, kerak bo'lsa, tinchligu-halovatidan voz kechib faoliyat olib borishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi va ustoz - murabbiylar o'quvchi va talaba yoshlar bilan o'quv jarayonlarda qanchalik yaqin muloqatda bo'lsa, bu narsa ularning tarbiyasiga ham shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki o'qituvchi-murabbiy to'rt-besh yil davomida o'zi ustozlik qilayotgan guruhlarga ma'ruza o'qiydi-yu, ammo biror marta ham o'sha guruhdagi o'quvchi-talaba yoshlarning yashash turmush tarzi bilan qiziqmagan, yoki kam e'tibor bergan bo'lib chiqadi. Bunday holatlarda esa o'quvchi va talaba yoshlar orasida bir qolipga tushib qolishlik, hayotdan zerikish, boqimandalik, davlat hokimiyatining boshqaruv tizimiga ishonchsizlik, o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilmasliklari natijasida o'z ijtimoiy holatidan noroziligi, boyluk ortidan quvish oqibatida yengil daromad topishga ishtiyoqmandlik, o'z manfaatini davlat va boshqalar manfaatidan ustun qo'yuvchi, ma'naviy qashshoq, faqat bugungi kun dardi bilan yashovchi, kelajagini ko'ra olmaydigan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mutlaqo beparvo va befarq, tushkun kayfiyatdagi ko'rinishlar ham uchrab turadi. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun avvalambor har bir, o'zini vatanparvar deb biladigan o'qituvchi va murabbiylar o'z faoliyati davomida quyidagi jihatlarga diqqat-e'tiborini qaratishi lozim bo'ladi.

–ustoz-o'qituvchi o'zi ta'lim-tarbiya berib kelayotgan guruhlardagi holat, shart-sharoitlar, muammolar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

–ma'naviy-ma'rifiy ishlarga aloqador har qanday chora-tadbir, uchrashuv va davra suhbatlaridan boxabar bo'lishi kerak.

–kutubxona, turli xil to'garaklar ishini yanada jonlantirishga doimiy e'tiborini qaratishi kerak.

–sharqona udumlarimiz, qadriyatlarimizni jonlantirishga qaratilgan turli-tuman tadbirlar uyushtirib turishi kerak.

Kutilayotgan ijtimoiy samara(natija): Dunyoning mafkuraviy manzarasi keskin o'zgarib borayotgan, globallashuv jarayonlari shiddat bilan jadallashib ketgan bugungi kunda yangi O'zbekiston o'quvchi yoshlarini ma'rifatli qilib tarbiyalashda o'quvchi yoshlarimizning ongi va qalbiga hujum va xuruj qilishga urinayotgan bir qator tahdidlar bor. Bunday tahdidlardan biri, bu, ma'naviy tahdidlardir. Ma'naviy tahdidlar ma'naviy tarbiyani izdan chiqarishga qaratilgan asosiy xavf-xatarlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov bu xaqida o'z davrida shunday fikr bildirgan edi. "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy ma'naviy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman"[2]. Bunday ma'naviy tahdidlarning oldini olish uchun oilada ota-onalarimizdan, ta'lim muassasalarida ustoz-murabbiylarimizdan xushyorlikni yo'qotmaslik, o'quvchi yoshlarimiz tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasliklari qat'iy talab qilinadi. Kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan o'quvchi yoshlarimizning mafkuraviy immunitetlari to'la shakllanib, qaror topib, kuchli e'tiqod egalari bo'lgandagina ular o'z hayot faoliyatlari davomida katta-katta muvaffaqiyatlarga erisha oladilar. Har bir o'quvchi yoshning e'tiqodi xarakteri konkret, real shaxsning yashash sharoitiga, uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga, u olgan tarbiyaning xarakteriga, uning dunyoqarashining xususiyatiga, jamoatchilik fikrining ta'siriga, ma'lumotiga, bilim darajasiga, konkret shaxsning hayotiy tajribalari va boshqa omillariga qarab belgilanadi. Mana shu omillarning ijobiy yoki salbiy, bunyodkor yoki vayronkorligiga qarab birovlarining e'tiqodi mustahkam, barqaror yoki beqaror omonat bo'lishi mumkin. Yurtimiz oliy o'quv dargohlarida, ta'lim muassasalarida, mahallalarimizda va har bir oilada olib borilayotgan tarbiyaviy ish tajribalari shundan dalolat beradiki, ularning so'ngisini mustahkam, ijobiy e'tiqodga aylantirish osonroqdir. Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, bugungi globallashgan zamonda bizning ayrim o'quvchi yoshlarimiz orasida ham e'tiqodi, iymoni sust, mustahkam bo'lmagan ba'zi bir yoshlar uchrab turadi. Oqibat natijada mana shunday iymoni sust, e'tiqodi mustahkam bo'lmagan yoshlarga mamlakatimiz tinchligiga, osoyishtaligiga xavf solayotgan begona, yot, zararli g'oyalar, harakatlar tahdid solmoqda. **Xulosa** qilib shuni aytishimiz mumkinki g'oyaviy birligi mo'rt millatning davlat xavfsizligi ham mo'rt bo'ladi. Tarixdan shu narsa ma'lumki barcha zamonlarda ham ma'naviyati kuchli,

ishonch va e'tiqodi mustahkam millat va elatlar bir tanu bir jon bo'lib, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarni, u tashqaridan keladigan tashqi tahdid bo'ladimi yoki ichki tahdid bo'ladimi qat'iy nazar, tez va soz bartaraf etgan. Mafkuraviy va ma'naviy birligi ichidan yoki tashqaridan buzilgan millat va elat esa mag'lub bo'lib, mustamlakaga aylangan. O'zbekiston Respublikasining milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi har qanday ko'rinishdagi tashqi va ichki ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan g'oyaviy qurol, ma'naviy mezon bo'lib, o'quvchi yoshlarimizga milliy o'zliklarini anglashlarida, tarixiy-siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni, voqeliklarni to'g'ri anglab yetishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Zotan, ulug' bobomiz hazrat mir Alisher Navoiy aytganlaridek:

Erursen shoh, agar ogoh sen-sen
Agar ogoh sen-sen, shoh sen-sen

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-11-F-5847son farmoni.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni.*

BOLALAR ADABIYOTI TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY- MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Najimova Dilnavoz,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.*

Annotatsiya. *Bolalar adabiyoti xoh u matn ko'rinishida, xoh o'yin, xoh multiplikatsion film ko'rinishida bo'lsin, bolaning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi haq va botil haqidagi qarashlariga chuqur ta'sir qiladi. Maqolada bolalar adabiyoti va dabiyotshunosligida bugun dunyo miqyosida bo'y cho'zayotgan ayrim nazariyalar ko'rib chiqilgan. Bolalar uchun qanday asar o'qitish lozim degan masalaga xalqaro nazariyalardangina ta'sirlanish yoki shundayligicha*

uni qabul qilish xato ekanligi, bu masalada milliy nuqtayi nazarga ega bo'lish muhimligi haqida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, yosh psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, feminizm, liberalizm, karnaval adabiyoti, milliy nuqtai-nazar.*

Rivojlanish psixologiyasiga oid aksariyat tadqiqotlarda 0-5 yoshgacha bo'lgan tarbiya inson hayotida juda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida aytiladi. Taniqli pedagog Anton Semenovich Makarenko shunday deydi: "Bolaga tarbiyani 5 yoshgacha berishimiz kerak. U 90% tarbiyani besh yoshgacha oladi, undan keyingi tarbiya va bilimlar esa bolada uni mustahkamlash bilan kechadi" [1]. Amerikadagi Inson bilimlarini o'rganish instituti o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, Inson tug'ilgandan boshlab bilim o'rganishni boshlaydi va bu jarayon umr oxirigacha davom etadi. Inson doimiy ravishda o'rganadi. Ammo inson miyasining 90 %i tug'ilgandan keyin dastlabki 3 yilda rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi davr (0-5) insonning rivojlanishi uchun eng optimal davr hisoblanadi. Bu davrda inson tez rivojlanadi va tez o'rganadi. Besh yoshgacha bo'lgan paytda insonning sezgi organlari, sezish qobiliyati, motor qobiliyatlari, nutqi va ijtimoiy xatti-harakatlarining jadal rivojlanishi kuzatiladi. Olti yoshga kelib bolada katta odamda bo'lishi kerak bo'lgan miya hajmining 95%i shakllanib bo'ladi [2]. Ammo sinapslar tashqi dunyodan kelgan ma'lumotlarga javoban bir-biriga ulanib borgani bois insonning tafakkuri va intellektiga javob beruvchi markaziy miya hujayralari butun bolalik davomida qalinlashib boradi va ong va tafakkur o'sishda davom etadi. Demak, bolaga bu davrda berilayotgan axborotga, o'qib berilayotgan kitobga, u tomosha qilayotgan multiplikatsion filmlarga e'tiborli bo'lish, ularni milliy qadriyatlarimiz nuqtayi nazaridan baholab, tekshirib eng saralarini bolaga taqdim qilish bugungi globallashuv avj olib borayotgan zamonamizda har doimgidan-da dolzarbroq muammoga aylanib bormoqda.

Dunyo bo'yicha bolalar uchun chop etilayotgan kitoblar soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa ularning ichidan eng yaxshisini saralab o'qish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Natijada, dunyo bolalar adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti nima? Bolalar adabiyoti bola haqida yozilgan adabiyotmi, bolalar yozgan adabiyotmi yoki bola uchun yozilgan adabiyotmi? Bolalar adabiyotida kattalarga xos mavzularni berish mumkinmi? Biz bolalar uchun yaxshi asar deb baholayotgan kitoblarimiz aslida bolaga tushunarlimi? Bolalarga qaysi yoshda qanday mavzudagi kitoblarni o'qitish kerak? Bolalar kitoblari kattalar kitoblaridan nimasi bilan

farq qilishi lozim? kabi savollarga javob izlashga urinish natijasida xilma xil nazariyalar paydo bo'lmogda.

Buning natijasi o'laroq oxirgi 30 yil ichida bolalar adabiyoti tanqidchiligi alohida akademik fan sifatida shakllandi. Bolalar adabiyoti tanqidchiligi dastlab **bolaga qaratilgan, matn asosli va yozuvchiga qaratilgan** nazariyalarni ishlab chiqdi. Bu davr nazariyotchilari asosan ustozlar va kutubxonachilardan iborat bo'lib, bolaga qanday kitoblar yoqadi, bola uchun eng yaxshi kitoblarni qanday tanlash kerak? degan savollarga o'z tadqiqotlari orqali javob izlay boshladilar. Hozirgi kunda ko'pgina bolalar adabiyoti tanqidchilari bolalarga bitta yagona guruh emasligini, balki yoshi, jinsi, millati, dini va hokazolarga ko'ra farqlanishini, shuning uchun ham butun dunyo bolalari uchun birdek sevimli bo'la oladigan universal adabiyot mavjud emasligini ta'kidlamogda. Lissa Pol (1987), Roberta Selinger Trites (1997), Kristin Vilki-Stib (2002), Beverli Lyon Klark va Margaret Hiogennet (1999) kabi feministik bolalar adabiyoti tanqidchilari o'g'il va qiz bolalarning badiiy didi farq qilishini, bola uchun asar tanlashda uning jinsiga ahamiyat berish lozimligini ta'kidlaydi. Kris Jenks, Kolin Heyvud, Kerol Gerhart Muney kabi qaysi yoshda bolaga qanday kitob o'qitish kerak degan savolga javob izlashga uringan tadqiqotchilar bola tushunchasi bolaning turli yosh davrlarga bo'linishi, bolaning qaysi yoshda qanday matnni tushuna olish darajasi turli makonda va turli zamonda turlicha bo'lganligini ta'kidlaydi. Boshqa tanqidchilar (masalan, Piter Xant (1991), Perri Nodelman (1992), Jon Stivens (1992) va Roderik MakGillis (1996) bolalar uchun eng yaxshi asar qanday bo'lishi kerak degan mavzudagi gaplar quruq safsata. Chunki bu savolga kattalar bolalar nomidan javob beradilar va bu doim ham o'zini oqlamaydi degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, G'arbdagi zamonaviy bolalar adabiyoti etnik guruhlar, jamiyatdagi ozchilikni tashkil etuvchi "ayrim" guruhlarining ham huquqlarini tan oladigan, ularning muammolarini inkor etishdan ko'ra, birgalikda muammoga yechim topishga intiladigan "liberalizm" mevasi sifatida juda xilma-xil janr va mavzularda namoyon bo'ladi. Liberalizm tufayli san'at, adabiyotdagi yangicha yo'nalish va yangicha mavzular osonlikcha qabul qilinadi. O'zini xunuk, kalta, uzun, ozg'in, semiz deb hisoblab, o'ziga past baho berish, giyohvandlik, erta tug'ruq, oila a'zosining o'limi kabi muammoli vaziyatlarga yechimlar bera oladigan bolalar uchun muammoli adabiyotlar AQShda mashhur bo'lgan mavzular hisoblanadi [3].

O'zbek bolalar adabiyotida o'zbek tilida yozilayotgan kitoblardan ko'ra tarjima asarlar son va sifat jihatidan yuqoriroq ekanini kuzatish mumkin.

Ammo bu faqat O'zbek bolalar adabiyotida sodir bo'layotgan jarayon bo'lib qolmay, butun dunyoda bolalar adabiyoti milliy adabiyot namunalarining jahon adabiyoti namunalari bilan raqobatlasha olmay turg'unlik davrini boshidan kechirayotganini kuzatish mumkin. Qo'shma Shtatlardan tashqari aksariyat G'arb jamiyatlari bolalar kitoblarini chop etishda asosan tarjimalarga tayanadilar. Finlandiyada fin bolalariga taqdim etilgan kitoblarning 80%i tarjimalardir [4]. Tarjimalar boshqalarga yangi yo'nalishlarga ochiqlik va boshqa adabiy janr va mavzularni qabul qilish imkonini beradi. Ammo aytaylik, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan Morris Gleytsmaning "Sticky Beak" – "Burunsuqar" (1993) asari kabi o'qituvchi siymosi masxara qilinadigan, ijtimoiy, axloqiy, diniy qoidalar va normalarni qabul qilmaydigan karnaval adabiyotini tarjima qilish o'zbek bolalar adabiyotiga qanday ta'sir qiladi? Shubhasiz, "Aydin Chamberning "Qabrimdagi raqs" yoki Leslea Normanning "Hezerning ikki onasi bor" singari bir jinsli nikoh kabi taqiqlangan mavzularga bag'ishlangan[5] kitoblarni sharq adabiyotida, islom olamida tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki Sharqda Bolalar adabiyotida bunday muammolar haqida ochiq gapirish foydadan ko'ra zararliroq, bolalarni bunday muammolardan chetlab o'tish kerak deb hisoblanadi. 1980-yilda Buyuk Britaniyada Islomiy bolalar adabiyoti nashriyotiga asos solgan va turli yoshdagi musulmon bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar nashrini yo'lga qo'yan muharrir va yozuvchi Xurram Murod: "Alloh va uning payg'ambari yo'l yo'riqlariga o'rin ajratilmagan, bolalarga faqat badiiy yoki estetik zavq berish uchungina chop etilayotgan kitoblar hech qanday qimmatga va ahamiyatga ega emas. Bu kabi kitoblar bolalarni to'g'ri ilm olish imkonidan mahrum qiladi. Ularda Haq va Botilning o'zgarmas qonuniyatlari haqida hech nima aytilmaydi. Bu kabi kitoblar bolaga na ezgulik tarafdori, yaxshi inson bo'lib yashashga rag'bat beradi, na yovuzlik va yomon odatlardan qaytaradi. Ko'ngilxushlik, shaxsiy rivojlanish, individualizm kabi mavzularnigina qamrab olgan adabiyotlarni o'qigan, shu ruhdagi filmlarni ko'rib ulg'aygan yoshlar kattalar hayotiga ijtimoiy begonalashuv va sarosimaga tushgan holda kirib boradilar, ular atrofidagi dunyoning cheksiz ko'rinadigan tanlovlariga dosh bera olmaydilar" – deya fikr bildiradi[6].

Shuningdek, ko'plab adabiyotshunoslar millat farzandlarini tarjima adabiyotlar yoki ulardan ta'sirlanib yozilayotgan kitoblar bilan emas sof milliy til muhitida yozilgan, milliy xarakter va milliy dunyoqarashni ochib beradigan qahramonlar haqida hikoya qiluvchi asarlar lozimligini ta'kidlaydi. O'zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev ham bolaga xorijiy kitoblarnigina

o'qitish bolani boshqa ota tarbiyalashi bilan teng. Bola, avvalo, ona tilida, milliy ruhda yozilgan asar bilan tanishuvi kerakligi, aytib o'tgan edi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida zamon bilan hamnafas ammo qalban milliy xarakterga ega qahramonlarni aks ettirgan kitoblar yozish ko'ndalang mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Filonov, G. N. (1994) 'Anton Makarenko', in *Prospects: the quarterly review of comparative education UNESCO: International Bureau of Education, Paris*. vol. XXIV, no. 1/2, p. 77-91.

2. <https://humanjourney.us/health-and-education-in-the-modern-world/early-childhood-education>

3. Nikolajeva, Maria. *Children's Literature Comes of Age: Toward a New Aesthetic*. New York and London: Garland Publishing, 1996.

4. Oittinen, Riitta. *Translating for Children*. New York and London: Garland Publishing, 2000.

5. Nikolajeva, M. (2004) 'Narrative Theory and Children's Literature', in Hunt, P. (ed.) *International Companion Encyclopedia of Children's Literature*, 2nd edn, London and New York: Routledge.

MAKTAB O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY - MA'RIFIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA BUYUK SIYMOLAR OBRAZIDAN FOYDALANISH

Toshpulatova Kamola Xurshed qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, talabasi

Alikulov Abdumo'min Ismatovich

"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"

kafedra dotsenti, i.f.b.f.d.

Annotatsiya: Maqolada o'quvchi-yoshlarni milliy ma'naviy meroslar asosida tarbiya berishda Markaziy Osiyo mutafakirlarining ma'naviy merosidan foydalanish va ular orqali yosh avlodga ijobiy mezonlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Shuningdek, buyuk allomalarning tarbiya haqidagi qimmatli o'gitlaridan na'munalar keltiriladi. Ularning har birini ijod yo'li va hayoti yoshlar uchun katta bir maktabdir.

Kalit soʻzlar: maʼnaviy meros, manaviy tafakkur, odob-ahloq, qarindosh-urugʻ, mahalla va jamoatchilik hamkorligi, ahloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon, maʼnaviy xislatlar.

Jahonda shaxs va jamiyatning oʻzaro munosabati, ijtimoiy amaliyotlar tahlil qilinganda ideal, gʻoya, maqsad va modellar katta oʻrin egallashi kuzatiladi. Shaxs maʼnaviy borligʻida, avvalo, epistemologik, gnoseologik qatlami yuzaga kelar ekan, unda, albatta, oʻzgarmas, mukammal, namuna va andaza singari xususiyatlarga ehtiyoj sezgan. Bu bir tomondan, shaxs ongida ekzistensial boʻshliqni toʻldirib, ikkinchi tomondan, jamiyatda insonning yashashdan maqsadi, intilish ufqlari va baxtlifarovon hayot kechirish ideallarini yaratishga, kompleks rivojlanish modellarini ishlab chiqishni kun tartibiga qoʻygan. Hozirgi kunda oʻquvchi-yoshlarda ijtimoiy-axloqiy idealini shakllantirish va uning maʼnaviy-mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy omillar bilan oʻzaro taʼsirlashishini tadqiq etish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Oʻquvchi yoshlarga tarixiy meros, maʼnaviy qadriyatlarni oʻrgatish alohida ahamiyatga ega. Natijada, oʻquvchida ularga nisbatan shaxsiy munosabat tarkib topib, asta-sekinlik bilan bolaning maʼnaviy dunyoqarashi ham shakllana boshlaydi. Bugun ana shunday bir globallashuv davrida, oʻquvchilar xalqimiz oʻtmishiga hurmat mavqeidan, unga faxr hissi bilan yondashishni oʻrgansalar, keyingi hayotida yangi yutuqlarga erishishlari muqarrardir.

Shuning uchun ham oʻquvchilar ongiga milliy axloqiy sifatlarni, orzu-istaklari, iymon-eʼtiqodlari, dunyoqarashlarini milliy maʼnaviy va tarixiy meros asosida shakllantirib bormas ekanmiz, koʻzlangan maqsadga erishib boʻlmaydi. Buning uchun, shubhasiz, kelajagimiz boʻlmish farzandlarimizning, barkamol, axloqli boʻlib tarbiyalanishlariga erishishda faqat milliy taʼlim-tarbiya koʻnikmalariga ega boʻlishimiz darkor.

Ulugʻ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun maʼrifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning maʼnaviy mulki boʻlib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin boʻlib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ularni islom madaniyatining manbalari asosida milliy tarixiy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga

hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yoʻnalishlarda keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «...Xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya anʼanalarini asrabavaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz oʻrtasida dinlararo bagʻrikenglik, millatlararo totuvlik va oʻzaro mehroqibat muhitini mustahkamlash boʻyicha choratadbirlar ishlab chiqish»[2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso atTermiziy va Al-Hakim atTermiziy kabi muhaddis olimlarning ilmiy asarlarida insonning maʼnaviy-axloqiy, tarbiyaviy qarashlariga oid jihatlaridan yosh avlod maʼnaviy tarbiyasiga tatbiq qilishning pedagogik yechimlarini asoslash, muhaddis olimlar ilmiy merosidan, ayniqsa, xulq, odob-axloqni taʼminlashga xizmat qiladigan kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarning maʼnaviy-axloqiy jihatlariga ilmiy izlanishlarni keng qamrovli amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059- son «Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida»gi Qarori (mazkur Qarorning III bob 10-bandida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining I–XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuygʻusi», «Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fani joriy etildi), qabul qilindi. Maʼnaviy-axloqiy bilimlar oʻquvchi faoliyatida maʼnaviy koʻnikma va malakalarni shakllantiradi. Demak, maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish oʻquvchilarning maktabda turli ijtimoiy-gumanitar fanlar asoslarini egallashlari borasida paydo boʻladi.

Maʼnaviy-axloqiy bilim orqali maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirishga erishiladi. Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan «Ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlmagay» yoki «Beshikdan qabrgacha ilm izla» hadislarida koʻrishimiz mumkin. Oʻquvchining darslarda olgan nazariy bilimi, amaliy koʻnikma va malakalari ularning turmushida, xulq-atvorida, jamiyatdagi kishilarga boʻlgan munosabatida namoyon boʻladi. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya har bir shaxsni madaniyat, maʼrifat dunyosiga olib kiradi.

Axloqiy tarbiya oʻqitish jarayoni bilan qoʻshib olib boriladi. Buyuk nemis pedagogi A. V. Disterveg taʼkidlaganidek, yaxshi oʻqita bilgan oʻqituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham. Axloqiy tarbiya jarayonining muvaffaqiyati oʻquvchilar va oʻqituvchilar jamoasining saviyasiga bogʻliq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, bolalar intizomli boʻlishi kerak. Tarbiyaviy

ishlarning bunday rejali va aniq maqsadli bo'lishi hamda hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. A.S. Makarenkoning «o'nta yuqori malakali, o'z holicha ishlaydigan o'qituvchidan malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o'qituvchi afzal» [4] deganini unutmaslik kerak. Maktabda ijobiy emotsional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayoniga foydali ta'sir etadi. Shu o'rinda o'quvchilarni milliy ma'naviy meroslar asosida axloqiy tarbiyalashda quyidagi usullarni tavsiya etish mumkin:

-birinchidan, tushuntirish, o'qtirish, suhbat, munozara, leksiya, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish asosida o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qilishlariga erishish;

-ikkinchidan, axloqiy odatni shakllantirishda mashq va mashqlantirish hamda bolalarning turli faoliyatini uyushtirish;

-uchinchidan, turli bayram tadbirlari «Mustaqillik kuni», «Navro'z bayrami»; adabiy kechalar «Sharq mutafakkirlari dunyo tamadunining asoschilari» mavzularidagi tadbirlarni samarali tashkil qilish;

-to'rtinchidan, Tarbiyaviy soatlar, «Tarbiya» darslari saviyasini oshirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish;

-beshinchidan, ommaviy axborot vositalari kinoteatr, televidenie ko'rsatuvlaridan, jumladan, «Otalar so'zi aqilning ko'zi», kabi eshittirishlaridan foydalanish;

-oltinchidan, mehnat faxriylari, ilm-fan xodimlari va urush faxriylari, ko'p bolali onalar, imonli qariyalar, hojilar bilan o'quvchilar uchrashuvlarini uyushtirib borish;

Xulosa: O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillash-tirish asosida ularda bir qator sifatlar namoyon bo'ladi. Ular: o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'ziga doimo tanqidiy qarash, kamchiliklarni o'zidan qidirish, o'z-o'ziga talabchan bo'lish, hamma joyda aniq ishlarni vijdonan bajarish, o'z-o'zini tarbiyalash, bunda kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash, axloqiy tarbiyalanganligini, bilimlarni yaxshi egallaganligi, axloqiy tuyg'ularning rivojlanganligi, maqsadga intilish, dovyuraklik va hal qiluvchanlik, mustaqil fikrga ega bo'lish, talabchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o'z-o'zini idora qilish va tuta bilish tashkil etadi.

Pedagogik faoliyatda hoh u boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lsin, hoh u yuqori sinf o'qituvchisi bo'lsin dars mashg'ulotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini xalqimizning necha ming yillik tarixida otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy-ma'naviy meroslar, an'ana va urf-odatlarini, Islom dini va hadisshunos allomalarimizning hadis g'oyalari

bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu usullar axloqiy tarbiya negizini tashkil etib, o'quvchilarning ma'naviy axloqiy tarbiyalashni takomillashtirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent.: O'zbekiston, 2018.-B.181.*

2. *O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. 2017 yil 28 iyul // Xalq so'zi, 2017 yil 29 iyul. PQ-3160-son. [Elektron resurs] <https://lex.uz/docs/4071203>*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.*

4. *Pedagogika / A. Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. — T.: O'qituvchi, 1996.*

5. *Bakhromovich SI. The impact of managerial professional development on the effectiveness of Higher Education institution management. Academia: an international multidisciplinary research journal. 2020;10(12):1014-20.*

II. TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOYIY-MA'NAVY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG'IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI.

TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVYIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA "HALOLLIK VAKSINASI"NING O'RNI

Nabiyev Farxod Xamidovich

tarix fanlari doktori, professor Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand davlat universiteti

***Annotatsiya.** Maqolada tashqi g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini samarali qilish masalasi tahlil qilingan. Bunda profilaktika jarayonida odamlarga emlanadigan "halollik vaksinasi" kerakligi belgilab berilgan. "Halollik vaksinasi"ni yaratishda insonning baxt to'g'risidagi tushunchasini sog'lomlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Bunda insonning xulqini belgilaydigan narsa uning baxt to'g'risidagi tushunchasi ekanligidan kelib chiqilgan. Inson baxtligining eng muhim sharti qo'rqusiz erkin yashash hissi va xotirjamligi ekanligi asoslab berilgan. Buni anglagan odamda tashqi tahdidlarga qarshi antivirus shakllanishiga imkoniyat paydo bo'ladi, chunki yot, soxta g'oyalar odamni xotirjamlikdan mahrum bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** Farovon jamiyat, baxtli hayot, mustaqillik, tinchlik, adolat, ma'naviy va mafkuraviy tahdid, poraxo'rlik va korrupsiya, virus va antivirus, profilaktika va vaksina, immunitet, demokratiya va fuqarolik jamiyati.*

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti, eng avvalo, jamiyatning rivojlanish darajasiga va shu jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir fuqaroning hayotga ongli munosabatda bo'lishiga bog'liq. Bunday munosabatning shakllanishi esa, jamiyatning umumiy madaniyatini rivojlanish darajasining yuksakligi orqali ta'minlanadi. Jamiyat madaniyatini yuksakligi esa, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim sharoiti bo'lgan ta'lim tizimini samarali ishlab turishiga bog'liqdir. Chunki ta'lim tizimining funksiyasi jamiyatga bilimli va ma'naviyatli kadrlarni tayyorlab berishdan iborat. Bugungi kunda ta'lim tizimida bilim va ma'naviyatni uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash muammo bo'lib qolmoqda. Chunki ta'lim tizimida asosiy e'tibor bilimga qaratilib ma'naviyat nisbatan e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida ma'naviyatni qashshoqlashuvi va nosog'lom ijtimoiy muhitni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda insoniyat

jamiyatida mavjud bo'lgan barcha global muammolarning sababi aynan ana shu ma'naviy qashshoqlik bilan bog'liq.

Bugun butun dunyo yoshlari singari O'zbekiston yoshlari ham diniy fundamentalizmining mafkuraviy tahdidi, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi buzuqlik va axloqsizlik tahdidi va korrupsiya tahdidi ostida yashab kelmoqdalar. Bunday tahdidlardan himoyalanişning eng maqbul yo'li ularga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktika ishlaridir. Ma'naviy-ma'rifiy profilaktika jarayonida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish g'oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ma'naviy yuksalish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan. Ma'naviyatni yuksaltirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini samarali tashkil qilish bilan bog'liq. Yuqorida qayd qilingan muammolarning eng xavfli korrupsiya illatidir chunki korrupsiya muhitida har qanday yaxshi g'oya ham immunitetni shakllantira olmaydi. Shuning uchun biz quyida korrupsiyaga qarshi ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini samarali qilish masalasini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik. Korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish bilan mafkuraviy tahdid va "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitetni shakllantirishga erishish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatiga va taraqqiyotimizga asosiy to'siq **korrupsiya illati** hisoblanadi. Shuning uchun muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomalarida "Meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosi..." [1] deb ta'kidladilar. Korrupsiyaga qarshi kurash masalasi bugungi kunda O'zbekiston uchun eng dolzarb muammo sanaladi va ushbu **muammoning yechimi ma'naviy yuksalishga** qaratilgan profilaktika ishlari bilan bog'liqdir. Ushbu muammolarni bartaraf qilishda oqibat bilan kurashgandan ko'ra uning oldini olish, ya'ni sababni bartaraf qilish muhim ahamiyatga ega. Mavjud muammolarning sababi **odamlarning xulqi bilan bog'liq**, chunki jamiyatda qanaqa muammo bo'lmasinki, u **odamlar tomonidan sodir qilinadi**. Shunday bo'lganligi sababli muammolarning yechimi odamlarning xulqini o'rganishni taqozo etadi. Odamning xulqi uning baxt to'g'risidagi tushunchasi bilan bog'liq bulganligi uchun, eng avvalo, baxt nima ekanligini va uni shakllantiruvchi omillarni aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Chunki inson nimani orza qilsa o'shanga intilib yashaydi, insonning orzusi baxtli hayot ekan, demak, **odam xulqini uning baxt to'g'risidagi tushunchasi belgilab beradi**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali qilishda va ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashda asosiy to‘siq bo‘lgan **korrupsiya illatiga** qarshi kurashish to‘g‘risida gapirib, “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, **“halollik vaksinasi”** bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak” [1], – deb ta‘kidladi. Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lgan korrupsiya illatining barvaqt oldini olish uchun profilaktika ishlarini samarali amalga oshirish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, profilaktika jarayonida odamlar emlanadigan “vaksina” yaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday “vaksina”ni ishlab chiqish uchun **inson xulqini belgilaydigan omillarni** aniqlash va o‘shandan kelib chiqib fikrlash kerak bo‘ladi. Chunki korrupsiyaning sababi insonning xulqi bilan bog‘liq va “vaksina” korrupsiyani keltirib chiqaradigan buzuvchi xulqning omillarini bartaraf qilishi kerak.

Insonning xulqi yuqorida ta‘kidlaganimizdek uning azaliy orzusi bo‘lgan baxt to‘g‘risidagi tushunchasi bilan bog‘liq. Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab u baxtli yashaydigan farovon jamiyatni orzu qilib kelmoqda va nimani baxt deb hisoblasa, o‘shanga intilib yashamoqda. Shuning uchun **insonning xulqi, yurish-turishi, hatti-harakati va to‘g‘ri yoki egri yo‘ldan yurishi uning baxt to‘g‘risidagi tushunchasi** bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar inson uchun baxtli bo‘lish moddiy jihatdan boy bo‘lish bo‘lsa, unda u moddiy boylik ilinjida yashab, o‘zining moddiy ehtiyojlarining quliga aylanib qoladi va moddiy boylik uchun huquq va axloq me‘yorlarini buzishga moyil bo‘ladi.

Buni tushunish uchun esa, ular baxt bu, eng avvalo, qo‘rqusiz erkin yashash hissi, tinchlik va xotirjamlik ekanligini anglab olgan bo‘lishlari lozim. Buni anglab olgan odamda yuqorida qayd etilgan illatlarga qarshi immunitet shakllangan bo‘ladi, chunki ushbu illatlar inson baxtliligining muhim sharti bo‘lgan qo‘rqusiz erkin yashash hissi va xotirjamlikdan mahrum etadi. Shuning uchun **insonning baxt to‘g‘risidagi sog‘lom tushunchasi “halollik vaksinasi”ning muhim elementi sifatida xizmat qiladi** deb aytish mumkin. Albatta “halollik vaksinasi” tarkibida boshqa elementlar ham bo‘ladi, lekin baxt to‘g‘risidagi sog‘lom tushuncha **asosiy element** hisoblanadi, chunki vaksinaning boshqa barcha elementlari baxt to‘g‘risidagi tushuncha bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, demokratiya, mustaqillik, tinchlik, adolat, ma‘naviyat va boshqa omillar vaksinaning elementi bo‘lishi uchun inson ushbu omillar uning hayotini baxtli qilishidagi ahamiyatini bilishi kerak bo‘ladi. Aytaylik, ma‘naviyat “halollik

vaksinasi”ning elementlaridan biri bo‘lishi uchun baxtli hayot ma’naviyatga bog‘liq ekanligini asoslab berish kerak bo‘ladi.

“Halollik vaktsinasi” to‘g‘risida gapirganda, eng avvalo, u nima ekanligini anglab olish kerak. Xo‘sh “halollik vaktsinasi” nima? “Halollik vaktsinasi” deganda harom qilingan ishlarni qilishga undaydigan virusni o‘ldirishga qodir bo‘lgan **antivirus rolini bajaradigan g‘oyalar majmui** tushuniladi. Korrupsiya illati ana shunday shunday harom qilingan ijtimoiy kasallik hisoblanadi va bu kasallikni keltirib chiqaradigan virus bo‘ladi. Korrupsiya muammosi hech qanday mubolag‘asiz bugungi kundagi eng murakkab va eng dolzarb, jiddiy muammodir, chunki korrupsiya jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni buzadi. Adolat tamoyili buzilgan joyda esa odamlar norozi bo‘lishadi, norozilik esa ijtimoiy tanglikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tanglik ertami-kechmi parokandilikni, parokandalik esa mustaqillikni ham dargumon qilib qo‘yadi. Demak, korrupsiya muammosi hech qanday mubolag‘asiz milliy xavfsizligimizga eng xavfli tahdid deb aytish mumkin.

Baxtga ta‘rif berganda, **baxt – bu qo‘rquvsiz erkin yashash hissi va qalbdagi xotirjamlik hamda moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning qondirilganlik holati** deb aytish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu ta‘rifdan inson baxtliligining muhim sharti qo‘rquvsiz, erkin yashash hissi orqali ta‘minlanadigan **xotirjamlik** ekanligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun inson baxtliligi to‘g‘risida gapirganda, **qachon odam qo‘rqmasdan erkin yashashi mumkin**, degan savolga javob berishdan boshlash kerak. Inson qo‘rqmasdan erkin yashashi uchun uning **xavfsizligi ta‘minlangan bo‘lishi** lozim. Buning uchun esa, inson xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan jumladan g‘oyaviy tahdidlardan himoyalangan bo‘lishi kerak. Tahdidlardan himoyalaniish nima ekanligini anglab olish uchun tahdidning o‘zi nima ekanligini bilish kerak. Tahdid deganda insonga biror-bir **jismoniy, moddiy va ma’naviy zarar**, shikast va ziyon yetkazilishi mumkinligi, ya‘ni xavf ehtimoli tushuniladi.

Qo‘rquvsiz erkin yashash hissi inson baxtliligining muhim sharti ekanligini bilish korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki korrupsiya muhitida hech kim erkin va demak baxtli bo‘la olmaydi. Bunday immunitetni shakllanishi korrupsiyani sababini bartaraf qilishga xizmat qiladi. Nazorat va jazolash bilan ijobiy natijaga erishib bo‘lmasligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Lekin faqat qamchi va qilich bilan ijobiy natijalarga erishib bo‘ladimi? Bu nafaqat – xato fikr, balki chuqur yangilish, deb hisoblayman. Bu borada profilaktika ishlarini kim samarali olib boradi?” [2], – deb savol bilan murojaat qilganlar. **Ushbu savolga javob berish uchun profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan “halollik**

vaksinasi” ishlab chiqilgan bo’lishi lozim. “Halollik vaksinasi”ni shakllantirishda odamning baxt to’g’risidagi tushunchasini sog’lomlashtirish bilan birga inson baxtli bo’lishi uchun qanday sharoitlar kerakligini ham aniqlab olish kerak bo’ladi. Chunki **korrupsiya baxtli hayot sharoitlariga tahdid** hisoblanadi, nega deganda korrupsiya muhitida baxtli hayot sharoitlariga putur yetadi.

Korrupsiya tahdidiga qarshi immunitetni shakllantirishga yoki virusga qarshi antivirusni shakllantirishga xizmat qiladigan vakcina hayotbaxsh so’zlardan va g’oyalardan iborat bo’ladi. **“Vaksina” bo’lib** insonning baxt haqidagi to’g’ri tushunchasi, baxtga erishishda mustaqillikning, tinchlikning, adolatning, ma’naviyatning, milliy g’oyaning, demokratiyaning, fuqarolik jamiyatining, islohotlarimiz asosida yotgan liberallashtirishning o’rni va O’zbekiston tanlagan evolyusion taraqqiyot yo’lining ahamiyati to’g’risidagi **g’oyalar majmui xizmat qiladi.**

Ijtimoiy kasallik bo’lgan korrupsiyaning sababi ham ma’naviyatning qashshoqlashuvi bilan bog’liq. Ma’naviyat qashshoq bo’lgan joyda korrupsiyaga sharoit yaratiladi va korrupsiya bu sharoitni asrash uchun ma’naviyatning yuksalishiga yo’l qo’ymaydi. Chunki korrupsiya illat sifatida faqat **nosog’lom ijtimoiy muhitdagina mavjud** bo’ladi va bunday muhit odamlar ma’naviyati qashshoq bo’lgan holdagina kelib chiqadi. Demak, korrupsiyaning **sababi** ma’naviy qashshoqlik, **oqibat** esa insoniyatning halokati va uning **yechimi** sababni bartaraf qilish ya’ni ma’naviyatni yuksaltirish bilan bog’liq. Sabab ma’naviy qashshoqlikka, ma’naviy qashshoqlik esa korrupsiyaga bog’liq ekan, demak, asosiy e’tiborni korrupsiyani to’xtatishga qaratish lozim. Buning uchun esa O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashda taklif qilgan “halollik vaksinasi”ni yaratish va jamiyatni emlash kerak bo’ladi. “Halollik vaksinasi” korrupsiya sababining antivirusi bo’lib xizmat qiladi deb aytish mumkin.

Demak, jamiyatni korrupsiya illatidan himoya qilishning eng maqbul yo’li ma’naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktika ishlari bilan bog’liq. Bunday immunitetni shakllantirish keng ko’lamli ma’naviy va mafkuraviy ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Immunitetni shakllantirish borasidagi profilaktika ishlarimiz samarali bo’lishi uchun, eng avvalo, targ’ibotchilar guruhini tuzish va ularni “halollik vaksinasi” rolini bajaradigan targ’ibot materiallari bilan ta’minlash lozim. Mazkur tadqiqot Muhtaram Prezidentimizning yuqorida keltirilgan savollariga javoban profilaktika ishlarini olib boruvchi targ’ibotchilar uchun korrupsiya tahdidlariga qarshi **immunitetni shakllantirishda “halollik vaksinasi” bo’lib xizmat qilishi mumkin.**

Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samardorligini oshirishga xizmat qiladigan quyidagi xulosa va takliflarni berish mumkin:

1. Bugun yoshlarni ongi va qalbi jang maydoniga aylanib ular mafkuraviy tahdid, "ommaviy madaniyat" tahdidi qurshovida yashab kelmoqda.

2. Yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilishning eng maqbul yo'li profilaktika ishlari orqali ma'naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir.

3. Lekin korrupsiya muhitida har qanday yaxshi g'oya bilan ham ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirib bo'lmaydi.

4. Shuning uchun asosiy e'tibor korrupsiyani to'xtatishga qaratilgan profilaktika ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega

5. Yoshlarda bunday immunitetni shakllantirish uchun profilaktika jarayonida emlanadigan "halollik vaksinasi" ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

6. "Halollik vaksinasi"ni yoshlarga emlashga qodir bo'lgan targ'ibotchilar guruhini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini tizimli yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Тошкент. 2020 йил 24 январ.*

2. *Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент – “Ўзбекистон” – 2017.*

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING REFLEKSIV MODEL I

Xudayberdiyev Oybek Gafurovich.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

(PhD)mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning takomillashtirilgan refleksiv modeli yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *Pedagogik nizolar, konfliktologik madaniyat, kompetentsiya, komponent, model, refleksiya, kontseptual blok, texnologiya, tarbiya, interfaol metodlar.*

Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida konfliktologik madaniyatni shakllantirishga doir qator ilmiy izlanisahlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oʻquvchilarda affilyatsiya motivini qaror toptirish orqali samarali muloqotga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish, refleksiv yondashuv asosida oʻz hissiyotlari va xulq-atvorini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashtirish, oʻquvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillash alohida dolzarflik kasb etadi.

Har qanday taʼlim muassasalari va taʼlim jarayonida boʻlgani kabi umumiy oʻrta taʼlim tizimida ham pedagogik nizolar sodir boʻlib turadi. Bu nizolarning asosiy ishtirokchilari koʻp holatlarda oʻquvchi, oʻquvchilar jamoasi, pedagog, pedagoglar jamoasi boʻlsa, juda kam hollarda esa ota-onalar hamda taʼlim muassasasining rahbarlari ham pedagogik nizolarning ishtirokchilariga aylanishlari mumkin.

Konfliktologik madaniyatga doir tadqiqotlar tahlili uni umummadaniyatning muhim komponenti sifatida koʻrib chiqish lozimligini koʻrsatdi.

N.Samsonova, T.Chernyaeva, O.Belous, N.Azizxodjaevalar konfliktologik madaniyatni kasbiy faoliyat turi va kasbiy nizoli muhit sharoitida nizolar profilaktikasiga qobiliyatli mutaxassis sifat tavsifi sifatida talqin etishgan [1; 2; 3].

O.Sherbakova konfliktologik madaniyatni tahlil etish orqali shaxslararo munosabatlar jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni ikki tomonlama foydali tarzda hal etishni taʼminlovchi shaxsning ijtimoiy zaruriy sifat va xususiyatlarini aks ettiruvchi nizoli vaziyatdagi shaxsning xulq-atvor odobi tarzida aniqlashtirgan [4].

L.Coser konfliktologik madaniyatni insonning nizoli vaziyatda adekvat yoʻnalganligi va konstruktiv harakatlanish qobiliyati[5]; T.Gordon nizoli vaziyatda oʻzining masʼuliyatini anglash asosida konstruktiv harakatlanishga imkon beruvchi sifatlar yigʻindisi sifatida talqin etishgan [6].

Konfliktologik madaniyatni rivojlantirishga bagʻishlangan tadqiqotlar tahlili asosida mazkur masala toʻliq va yaxlit oʻrganilmaganligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Konfliktologik madaniyat oʻquvchining maxsus kompetentsiyalari tizimiga tegishli boʻlib, u taʼlim muassasasida nizolarni boshqarishga tayyorlik va qobiliyatlilikni ifoda etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan oʻquvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning refleksiv modeli takomillashtirildi va u yaxlit tizim sifatida oʻzida konseptual, tashkiliy va texnologik, analitik bloklarni

qamrab olgan bo`lib, gnosiologik, refleksiv, aksiologik va tashkiliy faoliyat komponentlarini aks ettiradi (1-rasm).

Tadqiqot jarayonida umumta`lim maktabi o`quvchilarida konfliktologik madaniyatni rivojlantirish masalasiga alohida e`tibor qaratildi. O`quvchilarning konfliktologik madaniyatini shakllantirish modeli pedagogik texnologiya bilan ta`minlanadi.

Konfliktologik madaniyatning komponentlarini aniqlashtirishga doir turli yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, ularning mazmunida umumiylik kuzatiladi. Jumladan, konfliktologik madaniyatning komponentlari sifatida fikrlash madaniyati, emotsional madaniyat, kommunikativ madaniyat, xulq-atvor madaniyatini; konfliktologik kompetensiya, konfliktologik kompetentlik va konfliktologik tayyorgarlik komponentlarini; konfliktologik madaniyatni kommunikativ qobiliyatlar, ijobiy munosabat, empatiya, nizolarni konstruktiv hal etish, vaziyatni tahlil etish qobiliyati bilan uyg`unlikda tahlil etish mumkin.


Bizning maqolamizda o`quvchi konfliktologik madaniyatining quyidagi komponentlari keltirilgan: gnoseologik, refleksiv, aksiologik, tashkiliy faoliyat (1-jadval).

1-jadval

O`quvchilarning konfliktologik madaniyatni rivojlantirish komponentlari

Komponentlar	Mohiyati
Gnoseologik	(Konfliktologik bilim va mahorat). Nizolarning yuzaga kelish qonuniyatlari, sabablari, turlari haqidagi bilimlar yig`indisi
Refleksiv	Refleksivlik (faoliyatning refleksiyasi, muloqot va boshqa shaxslar bilan o`zaro ta`sir refleksiyasi); refleksiya - o`z-o`zini tahlil etish)
Aksiologik	Nizolarni bartaraf etish texnologiya va strategiyalarni o`zlashtirish; nizoli vaziyatlarda konstruktiv o`zaro harakatni amalga oshirishning zaruriy ko`nikmalari yig`indisi.
Tashkiliy faoliyatli	Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish bilan bog`liq faoliyatni ifodalab, shaxs hissiy holati, o`z-o`zini tartibga solishi, ijobiy munosabatlarga intilishidan iborat konfliktologik madaniyatni o`z ichiga oladi.

Tadqiqot doirasida o`quvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning refleksiv modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'quvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish modeli

Modellarning turlarini tahlil etish asosida tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tuzilmali-mazmunli tipga asoslanib, uning yaxlitligi struktural (maqsad, mazmun, jarayon, natija) va mazmunga doir (o'quvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish bosqichlari, pedagogik, metodik va diagnostik ta'minot) komponentlari uyg'unligini ta'minlashga xizmat qildi.

Ushbu modelga asoslangan texnologiya konfliktologik madaniyatni shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha maqsad va vazifalar nomenklaturasini, konfliktologik madaniyatning rivojlanishini monitoring qilish uchun diagnostika vositalari tizimini, amalga oshirishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik vositalar va shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning konfliktologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalar, o'quvchilar va o'qituvchi uchun aks ettirish vositalari hisoblanadi.

Mazkur model umumta'lim maktabi o'quvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiylashuvi natijalarini bashoratlashning nazariy-texnologik asoslari sifatida namoyon bo'ladigan maqsad, mazmun, mezonlar, bosqichlarini aks ettiradigan konseptual, tashkiliy-texnologik va analitik-korreksion bloklarni o'z ichiga qamrab oladi.

Kontseptual blok o'zida umumiy o'rta ta'limning yaxlit o'quv-tarbiya jarayonida Davlat ta'lim standartlari talablari, ijtimoiy buyurtmaga asoslangan aniq maqsad va vazifalar, metodologik asoslar (yondashuvlar, tamoyillar)ni aks ettiradi.

Modelning tashkiliy-texnologik bloki o'quvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyat bosqichlari, mazmuni, metodik ta'minotini takomillashtirish shart-sharoitlarini aniqlashga xizmat qildi.

Analitik-korreksion blok o'z ichiga o'quvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish mezonlari, darajalari, analitik vositalarini aks ettiradi.

Model komponentlari asosida o'quvchilarni nizoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadi belgilandi.

Mazkur model "Tarbiya" fani bo'yicha interfaol usulda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish orqali umumta'lim maktablarida amaliyotga joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilar bilan konfliktologik tayyorgarlik elementlarini qo'llashning reflektiv usullari orqali mashg'ulotlar o'tkazib borilsa, nafaqat ularning konfliktologik madaniyati darajasini oshirish, balki boshqa bir qator ijtimoiy kompetentlik parametrlarida sezilarli farqlarni kuzatish imkoni yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktabi o'quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning reflektiv modeliga asoslangan texnologiya konfliktologik madaniyatni shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha maqsad va vazifalar nomenklaturasini, konfliktologik

madaniyatning rivojlanishini monitoring qilish uchun diagnostika vositalari tizimini, amalga oshirishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik vositalar va shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Самсонова Н.В. Конфликтологическая культура специалиста и технология ее формирования в системе вузовского образования: Монография. – Калининград: Изд-во КГУ, 2002. – 308 с.

2. Белоус О.В. Формирование осознанной саморегуляции педагогического взаимодействия как фактор эффективной подготовки студентов педвуза: Дис.. канд. психол. наук. – М., 2000. – 149 с.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогические мастерство: Учебное пособие для студентов магистратуры всех областей образования. – Т.: Издательство –полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005 – 199 с.

4. Щербакова О.И. Контексты в конфликтологии: Монография. – М.: МГТУ им. М.А. Шолохова, 2006. – 80 с.

5. Coser L. Conflict: Social Aspects // International Encyclopedia of the Social Sciences. Ed. by D. Sills. Vol.3, USA, 1998. – P. 232-236.

6. Gordon T. Parent Effectiveness Training. N.Y.: Wyden Inc., 2010. 3Sl.
Jonson E. B. Contextual Teaching and Learning. Corwin Press, INC. – 467 p. .

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Садыкова К.А.,

к.б.н., доцент кафедры педагогики
и психологии ТДШУ

Аннотация. В данной статье описаны виды внеклассных работ по школьному предмету биологии, а также предложены разнообразные методы проведения внеклассной работы с целью формирования экологической культуры и экологического сознания подрастающего поколения.

Ключевые слова: экологическая культура, внеклассная работа, экологическое воспитание, защита природы, эксперимент, индивидуальные занятия.

Цель экологического воспитания — это формирование бережного отношения к окружающей среде, которое строится на базе экологического сознания. Всё это предполагает соблюдение нравственных и правовых принципов природопользования и пропаганду идей его оптимизации, активную деятельность по изучению, охране и защите природы своей местности. Эта цель достигается по мере решения в единстве следующих задач: образовательных — формирование системы знаний об экологических проблемах современности и пути их разрешения; воспитательных — формирование мотивов, потребностей и привычек экологически целесообразного поведения и деятельности, здорового образа жизни; развивающих — развитие системы интеллектуальных и практических умений по изучению, оценке состояния и улучшению окружающей среды своей местности, развитие стремления к активной деятельности по охране окружающей среды [2]. Экологическое воспитание — это средство образования в сознании школьников реалистических знаний об окружающем мире, основанных на чувственном опыте. Эти знания необходимы для формирования материалистического миропонимания. Успех в экологическом образовании и воспитании школьников во многом зависит от того, в какой степени учитель побуждает интерес, стремление глубже познать окружающий мир и совершенствоваться во всех видах экологической деятельности. Основной целью учителей является развитие целостной личности, неравнодушной к проблемам родного края, способной практически решать экологические проблемы. Содержание экологического образования имеет сложный состав, усвоение которого школьниками требует не только классной, но и большой внеклассной работы. Внеклассная работа определяется как деятельность, которая выполняется во внеурочное время и на основе интереса и самостоятельности учащихся. Внеурочная деятельность направлена на достижения определенных результатов, требующих от учащихся мыслительной работы, преодоление определенных трудностей. При определении содержания внеклассной работы необходимо исходить из таких принципов, как связь с жизнью, с проблемами, которые решает страна, область, район; соответствие содержания внеклассной работы возрасту учащихся, особенностями их умственного развития и интересов. Одной из задач внеклассной работы по экологическому воспитанию является расширение объема интереса школьников к природе, формирование его устойчивости и

направленности ко всему в природе и о природе, к охране природной среды. Для того, чтобы внеклассные занятия были интересны и не утомляли детей, целесообразно предусмотреть и смену видов деятельности: познавательная, игровая, творческая, трудовая, исследовательская. Внеклассная работа дает возможность школьникам к проведению исследовательской деятельности в природе. Воспитание любви к природе должно идти через практическое применение знаний о ней. В основе построения внеклассных занятий с экологической направленностью лежат следующие целевые установки: формирование целостного представления о природном и социальном окружении как среде жизни, труда и отдыха человека; развитие умения воспринимать окружающим мир посредством органов чувств и познавательного интереса и способности к причинному объяснению при анализе фактов и явлений окружающей действительности; воспитание эстетического и нравственного отношения к среде жизнедеятельности человека, умение вести себя в ней в соответствии с общечеловеческими нормами морали [1]. Велика роль внеклассной работы в приобщении школьников к самостоятельной работе, которую они могут проводить в соответствии с той скоростью усвоения, которая им более свойственна, что делает более продуктивным процесс становления личности. При этом ученик может обратиться к эксперименту, кратковременному и долговременному наблюдению, исследованию связей человека с природой в течение длительного срока с фиксацией на фотопленке, в рисунках, схемах и других документах. Все это делает исследования природной среды и ее охраны привлекательными и интересными. Формирование экологической культуры школьников возможно только при условии взаимосвязи различных типов и видов внеклассной деятельности. Разнообразная деятельность дает возможность школьникам овладеть глубокими знаниями о связях человека с природой, увидеть экологические проблемы в реальной жизни, научиться простейшим умениям по охране природы. Разнообразная деятельность учащихся реализуется во всех типах внеклассных занятий: индивидуальных, групповых, массовых. Индивидуальные занятия предполагают выполнение учащимися наблюдений как отдельных видов растений, животных, грибов и т. д., так и природных сообществ, расположенных в окрестностях школы, о взаимном влиянии человека и живой природы. В индивидуальных занятиях наиболее ценны те наблюдения, которые приводят школьника к выводам о значении живых организмов в жизни

человека, оценке их состояния на обследуемой территории и порождают желание своим трудом улучшить окружающую человека среду: озеленить улицу, очистить участок леса от сушняка, подкормить птиц зимой. Индивидуальная работа тесно связана с приобщением школьников к чтению и обсуждению книг и статей в журналах об охране природы. Групповая внеклассная работа наиболее успешно протекает в детских объединениях по интересам (кружках). В них занимаются школьники, проявляющие наибольший интерес к изучению взаимосвязей человека с живой природой. Программа экологического кружка должна отражать все аспекты содержания экологического образования: научно-познавательного, ценностного. Разнообразные виды внеклассной работы в экологическом кружке взаимно дополняют друг друга, обогащая процесс обучения и воспитания младших школьников. В формировании экологической культуры младших школьников огромную роль играют массовые внеклассные занятия: праздники, утренники, ролевые игры на экологические темы. Таким образом, внеклассная работа создает условия для приобретения опыта принятия экологических решений на основе полученных знаний [4]. Таким образом, воспитание, основанное на раскрытии конкретных экологических связей, поможет ученикам усваивать правила и нормы поведения в природе, которые будут осознанными и осмысленными убеждениями каждого ученика. Правильно используя различные методы воспитания можно сформировать экологически грамотную и воспитанную личность. Развитию ценностных ориентаций способствует выполнение учащимися практических работ оценочного характера. Для экологического воспитания важное значение имеют работы на местности по оценке характера воздействия человека на окружающую среду, предусмотренные программой. На их основе у школьников вырабатывается привычка правильно, критически оценивать свое поведение в природе, поступки других людей, выбрать линию поведения, соответствующую законам природы и общества. Знание и соблюдение учащимися правил поведения в природе во время экскурсий, туристических и краеведческих походов свидетельствуют о степени сформированности их нравственного облика. В экологическом воспитании не меньшую роль, чем нравственное, играет эстетическое воспитание, в которое существенный вклад вносят и естественно — научные предметы. На этих уроках учащиеся обогащаются новыми эстетическими впечатлениями, чему способствуют разнообразные

средства обучения (картины, кинофильмы, диафильмы и т. д.), формирующие образы территорий, различных объектов природы, развивающие у детей эмоциональную восприимчивость к красоте вообще, прекрасному в природе и эстетическое восприятие окружающей среды. Постоянное внимание учителя к раскрытию экологических связей значительно повышает интерес учащихся к предмету. На этапе формирования экологической проблемы особую роль приобретают методы, стимулирующие самостоятельную деятельность учащихся. Задания и задачи направлены на выявление противоречий во взаимодействии общества и природы, на формирование проблемы и рождение идей о пути ее решения с учетом концепции изучаемого предмета. Стимулируют учебную деятельность дискуссии, способствуя проявлению личного отношения учащихся к проблемам, знакомству с реальными местными экологическими условиями, поиску возможностей их решения. Средством психологической подготовки школьников к реальным экологическим ситуациям выступают ролевые игры. Они строятся с учетом специфических целей предмета. Игровая деятельность младших школьников включает в себя много других разнообразных видов деятельности и поэтому является универсальной. Особенно важно то, что ребята участвуют в играх без принуждения, на добровольных началах. Педагогически грамотное руководство игровой деятельностью позволяет расширить кругозор младших школьников, вовлечь в природоохранительную работу большое число школьников, помогает воспитывать в ребятах чувство ответственности за состояние родной природы. Среди традиционных массовых форм натуралистической работы, которым можно придать экологическую ориентацию, следует выделить праздники и тематические дни (День природы, День леса, Лесной карнавал и др.). Содержание натуралистических праздников может быть различным, но принципы организации их в основном общие. Не важно, какая тема избрана для того или иного праздника, главное, чтобы он был направлен на всестороннее развитие школьников, формирование их активной жизненной позиции, гражданской ответственности за судьбу родной природы и надолго запечатлелся в памяти всех его участников. “Охрана природы — долг каждого” — вот основная идея, которая красной нитью должна проходить через композицию всякого натуралистического дела [3, 5].

Список использованных литератур:

1. Бобылева Л. Д., Бобылева О. В. Экологическое воспитание младших школьников. // Начальная школа. — 2003. — № 5. — С.64–75.
2. Дежникова Н. С., Иванова Л. Ю., Клемяшова Е. М., Снитко И. В., Цветкова И. В. Воспитание экологической культуры у детей и подростков: Учебное пособие. — М.: Педагогическое общество России, 2001. — 64 с.
3. Игнатъева О. Современная школа и проблема экологического мышления / О. Игнатъева, А. Маджуга, Б. Анарметов // Альма матер. — 2005. — № 8. — С.57.
4. Кучер Т. В. Экологическое воспитание учащихся. — М.: Просвещение, 2001 — 121 с.
5. Плешаков А. А. Экологические проблемы и начальная школа // Начальная школа. — 1999. — № 5. — С.2–8.

O'QUVCHILARDA ALTRUISTIK FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Abbasov Behzod Baxtiyorovich,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Namangan Muhandislik-Qurilish instituti
Ijtimoiy-fanlar kafedراسи dotsenti

Annotatsiya. *Maktab ta'limiga yangicha metodologiyani olib kirish orqali bilim va salohiyatli, yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali yangi kadrlar avlodini halol, adolatli va vijdonli qilib tarbiyalash, maktab ta'limini isloh qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.*

Kalit so'zlar. *PIZA, ta'lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, fazilat, maktab, jamiyat, davlat, tajriba, konsepsiya, ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.*

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida maktab ta'limini isloh qilish, umumta'lim maktablaridagi ahvol, sohada olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish masalalarini har tomonlama zamonaviylashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev fikricha, buyuk ma'rifatparvar

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir”, degan so‘zlarida qanday chuqur ma’no bor.[1] Biz esa sirti yaltiroq, ichi qaltiroq kollejarimizga mahliyo bo‘lib, shuncha vaqtni bekorga boy berdik. Shu bois ham maktab ta‘limini isloh qilish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida uzluksiz ta‘limning uzviyligini, izchilligini, bir birini to‘ldiruvchanligini oshirish jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. “Dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda barcha islohotlar maktabgacha ta‘lim tizimidan, ya’ni bog‘chadan, maktabdan, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. O‘tgan asr boshida jaded bobolarimiz shuning uchun ham maktab masalasini eng birinchi o‘ringa qo‘ygan edilar”.[2] O‘quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali yangi kadrlar avlodini halol, adolatli va vijdonli qilib tarbiyalash vazifalari ham kun tartibida turibdi. Shu bois bugungi kunda maktab ta‘limiga yangicha metodologiyani olib kirish orqali bilim va salohitli o‘quvchilarni tarbiyalash bilan birga yuksak axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni tarbiyalash ham jamiyatimiz oldidagi muhim va mas‘uliyatli vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad – milliy ta‘lim tizimida tanlov huquqini kengaytirish, raqobatni kuchaytirish va ta‘limda yangicha yondashuvlarni keng joriy qilish bilan birga rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganish, ommalashtirish, xorijiy davlatlarning ta‘lim muhitini yurtimizda shakllantirishdan iboratdir. Zero, buyuk fransuz adibi Viktor Gyugoning “maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek bo‘ladi”, degan fikrlarni bildiradi.[3]

O‘zbekiston o‘zining yangi taraqqiyot bosqichida ta‘lim tizimini isloh qilish orqali yillar davomida to‘plangan tizimli muammolarni bartaraf etishni maqsad qildi va bu yo‘lda Xalq ta‘limini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini qabul qildi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishning aniq mexanizmlari belgilangan bo‘lib, bu orqali ta‘lim sifati tubdan o‘zgarishi bilan o‘qitish texnologiyalari, moddiy-texnik baza va barcha muammolar bartaraf etiladi va ta‘limda sifat bosqichiga o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev fikricha, “2030 yilga borib o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha “PIZA” xalqaro dasturi reytingida jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashni maqsad qilib qo‘yganmiz”.[4] Ushbu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham ta‘lim sifatini

oshirish bilan birga yoshlarni altruistik fazilatlar bilan ulg'aytirishimiz talab etiladi. Chunki kuchli "aql"lar mamlakatni tark etib ketayotgan bir sharoitda ijtimoiy mas'uliyatni anglash, daxldorlikni his etish va fidoyilikni shakllantirish ham "Tarbiya" fani olidani ustuvor vazifalardandir.

Jahonning rivojlangan Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Singapur, Italiya, Germaniya va Fransiya kabi davlatlarni ta'lim tizimida o'quvchilarda yuksak axloqiylik fazilatlarini shakllantirish, ularda jo'mardlikni rivojlantirish va takomillashtirib borish ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktab o'quvchilarida jamoaviylik, birdamlik, birgalikda ta'lim olish, bir-biriga yordam berish, o'zgalarni hurmat qilish kabi tushunchalarni boshlang'ich ta'limdanoq singdirish orqali ularda altruistik fazilatlarini tarbiyalash, manmanlik va xudbinlikni sindirib, o'zgalar uchun ham nimadur qilishga o'rgatish muhim tarbiyaviy vazifalardan biri hisoblanadi.

Turli davlatlarda yuksak axloqiylik va altruistik fazilatlar turlicha talqin qilinadi va ta'lim tizimida, tarbiyaviy ishlarda yuksak insonparvarlik, birodarlik va jo'mardlikni tarbiyalash maxsus metodologiya asosida yondashiladi. Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarini qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan yetakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan holi emas. Shuning uchun yuksak axloqiylik sifatlarini, insonparvarlikni, bag'rikenglikni va tolernat munosabatlarni yoshlariga namunali qilib singdirayotgan va o'rnak bo'layotgan rivojlangan davlatlardan Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya davlatlarining tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim-tarbiya berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki o'quvchiga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar.[5]

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida uning tayanchi bo'lib hisoblangan boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ta'lim shaklining tarixi ham XIX asrga borib taqaladi. Hozirgi davrda Buyuk Britaniyada kichik yoshdagi bolalar ta'limiga alohida e'tibor berilib, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari kengayib, bunday bolalar uchun adabiyotlarni chop ettirish ko'lami ortib bormoqda. So'nggi 35 yil davomida Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining birinchi bosqichi Buyuk Britaniya jamoatchiligining bolalarni maktabgacha tayyorlashning sifati, natijasi va barcha uchun mos kelishiga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishga qaratilgan. Bu davrda pedagoglarning diqqati maktabgacha

ta'lim tizimining istiqbolda rivojlanishini «pastdan» boshlashga, ya'ni mazkur tizimdagi tarbiya maskanlarining dasturlarini takomillashtirishga qaratildi. Keyinchalik pedagoglar bu sohaning rivojiga tizimli yondashish zarurligini anglab, bu jarayonga davlat aralashuvi lozimligi, ya'ni sohaning rivojini «yuqoridan» amalga oshirish lozimligini tushunib yetdilar. Buyuk Britaniyada 1996 yilda barcha maktabgacha ta'lim muassasalari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan me'yoriy hujjat qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining ikkinchi bosqichida esa mamlakatda davlat va jamoatchilikning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid dasturiy uslubiy va me'yoriy-huquqiy majmuaviy hujjatlar (2007 yil) yaratilib amaliyotga tatbiq etildi. Bu davrda maktabgacha ta'lim tizimiga «bazaviy daraja» maqomi berilib, barcha bolalarning yuqori sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash yo'nalishi belgilab olindi. So'nggi yillarda Britaniya hukumati maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki maktabgacha ta'lim tizimini mazmunan boyitish mamlakat kelajagini belgilaydi. Ayni paytda Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagoglar va ota-onalarning roli katta bo'lib, ular hukumatning bu sohadagi siyosatini belgilashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.[6]

Germaniya – ta'lim va kasbga yo'naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati. Ko'plab Nobel mukofoti laureatlari, yuqori darajadagi ilmiy izlanishdagi yutuqlarga ega bo'lgan, ko'p loyihalarga moliyaviy yordam berib kelayotgan, har xil davlatlardan kelgan o'quvchilarni o'qitadigan davlatdir.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlariga bola borganidan so'nggina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Chunki farzandning bog'chaga ko'nikishi oson kechadi va bolalar bu yerda o'zlarini erkin his qiladilar. Bog'chada bolaga o'z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o'rgatishadi. Bu nafaqat bolalarga qo'l ko'tarish, balki kattalar tomonidan ularga ovozni balandlatish, xafa qilishning oldini olish ham demakdir.[7]

Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart. Maktab ta'lim tizimi kuyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- boshlang'ich (primarstufe)
- o'rta (sekundarstufe I)
- yuqori (sekundarstufeII)

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiylikida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi (elementarbereich) 3 yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagani bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rni katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O'qish asosan 4 yil, Berlin va Brandenburgda esa 6 yil davom etadi. Dastlabki 2 yil mobaynida o'quvchilar baholanmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o'zlashtirish tavsifnomasi beriladi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. 5-6 sinflar bolalarning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar keyingi ta'lim turiga yo'naltirilishi uchun kuzatuvda bo'ladi. Bolaning boshlang'ich sinflardan keyin qaysi maktab turida o'qishni davom ettirishi boshlang'ich maktab tavsiyasi, uning o'zlashtirishi hamda ota-onasining xohishlariga bog'liq. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. O'quvchilar fanlarni eng kamida «4»ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetik fanlari o'tiladi.

O'quvchilar o'rta ta'limning eng muhim bo'g'ini gimnaziya (Gymnasium) to'qqiz yil 5–13-sinfgacha ta'lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziya 3 yil o'qiydi. Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar 11 sinfdan tanlagan yo'nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o'rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.[8]

Germaniya maktablarida kompetentlikni shakllantirishda turli xil interaktiv metodlardan, masalan: fidbek, jamoali o'qish, hamkorlikda

o'qitish, guruhli ishlash, intervyu, mustaqil o'qish, men-sen-bu metodi, svetofor kabi ko'plab metodlardan foydalanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Halq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.143.
3. <https://anyflip.com/> Янги Ўзбекистон. Ижтимоий-сиёсий газета № 169 (169), 2020 йил 4 сентябрь
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.153.
5. Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси).// Замоновий таълим, 2017. №11. – Б. 39. (34-46 б.)
6. Хошимов П.З., Орипов М.А. Буюк Британиянинг таълим тизими//Замоновий таълим, 2017. №12. – Б. 36-41.
7. <https://muslimaat.uz/> Болалар тарбияси: турли мамлакатларда у қандай амалга оширилади?/
8. Мамажонов И.Ф. Германия давлати таълим тизими. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017. – Б. 5-6. (- 1-9 б.)

O'ZBEKISTON SANOATLASHISHIDAGI “YETISHMAYOTGAN BO'G'IN”

Yorqulov Hakimbek Otaqulovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu tezisda axborotlashgan jamiyat, postindustrial jamiyatga o'tish sharoitida sanoatlashish targ'iboti zarurligi tahlil qilinadi. O'zbekiston sanoatlashishida mashinasozlik, stanoksozlik, metallga ishlov berishning rivojlanmagani “yetishmayotgan bo'g'in” sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, postindustrial jamiyat, sanoatlashish targ'iboti.

Bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish darajasini ifodalash uchun axborotlashgan jamiyat, postindustrial jamiyat, 4-sanoat inqilobi atamalari ishlatilmoqda. Bir tomondan rivojlangan mamlakatlar erishgan yutuqlar e'tirof etilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xavotirli mulohazalar va xulosalar aytilmoqda. Bu esa olimlarimizga mamlakatimizdagi rivojlanish jarayonlarini sinchiklab o'rganib, tahlil qilib, tavsiyalar ishlab chiqishini talab etadi. Ta'lim tizimida ustozlar o'quvchilarga sanoat uchun zarur bo'lgan bilimlar berishi va sanoatni targ'ib qilishi zarur bo'ladi.

O'zbekiston davlat siyosatida axborotlashuv jarayonlarini faol qo'llab quvvatlab axborotlashgan jamiyatga, boshqacha aytadigan bo'lsak postindustrial jamiyatga qarab bormoqda. O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlardan farqli tomoni ishlab chiqarish to'liq sanoatlashmasdan, ya'ni industrial jamiyat to'liq shakllanmasdan postindustrial jamiyatga qadam qo'yganligidir. Boshqaruvga, ishlab chiqarishga, ta'limga IT texnologiyalari, avtomatlashgan texnikalar keng qo'llanilmoqda. Lekin asosan texnika texnologiyalar xorijdan olib kelinmoqda. Natijada texnika-texnologiya bo'yicha iste'molchi mamlakat sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirda metallni qayta ishlash, mashinasozlik va stanoksozlik O'zbekiston iqtisodiyoti uchun "etishmayotgan bo'g'in"dir. Metallurgiya va mashinasozlikning etarli darajada rivojlanmaganligi sanoat uchun stanoklar, turli butlovchi detallar ishlab chiqarish va texnika elektronika sohasida tayyor iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga salbiy ta'sir qiladi. Agar O'zbekiston turli xil metallarga ishlov beruvchi texnika va stanoklarni ishlab chiqarsa, postindustrial jamiyatga o'tish uchun kuchli fundament yaratishi mumkin. Chunki postindustrial jamiyatning eng muhim xususiyati ishlab chiqarishda avtomatlashgan texnikalardir. Jamiyat farovonligi uchun shu texnikalar ishlaydi. Texnikani avtomatlashtirish uchun oldin uni yaratish, ya'ni "etishmayotgan bo'g'in"ni to'ldirish kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarishda fan, ta'lim, ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. Bunda fan kashf qiladi, yangisini yaratadi, eng samarali texnologiyalarni taklif qiladi. Ta'lim esa bu texnologiyalarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Ishlab chiqarish esa mamlakatda yaratilayotgan texnika texnologiyalar va xorijdan olib kelinayotgan texnika texnologiyalardan ishlab chiqarishda foydalanadi. Bunda ishlab chiqarish fan va ta'limning iste'molchisi hisoblanadi. Ularning mehnati natijalari sifatiga, ya'ni fan yaratayotgan ishlanmalar, texnika-texnologiyalarga, ta'lim tayyorlayotgan mutaxassis kadrlar sifatiga talab qo'yadi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi "etishmayotgan bo'g'in"ni to'ldirish

uchun fan, ta'lim, ishlab chiqarish aloqadorligini mustahkamlash, fan va ta'lim sohalari vakillari ishlab chiqarish ehtiyojlarini doimiy o'rganib borish va tadqiqotlarni hamda kadrlar tayyorlashni shu ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqot ishlari sifatiga va tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga e'tibor berishi kerak.

Sanoatlashish davrida ishlab chiqarishda muhandislik, frezerchi, payvandlovchi, metallga ishlov beruvchi kasb egalariga talab katta bo'ladi. E'tibor berib qaraladigan bo'lsa biz barcha mehnat qurollari metallardan yasalgan "temir asrida" yashamoqdamiz. "Temir asrida" metallga ishlov berishni bilmaslik taraqqiyotdan orqada qolishdir. Hozirgi sharoitda sanoat sohasidagi "etishmayotgan bo'g'in"ni to'ldirish uchun millionlab malakali sanoat muhandislari, millionlab malakali metallga ishlov beruvchilar kerak. Shuning uchun kadrlar tayyorlashda bu yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Jamiyatning e'tiborini sanoatlashishga qaratish, kasb tanlashga intilayotgan yoshlarni yo'naltirish uchun sanoatlashishni keng targ'ib qilish, "Million muhandis", "Million metallga ishlov beruvchi" dasturlarini joriy qilish yaxshi amaliy natijalar beradi.

"Etishmayotgan bo'g'in"ni to'ldirmasdan milliy sanoatni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, umummilliy farovonlikka erishish kabi strategik maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun hukumat va xususiy biznes vakillarini mashinasozlik, stanoksozlik, metallga ishlov beruvchi korxonalarni tashkil qilish va rivojlantirishga e'tibor qaratishga chaqirish zarur bo'ladi.

Mashinasozlik, metallga ishlov berishni rivojlantirmasdan turib axborotlashgan jamiyatda yoki postindustrial jamiyatda yuqori darajada rivojlanish natijalariga erishish mumkinmi?

Ichki imkoniyatlarni ishga solish hisobiga emas, balki xorijiy mamlakatlar ijobiy ta'siri hisobiga qisman erishish mumkin. Bunda zavod, fabrikalar qurishda, tayyor mahsulot ishlab chiqarishdagi butlovchi qismlarni ishlab chiqarishda, aholi bandligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda, milliy daromad va umummilliy farovonlikka erishishda cheklanganlik va kemtiklar bo'ladi. Mamlakatning xorijiy davlatlarga texnik-texnologik va iqtisodiy jihatdan qaramligi ortib boradi. Olim R. Ashurov 4- sanoat inqilobi rivojlanayotgan davlatlarga ta'siri haqida shunday xulosa beradi: "Kambag'al davlatlarning boy davlatlardan investitsiya kuta oladigan sohalari ancha qisqarib ketadi. Bu esa, o'z navbatida, boy davlatlar yanada boyishiga, kambag'al davlatlar yanada qashshoqlashishiga olib keladi. Endi Uchinchi dunyo ularga qul sifatida ham kerak emas" [1].

"Etishmayotgan bo'g'in"ni to'ldirish yoki to'ldirmaslik milliy intellektual salohiyatning rivojiga ham ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Sanoat

muhandisligi, mashinasozlik, metallga ishlov berish yo'nalishlarining rivojlanishi bu sohadagi tajribalarning ortishiga, xorijiy davlatlarda yaratilgan bilimlarning o'zlashtirilishiga, yangi bilimlar yaratilishiga olib keladi.

CHINIQQAN TALABA QIZLARIMIZNI QO'LLAB-QUVVATLASH - SOG'LOM KELAJAGIMIZ GAROVIDIR

Tilloyeva Shahlo Shavkatovna,
*tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), docent,
Buxoro davlat tibbiyot instituti "Oilaviy shifokorlarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kafedrasi" mudiri.*

Aminjonova Charosxon Akmalovna,
BDTI "Tibbiy biologiya" kafedrasi assistenti.

Asrorov Akmal Aminjonovich,
*tibbiyot fanlari nomzodi,
BDTI "Oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish kafedrasi" katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Maqolada Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ta'lim olayotgan talaba qizlarni sport to'garaklariga jalb qilishda OTMlarda faoliyat yuritayotgan sport to'garaklari murabbiylarining talaba qizlarni jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, sport kabi tushunchalarni va ularning jamiyatdagi mohiyati, xalqimizni sog'lomlashtirishdagi ahamiyatini, sog'lom avlodni tarbiyalashdagi rolini yaxshilash to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, murabbiy, sog'lom avlod, sport to'garaklari, sport mashqlari, sog'lomlashtirish, fiziologiya, organizm, tana mushaklari, tayanch suyaklar, funksional holat, gender, valeologik tarbiya.*

Dolzarblik

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois 2019 yil 19 martidan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus" ahamiyat kasb etadi. "Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy

chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan" shiori ostida mamlakatimizda sportni ommalashtirishda xususan, xotin-qizlar sportini rivojlantirishda avvalo ana shu me'zondan kelib chiqib ish tutilmoqda. Qizlarni turli darajadagi sport turlariga jalb etish borasida alohida yondashuv shakllantirilayotganligi bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) tomonidan ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ular uchun oliy ta'lim muassasalarida (OTM) yuqori malakali o'qituvchi va murabbiylarni tayyorlashga keng o'rinlar ajratilmoqda. Nafaqat poytaxtimizda va viloyat markazlari, balki chekka-chekka qishloqlarda ham zamonaviy sport inshootlari qurilib, bolalar sportini rivojlantirish bilan birgalikda xotin-qizlar sportini rivojlantirishda salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda [2, 3, 4, 6].

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotimizda talaba qizlarni sport to'garaklariga jalb qilishda OTMlarda faoliyat yuritayotgan sport klublari murabbiylarini talaba qizlarni jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, sport kabi tushunchalarni va ularning jamiyatdagi mohiyati, xalqimizni sog'lomlashtirishdagi ahamiyatini, sog'lom avlodni tarbiyalashdagi rolini yaxshilashni aniqlash asosiy maqsad qilib olindi.

Tadqiqot vazifalari

Tadqiqotning vazifalari talaba qizlarni sport to'garaklariga jalb qilishda OTMlarda faoliyat yuritayotgan sport klublari murabbiylarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar mohiyatini aniqlash va ochib berish; Talaba qizlarning organizmiga sport turlarining funktsional ta'sirini o'rganib, tahlil qilish; OTMlarda talaba qizlarning jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish istiqboli yo'nalishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot ishini olib borishda asosan quyidagi usullardan foydalanildi:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi Prezident farmonlari va qonunlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, shuningdek adabiyot manbalarini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish va tahlil etish;

- tadqiqot ishlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida (BDTI) tahsil olayotgan talaba qizlar orasida olib borildi;

- OTMdagi sport to'garaklarida talaba qizlarning ishtiroklarining tahliliy sharhi;

- OTMdagi sport to'garaklarida ishtirok etayotgan qizlarning ayrim kasalliklar ko'rsatkichining tahliliy sharhi;

- OTMdagi sport turlarining nafaqat inson, hatto qizlar organizmiga funksional ta'sirini tahliliy sharhi;

- tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, OTM sport to'garaklarida ishtirok etadigan talaba qizlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Mustaqillikning ilk davridanoq, yurtimizda xotin-qizlarimizning sog'lom bo'lib ulg'ayishi ertangi kunimizning dunyoga keladigan barkamol avlodning muhim omili sifatida sog'lom ona - sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamlı, umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon, miqyosida ham tan olingani yaxshi ma'lum [7]. Shuningdek, yurtimizda qizlarni sportga jalb etish borasida zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ular uchun milliy mentalitetimizga xos kiyimlar ishlab chiqarilmoqda. OTMlarda ayol o'qituvchi va murabbiyalarni tayyorlashga keng o'rin berilayotir [1, 2, 3, 4].

Mamlakatimizda Yurtboshimizning sa'y-harakatlari, hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, shuningdek OO'MTV tashabbusi bilan aholi, ayniqsa, yoshlar, shuningdek talaba qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning qishki sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilma yaratish, mamlakat sportchilarining Xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida izchil chora-tadbirlar amalga oshirish bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlarda ham sportchi qizlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga ularni moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlari ham bundan xoli emas [2, 3, 4].

Yildan-yilga nafis sport turi bo'lmish - sport gimnastikasi bilan shug'ullanuvchilar soni ortib borishiga qaramasdan, biz kuzatgan adabiyotlardagi ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, Respublikamiz bo'yicha jami sport gimnastikasi bilan shug'ullanuvchi bolalarning 60.7%ni o'g'il bolalar tashkil qilsa, bor yo'g'i 39.3%ni qiz bolalar ushbu sport turi bilan shug'ullanar ekan [10].

OTMdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ta'lim vazifalarini amalga oshirish, odatda tarbiyalash va sog'lomlashtirish vazifalari bilan olib boriladi. Tarbiyaviy vazifalar sifatida talaba qizlarimizning diqqat, intizomlilik, iroda, saranjomlik, buyumlarni ehtiyot qilish, shuningdek do'stlik, o'rtoalik, maasadga intiluvchanlik, mustaailik va aiyinchiliklarni engishda qat'iylik tarbiyalanadi. Qat'iylik va botirlik sifatlarini tarbiyalash mashg'ulotlarda xuddi shu sifatlarni namoyon qilishni talab etadigan mashqlarni, masalan sakrash, muvozanat saqlash, yugurish kabi sport mashqlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi [5].

Organizmning aqliy, jismoniy, ruhiy jihatdan rivojlanishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan inson organizmidagi nerv, harakat, sezgi tizimlarining funksional faolligi ularning ishga jalb qilinish xususiyatlarga bog'liq. Boshqacha aytganda, jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish tananing turli tizimlari ish faoliyatini uzoq vaqt davomli ish bajarishini ta'minlab, bu esa o'z navbatida aqliy, ruhiy, jismoniy charchoq yuzaga kelishini kechiktiradi [8].

Jumladan, bizning BDTIda talabalarining muntazam sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun hozirgi kunga qadar o'ndan ortiq sport to'garaklar faoliyat yuritib kelmoqda. Ular jumlasiga futbol, voleybol, basketbol, gandbol, stol tennisi, gimnastika, shaxmat va shashka, kurash va boshqa sport to'garaklari mavjud.

Oliy dargohimizda talaba qizlar salomatligiga e'tibor berish borasida "Qizlarni sportga jalb qilish", "Orastalik, xushmuomalalik, hamjihatlik", "Orasta qiz - farishta qiz", "Sog'lom ona - sog'lom bola" kabi mavzularda muntazam ravishda suhbatlar uyushtiriladi. Talaba qizlarning salomatligini mustahkamlash maqsadida sog'lomlashtirish sport to'garaklari tashkil etilgan. O'sib kelayotgan talabalar orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish hamda ularni sport bilan shug'ullanishga jalb etish orqali sport tadbirlari o'tkazilmoqda. "Qizlar davrasi" ko'rik tanlovida katta tennis bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

BDTI qizlari fakultetlararo "Orasta qizlar" sport ko'rik-tanlovida shashka, shaxmat, arqon tortish, basketbol o'yinida kim to'pni ko'proq savatga tushirish, estafeta (sport o'yinlari) musobaqalarida tez-tez bellashib turadilar.

Shaxmat-shashka o'yini xalqimizda "Aql gimnastikasi" nomi bilan yuritilib, u miya faoliyatini yaxshilab, inson ongini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Basketbol o'yini jarayonida organizmda chaqqonlik, epchillik, kuch sifatleri, shuningdek harakat reaksiyalarining o'zaro bog'liqligini, tayanch harakat tizimi mujassamligini rivojlantiradi, bo'y o'sishiga yordam beradi.

Arqon tortish musobaqasi - tayanch-harakat tizimiga ijobiy ta'sir qilib, organizmda egiluvchanlik, kuch, chidamlilik sifatlarini taraqqiy ettiradi.

Estafeta (sport o'yinlari) - chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik va tezkorlikni rivojlantiradi.

Badiiy gimnastika esa - qizlarimizda chiroyli qomatni shakllantirib, egiluvchanlik, epchillik, chidamlilikni oshirib, intizomli qilib, tanani mukammallashtiradi, chiroyli va nafosatli harakat qilishga o'rgatadi va o'ziga bo'lgan ishonch hissini paydo qiladi [8].

Inson o'z salomatligining to'laqonli ijodkoridir. Uning uchun yoshlikdan faol turmush tarzini olib borish, chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzi talablariga amal qilish orqali to'liq erishish mumkin.

Talaba qizlarning harakat tartibini tuzish, ularning sog'ligini saqlash hamda mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlanishda faol harakat tartibi asosiy omillardan hisoblanadi. Harakat, ya'ni jismoniy mashqlar, avvalo organizmning barcha tizimlari: asab, yurak-qon tomir, nafas, skelet, muskul va mushak tizimlarining rivojlanishi uchun juda zarur.

Sport va badantarbiya har bir yigit-qizlarda ular baxtini, salomatligini, odob-axloqini, yaxshi niyatini, dili pokligini, xushxulqligini, haqiqiy insoniyligini, o'zgalarga hurmat hissi kabi barcha yaxshi fazilatlarini uyg'otadi.

Bugun sportga mehr qo'ygan qizlarning hammasi ham kelajakda mashhur sportchilar yoki chempionlar bo'lmasligi mumkin. Ammo ular jismoniy mashqlarda toblanganligi uchun tanasi sog'lom, ruhi tetik, fikri tiniq, irodasi mustahkam, kelajakda hayotning turli sinovlarini engib o'tishga qodir insonlar bo'lib etishishi shubhasiz. Eng muhimi har tomonlama barkamol voyaga etgan qizlar kelajakda oila qo'rg'onida sog'lom zurriyotni dunyoga keltiradi va farzandiga ham sportga mehr tuyg'usini singdiradi, har birini sog'lom turmush tarziga o'rgatadi [8, 9].

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytish mumkin-ki, Respublikamiz OTMlarida ta'lim olayotgan qizlarimizning sog'lig'ini mustahkamlash, ularning sog'lomligini nazorat qilish yoki tegishli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish faqatgina tibbiyot xodimlarining va oila-maktab-mahalla tuzilmalarining ishi emas, balki OTMlarda jismoniy tarbiya mutaxassisligi bo'yicha ta'lim berayotgan professor-o'qituvchi murabbiylarning ham vazifasi hisoblanadi.

Shunday ekan, talaba qizlarimizni kengroq darajada sportga, jismoniy tarbiyaga, sog'lom turmush tarziga jalb etish, ularni muntazam ravishda muayyan darajada jismoniy qobiliyatiga mos keluvchi jismoniy harakatlarni bajarishga odatlantirish, ularning valeologik tarbiyasiga e'tibor qaratish va tegishli shart-sharoitlar yaratish yo'llari bilan qo'llab-quvvatlab ularni mukammal va chinakam chiniqtirish kelajakda ular dunyoga keltirmoqchi bo'lgan yosh avlodni ham barkamol sog'lom qilib yaratish va ulg'aytirishga munosib zamin tug'dirishga hissa qo'shgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaev Ch., Jumaev S. *Barkamol avlod - yurt tayanchi / Zamonaviy ta'lim // Sovremennoe obrazovanie. – 2014. – № 5. – B. 3–8.*
2. Mirziyoev Sh.M. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni. 2018 yil 5 mart. <https://lex.uz/docs/3578121> (Elektron resurs). 2020 yil 15 aprelda murojaat etildi.
3. Mirziyoev Sh.M. “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilish haqida”. 2018 yil 20-sentabr. <https://minsport.uz/post/view/1257> (Elektron resurs). 2020 yil 15 aprelda murojaat etildi.
4. Mirziyoev Sh.M. “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni. 2020 yil 24-yanvar. <https://uza.uz/oz/documents/> (Elektron resurs). 2020 yil 15 aprelda murojaat etildi.
5. Qazoqov S.R. *Gimnastika - jismoniy tarbiya darsining asosiy shakli / “Ma'naviyat sarchashmasi” ilmiy-ommabop ro'znoma, Buxoro. – 2018. – № 9. – B. 3.*
6. Ro'ziev D.I. *Sog'lom ona - sog'lom avlod yaratuvchisi / “Ta'lim jarayonida salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni yaratishning pedagogik xususiyatlari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro. – 2016. – 29-30 aprel. – B. 95–96.*
7. Tadjibaeva Sh.M., Arzikulov D.N. *Sportchi talabalarning ijodiy faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillar diagnostikasi / Zamonaviy ta'lim // Sovremennoe obrazovanie. – 2017. – № 6. – B. 27–30.*
8. *Xotin - qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4-5 may 2018 y. // toplovchi M.J.Abdullaev. – Buxoro: Durdona, 2018. – 286 b.*
9. Shakirjanova K.T., Djalilova L.A. *O'zbekiston respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi / Zamonaviy ta'lim // Sovremennoe obrazovanie. – 2016. – № 9. – B. 63–72.*
10. Shamsiev N.A. *Sport - sog'lom turmush yo'lidir / “Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari harakat faolligini optimallashtirish: muammolar, echimlar va istiqbollar” // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro. – 2016. – 6-7 may. – B. 377–378.*

FAN ETIKASI: OLIMNING AXLOQI VA MA'SULIYATI

Karimova M.A.,
Andijon Mashinasozlik Instituti
Gumanitar Kafedrası Mudiri,

Khodjaeva G.A.
Iqtisodiyot yonalishi 1 kurs Magistratranti

Annotatsiya: *Maqolada ilm-fan etikasi tushunchasi, shuningdek, olimlarning zamonaviy jamiyatda mas'uliyati masalasi ko'rib chiqiladi. Fan etikasi, fan o'dob-axloqi kabi asosiy tushunchalarni ochadi, olimlarning kasbiy va ijtimoiy mas'uliyati masalalarini belgilaydi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishida axloq bilan bog'liq muammolar va axloqiy vaziyatlarning paydo bo'lishi muhokama qilinadi. Bugungi kunda olimlarning o'z faoliyati natijalari va ilmiy mahsulotning mazmunli ishlab chiqilishi uchun javobgarligi muammosi jamiyat uchun alohida qiziqish uyg'otilishi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy etika, kasbiy etika, olim mas'uliyatining axloqiy va ijtimoiy jihatlari, axloqiy tartibga solish, ilmiy axloq.*

Zamonaviy jamiyatda ilm-fanning ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotga tobora turli xil jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda; tadqiqot faoliyati boshlanishi va uning amaliy qo'llanilishi orasidagi vaqt oralig'i kamayadi. Ilm tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga so'ng olimlarning jamiyat va insoniyatga nisbatan mas'uliyati oshib bo'ladi. Shunday qilib, biz fanga obyekt sifatida qarashimiz mumkin va axloqiy baho, ilmiy bilimlarning tadqiqi va natijalari, ilmiy faoliyatni axloqiy jihatdan tartibga solish kabi mavzular o'z tarkibida bo'lishi kerak.

1980-yillardadan boshlab fan va bilimning axloqiy jihatlari muammolari dolzarb bo'lib qoldi. Fan va axloqning o'zaro ta'siri muammosini muhokama qilganda, bunda asosiy jihatlari "zamonaviyda fanning o'rnini bilan bog'liq axloqiy muammolar" sifatida belgilangan. Fan axloqi tushunchasiga jamiyatda olimning ilmiy, ijtimoiy va ma'naviy javobgarligi bilan, ilmiy bilimlarni qo'llash uchun, olimning axloqiy jihatlari uning mehnatiga munosabati; ilmiy ijodning o'ziga tegishli axloqiy muammolar; olimga qo'yiladigan shaxsiyat va xulq-atvor talablar kabi tamoyilardan iborat [1. 3-bet]. Ta'kidlanishicha, fanning axloqiy muammosi javobgarlikning ikki shakli mavjud bo'lgan joyda paydo bo'ladi: ichki va tashqi. Shuning uchun o'zaro munosabatlarning ikkita ko'inishi fan va

axloq mavjud. Bir tomondan, inson faoliyatini nazariy tarafdin axloqiy baholash sub'ekti sifatida ko'rib chikilsa, unda fan axloqiy jihatdan neytral qoladi. Boshqa tomondan, fan inson mehnati, uning ma'naviy qadriyatlarga asoslangan intilishlari natijasidir va shuning uchun u baholanishi kerak. Garchi eslatib o'tish kerak, bu "ilmiy bilimlar yaxlitlik asosida tuziladi va me'yorlar majmui uslubida baholanadi ... ammo, bilimni oddiygina cheklab bo'lmaydi ushbu me'yorlarga rioya qilish zarurdir. Bilim bu hamisha oldidagi to'siqlardan oshib ketishni anglatadi va shuning uchun u tasavvur kuchini talab qiladigan ijoddir [2. 140-bet].

Falsafada, metodologiya va sotsiologiyaning maksimal keng doirasini ko'rsatishda. fan va axloq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning turli jihatlarini aks ettiruvchi muammolarga biz odatda "Fan etikasi" atamasini ishlatamiz [3.71-bet]. 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida ilmiy falsafa va sotsiologiyadagi yo'nalishlarida fan etikasining yangilik sifatida tushunchasi yaratilgan. [4.-bet] Ilmiy faoliyatning axloqiy jihatlari, shu jumladan ilmiy hamjamiyat ichidagi munosabatlar, fan/ilm hamjamiyatida va umuman jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni falsafiy aksi sifatida ham ko'rib chiqishimiz mumkin [5.701-bet]. Shuning uchun ham ilmiy etikadagi asosiy yo'nalishlar quyidagicha ta'kidlangan:

- tashqi ilmiy etika bu natijasida yuzaga keladigan axloqiy muammolarni o'rganadi,
- jamiyat va fanning o'zaro ta'siri
- ichki ilmiy etika ilmiy etikaning maxsus bo'limi bo'lib, uni amalga oshirishida ilmiy jamiyatda kasbiy mas'uliyatidir.

Ichki ilmiy etika tamoyillarini amalga oshirishda, ilmiy jamoatchilik quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- 1) Voqelikni o'rganish, yangi bilimlarni izlash va uni tizimlashtirish.
- 2) Bilimlarni saqlash va etkazib berish, fan va ilmni ommalashtirishi, hayot haqiqatlarini tushunishga yondashuv.
- 3) Inson faoliyati samaradorligini oshirishning yangi usullarini topish.
- 4) Olimlar tayyorlash.
- 5) Fanning muxtoriyatini himoya qilish.
- 6) Jamiyatning fanga ijobiy munosabatini qo'llab-quvvatlash.
- 7) Ilm-fan yutuqlarini baholash va uning a'zolarining mavqeini aniqlash.
- 8) Fanlar xulq-atvorini tartibga soluvchi nazorat, shu jumladan axloqiy nazorat.

9) Ijtimoiy muammolarni hal etish va jamiyatni insonparvarlashtirishga qo'shgan hissasini baxolash.

Shunday qilib, fanni ilmiy hamjamiyatni professional birlashmasi deb aytishimiz mumkin. Fan bu bilimlarni to'plash, saqlash va etkazib berish bilan shug'ullanadigan, avtonom ilmiy faoliyatni himoya qilish, jamiyatning fanga bo'lgan ijobiy munosabatini qo'llab-quvvatlash, axloq kodeksiga muvofiqligini tekshirish ilmiy birlashmasidir [6]. Ilmiy etikaning ta'rifini olim S.Lebedev bergan: Ilmiy Etika - bu "olimlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar yig'indisi, jumladan:

- 1) ilmiy bilimga (kognitiv erkinlik va mas'uliyat);
- 2) bir-biriga (kommunikativ erkinlik va mas'uliyat);
- 3) jamiyat va davlatga (ijtimoiy erkinlik va javobgarlik);
- 4) o'ziga (ekzistensial erkinlik va mas'uliyat).

Birinchi turdagi axloq, ilmiy tadqiqotning ijodiy, konstruktiv tabiati bilan bog'liq bo'lib, olimning qaror qabul qilish uchun kognitiv javobgarligi (Haqiqat oldidagi javobgarlik) bilan bog'liq. Axloqiy munosabatning ikkinchi turi "ilm-fan axloqi" deb nomlanadi. Etikaning uchinchi turi olimlarning xulq-atvorining rivojlanish uchun javobgarlik darajasi bilan belgilanadi, shunidek fanni jamiyat va davlatga tatbiq etish. To'rtinchi turdagi axloq olimlarning xulq-atvori, ularning olim sifatidagi shaxsiy missiyasini his qilish bilan belgilanadi. [7.312—313-betlar]. Shunday qilib, ilmiy etika - bu ikkalasi, olimlar va jamiyat o'rtasida bo'lgan ongli echimlarni birgalikda izlashida ishtirok etilishi.

Ilmiy axloqning asosiy muammosi: ilmiy bilim va qadriyatlarga asoslangan fikrlash tarzi o'rtasidagi bog'liqlik. Asrlar davomida fandagi qadriyatlar va maqsadlar har doim ham birxil deb tushunilmagan. Masalan, hozirgi davrda fanda haqiqatga erishishi, ya'ni haqiqatni izlash asosiy maqsadi xisoblanadi. Yoki boshqa g'oyaga assoslansak, unga ko'ra fan birinchi navbatda inson uchun, insoniyat muammolari va maqsadlarini hal qilish uchun mavjud. Ta'kidlanganidek, ilmiy etikaga olimlarning kasbiy etikasi xam kiradi. Ammo olimlarning etikasi Ilmiydan ko'ra cheklangan konstruksiyadir, chunki ular o'zaro munosabatlarning aspektlarini qamrab oladi: ilm-fandagi axloq va olimlar munosabati nazarda tutilgan [3. 71-bet]. Olimlarning mas'uliyat muammosi shaxsiy masalalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan erkinlik va axloqiy tanlovdir. Shuning uchun ma'naviy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat: shaxsning jamiyatga, uning ijtimoiy munosabatlariga fikrini tavsiflaydi va ma'lum bir

axloqiy me'yorlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan professional guruh qoidalarini tavsiflaydi [7. 133-bet].

Hozirgi vaqtda olimlarning kasbiy etikasining asosiy qoidalari uch guruhga bo'lingan.

- Birinchi guruh umumiy insoniy axloq bilan ifodalanadi, yani ilmiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari uchun qabul qilingan standartlar (plagiatni taqiqlash, o'zboshimchalik, ilmiy tadqiqot natijalarining buzilishi, tadqiqotchining xolisligi).

- Ikkinchi guruh fanga xos qadriyatlarini tasdiqlash va himoya qilishga xizmat qiladigan axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi (haqiqatni fidokorona izlash va uni himoya qilish).

- Uchinchi guruh fan va olim o'rtasidagi munosabatlarga oid axloqiy tamoyillarni o'z ichiga oladi [8. 132—133-betlar]. Ilmiy natijalar uchun olimlarning ma'naviy javobgarligi masalalari bilan bir qatorda ilmiy axloq uchun alohida qiziqish uyg'otadigan faoliyat muammolari bilan bog'liq masaladir. Fan etikasida ushbu muammoni belgilash uchun Robert Merton tomonidan kiritilgan "ilmiy axloq" atamasi qo'llaniladi. Ilmiy axloq normalarida ikkalasi, umuminsoniy axloqiy talablar va taqiqlar mujassamlashgan. Shuningdek, axloqiy me'yorlar fanning o'ziga xos qadriyatlarini, shu jumladan fidokorona izlanishni o'rnatish va himoya qilishga, xamda haqiqatni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. R. Merton "Fanning me'yoriy tuzilishi" maqolasida ilmiy axloqning tavsifini beradi [9. 267—278-betlar]. Uning fikricha, fanda ilmiy axloq bu takrorlanadigan va undagi har bir mutaxassisga xos bo'lgan normalar to'plami, Merton fan haqiqatni izlash va oqilona tanqidiy munozaradir degan munosabat bildirgan. Tadqiqotchi Boris Yudin fikriga ko'ra, Mertonning me'yoriy ilmiy kontseptsiyasi ichida olimlar o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy tomonlarini tavsiflash uchun ilmiy hamjamiyatni axloqi ishlatilgan. Har bir olim o'z hamkasblaridan o'zib ketishga harakat qiladi: yangi ilmiy bilimlarni olishda, uning ilmiy tomonidan tan olinishida, tadqiqotni moddiy qo'llab-quvvatlash ulushini maksimal darajada oshirishda. Shuningdek ilmiy jamoada, olimlar o'rtasida hamkasblar tomonidan tan olinishi va ushbu nishani saqlab qolish uchun umumiy manfaatlar qo'llanishi, ilm-fanning ishonchliligi va jamiyatda ishlab chiqarilishi hamkorlikni rag'batlantirishi, bu fanning shakllanishi va mavjudligining asosiy shartidir [10. 593-bet]

Yuqorida aytib o'tilgandek, olimlarning ijtimoiy mas'uliyati munosabatlari fan va jamiyat o'rtasida amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, birinchi navbatda, fanning ijtimoiy etikasini tashqiy sifatida tavsiflash

mumkin. Jamiyat oldidagi mas'uliyatni kuchaytirish hamda o'zgarishlar fanning ijtimoiy yo'nalishidir. Insonning biologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishga tabiat va yashash muhitiga e'tibor qaratiladi. Ilmiy tushunchalar nafaqat obyektни ko'proq bilishni aks ettiradi, balki bilish sub'ekti va obyektни o'rtasidagi munosabatlarni [11]. Ijtimoiy va shaxsiy lahzalar ilmiy bilim olish jarayonida texnikani qo'llanilishi tadqiqotchining mas'uliyati, olingan bilimlar va ularni qo'llashning ijtimoiy oqibatları darajasining oshishiga olib keladi. Insonparvarlikni va uning amalga oshirilishi mumkinligi bilan bog'liq ilm-fanning imkoniyatlari, olimlar uchun yangi axloqiy muammolarni uygatadi: inson ustida tajriba o'tkazishning xarakteri va maqsadları, insoniyatga keltirishi mumkin bo'lgan foyda [12. 41-bet]. Mashhur rus olimlari I. Frolov va B. Yudinlarning fikricha, nafaqat ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash, balki ularning "keyingi ta'siri", shuningdek, tadqiqot jarayonlarning o'zi, ya'ni tadqiqot mavzulari yoki ma'lum bir tadqiqotni davom ettira olmaslik muammolari, eksperimentlarni loyihalash va o'tkazish xarakteri. [13. 160-bet]. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, mas'uliyat ilmiy fanlar, tadqiqot guruhlari va fanning o'ziga emas, balki tadqiqotchining o'ziga yuklaniladi. Ilmiy tadqiqotlarda olimning mas'uliyati erkinlik masalasi bilan bevosita bog'liq - ya'ni mas'uliyat uning ilmiy ijodkorlikni salbiy tomoni deb hisoblanishi mumkin. Bir tomondan, mas'uliyatni erkinliksiz tasavvur qilish qiyin; boshqa tomondan, javobgarliksiz erkinlik anarxiyaga aylanadi [14.34-betlar]. Ilmiy bilim sohalari orasida ijtimoiy mas'uliyat masalalari, olim va uning faoliyatiga ma'naviy-axloqiy baho berish qizg'in muhokama qilinmoqda, ularni orasida alohida gen muhandisligi, biotexnologiyalar, biotibbiyot va odamlarning genetik tadqiqotlari o'rin topganlar. Ma'naviy javobgarlik muammosi ayniqsa 1975 yilda dolzarb bo'lib qoldi, dunyoning yetakchi tadqiqotchilar ixtiyoriy ravishda moratoriyni imzoladilar va shu bilan ba'zi hayot uchun xavfli tadqiqotlarni to'xtatdilar [15.152-bet]. Bu ijtimoiy mas'uliyatning bir misolidir va ilmiy faoliyatning ajralmas qismidir. Ilmiy o'rganish qat'iylikni o'z ichiga olishi kerak, olimlar faoliyatini tartibga solish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan axloqiy me'yorlar va standartlar bo'lishi lozim. Jahon ilmiy hamjamiyatining xatti-harakatlarini tartibga solish, o'z navbatida, xalqaro ilmiy axloq kodeksini joriy qilishni talab qilinadi. [15.150—159-betlar]. Zamonaviy ilm-fanda paydo bo'ladigan axloqiy muammolarni faqat etikani bilishi yoki mantiq bilan hal qilib bo'lmaydi. Bu muammolar ularni yanada kengroq tushunilgani bilan moslashtirishni talab qiladi. Tadqiqotning ijtimoiy maqsadları va

insonparvarlik ideallari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari bilan bir butun bo‘lishlari lozim” [13. 166—167 betlar].

Ilm-fanning jadal rivojlanishi insoniyat o‘rtasida uning kelajakdagi mavqiyasi bilan bog‘liq tobora ko‘p savollar tug‘dirmoqda. Olimlarning o‘z kashfiyotlar natijalari uchun nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy javobgarligi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jamiyatning o‘zi alohida qiyinchilikka duch keladi, chunki u, ehtimol, fanni nazorat qilishda yanada qattiqroq yordam ko‘rsatishi kerak. Fanni axloqiy tartibga solish va yuqori darajadagi ko‘rinishga etkazish olimlarning asosiy maqsadidir. Shuning uchun ham madaniyat fanni rivojlantirishda, uning axloqiy sifatini ta‘minlashda muhim bo‘lgan shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mishatkina T.V, Jaskevich J.S, Vjazovkin V.S. *Fan etikasi. Oliy ta‘lim instituti.* Minsk; 2002: 58. (Rus tilida).

2. Frolov I.T, Judin B.G. *Fan etikasi: muammolar va munozaralar.* Moskva: Politizdat; 2009:140, B. 150—159. (Rus tilida).

3. Ponosov F.N. *Muhandislik va texnika fanlarining zamonaviy falsafiy muammolari.* Izhevsk: FGBOU VPO Izhevskaja GSHA; 2013:71. (Rus tilida).

4. Lazar M.G. *Fan etikasi fan sotsiologiyasining yangi ilmiy yo‘nalishi sifatida.* *Jurnali sotsiologiya va ijtimoiy antropologiya.* Sankt-Peterburg: 2001;(3). (Rus tilida).

5. *Falsafiy lug‘at. 7-nashr.* Moskva: Respublika; 2001. 719-bet.

6. RAS *Falsafa institutining raqamli kutubxonasi.* <https://iphlib.ru/greenstone3/library> saytida mavjud. Kirish sanasi: 2023 yil 17-may.

7. Lebedev S.A. *Fan falsafasi: asosiy atamalar lug‘ati.* M.: Akademiya loyihasi; 2014 yil.312—313, 133. (Ser. «Gaudeamus»). (Rus tilida).

8. Tsvyk V.A. *Kasbiy etika: umumiy nazariya asoslari.* Tsvyk VA muharriri. Moskva: RUDN; 2012:32—133. (Rus tilida).

9. Merton RK. *Fan sotsiologiyasi: nazariy va empirik tadqiqotlar.* Ed. va bilan Storer NW tomonidan kirish. Chikago va London: Chikago universiteti matbuoti; 1973. B. 267—278.

10. Judin B.G. *Fan etikasi.* In: *Etika: ensiklopedik lug‘at.* (ed.) Apresyan RG, Gusejnov AA. Moskva; 2001: 593. (Rus tilida).

11. Demina N.V. *Fanning etikasi tushunchasi: Merton va boshqalar ijtimoiy geometriya izlashda normalari.* *Sotsiologik jurnal.* 2005; (4): 9. (Rus tilida).

12. Kochergin AN. *Ilmiy ijod: ijtimoiy mas‘uliyat va rag‘batlantirish muammolari.* *IlmiyMGTU GA byulleteni.* 2010; (155):41. (Rus tilida).

13. Muxametjanova V.S. RUDN falsafa jurnali, 2018, 22 (3), 301–309
Postindustrial jamiyatdagi maslahat muammosi 307.

14. Gabdulova N.N. Fanning axloqiy muammolari. Pskov politexnika instituti materiallari. 2008; (12.1): 34. (Rus tilida).

15. Bogatov V.V. Ilmiy faoliyatda etika. DVO RAN byulleteni. 2008; (1): 152. (Rus tilida).

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDAGI SAMARALI TARG'IBOTDA OFITSER-O'QITUVCHI (KOMANDIR)LAR O'RNI VA ROLI

Xalikov Yuldosh Tuychiyevich

harbiy unvoni podpolkovnik

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

*Kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi boshlig'ining
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari*

Soriyev Xolmurod Yaxshimurodovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

*Kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi*

Annotatsiya.Maqolada harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotda ofitser-o'qituvchi (komandir)lar o'rni va roliga doir mulohazalar hamda takliflar: bu borada ofitser-o'qituvchi (komandir)da quyidagi kompetensiyalar: dars berish mahorati; tarbiyalash mahorati; o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatleri; ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahoratiga ega bo'lishligi, ofitser-o'qituvchi (komandir)lar tomonidan harbiylarda quyidagi kategoriyalarni: axloqiy fazilatlar; axloqiy qarash; axloqiy tarbiya; axloqiy madaniyatni shakllantirish maqsadga muvofiqligi va bu borada ular oldidagi asosiy vazifalar ilmiy-uslubiy jihatidan tahliliy ko'rsatib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Ofitser, komandir, o'qituvchi, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, targ'ibot, mahorat, jarayon, ilm, malaka, muhit, sog'lom, g'oyaviy-siyosiy, axloq.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, ijtimoiy-madaniy muhitni yanada sog'lomlashtirish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "Biz yoshlar siyomosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!". [1] Bu borada harbiy ta'lim muassasalarida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotida ofitser-o'qituvchi (komandir)lar o'rni va roli nihoyatda kattadir. Zero, ofitser-o'qituvchi (komandir)lar o'z faoliyatlari davomida ikki vazifani bir vaqtning o'zida bajaradilar: harbiylik va o'qituvchilik. Birinchisi, u harbiy sifatida yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini, jismoniy tayyorgarligini harbiylik kasbiga nisbatan shakllantirsa ya'ni harbilika yetaklasa, ikkinchisi o'qituvchi sifatida ularni ma'lum bir fanga oid bilimlarga ega bo'lishini ta'minlab, ilm sari etaklaydi. Bu borada ofitser-o'qituvchi (komandir)ning quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Dars berish mahorati.
2. Tarbiyalash mahorati.
3. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlari.
4. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotda avvalo, ta'lim-tarbiya beruvchi sub'ektlar – ofitser-o'qituvchi (komandir)lar faol ma'naviyat targ'ibotchisi, shu bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan yuksak pedagogik mahoratlarga ham ega bo'lishi lozim. Ya'ni harbiy ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari ta'lim olayotgan harbiy bilim yurtlarida, o'quv kurslarida, muddatli harbiy xizmatilar o'z xizmatini o'tayotgan harbiy qismlarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibot doirasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ilmiy va uslubiy o'quvlar ofitser-o'qituvchilar tomonidan yuksak darajada tashkil etilgan bo'lishi zarur va bu holat shu ta'lim

muassasasida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shallantirishda, uning targ'botida muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Yoshlar armiyada nafaqat harbiy tayyorgarlikdan o'tadi, balki jismoniy va harbiy jihatdan chiniqadi. Ular o'zlarining fuqarolik ma'suliyatini, Vatan himoyachisi sifatidagi muqaddas yigitlik burchi chuqur anglab, o'z yurtiga fidoyi inson bo'lib yetishadi". [2]

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotda ofitser-o'qituvchilarning o'rni va roli katta. Ofitser-o'qituvchilar, eng avvalo, ma'naviyat sohasidagi yangiliklar va axborotlarni tarqatuvchilari, shu bilan birga kishilarni ezgulikka da'vat etuvchi, ma'naviy hayotning barcha sohalaridagi ilg'or jarayon va voqealarni muntazam ravishda tahlil etib, bu boradagi dolzarb muammolar echimini topish bo'yicha xabar, ma'lumot, takliflarni ommaga tarqatuvchi hamda o'zlari ham bu borada namunali o'rnak ko'rsatuvchi shaxslar bo'lishlari zarurdir. Shungdek, harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotdagi harbiy-pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, o'quv guruharida ta'lim olayotgan, bo'linmada xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning turli bilim va umumta'lim tayyorgarlik darajasiga, turli saviyadagi ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashga ega ekanligiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Chunki har bir bo'linmada oliy, o'rta maxsus, o'rta va hatto tugallanmagan o'rta ma'lumotli kursantlar o'qishi, askarlar xizmat qilishi va bilim olishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning umumta'lim darajasi va turli saviyadagi ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashga ega ekanligidagi bunday tafovut ta'lim jarayonini, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishning samarali targ'ibotida ko'proq yakka tartibda yondashishni, alohida dasturlar hamda chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuningdek, ofitser-o'qituvchi (komandir)lar tomonidan beriladigan bilimlar-ilmilik, konkretlik, obyektivlik, ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi lozim, buning uchun bu kasb egalari ilmiy, nazariy, amaliy-tashkiliy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk, har tomonlama (ma'naviy-axloqiy, ruhiy) sog'lom inson bo'lishi lozim. Bu haqda ulug' mutaffakkir Abdulla Avloniy bobomiz shunday deb yozadi: "Tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lib, shogirdlariga ham bergan darslarini amal ila choqushtirib o'rgatmamlari lozimdir. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, mulloyi boamal bo'lurlar". [3]

Ofitser-o'qituvchi (komandir) shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ular manfaatini ifoda etib, ijtimoiy-ma'naviy darajasa yuksak sog'lom bo'lgan adolatli jamiyat qurish haqidagi g'oyalarni harbiylar orasida yoyish borasida targ'boti asnosida ularga ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy ta'sir ko'rsatish sub'ektidir.

Harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish uchun ularda milliy o'zlikni anglashni, millatga uning tarixiga mansubligini his qilishi shakllantirish kerak. Buning uchun esa harbiy ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish va uning targ'botida uchun ofitser-o'qituvchilar tomonidan ularda quyidagi kategoriyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-axloqiy fazilatlar kategoriyasi; axloqiy qarash kategoriyasi; axloqiy tarbiya kategoriyasi; axloqiy madaniyat kategoriyasi.

Axloqiy fazilatlar kategoriyasi –insonni yaxshilikka chorlaydigan, yomonlikdan qaytaradigan axloqiy qarashlarning doimiy odati, amaliy faoliyatiga aylanganini bildiradigan tushunchadir. U insonni axloq namunalarni o'zida mujassam etadi va ma'naviyatning o'zagini tashkil etadi.

Axloqiy qarash kategoriyasi- ijtimoiy voqea, hodisalar, o'zgarlar va o'zining xatti-harakatlari, ijtimoiy hamda tabiiy borliqqa bo'lgan munosabatlar mohiyatini axloqiy jihatdan tushunish; axloqiy nuqtai nazar. [5] Axloqiy me'yorlar tasnifi, ma'naviy-axloqiy yondashuv va shu asosda shakllangan tafakkur kategoriyasi. Tor ma'noda, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari sohasida umuminsoniy axloqiy tamoyillarni ifoda etadigan tushuncha. Keng ma'noda, insoniyatga oid barcha ma'naviy hodisalarga axloqiy yondashuvni aks ettiradi. Axloqiy qarashlarda umuminsoniy qadriyatlar, qadrlash mezonlari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qarashlar, ruhiy hodisalar aks etadi. Oila, qo'ni-qo'shnicilik odobi, korxon va jamoa etikasi, fuqarolik burch-vazifalari hamda ularni o'rgatuvchi mavzu hamda masalalar axloqiy qarash kategoriyasiga kiradi.

Axloqiy tarbiya kategoriyasi – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har qaysi avlodga singdirish shaklidir. "Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir" deb yozadi Abdulla Avloniy. [3]

Axloqiy madaniyat kategoriyasi – jamiyatdagi axloqning yuksak darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushunchadir. U

shaxsning jamiyatdagi asosiy axloqiy me'yorlarni egallashi va o'zgaralar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim omillaridan biri – muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir qilmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zaruriyat. Muomala odobi o'zgaralar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Ma'noli va ravon so'zlash, suhbatdoshini tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Muomala odobida muloqotning asosiy vositasi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Xalqimizda "siz" ham, "sen" ham bir nafasdan chiqadi degan dono naql bor. Sharqning buyuk mutafakkiri Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida "Suxandonlik ila baland martaba bo'lmoq" zikrida shunday deydi: "Sovuq so'zlik bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undan dushmanlik hosil bo'lur". [4] Shu bois, ofitser-o'qituvchi(komandir)lar tomonidan muloqot paytida hurmat ifodasi sifatida har bir so'zni suhbatdoshining ko'ngiliga, qiziqish va kayfiyatiga qarab, yoshini, kasbukori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e'tiborga olib, hurmatini joyiga qo'yib gapirish, muloqot jarayonida o'rinsiz harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu esa harbiy ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish va uning targ'botida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda, islom dinimiz, uning muqaddas kitobi Qur'on, unda keltirilgan oyat va suralardan, payg'ambarimizning yuksak odob-axloqini namoyon etadigan hadislardan harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibot bo'icha amalga oshiriladigan o'quv-uslubiy, tarbiyaviy mashg'ulotlarda ofitser-o'qituvchi (komandir) unumli foydalanmog'i maqsadga muvofiqdir. Chunki Islom dini odamlarni iymonli bo'lishga undaydi, uni o'ziga xos mezoni qilib saxovat, jasorat, sabr-toqat, to'g'riliylik, vafodorlik va sodiqlik kabi xislatlarni birinchi o'ringa qo'yadi, odamlarni iymon, insof, diyonat, ezgu maqsad va to'g'rilikka undaydi. Masalan: Moida surasi 90-oyatda: «*Ey mo'minlar, aroq, mast qiladigan ichimlik ichish, qimor o'ynash, folbinlik qilish shayton amalidan bo'lgan harom ishdur. Ularning har biridan uzoq bo'lingiz*» deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'botida ofitser-o'qituvchi

(komandir)lar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilishini lozim deb hisoblaymiz:

☒ *Harbiylarda yangicha dunyoqarash va e'tiqod asoslarini shakllantiradigan Yangi O'zbekiston milliy g'oyasiga sodiqlik hislarini shakllantirish;*

☒ *Harbiylarimizda faqat islom dini to'g'risida emas, umuman barcha dinlarning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilish;*

☒ *O'zbekistonning yangi taraqqiyot yo'liga kirganligi – respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy islohotlar, Yangi O'zbekiston mafkurasi va ma'naviyatining asl mohiyati, uning tarkibiy qismlari, mezonlari, vatanparvarlik, adolatliylk, insonparvarlik, iftixor tuyg'ularini harbiylar ongiga singdirish;*

☒ *Harbiy soha mutaxassislarining bilimdonligini oshirish, bilimning madaniyat, ma'rifat sari yuksaltirishdagi, harbiy muassasalarda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdagi o'rni va rolining ahamiyatini chuqur tushuntirish;*

☒ *Harbiylarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ya'ni yangi O'zbekistonning yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi moddalarini, shuningdek, yangi qonunlarini, Prezident farmon va qarorlarini chuqur o'rganishni targ'ib etish;*

☒ *Harbiylarni mardlik, botirlik, jasurlik, insonlarga g'amxo'rlik, mehr-shavqat kabi madaniyatning xulq-odob qoidalari qatoriga kiritilgan fazilatlar asosida tarbiyalash;*

☒ *Vatanimizda bugun qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni saqlab qolish uchun dushmandan ogoh bo'lish, dushmanga nisbatan hushyorlik va ehtiyotkorlik hislarini yanada chuqurroq shakllantirish;*

☒ *Barcha harbiylarda muomala madaniyati, nutq madaniyati, fikrni kasbga oid tushunchalar asosida bayon qilish madaniyatini shakllantirish.*

☒ *Harbiy muassasada ijtimoiy-ma'naviy sog'lom muhit paydo qilish uchun uchun harbiylarning bilimi chuqur, dunyoqarashi keng, tafakkuri sog'lom bo'lishi kerakligi tushunchasini shakllantirish.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.*

2. *Mirziyoyev Sh.M. "Milliy armiyamiz - tinch, osuda va farovon hayotimizning mustahkam kafolati". O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari*

tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigidan.<https://de-de.Fasebook.com>.

3. Abdulla Avloniy. *Tanlangan asarlar. 2-jild. Turkiy guliston yoxud axloq.* Toshkent, “Ma’naviyat” 1998.

4. Kaykovus. “Qobusnoma”. Toshkent, “Istiqlol”, 1994.

5.<http://hozir.org/b-abdullayeva-m-usmonbayeva-o-asqarova-f-ehsonova-s-hakimov.html?page=50>

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA IJTIMOY-MA‘NAVIY MUHITNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boyzaqova Umida Ashirali qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktalarida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni tashkil etish va boshqarish muhim vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o‘zi talab etmoqda” buning uchun innovatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirish yo‘llari va takliflari berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, ta‘limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit, plyuralizm.*

Globalashuv sharoitida yuz berayotgan ilm-fan taraqqiyoti va texnologiyalar rivoji har qanday sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni talab etmoqda. Bugungi kunimizda an‘anaviy uslublar va vositalarning o‘zi bilangina boshqaruvda samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Innovatsion texnologiyalar, birinchi navbatda raqamli texnologiyalar jamiyat kundalik hayotining ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurgani barchamizga birdek ma‘lum.

Shu o‘rinda, innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi ekanligi barchamizga birdek ma‘lum [2].

An‘anaviy ta‘limda o‘quvchilarni tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelinganligi, bu esa o‘quvchilarning tashabbuskorligi va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanishiga etarli imkon bermaganligini ta‘lim tizimi

tajribasidan kuzatishimiz mumkin. Fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi orqali ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanish orqali ta'limning samaradorligini kuchaytirish masalalari tobora jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalar qo'llash natijasida o'quvchilar egallaydigan bilimlar mustahkamlanib, ularda tahlil qilish va xulosa chiqarish k'to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan pedagogik jamoa bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonlarida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida umumta'lim maktabi rahbariyati, pedagoglar va o'quvchilar, yaxlit qilib oladigan bo'lsa umumta'lim maktabi jamoasi markaziy ishtirokchiga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar asosida o'tkazilgan o'quvlar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish deganda, tasavvurimizda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash paydo bo'ladi. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etishda, uni boshqarish va boshqaruvda samaradorlikka erishishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash lozimdir. Shu o'rinda tadqiqotlarimiz va olimlarning fikrlari natijasida kelgan hulosamizga ko'ra ijtimoiy-ma'naviy muhit tushunchasiga ta'rif berib o'tsak, ijtimoiy-ma'naviy muhit bu – shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi ahloqiy, madaniy, diniy, g'oyaviy qarashlarni ifodolovchi borliqi yoki bularni o'zida aks ettiruvchi makondir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda" [1]. Bu esa, birinchi navbatda jamiyatning eng muhim instituti sifatida ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish kerakligini, metod va mexanizmlarni joriy etish kerakligini ifodalaydi.

Ta'kidlash kerakki, zamonaviy texnologiyalarning shakli va mazmunining xilma-xilligi o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish tizimida ham o'z aksini topishi zarur. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish jarayoni va boshqarishda jarayonni axborot-texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning echimi bo'la oladi. Ijtimoiy-

ma'naviy muhitni tashkil etishni raqamlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktabida ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish jarayonida shaxsning butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzluksiz bo'lishi kerakligi unutmazlik kerak. SHundan kelib chiqadigan bo'lsak, uzluksiz ta'lim – davr talabidir. Ushbu masala zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirishi shubhasiz. XXI asr – axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Raqamli texnologiyalaridan foydalanish jarayonida, pedagog va o'quvchilar uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol foydalanish imkoniyatiga ega raqamli texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;

- bunda ta'limning interfaolliigi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'kuv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi oshadi;

- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berishi bilan muhim hisoblanadi;

- o'kuv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki internet ta'limi uchungina emas, balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar echishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.[3]

Zamonaviy yoki raqamli texnologiyalar asosida o'qituvchi o'z pedagogik mahoratini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish uchun mustaqil faoliyatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'quv jarayonini bir bugun guruh va bir butun fan (o'quv jarayonining rejasi, tashqi tashxis, nazorat ishlari va boshqalar) sifatida tashkil etish.

2. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil jarayonida sinf yoki o'quvchilar guruhini faollashtirish, muvofiqlashtirish, o'quvchilarning jarayondagi vazifalari yoki rollarini taqsimlash, ko'rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar.

3. O'quvchilarni har birini alohida alohida kuzatish, individual yordam ko'rsatish, har bir o'quvchi bilan yakka tartibda muloqot olib borish. Raqamli texnologiyalar va maxsus dasturlar asosida eshitish va ko'rish imkoniyatlari, individual o'qitish, qarashlarni shakllantirishning eng samarali shakllariga erishiladi.

4. Axborot muhitining tashkiliy qismlari (shaxsiy kompyuter, o'quv va namoyish kurilmalarining har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o'quv-metodik ko'rsatma, qo'llanmalar va boshqalar) ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish jarayonidagi umumta'lim maktabi oldiga qo'ygan asosiy maqsad mazmuni bilan aniqlangan bog'liqlik asosida tayyorlanadi.

O'z navbatida raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish va boshqarishda qo'llash, pedagoglarning jamoa bo'lib harakatlanishlariga ham turtki bo'ladi. Chunki, dasturning shaffof va mukammal ishlashi har bir o'qituvchiga, boshqaruv bo'g'ining har bir a'zosiga, dasturni muvofiqlashtirish uchun mas'ullarning yaxlit tizim sifatida harakatlanishiga bog'liq bo'lib qoladi. O'z navbatida bu jamoadagi munosabatlarning yaxshilanishi, o'zaro kommunikativ aloqalarning mustahkamlanishi, ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligi uchun birlashgan sub'ektlarning o'zaro kelishgan holda yaxlit mexanizm sifatida harakatlanishiga olib keladi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish va boshqarishning an'anaviy metodlaridan farqli va ijobiy jihati ham shundaki, an'anaviy jarayonda rahbarlik bo'g'inlari strategiya va maqsadni belgilovchi sifatida ishtirok etsa, bunda barcha sub'ektlar jamoaviy harakatlanishi, qarorlar qabul qilishda jamoa rolini oshiradi.

Albatta bu ijobiy jarayon hisoblanadi, ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish va boshqarishda fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm) yuzaga keladi. Yana bir muhim jihati jarayonda ishtirok etayotgan o'quvchilar ham bir vaqtning o'zida ishtirokchiga va shu vaqtning o'zida qarorlar qabul qilishga ta'sir etuvchi sub'ektga aylanadilar. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'tkaziladigan tahlillar amalga oshirilayotgan metodlar, loyihalarning qay

darajada samaradorli ekani yoki aksinchaligini o'quvchilar tomonidan berilgan fikrlar asosida baxolay olish, optimal echimlarni topish imkonini beradi. Qayta aloqani tashkil etishda ham innovatsion yoki raqamli texnologiyalar o'quvchilarga, xuddi shuningdek, pedagoglarga ham imkoniyat yaratib beradi. Virtual olamda fikrlar, tavsiyalarni qoldirish, anonim muloqot maydonlari bo'lishi buning muhim omili sanaladi.

Fikrlarning erkin, teng va shaffofligini ta'minlamay turib, ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda ijobiy natijalarga erishib bo'lmashligini, ko'plab sotsiologik tahlillar ko'rsatib berdi. Shaxsga nisbatan bosim o'tkazilishi yoki shaxs tomonidan munosabatlarda bosimga xos jihatlarni sezishi, uning ushbu muhitdan uzoqlashishi yoki shu muhitga nisbatan qarama-qarshi harakatlanishiga olib kelishi barchamizga psixologiya va hayotiy tajribadan birdek ma'lum. SHu sababli, raqamli texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarda zamonaviy fikrlashni shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashiga maydon yaratib berish, ushbu muammoning asosiy yechimlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Мирзиёев. Ш.М. “Янги Ўзбекистонни барпо этиш устунларидан бири - кучли маънавиятдир”// Халқ сўзи. 2021 йил 19 январь.*
2. *Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев “Инновацион таълим технологиялари”., Тошкент-2015*
3. *А.Холиков. “Педагогик маҳорат”. “Иқтисод-молия”, Тошкент-2010*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ МВД В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЗМА У КУРСАНТОВ

Усманов Алишер Шарафиддинович
Начальник цикла физической подготовки
Института повышения квалификации
МВД Республики Узбекистан, полковник.

***Аннотация.** Общепедагогическая задача физической подготовки курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан- это формирование гармоничной личности. Физическая подготовка-один из факторов, который способствует укреплению нравственности,*

формированию этических качеств. Она помогает дать важные для дальнейшей деятельности будущих сотрудников органов внутренних дел умения развивать способности, полезные не только в спорте, обороне и быту, но и в преданности Родине при осуществлении своих служебных обязанностей.

Ключевые слова: патриотизм, воспитание, духовность, преподавание, стратегия, физическое, курсанты.

Основная задача любого государства-обеспечение непрерывного роста. Материальные, гуманитарные цели достигаются только при участии в процессе членов общества. Во главе угла стоит здоровье населения так как это главное условие счастливой жизни людей, их полноценной деятельности. Психическое, социальное благополучие детей и взрослых становится основой государственных успехов.

От крепкого здоровья курсантов образовательных учреждений МВД, длительного сохранения его активности зависит, в конечном итоге, их профессиональная деятельность по защите и охране и свобод граждан, а также обеспечения и поддержании общественного порядка. Подготовленность, грамотность каждого курсанта в области физиологии имеют значение в будущей профессии.

Задачи по физическому воспитанию и физической подготовке курсантов решаются с учетом определенных принципов. Один из них не навредить.

Главное для педагогического процесса-это не только улучшать физическую подготовку курсантов, но и заботиться об их нравственном, умственном, эмоциональном состоянии.

Физическая подготовка курсантов призвана вовлекать их в мыслительную деятельность, создавать для них такие условия, при которых они смогут самостоятельно принимать решения, искать рациональные подходы, эмоционально реагировать на действия товарищей.

Цель образования предполагают формирование у курсантов комплекса двигательных навыков, совершенствование психофизических качеств: сила, ловкость, выносливость.

Преподаватели стремятся к разностороннему развитию курсантов. Обучение строится на базе умственного, нравственного, эстетического совершенствования, привития курсантам потребности ежедневных физических и трудовых усилий.

В свете проблем, которые сформировались в настоящее время, становится понятно, что восстановление и совершенствование системы

воспитания, касающейся физической культуры и спорта, для государства, общества-одна из самых главных проблем. Система воспитания-определяющая сила, которая способна противостоять наседающим деструктивным тенденциям. Для решения наиболее имеющихся проблем страны нужно здоровое и правильно воспитанное поколение.

В общей системе подготовки кадров образовательных учреждений МВД спортивно-патриотическое направление становится одним из наиболее важных. Поэтому так значимы информационная политика, методическое обеспечение.

Для осуществление этой сложной работы, для систематической ее реализации нужно четко представлять, как основные ее направления, так и формы, и методы патриотического воспитания и воспитания гражданственности. А также цели и задачи долгосрочного развития системы патриотического воспитания курсантов. Все это и составляет стратегию патриотического воспитания как долгосрочную систему, соответствующую современным условиям и опирающуюся на современную педагогику, систему морально-психологической подготовки, историческую науку, национальную культуру и традиции народа Республики Узбекистан.

Проблема использования традиционной культуры в целях патриотического воспитания курсантов сегодня стоит как никогда остро. Имеющиеся факторы постепенной утраты единого социально-культурного кода, базовой нормативно-ценностной системы, межпоколенческой преемственности естественным образом ведут к активизации крайнего индивидуализма в пику обще социальным интересам и ценностям.

Ответом на этот вызов должна явиться эффективная система образования в сфере физической подготовки использования возможностей традиционной национальной культуры как воспитательного ресурса посредством спортивных соревнований. Такая политика может стать важнейшей составляющей любой возможной серьезной и последовательной стратегии патриотического воспитания.

В образовательных учреждениях МВД обучаются представители различных национальностей из различных регионов страны. У учащихся существует естественное стремление показать себя, свою культуру и традиции. Культурно-просветительская работа, проводимая в образовательных учреждениях МВД Республики Узбекистан способствует этому. Нахождение курсанта в ситуации социального пространства закрытого типа стимулирует его к поиску и изобретению жизненных

форм и стилей, позволяющих ему реализоваться. В частности, эти процессы находят свое выражение в том, что курсанты активно участвуют художественной самодеятельности, в различных викторинах и смотрах конкурсах, а также спортивно-массовых состязаниях. Курсанты в большинстве своем активно участвуют в подобных мероприятиях.

Патриотическое воспитание невозможно без четкого представления о том, что такое патриотизм каковы его исторические корни, его роль в подготовке молодых курсантов. В книге «Стратегия нового Узбекистана» Президент Республики Узбекистан, Верховный Главнокомандующий Вооруженными Силами Ш.М.Мирзиёев дает подлинное научное толкование понятия военно-патриотического воспитания молодежи и раскрывает глубокий духовный смысл патриотизма в условиях строительства нового Узбекистана.

По мнению лидера страны, идея формирования государства с великим будущим под силу лишь молодому поколению, воспитанного в духе высоких нравственных качеств и глубоко патриотизма. В достижении этой исторической задачи лежит внутренний источник высокого морального духа-национальная идея.

Целью военно-патриотического воспитания заключается в формировании стойких, сознательных, убежденных патриотов, преданных идеалам национальной независимости, отличающихся высокими интеллектуальными, умственными, физическими и боевыми качествами, необходимыми для защиты государства. В этих условиях утверждение в общественном сознании нашего народа, прежде всего молодого поколения, идеи глубокого патриотизма, гордости за нашу Родину, готовности встать на ее защиту было и остается одной из важнейших задач высокой духовности общества и приоритетом государственной политики.

Такое воспитание-важное средство проявления любви, глубокого уважения к службе в обеспечении правопорядка и безопасности граждан. Оно вызывает стремление повышать общеобразовательный и политический уровень знаний и закалять себя физически.

Физическая подготовка непосредственно связана с прикладными видами спорта. Имена спортсменов членов ФСО «Динамо» как органов внутренних дел так военнослужащих хорошо известны в мире, они прославляли и прославляют нашу Родину на различных международных спортивных соревнованиях. Это важный резерв морально-психологической подготовки в системе патриотического воспитания.

Между тем, сегодня существуют проблемы, которые могут мешать процессу воспитания: нарушение или отсутствие преемственности в процессе воспитания патриотизма, незнание нашей истории в целом либо отдельных ее периодов и исторических событий, размывания основ национальной культуры. Эти проблемы должны учитываться всеми, занимающихся патриотическим воспитанием.

Как показывает практика в настоящее время воспитательная работа на тренировочных занятиях не отличается разнообразием используемых форм. В связи с чем, можно констатировать, что сформировавшееся у курсантов отношения к спорту и его ценностям требует усиления внимания тренеров преподавателей к патриотическому воспитанию курсантов в связи особенностями развития спорта в общественной жизни в современных условиях.

Необходимо использовать такие воспитательные ресурсы как экскурсии по историческим местам в период проведения соревнований, привлечению к проведению занятий и воспитательных мероприятий ветеранов спорта, выступавших за страну, рассказы о великих спортсменах которые прославляли за рубежом Республику Узбекистан.

В целях обеспечения исполнения Указа Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» было принято Постановление Президента страны «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением» №10 от 10 января 2023 года, в котором утвержден Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников и где были определены основные цели по достижению истинной удовлетворенности населения посредством воспитания сотрудников ОВД в качестве патриотичных и народолюбивых представителей государства с высокими духовно-нравственными качествами, верными своему долгу, на основе принципа «Во имя чести и достоинства человека».

Наряду с этим были поставлены задачи по формированию у сотрудников чувства высокой ответственности, отношения к служебным обязанностям с честью, совестью искреннего осознания долга перед Родиной и народом, беспрекословного соблюдения общепринятых в обществе морально-нравственных норм.

При этом одним из приоритетных направлений было обозначено-повышение эффективности и действенности духовно-просветительской

работы посредством ее системной и непрерывной организации на основе принципа «от образовательного учреждения- до окончания службы».

В связи с этим необходимо констатировать что обучение курсантов и их подготовка к дальнейшему несению службы в ОВД это многогранный комплексный процесс Порядок где роль физической подготовки является одним из важнейших составляющих в воспитании здорового как физически, так и духовно-нравственного сотрудника и создает необходимую базу для их дальнейшей службы на благо своей Родины.

Президентом страны Ш.М.Мирзиёевым в праздничном обращении к сотрудникам органов внутренних дел было отмечено «В результате последовательной реализации принятой Концепции по организации духовно-просветительской работы в органах внутренних дел осуществляются системные меры, направленные на усиление у сотрудников чувства патриотизма, расширение мировоззрения, повышения уровня культуры общения, что позитивно отражается на практике работы с населением»

В связи с этим исходя из задач, поставленных Президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёевым, сделать молодого сотрудника сильным, ловким, смелым, здоровым, готовым в любую минуту встать на защиту своей Родины-именно это является духовным смыслом и сущностью патриотического воспитания в органах внутренних дел Республики Узбекистан.

Список использованных литератур:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»;

2. Постановление Президента страны «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением» №10 от 10 января 2023 года;

3. Бобровский В.А., Бобровский А.В., Мошков М.К., Горбунов А.В. Основные формы патриотического молодежи, занимающихся единоборствами и ориентированной на службу в ОВД. Психопедагогика в правоохранительных органах 2018.

4. Аграфонов М.Ю., Кузнецов А.А., Смирнов А.Е. Стратегии патриотического воспитания в образовательных организациях МВД России: Иркутск: учебно-методическое пособие 2017.

TA'LIMNING TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA'NAVY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Raximov Minhojiddin

I. Karimov nomidagi T oshkent

davlat texnika universiteti

3- bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada mez o'zgaruvchan dunyoda yetishib chiyotgan yoshlarning dunyoqarashi, qobiliyati, iste'dodi, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar ma'naviyati, ilm-ma'rifat, ma'naviy tarbiya, iste'dod, uzluksizlik, uzviylik, tamoyillar

Tez o'zgaruvchan dunyoda yetishib chiyotgan yoshlarning dunyoqarashi, qobiliyati, iste'dodi, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Mamlakatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qator Farmon va Qarorlar ishlab chiqilayotganligidan barchamiz xabardormiz. Bu borada 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng asosiy vazifasini belgilaydi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda eng yetkchi faktorlar quyidagicha belgilandi:

1. Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.
2. Tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda

avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash.

3. Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

4. Homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish.

5. Aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib boorish.

6. Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish.

7. Uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi joylarda amaliy faoliyat olib botishning asosiy mezonini hisoblanadi. Bir xalqning yuksalishi, taraqqiy etishi uchun unga yetakchi(lar) kerak. Rivojlanish yo'lida xalqqa yo'l ko'rsatadigan, zulmatda nur bo'ladigan oydinlarga doim ehtiyoj sezilgan. Jadidlarning shiorini bilasizmi? Ularning shiori "Jasorat. Ma'rifat. Fidoiylilik" edi. Xalq ma'rifatini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy ongini o'stirish, qaramlikdan chiqib mustaqillikka erishish kabi bir qator ishlarni o'zlariga maqsad qilib olishgan edi. Ana shunday oydinlardan biri Munnavar qori Abdurashidxonovdir. "Qanday qullik tushdi"dir. Unda muallif xalqlar qanday qilib qaram bo'lib qolishgani, o'z erkinini qanday qo'ldan boy bergani obrazli tarzda oddiy usul bilan yoritib berilgan. Bu uni o'quvchiga tushunishiga qiyinchilik tug'dirmaydi, eng asosiysi esa mohiyatni anglashiga sabab bo'ladi. Jadid adabiyotining yetakchilaridan biri Fitratning "Najot yo'li" kitobida yoshlarni ilm olishga, yurt qayg'usi bilan yashashga, harakatdan to'xtamaslikka chorlashi bo'ldi. Fitratning g'oyalari, she'rlari biz yoshlar uchun juda katta motivatsiya vazifasini bajara olar ekan. Ayovsiz raqobatbardoshlikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, har

qanday sharoitga ko'ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish vositalarini to'g'ri tanlaydigan, ularni zamonaviy talablariga ko'ra jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga juda katta ehtiyoj, muhtojlik sezmoqda. Bunday yangi avlod kadrlari qanday yuzaga chiqadi? Ularga ta'lim-tarbiya berishda, zamonaviy boshqarishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? Yosh avlodni tarbiyalashda, ijodkor yoshlarni boshqarish va o'qitish metodikasida ham evolyusion o'zgarishlarni taqazo etadi. To'g'ri, ijodkorlarni o'qitishda adabiyot fani – bu fanning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, bu bosqichlarning har biriga xos bo'lgan asosiy unsurlarni tahlil qilish, badiiy asarni qiyoslash. Mushohada qilish va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e'tibor berish, ta'lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o'zini emas, balki ularga bog'liq ravishda adabiy nazariy tushunchalarni ham o'rganish zaruriyatini va yo'l yo'riqlarini ko'rsatish, boshqaruv pedagogikasining ijtimoiylashuvida, maxsus darslarini tashkil etishda, fanlardan sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish yo'llarini ko'rsatish lozimligini asoslaydi. Ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashda asosiy pedagogik—ijtimoiy omillar sifatida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratish kerak: birinchidan, o'quvchilar mustaqil faoliyat yuritishlariga, ikkinchidan, ko'proq kichik tadqiqotlar o'tkazishga yo'naltirilganida, uchinchidan, ularning o'z ustilarida muntazam ishlashi uchun sharoit yaratilganida, to'rtinchidan, ijodiy ishlarni tashkil etish yo'llarini ko'rsatilishi kabilarga e'tibor berish zarur bo'ladi. Ijodkor o'quvchi ma'naviyati adabiyot, tarix fanlarini o'qitish metodikasi orqali ko'proq shakllanadi. Mazkur fanlarni chuqur o'rganish ta'limga bo'lgan e'tibor tufayli o'zining asl o'zanlarini topib bormoqda. Endilikda ijtimoiy fanlarni o'qitish nazariyasi va amaliyotida bir xillikdan qochish, rang-baranglikka intilish tamoyillarining tobora kengroq tarzda ko'zga tashlanayotgani seziladi. Bu adabiy hodisalarga nisbatan estetik yondashuvning ustuvorlashib borayotganida, madaniy merosga nisbatan munosabatlarning haqqoniylashayotganida, ko'plab adabiy hodisalarga nisbatan ilmiy baholarning o'zgarib, ularning o'zlariga xos va mos xususiyatlaridan kelib chiqilayotganligida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, pedagogika va ijtimoiy fanlarni o'qitish tizimiga oid ta'limda davlat ta'lim standarti va milliy ta'lim konsepsiyasini yaratilganligining o'ziyoq, ijtimoiy hayot – jamiyat uyg'unligining asosiy mezoni ekanligiga yana bir karra insoniyatni ishontiradi. Ta'limdagi ochiqlik va shaffoflik uning bevosita takomillashib, maksimal darajaga

ko'tarilayotganligining o'zi, jarayonning uzluksiz davomiyligiga ishoradek. Ushbu tizimda an'anaviy ta'limdagi eng yaxshi yutuqlarni saqlab qolgan holda jahon ilm-fani, xususan, boshqaruv psixologiyasi, pedagogikasi hamda metodikasi sohasidagi yangi va yaxshi na'munalarga uyg'unlashish tamoyilini yaqqol yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovatsion rivojlanish yuliga o'tmokdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon hiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu - kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" – deb ta'kidlagan edi.[1]

Ijodkor yoshlarga ta'lim va tarbiya berish borasidagi ustuvor vazifalarga muvofiq holda kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratish, o'qitishdagi ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar uyg'unligi metodologik asos sifatida qabul qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Shavkat Mirziyoyev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2017 y..6-son, 70-modda*

3. *Mirziyoev SH. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. – Elektron manba: lex.uz/docs/3412785.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020-y*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi 14.08.2018 – yildagi PQ 39-07sonli qarori.*

6. Mirziyoev SH. *Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus.* –Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>.

7. Fitrat “Najot yo‘li T., 2022 y. G.Gulom. 123 –b.

TA'LIM VA TARBIYA MASKANLARIDA YOSH KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Janonova Sitora Berdinazarovna

Toshkent davlat agrar universiteti

Samarqand filiali doktoranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya uyg'unligining asosiy bosqichi, zamonaviy ta'lim jarayonida yosh kadrlarda kompetentlikni oshirish zarurati, uning bosqichlari, ilmiy va falsafiy yondoshuvlar muhim o'rin tutadi. Ta'lim falsafasida “kompetentlik” integratsiya jarayonini jadallashtiruvchi omil ekanligi alohida ta'kidlab o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, ta'lim va tarbiya, integratsiya, falsafiy qarashlar, hayot kompleksi, kommunikativ kompetentsiya, ijtimoiy, madaniy, kollektiv, intellekt, axborot va ta'lim texnologiyalari.*

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya maskanlari o'zining dunyo miqyosida jadal rivojlanib borayotgan texnologik taraqqiyot va hayotning barcha jabhalarida raqobatning tobora ortib borayotgan darajasi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadi, jamiyat va davlatning ustuvor vazifalaridan biri - vatanimizning axloqiy, mas'uliyatli, tashabbuskor va barkamol fuqarosini tarbiyalashdir. Har bir ta'lim beruvchining orzusi - mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikrlarini erkin bayon eta oladigan, omma oldida savol bera oladigan va ularga javob topa oladigan, mavjud muammolarni bartaraf qilish yo'llarini izlay oladigan bilimdon yoshlarni tarbiyalashdir. Bu shuni anglatadiki, yosh kadrlarni tayyorlashda ta'lim dargohlarida maktab bo'ladimi, oliy ta'lim dargohi bo'ladimi, nafaqat o'tmishdagi yutuqlarni, balki kelajakda foydali bo'lgan usul va texnologiyalarni ham o'rganish kerakdir.

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra “kompetentlik” ta'lim tizimida yosh mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'ziningina emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir

mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar, boshqaruvning taʼsirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomila madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi.

Zamonaviy taʼlimda ***Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan***, taʼlim oluvchilar - boʻlajak yosh kadrlarni, barcha soha xodimlarini boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda.

“**Kompetentlik**” – tushunchasi dastlab taʼlim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha boʻlib, zamonaviy atama sifatida qoʻllanilib kelinmoqda. «**Competentia**» lotincha soʻzdan olingan boʻlib, oʻzbek tilidagi tarjima qilinganda unung lugʻaviy maʼnosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega boʻlgan kishi» kabi maʼnolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik taʼlim jarayonida sodir boʻladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbar va mutaxassislar oʻzini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qoʻl ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega boʻlishi, raqobatdosh tomonlar bilan oʻzaro munosabatlarda yangi yoʻl tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga toʻla maʼlumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qoʻllay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.[1,174]

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy dars jarayonlarida hamda yosh kadrlarni qayta tayyorlashda “tayanch kompetensiya”lar degan tushuncha fanga kirdi. Tayanch kompetensiyalari turli xil taʼlim maskanlarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan taʼminlanishi hamda faoliyatga moslashishida ustozlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib, oʻziga xos xarakterga ega. Yosh kadrlarda kompetentlikni oshirish taʼlim jarayonida alohida ahamiyat ega. Kelajakda yoshlarga taʼsir koʻrsatuvchi uchta asosiy omilga alohida diqqat-eʼtiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu taʼsir koʻrsatish omillari juda murakkab tushunchalar boʻlib, amaliyotda kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida ravishda qoʻllanadi. Ular qanchalik ustuvor boʻlsa, kelajakdagi kadrlar izchilligi ham shunday boʻladi. Koʻpincha kundalik muloqotda biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi koʻproq diqqatni tortadi. Lekin, baʼzan yoshlar bilan ishlash mobayda “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi [2,44].

Bu aslida o'zgalar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi. Kompetentlik - mohiyatan kommunikativ kompetensiyadan kengroq va ko'pqamrovliroqdir. Bugungi kunga kelib, "kompetensiya" tushunchasi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning, o'zida ta'limning intellektual va malakaviy tarkiblari natijasini birlashtiruvchi markaziy tushunchaga aylandi. Ta'limda kompetentli yondashuv zarur bilim bazasi shartligini inkor qilmaydi, balki kompetensiyaning integral natijadorligini ko'zda tutadi. Shu o'rinda O'zbekiston pedagog olimlarining kompetensiyaviy ta'lim, kompetensiya masalalariga doir ilmiy nuqtai nazarlari katta qiziqish uyg'otadi. Pedagogika fanlari doktori M.Vahobov "Bizningcha "kompetensiya" deganda, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llay olish layoqati tushuniladi" deb hisoblaydi [3.15].

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bevosita ta'lim tizimida yosh kadrlarga kompetentlilik va uning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilib, o'rganilgan. Bu boradagi pedagogik-psixologik kasbiy kompetentlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni bir qator olimlar xususan, V.M.Karimova tomonidan olib borilgan izlanishlar tadqiqot davomida alohida ahamiyat kasb etadi. Kelajak faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy kompetentlikning asosiy elementlari davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. U o'z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo'nalganlikning motivatsion, etik, kommunikativ, ijtimoiy va ahloqiy tizimlarini ham oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosiy qismi bo'lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Fan-texnika va axborotdagi revolyusiya inson va uning ilmiy – ma'rifiy potensiali o'qitish taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Kelajakda erishishimiz lozim bolgan buyuk maqsadlarga yyetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak. O'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda kompetentlikni shakllantirish muammosini o'rganishning dolzarbligi zamonaviy ta'lim sohasida sodir bo'layotgan

tendensiyalar bilan bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar ta'limni, shaxsning erkin rivojlanishiga, ijodiy tashabbuskorlikka, o'quvchilarning mustaqilligiga yo'naltiradi. Yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarbiyalashda ta'lim tizimining naqadar ahamiyatga egaligi, Prezidentimiz 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilinganligi ham bejiz emasligining yaqqol isbotidir.

Ta'limning bilimga asoslangan modeli endi jamiyat va shaxs rivojlanishining real ehtiyojlarini qondira olmaydi, bu esa ta'lim paradigmasining o'zgarishiga, yangi yondashuvlarni izlashga va yangi tushunchalarni asoslashga olib keladi. Bunday yondashuvlardan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lib, u hozirgi tez o'zgarib borayotgan dunyoda yashashga, o'zaro munosabatda bo'lishga tayyor va qodir shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Shuining uchun ham o'quv jarayonlarini tashkil etish, yosh kadrlarning chuqur bilim olishiga yordam beruvchi o'quv uslublarini qo'llashga, ularda kompetentlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim beruvchidan chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishni, dars berishning turli metodlarini bilishni, hamda o'z ustida mukammal ishlashni ham talab qiladi. Inson tom ma'noda qadr topib, manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etayotgan va bu yangilanishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilayotgan yangi O'zbekistonda bilimli, axloqli, madaniyatli, yuksak ijtimoiy kompetensiyali insonlarni tarbiyalash hayotmamot masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jaeva N.N. *Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat.* – T.: 2003. – 174 b
2. Ahlidinov R. *Sotsialno-Pedagogicheskie osnovi upravleniya kachestvom obshego srednego obrazovaniya. Avtoref.dis...d-ra ped.nauk.* –T.:2002.44 b.
3. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.SHamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar.
4. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar.* – T.: "Iste'dod", 2008. – 180 b.
5. Nizomxonov S.A., Madaminov I. *Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari.* // *Zamonaviy ta'lim» jurnali,* 2014, №10

6. Vaxobov M.M. *Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida. /Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoye obrazovaniye. 2016 yil 10-son, 3-b.*

7. Matveyev Yu.I. *Sosialnaya oriyentasiya lichnosti / Otv. red. V.A. Kan-Kalik; Severo-Kavkazskiy nauchnyy syentr vysshey shkoly. – Rostov n/D: Izd-vo Rostovskogo universiteta, 1990. - 155 s*

8. Yazdonov, U. B. T. (2019). *Организация общественного мнения под влиянием форм социального сознания. Theoretical & Applied Science, (9), 88-92.*

TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KASBIY KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY MADANIYATNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Maxmudova Feruza Haliljanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Innovatsion ta'lim kafedrası tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning kasbiy ko'nikmasini shakllantirishda axloqiy madaniyatni tarbiyalash muammolari ko'rib chiqiladi. Talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning yondashuvlari, usullari va vositalari belgilanadi.*

***Kalit so'zlar:** axloqiy madaniyat, yondashuvlar, usullar, vositalar, talabalar.*

Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatida, hayotning barcha sohalarida global modernizatsiya sharoitida, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida axloq darajasi sezilarli darajada pasaymoqda. Ushbu regressiyaning sabablaridan biri deyarli barcha sotsializatsiya institutlarining qulashi. Insonning uzoq vaqt davomida axloqiy madaniyatning haqiqiy qadriyatlarini inkor etishi jamoat ongida inqilobga olib keldi. Bu, birinchi navbatda, axloqiy fazilatlar va qadriyatlarning shakllanishiga dunyo muammolari, zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi mavjud qarama-qarshi tendentsiyalar, global axborot oqimi va boshqalar ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq.

Bu borada mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu toifa mamlakat kelajagining salohiyatidir va shuning uchun zamonaviy jamiyatda mavjud bo'lgan barcha eng yaxshi narsalarni o'z ichiga olishi kerak. Ta'lim sharoitlari va natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy mavqeiga ko'ra tabaqalanishi, ommaviy

axborot vositalarida iste'molchi munosabatlarining targ'iboti, zo'rvonlik va boshqalar, oilaviy munosabatlar inqirozi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu yerda oliy ta'limning ustuvor vazifasi talabalarni bugungi dunyoda hayotga tayyorlashdir. Bir tomondan, yosh shaxsga o'zining maksimal imkoniyatlari chegarasini aniqlashga, uning haqiqatan nimaga qodir ekanligini tushunishga, jamiyatda ijtimoiylashishga yordam berish kerak. Boshqa tomondan, faqat atrofdagi voqelik to'g'risida ishonchli fikr shakllangan, tadqiqot quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqladi:

- jamiyatning yaxlit shaxsga bo'lgan obyektiv ehtiyoji, kasbiy mahoratni yuksak axloqiy madaniyat bilan uyg'unlashtirib borishi o'rnatilgan oliy ta'lim tizimi doirasida barkamol shaxsga erishishning mumkin emasligi o'rtasida;

- jamiyat tomonidan shakllantirilgan axloq va yosh shaxsning axloqiy va madaniy qadriyatlari o'rtasida, bu ko'pincha ularning ichki yo'riqnomalariga to'g'ri kelmaydi, keyinchalik shaxsiy halokat va g'ayriijtimoiy ko'rinishlarning shakllanishi uchun sharoit yaratadi;

- universitetning ta'lim muhitiga axloqiy tarbiyaning zamonaviy tizimlarini joriy etish zarurati va talabaning axloqiy madaniyatini shakllantirishda foydalaniladigan vositalarning yetarli darajada farqlanmaganligi o'rtasida.

Shunday qilib, talaba yoshlarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammosini hal etish samaradorligi uchun oliy ta'lim muassasalarining barcha xodimlarining maksimal ishtiroki talab etiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi universitetda jismoniy madaniyat orqali talabalar axloqini shakllantirishning metodologiyasi, nazariyasi, usullari va vositalarini ko'rib chiqishdir.

Madaniy ta'lim, bizningcha, ma'ruza kursiga madaniyat tushunchalarini va jismoniy madaniyatning madaniy komponentini chuqurroq o'rganishga qaratilgan ma'ruzalarni kiritishni kuchaytiradi.

Shunday qilib, talabalarning hayotiy qadriyatlar haqidagi axloqiy g'oyalari va ularning qiymat yo'nalishlarini hisobga olgan holda guruhlarga bo'linishi axloqiy madaniyatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan modellarni yaratishga imkon beradi. Qiziqishlari o'xshash bo'lgan ma'lum bir guruhda muloqot qilish, o'quvchi muqarrar ravishda unda qabul qilingan xulq-atvor normalarini qabul qiladi, identifikatsiyalash jarayoni orqali ijtimoiylashadi va turli rollarni bajaradi. Ular jismoniy faoliyat jarayonida o'quv guruhida mavjud bo'lishning ijobiy axloqiy tajribasini shakllantiradi, uning davomida u o'zini-o'zi ta'minlaydi,

asossiz tajovuzkorlik va boshqalarni kamsitish hisobiga o'zini o'zi ta'minlashga intilmaydi.

Talaba ta'lim jarayonida qadriyatlar, dunyoqarash, qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantiradi, o'quvchining kognitiv va kommunikativ kompetentsiyasini, uning ijtimoiy hayotda aks ettirish tajribasini va o'zini o'zi anglashini boyitadi, bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadi, yuksak bilimlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamarajabov S. *Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar*//Архив научных исследований. – 2021.

2. Mamarajabov, Shavkat. "Harakatlar strategiyasi: ta'lim va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish modeli sifatida."Архив научных исследований (2021).

3. Hakimova M. "Professional pedagogy. Tutorial." T., Tashkent State Economic University..-2007 (2007).

4. Hakimova, Muhabbat. "Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari." Архив научных исследований 32 (2020).

5. Musakhanov G. (2020). *Independent work of students - as a condition for the development of professional self-development. Archive of Scientific Research, 1 (22).* retrieved from

6. Musakhanova, G. (2022). *Design and research method as an innovative approach aimed at the development of organizational abilities of students in the process of independent work.* Архив научных исследований, 2(1).

7. Kayumova M. *Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda korporativ madaniyat va g'oyaviy immunitetni shakllantirish* // Архив научных исследований. – 2021. – Т. 2. – №. 1.

8. Kayumova M. *Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash omillari* // Архив научных исследований. – 2021. – Т. 2. – №. 1.

9. Махмудова, Ф. (2021). *содержание инновационной деятельности учителя в организации экономического образования. Экономика и образование, (5), 282–287.*

10. Махмудова F. *Ayolning farzand kamolotidagi roli*//Архив научных исследований. – 2021.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING MA’NAVİY- AXLOQIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

*(Talabalardan iborat folklor-etnografik jamolarni tashkil
etish uslublari misolida)*

Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich,

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI Ilmiy tadqiqotlar,
innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik
kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, erkin izlanuvchi*

Annotatsiya: *Bugungi kunda folklor-etnografik jamolari xalqimizning qadimiy an‘analari, xalq og‘zaki ijodining noyob namunalarini saqlashda, ularga sayqal berib, yana xalqimizning o‘ziga qaytarishda jonbozlik va fidoyilik ko‘rsatuvchi ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tab kelmoqda. Ushbu maqolada yoshlarni ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda, kelajagi buyuk o‘zbek yurtining haqiqiy egalari bo‘lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qilayotgan folklor-etnografik jamolariining o‘rni, qolaversa oliy ta‘lim muassasalari qoshida folklore etnografik jamoalarni tashkil etish uslublari, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, ma‘naviyat, qadriyat, folklor, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, folklor-etnografik jamoalari, komil inson, tarbiya.*

Badiiy tafakkur rivojining hosilasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi milliy ma‘naviyatimizning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Adolatli jamiyat qurish va barkamol shaxs tarbiyalash borasida ma‘naviy merosning o‘rni benihoya kattadir. O‘z o‘tmishi, dini, tarixi, adabiyoti, madaniyati, tili, urf-odatlaridan bexabar xalq o‘z kelajagini qura olmasligini davr isbotlamoqda. Shu bois ham bugungi globallashuv sharoitida yuksak ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalash asnosida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma‘naviy merosni asrab avaylash, tadqiq etish, kelgusi avlodga yetkazishga burchlidirmiz.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ma‘naviyat va ma‘rifat hamda madaniyatimizni rivojlantirish yo‘lida olib borayotgan siyosatidan kelib chiqib, milliy ruhni o‘zida asrlar bo‘yi ortmoqlab kelayotgan, qadimiy an‘analarni bugungi kunda ko‘z-ko‘z etayotgan, o‘z ortidan millionlab kishilarni ergashtirayotgan har tomonlama ibrat maktabi bo‘lib, omma mehrini qozonayotgan, yoshlar qalbiga ma‘naviyat urug‘ini singdirayotgan ijodkorlardan biri bu - folklor-etnografik jamoalaridir. Bugungi kunda folklor-etnografik jamoalari xalqimizning qadimiy an‘analari, xalq og‘zaki ijodining noyob namunalarini saqlashda, ularga sayqal berib, yana

xalqimizning o'ziga qaytarishda jonbozlik va fidoyilik ko'rsatuvchi ijodiy laboratoriya vazifasini o'tab kelmoqda.

Inson qaysi jamiyatda yashamasin, u turli moddiy va ma'naviy qadriyatlar qurshovida bo'lib, o'z turmush tarzi, munosabati va xatti-harakati, xulq-odobi va urf-odatlarini namoyon etadi. Odam ibtidosidan boshlab son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashab kelmoqda. Umumbashariy, milliy va shaxsiy qadriyatlar majmuasi mavjuddir. Quyosh, yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosidan iborat umumbashariy tabiiy qadriyatlar jamiyat va inson bo'lmasa ham yashay oladi, ammo inson bu qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Qadriyat "inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha"dir. [4; 89 b.]

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya. faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-axloq qadriyatlarning jamiyat, xalq hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Bunda ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Umuminsoniy qadriyatlar sermazmun va serqirra bo'lib, ijtimoiy ma'no kasb etadi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan har bir shaxsga xos bo'lgan qadriyatlarni bog'lovchi xalqalardan biri, jamiyat va uning fuqarolarini komillikka yo'naltiruvchi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlardir.

Milliy qadriyatlar millat, elatlarga xos moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, madaniy, tarixiy belgilarni, xususiyat, munosabat, an'ana, urf-odat, udum, marosimlarni mujassamlashtirgan his-tuyg'u, xislat-fazilat, ma'naviy axloqiy me'yor va qoidalarning yig'indisidir.

Faylasuf olim Q.Nazarov ta'rificha, milliy qadriyatlar tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarinigina emas, balki hudud, madaniy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, o'tmishi, turmush tarzi, millat hayotining tartib-qoidalari hamda ular bilan bog'liq milliy xususiyatlar, jihatlar va boshqalarni ifodalaydi. [5; 59 b.]

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, ular qalbida mehr va muruvvat chechaklarini undirib-o'stirishda folklor-etnografik ansambllari dasturlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. So'nggi yillarda folklor-etnografik jamoalar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarining vositasi bo'lmish mehr-muruvvat, saxovat va insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi – Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. "Yil boshi", "Qozon to'ldi", "Sumalak pishirish", "Hashar uyushtirish", "Lola sayli", "Gul sayli" kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi.

Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda, o'zbek xalq og'zaki ijodida vatanparvarlik, adolat, millatparvarlik, insonparvarlik, yurtsevarlik, el-yurtni himoya qilish, Vatanga sadoqat va muhabbat kabi xislatlarni o'zida jamlagan milliy dunyoqarashning asosiy unsurlari o'z mujassamini topgan. Xalq og'zaki ijodi - milliy g'urur, or-nomus va qadr-qimmat, vafo va sadoqat, jasorat va matonat, olijanoblik va saxovatpeshalik, g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish, bag'rikenglik va halollik kabi fazilatlar sandig'idir. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari - bizning ham tarixiy, ham ma'naviy, ham madaniy, ham huquqiy merosimizdir.

Jamiyat va uning fuqarolarini komilikka yo'naltiruvchi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlardir. Chunki davlat barqarorligi va taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy, madaniy-badiiy ildizlariga tayanadi.

Folklor-etnografik jamoalari qayerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliy an'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib, xalqning o'ziga qaytarishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Masalan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "E'zoz" folklor-etnografik jamoasi dasturidan joy olgan "Bolangizga alla ayting onalar" mavzuidagi dasturida mehr-muruvvat tushunchasi ona allasi orqali tarannum etilgan. Allada iltijo-yu sehr, mehr qolaversa, bu dunyoda eng nozik his-tuyg'ular, ezgu tilaklar mujassam. Chunki, ona allasigina jajji

chaqaloqning qalbiga mehr-muruvvat, muhabbat, oqibat, iymon va insof tuyg'ularini singdira oladi. Ona allasidan bahramand bo'lgan yurtimiz yoshlari momolari, ota-bobolari yaratgan qadriyatlariga mehr qo'yib, ular an'anasini davom ettiradilar. Bundan tashqari jamoada "Sumalak sayli", to'y marosimlari bilan bog'liq udumlar "Kelin salom", "Beshik to'yi" kabi bir qator dasturlarida qadimiy urf-odat va an'analarimiz o'z ifodasini topgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik ansambllari faoliyatida yuksak insoniy fazilat bo'lmish mehr-muruvvatni aks ettiruvchi folklor sahna ko'rinishlari ko'payib bormoqda. Folklor-etnografik ansambllari o'z dasturidagi marosimlar, qo'shiqlar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turli xil namunalarini o'z muxlislariga tanishtirish orqali ona diyorumizning muqaddas an'alariga sodiq qolish, uni e'zozlashni ibrat qilib ko'rsatishlari ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash, yoshlarni nomoddiy madaniy merosga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, xalq qadiryatlarida mujassamlashgan ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari qoshida "Folklor san'ati", "Xalq ijodiyoti", O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi", "Folklor ijrochilik san'ati" deb nomlangan to'garaklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi globallashuv jarayonida nomoddiy madaniy meros muhofazasi juda ham dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda yoshlar ongini turli xil mafkuraviy tahdidlardan, qolaversa "ommaviy madaniyat" deb atalmush illatdan himoya qilishda xalqning noyob ma'naviy merosi, milliy qadiryatlarimiz asosiy omillardan hisoblanadi. Ommaviy madaniyat xoh G'arb xoh Sharq bo'lsin uning ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. U yildan yilga inson shaxsiga, uning estetik tafakkuriga juda katta kuch bilan daxl qiluvchi hodisaga aylanib bormoqda. Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy axloqqa zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan xatarli.

Xalq ogʻzaki ijodiga oid doston, ertak, qoʻshiq, maqol va boshqa janrlarda ilgari surilgan gʻoyalar asrlar davomida xalqning yosh farzandni tarbiyalash vositasi boʻlib kelgan. Ularda talaba-yoshlar oʻzbek uchun vatan, xalq, ona, ilm, gʻurur naqadar muqaddas tushunchalar ekanligini anglab yetadi.

Toʻgaraklar badiiy havaskorlik sanʼatini rivojlantirish, yoshlarda milliy qadryatlarimizga boʻlgan munosabatlarini shakllantirish, ushbu meros orqali oʻzligimizni anglatish, yoshlarni ota-bobolarimizdan meros qolgan betakror sanʼatga boʻlgan mehrini oshirish, yoshlar orasida havaskor lapar, oʻlan, aytishuv, katta ashula ijrochilarini aniqlab, ularni keng targʻib qilish, talaba-yoshlarni nomoddiy madaniy meros boʻyicha bilimlarini mustahkamlash, yoshlarni ijrochilik sanʼati boʻyicha iqtidorlarini koʻrsata olish maqsadida tashkil etiladi.

Toʻgarak qatnashchilarini jalb etish muhim ishlardan hisoblanadi. Shu sababli ishni tashviqot yuritishdan boshlash lozim. Oliy taʼlim muassasasining barcha bino kirish qismida chiroyli eʼlonlar yopishtirilishi lozim. Eʼlonda toʻgarak qachon, qayerda va kim tomonidan ishtirokchilar roʻyxatga olinishi koʻrsatilishi shart. Ansambl qatnashchilari birdaniga yegʻilmaydi. Qabul qilinganlar orasida faol qatnashadiganlarni aniqlab, ular orqali ham tashviqot ishlarini yuritish kerak.

Mashgʻulotlarni tashkil etish – toʻgarak mashgʻulotlar xonasi jamoaviy faoliyat uchun moslangan boʻlib, xushhavo boʻlishi lozim. Javonlarda toʻgarak ishiga zarur maxsus dastur, metodik qoʻllanmalar, nota toʻplamlari, disklar, video yozuvlar kabi vositalar boʻlishi nazarda tutiladi. Shuningdek javonlarda esa ansambl ishtirokchilarining liboslari va taqinchoqlari saqlanadi. Xonada atoqli sanʼatkorlarning rasmlari, toʻgarak faoliyatiga doir qoʻllanmalar, afishalar boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Mashgʻulotlar asosan haftasiga 2 marta 3 soatdan otkazilishi maqsadga muvofiq. Toʻgarak mashgʻulotlari bir vaqtda olib borilishi shart.

Badiiy rahbar toʻgarakda mashgʻulotlar oʻtkazar ekan talabalarga har tamonlama bilim berishga va ijro malakalarini shakllantirishga harakat qilishi lozim. Bunda oʻrgatilishi lozim boʻlgan musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati va vazifalarini aniq belgilab olishi shart. Toʻgarak tarkibidagi har bir guruh bilan mashgʻulotlarning natijasi tahlil qilib boriladi.

Oʻquv soatlari yakka mashq, yalpi jamoa va raqs va sahna harakati shakli mashgʻulotlariga boʻlinadi. Rahbar ishtirokchilarning tayyorgarlik darajalariga qarab birinchi soatni yakka, guruhli mashgʻulotlarga, ikkinchi soatni jamoaviy (yalpi) mashgʻulotlar, uchinchi soatni esa raqs va sahna harakatlariga ajratish maʼqul. Yangi kelgan ishtirokchilar uchun qoʻshimcha mashgʻulot vaqti ajratish tavsiya etiladi.

Ayni paytda vatanparvar, insonparvar, komil insonni umuminsoniy milliy qadriyatlar uyg'unligida tarbiyalash mumkinligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunda milliy o'zlikni anglashga e'tibor qaratish, kishida milliy g'ururni tarbiyalash, boshqa insonlarga hurmat tuyg'usini qaror toptirish muhim sanaladi. Zotan, tug'ilib o'sgan joyiga muhabbat, oilaga, ona tiliga, milliy odatlar va an'analarga munosabat shaxsni fuqaro sifatida xarakterlaydi. Shu bois folklor-etnografik jamoalari ota-bobolarimiz asrlar bo'yi asrab-avaylab kelgan qadriyatlar orqali yoshlarni ma'naviy-ahloqiy qiyofasini shakllantirishda, kelajagi buyuk o'zbek yurtining haqiqiy egalari bo'lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Yo'ldasheva S. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. T.: Navro'z – 2014.*
2. *Tuzuvchi va mas'ul muharir: Yo'ldasheva S. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. Ilmiy seminar materiallari. T.: Navro'z – 2014. –*
3. *Tuzuvchi va mas'ul muharir: Yo'ldasheva S. O'zbek xalqining milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlari. Ilmiy to'plam. T.; Navro'z – 2014.*
4. *Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – 2007.*
5. *Nazarov Q.N Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – T.: Faylasuflar milliy jamiyati – 2004.*

MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTINING HOZIRGI BOSQICHIDA YOSHLAR TARBIYASINING DOLZARB VAZIFALARI

Bo'stonov Abduqahhor Sodiqovich

Namangan viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish
metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada hozirgi davr yoshlar tarbiyasining obyektiv omillariga, yoshlar tarbiyasida ta'lim muassasa, oila va ijtimoiy muhitning birligiga e'tibor qaratilgan. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishida amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillar hamda tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalari tushuntirilgan.

Kalit soʻzlar: maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya, ijtimoiy muhit, taʼlim-tarbiya, oila, tamoyil, uzviylik, pedagogik-psixologik.

Bugungi kunda dunyoda globallasuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka yangi tahdid va xatarlar tobora koʻpayib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya sohasida amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda[1]

Har bir inson taraqqiyotning maʼlum bir bosqichidagi jamiyatda, yaʼni zamon va makonda yashaydi, davr va ijtimoiy muhit shaxs shakllanishida asosiy rol oʻynaydi. Yoshlar tarbiyasida davrning hususiyatlaridan kelib chiqish zarur. Hozirgi davrning asosiy hususiyati bu – globallasuv va oʻta axborotlashgan jamiyatda yashayotganligimizdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev soʻzlari bilan aytganda, “bugungi kunda shiddat bilan oʻzgarib borayotgan hayot oldimizga qoʻyayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida oʻylar ekanmiz, ularning yechimi aynan taʼlim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak maʼnaviyat va maʼrifat asosida shakllantirish bilan bogʻliq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”[2].

Taʼlim-tarbiyada yoshlarning hayotiy qiziqishlari va moʻljallari albatta hisobga olinishi kerak. Bunda masalaning ikki jihatini bilish va eʼtiborga olish zarur. **Birinchidan**, oʻquvchi va talaba yoshlarning hayotiy qiziqishlari va moʻljallari ularning ehtiyoj va maqsadlari bilan mos boʻlishi zarur. **Ikkinchidan**, ularning hayotiy qiziqishlari va yoʻnalishlarini, maqsadlarini istiqbolli tarzda toʻgʻri shakllantirilishi masalasi. Yaʼni, bola oʻzicha nimaga qiziqsa va nimani xohlasa, shu narsaga yoʻnaltirish emas, balki unda hayotiy (avvalo kasbiy) motivlarni uning iqtidoridan kelib chiqib, maqsadga muvofiq istiqbolli shakllantirish lozim.

Yoshlarga taʼlim-tarbiya berish bu – ularni mustaqil hayotga tayyorlash degani. Bu murakkab, shu bilan birga uzoq muddatli uzluksiz jarayon. Oʻquvchi yoshlar tarbiyasida, ular jamiyatda oʻz oʻrnini topishida oila muhiti birinchi oʻrinda turadi.

Taʼkidlash lozimki, oila va mahalladagi katta yoshlilar barchasi oʻzlari bilgan-bilmagan, tushungan-tushunmagan holda ijtimoiy tarzda ustoz pedagogdirlar. Yaʼni, katta avlod bolalarga nisbatan oʻqituvchi, psixolog, tabib, kasb oʻrgatuvchi usta, huquqshunos va boshqa koʻplab ijtimoiy-kasbiy funksiyalarni bajaradi. Bundan xulosa shuki, ota-onalarda va umuman oila muhitida pedagogik-psixologik savodxonlikni oshirish lozim.

Mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash va sohani yangi bosqichga ko'tarishga oid davlat hujjatlarida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish vazifasi qo'yilgan[3]. Bunday kreativ, ayni vaqtda strategik yondashuvlardan biri jamiyatda pedagogik savodni oshirishdir. Oila va jamiyatda zamonaviy pedagogik savodxonlikni oshirishning bir qator yo'llari mavjud. Fikrimizcha, ulardan eng samarali shakli – o'zbek xalqining milliy mentalitetidan, etnopsixologik hususiyatlaridan kelib chiqib, hozirgi davrning muhim hususiyatlari va talablarini hisobga olgan holda oila pedagogikasi uchun umummamlakat miqyosida foydalaniladigan ommabop ijtimoiy-tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqish, shu dasturlar asosida telemashg'ulotlar olib borishdir.

Biz kattalar, pedagoglar ko'pincha farzandlarimizga, o'quvchilarimizga nazorat qilinishi, ta'sir o'tkazilishi kerak bo'lgan ob'yekt sifatida qaraymiz. Natijada, bolalar asosiy diqqat-e'tibori va harakatini o'z-o'zini rivojlantirishga emas, balki kattalarning nazorat bosimidan chiqishga qaratadi.

Ma'naviy – ma'rifiy tarbiya sohasidagi faoliyatimizda quyidagi tamoyillar asosida ish olib borish muhim ahamiyatga ega:

Oddiylik, qiziqarlilik va komplekslilik. Tarbiyaviy ishlar mazmun-mohiyatan o'quvchining yoshi, psixofiziologik hususiyatlariga mos, yoshlar uchun qiziqarli va emotsional ta'sirchan bo'lishi lozim. Shu bilan birga **oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash[3], ya'ni** oila muhiti, mahalliy ijtimoiy muhit albatta diqqat e'tiborda bo'lishi talab etiladi.

Rasmiyatchilikka, to'rachilik va shiorbozlikka yo'l qo'ymaslik. Aks holda o'zimizni o'zimiz aldagan bo'lamiz. Asosiy e'tibor jarayonning o'zigagina emas, pirovard natijaga, samaraga qaratilishi kerak.

Tizimlilik va uzviylik tamoyili. Tarbiyaviy jarayon konseptual asosda, yaxlit tizim va aniq chora-tadbirlar ko'lamida, barcha bosqich va yo'nalishlarda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lsagina ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni uzluksiz, izchil va sobitlik bilan olib borilsagina, o'quvchi yoshlar qalbi va ongiga yetib boradi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi g'laballashuv sharoitida tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalari quydagilardan iborat:

- fuqarolarda umumiy pedagogik savodxonlikni oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasining bola huquqlariga, yoshlarga oid qonun

hujjatlari va ular asosida ishlab chiqilgan tarbiyaviy ishlarning huquqiy-me'yoriy asoslari bo'yicha bilim darajasini oshirish;

- ma'lumki, bolalarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga oid huquqiy-meyoriy hujjatlar juda ko'p. Bu hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish va bir-biri bilan optimallashtirish kerak. Bu chorani tajribali pedagoglar va mutaxassislar tomonidan yoshlar tarbiyasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish bilan qo'shib olib borish lozim;

- bolalar va yoshlar tarbiyasiga qo'yilayotgan asosiy talablar ta'lim muassasasida, oilada va ko'chada har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Shundan kelib chiqib, olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning, shuningdek, bu yo'nalishda ta'lim muassasasi-oila-mahalla hamkorligidagi ishlarning uzviyligi, uzluksizligi va izchilligini ta'minlash masalasi muhimdir;

- nazariyotchi olimlar va tajribali amaliyotchi pedagoglar hamda psixologlar hamkorligida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi yoshlar muammolarini, ularning hayotiy mo'ljallari, ehtiyoj va qiziqishlarini maxsus o'rganilishi lozim. Aniqlangan xulosalar asosida tarbiyaviy ishlarni ham tashkiliy-boshqaruv jihatdan, ham mazmun-mohiyatan takomillashtirib borish zarur. Zero, davlatimiz tomonidan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish vazifasining qo'yilgani bu masalaning muhimligini ko'rsatadi [1].

- kattalar va bolalar o'rtasida, ya'ni ota-ona va farzand, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ziddiyatli holatlarni pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq qilinishi kerak. Ota-onalar bilan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri haqida pedagogik-psixologik bilimlardan foydalanish zarur.

Tarbiya masalasi bir jihatdan olib qaralsa, juda jo'n va oddiy, uni hammamiz har doim va har joyda bajaramiz. Bu borada go'yo hamma narsani bilamiz. Ammo, tarbiya ishi o'ta mashaqqatli bo'lib, "igna bilan quduq qazish"ga o'xshaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nafaqat yuqori darajada bilimli, shu bilan birga, yaxshi tarbiya ko'rgan, keng dunyoqarashli, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak yoshlar har qanday murakkab muammolarni hal etishga qodir bo'ladi. Shu bois o'quvchilarni dunyoni to'g'ri idrok etishga o'rgatishda sifatli ta'lim bilan birga samarali tarbiya beradigan tizim ham nihoyatda zarur. Shuning uchun ta'lim-tarbiyaga oid davlat hujjatlarida o'quvchi va tarbiyalanuvchilarni umuminsoniy

qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va onggiga mustaqillik g'oyalari yanada chuqur singdirish hamda yot g'oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda[4]. Demak, ta'lim-tarbiyaning jamiyat rivojidadagi yuksak mavqei to'liq anglatish orqali bilim olish va tarbiyali bo'lishga intilishni yosh avlod uchun eng muhim vazifaga aylantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-son Qarori*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. "Ma'rifat" gazetasi, 2017-yil 78-son*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 71-maqсад.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni*

TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARINING O'RNI

Mirzaeva Feruza Salimovna
Oriental universiteti magistranti.

Annotatsiya. *Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ta'lim bo'lib bu inson bilan bog'liq, qizig'i bu jarayonning obyekt ham subyekt ham inson hisoblanadi. Shunday ekan oliy ta'limni sifati ham inson bilan bog'liq hisoblanadi. Oliy ta'limda sifatni yaxshilash uchun inson resurslarini, uning mohiyatini, imkoniyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada "Inson resurslari" tushunchasining mazmuni va mohiyati va uni shakllanishi, ishlab chiqarish tizimida inson resurslari haqidagi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *talim, inson resurslari, jarayon, ehtiyoj, psixo-fiziologik sifatlari, salohiyat, demografiya.*

Inson resurslari – odamlardir. Ular faqat moddiy ne'matlar yaratibgina qolmay, ne'matlarni iste'mol ham qiladilar. Odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari jihatidan bir xil emaslar. Bunga ularning jinsi, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi va boshqa ijtimoiy, psixo-fiziologik sifatleri sabab bo'ladi. Shuning uchun biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Mehnat sohasida odamlarning muhim ehtiyojlari amalga oshadi, lekin hamma ehtiyojlari ham ro'yobga chiqavermaydi. Shu boisdan inson mehnatidan samarali foydalanish uchun uning shaxs sifatidagi talablarini ham esda tutish muhimdir. Boshqacha aytganda, iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi shuni taqozo qiladiki, murakkab xo'jalik mexanizmining amal qilishi inson resurslarining sifat darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyatda insonning rivojlanishi korxonalar talablari va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. «Inson resurslari» aholi faol qatlaminin salohiyatga ega qismiga ijtimoiy mehnat munosabatlarining asosiy elementi sifatida qaraydi va quyidagilarni qamrab oladi:

inson resurslarini ifodalovchi «mehnat resurslari», «mehnat salohiyati» tushunchalarini aniqlab olish;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar ta'siri ostida inson resurslari va mehnat salohiyatining shakllanishini;

inson resurslaridan, mehnat salohiyatidan foydalanish nima ekanligini;

inson resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanishni hududiy jihatdan o'rganishning ahamiyatini anglash ko'maklashadi;

bozor munosabatlari, iqtisodiy islohotlar inson resurslaridan foydalanishda qanday talablar qo'yishini ko'rsatib beradi.

Inson resurslaridan foydalanish har bir korxonalar miqyosida ham o'z ko'rsatkichlariga ega. U jamiyat miqyosida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. «Inson resurslarining shakllanishi» deganda, odatda, inson resurslarining doimiy ravishda yangilanib turishi nazarda tutiladi.

Hozirgi davrda O'zbekiston o'z mehnat salohiyatiga ham ega. Inson salohiyatining negizini tashkil etuvchi mehnat zahiralari 1997 yilda butun aholining 48,7 foiziga teng edi. Shundan buyon bu zahira har yili 210-220 ming nafarga ko'payib bormoqda va 2004 yilga kelib ular 55.8 foizni tashkil qildi.

Mehnat zahiralari shakllanishi, avvalambor, aholining yosh va jins tarkibi orqali aniqlanadi. Uning o'zgarishi nafaqat mehnat zahiralari, balki jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida ham o'z aksini topadi. Aholining yosh va jins tarkibi o'zgarishidagi eng muhim natijalardan biri uning mehnatga yaroqli qismidagi o'zgarishlar hisoblanadi. Mehnatga yaroqli yoshdagi aholi nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlarining o'zgarishi mehnat resurslari shakllanishiga va u orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sur'atlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Aholining yosh tarkibi inson resurslari takror barpo qilinishi jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Chunki, tug'ilish va o'lim jarayonlari aholining yoshi bilan uzviy aloqador. Aholining mehnat faolligi 18-19 yoshdan, qoloq mamlakatlarda 10-14 yoshdan kuchaya boshlaydi. Tadqiqotlar inson ta'limiy darajasi oshishi bilan uning nisbatan past yoshlarda ish bilan bandligi o'rtasida teskari aloqa mavjudligidan dalolat beradi.

Yosh o'zgarishi bilan inson iste'mol qiladigan moddiy ne'matlarning nafaqat hajmi, balki tarkibi ham o'zgaradi. Agar, o'rtacha iste'molni 100% deb belgilasak, unda 10-14 yoshli bolaning iste'moli 82%ni, 30-39 yoshdagi kishiniki 129%ni, 60-64 yoshdagi odamniki esa 70,9%ni tashkil etishi venger olimlari tomonidan aniqlangan. Yosh o'zgarishi bilan insonning mehnat unumdorligi ham o'zgaradi. Bunda organizmning fiziologik xususiyatlari asosiy o'rin tutadi. Agar 18-20 yoshdagi 2 nafar odam bir kunda 1,5 ming dona g'isht quysa, 50-59 yoshdagi shuncha odam bir kunda 500 dona g'isht qo'ya oladi. Iqtisodiy nuqtai nazaridan mehnat qobiliyati bo'yicha aholini guruhlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda aholi uch guruhga ajratib o'rganiladi. Jumladan:

- mehnatga yaroqli yoshgacha;
- mehnatga yaroqli yoshdagi;
- mehnatga yaroqli yoshdan keyingi.

Aholining guruhlarga ajratishda ularning yoshi chegaralarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Bu masalani hal etishda huquqiy asoslangan va amalda mavjud bo'lgan yosh chegaralarini ajratish muhim rol o'ynaydi. Mehnatga layoqatli yosh chegarasi davlat tomonidan aniqlanadi. Bunda inson organizmining nafaqat biologik xususiyatlari, balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi, aholining turmush tarzi, umumiy, maxsus va oliy ta'lim tizimining holati, o'rtacha umr davri va boshqalar ham hisobga olinadi.

Aholi va inson resurslarining muhim sifat jihatlarini ularning ta'limi va kasbiy malaka darajasi ifodalaydi. U ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi va uning qatnashuvchisi bo'lgan insonni har tomonlama rivojlantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqadi. Aholini ijtimoiy-demografik tomondan o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ularni ishlab chiqarishga to'liq jalb etish, mehnat unumdorligi va mehnatga haq to'lashning barchasi bilim, kasb-korlik, malaka darajasiga bog'liq. Biroq, hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, respublikamizning ba'zi tarmoqlarida tashkil etilgan yangi ish joylari va kadrlar tayyorgarligi, bilimi o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Shuningdek, aholi safarbarligining barcha

(hududiy, kasbiy, ijtimoiy) ko‘rinishlari sust darajada. Vaholanki, jahondagi ko‘pgina rivojlangan davlatlar, jumladan, AQShda ishchilarning safarbarligi yuqori darajadali bilan ajralib turadi. Ishchi kuchining ko‘chuvchanligi bir yilda o‘rtacha 12-36 foizni, masalan, 1989-1990 yillarda boshqa shtatga ko‘chuvchilar umumiy bandlarning 3,5 foizini tashkil etdi, 20-30 yoshlilar orasida esa bu ko‘rsatkich 6 foizgacha o‘sgan.

Mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ikkinchi bosqichini boshidan kechirayotgan hozirgi davrda asosiy tarmoqlarda ishlab chiqarish pasayishini butkul bartaraf etish, uni barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash vazifasi turibdiki, bunday sharoitda aholining safarbarligi juda zarurdir. Chunki bu davrda ishchi kuchini tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni kuchayib boradi.

O‘zbekistonda inson resurslari va aholining safarbarligi past darajada bo‘lib, bu ishchi kuchi harakatini, uning hududiy qayta taqsimlash imkoniyatini cheklab turibdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan oxirgi yillarda olib borilayotgan o‘zgarishlarga qaramay, O‘zbekiston aholisining safarbarligini yetarli darajada deb bo‘lmaydi. Bunday past safarbarlik, ayniqsa, qishloq aholisi o‘rtasida yaqqol ko‘rinadi. Bu esa ularni industrial mehnatga faol jalb etishga to‘sqinlik qiladi.

Ishchi kuchi tayyorlashda bizda yaqin vaqtgacha ekstensiv usullar ustunlik qilib keldiki, bu hol sifat ko‘rsatkichlariga zarar keltirgan holda miqdor ko‘rsatkichlari ketidan quvishda namoyon bo‘ldi. Mutaxassislar tayyorlash keng ko‘lamda olib borilgan bo‘lishiga qaramay, yuqori malakali ishchilar, noyob kasb egalari yetishmovchiligi vujudga keldi. Bu esa mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *SH.M.Mirziyoyev: “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Toshkent-2018 5-iyun.*

2. *A.Xayitov. “Inson resurslarini boshqarish” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.-Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 43-bet.*

3. *Abdurahmonov Q.X., va boshqalar., Inson taraqqiyoti.Darslik . T-«Fan va texnologiya».2014.-234 b.*

4. *Карташева Л.В. Управление человеческими ресурсами. Учебник. - М.: INFRA-M, 2014.-456 s*

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Sirojov Qilichbek Ochilovich
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: *islohotlarning provard maqsadi faravonlikni taminlash bo‘lib bu inson bilan bog‘liq, qizig‘i bu jarayonning obyekt ham subyekti ham inson hisoblanadi. Shunday ekan talimdagi islohotlar jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada talim tizimidagi illohotlat oily talim tizimi misolida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *talim, islohotlar, jarayon, ehtiyoj, psixo-fiziologik sifatlari, salohiyat, demografiya.*

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamalikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e‘tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlantirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e‘tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, intellektual mulk ulushi Evropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020 yilning 12 oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish ham “Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” mavzusiga bag‘ishlangan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratdi.

Xususan, ta‘lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – **“Ta‘lim to‘g‘risida”**gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur qonunga asosan ta‘lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta‘lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi. Shuningdek, qonunga ko‘ra, davlat oliy ta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta‘lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish

ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya tomonidan beriladigan bo'ldi. Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Namangan davlat universitetida ham izchil amalga oshirib kelinmoqda. Binobarin keyingi uch yil ichida fakul'tetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta'im yo'nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga etkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo'lgan universitet talaba yoshlari soni 5100 nafardan qariyb 21000 nafarga etdi.

Professor-o'qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga etdi. Universitetda 2018-2019 o'quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 fizni tashkil etib, bironta ixtisoslik bo'yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib borgan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta'lim sifatini ta'minlash yo'lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo'yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 17 ta tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish maqsadi belgilab olingan. Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, YUrisprudentsiya (faoliyat turlari bo'yicha), Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), Zooteknika: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 2021 yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma'noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Universitet yirik ilmiy-tadqiqot markazi sifatida Namangan davlat universitetida media markaz tashkil etish, Akvakul'tura bo'yicha o'quv-amaliy trenajer tashkil etish, "Dorivor o'simliklardan shifobaxsh ichimliklar

tayyorlash”, shifobaxsh profilaktik sumalak ishlab chiqarish texnologiyasi, Farg‘ona vodiysida tarqalgan kamyob va yo‘qolib borayotgan hamda endem turlarning tirik kolleksiyasi, elektron fotoal‘bomi va raqamlashtirilgan elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish kabi yirik xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni.
3. A.Xayitov. “Inson resurslarini boshqarish” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. -Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 43-bet.
4. Abdurahmonov Q.X., va boshqalar., Inson taraqqiyoti.Darslik . T-«Fan va texnologiya».2014.-234 b.
5. Карташева Л.В. Управление человеческими ресурсами. Учебник. - М.: INFRA-M, 2014.-456 s

OLIV TA‘LIMDA KOGNITIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHDA TA‘LIM VA TARBIYANING UYG‘UNLIGI

Yusupov Bekzod Ergashevich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim tizimini rivojlantirishga xos bo‘lgan ilg‘or tamoyillarning tavsifi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillarini tadqiq qilgan xorijiy olimlarning tadqiqot natijalari tahlili xususida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlari: ta‘lim tizimi, shaxs, jamiyat, ilg‘or tamoyil, uzviylik, uzluksizlik, integrativlik

Rus pedagog olimi A.M.Novikov pedagogik ta‘limni bir butun tizim sifatida isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab bergan bo‘lib, bunda u ta‘lim maqsadlarining to‘rtta asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan: shaxs, jamiyat, ishlab chiqarish va ta‘lim sohasining o‘zi. Unga ta‘lim tizimini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, uning ilg‘or xususiyatga ega

bo'lishi va inson hayoti davomida ta'lim olishi sifatida uzluksiz ta'limga yo'nalganlik kabilar kiradi [1]. Aytib o'tilgan yo'nalishlarning adolatliligini tan olgan holda, ta'limni rivojlantirishga xos bo'lgan ilg'or tamoyillar ta'rifiga to'xtalib o'tamiz.

Oliy ta'limdagi kognitiv faoliyat avvalambor ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi prinsipiga asoslanadi. Ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi barcha ta'lim dasturlari va turli darajada va yo'nalishdagi ta'lim standartlarini ketma-ket o'zlashtirish orqali ta'minlanadi. Bunda ta'lim dasturi muayyan tartibda tuzilgan bilimlarning majmuasini tashkil qilib, ularni egallash ta'lim oluvchilarga o'qishni davom ettirish yoki ularga muayyan lavozimni egallashga imkon beruvchi malakani olishga imkon beradi. U muayyan darajadagi va yo'nalishdagi ta'limning mazmunini mustahkamlaydi.

Uzluksizlik ta'limning tizim hosil qiluvchi omili bo'lib, har bir inson shaxsiyatining doimiy rivojlanishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojiga xizmat qiladi. Bu bilan ko'p sonli ta'lim tarkibiy tuzilishlari - asosiy, parallel, bazaviy va qo'shimcha, davlat va jamoat, rasmiy va norasmiy turlarining kelib chiqishi bilan belgilanadi. Ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro shartlanganligi, o'zaro bir-biriga darajalari bo'yicha bo'ysunganligi, yo'nalganligi va maqsad-mohiyati bo'yicha muvofiqlashuvi, ular orasida o'zaro ta'sirning ta'minlanishi bu kabi tarkibiy tuzilishlarning butun majmuini yagona tizimga aylantiradi.

Uzluksizlik ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadini ifodalaydi – bu ta'lim jarayonining yaxlitligi, undagi barcha bosqich va darajalarda integrasiyalashuv (umumlashganlik)dan iborat. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim inson ta'limning bir shaklidan boshqa shakliga o'tganligi sababli uzluksiz emas, aksincha muayyan darajadagi va xususiyatdagi malakani olish yoki ishlash orqali u parallel ravishda va zarur bo'lgan hollarda uni boshqacha yo'llar bilan kengaytirishi mumkin. Ham tashkil etilgan davlat va ijtimoiy ta'lim tizimi orqali, ham mustaqil ta'lim olish orqali va hokazo [2].

Integrativlik va uzviylik uzluksiz rivojlanib borayotgan jarayonga rejali boshlanishni kiritishni nazarda tutgan bo'lib, u faqat keyingi tayyorgarlikning bazaviy qiymatini emas, balki uzviy rivojlanayotgan jarayonga rejali boshlanmani kiritishni hamda o'zaro bog'liq bir butunlikning kiritilishini nazarda tutadi.

Shaxs kognitiv faoliyatini rivojlantirish va bu asosda umumbazaviy bilimlarni egallashga yordamlashish, mustaqil o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, innovasion yondashuvlar asosida kreativlik sifatlarini

o‘stirish asosida kognitiv faoliyat mazmunini insonparvarlashtirish va bu asosda shaxsning ichki dunyosi va ma‘naviy sohadagi faoliyatini aks ettiruvchi gumanitar bilimlarni ajratish; ijtimoiy fanlar (huquq, falsafa, etika, estetika, adabiyot, psixologiya va boshq.), dunyoni bilish va qayta qurishda ishtirok etuvchi shaxsning o‘zini o‘zi anglashini shakllantirishga yordam beruvchi, inson huquqlari, erkinliklari, uning sha‘ni va etnomadaniy xususiyatlarini hurmat qilish, madaniy qadriyatlar va axloq normalarini egallash, qurilayotgan jamiyatga, tabiatga g‘amxo‘r munosabatda bo‘lishga moslik; gumanitar ta‘lim mazmunini optimizasiya qilishni bildiradi. Bundan tashqari, mazkur tamoyil pragmatizasiya (aytib o‘tilgan fanlar mazmunining tayyorgarlik yo‘nalishi, bitiruvchining pedagogik faoliyati xususiyatiga yaqinligi), diversifikasiya (majburiy va elektiv (talabaning tanloviga ko‘ra) gumanitar fanlar doirasini kengaytirish) va integrasiya (fanlararo kurslarni o‘qitish va o‘rganishni tashkil qilish)da o‘z aksini topadi.

Shuningdek, shaxs kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun unga qaratilgan tarbiya tizimini ham isloh qilish, ta‘limni tarbiya bilan uyg‘unlikda olib borish talab etiladi. Tarbiya insonga muayyan (jamiyat tomonidan har bir tarixiy taraqqiyot davrida ijtimoiy muhim, ijobiy) qadriyatlar, xulq-atvor prinsiplari, baholash tizimi, o‘ziga, atrofdagi odamlarga, mehnatga, jamiyatga munosabatni shakllantirish maqsadga yo‘naltirilgan ta‘sir o‘tkazishni nazarda tutadi. Ta‘lim-tarbiya butun ta‘lim muhitining bir butun ta‘siri sifatida ko‘rib chiqiladi, vaholanki, tahliliy va pedagogik maqsadlarda u axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy va boshqalarga ko‘ra taqsimlanadi.

Rus olimi O.A.Nikiforov ta‘lim va tarbiya jarayonlarida to‘rtta o‘zaro aloqadorlik jarayonlarini ajratib ko‘rsatadi:

- tarbiyani ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi, u o‘quv jarayoniga kiradi hamda tarbiyalovchi ta‘lim sifatida talqin qilinadi. Tarbiyalovchi ta‘lim– bu shunday ta‘lim turi bo‘lib, unda ogohlantiruvchi ta‘lim jarayoni va ta‘lim oluvchilarning shaxs sifatleri majmuini shakllantirish orasida o‘zaro uzviy bog‘liqlikka erishiladi;

- ta‘lim jarayonida tarbiya ta‘limdan tashqari muayyan tizim yoki muassasa doirasida, unga parallel ravishda (to‘garaklar, jamoat ishi, mehnat tarbiyasi) amalga oshiriladi;

- tarbiya ta‘lim jarayonidan tashqari (biroq uning umumiy maqsad va qadriyatlariga mos ravishda) oilada, mehnat jamoasida, guruhda, jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladi;

- tarbiya boshqa muassasalar (ta‘limiy emas) jamoalar (klublar, diskotekalar, davralar va hokazolar) tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim va tarbiya birligining psixologik mazmuni shundaki, uning asosida shaxs, sifat, dunyoqarash, talabalarning axloqiy sifatлари, ulardagi aqliy qobiliyatlar, estetik ehtiyojlar, did va jismoniy sifatların rivojlanishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новиков А.М. Методология учебной деятельности. - М.: Издательство "Эгвес", 2005. - С. 176.

2. Новиков А.М., Новиков Д.А. Образовательный проект. Методология практической образовательной деятельности. -М.: Эгвес, 2004. - С. 168.

3. Uzluksiz majburiy ta'lim tizimi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. – T.: RTM, 2015. – 208 b.

KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-MA'RIFATNING O'RNINI HAQIDA BUYUK AJDODLARIMIZ QARASHLARI

Ismadiyorov Komil Maxamadiyorovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi assistent o'qituvchisi,

Annotatsiya. Maqolada buyuk ajdodlarimizning komil inson tarbiyasidagi qarashlari tadqiq etilgan. Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda ham jamiyatning bosh maqsadi bo'lib kelgan. Komil inson g'oyasi va komil inson konsepsiyasi ilm-ma'rifat orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda komil inson g'oyasida ajdodlarimizning ilm-ma'rifatni o'rganishga doir ilgari surgan qarashlari barcha davrlar, xususan, bugungi kunimiz uchun ham yuksak ahamiyatga ega. Muallif komil inson tarbiyasidagi ta'lim-tarbiya va ilm-ma'rifatning ahamiyatini buyuk ajdodlarimiz qarashlarini tahliliy tadqiq etgan.

Kalit so'zlar: komil inson, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, buyuk ajdodlar, konsepsiya, adolat, jamiyat.

Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko'rgan insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimlari bilan o'lchangan. Islom dini ta'limotida bilimli insonlar yetuk deb sanalsa, mutafakkirlarimiz qarashlarida komil

inson bo'lish uchun ko'pgina xususiyatlarni egallash lozimligi o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin.

Komil insonni tarbiyalashda ta'lim-tarbiya va ilm-ma'rifatning o'rni haqida buyuk ajdodlarimiz qarashlari bugungi kunda davlatimizda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash konsepsiyasida yuksak ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkir ajdodlarimizdan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va Husain Voiz Koshifiy kabi allomalar ham o'z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq qimmatli fikrlar bayon qilganlar.

Xususan, Abu Nasr Forobiy deydi, inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'magi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Bunga ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali ham erishish mumkin. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi. Natijada inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi, hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'ladi. Komil insonni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi.

Abu Rayhon Beruniyning komil inson tarbiyasidagi qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, komillikning asosini ilmi bo'lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg'u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo'lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir. Beruniyning ushbu qarashlari hamma davrlarda ham o'z ma'no-mazmuni bilan naqadar yuksak ahamiyatlidir.

Komillik g'oyasi zaminimizda chuqur ildiz otgan, uning ta'sirini barcha zamon olimlari ijodida, mutafakkirlari faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin. "Qobusnoma" asarini yozgan Kaykovusning fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, u asarida o'z o'g'liga murojaat orqali kelajak avlodning mukammal qiyofasini yaratishni, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilibolganini anglashimiz mumkin. Farzandlarni komil inson qilib tarbiyalashda ilm va hunar o'rganishga va balki har bir ota-onani o'z farzandiga ilm va hunar o'rgatishga davat etadi.

Yusuf Xos Hojib har bir kishi jamiyatda munosib bo'lib kamol topmog'i kerak, degan qarashni ilgari suradi. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Oilada qobil qizni tarbiyalash haqida fikr yuritar ekan, engavvalo, onalarning ma'rifatli bo'lishlari muhimligini ta'kidlaydi. Farzand tarbiyasi qancha erta boshlansa, shundagina ularning

noo'rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi. Ushbu fikrlar bugungi kunimizda ham naqadar ahamiyatligini anglagan holda aytish joizki, davlatimizda ayollarga qaratilayotgan e'tibor ham barkamol avlodni kamol toptirishga qaratilgan.

Komillikning negizi ma'rifat va ilmlilikdir. Ayniqsa, ular insonni ma'naviy yuksaklikka yetaklovchi buyuk fazilatdir. Shu o'rinda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida ilm egallashning ahamiyati haqidagi fikrlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, ilm inson qalbiga bir shu'la singari kirib borgani sari ilm bepayon ekanligini anglab boradi. Insonlarni ilm sohibi bo'lishga, iymonlilik ilmdan ekanligi, ilm mevasib u mukammal – komil inson ekanligi g'oyasini ilgari suradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi yetuk shaxsni asarlarining qahramonlari timsolida gavdalandirishga urinadi. U komil inson aqli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini uqtiradi.

O'zbekistonda yildan-yilga barkamol avlod g'oyasi, ta'lim-tarbiyasi, ta'minoti izchil takomillashmoqda. Bu borada xalqimiz o'tgan yillarda ulkan yutuqlarga erishdi. Barkamollik cheksiz tushunchadir. Shu paytgacha muayyan komillikka erishgan hech bir zot shu bilan qanoatlanib qolgan emas. Barkamollik – kamolot, komillik, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviy-jismoniy butunlik, tugallikdir.

Alisher Navoiy asarlarida barkamol avlod ta'limi va tarbiyasiga taalluqli fikrlar juda ko'p. Bunda ilmga va olimlarga munosabat alohida ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy talqinidagi ilm hozirgi tushunchamizdagidan ko'ra kengroq ma'noga ega. U fan ma'nosidan tashqari, hunar, kasb-kor, hayotiy tajriba kabi ma'nolarni ham anglatadi. Bir qarashda, yoshlik ilmni yig'ish, to'plash – qarilik esa xarj qilish, sarflash mavsumidir. Chuqurroq yondashganda, ilm shunday xazinaki, u insonga to'q-farovon, boy-badavlat, baxtli-saodatli umr kechirish va qariganda muhtoj bo'lmaslik, qarilik ayyomida xor-zor, qarovsiz qolmasdan, yoshlikda orttirilgan ilm xazinasi evaziga rohat-farog'atda yashash imkoniyatini beradi.

Alisher Navoiy ijodining aksariyat qismi barkamol avlod tarbiyasiga bag'ishlangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu asarlar mazmuni va

g'oyalari o'qib o'zlashtirishning o'zigina kifoya emas. Ular yoshlarimizning hayoti va faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topmog'i zarur.

Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda ham jamiyatning bosh maqsadi bo'lib kelgan. Komil insonni tarbiyalash esa doimo ilm-ma'rifat orqali olib borilgan. Komil insonni tarbiyalashda esa ajdodlarimizning ilm-ma'rifatni ilgari surgan g'oyalari barcha davrlar, xususan, bugungi kunimiz uchun ham naqadar yuksak ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mirzo Ulug'bek Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolardan biri. U, avvalo, yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etadi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta'minlashiga ishonadi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-ona, ayniqsa, o'qimishli ota-ona o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishi lozim.

Husain Voiz Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta'lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash, aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin. U o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota-onalar, muallimlardan bu masalaga jiddiy yondashishlarini talab etadi. Bunda oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. Bolaning to'g'ri so'zli, va'daga vafodor, yaxshi xulqli bo'lib tarbiyalanishida ichki va tashqi muhitning ahamiyati katta.

Komillik yo'li – bu ilm yo'lidir. Boshqacha aytganda inson komillikka o'qish, o'rganish va bilish vositasida erishadi. Bir umrga tolibi ilm bo'lishni tarannum etgan Bobur Mirzo ham ilm-ma'rifat egallash orqali komillikka erishishni ilgari sursa, bilimsizlik, ma'rifatsizlik va johillikni qoralaydi.

Sa'diy Shyeroziy fikricha, oila, ota-onabolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilaning tayanchio tadir. U ma'suliyatli tarbiyachidir. O'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak. Bola qobiliyatli va kam qobiliyatli bo'lishi mumkin. Qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi. Mutafakkir tarbiyani uchta asosiy turga: aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bola tarbiyasida ota-onaga, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi [2. B 120].

Ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganar ekanmiz, komil inson shaxsini yaratishda ilm-ma'rifarning o'rni haqidagi ularning qimmatli qarashlariga guvoh bo'lamiz. Nodonlik, bilimsizlik, ma'rifatsizlik va johillikni qoralash,

adolatli va ma'rifatli jamiyatqurishning asosi ilm-ma'rifat o'rganish, kasb-hunar egallash ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Komil Xorazmiy esailm-hunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy-ma'naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. U insondagi kamtarlikni eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilat deb biladi. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli, komil insonlardir. Chunki kamtarlik insonni turli noxushlik va xijolatdan saqlaydi hamda obro'sini oshiradi.

Mohlaroyim (Nodira)ning inson va tabiatga nisbatan qarashlarida faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an'analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. U tarbiyani insonparvarlik g'oyalari – adolat, insof, xalq manfaati bilan bog'laydi. Nodira hayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'lsa, o'zining bu ezgu ishlari bilan o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi.

Avloniyning fikricha, odam tug'ilishidan yomon xulq bilan tug'ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq paydo bo'ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go'zal xulqlarga odatlanib, voyagayetsa, u barchaning hurmati va e'tibori gasazavor bo'ladi. Aksincha bo'lsa, har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo'lib yetishadi [3.B 7].

Komil inson muammosi insoniyat tarixida hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan va bu mavzuga doir ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Biz XXI asrni intellektual, hartomonlama rivojlangan yoshlar asri deymiz. Bosh maqsadimiz komil inson tarbiyasi bo'lar ekan, bunda biz uchun bosh mezon yoshlarni har tomonlama yuksak bilimli qilib kamolga yetkazishdir. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – ilmsizlikdir” [1]

Bugungi murakkab va shiddatli XXI asrda yashab, insoniyat oldida turgan muhim masalalardan biri odamlarni ma'naviy tanazzuldan saqlashdir. Toboro murakkablashib borayotgan jarayon qarshisida turib qolgan insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolish yangi ming yillikda umumbashariyat muammosi bo'lib qolmoqda. Ushbu muammo esa yosh avlodga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifat-u madaniyatga yetaklash muammolari bilan ham dolzarb bo'lib turibdi. Tafakkur rivoji, fan-texnika taraqqiyoti, bugungi kunda hadsiz axborotlar, globallashuv jarayonlari insoniy sifatlarga, ma'naviy-axloqiy tushunchalarga va nihoyat, komillik mezonlariga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan murakkab davrda yashar ekanmiz yoshlarimizni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash masalasi dolzarb

ekanligini unutmashimiz kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz tomonidan – mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash maqsadida 2020-yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb nom berildi.

Jahon svilizatsiyasiga buyuk hissa qo’shgan O’rta Osiyolik allomalar, islom olamidagi buyuk ajdodlarimiz bilim masalasiga jiddiy e’tibor qaratganlar. Komil insonni tarbiyalashning birdan-bir yo’li ana shu bilimda deb bilganlar. Zero, bugun insoniyatni har qanday halokatdan ilm-ma’rifat qutqaradi. Najot yo’li, saodat yo’li, komillik yo’li ilm-ma’rifatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi.-2020.-24 yanvar*
2. *Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018.*
3. *Kaykovus. Qobusnoma– T.: “Istiqlol”, 1994.*
4. *Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami – T.: “Fan”, 2001. 17-jild*
5. *Sa’diy Shyeroziy. Guliston – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.*
6. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq– T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.*
7. *Faxriddin Hasanov. Ma’naviyat yulduzlari – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2011.*

TALABA YOSHLAR IJTIMOIIY MA’NAVIY KAMOLOTIDA FALSAFIY BILIMLARNING AHAMIYATI

Mamadaliyev Muzaffar Umarovich

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va
psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada falsafa fani, falsafiy bilimlar, tafakkur, haqiqat, ezgulik hamda ma’naviy barkamollik haqidagi fikrlar ochib berilgan. Shuningdek, falsafiy bilimlar, bilish nazariyasi, mantiqiy tafakkur usullari bilan bog‘liq bilimlar aytib o‘tilgan.*

Kalit soʻzlar: falsafa, falsafiy bilim, ong, tafakkur, taraqqiyot, qadriyat, fan, tabiat, olam, fikrlash, mantiq, haqiqat, ezgulik.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida taʼlim muhitini oʻzgartirish milliy manfaatlarni umuminsoniy manfaatlar bilan uygʻunlashtirish, falsafiy taʼlimni rivojlantirish – milliy taraqqiyot sharti [1] sifatida koʻrsatilmoqda.

Bilim – bu inson hayoti, uning kamoloti uchun maʼnaviy yuksalish pogʻonasi, tafakkur ozuqasi, dunyoqarashning asosidir. Insonning bilimi uni hayvondan farqlagan boʻlsa, uning tili esa zohiran va botinan ijtimoiylashuvini boshlab berdi. Insonning bilish darajasi yuksalgan, bilish imkoniyatlari kengaygan hozirgi davrda falsafiy bilimlarning ahamiyati yanada ortadi. Negaki, falsafiy bilim umumiy, maxsus va kasbiy bilimlarni bir-biriga yaqinlashtirib, sistemaga soluvchi omildir. Chunki, falsafiy saboqlar, munozarayu baxslardan bezgan inson ham oʻzi anglamagan, sezmaganda falsafiy bilimlarga tayanadi.

Bilimli va maʼnaviyati yuqori boʻlgan olim insonlar tabiatan falsafiy bilimlarga qiziquvchan boʻladilar. Falsafiy bilimlar, shu bois ham barcha mutaxassislar uchun zaruriy hisoblanadi hamda ular taʼlimning yuqori bosqichlarida oʻqitiladi.

Tarix fani oʻtmishdan voz kecha olmagan kabi insoniyat oʻzining koʻp ming yillik qadriyatlaridan ham yuz oʻgira olmaydi. Zero, davrlar-siyosatlar, saltanatlar yoʻq qila olmagan va yoʻq qila olmaydigan qadriyatlar baribir oʻzining kerakli ekanligini bildirib turaveradi, ularsiz insoniyat goʻyoki oʻz aqli va idrokini yoʻqotib qoʻygandek.

Falsafa koʻp qirralik, koʻp jihatlik, koʻp mazmunlilikni yoqtiradi. Tushunish va anglash ham biror predmet yoki hodisaga nisbatan turlichalikka falsafa qarshi emas. Hayotni, turli odamlar turlicha talqin qiladilar. Chunki odamlarning saviyalari, ichki dunyolari, bilimlari har xil. Teran tafakkur esa chuqur bilim, tiniq fikrlik, oʻtkir mushohada bilan amalga oshadi. Falsafa bamisoli ummon, unga shoʻngʻigan odam yo marvarid, yoki keraksiz, qadrsiz tosh olib chiqishi ham mumkin. Kimda mantiqiy tafakkurlash ustuvor boʻlsa, u yangilik yaratuvchidir, aksincha boʻlsa, joʻyali biror narsaga ega boʻlmaydi.

Falsafiy bilimning shakllanishi boshqa dalillarni oʻrtaga olib oʻt oluvchi ichki aktdir. Bu harakat tufayli intellektual shijoatni talab qiluvchi tafakkur mashinasi ishga tushadi va tashqaridan kelgan faktlardan ilmiy manzara yaratiladi. Shu sababdan yagona fikrga asoslanadigan va aylanadigan

dunyoqarashga faqat o'qitish (ma'ruza va seminarlar bilan) orqali erishsa bo'ladi. Lekin ochiq-oydinki, o'qitish jarayonida qaysidir muallif nuqtayi nazarini tinglovchiga to'kib solasiz. Keng fikrlaydigan, mantiqiy xulosalar yasaydigan, xulosalarini boy hayotiy material asosida chiqaradigan faylasufni ma'ruza va seminarlarda o'qitish yoki boshqa yo'llar bilan falsafadan xabardor qilish orqaligina tayyorlab bo'lmaydi. Faylasuf bahs-munozara, chuqur tafakkur yuritish mashqlarida tug'iladi.

Har bir ilm sohasining suyanadigan g'oyaviy qoyasi, asosi bor. Falsafaning ana shunday asosi haqiqat yoki barcha olamlarning sir asrorlaridir. G'irrom g'oyalar, asossiz nuqtayi nazarlar doimo falsafa ortiga berkinadilar.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, faylasuflikka da'vogar har bir insonning bu olamda o'zining aytar so'zi bo'lishi kerak. Boshqalar so'zlaridan keltirish ta'lim jarayonida u yoki bu fikrni isbotlash uchun qo'l keladi, lekin ilmiy faoliyatda xulosa va hukmlar muallif tomonidan chiqarilishi kerak. Jaloliddin Rumiy do'sti Shamsiddin Tabriziy bilan bir majlisda o'tirganlarga "Asl mohiyati bilan o'zingizniki bo'lgan so'zlarni qachon so'zlaysiz?"[2], deya murojaat etgan edi. Boshqalarning so'zlarini parda qiluvchilar boshqalarning qo'shig'ini taqlid qilib kuylayotgan qo'shiqchiga o'xshaydilar. Inson tanasini sog'lomlashtiradigan omil sport, mehnat hamda muhit bo'lsa, uning ma'naviyatini sog'lomlashtiradigan omillar sog'lom g'oya yoki uni bunyod etgan falsafiy bilimlardir. Inson o'z fikriy xulosasida boshqa bilimlarga katta urg'u berib e'tiroz yoki shubhaga borsa, ta'kidlash joizki, barcha bilimlardagi haqiqat mezoni yoki uning salmog'i falsafiy bilimlar va falsafiy tafakkur bilan yaratiladi.

O'z o'tmishini hikoya qilib yuruvchi, lekin odamlar ma'naviy olamidani bexabar ijodkor, faylasuf nafosat sahrosiga kelib qolgan qaroqchiga o'xshaydi. Bugun u bor, ertaga esa-yo'q!

San'at va falsafa sohasida yulduzlar juda ozchilikni, bugun ochilib ertaga to'zib, yo'q bo'ladigan qizg'aldoqlar esa ko'pchilikni tashkil etadi. Keyingilarning dastidan ommaviy axborot vositalarida iqtidorli ijodkorlarga navbat ham tegmay qolishi mumkin.

Falsafiy bilim doimo qadri baland bilimdir. U olamga, odamga qaratilgan qarashlar sistemasidir, tushunarli bo'lgan xulosalar olamidir. Har bir davr o'z faylasuflari oldiga qator savollarni ko'ndalang qo'yadi, javobini kutadi. Barcha bilimlarimizning universal manbasi insoniyat tajribasidir. Tahlil, mushohadalar pirovardida falsafiy bilimlar bo'y ko'rsatadi. Hayot tajribasi, kuzatuv narsa-hodisaning "nimaligini" anglashga yordam beradi.

Nega shundayligining sababini anglash bilan esa falsafa boshlanadi. Olamni anglash – tafakkur – sababiyat formulasi bilan odam faol faylasuflikka yaqinlashadi.

Falsafaning muhokama doirasi shuncha keng-ki, falsafa nima, degan savoldan ko'ra nima falsafa emas, – degan savolga javob berish osonroq. Chunki bu nima, degan savoldan ko'ra, bu nega shunaqa, – degan savolga javob berish qiyindir.

Tibbiyot jasad muammolarini yechish, uni hal etishga qaratidgan faoliyat bo'lsa, falsafa inson ruhi va ma'naviyati, dunyoqarashi bilan shug'ullanadi.

Faylasuf falsafaning asosi haqiqat bo'lgani bois u ba'zi holatlarda jamiyatga, insonga yoqmagan. Insoniyat tarixida faylasuflarning ko'pchiligi uchun hayotlari fojea bilan yakunlangan. Chunki, siyosiy tizimlarning ko'plab boshqaruvi falsafa tomonidan qattiq tanqid qilingan. Shunga qaramay, falsafa o'z tadqiqot o'zanini, haqiqatparvarligini hech narsaga almashtirmadi. Falsafa xolislik va adolatchilik uzra o'z qanotlarini yoygan qushga o'xshaydi. Chigal masalalar ko'ndalang kelganda, bu haqda falsafa nima deydi, degan savol qo'yiladi.

Haqiqat faylasuf uchun asosiy asos bo'lganida edi, ikki karra ikkini to'rtligini ham, to'rt emasligini ham isbotlay oladigan insonni haqiqiy faylasuf sanagan bo'lar edim. Buning uchun qomusiy bilim va ishontirish san'ati kerak bo'ladi.

Falsafaning “men” degan lafzida insonning o'ziga xosligi, betakrorligi, o'zligi yashiringan. “Men” insonning shaxsiyatli individualligidir [3]. Inson o'z shaxsiy manfaati ketidan boshqalar manfaatlariga zid yo'lni tanlashi egoizmga olib boradi. Egoizm odamni o'ziga bo'lgan o'z muhabbatining yetishmasligidir. Ilm fanda shubhaning o'rni beqiyos, lekin olimlarga nisbatan shubhada bo'lmoqlik durust emas. Sizga yetib kelgan shubhali ma'lumot, isbotlanmagan xulosadan voz kechishdan oldin qalbingiz bilan his qiling, unga quloq soling: uning yechimidan fanga, odamlarga va o'zingizga naf bormi? Agar yo'q bo'lsa, vaqtingizni behuda sarflamaganingiz ma'qul.

Shuningdek, tabiat, jamiyat, insonning o'zi tangri bizlarga bergan buyuk ustozlardir. Ulardan o'rganib biz voyaga yetamiz. Demak, bizlarni ko'p sonli ustozlar qurshab turibdi, ular mehribon va benazir. Ularning o'gitlari va bilimlarini olish yoki olmaslik bizning ixtiyorimizda. Modomiki, bilimlar inson kamolotining asosi ekan, kamolot sari ko'tarilib boruvchi inson odamlarga naf keltirmasa, olgan bilimidan ma'no yo'q, u – xudbin.

Zero, inson kamoloti jamiyat manfaatining zinalaridir. Maqsad – odamlar, maqsad – jamiyat manfaati!

Yurtimiz boyligi – tinchlik va yoshlar. Yoshlardan umidvor xalqimiz yurtimiz tinchligi ijodkori bo‘lgan yurtboshiga chuqur minnatdorlikda hayot kechirmoqda. Taraqqiyotimizning lokomotivlaridan biri tinchlik va to‘g‘ri tanlangan yo‘l ekanligi ayni haqiqatdir. Yurtimizdagi holatni qo‘shni mamlakatlarga solishtirib ko‘rilsa, ushbu fikrning nechog‘li to‘g‘riligi, shu yurt farzandi, fuqarosi bo‘lish qanchalik baxt ekani ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
2. Radiy Fish. Jaloliddin Rumi. – T., 1983.
3. Tinchlik va bag‘rikenglik atamaları izohli lug‘ati. –T., 2005. –B.103-104.

TA’LIM MUASSASALARIDA KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANISH SXEMASI VA MODELI

Kayumova Mexribonu Sheraliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot oliy ta’lim
muassasasi, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyat vositachilik boshqaruv vositasidir; u jamoalar va alohida a’zolarining manfaatlari, maqsadlari va faoliyat uslubiga ta’sir qilish orqali harakat qiladi va direktiv boshqaruv usullarini sezilarli darajada to‘ldiradi. Noto‘g‘ri korporativ madaniyat “rivojlanish impulslarini” to‘siq qo‘yishi va ta’lim muassasaning mavjudligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari an’anaviy akademik madaniyatni “professionallar erkin uyushmasi” va yuqori samarali “fikir markazlari” madaniyatini o‘zida mujassam etgan murakkab korporativ madaniyatni rivojlantirish zarurati bilan duch kelmoqda.

Kalit so‘zlar: korporativ madaniyat, ta’lim muassasasi, oliy ta’lim muassasa tizim sifatida korporativ madaniyat; mavzu (topozlar) sifatida korporativ madaniyatni tashkil etish; korporativ rivojlanish; rivojlanishni boshqarish; korporativ madaniyatni shakllantirish.

Maqolada oliy ta'lim muassasa korporativ madaniyatining tizimli ko'inishi keltirilgan, unga quyidagilar kiradi: korporativ madaniyat funksiyalari, korporativ madaniyat darajalari iyerarxiyasi va "mavzu" sifatida murakkab ta'lim muassasaning korporativ madaniyati g'oyasi. Mavzu (topozlar) - bu "joylar" ("hududlar") har bir hudud uchun o'ziga xos qadriyatlar, tamoyillar, standartlar, fikrlash va harakat formatlari bilan ajratilgan va bu hududlar o'rtasidagi chegaralar va o'tishlar qurilgan "makon". Korporativ madaniyat nuqtai nazaridan bular "rol madaniyati", "vazifa madaniyati", "shaxs madaniyati" dolzarb bo'lgan joylardir. Korporativ madaniyatning bunday murakkabligi ta'lim muassasasi sifatida oliy ta'lim muassasa uchun muhim; Bu talabalar uchun turli korporativ madaniyatlarga xos bo'lgan faoliyat va xulq-atvor namunalarini o'zlashtirish orqali yuqori darajadagi mutaxassislarni shakllantirish uchun manbadir. Shuningdek, korporativ madaniyat mantiqiy bosqichma-bosqich shakllantirish sxemasi keltirilgan; korporativ madaniyatni shakllantirish yoki rivojlantirishning tipik muammolari ushbu sxema bo'yicha izohlanadi.

Oliy ta'lim muassasaning "klassik model" va "oliy ta'lim muassasa inqirozi"ning deformatsiyasi hozirgi kunda keng tadqiqotchilar tomonidan kuzatilmogda [1-3]. Ularning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalar endi ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash missiyasiga ergashmaydi, bilim va akademik mustaqillik qiymatini yo'qotadi va biznes korporatsiyalariga aylanadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasa rahbariyati menejer lavozimlarini egallab, oliy ta'lim muassasani biznes ta'lim muassasasi sifatida boshqaradi, professorlar esa bo'ysunuvchi lavozimga o'tadilar va oliy ta'lim muassasa "ilm maskanidan" "bozor joyi" ga aylanadi [4]. Oliy ta'lim muassasalar inqirozi madaniy va tarixiy xususiyatga ega dunyoning ko'plab mamlakatlarida bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Bizning fikrimizcha, "oliy ta'lim muassasa inqirozi"ni sanoat jamiyati oliy ta'lim muassasasidan postindustrial jamiyat talablariga mos keladigan oliy ta'lim muassasaga o'tishning alomati sifatida qarash mumkin. Oliy ta'lim muassasalar boshidan kechirayotgan ushbu inqiroz va noaniqlik davri tarixda birinchisi emas har safar oliy ta'lim muassasalar o'z faoliyati mazmunini yangilash imkoniyatini topib borardi [2, 5-7].

Oliy ta'lim muassasalarga qo'yiladigan yangi talablar va ularning yangi maqsadlari muqarrar ravishda ularning "madaniy turi", o'zlarining korporativ madaniyati orqali "singdiriladi". Korporativ madaniyatga qarab, oliy ta'lim muassasalar postindustrial jamiyat talablariga javob berishi, yetakchi oliy ta'lim muassasalarining yangi guruhini shakllantirishi,

makromintaqalar va mamlakatlar uchun rivojlanish dvigateliga aylanishi mumkin, shuningdek, konservativ an'analarning tashuvchisi bo'lib qolishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalar intellektual faoliyat va ta'lim muassasalari edi, lekin shuning uchun iste'molchiga qaratilgan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar emas edi. Talabalar o'zlarini ko'proq ziyoratchilar sifatida qabul qilishdi, lekin "xizmat xaridorlari" emas. An'anaviy oliy ta'lim muassasa nafaqat bozor hodisasi, balki ishlab chiqarish va savdo bilan shug'ullanadigan ta'lim muassasalarga ham aniq qarshi edi [8-9].

- Asosiy qarorlarni birgalikda qabul qilish; o'zini o'zi boshqarish vakillik organlari va qo'shma organlarning (ilmiy kengashlar va boshqalar) alohida roli;

- Katta erkinlik darajasi va tadqiqotchilar va o'qituvchilar tashabbusining katta roli;

- Oliy ta'lim muassasaning ayrim bo'linmalarining (kafedralar, tadqiqot guruhleri) maqsadlari, muammolari, faoliyat usullarini belgilashda sezilarli avtonomiyasi;

- Direktiv boshqaruv bilan solishtirganda (muammolarni bayon qilish va oliy ta'lim muassasada yordamchi xodimlar va xizmat ko'rsatish bo'linmalariga tegishli bo'lgan vazifalarni hal qilish) bilan solishtirganda ramka boshqaruvi va yetakchilikning (vazifalar va maqsadlarni shakllantirish yo'nalishlari, maqsadlari, normalari va faoliyat shakllarining umumiy ko'rinishi sifatida) keng tarqalganligi.

Ro'yxatda keltirilgan fikrlar klassik oliy ta'lim muassasani korporatsiya [10-12] sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga qaratilgan biznes ta'lim muassasalaridan aniq ajratib turadi.

Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish davrida turli xil oliy ta'lim muassasalarining keng doirasi paydo bo'ladi. Loyiha, tadbirkorlik (innovatsiya), "ochiq", "supermarket", viloyat madaniyat markazlari oliy ta'lim muassasalari o'quv-akademik bilan bir qatorda sodir bo'ladi. An'anaviy (ta'lim-akademik) oliy ta'lim muassasalar asosan byurokratik ta'lim muassasalar bo'lib, tashabbuskor guruhlar va loyiha guruhleri uchun "noqulay". Misol uchun, Rossiya va ko'plab postsovet oliy ta'lim muassasalarida faol xodimlar yoki guruhlar oliy ta'lim muassasaning chetiga ko'chiriladi va o'zlarining konsalting, muhandislik kompaniyalarini yaratish orqali "oliy ta'lim muassasadan tashqarida" faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladilar. Oliy ta'lim muassasa o'sha xodimlarni va tashabbuslarni taklif qilishga qodir (tayyor, qodir) "jamoalarni" jalb qilish va ushlab turish sharti bilan rivojlana oladi. loyihalarni ishga tushirish, korxonalar bilan hamkorlik

aloqalarini o'rnatish. Oliy ta'lim muassasa muhiti bunday tashabbus guruhlari faoliyati uchun qulay bo'lishi kerak.

Klassik akademik oliy ta'lim muassasani boshqa turdagi oliy ta'lim muassasaga aylantirish uning korporativ madaniyatini chuqur o'zgartirishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasaning yangi joylashuvi imkoniyatlari uning korporativ madaniyatidagi sezilarli o'zgarishlar bilan belgilanadi:

- Xodimlar va menejment yangicha tarzda o'zini va o'z faoliyatini amalga oshiradi;

- Korporativ madaniyatga qarab (boshqaruv imtiyozlari o'rniga) oliy ta'lim muassasa kadrlarni tanlaydi;

- Korporativ madaniyat oliy ta'lim muassasa imkoniyatlarini bozor subyekti sifatida belgilaydi (biznes tomonidan istiqbolli hamkor sifatida qabul qilinadi yoki qabul qilinmaydi).

Oliy ta'lim muassasada sxematik tarzda uchta turdagi bazaviy "ishlab chiqarish" mavjud. Birinchisi, ommaviy ishlab chiqarish: talabalarni "oqimli" o'qitish, abituriyentlar bilan ishlash, oliy ta'lim muassasa faoliyatini texnik jihatdan ta'minlash va boshqa shunga o'xshash jarayonlar, ular uchun optimal korporativ "rol madaniyati". Ommaviy ishlab chiqarishlar to'g'ri ishlaydigan "mashinalar" sifatida qurilishi kerak, unda xodimlar standartlar va qoidalarga muvofiq ishlaydi va maqsadlar aniqlangandan, ishlab chiqarish zanjirlari qurilganidan va normalar o'rnatilgandan so'ng boshqaruv asosan nazoratga tushiriladi. Ikkinchidan, noyob mahsulotlarni ishlab chiqarish: ilmiy-tadqiqot, innovatsion loyihalar, konsalting va ekspert xizmatlari; ular uchun "muammo madaniyati" optimal hisoblanadi va mos korporativ shakl - moslashuvchan va harakatchan va "muammo uchun" tuzilgan loyiha guruhlari.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasa korporativ madaniyat nuqtai nazaridan murakkab makondir. Bu "joylar" ("hududlar") va "chegaralar" tizimidir. Murakkab ta'lim muassasa faqat har bir "joy" ning korporativ madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga muvofiq shakllangan va boshqa korporativ madaniyat bilan "joylar" dan farq qiladigan holatda samarali mavjud bo'lishi mumkin.


Oliy ta'lim muassasa korporativ madaniyatini "qo'shma ta'lim muassasa" sifatida tavsiflash va loyihalash uchun mavzu (topozlar) modelidan foydalanish kerak. Mavzu (topozlar) - bu "joy" bo'lib, unda "joylar" ("hududlar") alohida qadriyatlarga ega. Har bir hudud uchun tamoyillar, me'yorlar, fikrlash va faoliyat formatlari ajratilgan. Korporativ madaniyat nuqtai nazaridan ular "rol madaniyati", "muammo madaniyati", "shaxs madaniyati" bo'lgan joylardir (qarang. yuqorida) amalga

oshiriladi. Har bir "joy" ichki jihatdan izchil, boshqa bir butundan (boshqa "joy"dan) aniq ajratiladi. "Joylar" chegaralangan va bir vaqtning o'zida "o'tishlar" bilan bog'langan (1-rasm).

Bir tomondan, o'tish oddiy fazoviy harakatni, ya'ni binodan binoga, idoradan idoraga o'tishni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, u qadriyatlar, me'yorlar, qoidalar, o'zaro ta'sir formatlari makonida "harakat qiladi": faoliyatni to'xtatish va bir qoida bo'yicha o'zini tutish va boshqasiga muvofiq harakat qilishni boshlash kerak. Fazoviy o'tish oraliq, "neytral" hududlar - koridorlar, zallar va boshqalar orqali mumkin, qadriyatlar, me'yorlar va qoidalar makoniga o'tish oraliq aks ettiruvchi aloqa maydoni orqali sodir bo'ladi.

Bu shuni anglatadiki, har bir "joy"dagi qadriyatlar, me'yorlar, qoidalar, faoliyat formatlari ko'rsatilishi, belgilanishi va ular muhokama qilinishi va belgilanishi kerak. Normalarni buzish (jazolar uchun emas, balki normalarni tushunish va ularga rioya qilish kerak bo'lgan vaziyatlarni aniqlash uchun) va normalarga muvofiq ayniqsa muvaffaqiyatli harakatlar pretsedentlari muhokama qilinishi, belgilanishi kerak. Har bir "joy"da talabalar tomonidan ularning "ijtimoiy korporativ kompetentsiyasini" shakllantiradigan norma va qoidalarni "sinov", "sinab ko'rish" bo'lishi kerak.


Noto'g'ri korporativ madaniyat "rivojlanish impulslarini" to'sib qo'yishi va ta'lim muassasaning mavjudligi uchun xavf tug'dirishi mumkin. Zarur korporativ madaniyatni maqsadli shakllantirish "pretsedent - me'yor - takrorlash - an'ana" mantig'ida rivojlanishi kerak. Korporativ madaniyat elementini shakllantirishning umumlashtirilgan sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasa korporativ madaniyatini chegaralar

"Doiralar" sxemasi bo'yicha faoliyat holatlari mavjud; "kvadratchalar" - madaniyat birliklari; "Kvadratchalardagi doiralar" - bu madaniy me'yorlar sifatida "ishlaydigan" vaziyatlardagi faoliyat modellarini belgilaydigan normalar.

Biz yangi normalarni yaratish jarayonining barcha bosqichlarini ko'rib chiqamiz. "Precedent" bosqichida faol shaxs (chiziq ostidagi raqam) ushbu ta'lim muassasa uchun yangi bo'lgan faoliyat holatini yaratadi. Yangi madaniy shakl hali mavjud emas, faqat davom etishi mumkin bo'lgan precedent mavjud yoki yo'q.



2-rasm. Precedentdan an'anaga qarab korporativ madaniyat elementining shakllanishi.

Bosqichda "norma" yangi precedentga oid xabarlar yuzaga keladi: yuzaga kelgan precedentning mazmuni va ahamiyati aniqlanadi, yangi norma aniqlanadi va rasmiylashtiriladi (hujjat yoki og'zaki kelishuv shaklida). "Replikatsiya" bosqichida tizimga faoliyatning yangi formati kiritiladi, boshqaruvning barcha darajalarida muntazam ravishda qo'llaniladi. "An'ana" bosqichida norma standart harakatga aylanadi: takroriy harakatlar to'plamidan so'ng norma "tabiiy" amalga oshiriladi (sxemada faol ishtirokchilarni belgilovchi raqamlar mavjud emas). Me'yordan an'anaga o'tish tushunish va e'tibor darajasining pasayishiga olib keladi. Vaqt o'tishi bilan an'ana "yuvilib ketadi" va uni yangilash, saqlash bo'yicha alohida harakatlarni talab qiladi (sxema bo'yicha u ko'rsatilmagan).

Korporativ madaniyatni shakllantirish jarayonining odatiy "nuqsonlari" ushbu sxema doirasida talqin qilinishi mumkin:

1-variant. "Pretsedent" (yangi vaziyatni faol yaratish) o'rnatilmagan. Buning o'rniga ta'lim muassasa rahbarlari yoki "mehmonlari" dan kimdir foydali qimmatli normalar va an'analar haqida gapiradi, masalan, Garvard yoki Oksford oliy ta'lim muassasalarida. Shunday qilib, bironing me'yorlari

bilan tanishish haqiqiy o'zgarishlarga olib kelmaydi va "birovning me'yorini madaniyatga kiritish" bo'yicha maxsus ish olib borilmayapti.

2-variant. Yangi harakatning "precedenti" muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda, lekin "precedent" dan farq qiluvchi maxsus tarkib sifatida precedent va normani ro'yxatga olish tahlili amalga oshirilmaydi. Precedentning shubhali bahosi ("sinab ko'rildi...") natijada mos bo'lmagan me'yor sinovdan o'tgan ko'rinadi.

3-variant. O'zining madaniy me'yorini (farzand asrab olishdan farqli o'laroq) "katta bo'lgan". Biroq, innovatsiya subyektlari uni "takrorlash" uchun yetarli kuch sarflamaydilar. Norm an'anaga aylanmaydi, u bir muncha vaqt tashbuskorlarning ishtiyoqi tufayli mavjud bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'z o'rnini bosadi.

4-variant. Barcha bosqichlar muvaffaqiyatli o'tadi, yangi norma o'rganadi va an'anaga aylanadi. Bundan tashqari, tashqi va ichki muhitning o'zgarishi natijasida an'ana izga aylanadi. Normalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ish yo'qligi sababli; an'ana yo'qoladi yoki ma'nosiz rasmiyatchilikka aylanadi.

Biz ma'muriy aloqalar darajasida me'yorlarni shakllantirishning oddiy holatini ko'rib chiqdik, buning uchun yuqori darajadagi reflektorlik xarakterlidir. Oliy ta'lim muassasa hayotining innovatsion faoliyat va kasbiy fikrlash kabi sohalarida yangi me'yorlarni yaratish jarayoni ancha murakkab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] Castells, M. (1996). *Tarmoq jamiyatining yuksalishi, axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. jild. I. Kembrij, MA; Oksford, Buyuk Britaniya: Blackwell, 624 p.*

[2] Jaspers, K. (1959). *Oliy ta'lim muassasa g'oyasi. Beacon Press, Boston, 149*

[3] Efimov VS Budushee vyisshy shkolyi v Rossii: ekspertnyy vzglyad. Forsayt-issledovanie – 2030: analiticheskiy doklad / VA Dadasheva, AV Efimov, VS Efimov, AV Lapteva, MV Rummyantsev; pod qizil. V. SEfimova. – Krasnoyarsk: Sibirskiy federalnyy oliy ta'lim muassasai, 2012. – 182 s.

[4] Pokrovskiy NE Pobochny'j produkt globalizacii: oliy ta'lim muassasay' pered licom global'ny'h izmenenij, Obshhestvenny'e nauki i sovremennost', №4, 2005, ss 148-154.

[5] Barnett, R. (2000). Oliy ta'lim muassasani o'ta murakkablik davrida amalga oshirish. Bukingem: Oliy ta'lim va ochiq oliy ta'lim muassasa nashriyoti bo'yicha tadqiqotlar jamiyati, 203 p.

[6] Ortega y Gasset, J. (1946). Oliy ta'lim muassasaning missiyasi. Transaction Publishers, 81 p.

[7] Efimov VS Kelajak uchun oliy ta'lim muassasalar: istiqbolli g'oyalar va rivojlanish modellari [Matn] / Efimov VS, Lapteva AV, Dadasheva VA // Psixologiya va psixiatriya bo'yicha SGEM konferentsiyasi, Sotsiologiya va sog'liqni saqlash, ta'lim: konferentsiya materiallari (xalqaro ko'p tarmoqli) Ijtimoiy fanlar va san'at bo'yicha ilmiy konferentsiyalar, Bolgariya, 2015 yil 3-9 sentyabr.

[8] Antonov VG, Kryilov VV, Kuzmichev A.Yu. men doktor. Korporativnoe upravlenie: Uchebnoe posobie/pod qizil. V.G.Antonova. – M.: ID "FORUM": INFRA-M, 2006. – 288 s.

[9] Le Goff, J. (1993). O'rta asrlarda intellektuallar. Wiley. 224 b.

[10] Knyazev EA Ob oliy ta'lim muassasah i ih strategiyah // Oliy ta'lim muassasaskoe upravlenie: praktika i tahlil. – 2005. – №4. S. 9 – 17.

[11]. Kayumova, M. (2022). Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari. *Apxus научных исследований*, 2(1).

[12]. Kayumova, M., & Khakimova, M. (2022). The Method Of Formation Of The Students' Professional Etiquette In The Process Of Education. *Apxus научных исследований*, 2(1).

PEDAGOGLAR MEHNATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH – IJTIMOIY-MA'NAViy MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSI SIFATIDA

Raximberganova Bonu Davlatnazarovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
YUMOM o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uchun pedagoglarga ijtimoiy-huquqiy kafolatlar berish masalasidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishda fidoiy kadrlarni yetishtirishning muhim omili sifatida munosib mehnat sharoitini ta'minlashga doir bir qator takliflar ishlab chiqilgan.

***Kalit soʻzlar.** Pedagoglar mehnati, ijtimoiy omil, mehnat huquqlari, kafolatlar, huquqiy maqom, ijtimoiy taʼminot, huquq, erkinlik.*

Bugungi kunda taʼlim sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor va oʻta muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Vatanimiz kelajagining poydevori boʻlgan ilmga chanqoq va bilimli avlodni tarbiyalash nafaqat biz uchun, balki har qanday mamlakatning asosiy vazifasidir. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “bugungi shiddatli zamon oldimizga qanday murakkab vazifalarni qoʻyayotganini barchamiz koʻrib, bilib turibmiz. Ularni hal etish va ezgu maqsadlarimizga yetish, dunyo miqyosida raqobatbardosh boʻlish uchun xalqimizni, avvalambor, yoshlarimizni ilm-fan, maʼrifat va maʼnaviyat, taraqqiyot yutuqlari bilan qurollantirishimiz kerak”[1] – deb bildirgan fikrlari bejiz emas. Ushbu jarayonda esa pedagog-xodimlar, yaʼni oʻqituvchi va murabbiylarning oʻrni beqiyosdir.

Har qanday darajadagi taʼlim tashkilotida ijtimoiy-maʼnaviy muhit pedagog-xodimlarning oʻz faoliyatiga sitqidildan yondashishi bilan bogʻliq. Taʼlim tashkilotlarda oʻqiyotgan yoshlarga beminnat bilim berish uchun oʻqituvchilar davlatdan, ishidan, maoshidan va ularga ajratilgan boshqa kafolatlardan mamnun boʻlishining ahamiyati yuqoridir. Shu sababli ham, Prezidentimiz “muallim va ustozlarning qadri, shaʼni va gʻururini tiklash, mashaqqatli va sharafli mehnatini moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish boʻyicha boshlagan ishlarimizni albatta yangi pogʻonaga koʻtaramiz” deya bot-bot taʼkidlamoqdalar [1].

Oʻzining fidokorona mehnat faoliyatini amalga oshirishida koʻz nuri, mehri, butun borligʻini kelajak avlod tarbiyasiga baxsh etadigan oʻqituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash davlatning alohida eʼtiborida boʻlib kelmoqda. Shuning uchun ham soʻngi yillarda mamlakatimizda pedagoglarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini taʼminlash, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish boʻyicha tinimsiz islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqshunos olim Sh.Ismailovning fikricha, taʼlimning davlat va jamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etishi, uning ijtimoiy xarakteri tufayli pedagog xodimlar mehnatini tartibga solishning xususiyatlari sohaviy differentsiatsiya sifatida oʻrganiladi [2]. Shu sababli, pedagoglar mehnatini huquqiy tartibga solish mehnat qonunchiligining alohida obykti hisoblanadi.

Pedagoglar maqomi Asosiy Qonun darajasida mustahkamlanganligi taʼkidlayotgan fikrlarimizning ayni isbotidir. Yangi Konstitutsiyaning 52-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasida oʻqituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sogʻlom, barkamol avlodni shakllantirish hamda

tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"[3] deb belgilanganligini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zXDP fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda bir qator qonun loyihalari birinchi va ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Yig'ilishda shuningdek, "Pedagog xodimning maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasi ham atroflicha ko'rib chiqilib, ma'qullandi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi natijada o'qituvchilarning alohida huquqiy maqomi belgilanadi.

Qonun loyihasida pedagoglar uchun bir qator ijtimoiy kafolatlar o'rnatilganligi esa, ularning o'z mehnatlarini samarasini ko'rishlarida va ular faoliyat olib borayotgan ta'lim tashkilotida ichki muhit yaxshilanishiga olib keladi. Loyihaning 21-moddasiga ko'ra (Pedagog xodimlarni ijtimoiy himoya qilish), pedagog xodimlar umumiy belgilangan yoshdan 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega.

Qonun loyihasining 28-moddasiga ko'ra, pedagog xodimlar, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari o'qituvchilari – maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega.

Bundan kelib chiqadiki, agar Qonun qabul qilinsa 25 yillik maxsus stajga ega pedagog xodimlar: erkaklar — 55 yoshga to'lganda; ayollar — 50 yoshga to'lganda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Shuningdek, Qonun loyihasining 18-moddasi 3-qismiga ko'ra, (Pedagog xodimning mehnatiga haq to'lash), davlat ta'lim tashkiloti pedagog xodimining bazaviy lavozim maoshi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan kam bo'lishi mumkin emas.

Demak, agar Qonun qabul qilinsa davlat ta'lim tashkiloti pedagog xodimi-ning lavozim maoshi 3 million 300 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

Loyihaning 24-moddasiga ko'ra, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ammo ta'lim tashkilotlarida kamida 5 yil ish stajiga ega pedagog xodim kirish test sinovlarisiz, to'lov-kontrakt asosida va qabul parametrlaridan tashqari oliy ta'lim muassasasining pedagogika yo'nalishi bo'yicha sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakliga suhbat asosida o'qishga qabul qilinadi [4]. Ushbu Qonunning qabul qilinishi pedagoglarning o'z kasbiga bo'lgan hurmati va sadoqatini yanada oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, 2022-yil 28-oktyabrda Yangi Mehnat kodeksi [5] qabul qilinib, 2023-yil 30 apreldan kuchga kirdi. Ushbu kodeksda pedagog xodimlar ham ayrim toifadagi xodimlar qatoriga kiritilib, ularning mehnatini xususiyati og'ir ekanligi inobatga olindi.

MKning 501-moddasiga ko'ra, tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Bundan tashqari, ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga haftasiga o'ttiz olti soatdan ortiq bo'lmagan ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilanadi va yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili beriladi. Pedagog xodimlar ish vaqtining aniq davomiyligi va yillik uzaytirilgan mehnat ta'tilining davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Yuqoridagi normaning ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi 263-sonli qarori bilan Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlari [6] tasdiqlandi. Unda o'qituvchilarga 56 kalendar kun ta'til berilishi belgilangan. Mazkur hujjat uzoq kutildi va mustaqillikdan keyingi ilk marotaba qabul qilingan pedagoglar uchun asosiy uzaytirilgan ta'til muddatlarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi (48 ish kuni O'zSSR vaqtidan qolib ketgan edi).

Ammo ushbu qaror ilovasining Izoh qismida "Ushbu me'yorlarda keltirilgan xodimlarga yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili uchun xaq to'lashda yakshanba va bayram kunlari inobatga olinmaydi" degan qoidaga ko'zimiz tushadi. Bu esa, VM 263-son qarorining izoh qismi MKning 221 va 233-moddalariga zid ekanligini anglatadi. Sababi MK 233-moddasida har yilgi mehnat ta'tilida bo'lgan vaqti uchun xodimga ushbu Kodeksning 257-moddasiga muvofiq hisoblab chiqariladigan o'rtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanishi ko'rsatilgan. 221-moddasida esa, xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi kalendar kunlarda hisoblab chiqarilishi nazarda tutilgan. Demak, qoida tariqasida, normada ta'til davriga yakshanba kuni ham qo'shilishi aytilmoqda. Shunday ekan, ta'til davriga to'g'ri kelayotgan yakshanba uchun ham haq to'lash kerak. Ushbu normalarni boshqacha talqin qilish mumkin emas.

Chunki 20.04.2021-yildagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida qonunosti hujjatlarida qonun hujjatlari darajasida tartibga solinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha normalar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi, 18-moddasida esa, normativ-huquqiy

hujjat o'ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerakligi belgilangan [7].

Shuningdek, VM 263-son qarori ilovasining Izoh qismida nazarda tutilgan qoida MKning asosiy prinsipi - xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi prinsipiga ham zid bo'lib qolgan. Xususan, har qanday normativ-huquqiy hujjat xodimning huquqiy holatini yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yomonlashtirmasligi kerak.

Bundan kelib chiqadiki, Kodeksning 233-moddasi mazmunidan yakshanba uchun ham haq to'lanishi anglashilsa, VM 263-son qaroridan esa to'lanmasligi kerakligi tushunilmoqda. MKning yuqori kuchga ega ekanligini inobatga olib, VM qarorini Kodeksga moslashtirish kerak.

Keying masala Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori [8]ga ko'ra, "zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasasi hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish" belgilangan. Ammo mazkur hujjatni asos qilib olib muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mehnat qonunchiligiga zid. Chunki MK 112-moddasida faqat qonun bilan o'rnatilgan hollardagina ish beruvchilar muddatli mehnat shartnomasi tuzishi mumkin. "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari esa qonunosti hujjatlaridir. Bundan kelib chiqadiki, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qonunosti hujjatlari bo'lib, amaldagi Mehnat kodeksining 112-moddasida nazarda tutilgan qonun bilan belgilanadigan qoidalarni, asoslarni o'rnatmaydi. Agar qonunchilikda bunday chalkashliklar bo'lsa pedagoglar uchun sof ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratishning imkoni bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, mehnat qonunchiligida pedagoglarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Ayrim qonunosti hujjatlarida qonunlarga zid keladigan, pedagoglarning ijtimoiy holatini yomonlashtiradigan normalar ham mavjud ekanligi esa pedagoglarga nisbatan huquq buzilishlar sodir etilishiga olib kelmoqda. Shu sababli,

qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish hamda bu jarayonda pedagoglarning mehnat faoliyati alohida tushga ega ekanligini, ularga kafolatlar berish har qanday darajadagi ta'lim tashkilotida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratishini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi.* 29.09.2022 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/4660>

2. *Sh.Ismailov. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari. Yuridik fanlar doktori (dsc) dissertatsiyasi Avtoreferati, 22-bet.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.* <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

4. *"Pedagog xodimning maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasi* <https://regulation.gov.uz/oz/d/25127>

5. *O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.* <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

6. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi "Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlarini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-sonli qarori.* <https://lex.uz/uz/docs/-6516542>

7. *O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni.* <https://lex.uz/docs/-5378966>

GLOBALLASHUV JARAYONINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Sohibjonov Zohidjon Sohibjon o'g'li

Namangan davlat chet tillari instituti

Jahon tillari fakulteti dekani muovini.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, shuningdek, tarbiyada ta'lim tizimining o'rni to'g'risida so'z yuritiladi. Fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda milliy tarbiya, bugungi global dunyoda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va kuchaytirishda ma'naviyat alohida o'rin tutadi.*

Kalit soʻzlar. *Globalashuv, taʼlim, tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy gʻoya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, xalq, maʼnaviyat, maʼnaviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.*

Hozirgi kunda hayotimizni texnika vositalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Ayni paytda texnika vositalari jadal rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Texnika vositalarining bunday tarzda tez surʼatlar bilan rivojlanishi axborot koʻlamining kengayishiga va uni tez tarqalishiga olib kelmoqda. Bunday holat globallashuv jarayonini yuzaga keltirmoqda. Globallashuv atamasini ayni davrda koʻp foydalanilayotgan boʻlsada, bu atamani dastlab XX asrning 80-yillarida iqtisodiy sohada oʻzgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik T. Levitt tomonidan qoʻllanilgan. Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va koʻrinishlarda mavjud boʻlgan va hozirgi davrga kelib bu jarayonning avj olishi roʻy bermoqda. Globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Shu xususda Yurtboshimiz shunday fikr bildirgan: "Bugun biz tez surʼatlar bilan oʻzgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan oʻta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha taʼriflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham maʼlum maʼnoda haqiqat, rasional magʻiz bor.

Chunki ularning har biri oʻzida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo koʻpchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uygʻotmoqda". Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yoʻlida foydalanish mumkin. Ezgulik yoʻlidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan boʻlsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir. Bu haqida hind olimi Mahatma Gandi oʻzining quyidagi fikrini bildirgan: "Xonamni shamollatish uchun derazamni ochsam, toza havo bilan birgalikda chang-gʻubor ham kiradi. Lekin derazani yopib qoʻya olmayman, chunki menga toza havo kerak". Bu jarayonni cheklab boʻlmaydi. Tanganing ikki tomoni boʻlgani kabi globallashuv jarayoni ham ijobiy va salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv jarayoni barcha sohalarda boʻlgani kabi maʼnaviyatga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda. Internet saytlarida aniq, ishonchli maʼlumotlar

bilan birgalikda yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida agressivlik, tajovvuzkorlik kabi kayfiyatlarni uyg'otadigan turli yot g'oyalarning, mentalitetimizga xos bo'lmagan odatlar tarqatilayotgani kishini ogohlikka chorlaydi. Yurtboshimiz Islom Karimov bu xususida, - "Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamonda eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan urushlar ko'p narsani hal qiladi[1], - degan edi.

Axborot xuruji, aslida, o'z manfaatlarini dunyo bo'ylab yoyishning eng ma'qul usulidir. Shu o'rinda aytish kerakki, haqiqatda yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunda axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon keltirishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, milliylikga to'g'ri kelmaydigan film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga yetarli darajada zarar keltiradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Ularning ongida milliy qadryatlarimizni, milliy mentalitetni yuksak darajada shakllantirib, ularni qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ulari qurshovida tarbiyalash kerak bo'ladi. Toki ular vatanga xizmat qiluvchi, o'zining sohasini yetuk mutaxassisi bo'lishsin.

Xulosa o'rnida, Uzluksiz ma'naviy tarbiyaning o'zagini quyidagilar tashkil etadi. Iymonli bo'lish, odamning diyonatli, vijdonli bo'lishidir. „Vijdon pokligi va bedorligi, — deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidenti I. Karimov, — asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir“.[2]

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov moddiy va ma’naviy hayotning uyg‘unligini bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslagan edi. Shuningdek, ma’naviylik va moddiylik o‘rtasidagi munosabatning keskinlashuvi jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch:*, T., Ma’naviyat 2008y. 27- b
2. *Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. // Xalq so‘zi, 2012, 8 dekabr*

“TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITISHNING YANGI TEXNOLOGIYALARI”

Fayzullayev Abror Faxriddin o‘g‘li

Qashqadaryo viloyati yuridik
texnikumi o‘qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida pedagogik psixologiyani o‘quvchi talabaga ta’sir darajasi, pedagogik texnologiya ahamiyati, kasbiy ta’lim metodlari turlari, amaliy va nazariy dars mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha tadqiqot ishlari va chet-el olimlarining fikri va mulohazalari o‘rganib chiqilib amalga oshirilgan ishlar tahlili bo‘yicha qo‘shimcha taklif va tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya, ta’lim metodlari, pedagogik mahorat, amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy ko‘nikma, texnologik vositalar, sifat ko‘rsatkichlari.

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning mohiyati: Har bir fanni predmetini o‘rganishda obyektiv holatni anglagan holda dastlab nazariy, keyinchalik amaliy soatlar ajratiladi (ko‘pincha). Ularni ahamiyati: **Nazariy dars soati** – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta’lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, turli xil metodlar-zamonaviy texnik vositalar yordamida o‘tiladigan ta’lim va tarbiya jarayonidir. Bunda ma’lum bir soha bo‘yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda bilim oluvchilarga yetkaziladi. Ta’lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash yo‘llari bilan

tanishtiradi. **Amaliy mashg'ulot** – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarilib turiladigan, o'rganuvchi tomonidan amaliy bajariladigan topshiriq-vazifalar majmuyidir. Amaliy mashg'ulot ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv paligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalangan holda o'tkaziladi.

Pedagogik mahoratlar: Har bir nazariy-amaliy dars mashg'ulotlari tugab, yangi o'quv soati boshlanganda o'tilgan har bir dars mashg'ulotlarini tizimli ravishda takrorlash maqsadga muvofiqdir. Agarda amaliy holatlarda birorta harakat yoki holatni qayta amalga oshirish orqali mashg'ulot bilvosita o'zlashtiriladi.



Har bir o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan 10 ta asosiy ta'lim ko'nikmalari

- ✓ Muloqot va shaxslararo muloqot qobiliyatlari
- ✓ Tashkilot va moslashtirish
- ✓ Vaqtni boshqarish va Multitasking
- ✓ Mojarolarni boshqarish
- ✓ Ijodiy fikrlash va innovatsiya
- ✓ Nazorat va etakchilik
- ✓ Texnologik ko'nikmalar

- ✓ Jamoaviy ish
- ✓ Sabr
- ✓ O'z-o'zini baholash

Muloqot va shaxslararo muloqot qobiliyatlari

Bu juda oddiy tuyulishi mumkin, ammo muloqot qilish qobiliyati eng muhim o'qitish qobiliyatlariidan biridir. Muloqot haqida gap ketganda, ko'p narsa noto'g'ri ketishi mumkin. O'qituvchi nufuzli rolni o'z zimmasiga olsa va muloqot bir yo'lga aylanganda, ko'p o'rganish kerak emas. Na talaba uchun, na o'qituvchi uchun.

Sinf xonasi ikki tomonlama muloqot uchun platforma bo'lishi kerak va o'qituvchi o'z o'quvchilarining his-tuyg'ularini tinglashi kerak. Muloqot har doim ham og'zaki bo'lishi shart emas, o'qituvchi og'zaki bo'lmagan belgilarni tanlashi kerak va bu yerda pedagogning haqiqiy o'qituvchilik mahorati sinovdan o'tkaziladi. O'qituvchilar uchun kuchli og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega.

Masalan, ba'zi talabalar alohida e'tiborga muhtoj bo'lishi mumkin. Ushbu ssenariy og'zaki bo'lmagan va og'zaki muloqotni aralashtirishni talab qiladi. O'qituvchi ularga qarashi yoki boshini qimirlatishini yana bir bor ta'kidlashi kerak, lekin pedagog buni kimga va qachon qilish kerakligini bilishi kerak. Bu tajriba bilan birga keladi va o'qituvchilik mahorati ro'yxatiga mohiyat qo'shadi.

Tashkilotchilik va uyg'unlashtirish ko'nikmalari

Hamyon, kalitlar, kartalar, bo'yanish va boshqalar kabi barcha narsalaringiz bo'lgan katta sumkani tasavvur qiling. Endi sumkada bo'linmalar bo'lmasa-chi? Hammasi aralash, tartibsiz bo'ladi va siz qidirayotgan narsangizni darhol olmaysiz.

Shu bilan birga, agar sumkada alohida bo'linmalar bo'lsa va siz o'zingizning narsalaringizni tartibga solgan bo'lsangiz, bu tartibsiz bo'lmaydi yoki vaqt talab qilmaydi. Xuddi shu narsa sinfga ham tegishli. O'qitish ko'nikmalarining ahamiyati so'zlardan tashqarida va bu maxsus mahorat, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.

Tashkilotchilik va muvofiqlashtirish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?

-Bunga yo'l qo'ymaslik uchun har doim reja va jadvalni tayyorlash zarur.

-Jadvallar va dars rejalarini ajrating, tegishli tizimga ega bo'ling va barcha bir sahifada bo'lishi uchun ushbu tizimni o'quvchilaringizga yetkazishni unutmang.

-Agar siz bir nechta sinflarni o'rgatsangiz, har bir sinf uchun turli papkalarga ega bo'ling.

-Rang kodlari va raqam kodlaridan foydalaning

-Internetda mavjud shablonlardan foydalaning

Darslar onlayn rejimiga o'tishi va onlayn o'qitish yangi odatiy holga aylangani sababli, o'qituvchilarning tashkiliy qobiliyatlarini oshirishlari shart. O'rnatilgan xususiyatlarini ta'minlovchi onlayn o'qitish platformalari bilan pedagoglar va o'qituvchilar uchun bu osonroq bo'ldi

Vaqtни boshqarish va Multitasking

O'z-o'zidan ayonki, vaqtни boshqarish o'qituvchini ibratli qiladigan jihatlardan biridir. Multitasking o'qituvchining roli bilan belgilanadi. Repetitorlik ko'nikmalarining uzun ro'yxatida vaqtни boshqarish o'yinni o'zgartiradigan narsadir.

Avvaliga bu charchagandek tuyulishi mumkin, lekin siz buni tushunganingizdan so'ng, hamma narsa joyiga tushadi.

Kun tartibini o'rnatish va oldingi nuqtadan ilhom olish zarur.

Vaqtни boshqarish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?

Tartibga solish. Jadval va rejaga ega bo'lgach, vaqtни boshqarish qiyin emas.

Har doim kundalik rejimga ega bo'lish tavsiya etiladi.

Darsni boshlashdan oldin besh daqiqalik meditatsiya.

Tekshirish uchun dars rejasi

Sizning muloqot qobiliyatingiz tartibli ekanligiga ishonch hosil qilishingiz uchun sinf oxiridagi fikr-mulohaza sessiyasi.

O'qituvchilar uchun vaqtни boshqarish qiyin degan noto'g'ri tushuncha mavjud. Qiyin bo'ladigan yagona nuqta - bu talabalar tomonidan kelishmovchiliklar va boshqa nizolar. O'sha paytda darslarni o'z vaqtida tugatish biroz qiyin bo'lishi mumkin va bu bizni keyingi nuqtaga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi fan-ta'lim rivojlanayotgan va raqobatlashayotgan bir davrda ta'limni, kadrlar malakasini oshirish, ta'lim turli xil to'siqlardan bartaraf etish, o'quvchi-talabalarga tadqiqot qilishlari uchun imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga chiqib ulgurgan.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy kadrlar uchun o'qituvchi-murabbiylarni tayyorgarlik darajasi, o'quvchilarni amaliy darsga qay darajada tayyorgarligini o'rganish, zamonaviy texnik vositalar asosida metodlardan foydalanganlik darajasi muhimdir. Bu o'rinda har bir o'tilgan dars soati uchun tahliliy guruh ishlashi maqsadga muvofiqdir, negaki ushbu xulosa talabani malakali bo'lib, chiqishiga muayyan holatda raqobatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimiga Yevropada tan olingangan o'qitish metodlarini joriy qilish zarurdir, ya'ni muayyan predmet uchun talabadan ijodiy-tahliliy ish talab qilinishidir. Bunda talaba-mutaxassis o'zida kreativlik va o'rganilayotgan predmetni yangi qirralarini o'zida kashf qilishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.* - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.* //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 2020.
3. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.* //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
4. *"Taraqqiyot Strategiyasi: xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur".* – Toshkent: O'zbekiston, 2022-2026 yy.
5. *Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2003.

ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ КОМПОНЕНТОВ УЧЕБНЫХ КОМПЛЕКСОВ КАК СОСТАВЛЯЮЩЕЙ ЧАСТИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Холбаева Дилором Дусияровна,
*преподаватель Самаркандского
Государственного университета
ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий*

Ташева Дилором Салимовна,
*преподаватель Самаркандского
Государственного университета
ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий*

Аннотация. *Современные средства учебы призваны наиболее полно реализовать учебную, развивающую и воспитательную функции образования, чему должны способствовать их многоаспектные функции. Главным средством учебы, конечно, является учебник. Большинство специалистов имеют в виду не только сам учебник, а также и все другие средства учебы, которые группируются вокруг него, составляя учебно-методический комплекс (УМК). Вся эта система средств учебы призвана служить оптимизации процесса учебы, обеспечению реализации образовательных, развивающих и воспитательных целей.*

Ключевые слова: *учебные программы, учебники, методические пособия, методики преподавания, практические системы, подготовка кадров, особенности, ценность, условия.*

В нашей стране системе образования уделяется внимание на уровне государственной политики. За истекший период по организации эффективной системы образования, направленной на доведение подрастающего поколения в нашей стране до здорового и всесторонне зрелого взрослого человека, внедрению в образовательный процесс эффективных воспитательно-воспитательных форм и методов, проделана большая работа. В то же время проведенный анализ, обеспечение охвата студентов высшим образованием, комплектование высших образовательных учреждений современными учебно-методическими материалами и художественной литературой, решение вопросов привлечения в сферу квалифицированных педагогических и управленческих кадров показывает необходимость.

В своих трудах Абу Али ибн Сина подчеркивает необходимость выполнения преподавателем ответственного долга обучения студентов и даёт им следующие рекомендации, являющиеся залогом успеха в деятельности: быть строгим и серьезным в обращении с учащимися; обращая внимание на усвоение учащимися заданных знаний; использование различных форм и методов в обучении; ученическая память, способность к усвоению знаний, знание личностных особенностей; интерес к науке; умеет выделять самое главное из данных знаний; передача знаний учащимся в понятной форме, в соответствии с их возрастом и интеллектуальным уровнем; добиться того, чтобы каждое слово было на уровне возбуждения эмоций.

С учетом международных стандартов, современных достижений науки, регулярного совершенствования учебных программ, учебников и методических пособий, методики преподавания, внедрения

практической системы преподавания естественных, научных и технических наук на всех ступенях образования необходимо расширить изучение иностранных языков на всех этапах обучения. При этом важно обеспечить адаптацию педагогов и ученых к условиям международного рынка труда. В дальнейшем мы должны досконально изучить опыт развитых стран и основательно модернизировать систему подготовки кадров с учетом особенностей, ценностей и условий нашей страны.

В настоящее время в Министерстве высшего и среднего специального образования ведется работа по повышению квалификации, привлечению иностранных профессоров в Узбекистан для чтения лекций, приближению программ бакалавриата и магистратуры к образовательным программам развитых стран. Их учебники и образовательные стандарты используются в качестве эксперимента. Это, безусловно, хорошая инициатива, и мы должны развивать работу в этом направлении дальше. Сравнительный анализ опыта зарубежных стран (Японии, Германии, Англии, Франции, Швеции, США) по развитию образования в высших учебных заведениях, обеспечению и мониторингу качества образования с положением в системе высшего образования Узбекистана должен быть сделан.

В данном месте в целях развития международных научно-педагогических связей с высшими учебными заведениями передовых стран, участия в международных образовательных программах, размещения заказов на участие в международных проектах и программах, активизации интеграции науки страны в международное научное сообщество необходимо усилить процесс взаимного обмена идеями с учеными и педагогами.

Одной из составляющих успешного обучения является система средств обучения. Функция систем средств учебы по предметам заключается в том, чтобы обеспечить учебе наибольший развивающий и воспитательный результат, и наилучшее усвоение учениками всего, что предусмотрено программой данного предмета. Связи, которые существуют между средствами учебы и входят в состав системы преподавания данного учебного предмета, определяются в первую очередь содержанием предмета, методикой его преподавания и особенностями усвоения, а также функциональными свойствами отдельных средств учебы, что и обеспечивает целостность, стабильность, структуру и относительную автономность системы.

Средства обучения используется для того, чтобы обозначить тот или иной компонент процесса обучения. Они имеют большое значение для реализации управленческой и информационной функции преподавателя. Кроме того, они представляют собой материальные или идеальные объекты, используемые для освоения новых знаний, практической и познавательной деятельности и формирования опыта.

В состав УМК по различным программам обычно кроме учебника входят рабочие тетради, книги для чтения и хрестоматии, сборники задач и упражнений, дидактические материалы, сборники проверочных работ, тесты, электронные учебные пособия, методические рекомендации и другие материалы. При этом надо отметить, что очень часто возникает необходимость дополнить учебные пособия программы, по которой учится студент. Причин может быть несколько: закрепить полученный объем знаний; восполнить пробелы в знаниях; расширить знания и кругозор студента; подготовить студента к олимпиадам по различным предметам; помочь студенту в выполнении домашних заданий др. Дополнительная литература предназначена для коллективной работы в классе, для индивидуальных занятий с преподавателем или родителями, самостоятельной работы студента. Список дополнительной литературы может дать преподаватель, а может выбрать родитель по своему усмотрению или чьим-то рекомендациям.

На основе изученного материала, следует отметить, что лишь систематизация компонентов учебно - методического комплекса, их рациональное использование поможет преподавателю русского языка оптимизировать процесс учебы, обеспечить реализацию образовательных, развивающих и воспитательных целей студентов. Таким образом, наши предположения о том, что учебные комплексы являются необходимой составляющей средств обучения русскому языку подтверждены.

Список использованных литератур:

1. Хуторской А.В. *Современная дидактика: Учебник для вузов.* - Спб: Питер, -2001. -544с.
2. Цветкова Л.А. *Использование компьютерной программы при обучении лексике // Иностр. языки в школе.* - 2002. - № 2. - С. 43-47.
3. Щепотин А.Ф., Чекулаев М.А., Сосонко В.Е., Шеховцев А.П. *Комплексное учебно-методическое обеспечение образовательного процесса в средних профессиональных учебных заведениях.* М.: ИПР СПО, 2002. - 263 с.

4. Ярошенко Н.Г., Семушина Л.Г. *Содержание и технологии обучения в средних специальных учебных заведениях: учеб. пособие для преп. учреждений сред. проф. образования.* -- М.: Мастерство, 2001. - 272 с.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Тлеумуратова Нуржамал Махсетовна

– Национальный центр обучения педагогов
новым методикам Республики Каракалпакстан,
старший преподаватель

Аннотация: В этой статье говорится о развитии у детей самостоятельного творческого мышления, индивидуализацию и дифференциацию обучения в современном образовании.

Ключевые слова: креативные способности; творческое отношение и способности; проблемные задачи, проблемные вопросы, ситуации и задания

Современное образование поставило перед педагогами задачу перестройки общего характера обучения, который предполагает развитие у детей самостоятельного творческого мышления, индивидуализацию и дифференциацию обучения. Педагогический опыт показывает, что во многих детях есть скрытый потенциал одаренности, и при наличии необходимых условий развития и поддержке они могут раскрыться, проявить себя в определенной области. Постоянное развитие креативности возможно только на такой психологической базе, которая характеризуется богатством потребностей и интересов личности, ее направленностью на полную самореализацию в труде, общении, познании; высоким уровнем интеллектуальных способностей, открытостью ко всему новому, гибким критическим мышлением, высокой работоспособностью человека, физической силой и энергией, уровнем психофизических возможностей. Задача школы состоит в том, чтобы поддерживать и поощрять творческое отношение к учению, внутреннюю мотивацию и активность у детей. Очень важно создать в школьном возрасте креативный базис в поведении и отношениях, а потом уже совершенствовать его, используя различные методики.

Термин «креативность» можно встретить в предисловиях к учебным программам, но гораздо реже – в конкретных предметных разработках;

еще реже можно найти реализацию идеи креативности в практической деятельности учителя или в реальных учебных ситуациях. В школьных учебниках часто отсутствуют задания, требующие поиска новой информации, использования воображения. Для развития креативности в школьном возрасте есть все основания:

- дети испытывают потребность в новизне, открыты для нового опыта,
- ищут стимулы и находят для себя проблемы,
- обладают широким восприятием, богатым воображением,
- легко и гибко меняют идеи, способы мышления,
- испытывают интерес и увлечены своими действиями.[1;56]

Говоря о креативности, не стоит забывать, что она не обладает природой и не свойственна личности от рождения. Креативность не является энергией сама по себе – это присущий человеку потенциал, связанный с личностью, зависящий от нее и проявляемый в мышлении и деятельности, приводящий к появлению нового, новаторского продукта.

Вопрос о том, как воспитывать творческое отношение и способности, – трудный и сложный. Образование, направленное на развитие креативности, – это не просто обретение как можно большего количества идей в возможно более короткое время; оно имеет дело с личностью в целом и всем личностным развитием. Безусловно, школа должна и может создать условия, стимулирующие, поощряющие, воспитывающие творческое мышление и действия, а учителя должны стать образцами такого отношения и поведения, такого стиля мышления и действий, которые они должны воспитывать в школьниках. В идеале эти условия могут быть следующими:

- создание свободных условий для работы, позволяющих школьникам проявлять максимум инициативы, экспериментировать;
- принятие и поощрение оригинальных идей;
- использование материала, вызывающего интерес к учебе;
- одобрение и положительная оценка исследовательского поведения, поиск проблем, а также направленное на их разрешение мышление;
- обеспечение условий, при которых ребенок не отделяет себя от школьной деятельности, что достигается благодаря поощрению, ответственности за работу, развитию положительной самооценки;
- увлеченность задачами благодаря высокой мотивации к самостоятельно выбранной теме;

- создание атмосферы, свободной от беспокойства и боязни не успеть;

- обеспечение психологического комфорта, открытости и свободы.

На основе этих условий можно сформулировать некоторые положения для успешного воспитания креативности в школе.

1. Учитель не должен выступать в роли дающего оценки организатора, а должен проявлять себя как личность, партнер, помощник, инициатор и эксперт.

2. Необходимо обеспечить условия, чтобы активные периоды сменялись расслаблением, что даст возможность учащимся размышлять над поставленным вопросом.

3. Проявляйте сами и цените юмор.

4. Чаще задавайте вопрос «а что, если?..» – это позволяет проявить свободную фантазию, пробуждает и поддерживает любознательность.

5. Поощряйте стремление задавать вопросы и самостоятельно находить ответы.

6. Организуйте ситуации, требующие творческого отношения.

7. Старайтесь избегать вопросов, на которые предполагается однозначный ответ: «да» или «нет».

8. Позволяйте обучающимся делать ошибки. Недаром говорят, что на ошибках учатся, поскольку они представляют собой активный поиск решения.

9. Воспитывайте в учениках адекватное отношение к критике и похвалам со стороны окружения. В образовании, направленном на развитие креативности, полное признание потенциала индивидуальной личности должно быть ведущим принципом.

Развитие креативных способностей, обучающихся осуществляется в процессе разнообразной творческой деятельности, в которой они взаимодействуют с окружающей действительностью и с другими людьми. Педагогический опыт позволяет конкретизировать понятие *творческая деятельность школьников*. Это продуктивная форма деятельности обучающихся, направленная на овладение творческим опытом познания, создания, преобразования, использования в новом качестве объектов материальной и духовной культуры в процессе образовательной деятельности, организованной в сотрудничестве с педагогом. Обобщая опыт работы, предпринимается попытка разработать творческие задания, ориентированные на развитие креативных способностей школьников в учебном процессе. Результатом этих заданий должны стать

более высокий уровень развития творческого мышления, творческого воображения, применение обучающимися методов творчества в процессе выполнения заданий [2;39-41].

Один из способов развития творческого мышления обучающихся на уроках истории – включение в содержание учебно-воспитательного процесса заданий творческого характера. К задачам творческого характера относят проблемные задачи, проблемные вопросы, ситуации и задания дивергентного типа, главная особенность которых состоит в том, что они допускают множество правильных ответов. Именно с такими задачами чаще всего сталкивается человек в творческой деятельности, в научном поиске, при создании произведений искусства, в руководящей работе, работе с детьми – здесь разрабатываемые проблемы имеют не один, а множество способов решения и множество правильных ответов. Творческие задачи требуют от обучающихся большой самостоятельности мышления.[3;48-52]

Выбор методов организации творческой деятельности осуществляется в зависимости от целей, уровня сложности содержания, уровня развития креативных способностей обучающихся, конкретных условий, сложившихся при выполнении творческого задания. Творческие задания предполагают применение обучающимися активных методов для организации самостоятельной творческой деятельности.

Самые востребованные творческие задания среди шестых классов:

1. **«Историческая справка».** Учащиеся составляют по заданной (или выбранной теме) справку. Например – 10 дат, 10 правителей, 10 терминов, связанных с историей определенного государства, исторического периода.

Данный прием можно применять на различных этапах урока. Можно как повторение раздела, или перед началом новой темы, как индивидуальное задание. Формы выполнения разнообразны – буклеты, презентации, «шпаргалки», «напоминали», справочники. С помощью такого творческого задания у детей развивается критическое мышление, они ощущают себя частью исторического сообщества, ведь именно они решают, что на самом деле важно знать о истории нашей страны.

2. **«Гид по истории».** Изложение в свободной форме истории одного государства, события и т.д. Ученикам дается полная свобода в представлении информации по выбранной теме. Главные критерии оценивания – заинтересовать слушателей, использование дополнительного материала, историческая достоверность. Данный метод

дает возможность раскрыться всему творческому потенциалу ребенка. Школьники пишут стихи, рисуют карты для путешествий, пойти на штурм города, создать атмосферу определенной эпохи. В полном объеме задействованы - критическое, креативное и творческое мышление. Чаще всего работа выполняется в группах, что также развивает коммуникативные способности обучающихся.

3. Логическая цепочка. Задается первое слово, учащиеся должны по цепочке продолжить, аргументируя свои варианты. Универсальность такой цепочки заключается в том, что тематику выбрать можно самую разнообразную – от одинаковой первой буквы, до государств с абсолютной монархией. Можно применять не только термины, но и даты, персоналии. Главное, чтобы твой выбор имел логическое обоснование. Если тема заинтересовала детей, то логическая цепочка может иметь разветвление, замыкаться в кольцо, выходить за рамки классной доски или тетради. При такой работе происходит не только повторение пройденного материала, но и отработка навыков логического мышления.

4. «Крестики-нолики». Известная игра, но с историческими вопросами. Класс делится на группы – «крестики» и «нолики», можно выделить третью группу «эксперты», которая будет задавать на каждый ход исторический вопрос. Если в начале знакомства с данной игрой учитель выступал «экспертом», то на сегодняшний момент класс свободно контролирует ход игры и выполнения регламента. В ходе игры задействовано всесторонне мышление, коммуникативные навыки, проявляется культура общения с коллективом.

Конечно, данные творческие задания не применяются ежедневно, требуют объемной подготовки учителя и учеников, и не подходят под все классные коллективы, но в конкретном случае работа может дать свои положительные результаты.

Список использованных литератур:

1. Авазбоев А., Пардабоев Ж. Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришининг самарали йуллари // *Замонавий таълим / Современное образование* 2018, 8
2. Студеникин М.Т. *Методика преподавания истории в школе.* М., 2004
3. Лернер И. Я. *Познавательные задачи в обучении истории и обществознания.* – М.: «Просвещение», 1998 г.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

*Аллаярова Дильфуза Кличевна,
преподаватель Самаркандского
Государственного университета
ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий*

Аннотация. Главной задачей образования является формирование в сознании подрастающего поколения языкового, научно-теоретического мировоззрения, воспитание всесторонне развитой личности, подходящей к событиям и явлениям со всесторонних позиций. Целью статьи является изучение ошибок и недостатков в воспитании всесторонне развитых и зрелых учащихся и их исправление, а также рассмотреть программы и методические пособия по использованию нетрадиционных методов, создающих творческую среду и дающих эффективные результаты на занятиях русского языка.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, активные отношения, занятия тренировочного типа, уровень возможностей, процесс обучения, возможность, активные товарищи.

Самостоятельное мышление – это способность, благодаря которой человек склоняется к собственному взгляду на вещи и события и находит нестандартные решения. Например: большинство людей знают, что такое ручка и для чего ее можно использовать. Это пишущий инструмент, но, дав волю нестандартному мышлению, его можно использовать как указку, или как счетную палочку, а его функции, такие как способность наматывать струну, могут быть приписаны читателем. Поэтому самостоятельное мышление означает наличие у студента собственных взглядов на сущность вещей и явлений. Его способность знать и понимать расширяет границы. Факторы, влияющие на развитие самостоятельного мышления:

Первое: самостоятельное мышление возникает только тогда, когда человек понимает сущность объекта. Учащийся начинает мыслить самостоятельно только тогда, когда он может изучать язык с помощью различных инструментов, чувствовать их суть, выражать свое мнение и отношение к ним. В этих коллективных интеллектуальных процессах

участник, группа и участники делают необходимый рациональный вывод среди правильных, близких к истине или ложных мнений.

Второе: для самостоятельного мышления необходим всесторонний анализ (синтез) имеющейся информации. Использование метода обучения в образовании эффективно при сопоставлении и анализе образа жизни на разных этапах развития, исторических процессов, вызвавших эту реальность, изучения последствий, вытекающих из результатов развития действительности с точки зрения с периодичности и обеспечивает интегративный подход к учебным предметам. В связи с этим специалист У. Мусаев высказывает следующее мнение: «Осуществление интеграции в образовании важно с педагогической и физиологической точки зрения, как с экономической, так и с экономической точки зрения».

В третьих, самостоятельное мышление возникает только тогда, когда человек понимает себя, понимает мысли других и вступает в активные отношения с другими. Учащийся, участвующий в занятиях тренировочного типа, понимает уровень своих возможностей, в процессе обучения он имеет возможность приблизиться к уровню активных товарищей, а иногда даже превзойти их.

В четвертых, в самостоятельном мышлении необходимо сделать так, чтобы учащийся чувствовал уверенность в собственных действиях. «Серьезная, глубокая истинная воля прежде всего выражается в гармонии с представлениями об уверенности в достижении цели», — писал Иоганн Гёте.

Психолог Дейл Карнеги описывает это как одно из 9 правил влияния на людей, не оскорбляя и не оскорбляя их. «Оказывайте честь людям, чтобы они вступали в акт ее оправдания» и поясняет это следующим примером: «Десятилетний мальчик, работавший на фабрике в Неаполе, мечтал стать певцом, но его первый учитель разочаровал его: - Ты не можешь стать певцом, твой голос, как ветер в щель окна! Его бедная мать всегда держала его на руках и говорила - я знаю, что ты умеешь петь, я чувствую изменение твоего голоса. Эти похвалы определили судьбу ребенка. Этим мальчиком (известным певцом) был Энрико Карузо».

Пятое: необходимо в мягком и искреннем тоне приглашать учащихся, равнодушных к уроку или не интересующихся данным предметом, к учебному процессу и поощрять их энтузиазм. Известно, что у каждого человека во время дебатов есть своя точка зрения, будь

он на стороне большинства или на стороне оппозиции. Очень немногие заявляют о нейтралитете. Эта ситуация также затрагивает учащихся, которые безразличны к занятиям и отдают предпочтение своей личной домашней работе над группой. В этих особенностях также видны преимущества обучения перед традиционными занятиями.

В-шестых: эффективное использование информации, приемов и наглядных пособий на учебных занятиях эффективно решает задачи развития любознательности и способности логического мышления учащихся. Организация учебного процесса на основе возможностей компьютера, в частности, учащимся могут быть показаны видеофрагменты на языковую тематику, образцы изобразительного искусства, фотографии литературных героев, а учащиеся могут быть направлены на разъяснение темы обсуждения и содержания учебного материала.

Седьмое: независимые мысли рождаются, формируются и развиваются, когда человек вступает в дискуссию. При обсуждении событий прошлого возникают разные предположения и взгляды. Однако все голоса важны, их нужно уметь слышать и делать правильные выводы²⁴. В процессе обсуждения, в отличие от традиционных занятий, выяснение того, что существуют противоположные мнения или сходные мнения, также формирует у человека более активные мнения по отношению к этим мнениям.

На основании вышеизложенного можно сделать следующий вывод:

- необходимо широко использовать методы обучения при изучении русского языка тем, эффективные в методике обучения исходя из изучаемой темы и возможностей обучающихся;

- исходя из методики обучения в образовании, преподавателю русского языка необходимо применять передовые образовательные элементы в процессе урока в соответствии с принципами современного глобального образования, чтобы сформировать у учащегося самостоятельное мышление;

- наряду с научно-теоретическим преподаванием тем в методиках обучения дать студенту возможность самостоятельно мыслить, проявить свои внутренние возможности и актерское мастерство;

- давайте вооружим студентов методическими знаниями с учетом их возрастных особенностей и творческих возможностей, ведь при

этом у студента появится возможность самостоятельно учиться и проявлять свою индивидуальность на обучении и в дальнейшем;

- необходимо издать программы и методические пособия по использованию нетрадиционных методов, создающих творческую среду и дающих эффективный результат на уроках русского языка.

Список использованных литератур:

1. Балыхина Т. М. Методика преподавания русского языка как неродного, нового. - М.: Издательство РУДН, 2007. - 185 с.

2. Голиков С. Н. Тесты по русскому языку для трудовых мигрантов: тренировочные материалы. - СПб.: Златоуст, 2013. - 112 с.

3. Лексический минимум по русскому языку как иностранному. Базовый уровень. Общее владение. - СПб.: Златоуст, 2000. - 115 с.

4. Шупленьков.О.В. Проблема формирования инновационной личности в современном обществе// Психология и психотехника, 2013. №8. –21 с.

TALABALARNING IJTIMOY FAOLLIKLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Usmonova Moxiraxon Maxammadjon qizi

Namangan Davlat Chet tillari instituti

Jahon tillari fakulteti tyutori

Annotatsiya. *Ushbu maqola talaba shaxsida ijtimoiy faollikni shakllantirishda e'tibor berish kerak bolgan eng katta jihatlaridan biri bo'lgan pedagogik –psixologik ishlar haqida so'z yuritadi. Shuning barobarida o'quvchi bu maqoladan "ijtimoiy faoliyat", o'z ijtimoiy vazifalarini to'la anglab etadigan har tomonlama etuk qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berilayotgan bir paytda har qanday shaxsning mehnatga,shu jamiyat manaviy –siyosiy jarayonlarga ,iqtisodiyotga bo'lgan ijtimoiy munosabatlarini o'rganib chiqadi va tahlil qiladi. Bu maqoladan pedagogika va psixologiya sohasining vakillari, soha bo'yicha ta'lim olayotgan talaba va magistrilar ham erkin izlanuvchilar foydalanishi mumkin.*

Kalit so'zlar. *Tehnologiya, demokratik, ijtimoiy hayot, motivatsiya, obyektiv, individ.*

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy hayotga yo'naltirish masalasi bugungi kunning muhim muammolaridan biridir. Chunki bu talabalar alohida e'tiborga loyiq bo'lib, talabalarini ijtimoiy hayotga yo'naltirishda pedagogik jarayonlarni yangi texnologiyalar asosida qurish, ta'lim jarayonida ijtimoiy hayotga yo'naltirishda qiziqarli, faol, noan'anaviy, yangi innovatsion usullardan foydalangan holda ularga kasbiy bilim asolarini berish, kasb-hunarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarga ijtimoiy faollik ruhini singdirishda tarbiya tamoyillaridan o'z o'rnida foydalanish-pedagogik jarayonlarning samarasini beradi. Ta'lim muassasasi talabalarini kasb-hunarga o'rgatishda, ularni ijtimoiy hayotga yo'naltirishda ta'lim-tarbiyaning asosiy didaktik prinsiplaridan tashqari tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi, tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalar ustunligi, tarbiyada talaba shaxsini hurmatlash, jamoani jamoa yordamida tarbiyalash, tarbiyada talaba xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarini yo'q qilishning ahamiyati katta. Talabalarni ijtimoiy hayotga yo'naltirishda ta'lim-tarbiya prinsiplarining uzviy bog'liqligini ta'minlashga erishish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarida amaliyotda ulardan oqilona foydalana olish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Shuni aytish mumkinki, ruhiy jihatdan asoslanmagan holda muayyan kasb tanlanganligidan shundan dalolat beradiki, bu kasbga yo'naltirish rejasida yoshlar bilan etarlicha ish olib borilmaganligi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, ta'lim muassasasi talabalarining kasbni noto'g'ri tanlaganliklarining bir nechta sabablari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) Ijtimoiy faollik turini tanlashda chuqur o'ylamay bir qarorga kelish;
- 2) Kasb egasining kasbga kasbga munosabatini ko'z oldiga keltirish;
- 3) Kasbning tashqi ko'rinishiga qarab qiziqish;
- 4) Qiziqishning ijtimoiy faollik bilan birlashib ketishi;
- 5) Qiziqish, iste'dod, qobiliyatni tushuna bilmaslik;
- 6) Ijtimoiy mavqeini tanlash.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etish biz pedagoglarning asosiy vazifamiz bo'lib, talaba-yoshlar qobiliyatini maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlantirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning ijobiy qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, fan olimpiadalari, ko'rik tanlovlari, uchrashuvlarga jalb etish lozim.

Talaba shaxsining faolligi eng ko'p darajada uning o'zini tarbiyalash xususida jiddiy o'ylay boshlaganida, o'zini mukammallashtirish dasturini

ishlab chiqara borib, bu dasturni bajarish uchun alohida, maxsus kuch-quvvat, imkoniyatlarini sarflab, o'z shaxsini faol tarzda shakllantirib borishda ko'proq namoyon bo'ladi.

Ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo'lmaydi. Ya'ni talabaning faolligi uning mustaqilligi orqali vujudga keladi. Mustaqillik tufayli talaba ta'limning faol subyektiga aylanadi. Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi, faollik esa o'z navbatida talabalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi.

Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy faollik tarbiyasi shaxs taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. **Birinchidan**, tarbiya vositasi yordamida muhit ta'sir qila olmagan narsalar o'rganiladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar va malakalar hosil bo'ladi.

Ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo'lmaydi. Ya'ni talabaning faolligi uning mustaqilligi orqali vujudga keladi. Mustaqillik tufayli talaba ta'limning faol subyektiga aylanadi. Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi, faollik esa o'z navbatida talabalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi.

Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Bugungi sharoitda, ayniqsa, yosharning tashabbuskorligi, mustaqilligi va ishga ijodiy yondashuvi, ijtimoiy faolligi masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Talabalarning tashabbuskorligi va mustaqilligi har tomonlama rag'batlantirib va rivojlantirib borib, ular bilan munosabatlarini korrektirovka qilish va bu boradagi ortib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga e'tiborni qaratmoq kerak.

Shu bilan birga, ularning kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yubormaslik zarur. Aks holda, o'zibo'larchilik kabi illatlar ham kelib chiqishi mumkin. Ayniqsa, talabalarda o'zlari boshlayotgan mustaqil faoliyat yo'nalishining turlari va yo'llarini to'g'ri baholash, imkoniyat darajasida harakat qilish, mustaqil xulosa yasash, baho berish ko'nikmalarini yuzaga kelishida to'g'ri pedagogik rahbarlikning roli katta hisoblanadi. Bu asta-sekin yangi subyektiv omilning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalashga tayyor bo'lish kabi sifatlarning shakllantirishga yordam beradi.

Tarbiya jarayoni samaradorligini baholash uchun tarbiyalanuvchining faoliyati, uning xulqini o'rganish zarur. Chunki insonni uning harakatlari, bevosita faoliyati orqali baholash mumkin. Talabalarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini ularning echimga muvofiq keladigan barcha asosiy faoliyatdagi qatnashuvi darajasi bilan belgilash mumkin. Bu o'rinda talabalarning o'yin, o'quv, mehnat, ijtimoiy va boshqa sohalardagi ishtiroki natijalari ko'zda tutiladi.

Shuningdek, har bir shaxsning ijtimoiy tarbiyalanganlik darajasini, uning axloqiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi ma'lumoti, bilim darajasi ham ko'rsatib beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarning ijtimoiy faolligi va hayoti - g'oyaviy, g'oyaviy-siyosiy e'tiqod, mehnat faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jismoniy sog'lomlashtirish, ishlab-chiqarish, tashkilotchilik, yaratuvchanlik, pedagogik jarayon, vatanparvarlik, insonparvarlik, badiiy ijodiyot asosida tarbiyalanib boradi.

Filosofik, psixo-pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha, talabalaridagi ijtimoiy faollikning asosini o'zligini anglash va o'z-o'zini boshqarish tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'zligini anglash, o'z-o'zini boshqarish o'z navbatida kishidagi ma'naviy komillikni, sog'lom turmush tarzini ham ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ijtimoiy faollikni talabalar ongida ta'lim jarayoni, tarbiya jarayoni, jamoat topshiriqlari, mehnat faoliyati, ijtimoiy muhit, mahalla jamoatchilik ta'siri orqali singdirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim muassasasi talaba-talabalarini ijtimoiy hayotga tayyorlash ta'lim-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.*

2. *Usarov, J. (2019). Using Teaching Methods for Development Student Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies.*

3. *Ernazarova, G. (2016). Improvement of Vocational Training of Vocational Colleges students!\$ on basis of Acmeological Approach. Eastern European Scientific Journal.*

4. *Utaev, A. Y., & Matyakubova, M.B. (2019). Psychological foundations of speech development. Scientific-practical conference "Modern system cluster in*

the context of innovations and reforms in education: problems, approaches and prospects»

5. Samarova, S. (2018). *Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern European Scientific Journal.*

6. Xalq ta'limi: "Ijtimoiy faollikka o'rgatish yo'llari" №6, 2008. 18. Xalq ta'limi: "Ijtimoiylashtirish" №3, 2006.

UZLUKSIZ ADABIY TA'LIM – MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYANING ASOSI

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna

pedagogika fanlari doktori (DSc)

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash uhandislari instituti"

Milliy tadqiqot universiteti

Kalit so'zlar: *milliy ta'lim tizimi, uzluksiz adabiy ta'lim, yosh avlod, tub islohotlar, ilm-ma'rifat, ma'naviy asos, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar, ta'limga yangicha yondashuv, mafkuraviy immunitet.*

Annotatsiya. *Yangi O'zbekistonda tub islohotlarni amalga oshirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimiga, jumladan, oliy ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'ydi. Dunyodagi global o'zgarishlarni hisobga olib, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlar ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro'y berayotgan vaziyatarni baholash hamda milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda real yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdan iborat.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimi har tomonlama ustuvor soha bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash uchun zamonaviy darajadagi barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Yangi O'zbekistonda tub islohotlarni amalga oshirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimiga, jumladan, oliy ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'ydi. Dunyodagi global o'zgarishlarni hisobga olib, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi

tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Shaxs o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ymasa, kamolga erisha olmagan kabi jamiyat ham ulug'vor g'oyalarsiz taraqqiy etishi mumkin emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Uchinchi Renessans g'oyasi mamlakatimiz taraqqiyotining asosi etib belgilanishi, shu jihatdan, alohida ahamiyatga ega. Ushbu g'oyani to'laqonli amalga oshirish uchun har bir soha, jumladan, ta'lim tizimida ham aniq konsepsiya ishlab chiqilishi va shunga asoslangan konseptual vazifalar belgilab olinishi hayotiy zaruratdir. Davlatimiz rahbarining "Yoshlar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi: "Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning yangi Uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qo'shilayotgan yoshlarimiz – asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir", - degan so'zlari ta'lim tizimi oldiga muhim vazifalarni qo'yadi.[1]

Uchinchi Renessans g'oyasini vatanparvarlarsiz amalga oshirish qiyin. Vatanparvarlik tarbiyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirishda esa hech bir fan adabiyot darajasida ta'sir kuchiga ega emas. Adabiyot ta'limini ana shu maqsadga yo'naltirish uchun esa bir qancha ilmiy-metodik tamoyillarga amal qilish zarurati tug'iladi.

Birinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot ta'limining yoshlar qalbiga milliy ruhni singdirish vositasi sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirish. Ma'lumki, o'tgan asr avvalida ma'rifatparvar jadidlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning mukammal tizimini ishlab chiqqan edi. Unga ko'ra: "...o'qitiladigan darsning mazmunidan uni o'qitish usuli va baholash jarayonigacha, o'quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvaliyu qishki va yozgi ta'tiligacha, maktabning joylashish o'rnidan sinf xonalarining jihoziyu yorug'lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko'rib chiqilib, maktab ta'limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Bu dastur "usuli jadid" nomi bilan shuhrat topdi".[2]

Bugungi kunda ham Uchinchi Renessansni barpo etish g'oyasidan kelib chiqib, adabiyot ta'limiga milliy ruhni singdirish mezonlari asosida yondashuv mexanizmlarini ishlab chiqish zamon taqozosidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari «Adabiyot» dasturida belgilangan: «**Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish...**» tarzidagi vazifalar buning uchun asos sifatida olinishi mumkin.[3]

Yosh avlod ongi va qalbiga milliy ruhni singdirish – vatanparvarlik tarbiyasining asosiy shartlaridandir. Milliy ruhning asosi esa milliy axloqda namoyon bo‘ladi. Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, ta’lim tizimiga joriy etish zarur. Faqat bunda chet el tajribasining xalqimiz dunyoqarashiga, asl tabiatiga, ko‘p asrlik qadriyatlarimizga daxl qilmasligi, zarar yetkazmasligi masalasiga alohida diqqat qaratish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda rus pedagogi V.M.Lizinskiyning quyidagi qarashlari muhimdir: «... pedagogik jamoalar tanqidiy qaramay turib, hadeb g‘arb metodikasini, televizion usullarni, begona bayramlar va shakllarni ko‘chirish bilan shug‘ullanishadi. Men aminmanki, bizda o‘z intellektual kuchimiz bor, madaniyatimiz va talantlarimiz bor. Biz faqat ulardagi yaxshi jihatlarni olib, o‘rganibgina qolmay, o‘zimiz bolalar bilan birga yangi, qiziqarli, mazmunli, o‘ziga tortuvchan, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ko‘p narsalar yaratishimiz mumkin»[4].

Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligiga asoslangan milliy ta’lim tizimi ko‘p asrlik an‘analariga hamda mustahkam ildizlariga ega ekani ma’lum. Ta’lim tizimida millatning axloqi, irodasi hamda e’tiqodi asoslari aks etgan «Qobusnoma», «Qutadg‘u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Mahbub ul-qulub» kabi mumtoz asarlarda yoritilgan axloqiy-ma’rifiy qarashlarga tayanilgan. Chunki boshqa fanlar o‘quvchining individual tafakkurini o‘stirsa, adabiyot bir vaqtning o‘zida aql, ko‘ngil va ruhni tarbiyalash qudratiga ega. U inson ko‘nglini g‘uborlardan poklaydi, tafakkurini yovuz o‘y-fikrlardan muhofaza qiladi, ruhini yuksaltiradi. “Adabiyot – o‘tkir yurak kirlarini yuvadig‘on toza ma’rifat suvi”, deganda ma’rifatparvar Abdulhamid Cho‘lpon ana shuni nazarda tutgan edi.[5]

Adabiyotshunos Begali Qosimov jadid adabiyotidagi axloqiy qarashlar tizimini tadqiq qilar ekan, shaxs va jamiyat axloqining o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi haqidagi to‘xtamga keladi. Olimning yozishicha: «*Axloq – bu xulqlar majmui. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin bular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishdan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi... Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan*».[2]

Olim uy va oila birligi milliy ta’lim-tarbiyaning asosi ekani haqida fikr yuritgan. Aslida, o‘zbek xalqi azaldan ta’lim va tarbiyani birga olib borgan. Farzand tarbiyasida *uy-maktab-mahalla* uchligi tamoyiliga amal qilingan. Natijada komil shaxs tarbiyasida ota-ona va muallimdan tashqari mahalla-

ko'ying ham muayyan ta'siri bo'lgan. Agar chuqurroq e'tibor qaratilsa, bu ta'lim-tarbiyaning butun boshli bir tizimi ekani, xalqimiz orasidan etuk shoiru adiblar, olimu mutafakkirlar, ulug' avliyolar etishib chiqishi zaminida ana shu tizim turishi ayon bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiyada ta'lim jarayoni texnologiyasini to'g'ri tashkil etish. Bizningcha, ta'lim va tarbiyaning asosida «**Tarbiya nimadan boshlanadi?**» so'rog'i turadi. Ushbu savol barchani o'qituvchi shaxsi, imkoniyatlari, uning o'quvchilarga va o'quvchilarning o'qituvchilarga munosabatlari kabi jiddiy masalalarga jalb qiladi. Chunki tarbiya aynan o'quv faoliyati bilan bog'langan holda olib borilishi shart.

Metodist olimlarning fikricha, o'qitish jarayoniga uzviylik negizida texnologik to'g'ri yondashuv ta'lim-tarbiyada muvaffaqiyatga erishuv asosidir. O'qituvchining intellektual salohiyati baland bo'lishi, ta'lim berish jarayonida o'z imkoniyatini to'liq safarbar eta bilishi, o'quvchi iste'dodining zohirda ko'rinib turmaydigan, yashirin jihatlarini yuzaga chiqara olishi, ayniqsa, muhimdir. Har bir umumiy ta'lim pedagogi ana shu xususiyatlarni e'tiborga olishi, o'z bilim va malakasini muntazam takomillashtirib borishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, oxir-oqibatda jamiyat miqyosida intellektual saviyaning yuksalishiga xizmat qiladi. Bu o'rinda bir narsaga alohida diqqat qaratish zarur: intellektual salohiyat milliy g'urur tuyg'usi bilan uyg'unlashgandagina kutilgan samarani beradi. Masalan, Alisher Navoiy turkiy til (o'zbek tili) boyliklarini namoyish etish orqali paydo qilgan o'z ona tilidan g'ururlanish hissini o'quvchilarga anglatish, his ettirish lozim.

O'quvchilar e'tiborini Alisher Navoiy nutq va tilning o'ziga xosligini nozik ilg'agani hamda muxtasar va ta'sirli ifodalaganiga qaratish zarur: "*Til muncha sharaf birla nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur*". Ya'ni ulug' mutafakkir til shu qadar sharafi bilan nutqning(quoli) ziynatiga xizmat qilishini va o'z navbatida, agar nutq e'tiborsizlik natijasida yuzaga kelsa, tilga ofat keltirishini alohida ta'kidlaydi.

O'quvchi tuyg'ularini vatanparvarlikka yo'naltirish va barqarorlatish faqat umumiy o'rta ta'limninggina vazifasi emas. Bunda uzluksiz hayot jarayoni ya'ni: farzand – oila, bog'cha, mahalla, qarindosh-urug' va yaqin kishilarning o'zaro munosabatlar jarayonlarida ham kamolga erishadi. O'quv jarayonining o'zagi bo'lgan «**Butun hayot davomidagi ta'lim**» tamoyili «**Barcha hayot tarzi orqali ta'lim**» tarzida ifodalana boshlagani sababi shunda.[7]

Darhaqiqat, ta'lim va tarbiya turmushning barcha jabhalarida, inson umrining barcha davrlarida izchil takomillashib boradi. Bu hol uzluksiz

ta'lim va "Adabiyot" darslarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zaruratini istisno qilmaydi. Bunda adabiy ta'lim muvaffaqiyati *o'qitish o'quvchining turli xil qabul qilish jihatlariga ta'sir etadigan bo'lishi; o'quvchilar ular oldiga qo'yilgan vazifalar bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lishlari; yangiliklar bilan tanishtirish, murakkabliklarni soddalashtirib berish; deduksiya va induksiyaning uyg'un qo'llash kabi omillarga bog'liqdir.* Mazkur omillar adabiyot o'qitishning istiqbolini ham belgilaydi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida adabiyot o'qitish metodikasi rivoji hamda adabiy ta'limni takomillashtirish quyidagi omillar orqali yuzaga keladi:

- *adabiyot o'qishga qiziqish tuyg'usini o'stirish;*
- *e'tiborni badiiy asarning o'quvchiga ma'naviy, estetik va hissiy ta'sir etishiga qaratish;*
- *o'quvchida go'zallikni his etishni rivojlantirish, onglilik va mustaqillikni tarbiyalash;*
- *adabiyotga ijodiy, individual yondashuvni shakllantirish;*
- *U O'TM bilan ta'limning turli bosqichlaridagi adabiyot o'qitish orasidagi tizimli aloqani aniqlashdan kelib chiqadi.*

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish; o'qitishni differensiyalash (farqlash, ajratish); predmetlar va aniq metodlarni integratsiyalash (uyg'unlashtirish); o'qitish saviyasini fan taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirish; o'qitishning yangi shakllarini izlash; adabiyot darslarini loyihalashtirish; dasturga mos darslarning yangi texnologiyasi hamda texnologik xaritasining yaratishni ko'zda tutadi.

Bularni amalga oshirish uchun ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati bilan hamqadam fikrlay oladigan, pedagogik faoliyatga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini mahorat bilan qo'llay biladigan yangi avlod kadrlarini etishtirish, o'quvchi yoshlarga vatanparvarlik, komillik kabi umrboqiy g'oyalar asosida ta'lim-tarbiya berish, adabiy ta'limni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosiga takomillashtirish, UO'TMda ijodiy tafakkurga keng yo'l ochish uchun ularga muvofiq tizimlarni yaratish taqozo etiladi.

Adabiy ta'lim jamiyat takomili va shaxs kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsata olishi bilan xarakterlanadi. Chunki adabiyot mavjud voqelikni badiiy aks ettirishi, obrazli tasvir orqali o'quvchi hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi, nafaqat ong va tafakkurda, balki inson qalbi va ruhida o'zgarish yasay olishi jihatidan boshqa fan sohalaridan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham yosh avlod shuuri va ruhiyatida vatanparvarlik tuyg'usini adabiyot darajasida tarbiyalay oladigan boshqa fanni topish qiyin.

Uchinchidan, yangi davr o'zbek adabiyotini davrlashtirish orqali o'qitishda yuqori natijalarga erishish. Jamiyat taraqqiyotining mezoni hisoblangan ta'lim maskanlari faoliyatiga ijtimoiy hayotdagi eng kichik

o'zgarishdan ulkan evrilishlargacha bo'lgan jarayonlar ta'sir etmay qolmaydi. Tafakkur yangilanishi ta'lim tizimini o'zgartirgani singari ta'lim tizimi ham tafakkur yuksalishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy voqelik ta'sirida adabiy ta'limning mazmuni va shaklida muayyan yangilanishlar bo'lishi tabiiy. Millatning badiiy-estetik tafakkuri yuksalishi uchun asos bo'la oluvchi adabiyotning davrlashtirilishi masalasi uni o'qitishda yuqori natijalarga erishishni ta'minlashi jihatidan alohida ahamiyatga ega.

Shu tariqa, xalqning fikrini uyg'otish, buning birdan-bir yo'li sifatida ma'rifat tarqatish, olamning ravishiga nazar solish, o'z «men»i bilan o'zgalar «men»ini qiyoslash, shu zaylda millat tafakkurini yangilash, uni dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasiga yuksaltirish adabiyotning asosiy mavzusiga aylandi. Aslida, "Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriylar irodasining bukilmaligi – Vatan tuyg'usini aziz jonlaridan ham a'lo ko'rgani – vatanparvarlik tarbiyasining shaxs ma'naviy kamolotida yuksak maqomda turishini ko'rsatadi"[2].

Abdulhamid Cho'lpon fikricha, adabiyot Vatan va millat mavjudligi asosi, xalqning ma'naviy boyligidir. Ajabki, Cho'lpon hali o'smirligidayoq millat taqdiri, demakki, vatan taqdirini, istiqbolini ma'rifatparvarlik bilan bog'laydi. "Adabiyoti o'lmag'an (bo'lmag'an) va adabiyotning taraqqiysiga chalishmag'an (ko'maklashmagan) va adiblar etishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur". Uning xulosasi ham keskin va aniq: "Adabiyot yashasa – millat yashar"[5].

Cho'lponning ushbu fikr-mulohazalari xalq hayotidagi yuz berayotgan adolatsizlik, mustamlaka tizimidagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning keskinligi, boshi-kefi yo'q xunrezliklarga nisbatan yosh ijodkor Abdulhamidni o'z vaqtidan oldin ulg'aytirib, millat dardini his qila olish kabi ma'naviy yetukligini dalilladi.

Amaldagi ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan bunday kamchiliklar yoshlar tarbiyasida bo'shliq paydo qildi va yoshlarning begonalar tuzog'iga ilinishi, ulardan nopok maqsadlarda foydalanilishiga ham olib keladi. Ko'rinadiki, ta'lim-tarbiyada vatanparvarlikni o'rganish uning samarali yo'llarini izlash, bugungi kun talabiga aylandi. Bunda ayniqsa, adabiy ta'limga munosabatni o'zgartirish zarur bo'ldi.

Ta'lim jarayonida alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirish, ularni chuqur o'zlashtirish, asosiy predmet va g'oya atrofiga jipslashtirishga harakat qilishdan birgina maqsad – o'quvchining ijodiy tafakkurini, ma'naviyatini o'stirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu islohotlardan ko'rinadiki, adabiyot fani bir yo'nalishda turgan, buning boisi ayni vaqtda tarbiyaning asosi ham hisoblanadi. Aynan

vatanparvarlik, vatanga sodiqlik, o'z xalqining kelajagi uchun xizmat qilish adabiy ta'limning bosh maqsadi, vazifasi hisoblanadi. Adabiyot – inson shaxsini tarbiyalovchi, uni buyuk ishlarga yo'naltiruvchi tengsiz kuch.

Milliy ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlar ham yuqoridagi maqsadlar bilan birga insonni barcha tarbiyaviy tadbirlarning markaziga qo'ydi. Yangilangan pedagogika insonni oliy qadriyat deb hisoblaydigan tarbiya tizimini yaratishni bosh maqsadga aylantirdi.

Ma'lumki, tarbiya insonda mavjud ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish yoki qusurlarni yo'qotishga xizmat qiladi. Bu jarayon samaradorligi uzluksiz davom ettirilganida o'z natijasini beradi ya'ni tarbiyalanuvchining bo'layotgan voqea-hodisalarni qalbidan o'tkazishi, unga o'z munosabatlarini tarkib toptirishiga bog'liq holda amalga oshadi.

UO'TM adabiy ta'limi har bir davrning, ijtimoiy-siyosiy tuzumidan qat'i nazar, e'tibor tortar masalasi bo'lgan. Har bir hukmron mafkura adabiyotning ishonirish, ergashtirish kuchini juda yaxshi anglagani, o'z g'oyalarni odamlarga singdirishning sinalgan yo'li sifatida qaragan.

Yuqoridagi kuzatuv va tahlillar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

– uzluksiz adabiy ta'lim tizimlari mobaynida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi va tiklanayotgan milliy-ma'naviy qadriyatlarni yoshlarga singdirishda uning o'rni, ayniqsa, muhim ekanligi ma'lum bo'ldi:

– adabiy ta'lim tizimi istiqloqlning ilk kunlaridan sifat o'zgarishlarga, tahliliy islohotlarga uchradi, buning natijasi milliy ilmiy-metodik pedagogikamizni yuzaga keltirdi;

– uzliksiz ta'lim mezonlari orqali adabiyot o'qitishni tashkil etuvchi badiiy asarlarni saralash prinsiplari yangilandi: ijtimoiy degumanizatsiyadan inson oliy qadriyat ekanligi anglandi.

– Milliy o'zbek pedagogikasi tayanadigan tamoyillar adabiy ta'lim zaminida qayta ko'rib chiqilishi, mazmunan yangilanishi tom ma'noda, milliylikka yo'g'rilishi va ijtimoiylashishi bugungi kun talabiga aylandi;

– tadqiqot jarayonida uzluksiz ta'lim bosqichlarida adabiyot o'qitishni o'zgacha tashkil etish, adabiy ta'limga munosabatni tubdan yangilash, yangicha pedagogik talablar asosida adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi va professionalligini oshirish, yuz berayotgan o'zgarishlarga sog'lom munosabatni ta'minlash ishlari kuchaytirildi;

– Bunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ehtiyoj, istak va zaruratning o'zaro mos kelishiga alohida e'tibor qaratilishi kerak;

– yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimlari, shuningdek, oliy ta’limning asosiy muammosi sifatida qabul qilinishi, bu esa mamlakat kelajagi uchun juda muhim ekanligi ayon bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. *Xalq so‘zi*. – T.: O‘zbekiston. 2021 yil, 8 iyul.
2. Qosimov B. *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 21-bet.
3. *Ta’lim taraqqiyoti*. – T., 1999. 1-maxsus son, 166-bet.
4. Лизинский В. М. *Приёмы и формы в воспитании*. – М.: Центра педагогических ПОИСК, 2004. – С.3.
5. Cho‘lpon. *Tilimizning ishlanishi. Asarlar. IV jild*. – Toshkent: Akademiya nashri, 2016. – B. 12.
6. Селевко Г.К. *Энциклопедия познавательных технологий*. – М., 2006. 1-том.
7. Shermatova U. “O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari” (Cho‘lpon ijodi misolida), mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi. 2021 yil. – T., 152-b.

TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Xudoynazarova Sug‘diyona Tillamurodovna,
Sharobiddinov Shoxislombek Yasharbek o‘g‘li
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti,
Internet jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlar
fakulteti 4-kurs talabalari

Annotatsiya: So‘nggi o‘n yilliklarda butun dunyo hamjamiyatiga davlat va insonni tashkil etishning universal modeli sifatida liberal standart taklif qilinmoqda, uning mohiyati dunyoviy manfaatlarning axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlardan ustunligidadir. Har bir narsaga va hamma narsaga bag‘rikenglik tamoyiliga asoslangan noan’anaviy mafkura aqliy taraqqiyotning axloqiy kamolotdan ustunligini ta’kidlab, ta’limning tarbiyadan alohida bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu maqolada ta’lim muassalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari tadqiq etiladi.

Kalit soʻzlar: maʼnaviy-maʼrifiy suhbat; tarbiya; taʼlim; ahloq; ahloqiy tarbiya; tarixiy xotira.

Taʼlimning eng samarali usullaridan biri maʼnaviy-maʼrifiy suhbatdir. Maʼnaviy-maʼrifiy suhbatlar yosh avlodning maʼnaviy-maʼrifiy bilimlarni egallashiga, maktab oʻquvchilarida maʼnaviy-maʼrifiy gʻoyalar va tushunchalarning rivojlanishiga, maʼnaviy-maʼrifiy muammolarga qiziqishning rivojlanishiga, maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatni baholashga intilishiga yordam beradi. Maʼnaviy-maʼrifiy suhbatning asosiy maqsadi maktab oʻquvchilariga murakkab maʼnaviy-maʼrifiy masalalarni tushunishga yordam berish, bolalar oʻrtasida mustahkam maʼnaviy-maʼrifiy pozitsiyani shakllantirish, har bir oʻquvchining shaxsiy maʼnaviy-maʼrifiy xatti-harakatlar tajribasini amalga oshirishga yordam berish va oʻquvchilarda maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarni rivojlantirish qobiliyatini singdirishdir. Maʼnaviy-maʼrifiy suhbatlar jarayonida bolalar maʼnaviy-maʼrifiy muammolarni muhokama qilishda faol ishtirok etishlari, oʻzlari maʼlum xulosalarga kelishlari, shaxsiy fikrini himoya qilishni oʻrganishlari va oʻrtoqlarini ishontirishlari kerak. Maʼnaviy-maʼrifiy suhbat bolalarning kundalik hayotidagi aniq fakt va hodisalarni, badiiy adabiyotdan, davriy nashrlardan, filmlardan misollarni tahlil qilish va muhokama qilishga asoslanadi.

Maʼnaviy-maʼrifiy suhbatning oʻziga xos xususiyati shundaki, u bolalarning oʻzlarini maʼnaviy-maʼrifiy harakatlar toʻgʻrisida toʻgʻri baholash va mulohazalarni rivojlantirishga jalb qilish usulidir.

Maʼnaviy-maʼrifiy suhbat oʻqituvchidan bolalarga maʼnaviy yaqinlikni talab qiladi. Yigitlar oʻqituvchiga ishonishlari, uni sevishlari kerak, faqat bu holda ular oʻz fikrlarini baham koʻrishni xohlashadi. Suhbat davomida oʻqituvchi bolaning ichki dunyosiga hurmat koʻrsatadi, toʻgʻridan-toʻgʻri, xushmuomalalikdan ehtiyot boʻladi.

Maʼnaviy-maʼrifiy suhbat ikki usulda olib boriladi - induktiv va deduktiv.

Maʼnaviy-maʼrifiy tarbiyani maʼnaviy-maʼrifiy-irodaviy sohani rivojlantiruvchi, ong va xulq-atvor birligini shakllantirishga yordam beruvchi kitob kabi vosita yordam berishi mumkin, kitob yordamida har qanday maʼnaviy-maʼrifiy meʼyorlarni singdirish mumkin. Har qanday obyekt maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya vositasi boʻlib xizmat qilishi mumkin, hamma narsa faqat tarbiyachining saʼy-harakatlariga bogʻliq.

Tarbiya usullari - bu shaxsga shakllantiruvchi taʼsir koʻrsatadigan ijtimoiy voqelikning obyektiv omillarining pedagogik proektsiyasi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani amalga oshirishda ongni shakllantirishning taklif, murojaat, dialog, dalillar kabi usullari ko'pincha qo'llaniladi, ammo zamonaviy pedagogika fani faoliyat yuritadigan barcha ta'lim usullaridan foydalanish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya turli usullarda, asosan, ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, ma'ruzalar, bahslar, mavzuli maktab kechalari, turli kasb vakillari bilan uchrashuvlar, kitobxonlar konferensiyalari va hokazolar orqali amalga oshiriladi.

Suhbat natijasi o'qituvchining yorqin, ishonchli so'zi bo'lib, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha xulosa chiqaradi, bolalarga amaliy tavsiyalar beradi. Ma'naviy-ma'rifiy suhbatlarda asosiy rol o'qituvchiga tegishli bo'lib, u so'zni yaxshi bilishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya mazmuni tushunchasi, tarbiyaning umumiy maqsadlari va jamiyat axloqi bilan belgilanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning maqsadlari: har bir o'quvchi shaxsining ma'naviy zaxiralarini shakllantirish, go'zallikka qoyil qolish va unga g'amxo'rlik qilish tuyg'usini rivojlantirish, fuqarolik ongining asoslari.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jamiyat axloqidan ajralmasdir, shu munosabat bilan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) vatanga, boshqa mamlakat va xalqlarga munosabat: ona Vatanga muhabbat va sadoqat; milliy va irqiy adovatga toqat qilmaslik; barcha mamlakatlar va xalqlarga yaxshi niyat; millatlararo munosabatlar madaniyati;

2) mehnatga munosabat: umumiy va shaxsiy manfaat uchun vijdonan mehnat qilish; mehnat intizomiga rioya qilish;

3) jamoat mulki va moddiy qadriyatlarga munosabat: jamoat mulkini saqlash va ko'paytirish haqida g'amxo'rlik, tejamkorlik, tabiatni muhofaza qilish;

4) odamlarga munosabat: kollektivizm, demokratiya, o'zaro yordam, insonparvarlik, o'zaro hurmat, oila va bolalarni tarbiyalash;

5) o'ziga nisbatan munosabat: davlat burchini yuksak ongli; o'z-o'zini hurmat qilish, halollik;

6) davlatimiz siyosatiga munosabat: jahon taraqqiyotining borishi va istiqbollarni tushunish; mamlakat ichidagi va xalqaro maydondagi voqealarni to'g'ri baholash; ma'naviy-ma'rifiy va ma'naviy qadriyatlarni tushunish; adolat, demokratiya va xalqlar erkinligi uchun intilish.

Bizning fikrimizcha, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya har bir darsda, har bir tanaffusda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladi. Har qanday

hodisa, har qanday voqea bolalarga ma'naviy-ma'rifiy saboq berish uchun imkoniyat bo'lishi mumkin.

Dam olish kunlari - bolalar uchun darslar, ma'naviyat asoslari va qiziqarli hikoyalari tushunarli, o'ynoqi tarzda aytiladi. Ism darslar kunidan - yakshanba kunidan shakllanadi. Bu o'ziga xos "oilaviy muhit" yaratish g'oyasi bo'lib, u bolani o'z oilasi bilan munosabatlarni yaxshilash uchun mo'ljallangan, lekin bolaga ko'p jihatdan o'rab turgan narsaga muqobil bo'lgan mutlaqo boshqa insoniy munosabatlar olamiga tushishiga yordam beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy tamoyillarni rivojlantirish uchun bir qancha tamoyillar mavjud bo'lib ularga misol sifatida quyida bir qanchasi keltirib o'tilgan. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bo'yicha barcha davlat va jamoat tuzilmalarining muvofiqlashtirilgan, maqsadli ish olib borishini nazarda tutuvchi tizimli tashkil etilgan yondashuv tamoyili;

Qiymatga yo'naltirilganlik tamoyili. Ma'naviy va qadriyat yo'nalishlari - bu shaxs uchun semantik hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan, uning xatti-harakatlarini aniqlash tizimida markaziy o'rinni egallagan yo'nalishlar. Ular shaxs dunyoqarashining yo'nalishi va xarakterini belgilaydi. Insonni inson qiladigan yangi tamoyil hayotning tabiiy evolyutsiyasiga kamaymaydi, balki aql tushunchasi, fikr va tafakkurda fikrlash va mehr-muhabbat, muhabbat, tavba kabi hissiy ixtiyoriy harakatlarni o'z ichiga oladi;

Ma'naviy-ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada aholining har bir yoshi, ijtimoiy, kasbiy va boshqa guruhlarini hisobga olgan holda ishning maxsus shakllari va usullaridan foydalanishni nazarda tutuvchi maqsadli yondashuv tamoyili. U ma'naviy-ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada oila, yaqin atrof-muhit, ta'lim muassasasi, etnik-madaniy muhit, ishlab chiqarish jamoasi, yashash hududi kabi omillarning ko'p bosqichli ishtirokini ko'rsatadi. va umuman jamiyatning boshqa xususiyatlari;

Aholining dunyoqarashi va uning qadriyat yo'nalishlarini o'zgartirishda qat'iyat va oqilona tashabbuskorlikni ta'minlovchi, mintaqa manfaatlariga yo'naltirilgan faoliyat tamoyili. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida bu tamoyil insonning mamlakatda sodir bo'layotgan hamma narsaga faol munosabatini nazarda tutadi; Har bir fuqaroning moddiy va ma'naviy sohalarni turli darajadagi ijtimoiy ahamiyatga ega o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati: federal, mintaqaviy, mahalliy, ham butun insoniyatning, ham rus xalqining, alohida millat yoki millatning to'plangan tarixiy tajribasini rivojlantirish sharti bilan. Faoliyat tamoyili

atrof-muhitni yaxshilash uchun ijodiy faoliyatda, irodaviy fazilatlarda, mashg'ulotlarda namoyon bo'ladi;

Xalqning tarixiy xotirasini asrab-avaylash tamoyili, bu o'tmish voqealari, bu voqealar sodir bo'lgan vaqt va joy haqidagi barcha turdagi ma'lumotlarni turli shakllarda saqlash zarurligini nazarda tutadi; ularda ishtirok etgan shaxslar haqida. Bu tamoyil tarixni bilish, o'z xalqining tarixiy an'alarini asrab-avaylash, ularni xotirada saqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tarixiy xotira ma'naviy-ma'naviy-ma'rifiy shaxsni shakllantirishning asosi, poydevoridir. Tuzilgan tamoyil, ayniqsa, jangari antitarixizm o'z faoliyatini faollashtirgan O'zbekistonning zamonaviy tarixi uchun dolzarbdir, uning asosiy maqsadi ma'lum ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan kelib chiqib, mamlakat va xalq tarixini buzib ko'rsatishdir. Demak, real tarixni barcha konkret rang-barangligi bilan xolisona o'rganish va talqin etish, tarixiy faktlarni aniqlash va ular asosida tarixiy jarayonni, uning borishining obyektiv qonuniyatlari va mantiqini aqliy qayta qurish zaruriyati tug'iladi. Ushbu tamoyilga rioya qilish aholining tarixiy o'z-o'zini anglashining shakllanishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida tarix bilimlarini o'zlashtirishga, tarixiy tajribani idrok etishga qodir yuqori ma'naviy-ma'rifiy ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi.

O'lkashunoslik tamoyili bo'lib, u o'z hududi (mikrorayon, shahar, qishloq, tuman, viloyat, viloyat va boshqalar) tabiati, iqtisodiyoti, tarixi va madaniyati haqida bilimlarni shakllantirishni taqozo etadi. O'lkashunoslik tamoyilining alohida ahamiyati shundaki, u insonning shaxsiy fazilatlarini (kichkina Vatanga muhabbat, uning yanada gullab-yashnashi uchun javobgarlik, hamdardlik va u yashayotgan hamma narsaga aralashish) shakllanishiga asos yaratadi. o'z zaminining g'ayratli egasining, umuman, ma'naviy-ma'naviy-ma'rifiy madaniyatini shakllantirish. Bu tamoyil, shuningdek, har kimning o'z yashash joyi hududida yashash sharoitlarini yaxshilash uchun ijtimoiy foydali faoliyatda bevosita faol ishtirok etishini ham nazarda tutadi; tarix va tabiat yodgorliklarini turli shakllarda saqlash (o'lkashunoslik muzeylari, ko'rgazmalar, klublar va boshqalar);

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анисимов С.Ф. *Духовные ценности: производство и потребление.* - М.: Мысль. - 2008. - С. 15-45.

2. Байбородова Л.В., Паладьев С.Л., Степанов Е.И. *Изучение эффективности воспитательной системы школы: Учебно-методическое*

пособие. - Псков: ПОИПКРО. - 2004. - 93с.

3. Воспитание детей в школе: Новые подходы и новые технологии /Под ред Е.Н. Щурковой. - М.: Новая школа. - 1998. - 208с.

4. Воспитательная система школы: проблемы управления. Очерки прагматической теории /Под ред. В. А. Караковского, Л.И. Новиковой, Н.А. Селивановой, Е.И. Соколовой - М.: Сентябрь. - 2007. - 112с.

5. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности - основа целостного учебно-воспитательного процесса. - М. - 2003. - 75с.

6. Коч Л. А. Креативная этика. Психология освоения подростками этических норм и понятий. - М.: Московский социальный институт; Воронеж: МОДЭК. - 2000. - 192с.

7. Кульневич С.В., Лакоценина Т.П. Воспитательная работа в средней школе. От коллективизма к взаимодействию - М.: ТЦ «Учитель». - 2001. - 287с.

8. Педагогическая практика в системе подготовки будущего учителя: Учеб. пособие /Под ред. Л.В. Загрековой. - Н. Новгород: НГПУ. - 2006. - 142с.

9. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. - М.: ВПАДОС. - 2000. - 573с.

10. Созонов В.П. Организация воспитательной работы в классе: Метод. пособие для классного руководителя. - М.: Педагогический поиск. - 2000. - 160с.

III. TA'LIMNI TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA'NAViy TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEZONLARI

TARBIYAVIY ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

A.Sultonov

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-1059-son qaroriga muvofiq, ta'lim tashkilotlarida yoshlar tarbiyasini uzluksiz va samarali tashkil etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy fan va texnologiyalar rivojlanib borishi barobarida yoshlar tarbiyasi, ongu shuuridagi qadriyatlar evrilishga uchrab, qator noan'anaviy xatti-harakatlar yuzaga kelib, odat tusiga aylanib bormoqda. Asrlar davomida sayqallanib, boyitib kelinayotgan qadriyatlar, xususan oila, do'stlik, tinchlik, vazminlik, bunyodkorlik kabilar o'z kuchini sekin-asta yo'qotib, tobora qadrsizlanib borayotganini isbotlashga hojat qolmayapti. Bular ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan xabarlarning oqimida o'zi va oila a'zolarining joniga qasd qilish, ko'ngilxushlik uchun xayplar qilish, ijtimoiy muhokamalardagi toqatsizlik kabilar namoyon bo'layotganini ko'pchilik kuzatib turibdi.

Mazkur jarayonlarni to'g'ri o'zanga burish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uning konseptual asoslarini teran anglagan holda ishga kirishishni taqozo etadi.

Bizningcha, tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi omillarni inobatga olgan holda tegishli zaruriy choralarni ko'rish maqsadga muvofiq.

1. Har qanday tarbiyaviy ishlar bandlikni ta'minlashdan boshlanadi. Bugungi kunda bandlikni ta'minlash zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda maqsadli va samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Ta'lim sub'ektlari bandligini ta'minlash deganda, ularning o'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtida, ularning mustaqil tayyorgarligi,

to'garaklardagi ishtiroki, yashash manzillaridagi hayoti va boshqa shakldagi ishlarini kasbiy malaka talablariga muvofiq tashkil etish o'z natijasini beradi, deb hisoblaymiz.

Ta'lim sub'ektlari orasida o'z qiziqishlarga ko'ra turli xil amaliy va intellektual to'garaklarni tashkil qilish ularning tashabbusi va faolligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Tarbiyaviy ishlar samaradorligida shaxsning axloqiy-ruhiy holatida kuzatilayotgan o'zgarishlarni, belgilangan qoidalarga rioya etish holatini obyektiv kuzatib borish va muntazam ravishda qayd etib borish muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sharoitda shaxs axloqiy-ruhiy holatida kuzatilayotgan o'zgarishlarni obyektiv kuzatish imkoniyati mavjud.

Shaxs axloqiy-ruhiy holatida o'zgarishlarning umumiy tendensiyalarini maxsus psixologik tadqiqotlar orqali, individual tendensiyalarni esa bevosita muloqotdagi shaxslarning kuzatuvlari orqali aniqlash mumkin.

Bugungi tarbiyaviy ishlar manzilli tashkil etilganda ko'proq samarali bo'lishi nuqtai nazaridan, individual tendensiyani bilib borish muhim ahamiyatga ega. Lekin ular, ta'lim sub'ektlarining guruh/sinf/kursdoshlari, guruh/sinf/kurs rahbari, fakultet rahbariyati va professor-o'qituvchilar tomonidan aniqlangan axloqiy-ruhiy holatlar, odatda yozma manbalarda emas, balki og'zaki suhbatda ma'lum qilinadi. Masalan, bu haqida ta'lim sub'ektiga doir shaxsiy ishjildlarda yoki tegishli jurnallarda kamdan-kam hollarda qayd etiladi.

Shu jihatdan, tarbiyaviy ishlar samaradorligini manzilli va tizimli oshirish maqsadida ta'lim sub'ektlarining axloqiy-ruhiy holatidagi o'zgarishlarni asoslantirilgan tarzda qayd etib borish tartibini yo'lga qo'yish zarur, deb hisoblaymiz. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tegishli platforma yaratib, u axloqiy-ruhiy rivojlanish dinamikasini elektron shaklda yuritish, buning uchun ular bilan bevosita muloqotda bo'ladigan mas'ul shaxslarning asoslantirilgan ma'lumotlariga muvofiq kuzatilayotgan axloqiy-ruhiy o'zgarishlarni har oyda tegishli jurnalga kiritib borishni yo'lga qo'yish, maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ularning mavjud muammo va takliflarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida ularning murojaat va takliflarini o'rganib borish muhim. Ularni ta'lim tashkilotlarining xodimlar bilan ishlash bo'limi va/yoki Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari imkoniyatlari orqali amalga oshirish mumkin.

3. Shaxsning axloqiy-ruhiy qiyofasida kuzatilgan o'zgarishlarga va belgilangan qoidalarga rioya etish holatiga nisbatan motivatsion chora ko'rish tarbiyaviy ishlar samaradorligida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Amir Temur tajribasidan ma'lumki, tarbiyaning "umid va qo'rquv orasida tutish" prinsipi o'z natijasini beradi. Ta'lim sub'ektlari axloqiy-ruhiy holatida kuzatilgan har qanday o'zgarishlarga nisbatan ham mazkur prinsip asosida ta'sir ko'rsatish talab etiladi.

Motivatsion chora jazolashda ham ijobiy holatlarga rag'bat uyg'otishni anglatadi. Bunday chora ko'rish ancha murakkab bo'lib, har bir ta'lim sub'ektlarining individual xususiyatlari, mayllari va fobiyasini bilishni taqozo etadi. Lekin avvalgi omildan kelib chiquvchi takliflar amalga oshirilsa, ushbu vazifani bajarish oson kechadi.

Ayrim jamoalarda kollektiv jazolash qo'llanilishi o'zini oqlagan, biroq kollektiv rag'batlantirish juda kam kuzatiladi (sport musobaqalari natijalaridan tashqari). Ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyaviy ishlarda sezilarli ijobiy natijalarga erishish uchun rag'batlantirishni jamoaviy shaklda amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Buni jamoaviy yutuqlarga erishgan guruhlarini turli dam olish, turistik sayohatlar va boshqa imtiyozli qulay shart-sharoitlar bilan rag'batlantirish shaklida amalga oshirish mumkin.

Ta'lim sub'ektlarining axloqiy-ruhiy qiyofasida salbiy holatlar kuzatilgan taqdirda, ularni darhol jazolash emas, balki psixoprofilaktikaning korreksiya va konsultatsiya choralari ko'rish, tegishli psixokorreksion treninglarni o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bugungi sharoitda buning imkoniyati mavjud va bu vazifa bevosita psixolog xodimlar zimmasiga yuklatilgan.

Shuningdek, xodimlar va ta'lim sub'ektlarining e'tiborda ekanligini turli shakllar orqali amalda his qildirib borish maqsadga muvofiq. Bu bilan ularning o'z xatti-harakatlarini o'zlari nazorat qilishlariga, mas'uliyat bilan o'z ustida yanada ishlashiga erishish mumkin bo'ladi.

4. Shaxs tarbiyasida mas'uliyatli vazifalarni ishonib topshirish asosan kutilgan natijani berib kelgan.

Fuqarolik holatida voyaga yetganlarni oila qurish bilan mas'uliyatini oshirish, muayyan soha va tarmoqlarga mas'ul etib birlashtirish kabi choralar an'anaviy tarbiyaning sinalgan usullaridan hisoblanadi.

Xuddi shunday, ta'lim sub'ektlari kelajakda turli yo'nalish va tarmoqlarda ijtimoiy munosabatlarga kirishishidan kelib chiqib, ularni boshqaruvga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari turli soha va tarmoqlarda rahbarlik va

boshqaruv vazifalariga jalb etilishi munosabati bilan tegishli boshqaruv mahoratiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Shuning bois ularda boshqaruv mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhim.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv ko'nikmalari va mahoratini, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirishning ko'plab omillari mavjud. Xususan, o'zini o'zi rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilishga o'rgatish uchun ularning jamoatchilik kengashini tuzish, tegishli tajribaga ega bo'lishida maksimal darajada barchasining guruh/sinf/kurs yetakchisi sifatida faoliyat yuritishga imkoniyat yaratish yaxshi natija beradi, deb o'ylaymiz.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda, ta'lim tashkilotlarida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

1) ta'lim sub'ektlarining axloqiy-ruhiy holatini obyektiv va muntazam qayd etib borish mexanizmini ishlab chiqish;

2) zamonaviy axborot texnologiyalari va tegishli mutaxassislar hamkorligida ta'lim sub'ektlarining axloqiy-ruhiy holatini muntazam qayd etish va kuzatib borish imkoniyatini beradigan elektron platforma yaratish;

3) mavjud muammo va takliflarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida o'quv binosi va turar joylarida kameradan xoli joyda murojaat va takliflarni tashlash uchun "maxsus quti"larni qayta tashkil qilish hamda ulardan tushgan taklif va shikoyatlarni ta'lim tashkilotining xodimlar bilan ishlash va/yoki Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti olib o'rganishi asosida kelgusidagi tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

4) ta'lim sub'ektlari axloqiy-ruhiy holatida kuzatilgan ijobiy ko'rsatkichlar uchun jamoaviy rag'batlantirishning samarali shakllarini (masalan, dam olish, turistik sayohatlar, imtiyozli qulay shart-sharoitlar va b.) qo'llash;

5) ta'lim sub'ektlari orasida tegishli psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoitlar, xususan psixokorreksion dasturlar va xonalarni yaratish hamda treninglarni o'tkazish amaliyotini joriy etish;

6) bitiruvchilar orasidan davlat mukofotlari olgan (katta muvaffaqiyat qozongan)larning burchaklarini (rasmlari bilan) tashkil etish;

7) ta'lim sub'ektlarida mas'uliyat, ijtimoiylashuv va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish maqsadida ularning navbatma-navbat guruh/sinf/kurs yetakchisi sifatida faoliyat yuritish tartibini joriy etish.

Mazkur tashkiliy choralar mamlakatimizda yoshlar tarbiyasini yanada samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi, deb hisoblaymiz.

O'RTA ASRLARGA OID VIZANTIYA, ARMAN VA SURYONIY MANBALARIDA SALJUQIYLAR DAVRI TARIXINING YORITILISHI

Rajapov Pirnazar Sardor o'g'li,
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada saljuqiylar davri tarixi yoritilgan o'rta asrlarga oid vizantiya, suryoniy va arman manbalari tahlil qilingan. Mazkur manbalar xristian tarixchilar tomonidan yunon, gruzin, arman va suryoniy tillarida yozilgan. Tahlil jarayonida asar muallifi va u yashagan davr ilmiy muhiti, manba yozilgan til, asarning tarkibi va umumiy mazmuni, bugungi kunda manbaning zamonaviy nashrlari va tarjimalari kabi jihatlarga to'xtalib o'tildi. Ta'kidlash joizki, Anadoluda yashagan yunon, arman va suryoniy mualliflarning bevosita tarixiy hodisalarda ishtirok etishi ularga saljuqiy turklar haqida to'g'ri va xolisona ma'lumotlar berish imkonini bergan. Shu nuqta'i nazardan vizantiya, suryoniy va arman manbalari ham saljuqiylar davri tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Saljuqiylar, Anadolu, Mixail Attales, Anna Kommene, Urfalik Mateos, Grigoriy Abulfaraj, voqeanoma.*

Vizantiya manbalari Buyuk Saljuqiylarning tarixi bilan faqatgina Anadolu fathi nuqta'i nazaridan bog'liqdir. Shunga qaramay, Vizantiya manbalari Anadolu Saljuqiylari davri tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda Vizantiya tarixchilarida mintalitet va imperiya g'ururi ustunlik qilib, saljuqiylar qarshisidagi mag'lubiyatlari va ularga qarshi ahdlarini o'zlaricha talqin qilishlari ba'zida vizantiyaliklarning ham saljuqiy turklar haqida noto'g'ri xulosa chiqarish va asl tarixiy haqiqatni anglab yetmasliklariga sabab bo'lgan.

Mixail Attales (vaf. 1080) ning "Tarix" asari 1025-1080-yillar oralig'idagi tarixiy voqealarni qamrab olgan [11:1-8]. U harbiy sudya sifatida Roman IV Diogen (1068-1071) ning harbiy yurishlarida qatnashgan. Asarda saljuqiy turklarning Anadoludagi fath harakatlari, Vizantiya va saljuqiy turklar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar va janglar qayd qilingan [5:262-263]. Asar yunon, fransuz, turk tillarida nashr qilingan.

Naqfur Bruno (1062-1137) "Tarix" asarida 1070-1079-yillar oralig'idagi voqealarni bayon qilgan [2:68; 9:6-7]. Asarda Anadoludagi turkiylashish jarayoni, isyonchi Naqfur Botanesning Sulaymonshoh yordamida imperator bo'lishi, Sulaymonshohning vizantiyalik qo'zg'olonchilarni qo'llab-

quvvatlab shahar va qal'alarni qo'lga kiritgani haqida so'z yuritilgan. Asar yunon va turk tillarida nashr qilingan.

Anna Kommena (1083-1153) ning "Aleksiad" nomli asarida saljuqiy turklarning Anadolu g'arbidagi fathlari va Vizantiya hamda saljuqiylar o'rtasidagi kurashlar batafsil yoritilgan [6:1-8]. Xususan, muallif Sulaymonshohning Vizantiya imperatorlari bilan tuzgan ittifoqlari, sulton Malikshohning Sulaymonshohni bo'ysundirish uchun harakatlari, Anadolu Saljuqiylari va Vizantiya imperiyasi o'rtasida tuzilgan Drakon shartnomasi, Sulaymonshohning Buyuk Saljuqiylar davlatiga qarshi kurashi bilan bog'liq ma'lumotlar qayd etgan [2:69-70; 3:5-6]. Asarda, asosan, siyosiy jarayonlar ochib berilgan bo'lib, saljuqiy turklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar juda kam. Asar ingliz, fransuz, nemis, turk tillarida nashr qilingan.

Ioann Zonara (vaf. 1159) ning "Tarixlar to'plami" asari olam yaratilishidan to 1118-yilgacha bo'lgan tarixni o'z ichiga olgan. Zonara saljuqiy turklarning Anadoludagi harbiy harakatlari, xususan, Sulaymonshohning faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar bergan [7:19]. Muallif Anna Kommena va Naqfur Bruno kabi Vizantiya tarixchilaridan farqli o'laroq, voqealarga xolisona yondashgan. Asar yunon, lotin, fransuz, nemis, turk tillarida nashr qilingan.

Gruzin manbalarida esa nafaqat saljuqiylarning Kavkazga harbiy yurishlari, balki Anadoluda aholining turkiylashuv jarayonlari va saljuqiy turklar haqida yorqin ta'rif va ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Mariya Felisit Brossetning "Gurjiston tarixi" asari.

Anadoluda yashagan arman va suryoniy mualliflarning bevosita tarixiy hodisalarda ishtirok etishi ularga to'g'ri ma'lumot berish imkonini bergan. Saljuqiylar tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydigan arman manbalariga Urfalik Mateosning "voqeanoma"si, Vardon (1198-1271 [12]) ning "Jahon tarixi", Aknerlik Grigor (1250-1335) ning "Kamonchi millatning tarixi", va suryoniy manbalariga Grigoriy Abulfarajning "xronologiya"si, Suriyalik Patrik Mixail (1126-1199 [13]) "Voqeanoma"si yorqin misol bo'la oladi.

Urfalik Mateos (1070-1137 [14]) ning "voqeanoma"sida 952-1136-yillar oralig'idagi tarix yoritilgan [8:8]. Uning asariga rohib Grigoriy 1163-yilgacha bo'lgan voqealarni ilova qilgan [10:19]. Asar 3 jilddan iborat. I jild 952-1052-yillar, II jild 1053-1102-yillar, III jild 1102-1136-yillarni qamrab olgan. II va III jildlarda saljuqiy turklarning Anadoludagi harbiy harakatlari haqida ma'lumotlar mavjud [4:104]. Muallif o'zi guvohi bo'lgan yoki boshqalardan eshitgan voqealarni yozgan. Mateos saljuqiy turklarning ilk harbiy yurishlari haqida salbiy munosabat bildirishiga qaramay, keyinchalik ularni adolatli va rahmdil deya maqtagan. Shuningdek, vizantiyaliklardan ko'rgan zulmlari

tufayli ularga nisbatan nafratini ochiq namoyon qilgan. Asar arman, nemis, turk va qisman fransuz tillarida nashr qilingan.

Grigoriy Abulfaraj (622/1225-685/1286) ning suryoniy tilidagi “xronologiya”si (“Abulfaraj tarixi”) ham saljuqiylar davri bo‘yicha birlamchi manbalardan hisoblanadi. U Elxoniyning Anadolu Saljuqiylar davlatiga ilk hujumlarining guvohi bo‘lgan va ana shu davrdan boshlab to vafotiga qadar (1286/1292) ko‘rgan-kechirganlarini jamlab, kitob holiga keltirgan.

Mo‘g‘ullar bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan Abulfaraj 663/1265-yilda Xulagu tomonidan “Tikrit va sharq mitropoliti” unvoni bilan Eron, Iroq, Ozarbayjon kabi qadimgi Sosoniylar o‘lkalarida yashagan Ya‘qubiy xristianlarning Antioxiya patriarxidan keyingi o‘rinda turuvchi ruhoniy lavozimiga tayinlangan. “Abulfaraj tarixi” asari G‘arb davlatlarida 1691-yildan nashr qilina boshlangan. 1932-yil E.W.Bujning suryoniychadan inglizchaga qilgan tarjimasida 1945-yil Ö.R.Doğrul tomonidan turk tilida nashr qilindi [1:92-94] Asarning ba’zi qismlari arab tilida ham nashr qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shimoliy Afrikadan tashqari deyarli butun Islom olamiga hukmronlik qilgan saljuqiylar davrida Islom sivilizatsiyasi tarixida yangi davr boshlandi. Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo‘lsa-da, bu davrda Islom tamaddunida erishilgan yutuqlar to‘laqonli ochib berilmagan. Hatto, saljuqiylar davri tarixini buzib ko‘rsatib, noto‘g‘ri talqin qilish holatlari ham kuzatilgan. Buning sababi, birinchidan, saljuqiylar tarixi Xitoy chegaralaridan to O‘rta yer dengizi sohillarigacha bo‘lgan mamlakatlar, qabila va elatlarni o‘z ichiga olganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, turli tillardagi manbalarning mavjudligi, ba’zilarining tartibsizligi va ba’zi davrlarga oid ma’lumotlarning yetarli emasligi keng qamrovli davrni o‘rganishni qiyinlashtiradi. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo‘lgan dastlabki davri (XI-XII asrlar) ga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq. Bundan XI-XII asrlarda Saljuqiylar davlatida tarixiy asarlar yozishga e’tibor qaratilmagan, degan xulosaga bormasligimiz lozim. Chunki, XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Abdülkerim Özaydın. İbnü'l-İbrî. // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 92-94.*

2. *A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel. Selçuklu Tarihçiliği'ne Başlarken. – Konya: Necmettin Erbakan Üniversitesi, 2017. – 521 s.*

3. Anna Kommena. *Alexiad* (çev. Bilge Umar). – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1996. – 570 s.

4. H.D. Andreasyan. *Türk Tarihine Aid Ermeni Kaynakları // İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Tarih Dergisi. C. 1, Sayı 1, 1949. – S. 95-118.*

5. Mikhael Attaleiates. *Tarih* (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 327 s.

6. Muhammet Kemaloğlu. *Türkiye Selçuklu Devletinin III. Hükümdarı Şahinşah Dönemi ve Şahinşah'ın Şahsiyeti // Orkun Dergisi. Sayı 88-89, 2004. – S. 1-8.*

7. Muhammet Kemaloğlu. *Türkiye Selçuklu Tarihi Birinci Elden Kaynakları // Journal of History Culture and Art Research. vol.2, No.3, 2013. – P. 1-38.*

8. Muharrem Kesik. *Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul üniversitesi, 2010. – 364 s.*

9. Nikephoros Bryennios. *Tarihin Özü* (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 187 s.

10. Yusuf Ayönü. *Selçuklu-Bizans Münasebetleri (1116-1308) / Doktora Tezi. – İzmir: Ege Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2007. – 290 s.*

11. Yusuf Ayönü. *İzmir'de Türk Hâkimiyetinin Başlaması // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. C.9. Sayı 1, 2009. – S. 1-8.*

12. https://tr.wikipedia.org/wiki/Vardan_Areveltsi

13. https://en.wikipedia.org/wiki/Michael_the_Syrian

14. https://tr.wikipedia.org/wiki/Edessal%C4%B1_Mateos

OILA VA FARZAND TARBIYASI MUTAFAKKIRLAR NİGOHIDA

Absalamova Gulmira Sharifovna

Toshkent davlat agrar universiteti

Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Uyg'onish davrining tadqiq va talqinida dunyo olim va mutafakkirlari, ajdodlarimizning o'z qarashlarini asarlarida yozgan fikr va mulohazalarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto go'daklarni tarbiyalash haqidagi masalalar yoritib berilganligi; ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o'rni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish zarurati; sog'lom, ma'rifatli oila va u voyaga yetkazadigan yetuk avlod tarbiyasidagi ahamiyati o'rganildi.*

Kalit soʻzlar: *Gʻarb tafakkuri, maʼnaviy olam, farzand kamoli, insoniy fazilatlar, komil shaxs, aql-idrok, oila tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya, antik madaniyat, qomusiy bilim.*

Insoniyat paydo boʻlgan davrlardan beri oʻz zurriyodining munosib farzand, insoniy fazilatlar egasi boʻlishiga intilib keladi. Bu borada ayniqsa, har bir davrning taraqqiyot bosqichlari tadrijiy xarakterli boʻlib, unda insoniyat maʼnaviy olamini boyituvchi adabiyotning oʻrni, ahamiyati yuksak hisoblanadi. Tarixiy tajribalardan maʼlumki, muayyan davr adabiyoti namoyandalarning asarlari tili va gʻoyaviy-badiiy jihatini tadqiq etish taraqqiyot uchun muhim. Zero, hozirda fan, madaniyat, sanʼat va adabiyot gullab yashnagan hamda qomusiy bilimlarga zamin boʻlgan Uygʻonish davridagi ilmiy, adabiy, falsafiy merosni sohalararo hamda bugungi kundagi ahamiyati nuqtai nazaridan oʻrganish ehtiyoji mavjud. Shu boisdan bu davrda yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijodini tadqiq etish, adabiy merosini oʻrganish va farzandlar kamoli hamda tarbiyasida qoʻllash oʻsib kelayotgan avlodni maʼnaviy yuksaklikka erishtirishi tabiiy. Antik madaniyat davridan qariyb oʻn asrdan ortiq vaqt oʻtgach, gʻarb tafakkurida yana bir ulkan koʻtarilish, yangilanish roʻy berdi, shuning uchun ham bu vaqt oraligʻi Uygʻonish davri sifatida nomlandi. Yevropada Uygʻonish davri XIV-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XVII asrgacha davom etdiki, renessans davrida ilm-fan, madaniyat va sanʼat misli koʻrilmagan darajada taraqqiyotga erishdi.

Uygʻonish davri namoyandalari butun eʼtiborlarini tiriklik olamining gultoji inson ekanligiga, inson shaxsini ulugʻlash, uning qadr-qimmatini, histuygʻulariga hurmat nazari bilan yondashish hamda ruh erkinligini hamma narsadan yuqori qoʻyishga qaratishdi. Shu boisdan, Uygʻonish davri vakillarini keyingi avlod gumanistlar sifatida tan olishdi. Gumanistlar antik adabiyotga alohida hurmat bilan qarab, Rim va Yunon adabiyotiga yuqori baho berishdi, Gomer dostonlarini nashr qildirib zamondoshlariga taqdim etishdi. Shu davrda koʻp tillilikka alohida eʼtibor qaratildi, jumladan, Gʻarbiy Yevropada tashkil etilgan universitetlarda qadimgi – lotin, grek, yahudiy tillari oʻqitildi.

Uygʻonish davrining boshlanishi dastavval Italiyada namoyon boʻlib, uning ilk yirik vakili sifatida Dante ijodi koʻzga tashlandi. Keyinchalik Petrarka sheʼrlari, Bokachcho hikoyalarida bu davrga xos asosiy belgilar mavhum ramziy obrazlar oʻrnini realistik obrazlar egallashi, voqelikni asliga muvofiq tasvirlashga intilish kabi badiiy adabiyotning hayotiyligi yaqqol namoyon boʻla boshladi. Keyinchalik bu holat butun Yevropaga tarqaldiki, oʻz asarlarida ijtimoiy turmush voqeligini real ifodalagan Leonardo da Vinchi, Jordano Bruno, Kopernik, Rable, la Servantes kabi yirik mutafakkir

va ulug' yozuvchilar nomi elga tanildi. Renessans G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari madaniyatidagi o'rta asrdan yangi davrga o'tish bosqichini anglatadi. Zero, nemis faylasufi Gegel – falsafa tarixida Uyg'onish davrini – tong yog'dusi deya atashi bejiz emas edi.

Uyg'onish davri muhim xususiyatlari inson shaxsini ulug'lash, kishi ongini din sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni esa inson manfaatlariga xizmat ettirishda aks etadi [1]. Cherkov inson qadr-qimmatini, his-tuyg'ularini rad etib, uning dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lish istagini yomonlik, aql-idrok hukmronligini kishini halokatga kibrilikka olib boruvchi nojo'ya his deb qoralaydi. Uyg'onish davri harakati esa insonning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan ozod bo'lishi g'oyasini qo'llab quvvatladi. Uning qadr-qimmatini, aqli va qobiliyatini to'la tan oldi. Uyg'onish davrining xususiyatlaridan yana biri optik madaniyatga munosabat masalasida ham namoyon bo'ladi. Gumanistlar antik davrga qaytish maqsadida emas, balki o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun uzoq o'tmishning ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladi.

Yevropa Uyg'onish davriga nazar solsak, Uilyam Shekspir (1564-1616 yy.) ushbu zamonning iste'dodda tengsiz vakillaridan biri, aktyor va dramaturgi ekanligiga shubha qolmaydi [1]. Allomaning asarlari oilada bolalar tarbiyasiga mas'uliyatli yondashuvni targ'ib etadi. Adib asarlari orqali insonlarni sevishta, yoshlarni hayotda baxtli bo'lishga erishish uchun kurashishga, qiyinchiliklardan qo'rqmay ularni mardona yengishga da'vat etgan.

O'sha davrning yana bir mutafakkiri Tomas Mor (1478-1555yy.) o'zining "Utopiya" asarida 1) shaxsiy manfaat jamiyat rivoji uchun zararli, aksincha, 2) barcha fuqarolarning jamiyat uchun foydali mehnatda birdek faol ishtirok etishlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini ta'kidlash orqali ikkita muhim tamoyilni ilgari surgan . Muallif tasavvurlarining mahsuli bo'lgan Utopiya davlati (ilmiy asosga ega bo'lmagan ideal jamiyat)da barcha fuqarolar mehnat qilishga majburdirlar, deya ta'kidlaydi.

Shuningdek, bu kabi jamiyatda ayol, erkak hamda bolalarning huquqiy jihatdan tengligi e'tirof etiladi, unga ko'ra, hatto bolalar ham o'qish bilan mehnatni birga olib borishlari zarur. Tomas Mor o'z asarida bolalarni oilada, jamoada mehnat vositasida tarbiyalashning ahamiyatini ko'rsatishga uringan. Yevropa Uyg'onish davrining yetakchi siymolaridan yana biri – Tomazo Kampanella bo'lib, uning pedagogik g'oyalari "Quyosh shahri" asarida o'z ifodasini topgan. Uning qayd etishicha, davlat hatto bo'lg'usi avlodning sog'lom bo'lishi uchun erkak va ayolning turmush qurishi haqida qayg'urishi, bu jarayonni nazorat qilishi zarur. Shuningdek, bolani ikki yoshidan boshlab

ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni boshlash, uch yoshida ko'rgazmali vositalardan samarali foydalangan holda to'g'ri talaffuz qilishga, alifboni o'rganishga jalb etish maqsadga muvofiq, deb hisoblagan. Shu davrlarda bolalarning jismoniy tarbiyasini kuchaytirish, sakkiz yoshidan boshlab esa ularni tizimli ravishda o'qitishni boshlash, o'g'il bolalar o'n to'qqiz yoshga to'lgach, harbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini o'zlashtira olishi zarur [2]. Aytish joizki, T.Kampanellining g'oyalari oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyani o'zaro uyg'un holda olib borishni targ'ib etganligi bilan ahamiyatli.

XVI asrdan boshlab mualliflarning hayotiy tajribalari asosida Yevropada bevosita ta'lim hamda bolalarni to'g'ri tarbiyalash masalalarini yoritgan asarlar nashr etila boshladiki, ularning mualliflari ma'rifatparvarlar deb nomlandi. O'rta asr ma'rifatparvarlari orasida chex pedagogi, "Didaktika" fanining asoschisi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yy.) alohida o'rin tutadi. 1627 yilda pedagogik faoliyatini boshlagan Ya.A.Komenskiy 1632 yilda "Chex didaktikasi" asarini yaratdi. 1633-1638 yillarda esa ushbu asarni qayta ishlab, lotin tiliga tarjima qildi va uni "Buyuk didaktika" nomi bilan keng kitobxonlarga taqdim etdi. Har bir inson hayoti uchun muhim masalalar xususida so'z yuritilgan mazkur asar ma'rifatparvarlik davrining mumtoz asari hisoblanadi.

Yana bir ma'rifatparvar faylasuf, ingliz olimi Jonn Lokk (1632-1704 yy.) o'zining pedagogik qarashlarini "Tarbiya haqida ayrim fikrlar" (1963-y.) asarida bayon etdi. Jonn Lokk o'z pedagogik qarashlarida bolalarni ham oilada, ham maktabda tarbiyalash zarurligiga e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, bolada axloqiy sifatlarni oila muhitida hosil qilish samarali bo'lsa, maktab bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga tez erisha oladi [3]. Shuningdek, ma'rifatparvar oilada bolalarni tarbiyasini yo'lga qo'yishda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berish zarurligini ta'kidlaydi va "Salomatlik bizga kasbiy faoliyatimiz muvaffaqiyati uchun zarur", deya barcha davrlar uchun o'ta muhim bo'lgan tizimni taklif etdi [2]. U bolalarni yoshlikdanoq charchoq, qiyinchilik, g'am-g'ussani oson yengib o'tishga tayyorlab borishni muhim deb hisoblaydi. Jonn Lokk bola hayotida qat'iy belgilangan tartibning ahamiyatini yuqori baholaydi. Shu bilan birga pedagog ota-onalarga turli yoshdagi bolalarni kiyintirish, ovqatlantirish yuzasidan maslahatlar beradi. Pedagog bolani erkalatib o'stirishni zararli deb hisoblaydi va bunday yondashuvga qarshi turadi.

Yevropa ma'rifatparvarlari orasida Iogann Genrix Pestalossi (1746-1827 yy.)ning nomi alohida qayd etiladi. Shvesariyalik bu pedagog-demokrat o'zining butun hayotini xalq bolalarini tarbiyalash va o'qitish ishiga bag'ishlagan. Uning "Lingard va Gertruda" (1781-1787 yy.), "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z

bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma" kabi asarlarida oilaning bola tarbiyasidagi o'rni, onaning bu boradagi namunasi bayon etilgan. Iogann Genrix Pestalossining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham bir-biriga uyg'un ravishda rivojlantirishdir. Tarbiyaviy omilning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim. I.G.Pestalossi tarbiyaning asosiy vazifasini kelgusida ijtimoiy jihatdan foyda keltira oladigan hamda har jihatdan uyg'un kamol topgan insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir, deb hisoblaydi[4].

Polyak pedagogi, bolalar yozuvchisi Yanush Korchak (taxallusi; haqiqiy ismi va familiyasi – Genrix Goldshmit; 1879-1942 yy.) tibbiy ma'lumotga egaligi sababli dastlab Varshava shahrida bolalar shifokori sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ya.Korchak tomonidan ilgari surilgan pedagogik tushunchaning asosini har bir bolada shaxs sifatida qadr-qimmatga egalik g'oyasi tashkil etadi. Korchak e'tiroficha, tarbiyaning maqsadi har bir bolaning qobiliyatini erkin, to'laqonli rivojlantirish, uning shaxsini ezgulik, go'zallik, erkinlik g'oyalari asosida shakllantirishdan iborat bo'lgan. Tarbiyaning zarur sharti sifatida Ya.Korchak oilada samimiylik, o'zaro ishonchga asoslangan sog'lom muhit yaratish, bolani turli zo'rvonliklardan himoya qilish, deb hisoblaydi. Ya.Korchakning tarbiyaviy tizimlari negizini bolaning o'z-o'zini anglashi, baholashi, nazorat qilishi va takomillashtirishiga imkon beradigan iroda hamda uni shakllantirish tashkil etadi.

Mashhur rus yozuvchilari – A.I.Gersen, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va N.A.Dobrolyubovlar taraqqiyparvar shaxslar sifatida jamiyat hayotiga daxldor, xususan, oila tarbiyasi samaradorligini oshirishga doir ilg'or fikrlarni ilgari surishgan [5]. Boshqa ma'rifatparvarlarning pedagogik yondashuvlaridan farqli o'laroq ular oila tarbiyasining imkoniyatlarini yanada keng, alohida ajratib ko'rsatishga urinishgan.

Rus pedagoglari orasida Konstantin Dmitriy Ushinskiy (1824-1870 yy.) munosib o'rin tutadi. Pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan qo'shib olib borgan K.D.Ushinskiy "Bolalar dunyosi" ("Детский мир"), "Muallimlar uchun qo'llanma" ("Пособие для учителей"), "Shaxs – tarbiya predmeti sifatida" ("Человек как субъект образования") "Pedagogik antropologiyadan tajriba" ("Опыт педагогической антропологии") kabi asarlarida oila va uning bola tarbiyasidagi o'rni masalasi batafsil yoritilgan [1]. K.Ushinskiyga ko'ra, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning tabiiy vositasi – oila hisoblanadi. Binobarin, oilada bolalar borliq haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'ladi, eng oddiy bilim va ko'nikmalarni egallaydi, odatlarni o'zlashtiradi [6], farzand qobiliyatlarini rivojlantirishni asarida targ'ib etadi.

Inson tugʻilibdiki, ziyoga intiladi. Hayotning ibtidosi quyosh nuri boʻlib ona sayyoraga tushgan yorugʻlik va iliqlik qoʻynida yashirin. Binobarin, yorugʻlikka intilish insoniyat hilqatidagi eng kuchli ehtiyoj. Adabiyotning oydinlikka talpinishi ham, aslida, ana shu ildizdan suv ichadi. Koʻrinadiki, ularning merosini targʻib qilish asllikka, sogʻlomlikka, mohiyatga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Тошкент: Фан, 1978. – 5 б.
2. Галфунке А.Х. Томмасо Кампанелла. – Москва, 1969. – 45-с.
3. Локк Ж. Таълим ҳақидаги фикрлар // Асарлар: 3 жилд. – Москва, 1988. – 352-б.
4. Самадов А., Эргашева М. Шахс эстетик идеали: шаклланиш ва ривожланиши муаммолари. – Т., 2021. – 210 б.
5. Ушаков Д.Н. Русское правописание. Очерк его происхождения, отношения его к языку и вопроса о его реформе. – Москва, 1911. – 50-с.
6. Ушинский К. Д. Собрание сочинений. Москва, 1950, 10с.

MA'RIFATLI JAMIYAT QURISHDA INSON SENSUALISTIK QARASHLARINING ZARURATI

Moʻydinov Aslbek
Fargʻona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada maʼrifatli jamiyat qurishda inson sensualistik qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati oʻrganilgan. Jamiyat taraqqiyoti sensualistikani mazmunini maʼrifatga va inson qarashlariga taʼsirining ilmiy-nazariy asoslari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar. Maʼrifat, jamiyat, inson sensualistik qarashlari, maʼrifatli jamiyat, xulq-atvor, baxt-saodat.

Jamiyat taraqqiyotida maʼrifatli inson sensualistik qarashlarining ilmiy-nazariy asoslari shakllanishi uchinchi Renessans poydevoriga zamin yaratadi. “Maʼrifatli jamiyat umummilliy maqsad, jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatini uygʻunlashtirish, inson qadrini ulugʻlash, tafakkur erkinligi va gʻoyalari rang-barangligi, masʼuliyat, tolerantlik, qonun ustivorligi va yuksak siyosiy madaniyat asosida shakllanadi”[1.] . Bu esa

ma'rifatli jamiyat ijtimoiy va siyosiy jihatdan davlat boshqaruvi hamda uni takomillashuviga muhim ekanligini anglatadi.

Tadqiqotchilar fikricha, "Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida insonning qiyofasi tabiat ta'sirining natijasi ekani, uning ichki qiyofasida cheksiz sa'y-harakatlar natijasida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi aytiladi. Har bir inson o'z xulq-atvorining egasidir. Jamiyat bosqichma-bosqich o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Beruniyning jamiyatda adolatli bo'lish, inson uchun qayg'urish, jamiyatni aql, ilm, adolat, qonunlar, o'rnatilgan tartiblar bilan boshqarish kerakligi haqidagi falsafiy tahlili o'sha davrda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanganidan dalolat beradi"[2.] , deb ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy qarashlarida jamiyat taraqqiyotida insonning o'rni haqidagi qarashida jumladan, shunday deydi, "Insoniy vujudan maqsad – eng oliy-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi" [3.290.]. Bu esa odamlarni qobiliyatiga, avvalo aqliy iqtidoriga va ilmni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmasiga qarab jamiyatga baho berish mumkin degan qarashni ilgari suradi.

Buyuk faylasuf kishilarni odamiylik va insonparvarlikka chaqirib, vijdoniylik, adolatlilik, shijoatkorlik, yaxshilik va ezgulik, bilimdonlik, qat'iylik, boylikka ruju qo'ymaslik va boshqa insoniy fazilatlarni egallash va salbiy illatlardan xalos bo'lish usullarini ko'rsatgan. "Forobiy,-degan edi akademik M.Xayrullayev,- ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarida ham zamonasining eng ilg'or pozitsiyasida turdi, u har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash sohasida qimmatli fikrlarni olg'a surdi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi va barcha vositalari insonni baxt-saodatli qilishga qaratilmog'i lozimligini bor kuchi bilan ta'kidladi. Shu bilan birga, bu baxt-saodat insonlar birlashmasida, jamoasida amalga oshishi mumkinligini ko'rsatdi. U butun jahon miqyosida urushsiz, tinchlikka, adolatga, o'zaro hurmat va yordamga asoslangan yagona insoniyat jamoasi barpo etilishini orzu qildi" [4.21.]. Bu ham aynan ma'rifatli jamiyat qurishda inson sensualistik qarashining muhimligini bildiradi.

Ma'rifatli jamiyat g'oyasiga K.Poppening ochiq jamiyat tushunchasi yaqin bo'lib u quyidagicha, "Mening atamalarim ratsionalistik tafovutga

asoslanadi: yopiq jamiyat sehrli tabularning mavjudligiga ishonish bilan tavsiflanadi, ochiq jamiyat esa, mening fikrimcha, odamlar (ko‘p darajada) mavjud bo‘lgan jamiyatdir. tabularga tanqidiy munosabatda bo‘lishni va o‘z qarorlarini birgalikda muhokama qilish va o‘z aql-idroki imkoniyatlariga asoslashni o‘rgandilar” [5.215.]. Bizningcha, Popper jamiyatni ma’rifatli bo‘lishini nazarda tutgan, chunki ochiq jamiyat bilimga asoslanadi.

Shu o‘rinda ma’rifatni fikrning mustaqilligi va uni noto‘g‘ri qarashlardan ozod qilish istagi sifatida tushunish mumkin. Ma’rifat tushunchasini faylasuf Dekart va Bekon tomonidan dasturli ravishda aniqlangan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Kant nomi bilan atalgan. Ingliz tilida “ma’rifat” (enlightenment) so‘zi aynan “ma’rifat davri” ma’nosida qo‘llaniladi. Rus tilida “ma’rifat davri” ma’nosidan tashqari ma’rifat bilim va ta’limni tarqatishni ham anglatadi[6.]. Buning natijasida uzluksiz ta’lim muassasalariga xos bo‘lgan ta’lim-tarbiya shakli ma’nosida, shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimdir. Zero, fikrlashning o‘ziga xosligi va mustaqilligi jamiyat ma’rifatlilik darajasini ifodalaydi. Demak, yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, inson sensualistik qarashlarida ma’rifat yetakchi o‘rinni egallaydi. Buning uchun ta’lim tizimi uzluksizligi ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega.

Ma’rifatli jamiyatni qurish va ma’rifatli inson sensualistik qarashini shakllanishi ta’lim bilan amalga oshirilar ekan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Ya’ni, “Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi”[7.].

“Ma’rifatning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemisldir. Uni amalga oshirish, asosan, ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u muallimlar, shoiri-u san’atkorlar zimmasidadir. Agar millat haq-huquqini yo‘qotgan, asriy ilm-u ma’rifatidan uzoqlashtirilgan, o‘zligini unitayozgan bir holda tushib, jamiyat ma’naviyatidan mahrum darajaga yetgan bo‘lsa, ziyoli zimmasidagi ish o‘n, balki yuz karra og‘irroqdir”[8.27.].

Ma'rifatli jamiyat qurishda sensualistik inson qarashlarining zaruratining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini quyidagilar bilan belgilash mumkin.

Birinchidan, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish omillarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi. Bunda avvalo, aholi orasida ma'rifiy tadbirlarni ilmiy-madaniy meros va milliy qadriyatlarni uyg'un holda o'rganish tashkil etadi. Chunki, inson ongi va tafakkurida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlar ijtimoiylashuvga sabab bo'ladi. Bu esa ma'rifatli jamiyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan falsafiy tadqiqotlar tizimining eng muhim jihati hisoblanadi. Dunyoning raqobatbardosh mamlakatlari safiga kirishning bir talabi – bu ma'rifatli jamiyat qurish hisoblanadi. Har qanday jamiyatni rivojlanishi ma'naviyatli va ma'rifatli shaxslarni yetishtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va samaradorlikka olib keladi. Bu boradagi tadqiqotlarning o'rganish jamiyat taraqqiyotiga ijobiy xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ushbu tadqiqotda ma'rifatni jamiyatga ta'siri millatning intellektual salohiyatini yuksalishi natijasida ijtimoiy-falsafiy jihatdan mamlakatning bilimlar jamiyatiga aylantirish ma'naviy muammolarni hal etish mexanizmlarini o'rganish va tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bu ijtimoiy hayotda shaxs kamolotining ma'naviy jihatlarini joriy etish asosida amalga oshiriladi. Jamiyatning strategik maqsadlarini ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida o'rganishdan yangilanayotgan jamiyatning ma'rifiy qiyofasi va uning rivojlanish omillarini o'zaro uzviy birligidan kelib chiqadigan, to'xtovsiz ravishda amalga oshiriladigan hodisa ekanligini asoslash muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, jamiyatni asosiy harakatga keltiruvchi kuchi xalq ommasi ekanligini hisobga olib davrlar almashinuvida jamiyatdagi taraqqiyotning yangilanish jarayonlaridagi strategiyasida bilimlar ijtimoiylashuvida o'rnini o'rganishni taqozo etadi. Bu bilan jamiyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ratsional yo'llarini izlab topish va uning instituttsional tizimini takomillashtirib borish orqali shaxslarni ilm olishga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, o'z davrida jamiyat yangilanishi va ma'rifatli makonni yaratishga xizmat qilgan jadidchilik g'oyalari va qarashlarining yangicha qiyofasi qiyosiy tahlil qilish va uning jamiyat yuksalishiga ta'sirini aniqlash bilan belgilanadi.

To'rtinchidan esa, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan birga ma'naviy jarayonlarni ham o'sishiga xizmat

qiluvchi ma'rifatli jamiyatni qurish hamda ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, ma'naviy va ijtimoiy o'sishning yuqori darajasi jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy siyosatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ma'rifatli insonni shakllantirish hisoblanadi.

Ijtimoiy makonda jamiyat rivojlanishining real va semantik uzluksizligi, uning ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining insonparvarlik tamoyillari asosidagi munosabatlariga aniqlik kiritildi. Bunda inson bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning umumiy mohiyatini ma'rifat bilan belgilash qadriyat sifatida mavjud bo'ladi. Bunda ijtimoiy aloqalar, munosabatlar va faoliyatlar sifatida yangi modellari va inson tafakkurining yangi usullari shakllanadi.

Inson va insonparvarlik tabiatini zamonaviy falsafiy va nazariy tushunish ijtimoiy-ilmii, gumanitar bilimlarga ta'sir qilish uchun murakkab imkoniyatlarga ega bo'ladi. Zamonaviy madaniyat va ilm-fan asoslarini ijtimoiy-texnik va institutsional yechimlarni asoslash uchun real imkoniyatni o'z ichiga oladi. Biroq, insonparvarlik muammosi ham tegishli falsafiy muammo sifatida nazariya doirasida kognitiv munosabat impulsini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyotida ma'rifatli insonni tarbiyalash masalasi jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichidan to hozirgi davrgacha iqtisodiy o'sishni ta'minlash tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, hozirgi davrda ma'rifatli jamiyatni rivojlanishi birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu ma'noda, Yangi O'zbekiston zamonaviy jamiyati qiyofasini belgilashda hal qiluvchi kuchi hisoblangan ma'naviy makon va ma'rifatli jamiyat qurish omillarini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Erkayev A. Ma'rifatli jamiyat uchinchi Renessans poydevorini yaratishda tayanch bo'ladi. 2022 yil 19 may, №103 (8165).*

2. *Xandamova M. Samarqand davlat chet tillar instituti Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent. Abu Rayhon Beruniyning Ma'rifatli jamiyat haqidagi qarashlari. 12/10/2022. <https://www.bukhari.uz/?p=24638>.*

3. *Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Yangi asr avlodi. Toshkent. 2016.*

4. Xayrullayev M. "Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida". Toshkent.: O'qituvchi, 1967.

5. Popper K. R. Otkrtoye obshestvo i yego vragi. T.1: Char Platona / per. s angl. pod red. V. N. Sadovskogo. - Moskva.: Feniks, 1992. – S 215.

6. Grekov M. A. K prosveshennomu obshestvu. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-prosveshennomu-obschestvu>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>.

8. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Risola./ Toshkent. "Yoshlar nashriyot uyi". 2021.

ВОСТОЧНАЯ ФИЛОСОФИЯ О СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Севара Асанбаевна Курбанова

Ташкентский государственный

экономический университет,

Независимый соискатель кафедры

«Общественно-гуманитарных и точных наук».

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос об интеграции принципов восточной философии в современную образовательную систему. Автор анализирует основные концепции восточной мысли, такие как гармония, единство, медитация и этика, и предлагает пути и методы внедрения этих принципов в учебные программы и педагогическую практику. Результаты исследования подчеркивают значимость восточной философии в развитии учащихся, способствуют формированию гармоничных и этически осознанных личностей, способных успешно адаптироваться в современном мире.

Ключевые слова: духовное наследие, восточные мыслители, современное образование, философские принципы, ценности, практики, развитие личности, образовательный процесс.

С развитием технологий и глобализации мир становится все более связанным и межкультурным. В такой ситуации особую значимость приобретает образование, которое должно помочь людям справиться с вызовами современного мира и в то же время сохранить связь с их культурным и духовным наследием. В этом контексте восточные

мыслители и философы предлагают уникальные и глубокие принципы, которые могут быть интегрированы в современную образовательную систему.

Одна из важных особенностей восточной мысли – это уделять внимание гармонии и балансу. Восточные философы стремятся достичь гармонии между телом, разумом и душой. Этот подход может быть полезным в современном образовании, где часто уделяется большое внимание развитию интеллектуальных способностей, но игнорируется развитие эмоционального и духовного состояния учащейся. Внедрение принципов восточной мысли в образовательную систему поможет достичь баланса и развить учащейся как целостные личности.[2.80]

Другой важной идеей восточной мысли является понимание единства всего сущего. Восточные философы утверждают, что все явления и объекты в мире взаимосвязаны и составляют единое целое. Это представление может быть особенно полезным для современного образования, которое часто разделяет знания на отдельные дисциплины и предметы. Интеграция идей восточной философии позволит учащимся увидеть глубинную связь между различными областями знания и развить системное мышление.

Также стоит отметить, что восточные мыслители придавали большое значение медитации и самопознанию. Медитация помогает сосредоточиться, улучшить память и увеличить креативность. Она также способствует развитию эмоционального интеллекта и саморегуляции.

Для успешной интеграции духовного наследия восточных мыслителей в современное образование необходимо разработать новые методики и подходы к обучению. Учителя и преподаватели должны быть обучены и осознанно включать восточные концепции и практики в свои уроки и занятия. Необходимо создать специальные программы повышения квалификации и ресурсы для педагогов, чтобы они могли ознакомиться с принципами восточной философии и применять их в своей работе. [5.110]

Сотрудничество с экспертами и исследователями в области восточной философии также является важным шагом на пути интеграции духовного наследия в образование. Они могут помочь разработать соответствующие учебные материалы, проводить

семинары и тренинги для педагогов, а также способствовать исследованию влияния восточной мысли на образовательный процесс.

Более глубокое понимание и внедрение восточного духовного наследия в современное образование приведет к множеству выгодных результатов. Учащейся будут обладать более гармоничным и сбалансированным образом мышления, разовьют критическое и системное мышление, научатся эффективно управлять своими эмоциями и стремлениями. Они будут осознанно и ответственно принимать решения, основанные на этических принципах, и готовы вносить вклад в развитие общества и мира в целом. [5.112]

В современном мире, где глобализация и технологии играют ключевую роль, важно сохранять связь с культурным и духовным наследием. Восточные мыслители предлагают ценные принципы и практики, которые могут обогатить и усилить образовательную систему. Интеграция духовного наследия восточных мыслителей в современное образование способствует развитию гармоничных, этических и глубокомысленных личностей, способных успешно справляться с вызовами и строить гармоничные отношения в современном мире.

Итак, современное образование в духовном наследии восточных мыслителей имеет огромный потенциал для преобразования образовательной системы. Внедрение принципов гармонии, единства, медитации, этики и уважения к мудрости старшего поколения поможет формировать целостных и этически сознательных личностей, способных креативно мыслить, принимать мудрые решения и вносить позитивные изменения в мир.

Однако внедрение духовного наследия восточных мыслителей в современное образование требует совместных усилий со стороны образовательных учреждений, педагогов, родителей и общества в целом. Важно создать поддерживающую и вдохновляющую среду, которая будет способствовать осознанному развитию учащихся и интеграции восточных концепций и практик в образовательный процесс.

В заключение, современное образование в духовном наследии восточных мыслителей представляет собой перспективный подход, способный сформировать гармоничные, этически осознанные и культурно связанные личности. Интеграция восточной философии и практик в образовательную систему поможет учащимся развить

ценные навыки, качества и понимание, необходимые для успешной адаптации и самореализации в современном мире. Это будет способствовать созданию более справедливого, гармоничного и просветленного общества, основанного на ценностях и мудрости восточных мыслителей.

Список использованных литератур:

1. Мирзиёев Ш.М. *Стратегия нового Узбекистана*. – Ташкент: «Узбекистан», 2021. 464 с.
2. Алимова, Н. (2023). Влияние духовного наследия восточных мыслителей на современное образование. *Журнал "Педагогика и образование"*, 25(3), 78-92.
3. Вахидов Х. *Просветительская идеология в Туркестане*. – Ташкент: Узбекистан, 1979. – 156 с.
4. Муминов И.М. *Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане в конце XIX и начале XX в.* – Ташкент, 1957. – 214 с.
5. Рахманов, У. (2023). Интеграция принципов восточной философии в современную образовательную систему. *Вестник Узбекского государственного педагогического университета*, 18(2), 105-118.
6. Сканцева, А. (2023). Современное образование в духовном наследии восточных мыслителей. *Журнал "Образование и культура"*, 35(2), 45-59.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TARIX O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI – IJTIMOY VA TA’LIMIY MUHITNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Suyunov Asror G‘ulomovich,
Nizomiy nomidagi TDPU, Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish tushunchasi keng tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *integrativ yondashuv, rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish, o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish.*

Ta’limda yuz berayotgan o‘zgarishlarni amalga oshirishning asosiy omili bu o‘qituvchi shaxsidir. Zamonaviy o‘qituvchilar tarkibi ta’limni modernizatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchiga

ta'lim sifatini oshirish, shaxsiy kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda doimo tayyor bo'lish talablari qo'yiladi. Shunday qilib, hozirgi paytda o'qituvchining professionalligi va shaxsiyatiga, uning salohiyatini rivojlantirishga ta'limni modernizatsiyalashning ajralmas sharti sifatida talablari sezilarli darajada oshib bormoqda.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi" ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida belgilanishi axborotlashgan jamiyat va bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida kelgusida o'quvchilarni jahon standartlariga mos kadrlar bo'lib yetishishi uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va pedagogik faoliyatda qo'llashga qodir bo'lgan innovator o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorida "xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirish", "xalq ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritish" [2] muhim vazifalar qatorida qayd etilgan.

Bu esa o'z vaqtida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

tarix o'qituvchilarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, integrativ yondashuv asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir tizimli va uzviy amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni aniqlash va belgilash;

integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish omillari, o'qituvchida professionallikni rivojlantirishga doir o'zini o'zi uzluksiz kasbiy rivojlantirishning komponentlari, bosqichlari va darajalarini aniqlash va belgilash.

O'qituvchilar kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni egallashi, o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta'limiy muhitni shakllantirishi, shuningdek, umumta'lim tizimida iqtisodiyotning

innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirishi zarur. Buning uchun turli xil zamonaviy usullarni bilishi va ularga asoslanishi, ilg'or tajribalarni, fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, o'qitish jarayoni bilan bog'liq turli xil masala va muammolarni hal etishda mavjud o'quv hamda huquqiy-meyoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular o'qituvchilarning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishini ifodalaydi.

Turli tadqiqotlarda "shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasining turli xil ta'riflarini ko'rish mumkin:

kasbiy rivojlanish, bu – xodimga qo'yilayotgan malaka talablari va muayyan shaxsning mavjud sifatlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yo'naltirilgan xodimlarni yangi vazifalarni bajarishga, lavozimlarni egallashga, kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash jarayoni tushuniladi" (E.M.Alkarov);

kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish – kasbiy muhim shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarning, kasbiy bilim va ko'nikmalarning o'sishi, shakllanishi, birlashishi va kasbiy faoliyatga tatbiq etilishi, insonning ichki dunyosining tubdan yangi tuzilishi va turmush tarziga olib boradigan faol sifat o'zgarishi tushuniladi (M.J.Shodiyeva);

uzluksiz kasbiy rivojlanish – o'qituvchining butun pedagogik faoliyati, lozim bo'lsa, hayoti davomida kechadigan, kognitiv ehtiyojlari, alohida xususiyatlari, imkoniyatlari, pedagogik amaliyotiga mos bo'lgan, shuningdek, sohada bo'layotgan o'zgarishlar, talablar, strategiyalarni inobatga olgan holda, individual ta'lim trayektoriyasini tanlash, tuzish, loyihalash va amalga oshirish tizimini ifodalaydi (A.A.Ibragimov);

shaxsning izchil, faol va doimiy sifat o'zgarishi jarayoni; o'z-o'zini takomillashtirish, harakat qilish, o'zini shaxs sifatida rivojlantirish zarurati (G.A.Sukerman);

uzluksiz va maqsadli takomillashtirish, pedagogik mahorat va tajribani to'plash jarayoni (Y.A.Kaverin);

faoliyat va o'z-o'zini takomillashtirish sharoitlari ta'sirida sodir bo'ladigan, kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy individual, shaxsiy, faollik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jarayoni (N.V.Panova);

kasbiy rivojlanish – bu, avvalombor, professional muhim shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar, kasbiy bilim va ko‘nikmalarning pedagogik ishlarda o‘shishi, shakllanishi, birlashtirilishi va amalga oshirilishi, insonning ichki dunyosi tomonidan faol ravishda sifatlil o‘zgarishi, tubdan yangi tuzilishi va hayot tarziga olib borishi (L.M.Mitina).

kasbiy rivojlanish ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, ijtimoiy mavqe va kasbiy rolni, ijtimoiy ahamiyatli normalar va xulq-atvor qadriyatlarini, ta‘lim darajasi va maxsus tayyorgarlikni bajarish tufayli ma‘lum fazilatlariga ega bo‘lgan shaxsning kasbiy muvofiqligi (V.A.Bodrov).

o‘z-o‘zini rivojlantirish o‘zini o‘zi belgilash va hayot strategiyasini individual tarzda belgilash jarayoni, chunki u ma‘lum bir shaxsning qadriyatlariga mos keladigan yo‘nalishda amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi (K.A.Abulxanova-Slavskaya);

o‘z-o‘zini rivojlantirish kasbiy faoliyat va o‘zaro munosabatlarda amalga oshiriladigan yuqori kasbiy yutuqlarga va uning professionalligiga yo‘naltirilgan shaxsni shakllantirish jarayoni (A.A.Derkach va V.M. Dyachkov).

Tadqiqotchilarning fikrlarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishning mohiyatini belgilashda uni shaxsiy o‘zgarishlarga va kasbiy fazilatlarining shakllanishiga olib boruvchi doimiy jarayon sifatida ko‘rib chiqish masalasida fikrlarning o‘xshashligi mavjud. Ushbu muammo bo‘yicha turli xil qarashlarni umumlashtirib, kasbiy rivojlanish kategoriyasi tabiiy o‘zgarish jarayoni, shu jumladan, jamiyat rivojlanishi sharoitida kasbiy faoliyatda miqdoriy va sifat o‘zgarishlari deb ta‘riflanishi mumkin.

Shunday qilib, o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish – bu o‘zini o‘zi tahlil qilish, baholash va anglash, intellektual va amaliy bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallash, o‘qitish jarayonini tashkil etishga doir iqtidor va kompetentlikka asoslangan yechimlarni topish yuzasidan tayyorgarlik jarayoni. Bunda ijodiy faoliyat, o‘ziga xoslik, yangilikni joriy etish qobiliyati va istagi, g‘oyalarni birlashtirish, kuchlarni safarbar qilish va o‘tgan tajribani qayta tiklash, rivojlangan tasavvur va hissiy munosabat, ijodiy tashabbus muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi shaxsining mustaqil kasbiy salohiyatini rivojlantirish tizimidagi boshlang‘ich rolni tartibga solish tamoyillari – maqsadga muvofiq uning mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini belgilaydigan asosiy qoidalarni nazarda tutadi. Mazkur jarayon jamiyatning o‘qituvchiga qo‘yadigan talablarini o‘zgartirish, ilg‘or pedagogik tajriba, o‘zini o‘zi

anglash, hamkasblar yutuqlari bilan tanishish, o'z yutuqlarini boshqalar bilan taqqoslash bilan boshlanadi.

O'qituvchining mustaqil kasbiy rivojlanishi uning kasbiy-metodik tayyorgarligida ifodalanadi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha rivojlanish xususiyatlari amaldagi ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda, yangi zamonaviy bilimlar va unga ratsional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi bir-birini to'ldirib qo'llanilganda shakllantirilishi mumkin. Akmeologlar ta'kidlashicha, hatto yuqori darajadagi professionallikka erishgan holda ham, mutaxassislar rivojlanishdan to'xtamasliklari lozim.

Pedagogning o'zini o'zi uzluksiz rivojlantirishi shaxs rivojlanishining umumiy psixologik va pedagogik qoidalariga amal qiladi:

o'zini o'zi kamol toptirish, boshqalar tomonidan munosib qadrlanishga intilish, "nufuzli" bo'lishni xoxlash;

shaxsning rivojlanishi faqat insonning o'z faoliyati jarayonida amalga oshadi;

shaxsning ko'plab fazilatlarini shaxslararo muloqotda shakllanadi;

alohida iqtidor, shaxsiy xususiyatlarni emas, balki shaxsni har tomonlama yaxlit rivojlantirish lozim;

shaxsning eng yaxshi jihatlari, uning qiziqishlari, ehtiyojlari, moyilliklari, hissiyotlariga tayanish lozim.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, o'qituvchining uzluksiz va mustaqil malaka oshirish orqali o'zini o'zi rivojlantirishi – o'qituvchining o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi, o'z missiyasini chuqur anglagan holda kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o'quvchilarda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish, uni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish va ta'lim jarayonini tashkil qilishga doir bilimlarni egallash ustida uzluksiz izlanishi bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ta'lim to'g'risida / O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori.*

3. Shodiyeva M.J. *Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillash-tirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.*

SIYOSIY ONG TUSHUNCHASINING FALSAFIY TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA O'RGANILISHI

Abdiyev G'ayrat Ergashevich,
SamDCHTI tadqiqotchisi

Jamiyatning tabiatdan farqli ravishda o'z qonuniyatlariga monand rivojlanish tendensiyalarida bevosita siyosatning ta'sirchan xarakteri, tashqi va ichki muvozanatning o'zgarib turishi alohida ahamiyat kasb etdi. Har bir davlat o'z faoliyatida xoh u tarzda, xoh bu tarzda o'zining siyosiy g'oyalari bilan fuqarolarni boshqarib, istiqbol sari rivojlanish imkoniyatlarini ilm-fan yutuqlari asosida yangilab boradi. Bunday rivojlanish bevosita jamiyatdagi siyosiy ongning faollashishi, odamlardagi zamonaviy bilimlarning boyib borishi bilan xarakterlanadi.

Har qanday jamiyatda siyosiy ong voqelikning muhim qirralarini o'zida aks ettiradigan siyosiy jarayonlar bilan bog'liq ideallarni ifodalab keladi. U ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida tashqi olamdagi siyosiy o'zgarishlarni o'zida ifodalaydi. Odatda siyosiy ong birinchidan, jamiyatda mavjud voqelikning siyosiy sifatini kvalifikasiya qilish asosida shaxs ichki borlig'ini yangilanishiga imkon beradi; ikkinchidan, siyosiy ong har bir alohida jamiyatning azaldan shakllanib kelgan jamoatchilik ongiga o'z ta'sirini o'tkazib, undagi tarkibiy elementlarni zamonaga mos ravishda yangilaydi. Shu tarzda jamiyatning hayotidagi ijtimoiy borliqni siyosiy lashtirishga ishtirok etib, siyosiy madaniyat kategoriyalari orqali mavjud tizimning vositalardan foydalanishga shart-sharoit yaratadi. Chunki siyosiy ongning tarixan shakllangan ijtimoiy vazifalari, jamiyatdagi rivojlanish darajalari kognitivlik asosida mavjud me'yorlarni tartibga solib turadi. Bu jarayonda siyosiy ongning kognitiv shakllanishi, voqelikning ma'naviy hayotda namoyon bo'lishi o'ziga xos tartiblashtirilgan faoliyatni vujudga keltiradi.

Tarixdan ma'lumki, barcha davrlarda siyosiy ongning turli ko'rinishlari davlatlar hayotida taraqqiyot yoki tanazzul sari o'zining mohiyatini

ifodalab, ularning ichki rivojlanish dinamikasi mutafakkirlarning asarlarida falsafiy tahlil qilib kelingan.

Kishilik jamiyatining rivojlanish nuqtalarida siyosiy ong o'zining xilma-xil tendensiyalari bilan davlatlarning taraqqiyot darajasiga o'zining ta'sirini o'tkazib kelgan. Uning "ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy-nazariy asoslari haqidagi har qanday muqobil falsafiy ta'limotlarda bu hodisa turlicha e'tirof etilsa ham, lekin ularni determinlashtiruvchi asosiy sabablarni e'tirof qilishda dunyoqarashlardagi plyuralizm ham, ichki umumiylik ham yaqqol ko'zga tashlanadi"[1]. Shu boisdan, siyosiy ongning falsafiy ta'limotlarda tadqiq etishi va uning mustaqil tadqiqot ob'yektiga aylanishi har bir shaxsdan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishni talab etadi. O'zbekistonda ham siyosiy ongning taraqqiyotiga doir qarashlar siyosatshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, N.Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Siyosiy madaniyat, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odalmar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi"[2]. Bundan ko'rinadiki, jamiyatda siyosiy ongning qanchalik yuqori darajaga ko'tarilib borishi bevosita odamlarda daxldorlik tuyg'usining oshishiga, qabul qilinayotgan qarorlarning xalqchil bo'lishiga xizmat qiladi. Shaxsning jamiyatda yangilanishlar jarayonida o'z qarashlari bilan voqelikka ilmiylik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi barcha ijtimoiy hayot sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda "shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi uning siyosiy ongining rivojlanishiga olib kelish bilan bir vaqtda uni jamiyatda nafaqat siyosiy jarayonlarda, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda ishtirokining rivojlanishiga olib keladi"[3]. Siyosiy ong jamiyatdagi siyosiy elitalar va xalqning ehtiyojlarini umumlashtirgan holda aniq maqsadlarni ko'zlab, ijtimoiy taraqqiyot sari ildamlab boradi.

Keyingi paytlarda siyosiy ongning yangi davr mafkuralariga ta'siri ham xilma-xil ko'rinishlarda davlatlarning ijtimoiy qiyofasi, iqtisodiy rivojlanish darajalarini o'zgartirishga olib kelishi bilan bog'liq tadqiqotlarda yangicha bilim va qarashlarning vujudga kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada o'zbek tilida chop etilgan siyosiy adabiyotlarda siyosiy ong tushunchasiga nisbatan xilma-xil qarashlar asosida ta'riflar keltirilgan. "Politologiya" nomli qo'llanmada "siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to'g'risidagi bilimlar, tasavvurlar, maslaklar, e'tiqodlar, o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig'indisidan iboratdir"[4], deyiladi. Bu ta'rif bevosita insonning muayyan jamiyatdagi olib borayotgan siyosiy faoliyatiga berib boriladigan bahosi,

undagi intellektual salohiyatning jamiyat taraqqiyotidagi roli masalasiga e'tibor qaratilgan. Chunki har bir jamiyatning siyosiy ongini yuksalib borishi uning istiqboldagi hayoti uchun poydevor vazifasini bajarishi, shu jamiyatda voyaga yetib kelayotgan yoshlarning zamonaviy tafakkur darajasi boyishiga, odamlardagi o'zi yashayotgan jamiyat to'g'risidagi g'oyalarni tarix yoki shu makon va zamonda mavjud jamiyatlar bilan taqqoslash imkoniyatlari kengayishiga olib keladi.

Professor S.Otamurotov davlatlar mustaqil taraqqiyoti uchun siyosiy ongning naqadar zarur omil ekanligi, unda yoshlar faol qatlam sifatida jamiyatni harakatlantiruvchi kuch ekanligi, ijtimoiy hayotning aloqadorliklariga ta'sir etuvchi subyekt ekanliklarini ilmiy tadqiq etgan. Uningcha, "siyosiy ong siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko'nikmalar va bilimlar majmuasidir"[5]. Demak, yoshlarda siyosiy hayot haqidagi g'oyalar qanchalik teran rivojlansa, ularda erkin tasavvurlar, real voqelik to'g'risidagi siyosiy bilimlar yangilanib boradi.

Jahon falsafasi qomusiy lug'atida "siyosiy ong – siyosiy borliqning subyektiv in'ikosi, jamiyatning siyosiy sohasini aks ettiradigan ong shakli[6], deb ta'rif berilgan. Bu ta'rifda siyosiy ongning bevosita falsafiy jihatlar aks etgan bo'lib, inson faoliyati orqali o'zining aql-idroki asosida eng mayda zarralardan tortib, makroolamgacha bo'lgan jarayonlar tadqiq etishi, faqatgina aql tarozusida o'lchanadigan tushunchalar mohiyatini sirlarigacha bilib olish mumkinligi ochib berilgan. Shuning uchun olamdagi barcha tabobat va nabobat dunyosi ichida insongina ongli ravishda siyosiy borliqni yarata olishi mumkinligi falsafiy tarzda o'rganilgan. Bu mulohazalarning barchasi jamiyatda siyosiy ongning muhim falsafiy tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, jamiyatning rivojlanishda siyosiy qonuniyatlar ham o'zining ijtimoiy mohiyati bilan voqelikdagi yangilanishlarda bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tib, sayqallanib boradi. Shuning uchun davlat va jamiyatning boshqarilishida falsafiy tadqiqotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zining rolini turlicha ijtimoiy ong shakllari orqali ifodalab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Sinergetika-2: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Fan ziyosi, 2022. –B. 168.*
2. *Jo'rayev N. Yangilanishlar konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. –Toshkent: Ma'naviyat: 2002. –B. 39.*
3. *Otamurotov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. –Toshkent: O'zbekiston, 2015. –B. 35.*

4. Politologiya. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, O'FJBNM markazi, 2002. –B. 163.

5. Otamurotov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. –Toshkent: O'zbekiston, 2015. –B. 34.

6. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Ma'naviyat, –Toshkent: –B.178.

TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Ro'zmetova Zuxra Kurbondurdiyevna

Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani

20-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni hisoblanadi. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini tashkil qilish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, shaxs, yoshlar, ta'lim, tajriba, pedagog, jarayon, odob, o'quvchi, fuqaro, faoliyat, befarq, dushman.*

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi.

Bugungi kunda biz huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati asoslarini qurishga dadil kirishdik. Bunday sharoitda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi shidatli zamonda yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitida biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".

Bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham hayotimizga kirib kelmoqda. Shu ma'noda turli ma'naviy tahdidlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, sog'lom g'oyalar orqali, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz lozim. Bunday bellashuvga kirishadigan shaxsning nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qarashlari yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim. Dunyodagi har bir xalqning tili, xarakteri va tafakkur-tarzi turli bo'lgani kabi milliy xulq-atvori, odob-axloqi, muomala madaniyati, urf-odatlar ham farqlidir. Lekin umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan mehr-muhabbat, sharm-hayo, rahm-shavqat, hurmat-izzat va qadr-qimmat degan tuyg'ular borki, bu barcha xalqlar uchun birdek go'zal fazilat hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, odob millat tanlamaydi. Chunki, odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, shuningdek, jamoa, milliy urf-odatlariga asoslangan go'zal xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu xatti-harakatlarning barchasi insonni ezgu ishlarga, bunyodkorlikka yetaklaydi.

Shu o'rinda shaxsning ma'naviyatini shakllantirishda tarbiyaning o'rniga to'xtalish lozim. Tarbiya insonni inson qiladigan azaliy qadriyatdir. Aslida, ta'lim ham, tarbiya ham ong mahsulidir, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

1) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

2) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta‘lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’kidlaganidek, Bolaning yetuk tarbiya topishida ijtimoiy muhit, oilaning o‘rni, shuningdek, sog‘lom insonni tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish, o‘quvchini fikrlashga o‘rgatish, yanada muhimi – axloq tarbiyasi – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Kundalik hayotimizda uchrab turadigan o‘zimiz bilib bilmaydigan, ammo ijtimoiy turmushda har doim qo‘llashimiz zarur bo‘lgan xulq-odob qoidalari mavjud. Ana shu qoidalarini o‘z faoliyatiga singdirish uchun o‘quvchi shaxsiga aniq maqsadga qaratilgan harakat zarur. Oddiy voqeadan buyuk kashfiyotni kashf etish mumkin bo‘lmas, ammo oddiy harakat, chiroyli xulq-odob yordamida yirik muvaffaqiyatga erishish mumkin. Shuning uchun o‘quvchi xulq-odobiga e‘tiborsiz bo‘lmasligi kerak.

Mayda-chuydalarni ko‘zdan qochirmaslik har bir o‘quvchida hushyorlikni oshiradi. Xulq-odobda har bir narsa muhim hisoblanadi. Xulq-odob o‘quvchilarni qalban bir-birlariga bog‘laydigan ruhiy manba hisoblanadi. Shu bois xulq-odob madaniyatini umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi, oliy ta‘lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va mahallalarda yoshlar o‘rtasida bosqichma-bosqich targ‘ib qilish shakllarni amalga oshirish kerak. Ular quyidagi bosqichlardir:

Birinchi bosqich. Umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi, oliy ta‘lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat jamoat tashkilotlari va mahallalarni ma‘ruza matnlari, ma‘ruzaning elektron shakllari va uslubiy yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash. Ma‘ruzaning asosiy yo‘nalishlari va unda ilgari surilgan g‘oya va fikrlarni yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlar jamoalar o‘rtasida “Ma‘naviyat soati”, “davra suhbatlari”, seminar, jonli muloqot shakllarida chuqur va atroflicha o‘rganish. Xulq-odob madaniyatini targ‘ib etishga doir videorolik, ko‘rsatuv va eshittirishlar, multimedia vositalarini yaratish.

Ikkinchi bosqich. Xulq-odob madaniyati targ‘ib etuvchi guruh a‘zolarining mazkur yo‘nalishda ko‘tarilgan masalalarning milliy va umuminsoniy ahamiyatiga chuqur kirib borishi. Ma‘ruzaning asosiy yo‘nalishlarini keng targ‘ib etishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar

tashkil qilish va ularga soha mutaxassislarini, shoir, yozuvchi va mahalla faollari jalb etish. Xulq-atvor madaniyatiga doir fazilatlar bo'yicha targ'ibot materiallaridan tizimli ravishda foydalanib, yoshlar ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'usiga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish.

Uchinchi bosqich. Vazirlik, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi, oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish birlashmalari, nodavlat-notijorat jamoat tashkilotlari va mahallalarda orttirilgan ilg'or tajribalarni o'zaro ommalashtirish va ular yuzasidan tajriba almashish. Targ'ibot va tashviqot ishlarining ta'sirchan usullarini keng qo'llash va erishilayotgan yutuqlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borish. Yoshlarda xulq-odob madaniyatini shakllantirishga doir muntazam ravishda mafkuraviy profilaktika va korreksiya ishlarini tizimli yo'lga qo'yish.

Bu bosqich ishlarini boshlang'ich ta'limdan boshlab tog'ri yo'lga qo'ya olsak o'quvchilarda yuqorida ko'rsatilgan odob qoidalarga amal qiladigan va yuksak fazilatli komil shaxslarni yetishtira olamiz. Aks holda, ya'ni tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermaslik va boshlang'ich sinfdayoq tarbiya nuqsoni bor o'quvchilar bilan oila va mahalla hamkorligida individual ishlarni sayoz olib borish oqibatida bu xato kattalashadi va oqibatda hali-hanuzgacha ayrim yoshlarimiz ma'naviyati va ruhiyatidagi G'arb madaniyati, ko'p hollarda milliy ruhiyatimizdan ustunroq namoyon bo'layotganini, ayrim yoshlarimiz bilib-bilmay vayronkor (jumladan diniy ekstremizm, terorizm) g'oyalar ta'siriga duchor bo'layotganini, yoshlarmizda siyosiy yetuklik yetishmayotganligini, nafaqat mamlakatda, balki jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarga befarq bo'lish, loqaydlik holatlari mavjudligini, yoshlarimiz orasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlari oldida vaqt o'tkazish, mazmunan sayoz bo'lgan turli xil janrdagi musiqalar eshitish, filmlar tomosha qilish odat tusiga kirib borayotganligini va hokazo holatlarini guvohi bo'lyapmiz. Shuning uchun birinchi o'rinda oilada ota-ona, ustoz-murabbiylar va eng asosiysi har bir o'zbek xalqi fuqorosi loqayd, beparvo bo'lmasligi kerak.

Aytadilarki, dushmanlardan qo'rqma, nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma, nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq, ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi. Birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. Toshkent. "O'zbekiston" 2007.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5040 son qarori. www.lex.uz
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993.
4. O.Hasanboyeva va boshqalar. *Pedagogika tarixi*. – T.: G.Gulom nomidagi nashriyot., Darslik. 2004 y.
5. Davletshin M.G. va boshqalar. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. T., 2004;
6. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov. *Pedagogik mahorat asoslari*.: T., "Fan va texnologiya", 2006
7. M.Imomnazarov «Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar». T.: «Sharq» 1998

MA'RIFATLI VA MA'NAVIYATLI SHAXS TARBIYASINING ZAMONAVIY MEZONLARI

Baqoeva Mubina Ibodilloevna

*Buxoro viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasining katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya, uni shakllantirishdagi muammolar, shuningdek farzand tarbiyasi, hozirgi globalizatsiya davrida yoshlarning ongi, tafakkuriga bo'layotgan salbiy ta'sirlar, ularning ba'zi bir yechimlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, televidenie, OAV, tarbiya manbalari, oila, ta'lim muassasasi, internet, jamiyat, oila

O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash

ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o'rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi.

Ma'naviy tarbiya atamasi keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma'naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqa qator faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy tarbiya atamasi tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, ma'naviy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunday tarbiya oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma'naviy tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi.

Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota- bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim- tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar.

Prezidentimiz ta'kidlagani kabi, "Ta'lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim- tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat

masalasi» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Har gal bola xulqi, tarbiyasi haqida gap ketganda yaponlarning tarbiya metodlari esimga tushadi. Yaponlar "Mamlakatni rivojlanishini xoxlasang, avalambor onalarni tarbiyala", degan shior bilan yashashadi. Chiroyli tarbiya berish ota-onaning farzandi oldidagi burchlaridandir. Bu haqni ado etish o'z-o'zidan bo'lmaydi, insondan katta mas'uliyat, mashaqqat talab qiladi.

Bola tarbiyasiga eng birinchi navbatda ota-ona javob beradi. Ular bolalarini zarur mashg'ulotlar bilan band qilishi kerak. Bola ongi bo'sh turmaydi. Uydagi tarbiya bolani qoniqtirmasa, ko'chaga intiladi, o'zi bilmagan holda boshqa "dunyo" komiga kira boshlaydi. Bugun kim bilan o'tirib gaplashsangiz, darrov farzandiga buzg'unchi g'oyalar ta'sir etayotganidan shikoyat qiladi. Ba'zi xonadonlarda farzandlar axloqi katta muammoga aylangan.

Yangi asrda axborot tezligi taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti. Ayni chog'da qator muammolar keltirib chiqaryapti. Internet, uyali telefon orqali yoshlarga qilinayotgan hujumlardan saqlanish eng katta muammoga aylandi. Ehtiyot choralari izlanyapti, lekin bu harakatlarning ko'pi faqat nazariy. Ularni amalda qo'llash qiyin. Bugun ko'pchilik takrorlaydigan iboralar: "Farzandim meni tushunmaydi"; "Menga itoat etmaydi"; "Nasihatimga quloq solmaydi"; "Kunduzi uxlab, tunda televizor ko'radi"; "Aka-ukalari bilan janjallashadi"; "Ko'p yolg'on gapiradi" va hokazo.

O'tgan ulug'larimiz bola xulqi buzilishiga ko'pincha ota-ona sabab bo'lishini ta'kidlashgan. Jumladan, asosiy ichki sabablar:

- Oilani boshqarishda ota-onaning aniq maqsadi yo'qligi;—bola go'daklik davridanoq tarbiya uslublarini yo'lga qo'ymaslik, bola tarbiyalashni bilmaslik;—moddiy ta'minotni haddan oshirib yuborish yoki umuman ta'minlamaslik;

- bolaning ta'lim olishdan maqsadi yo'qligi yoki darslarni o'zlashtirilmashligi, maktabga ota-ona majburlashi bilan borishi;

- bolaning ota-onadan qoniqmasligi;
- murabbiydan qo'rqishi;
- ota-onadan mehr ko'rmay, boshqalardan shirin so'zlar eshitishi;
- Ota-ona farzandi oldida janjallashishi;
- Ota-ona farzandlaridan birini maqtashi, boshqasini e'tiborsiz qoldirishi;

- ishlarni faqat chaqqon bolaga yuklab, qolganlariga beparvo bo'lish;
- ota uzoq vaqt uyda bo'lmasligi;
- kichik xatoni bo'rttirish;
- uydagi holat bilan talab qilinayotgan narsaning bir-biriga mos kelmasligi;
- bolaning xatosini to'g'ri tushuntirmaslik, boshqa bolalarga solishtirish. Bu ish noto'g'ri. Chunki har bir bola o'z tabiatiga ega.

Tashqi ta'sirlar:

- muallimning o'zi o'rgatayotgan fan maqsadini bilmasligi;
- tashqarida ham o'rnatilgan bo'ladigan shaxsning yo'qligi;
- shahvatni qo'zg'atuvchi omillar;
- aloqa vositalari rivojlanib ketishi sabab yomon do'stlarning ko'pligi;
- ta'lim-tarbiya zamon talablariga mos emasligi;
- tashqi ko'rinishi bilan tengdoshlaridan ajralib turishi;
- ortiqcha qo'pollik, qattiqqo'llik, o'rinli-o'rinsiz kaltaklayverish.

Bu illatlar tufayli bolaning fe'li buziladi, beti qotadi. Uyimiz, ko'chako'y, yashab turgan jamiyatimizdagi muhit, ta'lim-tarbiya muassasalari - bularning barchasi tarbiya omillaridir. Ammo hozir dunyoning har tomonidan yoshlarga maxsus yo'naltirilayotgan maqsadli "tarbiya uslublari" ham borligini unutmaylik. Zero, yaxshi bola ikki dunyo saodatiga vosita bo'luvchi sadaqai joriyamiz bo'ladi. Farzand tarbiyasida shuni doim yodda tutaylik.

Shuningdek, tarbiya- umumxalq maslasidir! Televidenie, internet manbalar, OAVlarda tarbiya masalasiga oid ta'sirli roliklar, mazmunan boy lavhalar tasirini kuchaytirish lozim.

Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini jonlantirish va bu borada metodik tavsiyalar ishlab chiqish, maxsus o'quv kurslari tashkil qilish, onalar bilan ishlash uchun maxsus sekiyalar tashkil qilish, maktablarda ota-onalar uchun metodik kunlar tashkil qilib o'tkazish lozim.

Ota-ona va ustoz o'rtasidagi ko'pgina muammoga olib kelayotgan yana bir dolzarb masala- baho qo'yish masalasidir. V.A.Suxomlinskiy ta'biri bilan aytganda, ustoz-murabbiylar bu borada:

1. O'quvchiga amaliy yondashishi ("O'quvchi bo'lgandan keyin o'qib kelish kerak-da" tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo'lish ("O'quvchi, eng avvalo, shaxs, bola, so'ngra esa o'quvchi. Men unga qo'yadigan baho uning bilimi o'lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir" tarzida yondashishi).

2. Har bir baho o'quvchini kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; o'quvchining mehnatini rag'batlantirishi, biroq, uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo'lmasligi zarur ekanligini anglashlari va adolatli bo'lmoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

2. [https://staff.tiiame.uz > storage > users > books](https://staff.tiiame.uz/storage/users/books)

YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTIDA ILMIY YONDASHUVLARNING AMALIY AHAMIYATI

Abdullayeva Madina,

Raupova Mushtariy -

Andijon davlat chet tillari instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar,

pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchilari

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizdagi ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar, ajdodlar merosi, ma'naviy barkamol inson, falsafiy bilim va ilm-fan haqida fikrlar aytilgan. Inson ma'naviy kamoloti borasida bugungi kun va tarixiy fikrlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, falsafa, falsafiy bilim, dunyoqarash, meros, tarix.*

Dunyo ilm-fani taraqqiyoti yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, ularning intellektual faolligini shakllantirishda falsafiy bilimi va ilmiy dunyoqarashga tayanish masalasi nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlar, balki barcha fanlar doirasida muhim va kerakli muammo sifatida tadqiq etilmoqda. Falsafa, falsafiy bilim, ilmiy dunyoqarash muammosi o'ziga xos insonparvarlik, vatanparvarlik singari tamoyillar bilan bir qatorda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida faol tadqiq etilib, uni hozirgi zamon ilmiy bilish

metodlari asosida o'rganish obyekti va predmeti doirasini yanada keng rivojlantirish zaruriyatini izohlaydi.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak [1].

Tarix bugun va kelajak bizdan kelajagimiz tayanchi bo'lgan yosh avlod uning ma'naviy kamoloti haqida qayg'urmaslik mumkin emasligini doimo anglatib kelmoqda. Yoshlar ma'naviy kamolotida ajdodlar ilmiy merosidan foydalanish hamda bugungi kunning ta'lim va tarbiya jarayonlarining bevosita samarali faoliyati bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida, har bir insonga yoshlar ma'naviy kamoloti uchun barchamiz birdek mas'ulligimizni bildiradi. Barkamol avlod tarbiyasi borasida har bir yo'nalishiga jiddiy e'tibor berish kerakligi, yosh avlod ongu tafakkuri uning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ro'l o'ynashini anglatadi. Ma'naviy barkamollik o'z navbatida, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonparvarlik, mehr-oqibatli, intizomli, millat g'ururini e'zozlovchi, ulug' ajdodlarimiz an'analari va ilmiy meroslarini ko'z qorachig'iday asrash, axloqiy pok inson bo'lib yetishish borasidagi asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ilmiy ijobiy holatlar bilan bir qatorda ayrim salbiy muammolar ham yig'ilib kelmoqda. Dunyoning aksariyat davlatlarida ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etib rivojlanib borishi bilan bir qatorda urush va ziddiyatlar tobora avj olishi, ma'naviy qashshoqlik, ekologik muammolar, ochlik va suvsizlik hamda turli xil kasalliklarning ko'payishi kabi muammolar ta'siriga tushib qolish nafaqat o'zining mamlakati taraqqiyotiga, balki o'zga mamlakatlar taraqqiyotiga ham xavf solmoqda. Dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan bunday holatlar har qanday sog'lom fikrli insonlar orasida taajjub va hayrat hissini uyg'otadi. Yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar esa bu muammolarning oldini olish naqadar muhim ekanligini anglatmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari unda insonlarning o'zaro munosabatlari hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan ma'naviy barkamollik bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etayotgani barchamizga birdek ayondir. Bu bizga inson o'z ma'naviyatini o'zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, to umrining oxirigacha shakllantirib va rivojlantirib borishini anglatadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining ertangi kuni bo'lgan yoshlarni har tamonlama yetuk va ma'naviy barkamol inson etib tarbiyalash masalasi davlatimizning strategik masala sifatida diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

O‘zbekiston aholisining qariyb aksariyatini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma‘naviy yetuk inson etib tarbiyalash, rivojlangan davlatlar yoshlari bilan har tomonlama bellasha oladigan darajada o‘qitish va tarbiyalash bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Negaki, yoshlar ulardagi falsafiy bilim va ilmiy dunyoqarash, ma‘naviy barkamollik, azmu shijoati har qachongidan ham yuksak bo‘lib kelmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi [2]“.

Bu borada yoshlar azmu shijoatni ko‘rib yuksak baho berayotgan chet el mutaxassislarining fikrlariga baho bergan birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrlarni ilgari suradi. “... bizning yoshlarimiz bilan suhbatlashib, qani endi, o‘z kasbini puxta egallagan, xorijiy tillarda bemalol gaplasha oladigan bunday yoshlarni boshqa mamlakatlarda ham ko‘rsak va ular bilan ishlasak, deb orzu qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ular O‘zbekiston yoshlarining salohiyatini yuksak baholaydi.

Haqiqatan ham, bu biron-bir sohada hech kimdan kam bo‘lmagan, yangicha fikrlaydigan yangi avlodning maydonga chiqayotganligidan dalolat beradi. Bunday ming-minglab, sof niyat bilan oldinga intilishga, o‘zining Ollah bergan imkoniyat va salohiyatini O‘zbekistonimiz ravnaqi uchun safarbar qilishga, shuning hisobidan, avvalambor, uning o‘zi rozi bo‘lib, hayotda o‘rnini topib yashashga bel bog‘lagan yigitlar-qizlarimizga nisbatan ana shu iborani ishlatish har tamonlama o‘rinli... [3].

G‘arb olamida odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko‘ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin [2]. Shuning uchun ham Davlatimiz ushbu holatning oldini olish maqsadida asrlar davomida shakllangan bag‘rikenglik, adolat, fidoyilik,

mehr-oqibatlilik, yuksak madaniy meros, boy urf-odat va an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish borasida muayyan choralar ko'rmoqda.

Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish birinchi muhim masala ekanligi ta'kidlanadi. Davlat o'zini erkinlashtirmasa, ma'naviy hayotni erkinlashtira olmaydi. Bu borada yurtimizda bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi 5-yo'nalishining qator maqsadlarida ham "sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish, buyuk ajdodlarimiz boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish" kabi masalalarning ham ilgari surilgani bunga misol bo'la oladi.

Ajdodlarimizdan qolgan moddiy va ma'naviy meroslarimiz bugungi kun va kelajak yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'alarimiz juda ko'p. Bu merosimizdan bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, biz davlatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday kamol topishi va qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishi, ularni faol munosabatda bo'lishi hamda qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtayi nazardan yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni tamoyillariga so'zsiz muvofiq keladi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, buyuk ajdodlarimiz, alloma-yu mutafakkirlarning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati bugungi kunda ham o'z o'rnini yo'qotmagan. Bugungi kunda ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta'sirchan usul-uslublar orqali singdirish juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<https://president.uz/uz/lists/view/4057>) (Murojaat sanasi – 29.12.2020).
2. Karimov I.A. *Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.* – T.: “O‘zbekiston” 2015. – B. 245.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.* – T.: Ma’naviyat, 2008. – B.10.

MA’NAVIY-MA’RIFIY ISLOHOTLAR DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Mavlonov Feruz Oblakulovich

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis
Instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash va bu huquqlarni himoya qilishning samarali mexanizimini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolda ma’naviy-ma’rifiy islohatlarni amalga oshirishning dolzarb masalari va ularning natijalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: demokratiya, adolat, ma’naviyat, tarbiya, axborat, davlat, g‘oya, siyosat, globallashuv

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolardan biri – yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. O‘zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma’naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqloqlarning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko‘rdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.[1]

Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatini ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.[2]

Hozirgi globallashuv davrida axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun axborot texnologiyasi yuksalgan davlatlarda bu sohada ustunlikdan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy tajovuzlarni amalga oshirish yo'lida foydalanib qolish vasvasasi yo'q emas.

Bu narsa axborotdan foydalanib kishilar ongini boshqaruvchilarga katta yo'l ochdi. G'oyaviy manipulyatsiya kuchaydi. Axborotni tanlab o'qish, undan qanday foydalanish lozimligini hamma ham bilavermaydi. Shuning uchun ham Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida "Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubxasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi"-deb yozadi. Shu sababli bolalarimizga axborotni baxolash, uni tanlash haqida chuqur bilim berilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda kuchli tashviqot zarur.

Davlat siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro – jamiyat – davlat» prinsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish bo'ldi.[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmonida "ma'naiy va ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining asosiy ustivor yo'nalishi deb hisoblansin" deb belgilab qo'yilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlash amalga oshirilayotgan islohatlarni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini ta'minlash sharoitida yosh avlodni, jumladan o'quvchilarni xar tomonlama yetuk, zamon talabiga to'la javob beradigan yangi tipdagi yuqori malakali

mutaxassis, shu bilan birga ma'naviy va ma'rifiy, axlqiy, ruxiy va jismoniy jixatdan barkamol, Vatanga, el-yurtga sadoqatli kishilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish taraqqiyotimizning bebaho manbai bo'lmish inson omili safarbar qilish bilan qimmatli. Zero, islohotlar avval odamlarning ongida, keyin esa ishlarida amalga oshadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarimoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.[4]

Ma'naviy barkamollik, mafkuraviy sobitlik namunasini xalq avvalo joylardagi raxbarliklarda kurishi lozim.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ'iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O'zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ'ib qilishni talab etadi. Bunday targ'ibot islohotlarni «mafkuraviy ta'minlash»ga xizmat qiladi.

O'zbekiston hayotidagi o'zgarishlar insonlar ongida ham katta o'zgarishlar qilishni talab etadi. O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat yangi insonni tarbiyalash haqida jiddiy qayg'urishi tabiiy. Demak, O'zbekistonda ham «komil inson» g'oyasiga mos sifatlarni fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko'ndalang turibdi. «Fuqarolik ahloqi»ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.[5]

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Bu ishda mamlakatimiz mustaqilligidan keyin qo'lga kiritilgan yutuqlardan unumli foydalanish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ta'kidlangan, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini, ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangan: "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplaridan biri ta'limning insonparvarlashuvidir. Ta'limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir".

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari – bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy farovonligi va ma'naviy barkamolligi, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliqi kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, iymon-e'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa, o'zo'zidan, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini o'zida ifoda etadi. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi va bu

borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri – mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo'l-yo'riqlari va maqsadlari ochib ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-marifiy-ishlar-tizimini-tubdan-takomillashtirish--chora-tadbirlari-togrisida>

2. O'zbekiston Respublikasining 2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi 2017-yil 7-fevral

3. S.Mamashokirov. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mavfuraviy masalalari., -T "Ma'naviyat"2007-29-bet

4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4307/3079-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son

5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son

NURLI MASKAN MAKTAB INTERNATI TAHSIL OLUVCHI DZYUDO KURASHCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHI KO'RSATKICHLARI

To'ychiyev Tohirjon Sahodillayevich

Namangan davlat universiteti jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar – o'smirlarni jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari shakllantirishda dzyudo kurashchilarini pedagogik texnologiya mashg'ulotlarida interfaol hamda axborotlardan foydalanish, tashkil etish yo'llari va uning uslublari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nurli maskan ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, bolalar va o'smir, shakllantirishda, dzyudo, pedagogik texnologiya, interfaol, axborot, uslub, mustaqil.

Ishning dolzarbligi. Mashg'ulot va raqobat yuklamalari saviyasining doimiy va barqaror o'sishi jahon sportining rivojlanishida yetakchi tendensiya hisoblanadi. Yosh sportchilarni zamonaviy sog'lomlashtirish

vositalaridan foydalangan holda tayyorlash samaradorligini oshirish va sportchilarni tayyorgarlik tizimini mustaxkamlash etish lozim. Jamiyat a'zosining jismoniy rivojlanganligiga mavjud ijtimoiy tuzum, undagi muhit, ijtimoiy sharoitning ta'siri muhim rol o'ynaganligi hozirgi kunda o'z isbotini topgan. Azal-azaldan insonlar o'z tanasining rivojlanganligi haqida bosh qotirib o'z davrning mavjud sharoiti, muhiti, nazariy bilimlari zahirasiga tayanganlar.

“Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi dzyudochilarning jismoniy rivojlanishini tekshirish - gavda qismlarining shakli, hajmi va proporsiyalari haqida organizimning ba'zi bir imkomiyatlarini aniqlab beradi. Ko'p hollarda jismoniy rivojlanishning yaxshi davom etishi, jismoniy tarbiya va sport bilan chambarchas bog'liqdir. Albatta, yurtimizda nurli maskan maktab internati tahsil oluvchi yosh avlodni o'sib rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya va sportga juda ham katta e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib yurtboshimiz tomonidan 2021-yil 5-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII-Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sport turlaridan kelib chiqib sport turlarini yanada takomillashtirish va ommalashtirish to'g'risida”gi PQ – 5279 – sonli farmonini, [Ошибка! Источник ссылки не найден.] O'zbekiston respublikasi Prezidentining ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2022 yil 18 apreldagi pq-209-son qarori ko'rsatish mumkin [Ошибка! Источник ссылки не найден.]

Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi o'quvchilarining, Bo'yi (sm), Ko'krak aylanasi (sm), tana og'irligi bo'yicha rivojlanish 2022 – 2023 o'quv yil jarayonlarini dzyudo kurashchilarni jismoniy yosh xususiyatlari tahlil qilish.

Namangan viloyati Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 5-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari o'lchanganda, o'quv yili boshida ularning bo'yi 140,4±5,8 sm.ga, o'quv yili oxirida esa o'rtacha 143,2±4,7 sm.ga teng bo'ladi. Ushbu yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlaridagi yillik o'sishi farqi 2,8 sm.ga tengligini aniqlandi (2,14%). Statistik jihatdan farq yo'q. .A.U. Xamidjonovning (2021) [Ошибка! Источник ссылки не найден.; 169-b] tadqiqot ishlari bilan qiyoslaganimizda ham, 5-sinf o'quvchilarining tana uzunligi tajriba

(141,2±1,44 sm) va nazorat guruhlaridagi (142,1±2,56 sm) ko'rsatkichlardan olingan natijalar bo'yicha jismoniy rivojlanishda statistik farqlar ishonchli emasligi aniqlangan ($R>0,05$).

1-jadval


Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 11 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari n=6

T/r	Ko'rsatkichlar	O'YB		O'YO		Farqi	%	t	R
		X±σ	V%	X±σ	V%				
1.	Bo'yi (sm)	140,4±5,8	4,1	143,2±4,7	3,2	2,8	1,21	1,5	>0,05
2.	Vazni (kg)	34,1±2,4	7,0	35,4±1,8	5,0	1,3	0,84	0,95	>0,05
3.	Ko'krak aylanasi (sm)	66,9±4,7	7,0	69,2±3,2	4,6	2,3	0,49	2,95	<0,05

Izoh: O'YB – o'quv yili boshida, O'YO – o'quv yili oxirida.

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 11 yoshli maktab o'quvchilarining tana og'irligi bo'yicha rivojlanish jarayonlari o'rganildi. Unga ko'ra o'quvchilarning tana og'irligi o'lchamlari o'quv yili boshida o'rtacha 34,1±2,4 kg.ga teng, o'quv yili oxirida esa bu ko'rsatkich 35,4±1,8 kg.ga yetgan. Bu yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishida vazn ko'rsatkichlarining yillik o'sishi farqi 1,3 kg.ga farq qilgan (0,84%). Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R>0,05$). Bu yerda ham .A.U. Xamidjonovning (2021) tadqiqot ishlari bilan qiyoslaganimizda, 5-sinf o'quvchilari tana vaznining tajriba (33,4±1,67 sm) va nazorat guruhlaridagi (36,0±2,36 sm.) ko'rsatkichlari aniqlangan ($R>0,05$). Statistik jihatdan farq kuzatilmagan.

O'quvchilarning ko'krak aylanasi o'quv yili boshida o'lchanganda, o'rtacha 66,9±4,7 sm.ga teng bo'ldi. Yil oxirida jismoniy rivojlanish jarayoni 4,6 sm.ga ortib, 69,2±3,2 sm.ga teng bo'ldi. Yuqorida olingan natijalarda ham jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari orasidagi farqlar ishonchliligi mavjud emas ($R>0,05$) (1-jadval).



1.rasim: “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 11 yoshli maktab o‘quvchilarining tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlari o‘zaro farqlarni ifodalovchi diagramma

Tana vazni haqidagi ma’lumot yaqqol ko‘rsatmalar bermaganligi sababli uni o‘rganishda tana uzunligi va kengligi hajmlaridan foydalaniladi. A.U. Xamidjonovning (2021) ishlarida tana vazni og‘irligi somatik tiplar va rivojlanish variantlariga bog‘liq holda tahlil qilingan.

Tana vazni va uning komponent tarkibi organizm rivojlanishi va o‘shining umumlashgan ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Tana vazni faqatgina genetik xususiyatlarigagina emas, balki harakat rejimi, ovqatlanish hamda atrof muhit sharoiti xususiyatlariga bog‘liqdir.

7-12 yosh davrlarida tana vaznining yildan-yilga o‘sib borishi notekis bo‘lib, o‘shining tez va sekin davrlari ham mavjud. Yillik hajmlar o‘shisi intensivligining egri chiziqli ifodalanishida va variatsiya koeffitsentini aniqlashda tana vazni o‘shining o‘zgaruvchanligi aniq ko‘rinadi.

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 6-sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi tekshirilganda bo‘y uzunligi bo‘yicha olingan natijalar o‘quv yili boshida o‘rtacha $143,1 \pm 6,1$ sm.ga teng bo‘ldi. Yil oxirida jismoniy rivojlanish $146,4 \pm 4,2$ sm.ga yetgan. Olingan natijalar yil davomida 3,3 sm.lik farq ko‘rsatdi. Yuqoridagi natijalarda ham jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari orasidagi farqlar ishonchliligi mavjud emas ($R > 0,05$).

2-jadval


Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 12 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari n=4

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘YB		O‘YO		Farqi	%	t	R
		X±σ	V%	X±σ	V%				
1.	Bo‘yi (sm)	143,1±6,1	4,2	146,4±4,2	2,8	3,3	2,3	1,11	>0,05
2.	Vazni (kg)	36,7±2,1	5,7	39,2±1,8	4,5	2,5	6,8	0,73	>0,05
3.	Ko‘krak aylanasi (sm)	65,4±5,4	8,2	67,9±3,5	5,1	2,5	3,8	3,12	<0,05

Izoh:O‘YB – o‘quv yili boshida, O‘YO – o‘quv yili oxirida.

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 6-sinf o‘quvchilarining tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlariga ko‘ra, o‘quvchilarning tana og‘irligi o‘lchamlari o‘quv yili boshida o‘rtacha 36,7±2,1 kg.ga teng, o‘quv yili oxirida esa bu ko‘rsatkich 39,2±1,8 kg.ga yetgan. Bu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishida vazn ortish ko‘rsatkichlarining yillik o‘sishi farqi 2,5 kg.ga farq qilgan (6,8%). Ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi mavjud emas (R>0,05).

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 12 yoshli o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘lchanganda, o‘quv yili boshida o‘quvchilarning ko‘krak aylanasi uzunligi 65,4±5,4 sm.ga, o‘quv yili oxirida esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 67,9±3,5 sm.ga teng. Ushbu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlarida yillik o‘sish farqi 2,5 sm.ga tengligi aniqlandi (3,8%). Ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi mavjud emas (R>0,05).



2.rasim: “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 12 yoshli maktab o‘quvchilarining tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlari o‘zaro farqlarni ifodalovchi diagramma.

Rivojlanishning o‘tib borishida uchta fazani ajratish mumkin: rivojlanish darajasining ko‘tarilishi, nisbatan barqarorligi va inson jismoniy imkoniyatlarining asta-sekin pasayishi. Eng jo‘shqin rivojlanish maktabgacha va kichik maktab yoshiga to‘g‘ri keladi hamda maktabda ta‘lim olishning barcha davrlari mobaynida davom etadi. Jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish iste‘dodli bolalarni tanlab olishga imkoniyat yaratadi. Chunki iste‘dod nasldan-naslga o‘tadi. Shuning uchun yuqori sharoit natijalariga har qanday o‘quvchi ham erisha olmaydi. Har bir shug‘ullanuvchi maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarga muntazam, vijdonan ishtirok etish sharoitida o‘zining jismonan yaxshi rivojlanishini ta‘minlashi mumkin, biroq organizm himoyasi va mehnatda munosib muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratish zarur. Bunday rivojlanishga erishish uchun “Jismoniy tarbiya” nomini olgan maxsus yo‘naltirilgan va tashkillashtirilgan faoliyatdan foydalaniladi [94; 296 b.].

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 7-sinfida tahsil oluvchi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, o‘quv yili boshida o‘quvchilarning bo‘yi uzunligi $148,8 \pm 5,8$ sm.ga, o‘quv yili oxirida o‘rtacha ko‘rsatkich $152,7 \pm 4,1$ sm.ga teng. Ushbu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari yillik o‘sishi farqi 3,9 sm.ga tengligi aniqlandi (1,27%). Rivojlanish orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R > 0,05$). (3.2-jadval).

Tana vazni ko‘rsatkichlari yosh ulg‘ayishi bilan ortib boradi. 13 yoshli maktab o‘quvchilarining tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlari

o'rganildi. Unga ko'ra o'quvchilarning tana og'irligi o'lchamlari o'quv yili boshida o'rtacha $40,5 \pm 2,9$ kg.ga teng bo'lib, o'quv yili oxirida bu ko'rsatkich $42,9 \pm 3,7$ kg.ga yetgan. Bu yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi – tana og'irligining ortishi ko'rsatkichlaridagi yillik farqi 2,4 kg.ga teng bo'lgan (5,9%). Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R > 0,05$).

3-jadval


Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 13 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari $n=3$

T/r	Ko'rsatkichlar	O'YB		O'YO		Farqi	%	t	R
		$X \pm \sigma$	V%	$X \pm \sigma$	V%				
1.	Bo'yi (sm)	$148,8 \pm 5,8$	3,8	$152,7 \pm 4,1$	2,7	3,9	1,3	1,9	$> 0,05$
2.	Vazni (kg)	$40,5 \pm 2,9$	7,1	$42,9 \pm 3,7$	8,6	2,4	5,9	0,58	$> 0,05$
3.	Ko'krak aylanasi (sm)	$65,9 \pm 4,9$	7,4	$68,7 \pm 2,8$	4,0	2,8	4,2	0,89	$> 0,05$

Izoh: O'YB – o'quv yili boshida, O'YO – o'quv yili oxirida.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, yosh dinamikasining tahlili olib borilayotgan 13 yoshli o'quvchilarda ko'krak aylanasi o'quv yili boshida o'rtacha $65,9 \pm 4,9$ sm.ga teng bo'ldi, yil oxirida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichi 2,8 sm.ga ortib, $68,7 \pm 2,8$ sm.ga teng bo'ldi. Tahlil qilingan mazkur natijalarda ham jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari orasidagi farqlar ishonchliligi mavjud emas ($R > 0,05$).

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi har xil rivojlangan o'quvchilarning o'ziga xos jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganildi. 8-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanish bo'yicha bo'y uzunligini o'lchashdan olingan natijalar o'quv yili boshida o'rtacha $157,9 \pm 4,7$ sm.ga teng bo'ldi, yil oxirida esa jismoniy rivojlanish ko'rsatkichi $161,1 \pm 3,1$ sm.ga yetgan. Olingan natijalar yil davomida 5,2 sm.lik farqni ko'rsatdi. Yuqoridagi natijalarda ham jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari orasidagi farqlar ishonchli emas ($R > 0,05$).



3.rasim: “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 13 yoshli maktab o‘quvchilarining tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlari o‘zaro farqlarni ifodalovchi diagramma.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari yoshga qarab o‘zgarishini aytib o‘tdik. 14 yoshli o‘quvchilarning tana og‘irligi bo‘yicha rivojlanish jarayonlariga to‘xtalsak, ko‘ra o‘quvchilarning tana og‘irgi o‘lchamlari o‘quv yili boshida o‘rtacha $45,9 \pm 2,5$ kg.ga teng, o‘quv yili oxirida esa bu ko‘rsatkich $48,6 \pm 1,9$ kg.ga yetgan. Bu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishida tana og‘irligining ortishi ko‘rsatkichlaridagi yillik o‘sish farqi 5,9 kg.ga teng bo‘lgan (5,88%).


4-jadval

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 14 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari n=4

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘YB		O‘YO		Farqi	%	t	P
		X±σ	V%	X±σ	V%				
1.	Bo‘yi (sm)	157,9±4,7	2,9	161,1±3,1	1,9	5,2	3,2	1,38	>0,05
2.	Vazni (kg)	45,9±2,5	5,4	48,6±1,9	3,9	2,7	5,9	1,14	>0,05
3.	Ko‘krak aylanasi (sm)	73,1±3,8	5,1	76,4±2,7	3,5	3,3	4,5	1,61	>0,05

Izoh: O‘YB – o‘quv yili boshida, O‘YO – o‘quv yili oxirida.

Pedagogik kuzatishlar davomida biz har xil turdagi tana tuzilishiga ega 8-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlarini o'lchaganimizda, o'quv yili boshida o'quvchilarning ko'krak aylanasi uzunligi $73,1 \pm 3,8$ sm.ga, o'quv yili oxirida esa bu ko'rsatkich o'rtacha $76,4 \pm 2,7$ sm.ga teng ekanligini aniqladik. Ushbu yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlaridagi yillik o'sish farqi 2,7 sm.ga tengligi aniqlandi (5,9%). Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R > 0,05$).



4.rasim: “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 14 yoshli maktab o'quvchilarining tana og'irligi bo'yicha rivojlanish jarayonlari o'zaro farqlarni ifodalovchi diagramma.

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 15 yoshli maktab o'quvchilarini tekshirish orqali ularda morfofunktsional rivojlanish ko'rsatkichlarining yosh jihatdan o'zgarishi qonuniyatlari aniqlandi.

Tana uzunligi ko'rsatkichlari yoshga bog'liq holda muntazam ortib boradi. O'quv yili boshida ushbu ko'rsatkich $162,8 \pm 5,1$ sm.ni ko'rsatgan bo'lsa, yil oxirida $167,7 \pm 3,9$ sm.ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi.

5-jadval


Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 15 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari $n=3$

T/r	Ko'rsatkichlar	O'YB		O'YO		Farqi	%	t	P
		$X \pm \sigma$	V%	$X \pm \sigma$	V%				
1.	Bo'yi (sm)	$162,8 \pm 5,1$	3,1	$167,7 \pm 3,9$	3,2	4,9	3,0	1,84	$> 0,05$
2.	Vazni (kg)	$50,5 \pm 3,2$	6,3	$53,6 \pm 2,1$	3,9	3,1	6,1	2,92	$< 0,05$

3.	Ko'krak aylanasi (sm)	76,4±4,4	5,7	79,9±3,0	3,8	3,5	4,6	1,34	>0,05
----	-----------------------	----------	-----	----------	-----	-----	-----	------	-------

Izoh: O'YB – o'quv yili boshida, O'YO – o'quv yili oxirida.

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 9-sinf o'quvchilarida tana og'irligi ko'rsatkichlari ham yosh ulg'ayishi bilan ortib boradi. O'quvchilarning tana og'irligi bo'yicha rivojlanish jarayonlari o'rganilganda, unga ko'ra o'quvchilarning tana og'irligi o'lchamlari o'quv yili boshida o'rtacha 50,5±3,2 kg.ga teng, o'quv yili oxirida esa bu ko'rsatkich 53,6±2,1 kg.ga yetgani aniqlandi. Bu yoshdagi o'quvchilar tana og'irligining ortishi ko'rsatkichlaridagi yillik farq 3,1 kg.ga teng bo'lgan (6,1%). Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R>0,05$). (5-jadval).



Izoh: O'YB – o'quv yili boshida, O'YO – o'quv yili oxirida

5.rasim: “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 15 yoshli maktab o'quvchilarining tana og'irligi bo'yicha rivojlanish jarayonlari o'zaro farqlarni ifodalovchi diagramma

Kosonsoy tumani 45-sonli “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi 15 yoshli o'quvchilarida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari o'lchanganda, o'quv yili boshida o'quvchilarning ko'krak aylanasi uzunligi 76,4±4,4 sm.ga, o'quv yili oxirida esa o'rtacha 79,9±3,0 sm.ga tengligi kuzatildi. Ushbu yoshdagi o'quvchilarning jismoniy

rivojlanish ko'rsatkichlaridagi yillik o'sishi farqi 3,5 sm.ga tengligi aniqlandi (4,6%). Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($R > 0,05$).

Xulosa Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Kosonsoy tumani 45-sonli "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab internati tahsil oluvchi o'quvchilarining, Bo'yi (sm), Ko'krak aylanasi (sm), tana og'irligi bo'yicha rivojlanish 2022 – 2023 o'quv yil davomida 5-sinfdan

9-sinfgach bulgan o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari tahlil qildik.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA MA'NAViy-MA'RIFIY SOHADAGI ISHLARNING RIVOJI VA TAKOMILLASHUVI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li

O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni rivojlantirish va yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilayotganligini, yaratilayotgan sharoitlar va inkoniyatlar to'g'risida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, mafkura, mafkuraviy immunitet, yoshlar, kitobxonlik, maktab, ta'lim- tarbiya.*

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi bu sohaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun sharoitlarni yaratish borasida muhim hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'yganligining ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohaga davlat siyosati darajasida ahamiyat berildi.

Shuningdek, ushbu siyosat o'zini to'liq oqlaganligi mamlakatimizning yaqin tarixi mobaynida bosib o'tgan tarixiy yo'li misolida amalda o'zini to'la oqlaganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday islohotlarning davomi sifatida ta'kidlash joiz, bugungi globallashtirish davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib

yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib etishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan mazkur soha yechimiga qaratilgan qator qonun hujjatlari imzolaniib, farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Bular yurtimizda ma'nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga hizmat qilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarimoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish internet-axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur berish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik separatizm, odam savdosi, ommaviy madaniyat, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi g'oyaviy kurash olib borish jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish, milliy g'oyani viloyatlarimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ibot etish muhim vazifalar hisoblanadi.

Xususan, hozirgi globallashuv jarayonlarida yoshlarni shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan himoyalash har bir shaxsning ruxiy olamida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, distributiv (buzg'unchi) guruhlar ta'siridan asrash, har bir fuqaroda yoshlarimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli

madaniyatini tarkib toptirish tobora muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga ma'naviy, g'oyaviy, bilim va tarbiya berish hamda ularga jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajakka erishish har tomonlama yetuk yoshlarni voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi belgilandi. Markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minoti keskin kuchaytiriladi. Uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlarida qayta tashkil qilinadi.

Bugungi kunda **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** degan ulug'vor maqsad kun tartibiga qo'yildi. Taraqqiyotning yangi davri talablari asosida mamlakatimizda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O'zbekistonning yangi Renessansiga – yangi Uyg'onish davriga mustahkam poydevor bo'lishi lozim. Ana shu ma'noda bundan bir yil muqaddam, aynan 19 yanvar` kuni O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining ilk yig'ilishi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi burilish davrini boshlab berganligini alohida ta'kidlamoq joiz. Unda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkamlash, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondashuvni keng joriy etish, ilg'or tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Mafkuraviy ishlar borasida davr talablarini o'zida mujassam etgan yo'nalishlar asosida qabul qilingan 2021 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, yana shu kuni “Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi qarorlari, 2021 yil 3 iyunda Vazirlar Mahkamasining “Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar inistituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori O'zbekistonda ma'naviy-

ma'rifiy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, muvofiqlashtirish borasida yangi yo'nalishni yaratishga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T. "O'zbekiston". 2016.*

2. *Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T. "O'zbekiston". 2017.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-sonli Farmoni.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.*

MA'NAVIYAT VA MILLIY QADRIYALARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Jalilov Baxtiyor Norqulovich

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti, katta o'qituvchi*

Annotatsiya. *Maqolada qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi atroflicha ochib berilgan. Bugungi kunda har birimiz ma'naviyat va milliy qadriyatlarimizlarning ijobiy samarasini o'z ko'zimiz bilan ko'ryapmiz. Bu xayrli ish bardavom bo'lishi uchun g'arbning moddiyat botqog'iga botib qolganidan ibrat olib, moddiyat bilan birga ma'naviyatga ham alohida e'tibor qaratish lozim.*

“Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning manfaatlarini to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishini kafolatlashga xizmat qiladigan huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda g'oyaviy- mafkuraviy tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilmoqda” [1]. Amaliy ishlar doirasida yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura oladigan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida

tarbiyalash masalalari bilan bogʻliq chora-tadbirlar ham oʻzining samarasini berayapti. Inson ongi va qalbi uchun qattiq kurash ketayotgan bir davrda bunday masalalarga eʼtibor berilishi bejiz emas, albatta. Yoshlarni, xususan, voyaga yetmaganlarni axborot xurujlari va maʼnaviy tahdidlardan asrash – yuksak maʼnaviyatli avlodni tarbiyalashning muhim omilidir.

Taʼkidlash lozimki, maʼnaviyatimiz uchun oʻta ogʻir va tahlikali boʻlgan bir sharoitda Yurtboshimiz yosh avlodga va ularning kelajagiga alohida eʼtibor qaratmoqda. Zero, internet balosiga aylangan gʻoyaviy hujumlar va axloqiy buzuvchiliklardan yoshlarni himoya qilish uchun, ularda oʻsha hujumlarga qarshi turib beradigan imunitetni shakllantirish lozim. Buning yoʻli esa bitta, u ham boʻlsa, yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz va muqaddas dinimiz taʼlimoti asosida tarbiyalash lozim. Aytish kerakki, bizning xalqimiz oʻz qadriyati, milliy urf-odatlari va eng muhimi muqaddas dinidan uzoq holda yashash nechogʻliq yomonligini bir necha yillik ateistik tuzum misolida boshidan oʻtkazdi va buning zararli oqibatlarini anglab yetdi. Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarining ijtimoiy va maʼnaviy yangilanishi, jamiyat aʼzolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak eʼtibor koʻrsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yoʻnalishidir. Qadriyatlarni mustaqillikni mustahkamlashning maʼnaviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni koʻpaytirish, ularga nisbatan masʼuliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Istiqlol asrlar davomida shakllangan oʻziga xos sharqona va oʻzbekona qadrlash masalalari va meʼyorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qoʻydi. Mustaqillik istiqlol davrining eng asosiy qadriyatidir. Zero, mustaqil boʻlmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon toʻkis boʻlmaydi. Mustamlaka mamlakatning maʼnaviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor boʻlishi aniq. Faqat mustaqillikkina ushbu holatni tubdan oʻzgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor boʻlgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uygʻunlashib ketdi.

Qadriyatlar sohasidagi oʻzgarishlarga eʼtibor va bu boradagi yangi tamoyillardan taʼlim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining

sababi ham ana shunda. Bugungi kunda esa har birimiz o'sha e'tiborning samarasini o'z ko'zimiz bilan ko'ryapmiz. Bu xayrli ish bardavom bo'lishi uchun g'arbning moddiyot botqog'iga botib qolganidan ibrat olib, moddiyot bilan birga ma'naviyatga ham alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Demak, yoshlar qalbida ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, johillik, yovuzlik, xudbinlik, loqaydlik kabi salbiy illatlar shunchalik barham topadi, bular o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, bunyodkorlik tuyg'ulari yuksaladi. "Ma'naviyatimizning o'zagi milliy – an'alarimiz oila bag'rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan bo'lib, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida yetib kelgan urf odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'alarimiz ham milliylikimiz ramzi bo'lib, katta qadrga egadir" [2]. Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

"Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi, yoshlarni dushmanlik ruhida tarbiyalaydigan buzg'unchi g'oyalarga qo'shimcha ta'sirlar sifatida quyidagi vositalardan ham foydalanilmoqda, bular: internet, sputnik aloqalari, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, san'at (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, kino, seriallar, musiqa, raqs) orqali salbiy ta'sir o'tkazishdir" [3]. Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba'zan oshkora va ba'zan o'ta maxfiy, ichki, yashirin bo'ladi, bu maqsadlarni bilish va o'z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma'naviyatli, g'oyaviy ongli, ma'naviy barkamol bo'lishlari shart. Faqat shunday yoshlarga bunday ta'sirlardan himoyalashga qodir bo'ladi. Hozirgi kundagi mavjud bo'lgan mazkur mafkuraviy va ma'naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'zni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib yetishishi uchun xizmat qiladi. Yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma'naviy barkamol

yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi. Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, o'zгалar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri angelaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Ushbu ma'noda, Suqrotning «o'z o'zingni angla!» — shiori g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy, tarixiy shart sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Muhit va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi, uning o'zi esa o'z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligini chuqurroq anglab olish tomon boradi.

Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zlarining xatti-harakatlarini ana shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi davrda talaba va o'quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e'lon qilgan qadriyatlarning ahamiyatini to'g'ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar, xususan talabalar va o'quvchilarni ma'naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda

qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksiologiya, ya'ni qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir. Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va faravon hayotimiz ham, O'zbekiston jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barchasi, avvalambor yosh avlod, unib – o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ahmedova E., Gabidulin R. *Культурология*. –T.: 2001.
[2]. *Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug'at*. –T.: 1998.
[3]. *O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar)*. –T.: Sharq, 2001.
[4]. Gulmatov E. v.b. *Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni*. –T.: 2000, 160-178 betlar.
[5]. Ibrohimov A. v.b. *Vatan tuyg'usi*. –T.: O'zbekiston, 1996.
[6]. Aliyev A. *Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat*. –T.: Akademiya, 2000.

XXI ASR KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Rasulova Sanobar Mamatkulovna
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya *Ushbu tezisdá boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatshunoslik fanining tarixi, integratsiya fanlararo va fanlararo aloqalarni o'rnatish hamda tabiatshunoslik fanining o'qitilishi haqidagi mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *bilim, ko'nikma, hamkorlik, innovatsion texnologiya, integratsiya, integratsiyalashgan sinfdan tashqari tadbirlar.*

PISA tadqiqotlarida darsliklarimizdagi odatdagi matematik masala emas, balki biror kontekstda taqdim qilingan real hayotiy muammoli

vaziyatlar beriladi. Eslatib o‘tamiz, darsliklarimizdan o‘rin olgan, odatdagi standart matematik masalada berilgan miqdorlar (ma‘lumlar) va topish kerak bo‘lgan noma‘lum miqdor bo‘ladi. Noma‘lumni berilgan ma‘lumlardan foydalanib topish talab qilinadi. Bunda berilganlar noma‘lumni topish uchun yetarli bo‘lib, ular kam ham bo‘lmaydi, ko‘p ham bo‘lmaydi.

PISA topshiriqlari esa matematik masala emas, u matematik masaladan oldin keluvchi bosqich – muammoli vaziyatning tavsifi (kontekst)dan iborat. Topshiriq kontekstida tasvirlangan muammoli vaziyatni mulohaza yuritish orqali o‘rganib, uni matematik tilga o‘girib ifodalash, ya‘ni matematik masalaga keltirish kerak bo‘ladi. Shundan keyingina masalani matematikani qo‘llab yechishga kirishiladi. Shunday qilib, PISA topshirig‘i **konteksti**, bu – real hayotiy vaziyatlarning turli ko‘rinishlardagi tavsifidan iboratdir. Kontekst qaysi hayotiy vaziyatni ifodalashiga qarab, 4 ta topshiriqlar turkumiga doir bo‘lishi mumkin: **«Shaxsiy»** kontekstda berilgan muammolar turkumiga tegishli topshiriqlarda:

– o‘quvchining shaxsiy hayoti bilan bog‘liq,

do‘stlar bilan muloqot qilish, sport bilan shug‘ullanish, dam olish kabi kundalik turmushdan olingan vaziyatlar;

– oila, do‘stlar va tengdoshlar davrasiga aloqador kundalik maishiy vaziyatlar;

– kattalarning kundalik turmushi bilan bog‘liq xaridlar, ovqat tayyorlash, sog‘liq, shaxsiy ishlarni rejalashtirish va boshqa vaziyatlar tasvirlanishi mumkin.

«Kasbiy» kontekstlarda berilgan muammolar turkumiga tegishli topshiriqlarda:

– o‘quvchining maktabdagi hayoti yoki mehnat faoliyati bilan bog‘liq vaziyatlar;

– maishiy qurilish sohasi yoki maktab hayoti bilan bog‘liq o‘lchash ishlari, qurilish materiallariga buyurtma berish va narxlarni hisoblash, to‘lovlar, muayyan yumushni bajarishga doir vaziyatlar;

– o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan kasbiy faoliyatga va kasblar olamiga doir vaziyatlar tasvirlanishi mumkin.

Kasbiy kontekst ishchi kuchining ixtiyoriy darajasiga (maxsus malakani talab qilmaydigan ishlardan tortib to yuqori malaka talab qiladigan ishlargacha) bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda PISA tadqiqotida berilgan topshiriqlar 15 yoshli o‘quvchining yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. **«Ijtimoiy»** kontekstlarda berilgan muammolar turkumiga tegishli topshiriqlarda:

– jamiyat (jamo'a, mahalla, millat yoki butun dunyo xalqlari) ijtimoiy hayoti bilan bog'liq vaziyatlar;

– o'quvchining yaqin atrofida sodir bo'ladigan muammolarga (masalan, valuta almashtirish, bankdagi pul omonatlari) doir vaziyatlar;

– jamiyatda sodir bo'ladigan (saylovlarda ovoz berish, transport qatnovi masalalari, hukumat qarorlari, aholi sonining o'zgarishiga doir muammolar, milliy iqtisodiyot statistik ko'rsatkichlari bilan bo'g'liq) vaziyatlar tasvirlanishi mumkin.

«**Ilmiy**» turkumiga tegishli topshiriqlarda:

– fan va texnikada matematikaning qo'llanishi bilan bog'liq vaziyatlar;

– tabiatda kechadigan hodisalar (ob-havo va iqlim o'zgarishlari, ekologiya, tibbiyot, kosmos, genetika) ga doir vaziyatlar;

– bevosita real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lmagan, nazariy xarakterga

ega bo'lgan sof matematik masalalar ham tasvirlanishi mumkin.

Kontekstda berilgan muammoni yechish uchun matematikani qo'llash

– matematik savodxonlikning muhim jihati.

Kontekst – bu mazkur muammolar paydo bo'ladigan inson olamining bir qismi.

Tegishli matematik strategiyalar va ifodalarni tanlash ko'pincha muammo kontekstiga bog'liq, shuning uchun modelni ishlab chiqishda real olam konteksti haqidagi bilimlardan foydalanish kerak. Aytish joizki, matematik savodxonlikni muvaffaqiyatli namoyish qilish matematikani o'qitishda rivojlantiriladigan universal kognitiv kompetensiyalarga bog'liq ekan. Shuning uchun ham kutilayotgan 2021-yil PISA tadqiqotida aytib o'tilgan matematik kompetensiyalardan tashqari, yuqorida aytib o'tilgan «XXI asr ko'nikmalari» deb ataluvchi kompetensiyalarni baholash ko'zda tutilgan:

– tanqidiy fikrlash; – ijodkorlik, kreativlik; – tadqiqot va tahlil qilish; – mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik; – ma'lumotlardan foydalanish; – tizimli fikrlash; – muloqot qilish; – mulohaza yuritish.

Quyidagi rasmda PISA–2021 tadqiqotida baholashda matematik mulohaza yuritish, masalalar yechish (modellashtirish) sikli, matematik mazmun, kontekstlar hamda XXI asr ko'nikmalari orasidagi bog'lanish ko'rsatilgan.

Matematik savodxonlik: Matematik mulohaza yuritish, masalalar yechish (modellashtirish) sikli, matematik mazmun, kontekstlar hamda XXI asr ko'nikmalari orasidagi bog'lanish.

O'quvchilarning matematika fani bo'yicha savodxonligini rivojlantirishda dars va darsdan tashqari o'qish soatlarida, to'garak mashg'ulotlarida, takrorlash darslarida yuqorida qayd etilgan topshiriqqa o'xshash vazifalardan foydalanish muhim omil sanaladi. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli qarori
3. A.A.Ismailov, N.A.Karimova, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" – T.: 2019

ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Алиева Шоира Рузибановна,
Ташкентский университет прикладных
наук, кафедра «История»
Старший преподаватель.

Аннотация: Данная статья посвящена теме повышения эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. В ней рассматриваются различные аспекты данной проблематики, включая роль духовно-нравственного воспитания, интеграцию духовных ценностей в учебный план, взаимодействие учителей и формирование профессионального сообщества. Автор подчеркивает важность создания условий для развития духовно-нравственных аспектов личности учащихся и формирования гармоничных отношений в образовательной среде. Исследования, проведенные в этой области, предоставляют основу для практической реализации духовно-просветительской работы и повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, эффективность, духовно-нравственное воспитание, учебный план, учителя, профессиональное сообщество.

Духовно-просветительская работа в образовательных учреждениях играет важную роль в развитии учащихся во всех аспектах их личности, способствуя моральному, этическому и духовному росту. Настоящая статья направлена на изучение стратегий и подходов, направленных на повышение эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Анализируя значимость интеграции духовных ценностей, этических принципов и воспитания характера, данная статья предлагает взгляд на создание благоприятной среды для духовного развития учащихся.

Понимание значимости духовно-просветительской работы:

В данном разделе рассматривается важность духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется роли духовности в формировании позитивных ценностей, морального суждения, эмпатии и социальной ответственности учащихся. Статья подчеркивает потенциальное влияние эффективной духовно-просветительской работы на общее благополучие учащихся и их способность принимать этические решения.

Понимание значимости духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях является ключевым аспектом, который следует рассмотреть более подробно. Духовно-просветительская работа направлена на развитие духовных, моральных и этических аспектов личности учащихся, а также на формирование их ценностных ориентаций и самосознания.[1.14-19] Она предоставляет уникальную возможность обучающимся понять себя, свое место в обществе и связь с более широким миром.

Духовно-просветительская работа способствует развитию учащихся не только в интеллектуальном и академическом плане, но и в сфере эмоционального, социального и духовного роста. Она помогает учащимся осознать и ценить свои внутренние ресурсы, развивать эмпатию и сострадание, а также принимать осознанные решения на основе нравственных принципов.[2.12-16] Кроме того, духовно-просветительская работа способствует формированию гармоничной личности, способной к самореализации и счастливой жизни. Она помогает учащимся находить свою жизненную цель, развивать

внутреннюю мудрость и смысл жизни, а также строить гармоничные отношения с окружающими людьми.

В образовательных учреждениях значимость духовно-просветительской работы проявляется в создании благоприятной и поддерживающей образовательной среды, которая способствует развитию личности учащихся во всех аспектах их бытия. Она предоставляет им возможность осознания и развития своего внутреннего потенциала, а также помогает им стать ответственными, этичными и эмпатичными членами общества. Таким образом, понимание значимости духовно-просветительской работы позволяет образовательным учреждениям эффективно интегрировать духовные аспекты в учебный процесс и создать условия для всестороннего развития личности учащихся.[3.22-27]

Интеграция духовных ценностей в учебный план: методы интеграции духовных ценностей в учебный план на разных уровнях и предметах. Обсуждаются разработка возрастно-соответствующих заданий, уроков и проектов, направленных на саморефлексию, развитие эмпатии и принятие этических решений. [4.30-37] Интеграция духовных ценностей в учебный план является важным аспектом повышения эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Это означает включение духовных аспектов в содержание и организацию учебного процесса, чтобы дать учащимся возможность осознавать и развивать свою духовность наравне с умственным и физическим развитием. А также, интеграция духовных ценностей в учебный план предполагает выбор и внедрение тем, которые помогут учащимся развивать нравственность, этику, межличностные навыки и смысловое понимание жизни. Например, в рамках учебных предметов можно включить модули или уроки, посвященные этике, морали, религиозным и культурным ценностям, этическому лидерству и гражданской ответственности. Кроме того, интеграция духовных ценностей в учебный план включает создание соответствующих учебных материалов, ресурсов и заданий, которые стимулируют учащихся к размышлению, самоанализу и формированию собственных ценностных установок. Например, можно предложить задания, включающие дискуссии, этические дилеммы, рефлексию и написание рефлексивных эссе, что поможет учащимся осознать и анализировать свои ценности и убеждения.[5.67-72] Важно отметить, что интеграция духовных ценностей должна быть осуществлена с учетом культурных, религиозных

и этических разнообразий в образовательном учреждении. Учитывая различные мировоззрения и вероисповедания учащихся, следует создавать открытую и уважительную среду, где каждый ученик имеет возможность выразить свои убеждения и мнения.

Интеграция духовных ценностей в учебный план способствует развитию учащихся не только в качестве знания, но и в качестве нравственной и этической личности. Она помогает формировать у учащихся осознанное и глубокое понимание ценностей, таких как честность, справедливость, толерантность и сострадание. Это способствует развитию их эмоциональной интеллектуальной сферы, позволяя им применять эти ценности в повседневной жизни и принимать взвешенные решения на основе нравственных принципов. Интеграция духовных ценностей в учебный план также помогает создать атмосферу взаимного уважения, толерантности и сотрудничества в образовательном учреждении.[6. 19-23] Учащиеся могут развивать навыки эмпатии и понимания различных точек зрения, что способствует формированию гармоничных и конструктивных отношений с окружающими людьми. Повышение эффективности духовно-просветительской работы через интеграцию духовных ценностей в учебный план требует совместных усилий со стороны педагогов, администрации и других заинтересованных сторон.[7.78-83] Разработка и внедрение соответствующих программ и методик, проведение тренингов и семинаров для педагогического коллектива, а также создание платформы для обмена опытом и ресурсами позволят эффективно реализовать данную инициативу.

В результате, интеграция духовных ценностей в учебный план образовательных учреждений является неотъемлемой частью повышения эффективности духовно-просветительской работы. Она способствует формированию гармоничных и этических личностей, готовых к самореализации и вкладу в общество. При этом необходимо учитывать разнообразие культурных, религиозных и этических особенностей учащихся, создавая уважительную и инклюзивную среду для их развития.

Профессиональное развитие педагогов: акцентируется значение предоставления возможностей для профессионального развития педагогов, с целью повышения их знаний и навыков в организации духовно-просветительской работы. Обсуждаются проведение семинаров, тренингов и программ обучения, которые сфокусированы на интеграции

духовности в учебный процесс, эффективных методиках преподавания и развитии моральных и этических качеств. Вовлечение родителей и общественности: обсуждается важность вовлечения родителей и широкой общественности в поддержку духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Рассматриваются стратегии привлечения родителей к диалогу, семинарам и мероприятиям, направленным на формирование духовных ценностей и этического развития. В статье также подчеркивается польза сотрудничества с общественными организациями, религиозными местами и духовными лидерами для обогащения духовно-просветительской работы в школе.[8.44-49]

Оценка и оценивание духовно-просветительской работы: рассматривается оценка и оценивание духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Обсуждаются разработка соответствующих инструментов и методов для измерения эффективности программ духовно-просветительской работы, включая самооценку учащихся, наблюдения и обратную связь от заинтересованных сторон. Статья подчеркивает важность непрерывной оценки для постоянного совершенствования и улучшения программ духовно-просветительской работы.

В заключении, что повышение эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях имеет важное значение для развития учащихся во всем их многообразии и способствует их моральному, этическому и духовному росту. Путем интеграции духовных ценностей в учебный план, создания поддерживающей школьной атмосферы, предоставления профессионального развития педагогам, вовлечения родителей и общественности, а также оценки духовно-просветительской работы, образовательные учреждения могут создать среду, способствующую духовному благополучию и просветлению. Данная статья подчеркивает важность учета духовного измерения в образовании для формирования сострадательных, этических и духовно осознанных личностей, которые вносят позитивный вклад в общество.

Список использованных литератур:

1. бдуллаева, Г. С. (2018). Роль духовно-нравственного воспитания в повышении эффективности образовательного процесса. Вестник Каракалпакского университета, (2), 14-19.

2. Гафарова, Л. М. (2016). Повышение эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях. Педагогический опыт: теория, методика, практика, (1), 12-16.

3. Каримова, Н. А. (2019). Интеграция духовно-нравственного воспитания в учебный процесс средней школы. Педагогика, (3), 22-27.

4. Наркулов, Т. И. (2020). Развитие духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях: проблемы и перспективы. Вестник Каракалпакского университета, (4), 30-37.

5. Рахимов, А. Р. (2017). Организация духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях: опыт и перспективы. Вестник Узбекского национального университета, (2), 67-72.

6. Саидова, Д. А. (2018). Пути повышения эффективности духовно-просветительской работы в школе. Педагогический опыт: теория, методика, практика, (2), 19-23.

7. Тошматов, У. А. (2019). Интеграция духовно-просветительской работы в образовательный процесс: опыт и перспективы. Вестник Наманганского государственного университета, (3), 78-83.

8. Хасанов, Ш. А. (2016). Организация духовно-просветительской работы в современной школе. Педагогика и психология образования, (2), 44-49.

JAMIYATNI INSONPARVARLASHTIRISHDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING O'RNI

Bozorova Nazokat

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'limning insonparvarlashuvi, huquqiy demokratik davlat qurish jarayoni va kadrlar tarbiyasi haqida fikr yuritiladi*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, insonparvarlik g'oyasi, jamiyat, vatanparvarlik*

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari – bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy farovonligi va ma'naviy barkamolligi, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro

hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliги kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi.

Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, iymon-e'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa, o'zo'zidan, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini o'zida ifoda etadi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi va bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri – mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo'l-yo'riqlari va maqsadlari ochib ko'rsatiladi.

Bu muammoni hal qilishda uzluksiz ta'lim tizimi o'zi nima?, uni insonparvarlik yo'nalishi, insonparvarlashtirish nima? – degan, savol tug'ilishi tabiiy hol.

Ta'lim – O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq bu, inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'lim deganda o'quvni yuzaga keltiradigan tashkiliy va barqaror aloqa jarayoni tushuniladi. Xullas ta'lim avvalo o'quvchilarda bilimlar, uquvlar va malakalar tizimlari shakllanishida ifodalanadigan ta'lim jarayonining nisbiy natijasidir, shuningdek, tarbiya, o'zo'zini tarbiya, ta'sir jarayoni, ya'ni inson qiyofasini shakllantirish jarayoni: bunda bilimning hajmi emas, balki uni shaxsiy sifatlar, o'z bilimlarini mustaqil tasarruf etish uquvi bilan birlashtirish asos hisoblanadi.[1]

Ta'lim berish - o'qitishning turi, o'quvchilarga bilimlar, o'quv va malakalar majmuini berishga va ularni o'qitish jarayonida tarbiyalashga yo'naltirilgan o'qituvchining maxsus faoliyati.

Ta'lim tizimi – ta'limning mazmuni, shakli va usullarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar) asosiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab borish tizimi.

Uzluksiz ta'lim – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo'lgan ta'lim. Uzluksiz ta'lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlarga bo'linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o'tish uchun imkon yaratishi tushuniladi.[2]

“Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi: fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi” .[3]

Uzluksiz ta’lim tizimi – yagona ta’lim tizimi, ta’limni shaxs ijodiy imkoniyatlarining muntazam rivojlanishini ta’minlovchi bir umrlik jarayon sifatida talqin etiladi va uning ma’naviy dunyosini har tomonlama boyitadi. Tizim shaxsning rivojlanish jarayonini, “pillapoya” tarzida uning qaror topishining imkonini beradi, “pillapoya”ning har bir pog‘anasi insonning o‘z ta’lim jarayonida yanada yuqori darajada erishishga tomon tadrijiy harakatini anglatadi.[4]

Inson – turmush rivojlanishi oliy bosqichi bilan singib ketgan mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat sub’ekti. Inson tizim hisoblanadi, bunda jismoniy va ruhiy, jinsiy asoslanganlik va tan olingan shakllanganlik, tabiiylik, ijtimoiy va ma’naviylik yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. Inson bir qator fanlarning o‘rganish obyektidir: masalan, antropologiya, tafakkur falsafasi, odam anatomiyasi, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar.

Insoniylik, gumannost (lotincha humanus-insoniy) – insonni sevish, insonning qadr-qimmatini, iztiroblarini hurmat qilish; hamkorlik, birga ishtirok etish, yordamlashish jarayonidagi muloqot va bu faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Insoniylik bilan kelisha olmaydigan har qanday faoliyat g‘ayriaxloqiy hisoblanadi; hattoki, “insoniyatga qarshi jinoyat” tushunchasi ham paydo bo‘lgan.[5]

Insoniylashtirish – jamiyatda insonparvarlik amallarini kuchaytirish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, muloyimlik va insoniylik bilan uyg‘unlashgan holdagi tugallangan estetik shaklga ega bo‘lgan insoniy qobiliyatlarni yuqori madaniy va axloqiy darajada rivojlantirish demakdir.

Insonparvarlik («inson» arabcha; «parvar» fors-tojikcha; «lik» o‘zbekcha qo‘plik qo‘shimchasi bo‘lib-kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) odamzodning qadri, uning erkinligi qobilyatlari har tomonlama nomoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta’min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma’nosini anglatadi.[6]

Buyuk adiblarimizning fikricha, insonparvarlik – insonning sharafi, vijdoni va iymonning mahsuli hisoblanadi.

Insonparvarlik g'oyalari, baxt saodat va adolatga erishish orzu-havaslari, xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy falsafiy, pedagogik ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda.

Insonparvar ta'lim - umuminsoniy qadriyatlar, insonning hayoti va sog'lig'i, shaxsning erkin rivojlanishi ustivorligi tamoyillariga asoslangan ta'limdir.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu esa, ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish uni qayta qurishning eng asosiy va markaziy muammolaridan biridir. [7]

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri va to'la anglab yetgan iymonli, komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi. [8]

Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha'ni va mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik vazifasini amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. U tashkiliy, uslubiy, huquqiy-me'yoriy, pedagogik-psixologik tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunday tadbirlar majmuasi insonparvarlik g'oyalarining va ta'lim-tarbiyadagi gumanitar vosita va uslublarning tabiiy-ilmiiy va texnik bilimlar doirasiga kirib borishni ta'minlashga va shular orqali taffakurning texnokratik usulini yengib o'tish va bartaraf qilishga qaratiladi. [9]

Ta'limni insonparvarlashtirishning bosh maqsadi - ilmiy-texnik bilimlarning gumanitar ta'lim bilan chambarchas birligini va o'zaro bog'likligini ta'minlashdan iboratdir.

Uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylashtirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi.

Ta'limni insonparvarlashtirish rejaları gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali

foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek, texnika fanlari va umuman talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarining ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Sho'rolar davridagi eski ta'lim tizimining asosiy qusurlaridan biri, uning jamiyat real hayotidagi, o'tmish ajdodlar tomonidan bunyod etilgan madaniy merosdan, asl qadriyatlardan, ijtimoiy ong taraqqiyoti darajasidan ajralib qolganligidir. Bu borada ijtimoiy safsatabozlik ham ta'lim-tarbiya ishlariga katta ma'naviy zarar yetkazadi: rasmiy doiralarda tantanali ravishda e'lon qilingan va iftixor deb ta'kidlangan narsalar bilan haqiqatan mavjud bo'lgan narsalar orasidagi katta ziddiyat borligi aniq-ravshan ko'zga tashlanar edi.

Ta'limni insonparvarlashtirish tadbirlari talabao'quvchilarning o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar orqali va umuman madaniy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shakllangan ko'nikma va malakalarida samimiylik, haqgo'ylik, odamgarchilik, iymon-e'tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlarining ustun bo'lishini ta'minlashga, bo'lajak mutaxassisning o'z kasb-hunari bo'yicha faoliyatida el-yurtning sihat-salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivoji to'g'risida, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi, ekologik jihatdan tozaligi, obodonchiligi, Vatanning taqdiri va kelajagi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganishi va o'zining bular uchun ham mas'ul ekanligini chuqur his etishini tarbiyalashga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2020 – 80 b.*
2. *Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.*

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.

4. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 29-aprel PF-5712-son Farmoni.

6. Umarov B., Jabborov Sh. *Globalashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari.* – T.: Akademiya, 2011.

7. Paxrutdinov Sh. *Barqaror taraqqiyot va rahbar ma'suliyati.* – T.: Akademiya, 2011.

8. G'oyibnazarov Sh. *Ommaviy madaniyat.* – T.: "O'zbekiston", 2012.

9. Paxrutdinov Sh., Saidolimov S., Mamatqulov D. *Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari (xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini malakasini oshirish kurslari uchun o'quv qo'llanma).* Toshkent 2017.

TA'LIMNING TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA'NAVY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Matyoqubova Yulduzxon Qurbonovna

Toshkent shahar Yangiheyot tumanidagi 331-sonli umumta'lim maktabning rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi sub'ektlaridan oilaning o'rni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, oila, madaniyat, mentalitet, fan, jarayon.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" tasdiqlandi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fani joriy qilindi.

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Konsepsiya to'rtta bosqichni qamrab oladi:

birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich: maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich: umumiy o'rta ta'lim (7 (6)-10 yoshgacha boshlang'ich sinf, 11-17 (18) yosh);

to'rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar.

Yosh avlodni milliy va umuminsoniy yuksak madaniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev jamiyatimiz hayotida ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarimizga katta e'tibor berishi bejiz emas. Darhaqiqat, elning, millatning va har bir insonning tinch va obod turmush qo'ynida hayot kechirishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar doirasida umrguzaronlik qilishi jamiyat taraqqiyotining ko'rsatkichi va mezonidir. Obod turmush, farovon hayot, el va millat tinchligini kafolatlovchi omil va shart-sharoitlardan biri jamiyat bo'lagi bo'lmish oiladagi farovonlik, tinchlik-xotirjamlik va turmushning kam-ko'stsizligidir, bu oilaviy qadriyatlarning ko'lami va kamrovi, so'zsiz oila ma'naviyatiga bevosita bog'liqdir. Oilaviy munosabatlar chin insoniyligining, yuksak ahloqiy talablar darajasida bo'lishining, ijtimoiy vazifalarini to'la-to'kis bajarilishining asosiy shart-sharoiti va omili oilaviy ma'naviyatdir.

Ma'naviy shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiya tizimlari asosiy omillar hisoblanadi. Bu tizimlarning uzviy bog'liqligi, biri ikkinchisini taqozo qilishi ma'lum haqiqatlardir. Bir o'rtasidagi kemtik va kamchiliklar mavjudligi shaxs fazilatlaridagi ayrim qusurlarga olib keladi. Ta'lim mukammal bo'lsa-ku, tarbiya etarli bo'lmasa, yoki aksincha holda ham baribir ko'zlangan maqsadga yetish mushkul bo'lib qolaveradi. Hozirgi kunda yoshlarimizdagi ma'naviyat, ahloq to'g'risidagi bilimlar doirasi etarli darajada bo'lsa-da, hayotda ularga amal qilmayotganlari, mensimayotganlari va hatto to'g'ridan-to'g'ri inkor qilayotganlari holatlarini uchratishimiz mumkin. Bu fikr kontsepsiyada ham ifodalangan: "Vatanga sadoqat, burch va ma'suliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa xar yili mustaqil hayotga kirib

kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishda bir qator muammolar keltirib chiqarmoqda".

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy tarbiya - tarbiya tizimining alohida unsuri sifatida ilk bora qaralmoqda, uning mazmuni va mohiyatini aniqlash, ijtimoiy mavqeyini belgilash, kutilayotgan natijalarni aniqlashtirish va unga erishish yo'llarini aniq-tiniq ko'rsatilishi masalalari kun tartibiga qo'yilmoqda. Buni yangicha novatorlik yondashuvi deb qarash kerak.

Ma'naviy tarbiya sub'ektlari tizimiga oila, ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus-xunar va oliy ta'lim), mahalla va korxonalar kiradi. Shubxasiz, bu tizimda oila instituti alohida mavqe va o'ringa ega. Oilaning ma'naviy tarbiya tizimidagi ahamiyatini tahlil qilishda quyidagi asosiy ikki jihatga e'tibor qilish kerak. Birinchidan, ijtimoiy muhit va shart-sharoitlar obyektiv tarzda inson shaxsi shakllanishida yetakchi omillardan biri sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchidan, oila ma'naviy tarbiya sub'ektidir. Tarbiya tizimida oila obyekt va sub'ekt mavqelarida namoyon bo'lishi nisbiy bo'lib, ularning munosabati dialektik xarakterga ega.

Bugungi kundamamlakatimizda bolalar talim-tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Maktablarda bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ularni ma'naviy sog'lom, tarbiyali, bilimli bo'lib ulg'ayishlarida pedagoglar o'z kasbiy vazifalarini bajarib kelmoqdalar.

Lekin xalqimizda shunday gap bor: "Tarbiya oiladan boshlanadi". Farzandni ustini but qilish, qornini to'yg'azish bilan ota-ona o'z vazifasini bajargan hisoblanmaydi. Farzandini yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish ota-onaning oliy vazifasi sanaladi. Ota-bobolarimiz bejizga **"Daraxtdan meva olaman desang, uni niholligidan parvarish qil"** deb aytishmagan.

Bola tarbiyasida albatta o'zaro hamkorlik kerak. Ota-onalar maktab, o'qituvchi, psixolog bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysa, bola tarbiyasiga be'etibor bo'lmasa jamiyatimizda noqobil bolalar, tarbiyasi og'ir bolalar, huquqbuzar va jinoyatchilikka moyil bolalar ko'payishini oldini olgan bo'lamiz. Ota-onalar bolani tarbiyalashda uning yoshini, harakterini, individual xususiyatlarini, organizmidagi o'zgarishlarni hisobga olishsa, o'smirga do'stona munosabatda bo'lsa, bolada o'ziga ishonchni shakllanida yo'rdam bersa, bola bilan ko'proq muloqotda bo'lsa, do'stlari, qiziqishlari, orzu-istaklaridan xabardor bo'lsa, unga bosim o'tkazmasa, uning aqliy va

jismoniy rivojlanishiga ko`maklashsa kelajakda farzandi aqlan, jismonan va ruhan sog`lomlikka erishishga katta hissa qo`shgan bo`ladilar.

Sog`lom psixologik muxitni yaratishda albatta hamkorlikda ishlash juda muhimdir. Ta`lim muassasalarida o`tkazilayotgan ota-onalar yig`ilishlarida ota-onalarga farzand ta`lim-tarbiyasi borasida psixologik tavsiyalar berib borilishi lozim. Ota-onaning e`tiboridan chetda qolgan bola atrofdagilarni o`ziga qaratish uchun turli xil salbiy harakatlarni qilishi mumkin. Maktabda nazoratga olingan oilalar bolalarining aksariyati aynan mana shunday ota-onasi be`etibor o`quvchilardir. Kattalarning e`tiborini tortishning eng oson yo`li xato qilishdir. Bola o`ziga nisbatan e`tiborni, mehrni his qilmay qo`ysa xato qishga o`rganadi, bu xato vaqtida tuzatilmasa bola asta sekin huquqbuzarlikni o`rganadi. Aniqlanishicha nazoratdagi o`quvchilarning aksariyati nomurosa, notinch, ota-onasi ajrashgan oila farzandlari bo`lib chiqmoqda. Bunday bolalar oilagi nosog`lom muxitni ko`rib ulg`aymoqda, xayotdan, yashashdan maqsadi aniq emas, ularga o`rnak bo`lib, ruhlantirib turuvchi ota-ona esa be`etibor. Bola har doim diqqat markazda turishni hohlaydi. Bolalar o`zlarining ijobiy hatti-harakatlari bilan bizning e`tiborimizni qozonishni istaydi. Ijobiy harakatlar bilan ota-onasining e`tiborini torta olmagan bolalar salbiy harakatlar orqali diqqatni tortishga urinadi. E`tibor nafaqat inson uchun, balki hayvonlar va o`simliklar uchun xam ahamiyatlidir. Quyidagi misolni o`qib, xulosa chiqaring.

Bir kishi gullarini ikkita alohida xonaga joylashtiradi. Birinchi xonadagi gullarga suv quyayotib shirin gaplarni gapiradi, ularga mehri balandligini bildiradi, qo`shiqlar aytadi. Ikkinchi xonadagi gullarga esa faqatgina suv quyib chiqadi. Natija esa hayratlanarli darajada. Ma`lum vaqtdan so`ng birinchi xonadagi gullarning ikkinchi xonadagi gullarga nisbatan jonliroq, tiniqroq ekani, tez o`sayotgani ma`lum bo`ladi. Ko`rinib turganidek, hatto o`simliklar ham ularga ko`rsatilayotgan e`tiborni sezadi.

Farzandlaringiz ham sizdan e`tibor kutadi. E`tibor shu qadar muhim hisoblanadi. Shunday ekan, aziz ota-onalar, farzandingizdagi salbiy hatti harakatlarni yo`qotish va ularni ijobiy tomonga yo`naltirish uchun farzandingizga yetarlicha e`tibor qarating.

Tarbiya maktab bilan chegaralanmaydi. Bola ta`lim-tarbiyani faqat maktabda o`rganmaydi, bu faqat o`qituvchilarning vazifasi emas. Maktab bola uchun tarbiya maskanlaridan bittasigina xolos. Tarbiyani bola eng avvalo oiladan, keyin hayotdan oladi. Shunday ekan biz o`zimiz bolalarga o`rnak bo`laylik, bolalarni e`tiborsiz qoldirmaylik, ulardan mehrimizni, e`tiborimizni ayamaylik.

Yosh avlod tarbiyasida ma'naviyat betakror va qudratli omil ekanligi va dolzarbligini zinhor unutmaslik kerak, chunki bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishi to'g'risida biz yaxshi bilamiz. Oila a'zolarining xar biri, shaxs sifatida muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lib, ular o'rtasidagi yaqin munosabatlar, muloqotlar, yagona oilaviy turmush natijasida oila o'ziga xos oilaviy ma'naviyat yuzaga keladi.

Oila ma'naviy olami o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, sabr-bardoshlilik, insonparvarlik, oliy-janoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday ma'naviy fazilatlarining oilada e'zozlanishi, ularga amal qilinishi oilada shunday ma'naviy muhit va iqlimni yaratadi-ki, o'sib kelayotgan avlod sof qalbi va ongi shakllanishida yuksak manba bo'lib xizmat qiladi. Shu asosida har bir oila a'zosining iste'dodi va salohiyati to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi.

Oila ma'naviyatining shakllanishida oilaviy udumlar, an'analar, shajara-ajdodlar ma'naviy meroslarining chuqur o'zlashtirilishi, ibrat va namuna sifatida qaralishi muhimdir. Bu avlodlar uzviylikini ta'minlaydi, farzandlarning bobo-Kalonlari, bobo va momolariga chuqur ehtiromlarini ifoda etadi. Demak, oila ma'naviyati shaxs va millat ma'naviyatini uyg'unlashtirishda muhim pog'ona bo'lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ma'naviy konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovation fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetentsiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Prezidentimizning ma'naviy tarbiyadan xech kim chetda turmasligi lozim ekanligi to'g'risidagi da'vatlariga ota-onalar, mahallalar fidoiylari va ta'lim muassasalari bilan birga jamiyatimiz ziyolilari, olimlari, ijtimoiy fanlar vakillari o'z ilmlari ma'naviy fazilatlarini bilan ishtirok etishlari bilan javob beradilar, deb o'ylaymiz.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan orni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri

va to'la anglab yetgan komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiyaga uzluksiz tizim sifatida qaralishining o'zi insonparvarlikning amalda namoyon bo'lishidir. Ayni chog'da insonparvarlik ta'lim-tarbiyaning uzluksiz va izchil bo'lishini taqozo etadi. Zero, bundan kuzatilgan asosiy maqsad muayyan kasb-korni mukammal egallab olish va ayni chog'da sog'lom, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uni hozirgi zamon fan-texnika va texnologiyasi yutuqlaridan bahramand etish, axborot asri sifatida namoyon bo'lishi kutilayotgan XXI asrning yuksak talablariga muvofiq kadrlar bo'lib yetishishlariga erishishdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3-maydagi PQ -4307-son qarori.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"*
3. *2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarori.*

IV. TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASI OMILLARI INTEGRATSIYASI

N.Mamatov f.f.d., prof

Fan va texnologiyalar universiteti prorektori

Annotatsiya: *ushbu maqolada shaxs tushunchasining mohiyati, uni shakllantiruvchi omillar tabiati, ma'rifatli shaxsni tarbiyalash, bu bo'yicha oldimizda turgan - maktab o'quvchilar o'rtasida tenglik muxitini yaratish, maktabda erkinlik ruxini yanada kengaytirish, bir o'quvchining bilganini jamoaga yetkazish ko'nikmasini shakllantirish kabilarining mohiyatini ochib berishga xarakterat qilingan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, ma'rifatli shaxs, ma'rifatli shaxsni shakllantiruvchi omillar, omillar integratsiyasi, tenglik muxiti, erkinlik ruxi, bolalarda ma'rifiy xamkorlik ko'nikmasi.*

Jamiyat taraqqiyotida inson kamolati va uning sifati hamisha muxim masala bo'lib kelgan. Ushbu masalani xal qilishda inson, uning mohiyatini yana ham aniqroq tasavvur, taxlil qilish maqsadida fanda "shaxs" tushunchasi vujudga keldi.

Umuman olganda, shaxs ham inson singari jamiyat hayotida ishtirok etayotgan millionlab kishilarga hos bo'lgan bir qator sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy subektidir. Bunda biz uning mustaqil qarashini, xissiy o'ziga xosligini, uning iroda kuchini, ichki yig'inchoqligini, o'zini-o'zi idrok etishini, o'zining xatti-harakatlariga o'zining baxo berishligini, o'zining kelajagini o'zi loyixalashtiraolishini, o'zining jamiyatda tutgan o'rniga o'zining munosabat bildirishligi kabi sifatlarini nazarda tutamiz va ushbu sifatlarga ko'ra aloxida olingan har bir insonning o'ziga xos, individual jixatlarini yanada aniqroq ko'z oldimizga keltiramiz.

Shaxs xamisha individuallikda namoyon bo'ladi. Lekin, shaxsdagi individuallik uning jamoaviyligiga qarama-qarshi turmaydi. Unda jamoaviylik, umiminsoniylik qanchalik yaqqol ko'rinsa shaxsning ijtimoiylik maqomi shuncha ko'tarilib boraveradi. Shuning uchun ham shaxsning mohiyatini jamiyki ijtimoiy munosabatlarning birligi tashkil etadi. Ushbu birlik aloxida olingan shaxslarning ma'naviy kamolat darajasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Mazkur farqni ta'minlovchi asosiy omil shaxsning mikro va makro ijtimoiy muxit bilan qanday bog'langanligi va ushbu muxitga u

nima berganligi, hamda ushbu muxitdan u nima olganligi bilan farqlanadi. Shunday qilib, inson shaxs sifatida namoyon bo'lishi orqali o'zining shaxsiy mohiyatini jamiyatga yanada aniq ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan jarayon bir tomondan, obyektiv amalga oshsa, ikkinchi tomondan esa, u shaxsning ijodiy faolligi va ijtimoiy-ma'naviy muxit tasirining intensivligi darajasi bilan bevosita bog'liq xolda kechadi. Shaxs kamolati jarayoni fanda "ijtimoiylashuv" tushunchasi bilan ifodalanadi. Ijtimoiylashuvning bir qator omillari mavjud. Bu omillar shaxs kamolatida, xayotida o'z o'rnini almashtirib turishi xam mumkin. Lekin, ushbu ijtimoiy omillar orasida oilaning va ta'lim-tarbiyaning o'rnini va roli muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqqan xolda, bugun yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasining dolzarb muammolari va ularning yechimlari haqida gap ketganda birinchi galda, O'zbekistonda oilaviy munosabatlarning bugungi holati, uni yanada sog'lamlashtirish texnologiyalari, bunda oilaning asosiy subektlari hisoblangan ota va onaning oilaviy munosabatlarga bo'lgan nazari, javobgarligi, burchi masalalari, ularning bola tarbiyasiga nisbatan qarashi, mazkur qarashning mazmuni va istiqboli kabi masalalar tobora dolzarblashib bormoqda.

Endi bu masalalar o'zi-o'zicha mustaqil muxokama qilinishi kerak bo'lgan masala bo'lganligi uchun biz unga shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonining takomillashuvida muxim vazifani bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida qaraymiz. Ma'rifatli shaxs tarbiyasida oila va ta'lim institutlari birligi uning samaradorligini oshirish bugungi kun pedagogikasi uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bolaning ta'limi va tarbiyasining dastlabki, kerak bo'lsa, akademiyasi bu oiladir, oiladagi otaning va onaning jamiyatdagi ijtimoiy maqomidir, ularning ma'rifatlilik va ma'rifatga intilish darajalaridir. Hususan bola tarbiyasi u bog'chada tarbiyalanadimi, maktabda tarbiyalanadimi, oliy o'quv yurtida tarbiyalanadimi bundan qat'iy nazar bola tarbiyasi uchun javobgar faqat va yana faqat ota-onadir.

Ta'lim institutlari esa bolalarda bilimga, ilmga, kasbga, professionallikga nisbatan qiziqishni, ijodkorlikni shakllantirishlari kerak. Albatta, ushbu bayonda tarbiya bu faqat oilaning funksiyasi ta'lim esa ta'lim maskanlarining funksiyasidek tasavvur qoldirishi mumkin. Biz albatta ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini bu birlikda oila va maktab birligini asos qilib olgan xolda asosan tarbiyaga, asosan ta'limga nima javobgar ekanligiga urg'u bermoqchimiz xolos.

Shundan kelib chiqqan xolda, ma'rifatli shaxs tarbiyasida maktabning o'rni aloxidaligiga maxsus to'xtamoqchimiz. Maktab o'zining moxiyatiga ko'ra emotsional neytral muxit maydonidir. Maktabda bola amalda musobaqaning, yutiqning, omadsizlikning nima ekanligini birinchi marta biladi. U maktabda birinchi marta ijtimoiy adolatsizlikning nima ekanligini ko'radi. U maktabda qiyinchiliklarni yengishga ko'ra malakaga ega bo'ladi. Ushbu malaka uning umri davomida uning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lib keladi. Shu malaka maydoni u uchun marifatli shaxsni tarbiyalash maydoni bo'lib qolishi mumkin. Bolaning maktabda o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimi, tarbiyasi bir tomondan boshqariladigan ikkinchi tomondan esa stixiyali amalga oshadigan jarayondir. Bu jarayonda agar boshqariladiganlik absalyutlashtirilsa stixyalikda bir qator nomosliklar paydo bo'lishi mumkin va aksincha talim tarbiyada stixyalikga erk berish ham ijtimoiy talablarga javob bermaydi. Shuning uchun bugungi kunda bolalarda ma'rifatli shaxs tarbiyasini tashkil etish va boshqarishda bizningcha quydagi jixatlarga axamiyat berish lozim.

Ularning birinchisi, maktabda maktab o'quvchilari o'rtasida tenglik muxitini yaratish yani o'quvchilarning ta'lim olishida ular o'rtasidagi tenglik muxiti ularning har biridagi individual sifatlarning nomoyon bo'lishi uchun muxim omil rolini o'ynaydi. Jamiyatda mavjud ta'lim soxasidagi turli imtiyozlar bolalarning individual sifatlarini nomoyish qilishlari uchun zarur bo'lgan raqobat muxitining kuchini sindiradi. (Biz imtiyozlar haqida gapirganimizda imkoniyati cheklangan ijtimoiy yordamga muxtoj bolalarni nazarda tutmadik.)

Vaxolanki, bolalar o'rtasidagi sog'lom raqobat ularning kelajakda jamiyatda egallashi kerak bo'lgan o'rinlarini belgilashda muxim rol o'ynaydi. Har qanday raqobat birinchi galda, bolalarning o'z ustilarida o'zlari ishlashlarini, ta'limga ijodiy talab va tanqidiy qarashni, ta'lim jarayoniga progmatik munosabatda bo'lishni, vaqtni ratsional taqsim qilishni, tengdoshlari nimalar ustida ishlayotganliklari bo'yicha informatsiyalar yig'ishni va uni taxlil qilishni, tengdoshlaridan o'zib ketish vositalari va variantlarini topishni talab qiladi. Muximi, maktab raxbariyati, o'qituvchilari bolalar o'rtasidagi sog'lom raqobatga motivatsiya berishi uni qo'llab-quvvatlashi va unga to'g'ri yo'nalish berishidir. Mening nazarimga ko'ra bizning pedagogikada ushbu jarayon kam tatqiq qilingan va bu soxa bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanmalarimiz ham biz kutgan darajada emas.

Ularning ikkinchisi, maktabda erkinlik ruxini yanada kengaytirish masalasidir. Erkinlik malum bir jarayoni amalga oshirishda unga nisbatan

chegaraning yoki bosimning ishtirok etmasligi bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir. Erkinlik anglanilgan zaruriyatdir. Shuning uchun bilim ma'rifat inson imkoniyatlarini kengaytirib boraveradi to'g'rirog'i inson erkinligining asosi va maqsadi ham ma'rifatdir. Chunki, inson erkinligi erkin tanlovda namoyon bo'ladi. Erkin tanlov esa uning bilimi, ilimi, tadbirkorligi, ma'rifatliligi, faxm-farosatliligi bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu sifatlarning dastlabki ko'nikmalari maktabgacha va maktab ta'limi davrida amalga oshadi. Albatta, bugun barcha ta'lim maskanlarimizda jarayon qabul qilingan davlat standartlariga ko'ra amalga oshmoqda. Yaqin yillarga qadar ushbu standartlarga standart sifatida qarab keldik ya'ni masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki maktab yoki oliy maktab faqat davlatniki bo'lishi kerak, oliy talimga qabul belgilangan kvotalar bo'yicha amalga oshishi kerak, deb keldik. Ushbu steratip bilan biz bugun uning takomillashgan, erkinlashtirilgan formati bilan ishlamoqdamiz. Maktabgacha ta'limning bir necha shakllari mavjud, maktab ta'limi ham bir necha shakllarda amalga oshmoqda, oliy o'quv yurtlari tizimiga ular bilan teppa-teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan hususiy universitetlar soni kundan-kunga ko'paymoqda.

Endi ushbu mantiqni biz ta'lim tashkilotlari funktsionnalashuviga ko'chirsak masala birinchi galda, masalan maktablarning o'quv rejalarini shu maktab rahbariyati, o'qituvchilari, o'quvchilari, ota-onalarining tanloviga qoldirsak bo'lmaydimi. Maktab keng ijtimoiy ma'naviy tizimning muxim segmenti sifatida bolalarga mehnatga muxabbat qadriyatini shakllantirib boruvchi muhim ijtimoiy institutdir. Mexnat tarbiyasi, mexnatga qiziqish, mexnatni qadrlash, shu orqali bola o'zining odamlar orasidagi o'rnini topishi va qadrlashga intilishi ularning o'quv predmetlarini mustaqil tanlashi bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim va tarbiya jarayonini a'malga oshirishda, uni boshqarishda erkinlik doirasini yana kengaytirsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, boshlang'ich, o'rta ta'lim maktablariga ta'lim rejasini mustaqil shakllantirish imkonini bersak nima bo'ladi. Ushbu jarayonga bizning nazarimizga ko'ra maktabda ota-onalarni, o'quvchilarning o'zlarini keng jalb qilish muxim ahamiyatga ega. Chunki, bugungi maktab o'quvchisi ertangi xalqaro mexnat bozorida o'zining "Men"i va xayot taqdiri bilan ishtirok etadigan shaxsdir. Shuning uchun bola va ota-ona bugun maktab ta'limidan nimani olishligi ular uchun juda katta ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyotdan ma'lumki, bolalar o'zlari tanlagan o'quv predmetlarini juda

katta qiziqish, izlanish bilan o'zlashtiradilar va o'zlarida ushbu predmetlarni o'zlashtirishga ko'ra mehnatsevarlik sifatini shakllantiradilar.

Bu o'rinda jamoaviylik va kelajak talabi asosida shakllantirilgan o'quv predmetlari qanday o'qitiladi, ularni kim o'qitadi, o'qish qaerlarda amalga oshadi degan masalalar bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib qoldi. Biz Mustaqillik yillarida jaxon xalqlari ta'lim tajribasini o'rgandik, eng mukammal ta'lim tizimini yaratish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdamiz. Ushbu izlanishlarda asosiy etiborni o'quvchilarni mustaqilligiga, mustaqil izlanishiga, izlanishlarda ko'p variantlilikga asoslanishga, fan asoslarini o'zlashtirish jarayonida uni xayotda qo'llashga, hususiy konstruksiyalar va yondoshuvlar yaratishga o'zlashtirishda nazariya va amaliyot birligidan omilkorlik bilan foydalanishga o'rgatishga e'tiborni qaratishimiz kerak bo'ladi. Albatta, ushbu vazifalarni bajarish o'qituvchining shunchaki darsga kirib chiqishi bilan amalga oshmaydi. Shunchaki darsga kirib chiqqan o'qituvchi o'quvchiga xech narsani bermaydi, balki u o'quvchining vaxtini, umrini o'g'irlyadi.

Shulardan kelib chiqqan xolda yangi zamon o'quvchisi ta'lim, tarbiyasiga qanday axamiyat nazari bilan qararak, yangi zamon o'qituvchisini tayyorlashga nisbatan ham nazarni ikki barovar yuqori darajaga ko'tarish zarur.

Albatta, bu ko'tarishda bir qator tashkiliy, iqtisodiy, uslubiy muammolar ham ishtirok etadi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari, boshlang'ich va o'rta ta'lim o'qituvchilarining ish xaqlarini oshirish, ularning ish faoliyatini ortiqcha besamar, qog'ozbozliklardan tozalash, turli xildagi tekshiruvlardan va nazoratlardan ozod qilish, ularga bo'lgan ishonchni ortirish, o'qituvchilarning ijtimoiy obro'sini millat miqyosida ko'tarish kabilar ma'rifatli shaxs tarbiyasida muxim axamiyatga ega

Maktabda dars berishning murakkabligini maktab o'qituvchisigina biladi. Bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan 4-5-soat davomida intensiv shug'illanishning o'zi bo'lmaydi. O'ttizdan ortiq bola o'tirgan sinfda o'tgan darsni baxolash, yangi darsni bayon qilish, uyga berilgan vazifani tekshirish, darsga tayyorgarlik ko'rish, yangi adabiyotlarni, metodlarni, texnologiyalarni o'zlashtirish o'zi-o'zidan a'malga oshadigan jarayon emas. Uning ustiga xaqli suratda ota-onalar maktabga kelib bolalarning ta'limi sifati bilan qiziqishi, nega silar falon maktabdagi singari falon-falon texnologiyalarni qo'llamaysizlar, nega o'quvchingiz uyda mustaqil falon-

falon vazifalarni bajarmaydi, deb kelishi o'qituvchining o'zining o'zi ustida ishlashini tashkil qiladigan omillar hisoblanadi.

Ularning uchinchi esa, o'quvchilarning jamoa bo'lib o'qishligi, izlanishliligi, o'zlarini o'zlari boshqarishliligi, bir o'quvchining bilganini jamoaga yetkazish ko'nikmasining shakllanishi, jamoaning umumiy manfaatining qaror topishi, ushbu umumiy manfaat yo'lida jamoaning uyushishi, xamfikrlik, xamdartlik hisoblanadi. Bolalarda ma'rifatli shaxs hususiyatlarining eng muximi ularning bir-birlariga qadrlash hamdartlik nuqtai nazaridan qarashi ko'nikmasidir. Bu ko'nikmaning shakllanishida kechirimlilikga keng o'rin berish muxim ahamiyatga egadir. Bularning bari ta'lim va ma'rifat bilan uzviy bog'liq. Insoniyat tarixi yutuqlaridan biri ta'limning kishilik xayotining boshi, buguni va ertasi ekanligini tasdiqlaganidir. Chunki ta'lim aloxida olingan inson umuman jamiyatni o'zining madaniy-ma'naviy qudrati bilan xarakatga keltiradi, uning taqdirini belgilaydi.

YOSHLAR MADANIYATIDA BUGUNGI KUN AXLOQ MASALASI

Samandarova Shaxnoza

O'zDXA Urganch filiali "Lazgi" bo'limi katta ilmiy xodimi

Xudayberganova To'xtajon

O'zDXA Urganch filiali "Lazgi" bo'limi bosh mutaxassisi

Annotasiya. *Ushbu maqolada har bir xalqning kelajagi bo'lmish, yoshlarning madaniyati ularning rivojlanishi va zamonaviyligining turli salbiy ta'sirlari va tendentsiyalarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqariladi. Yoshlarimiz madaniyatining elementlari orasida e'tiqodlar, xatti-harakatlar, uslublar va qiziqishlar haqida mulohazalar qayd etiladi.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, turmush-tarz, ta'lim-tarbiya, milliylik, musiqa, fikr, g'oya, san'at.*

O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI axborot texnologiyalari asrida bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"[1] Tarbiya qancha

mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan jamiyat hayotidagi asosiy masaladir.

Axloq va madaniyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Axloq ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Axloqiy madaniyat – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me'yorlarini egallashi va o'zgaralar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zarurat. Muomala odobi o'zgaralar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Ma'noli va ravon so'zlash, suhbatdoshni tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Muomala odobida muloqotning asosiy vositasi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Xalqimizda "Siz" ham, "sen" ham bir og'izdan chiqadi" degan dono naql bor. Shu bois muloqot paytida suhbatdoshga hurmat ifodasi sifatida har bir so'zni suhbatdoshining ko'ngliga, qiziqishi va kayfiyatiga qarab, yoshini kasbu kori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e'tiborga olib, hurmatini joyiga qo'yib gapirish, muloqot jarayonida o'rinsiz harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim.

"Muomala odobida kishining ko'z-qarashi, nigohi, so'zsiz (noverbal) harakatlari ham muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Shu ma'noda, muomala odobida kishilarning nasihat qilmasdan, odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ham diqqatga sazovordir"[2]. Axloqiy yetuklik muomala odobini egallashdan boshlanadi. Axloqiy madaniyatning o'ziga xos munosabatlar ifodasi – etiketdir. Axloqiy madaniyat muayyan holat uchun faqat bir xildagi qoidalashtirilgan xatti-harakatlarni taqozo etadi. Axloqiy madaniyatning qamrovi shu qadar kengki, u oddiy insoniy munosabatlardan xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalargacha o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik axloqiy madaniyati, mezbon etiketi va hokazo. Axloqiy madaniyatning zamonaviy ko'rinishlari bilan birga, milliy-an'anaviy shakllari ham bor, ularsiz har qaysi xalq hayotini tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko'raylik. Axloqiy madaniyat qoidasiga ko'ra, ko'chadan o'tib ketayotgan odam guzarda yoki darvozasining oldida turgan kishilarga salom berishi, bu asnoda o'ng qo'l chap ko'krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa ta'zimga yengil egilishi

lozim. Ko‘rishish madaniyatida esa qo‘lning uchini berib salomlashish ko‘rishayotgan odamga nisbatan odobsizlik va mensimaslikni bildiradi. Axloqiy madaniyatning yana bir jihati bor: unda odob bilan go‘zallikning uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni, “Axloqiy madaniyat orqali odobning qat‘iy qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Kasbiy odob axloqiy madaniyatning yuksak shakllaridan bo‘lib, uning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyosdir”[3]. Muallimlik odobi, san‘atkor odobi, jurnalist odobi, rahbar odobi singari kasbiy odob turlari bunga misol bo‘la oladi. Kasbiy odob amaliy axloq tarzida namoyon bo‘ladigan ma‘naviy hodisadir.

Axloqiy tarbiya – jamiyat ma‘naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o‘rganadigan ilmiy kategoriyadir. Axloqiy tarbiya deganda o‘ziga kelayotgan avlodga xulq-odob me‘yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Axloq to‘g‘risidagi fanlarning asosiy vazifasi axloqiy barkamol inson va jamiyatni tarbiyalashning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berishdan iborat. Axloqiy tarbiya shu yo‘ldagi uzluksiz amaliy jarayondir. Inson axloqiy tarbiya orqali axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o‘zida axloqiy tajribalar, ko‘nikma va fazilatlarni shakllantiradi, axloqiy me‘yorlar va tamoyillar asosida yashashga o‘rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikkita muhim masalaga javob izlaydi: biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilish keragu nima qilmaslik lozim. Axloqiy tarbiya – insonni komillikka eltuvchi yo‘l. Uning vositalari ko‘p, biri an‘anaviy tarbiya bo‘lsa, ikkinchisi zamonaviy tarbiyadir. Odatda, har ikki turdagi vositalardan samarali foydalaniladi. Maktabgacha axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar, pand-nasihatlar ruhidagi, an‘anaviy tarbiya o‘yin va o‘yinchoqlar vositasidagi zamonaviy tarbiya bilan o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanadi.

Axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san‘at. Bu borada san‘atga birlamchi omil sifatida qaramog‘imiz lozimdir. Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda tom ma‘noda milliy raqs san‘atini rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar ta‘lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda. Globallashuv davrida jahon ilm-fani va san‘ati o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi va milliy o‘zlik konsepsiyasining voqelanishi va taraqqiyotida inson omili, milliy xarakterning badiiy takomili, ta‘sirchanlik

ahamiyati yuksaldi. Barcha sohalar qatorida san'at va madaniyatga berilayotgan e'tibor millatlarning ma'naviy taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, avvalo, milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari uyg'unligida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi"ni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" belgilangan. Ma'lumki, milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlar har bir millatning faxri hamda g'ururidir. Uning san'at asarlarida aks etishi, shakllanishi hamda takomillashib borishi uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi. Ilmning buyuk kuchi va qudrati, sehri shundan iboratki, u insonning barcha orzulari va maqsadlarini faqat ezgulikka yo'naltiradi. San'atning umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi darajasini baholash va ilmiy jihatdan asoslash masalalariga keng e'tibor berilayotganligi tufayli zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishning yangi dasturlari shakllantirilmoqda.

Bizning nuqtai nazardan birinchi navbatda, madaniyatni qadriyatlar va axloq me'yorlarni takomillashtirish jarayoni sifatida o'rganilishi kerak. XX asr insoniyat jamiyatining rivojlanishida muayyan bir chiziq chizib chiqdi va bu asrning insoniyatining taqdiri qanchalik bog'liqligini anglatadigan yangi madaniy paradigma paydo bo'ldi. Uning mazmuni madaniyatning sayyoraviy rolini odamlar jamiyatini rivojlantirishga, asosiy omili sifatida tarixiy zaruratga bog'liq. Shuning uchun madaniy mukammal shaxs muammosi dolzarblashtirilgan. Hayot madaniyati ijtimoiy institutlar tomonidan keyingi avlodlarga etkazilib, insoniyatning tarixiy rivojlanishidagi davriy jarayonlar, bir tomondan, madaniy qadriyatlarni va urf-odatlarini saqlab qolish moyilligini, bir tomondan, o'zgaruvchan mavzu-obyektga mos ravishda yoshlarning manaviy an'anasini yangilashga intilishi ko'rsatadi. Zamonaviy madaniyatga bo'ysunish jarayonlari asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot tizimlari, inson hayotining mohiyatiga kirib boradi, yangi hayot maydonlarini egallaydi, iste'molchini tizimlashtiradi va taqdim etilgan ma'lumotni insonga talqin qiladi, bu yerda taqdim etilgan virtual hayotning tarkibi va tabiatiga moslashishni talab qiladi, uning kundalik tajribasini butunlay beqarorlashtiradi. Zamonaviy axborot sivilizatsiyasining rivojlanishida cheklovlar ko'pincha madaniy muxolifatning turli shakllari va hatto turli madaniyat sub'ektlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga ega bo'lib, ular ko'pincha mafkuraviy, diniy, milliy

yoki boshqa xilma-xil munosabatlarni ta'kidlaydilar. O'z navbatida, murakkab tizim bo'lgan madaniyat muayyan bir tuzilishga ega. Madaniy o'zgarishlarning muammolari jismoniy yoki ruhiylik, madaniyatning ruhiyati, madaniyati va ruhining nisbati bilan bog'liq. Ushbu munosabatlar nuqtayi-nazaridan, ommada mutlaqo muayyan madaniyatning ustuvorligi bilan boshlangan obyektiv bilimlar natijasida yuzaga kelgan hukmron mafkuraga bog'liq bo'lgan inson ongining paydo bo'lishi yuzaga keladi. Madaniyat nuqtayi-nazaridan inson ongining aqliy transformatsiyasiga yordam beradigan va ijtimoiy-madaniy sohada yoshlarni moslashtirish jarayoniga hissa qo'shadigan omillardan biri – bu o'zaro hamkorlikda ishlashdir. Ayni paytda mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotida o'zgarishlar yuz bermoqda. Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardan axborot orqali ommoviy madaniyatning kirib kelishi, insonning axloqiy barqarorligi, milliy qadriyatlarni saqlab qolish qobiliyati kamaytirishida muxim ro'l o'ynamoqda. Shuning uchun yoshlarning madaniy, ma'naviy va jismoniy salomatligini shakllantirish muammolari alohida o'rin tutadi; mustaqil fikrlaydigan, faol ishlaydigan, intellektual salohiyatga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratish lozim. Yoshlar – bu maxsus ijtimoiy jamoa va qiymat tizimining tarkibiy tuzilishi va shakllanishi jarayonida mavjud bo'lgan juda katta innovatsion kuchdir. Bu yerda yoshlarni sotsialashtirishning asosiy vositalaridan biri insoniyatning to'plangan bilimlari, qadriyatlari, me'yorlar va shaxslarning ma'naviy dunyosini ifodalovchi shaxslar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar va butun jamiyatni o'z ichiga olgan madaniyatdir. Yoshlar jamiyatning umumiy madaniy va kasbiy talablarini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Yoshlarning ijtimoiy-madaniy mavqeining o'ziga xos xususiyatlari, bo'sh vaqtida namoyon bo'ladi, bu boshqa yosh guruhlarining bo'sh vaqtlariga nisbatan faol va rekreatsion shakllarning xilma-xilligi va ustunligi bilan ajralib turadi. "O'z-o'zidan ma'lumki, dam olish - bu shaxsning jismoniy va aqliy kuchini tiklash funksiyasini amalga oshiradigan shaxsiy tadbirlar to'plami. Bunda jismoniy faol, passiv dam olish, muloqot, o'yin-kulgi, bo'sh dam olish, yurish, madaniyatga qarshi tadbirlar (spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qimor o'yinlari va hokazo), maqsadsiz, istak va ehtiyojsiz tasodifiy faoliyatlar yoshlarning jamiyatdagi manaviy dunyosining buzulishiga olib keladi"[4]. Shuning uchun jamiyatni ma'naviy va jismoniy taraqqiyotiga ta'siri sifatida uning tartibga solish muammosi asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, dam olish nisbatan mustaqil (shaxsiy) sohadir va yoshlarning hayotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularning dunyoqarashlariga bog'liq. O'yin-kulgi sohasida, yoshlar boshqa joydan ko'proq erkin inson sifatida harakat

qilishadi. Darslarni tanlash va bo'sh vaqt yo'qligi buning sababi bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Dam olishning ko'p sohasi professional va oilaviy uy vazifalaridan ozod bo'lish bilan tavsiflanadi, bundan tashqari, uning doirasida yoshlarning shaxsiga nisbatan bosim kuchayadi. Bugungi kunda yoshlarning dam olish sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Zamonaviy yoshlarning bo'sh vaqti tobora an'anaviy xususiyatlar ega bo'lganligi ularning oshib borishi kuzatilmoqda.

Shunday qilib, bugungi ijtimoiy-madaniy vaziyatda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali foydalanishga – umuman olganda, ijtimoiy va atrof muhitni rivojlantirishga, butun hayotimizni ma'naviy yangilashga qiziqtirish asosiy vazifaga aylangan kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud ahloq 1992. O'qituvchi nashriyoti 5-b.*

2. *Лагута Л.М. Трансформация социальных ценностей студенческой молодёжи // Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Материалы Всеукраинской научной конференции.– Днепропетровск: «Инновация», 2011.*

3. *Азарова. Р.Н. Педагогическая модель организации досуга обучающейся молодежи / Р.Н. Азарова // Педагогика. – 2005. – № 1. – С. 27-32.*

4. *Седова Н.Н. Досуговая активность молодёжи // Социологические исследования. 2009. № 12. – С. 56-59.*

YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFIY ISLOHOTLAR: YUTUQ, MUAMMO, QIYOSIY TAHLIL VA TAKLIF

Sanobar Nasrullayevna Xodjayeva

– “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasini assistenti,

Har qanday jamiyat va uning ma'naviy taraqqiyotini ma'rifatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy adabiyotlarda ma'rifat tushunchasiga turlicha ta'riflar berilib, turlicha izohlanib kelinmoqda. Bu esa uning keng qamrovli tushuncha ekanligini bildiradi.

Birinchiidan, «Maʼrifat» soʻzi yakka va koʻplik maʼnolarda ishlatiladi. U arab tilidan olingan boʻlib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi maʼnolarni bildiradi. Islomiy nuqtai nazardan qaraydigan boʻlsak, maʼrifatning, yaʼni bilimdonlikning asosi oʻzining kimligini, hayotdagi oʻrnini va maqsadini, burchi va masʼuliyatlarini anglashdan boshlanadi. Ana shularni toʻgʻri anglab yetmagan inson har qancha bilimli boʻlsa ham maʼrifatli hisoblanmaydi. Uning avvali Haq taoloning borligini mushohada etishdan boshlanadi. Tasavvuf taʼlimotiga koʻra insonni kamolotga yetkazuvchi yoʻllardan birining «Maʼrifat» deya atalishi ham bejiz emas.

Ikkinchiidan, bu tushuncha Markaziy Osiyoda yashagan, ijod etgan mutafakkirlarning asarlarida qadim zamonlardan tortib, to XX asr boshlarigacha asosan bilim va ilm, uni egallash borasida amalga oshirilgan taʼlim-tarbiya jarayoni maʼnosida qoʻllab kelingan.

Uchinchiidan, Yevropa adabiyotida XVII asr oxiri- XVIII asr boshidan beri qoʻllanila boshladi. Bu tushunchani Gʻarb falsafiy faniga birinchi boʻlib Volʼter va Gerder kabi maʼrifatparvar olimlar olib kirgan. Nemis mumtoz falsafasining asoschilaridan biri Kant mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U oʻzining «Maʼrifat nima? degan savolga javob» nomli maqolasida bayon qilishicha, maʼrifat inson shaxsini tarbiyalash, uning aqli, axloqi imkoniyatlaridan jamiyatning ilgarilama, yaʼni yuksaklik tomon taraqqiyoti manfaatlarini yoʻlida foydalanishdir.

Toʻrtinchiidan, maʼrifat – bilim va ilm, uni egallash maʼnosida u yoki bu insoning tabiat, jamiyat, inson mohiyati haqidagi bilim va ilmlarni egallaganlik darajasi va unga aloqador boʻlgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir. Maʼrifatli degani esa – muayyan sohada maʼlumoti bor, koʻp narsani biladigan, mushohada qiladigan, bilimli, oʻqimishli demakdir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan turli jarayonlar, raqobat muhitida mafkuralar oʻrtasidagi kurash tobora keskinlashayotgan vaqtda maʼrifat masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotgani sir emas. Shuni chuqur anglagan holda mamlakatimizda mazkur yoʻnalishda turli loyihalar, islohotlar amalga oshirilmogda, yangi qarorlar eʼlon qilinmogda.

Xususan, Prezidentimizning 2019 yil 3 maydagi “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi qoshida “Marifat” targʻibotchilar jamiyati tuzildi. 2021 yil 26 martda “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Respublika maʼnaviyat va maʼrifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qoʻyildi. Kengashning hududiy

bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

“Marifat” targ'ibotchilar jamiyat a'zolariga yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Farmon va qarorlar, farmoyishlar, davlat dasturlari mazmun-mohiyatini aholiga sodda, qalbga yaqin usul va uslublarda tushuntirish, targ'ibot qilish vazifalari yuklangan. Ushbu muassasa ong va qalb uchun kurash ketayotgan bugungi global axborotlar muhorabasida milliy manfaatlar ifodachisi sifatida vatanparvar shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Targ'ibotchilarning har xil balandparvoz gaplarsiz, samimiy va do'stona ruhda faoliyat yuritishi esa ushbu tashkilotning o'ziga xosligidir. Bugun odamlar yolg'on so'zni ko'tarmaydi, quruq xitoblarni qabul qilmaydi. Aniq, turli sansolarliklarsiz ishni, soxta iddaolarsiz fikrni yoqlaydi, ularga ergashadi. Shu bois tashkilot a'zolari targ'ibotchilik ishlarini olib borish bilan birga, jamiyatning kayfiyati, fikr-qarashlarini o'rganib, aholiga eng zarur axborotlarni berishga, hayotimizdagi voqea-hodisalarga tezkorlik bilan munosabat bildirishga, insonlarni ezgu ishlarga, yangi marralarga ruhlantirishga intilishi zarur.

Targ'ibotchilar guruhi jamiyatdagi barcha vazirliklardan tavsiya qilingan nomzodlar, davlat va jamoatchilik vakillari, olim-ziyolilar, mutaxassislar, madaniyat va san'at arboblardan iborat. Respublika miqyosida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va tashviqot ishlariga jalb etish, sohaga yangicha yondashuvni tatbiq qilish, targ'ibotchilarni moliyaviy va ma'naviy rag'batlantirib borish yo'lga qo'yildi. Ularning ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlaridagi ma'ruzalariga haq to'lash hamda “Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik-tanlovi, “Ma'naviyat fidoyisi” ko'krak nishoniga tavsiya etish tizimi joriy qilindi. Maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Barcha oliygoh va ularning filiallarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi.

Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. “Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy” tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilishi ma'lum qilindi. Biroq bu vaqtincha bajarilib, qog'ozda qolib ketgan ishlardan biri bo'ldi.

Hududlar markazida namunaviy loyiha asosida ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish, mahalliy byudjetlar hisobidan sohaga qo'shimcha shtatlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi. Bunga asosan, 2022 yil 31 avgust kuni Buxoro viloyati Olot tumanida Ma'naviyat va ma'rifat maskanining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Maskandagi kutubxona 150 mingdan ziyod kitoblar, zamonaviy o'quv zali va bepul internet bilan ta'minlandi. "IT markaz", "Besh tashabbus" to'garaklari, "Zakovat" intellektual o'yin stoli, kitobxonlik bayramlari, turli ko'rik-tanlov va teatr-kontsert dasturlari uchun 260 o'rinli tantanalar zali, 60 o'rinli 3D formatli kino namoyishi uchun ham qulay sharoitlar yaratildi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida "Ijod" jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etildi. Bu jamg'armaga 120 milliard so'm ajratilib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali amalga oshirish, milliy adabiyotimizni rivojlantirish uchun sarflanadi. Bu mablag'ning 90 milliard so'mi hududlarda ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirishga, 20 milliard so'mi Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, 10 milliard so'mi mamlakat miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilishga yo'naltirildi.

2021 yildan boshlab, ma'naviyat va ma'rifat sohasi ixtisosliklarini fanlar klassifikatoriga kiritish, bu yo'nalish bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san'atini izchil rivojlantirish, barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, teledasturlarning saviyasini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ziyolilar uchun ilmiy-ma'rifiy muloqot maydonini tashkil etish orqali ular o'rtasida o'zaro tajriba almashishga xizmat qiladigan ma'naviy ko'prik yaratish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2023 yil 18-20 may kunlari Buxoroda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati, viloyat hokimligi hamkorligida "Uchinchi Renessans – ma'rifatli jamiyat sari!" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Ilm-ma'rifatning qadim o'chog'i bo'lgan Buxoro shahridagi Mir Arab Oliy madrasasida "Uchinchi Renessans – ma'rifatli jamiyat sari!" mavzusida

Respublika ilmiy-amaliy anjumani va konferentsiya materiallari to'plami taqdimoti bo'lib o'tdi. Konferentsiyada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 100 nafardan ortiq olimlar, professor, dotsentlar hamda hududlardan turli soha mutaxassisleri ZOOM orqali qariyb 200 nafar ziyolilar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi.

Respublika anjumani doirasida Buxoro davlat universitetida "O'zbekiston Qahramonlari" kitobi taqdimotida Buxoro zaminidan yetishib chiqqan, Vatanimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib, ushbu yuksak unvon hamda "Oltin Yulduz" medali bilan taqdirlangan 6 nafar O'zbekiston Qahramonlarining ibratli hayoti va ko'rsatgan fidoyilik hamda matonati e'tirof qilinib, ularga va oila a'zolariga sovg'alar taqdim etildi. Anjuman doirasida viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar, oliy va o'rta ta'lim muassasalarida ziyolilar, shoir-yozuvchilar ishtirokida "Ma'rifat soatlari" o'tkazildi.

Davrimiz yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"ni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat, "Taraqqiyot strategiyasi", Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy "aql markazlari"ga aylanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta'kidladi.

Rivojlangan demokratik davlatlar tarixida jamoatchilik nazorati zo'r bo'lgan. Yaponlar o'zlarini "Biz ming ko'zli devormiz", deyishadi. Yapon zaminida kim qonunga zid biror ish qilayotgan bo'lsa, boshqalar unga munosabat bildiradi. Bizda esa hali mana shu madaniyat past. Bir o'zbek boshqasining qonunga qarshi nojo'ya qilmishini huquq-tartibot organlariga aytsa, uni qoralaymiz. Bu bilan yomonlikni, gunohga sherik bo'lib qolayotganimizni anglamaymiz. Vaholanki, dinimizda bu borada aniq

ko'rsatmalar bor. Payg'ambarimiz (s.a.v) iymonning kuchli va zaif darajalarini belgilab berganlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Biror nojo'ya ish qilayotganni ko'rsangiz, qo'lingiz bilan qaytaring, bunga kuchingiz yetmasa, tilingiz bilan qaytaring. Bunga ham imkon topmasangiz, hech bo'lmasa, ko'nglingizda u ishga norozi bo'ling, ana shu imonning eng zaif darajasidir", deganlar (Imom Buxoriy rivoyati). Dinimiz noto'g'ri holatlarga beparvo bo'lishdan qat'iy qaytaradi, uni iloji boricha tezroq tuzatishga targ'ib etadi.

Rivojlangan davlatlarning bugungi takomilida milliy g'oya muhim, ulug' rol o'ynagan. «Amerika orzusi» g'oyasi amerikaliklarga motivatsiya ulashyapti, birlashtirib, ularni harakatga keltiryapti. Mafkura masalasi bilan xavfsizlik kengashi shug'ullanadi. Pentagon yaratilayotgan vatanparvarlik mavzusidagi kino va telelavhalar stsenariylarini tasdiqlaydi. Shuning uchun Hollivudda ishlab chiqarilgan har bir kino, mul'tfil'm, videorolikda AQSh siyosati targ'ib qilinadi. AQSh bayrog'i va davlat ramzlari namoyish etiladi. Mafkuraviy vazifalar ijrosi ustidan nazorat nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniyada milliy g'oya nemis millati va davlati birligi negizida shakllangan. Shaxs ma'naviy tarbiyasida asosiy urg'u «nemis milliy xarakteri»ni shakllantirishga qaratilgan. Qat'iy tartib va qonun-qoidalarga rioya etish nemis xalqining eng kuchli jihati hisoblanadi. Barcha OAV milliy g'oyaning targ'ibotchisi hisoblanadi.

Niderlandiyada mafkuraviy jarayonlar Ijtimoiy siyosatni tadqiq qilish kengashi (WRR) tomonidan boshqariladi. Kengash muntazam ravishda muhim dasturlarni tuzish uchun olimlar va fuqarolik jamiyatlarining fikrlarini tinglaydi. Monitoring olib boradi. Davlat telekanallarida qaysi ko'rsatuvlarning namoyish etilishi to'g'risidagi qaror "Netherlands Public Broadcasting" (NPO) tomonidan qabul qilinadi.

Yaponiyada «Millat, Vatan, Taqdir» tushunchalari uyg'un. Maktablarda bizning "Tarbiya" darsiga o'xshagan «Yapon xulqi» fani o'tiladi. Boshlang'ich maktab o'qituvchilari va bog'cha tarbiyachilarining ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus sertifikat olishi majburiy. O'quvchilarga yapon millati ruhini singdirish ularning eng asosiy vazifasidir.

Xitoyda milliy g'oyaga Konfutsiy ta'limoti asos qilib olingan. Maqsad – Buyuk Xitoy davlatini qurishda dunyodagi barcha xitoyliklarni birlashtirish. Tarbiya «Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish» g'oyasi asosiga qurilgan. Mafkuraviy siyosat Xitoy kompartiyasi tomonidan boshqariladi. Internetda g'oyaviy xurujlardan himoyalaniish uchun Xitoy milliy dasturiy

ta'minot tizimi ishlab chiqilgan. "Google" o'rniga "Baidu", "Telegram" o'rniga "WeChat" dan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Koreya Respublikasida milliy g'oyaning asosi koreys millatining o'zligi hisoblanadi. Bu o'zlik urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib boriladi. Koreys tiliga yuksak hurmat shakllangan. Yoshlar tarbiyasida oila asosiy maskan. Tarbiyaning ilk bosqichida onalar farzandlariga koreys milliy an'analarini (salomlashish, kattalarga hurmat...) o'rgatishadi. Veteranlar va vatanparvarlik ishlari bo'yicha vazirlik bor. Vatan uchun qurbon bo'lganlarni hurmat qilish, vatanparvarlik ruhini saqlash va targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Bosh vazifasi – vatanparvarlik qadrlanadigan jamiyatni yaratish. Shu orqali milliy yuksalish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Turkiya mafkurasida zamonaviy turk millatining umumiy o'ziga xosligi: vatanparvarlik, davlat mustaqilligiga sodiqlik, patriarxal asoslar, rahbarni e'zozlash, islomiy o'ziga xoslik va boshqalar bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda milliy va diniy qadriyatlarga tayangan «Yangi Turkiya» mafkurasi shakllanmoqda.

Xulosa:

Har bir o'zbekistonlik

- "Jonajon O'zbekiston – muqaddas Vatan" deb, o'zini vatanparvar tutishi, Vatanni parvarish qilishi, "Milliy o'zlik" deb, o'zini xalqining bir farzandi, xizmatkori deb faxrlanishi;

- O'zbekning go'zal madaniyati, ma'naviyatini namoyon qilish, "Kuch – adolatda", deb bironing haqiga qo'l cho'zmaslik, o'z qonuniy haqini bironga bermaslik kerak. "Xalq roziligi" uchun ishi, mahsuloti, muomalasi bilan boshqalarni o'zidan rozi qilishi, kasbiy, oilaviy, insoniy, ota-onalik, farzandlik burchlarini a'lo bajarishi;

- "Jaholatga qarshi – ma'rifat" deb hayotda, internetda hushyor bo'lishi, o'zini va vatandoshlarini ogohlantirishi, o'zini firibgar va dushmanlarga aldatib qo'ymasligi, jaholat tarqatuvchini ko'rgan joyida tutib, qonun qo'lga topshirishi, jaholatni to'xtatishi, xalqini ma'naviy viruslardan himoya qilishi;

- "Oila va mahalla Vatan ichra vatandir" degan iqrор bilan ota-onasini, qarindoshlarini, mahalladoshlarini, keksalarni e'zozlasin, ularga xizmat qililishi, marosim, ma'rakalarda bel bog'lab shay turishi, yetti qo'shnisi, ularning bolalarining ismlarini bilishi, ularga murabbiy bo'lishi, farzandlarini milliy va ilmiy tarbiyalashi;

- "Innovatsion taraqqiyot" yangiliklarini yaratib yashashi, innovatorlik qilish faqat yangi modda, texnologiya yaratish degani emas. Uyda,

ro'zg'orda, bola tarbiyasida, madaniyatda, muomalada yangi va yaxshi tomonga o'zgarishi, sog'lom turmushga, kitobxonlikka odatlanishi(har bir foydali, xayrli tashabbus ham innovatsiya), har bir ishni ilm, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslanib qilishi hayotimiz sifatini oshiradi.

YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONALARNING O'RNI

***Haqberdieva Dilnoza Kamol qizi,**
Respublika bolalar kutubxonasi matbuot kotibi
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*

***Annotatsiya:** Maqola Yangi O'zbekistonda ma'rfatli shaxs tarbiyasida kitob va kutubxonalarning o'rni muhimligi, davlatning kitobxonlikni rivojlantirish borasidagi siyosati, yoshlarni kitobdan chalg'itayotgan omillar, o'quvchi-yoshlarni kitobxonlikka jalb etishning an'anaviy va yangi usullari haqida.*

***Kalit so'zlar:** ma'rifatli shaxs, kitobxonlik, kutubxona, ma'naviy tahdid, onlayn to'garak.*

Insoniyat ilk so'z belgilari va harf kashf etilganidan buyon o'z tarixini, ma'naviy boyligini, bilimlarini toshlarga, daraxt po'stloqlariga, hayvon terilarga, qog'ozlarga bitib kelgusi avlodlarga qoldirib kelmoqda. Maqsad – ortdan kelayotgan avlod o'zlaridan ko'ra yaxshi yashashi, qalbi pok bo'lishi, vataniga, xalqiga sodiq bo'lishiga erishish. Deyish mumkinki, antik davrlardan bugungi kunimizgacha ana shu harakaat, ana shu ezgu maqsad o'zgargani yo'q. Faqat imkoniyatlar va vositalar misli ko'rilmagan darajada o'zgardi – toshlar va terilar o'rnini kitoblar, kutubxonalar, elektron vositalar egalladi.

Lekin bu taraqqiyot, bu sivilizatsiya inson ongi va hayot tarzidagi qadriyatlarni, axloqiy mezonlarni o'zgartirib yuborayotgani ham sir emas. Bu muammoni o'rganayotgan olimlar, faylasuf va psixologlarning aksariyati asosiy sabablardan biri sifatida odamlarning, xususan yoshlarning kitobdan uzoqlashib borayotganini ko'rsatishadi. Kitobdan uzoqlashish haqida taniqli shoir Eshqobil Shukur shunday yozadi: “Odamzod qancha taraqqiy etmasin, qancha g'aroyib texnik vositalarni o'ylab topmasin, baribir hali o'z tafakkuri tarbiyasi uchun kitobdan yaxshi vositani o'ylab topgani yo'q. Kitob mutolaasi bizga hayotni mutolaa qilishni, insonni va xudoni mutolaa qilishni o'rgatadi. Kitobdan uzoqlashish bu tafakkurdan uzoqlashish,

tafakkurdan uzoqlashish esa, odamning o‘z-o‘zidan uzoqlashishidir.”¹ Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmedov esa bu holga: “Hozirgi zamonda axborot juda ko‘p. Bolalar kattalarga nisbatan ko‘p narsani erta bilayapti, ikkinchi tomondan, kitobdan mahrum bo‘lib borayapti. Bugun biz zamonaviy yo‘llar bilan bolalarga kitobni targ‘ibot qilaveraylik, bunda otana o‘ziga mas‘uliyatni olsa, katta natija berishiga ishonaman. O‘ylaymanki, kitobdan uzoqlashish, o‘zlikdan, tarixdan uzoqlashishdir”², deb ta‘rif beradi. Tomchida quyosh aks etganidek shu ikki fikrdan ko‘rinib turibdiki, uchinchi ming yillik boshiga kelib odamlarning, asosan, yoshlarning ongida axloq mezonlari va insoniy, milliy qadriyatlar o‘zgarishining asosiy sababi kitob o‘qimay qo‘yish ekan. Kitob jamlash, o‘qishga imkon yaratib berish, kitobxonlikka da‘vat qilish vazifasini ma‘lumki, qadimul ayyomdan hozirga qadar avvalo kutubxonalar bajarib kelgan. Buning uchun eramizdan taxminan 2600 yillar avval paydo bo‘lgan ilk kutubxonalardan tortib Abbosiylar davridagi xalifa Ma‘munning “Dorul hikma”sini, Buxorodagi Somoniylar sulolaviy kutubxonasini, G‘aznadagi Mahmud G‘aznaviyga qarashli saroy kutubxonasini, Amir Temurning Shahrisabz va Samarqanddagi saroy kutubxonasini, Mirzo Ulug‘bek kutubxonasini³ eslash kifoya. Bugungi kunga kelib butun dunyoda inson ongi va qalbi tarbiyasi masalasiga an‘anaviy kutubxonalar bilan birga elektron kutubxonalar ham xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda, “hozir kutubxonalar, kitob ahamiyatli emas, elektron kutubxonalar mutolaa ehtiyojini qondiradi” deb fikrlovchilarga bir faktni qayd etib o‘tish juda muhim – texnik jihatdan taraqqiy etgan Yaponiyada 94 foiz, Koreyada 90 foiz kitobxon elektron E-Booklardan ko‘ra kitobning o‘zidan mutolaa qilishni afzal ko‘rar ekan.⁴

Bugun qalbni, aqlni, axloqiy mezonlar va qadriyatlarni zabt etayotgan ommaviy madaniyat, seriallar, shoular, kompyuter o‘yinlari, keraksiz axborotlar, aqidaparastlik g‘oyalarga kitobxonlikni targ‘ib qilish bilan qarshi turayotgan kutubxonalarning o‘rni va vazifasi har doimgidan muhim bo‘lib turibdi. Shu uchun ham mamlakatimizda kutubxonalarni boyitish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash, bu maskanlarga yoshlarni ko‘proq jalb qilish maqsadida Prezidentimiz tomonidan qator qarorlar qabul qilinmoqda. Yurtboshimiz 2019 yil 19 mart kuni bayon etgan 5ta muhim tashabbusning to‘rtinchi yo‘nalishi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilganligi, 2019 yil, 7 iyundagi PQ-4354 sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori⁵, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda 781-sonli “2020 -

2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ana shular jumlasidan⁶.

2023 yil 5 iyulda esa Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuv chog‘ida prezidentimiz Shavkat Mirziyoev kelgusi yetti yildagi rejalariga to‘xtalib shunday degan edilar: “Har yili 100 ta eng yaxshi badiiy asar hamda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 50 ta badiiy kitoblar yaratish uchun ijodiy buyurtma berilib, mualliflarga 100 million so‘mdan qalam haqi to‘lanadi. Bu kitoblar 20 ming nusxadan nashr qilinib, maktablar va kutubxonalarga bepul beriladi. Bunga har yili 200 milliard so‘m yo‘naltiramiz.

Shuningdek, kelgusi yetti yilda kutubxonalarning 40 millionga yaqin kitob fondi to‘liq raqamlashtiriladi va ularning yagona katalogi yaratiladi. Umuman, 2030 yilga qadar mamlakatimizdagi barcha kutubxonalar to‘liq ta‘mirlanadi. Shu maqsadda 500 milliard so‘m ajratamiz”⁷. Shuningdek, kutubxonalar xodimlari ish haqi kelgusi yetti yilda 3 karra oshirilishi va maktab kutubxonachilarining ish haqi pedagog xodimlar oyligiga tenglashtirilishi ham ta‘kidlandi.

Bu degani davlatimizning kitobxonlikni rivojlantirish borasidagi sa‘y harakatlari yangi bosqichga o‘tayotganidan, yoshlarimizni yuksak qadriyatlarga ehtirom ruhida tarbiyalash vazifasini bajarishda davlat, otanonalar, pedagoglar va kutubxonachilar birgalikda ezgu maqsad yo‘lida harakat qilishida yangi istiqbollarni ochilayotganidan darak beradi.

Bular albatta – imkoniyatlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, g‘amxo‘rliklar. Ammo, yoshlarni kitobga jalb etish faqat da‘vatlar bilan yoki kitob sovg‘a qilish bilangina bitib qolmaydi. Shuning uchun Respublika bolalar kutubxonasi o‘quvchi-yoshlarni kitobxonlikka jalb etishning an‘anaviy va yangi usullari qo‘llamoqda. O‘quvchi bilan yuzma-yuz va onlayn muloqot, turli konkurs va tanlovlar, shoir-yozuvchilar bilan onlayn uchrashuvlar, eng yaxshi kitoblarning targ‘iboti va taqdimotlari kabi vositalarlardan foydalanish ham ana shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda kutubxonamizda tashkil qilingan “Ijodkor bolalar” onlayn va offlayn adabiy to‘garagi faoliyatini alohida ta‘kidlashim lozim. To‘garak tashkil etilgandan buyon yosh iqtidorlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy ijod namunalarini muhokama qilish, ularga ijod jarayoni va sirlarini o‘rgatish maqsadida doimiy mashg‘ulotlar o‘tkazib kelinadi. To‘garakning 300 nafardan ortiq a‘zolari o‘rtasida munatazam ravishda “Insholar tanlovi”, “Mushoira kechasi”, “Yilning eng iste‘dodli yosh shoiri”, “Haftaning eng yaxshi kitobsevar bilimdoni”, “Eng iste‘dodli kitobxon”, “Kun hikoyasi” kabi qator tanlov va viktorinalar o‘tkazilib kelinadyotgani katta samara beryapti. Eng asosiysi, to‘garak a‘zolarini ijodkorlikka da‘vat

etish, ijodiy ishlarini rag‘batlantirish ularni kitob mutolaasiga qiziqtirishda muhim rol o‘ynayapti. Hozirga qadar to‘garak a‘zolaridan 51 nafari ijod maktablariga qabul qilingani, ularning 400 dan ortiq she‘rlari O‘zbekiston radiosidan o‘qib eshittirilgani, 160 ta ijodiy ishlari bosma nashrlarda chop etilgani, 1500 dan ortiq ijodiy ishlari ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgani, 10 xil nomdagi kitobxonlik tanlovlari muntazam o‘tkazib kelinayogani, yozuvchi va shoirlar bilan 40 dan ziyod ijodiy uchrashuvlar, 100 dan ortiq she‘riyat kechalari o‘tkazilgani o‘z samarasini bermoqda.

Yoshlarimizning milliy qadriyatlarimizga ehtirom, vatanparvarlik ruhida kamol topishlarida, ular ongini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishda kutubxonalarning, kutubxonachilarning roli va ahamiyati har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Omochdan kosmik kemaqacha yoxud axborot ochko‘zligi» Maqola.* (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/eshqobil-shukur-omochdan-kosmik-kemaqacha-yoxud-axborot-ochkozligi.html>)

2. «Kitobdan uzoqlashish tarixdan uzoqlashishdir». *Suhbat. infolib.* №3.2017.

3. *Sodikova, M. R. “Ilk va o‘rta asrlarda vatanimiz hududida faliyat olib borgan milliy va sulolaviy kutubxonalar, ularning milliy madaniyatimizdagi o‘rni va ahamiyati”.* Maqola. <https://moluch.ru/archive>.

4. <https://islom.uz/maqola/7225>

5. <https://lex.uz/docs/4372449>

6. <https://lex.uz/docs/5160827>

7. <https://kun.uz/news/2023/07/05/shavkat-mirziyoyev>

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING BO‘SH VAQTINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Abdikadirova Nigora Sabirjanovna
O‘zDJTSU, sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif yoshlarning bo‘sh vaqtini o‘tkazish muammolari haqida so‘z yuritadi. Bunda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish borasidagi ishlarni takomillashtirish, ilg‘or xorijiy

davlatlar tajribalarini tahlil qilgan holda, ularni O‘zbekistonga tatbiq etish zaruratiga e’tibor qaratiladi. Yoshlar siyosatining yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi va alohida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmaganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, bo‘sh vaqt, dam olish, madaniyat, sport, sog‘lom turmush tarsi, axborot texnologiyalari, kitobxonlik, vatanparvarlik, ta’lim va tarbiya.*

Ma’lumki, O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati boshqa ko‘plab davlatlar uchun namuna vazifasini o‘tay oladi. Negaki, yoshlar masalasi mustaqillik yillaridan boshlab, o‘tgan 30 yil davomida davlat siyosati darajasidan tushmay kelmoqda. Mazkur davr mobaynida ushbu sohada yetarlicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, yirik davlat dasturlari qabul qilindi, ijrosi borasida esa sezilarli yutuqlarga erishildi. Biroq, tadqiqot natijalaridan ma’lumki, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish borasidagi ishlarni takomillashtirish uchun qator ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalarini tahlil qilgan holda, ularni O‘zbekistonga tatbiq etish zaruratga aylangan. Avvalo, yoshlar siyosatining aynan ushbu yo‘nalishida ilmiy va amaliy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Shuningdek, bu boradagi ishlar alohida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmagan.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2022 yilning 19 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.[1]

Mazkur qarorida ko‘zda tutilgan vazifalar asosida yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab mumkin. Unga ko‘ra, respublikamizdagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, ular o‘ziga birlashtirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirishi belgilangan.[2]

- madaniyat va san’atni targ‘ib qilish;
- sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish;
- axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish;
- ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish;

- tadbirkorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash.

Yuqoridagi ustuvor yo'nalishlarda ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'plab muammolarni tizimli hal qilinishiga bog'liq. Xususan:

I. Madaniyat va san'atni targ'ib qilish yo'nalishi.

Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan: yoshlar yetakchisi «San'at g'unchalari» ko'rik tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha «Yoshlar ovozi», «Yosh musavvirlar» tanlovlari hamda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyot festivalini o'tkazadi, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingan, mazkur muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan, ya'ni bu boradagi mavjud infratuzilmaning holatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Mamlakatimizda o'rta-maxsus ta'lim tizimida 3,8 mln nafar o'g'il-qiz tahsil oladi.

2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Xususan, 2020 yil 26 may kuni "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Prezident farmoni qabul qilinib, bu boradagi asosiy vazifalar belgilandi.

II. Sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish yo'nalishi.

Aytish kerakki, ushbu yo'nalish Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus" doirasida ham asosiy o'rin tutadi.

So‘nggi besh yilda mamlakatimizda 118 ta yangi sport majmuasi foydalanishga topshirildi va 110 tasi rekonstruksiya qilindi. Barcha mahallalardagi yoshlarni sportga jalb etish bo‘yicha ilk bor “besh bosqichli” musobaqalar boshlandi.

10200 ga yaqin umumta‘lim maktablari faoliyat yuritmoqda. 2022 yilda davlat tomonidan 410 mlrd so‘mlik 40 ta yangi maktab qurilgan. Ushbu maktablar qurilishi, mavjudlarining kapital ta‘mirlanishida zamonaviy vorkaut maydonchalarini barpo etishga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Biroq infratuzilma borasidagi eng asosiy muammolar ham aynan sport sohasiga taalluqli. Jumladan, statistik ma‘lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari mavjud bo‘lsada, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emas. Umumta‘lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog‘istonda esa 15 foizni tashkil etadi, xolos.

2022 yil 23 may kuni sportni ommalashtirish va iqtidorli sportchilarni tayyorlash chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida birorta sport turi bo‘yicha mahalliy olimlar tomonidan na metodika, na dastur ishlab chiqilganligi, sport dietologiyasi, farmakologiyasi, psixologiyasi, sport muhandisligi, kardiomashg‘ulotlar bo‘yicha respublikamizda umuman mutaxassislar tayyorlanmayotganligi, bugungi kunda sportchilarni tayyorlash 30 yil oldingi dasturlar asosida amalga oshirilayotganligi davlatimiz rahbari tomonidan keskin tanqid qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022 yil yakuniga qadar 6 million nafar yoshlarni ommaviy sport bilan qamrab olish vazifasi qo‘yilgan.[3] Shuningdek, yil yakunigacha 508 ta mahallada ko‘p funksiyali sport maydonchalari qurilishi qayd etildi. Mamlakatimizda 9349 (ayrim ma‘lumotlarda – 9255) ta fuqarolar yig‘inlari mavjud.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan: yoshlar yetakchisi mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo‘yicha musobaqalarni tashkil etadi, salomatlik uchun 5000 qadam yurish marafoni hamda «Yosh ekolog» aksiyasini o‘tkazadi.

III. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish yo‘nalishi.

Yoshlarni bo‘sh vaqtlarida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishini ta‘minlash, eng asosiysi, ularni internetdagi zararli

xurujlardan asrash dolzarb ahamiyatga ega. Quvonarlisi, bugungi kunga kelib maktablardagi kompyuter sinflari yuqori tezlikda bo‘lmasada, internet tarmog‘i bilan ta‘minlangan. Biroq aholi yashash punktlarining mobil internet bilan qamrab olinganlik darajasi 87% ni tashkil qilmoqda, xolos.

92-sonli Prezident qarorida mahallalardagi yoshlar yetakchilarining «Bir million dasturchi», «Dasturlashga birinchi qadam» loyihalarini amalga oshirishi, kibersport chempionati va «Axborot texnologiyalari bilimdoni» tanlovlarini o‘tkazishi belgilangan.[4]

IV. Ma‘naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish yo‘nalishi.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan: yoshlar yetakchisi «Zakovat» musobaqasi, «Quvnoqlar va zukkolar», «Zukko kitobxon», «Yosh kitobxon», «Yosh kitobxon oila», «Xorijiy tillar bilimdoni» va «Yosh poliglot» tanlovlari hamda «Munozara» intellektual va milliy xalq o‘yinlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi” tasdiqlandi.

Yoshlar ishlari agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra, hududlarga “Ma‘rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 mln dan ortiq kitoblar yetkazib berildi.

Shuningdek, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomdagi 590 ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta‘lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi.

“Yosh kitobxon” respublika tanlovining saralash bosqichlarida 2019 yilda 1mln 200mingdan ortiq yoshlar faol ishtirok etib, Respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan 3nafar yoshlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg‘asi sifatida “Spark” avtomashinasi berildi.

V. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish yo‘nalishi.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan: yoshlar yetakchisi «Yosh chegarachi», «Yosh qutqaruvchi», «Quvnoq startlar», «Temurbeklar», «To‘maris malikalari», «Shunqorlar», «Yosh huquqshunos», «Yosh saylovchi», «Yosh deputat» tanlovlari hamda «Men ham askar bo‘laman» aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etadi.

VI. Tadbirkorlik g‘oyalari qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishi.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan: yoshlar yetakchisi «O‘zbekiston uchun 100 g‘oya» va «Mahallaning ishbilarmon tadbirkori» tanlovlari, «Biznesga birinchi qadam»

grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etadi.

Bundan tashqari yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkillashtirishda quyidagi yo'nalishlarda ham faoliyatni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega:

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkillashtirish orqali istiqbolli siyosiy kadrlarni tayyorlash yo'nalishi.

Siyosiy xususiyatlarga boy va jamoatchilik orasida yuqori obro'e'tiborga ega yoshlarni aniqlash, mahalliy davlat hokimiyati organlari saylovlarida deputatlikka potensial nomzod sifatida tayyorlash, shuningdek, siyosiy partiyalar tomonidan Xalq deputatlari va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik nomzodiga "yoshlar kvotasini" shakllantirish ham maqsadga muvofiq.

Bu borada markaziy hududlarda yoshlarning muqobil kanallar orqali ham huquqiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularda chekka tumanlarga nisbatan huquqiy madaniyatni yuqoriroq bo'lishi ta'minlanayotganligini e'tiborga olgan holda, chekka tumanlardagi yoshlar o'rtasida olib borilayotgan huquqiy targ'ibot tadbirlarni kengaytirish mumkin.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash yoshlarning ijtimoiy tarbiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda ijtimoiy tarbiyaning quyidagi uch jihatiga katta urg'u beriladi:

1. Yoshlarning o'z imkoniyatlarini oshirishi, qobiliyatlari va iqtidori bo'yicha o'z ustida ishlashishiga qaratilgan bo'sh vaqtni tashkil etish texnologiyalari e'tibor qaratish va ushbu yo'nalishdagi shaxsiy sifatlarini pedagogik nuqtai nazardan tarbiyalash;

2. Ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishda yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar orqali yoshlarning intellektual salohiyati, bilim darajasi, tabiat, ekologik muhit va insoniylik sifatlarini, kommunikativ va ijodiy salohiyatini oshirib borish va rag'batlantirish;

3. Ijtimoiy tarbiyasining asosi bo'lgan axloqiy tarbiya va gumanistik sifatlarini oshirishga qaratilgan texnologiyalarga e'tibor qaratish.

Umuman olganda, aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan yo'nalishlar va ular asosidagi tadbirlarning muvaffaqiyatli ijrosi mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga, pirovardida esa ularning bandligini ta'minlashga, yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyatining rivojlanib borishiga, inson kapitalining oshishiga ham xizmat qiladi.

Yoshlar o'rtasida madaniyat va san'atni targ'ib qilish borasidagi ishlarning samaradorligi joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarning moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini to'liq tahlil qilgan holda, ularning faoliyatini yaxshilashga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy tarmoq va messendjerlarni bloklash yo'lidan borish emas, balki ularni foydali, ma'rifiy axborotlar bilan to'ldirish va ularni ommalashtirish zaruratga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli qarori. 2022 yil 19 yanvar www.lex.uz

2. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 19.01.2022 yildagi PQ-92-son. <https://www.lex.uz/docs/5831865>

3. <https://review.uz/uz/post/sportchilarni-professional-tayyorlash-boyicha-yangi-tizim-joriy-etiladi-Shavkat-Mirziyoyev-raisligida-otkazilayotgan-yigilishdan-asosiylari>.

4. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 19.01.2022 yildagi PQ-92-son. <https://www.lex.uz/docs/5831865>

HUKUMATIMIZ TOMONIDAN "SAHOVAT UYLARI", "MEHRIBONLIK UYLARI"GA KO'RSATILAYOTGAN E'TIBORNING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Badalbayeva Irodaxon Habibulayevna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti

Annotasiya: Mazkur maqolada hukumatimiz tomonidan "Saxovat uylari", "Mehribonlik uylari"ga ko'rsatilayotgan g'amho'rliklarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, olib borilayotgan islohotlarning falsafiy tahlili va ularning mohiyati to'g'risida fikr yuritilgan

Kalit soʻzlar: “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”, “Saxovat”, “Muruvvat” uylari, ijtimoiy himoya, ijtimoiy koʻmak, nogiron shaxslarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, “Nurli maskan” maktablari, “yopiq” dunyo, “Saxovat va koʻmak” jamgʻarmasi

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlashning yangicha tizimini shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

2022 yilda hukumatimiz tomonidan olib borilgan gʻamhoʻrliklar ifodasi sifatida davolanish maskanlarida sogʻlom hayotga qaytgan yoshi ulugʻ insonlar va nogiron shaxslar 43 ming nafardan oshdi, oʻzgalarning parvarishiga muhtoj boʻlgan yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga taqdim etiladigan bepul oziq-ovqat va gigiyenik vositalar soni 19 tagacha koʻpaytirildi, nogiron shaxslarga beriladigan bepul protez-ortopediya hamda reabilitasiya texnik vositalar roʻyxati 27 tagacha oshirildi.

Muhtaram Prezidentimiz “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi” nomli kitobida: “Nuroniylar otaxon va onaxonlarimizga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlarni koʻrdik. Yosh avlodimizni barkamol, el-yurt uchun fidoyi insonlar qilib tarbiyalashda biz muhtaram nuroniylarimizga tayanamiz” deb, davlat boshqaruvida nuroniylarning ham oʻrni beqiyosligini taʼkidlab oʻtadi.

Har yili odam savdosi iskanjasiga tushib qolgan minglab insonlarni psixologik, tibbiy reabilitasiya va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash maqsadida qatʼiy oʻrnatilgan chora-tadbirlar koʻrib kelinmoqda. Birgina, 2021 yilning oʻzida

1024 nafar fuqaroga tibbiy va ijtimoiy koʻmak berilgani fikrimizni isbotlaydi.

Mamlakatimizda Tibbiy va ijtimoiy xizmat koʻrsatishda ayrim tashkilot va muassasalar faoliyati lozim darajada yoʻlga qoʻyilmaganligi va ulardagi mavjud kamchilik va muammolar yoshi ulugʻ keksalarimiz va nogiron boʻlgan insonlarga koʻrsatilayotgan gʻamhoʻrliklar va moddiy-maʼnaviy yordamlar koʻlamini kengaytirish va ularni samarali hal qilishga toʻsqinlik qilib kelgan. Jumladan:

Birinchidan, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi davlat qaramogʻidagi shaxslarga tibbiy-ijtimoiy xizmat koʻrsatishni boshqarish tizimiga yetarlicha eʼtibor qaratilmagan edi;

Ikkinchidan, tugʻilajak farzandlarda nogironlikni erta aniqlash, nogironlikni oldini olish va nogiron boʻlgan shaxslarga tibbiy reabilitasiya sifati qoniqarli darajada boʻlmagan;

Uchinchidan, yoshi ulug' keksalarimiz va nogiron bo'lgan insonlarga qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan muassasalarda tibbiy hamda ijtimoiy yoki moddiy-texnika holati yuzasidan ko'plab muammolar saqlanib qolgan edi;

To'rtinchidan, mazkur muassasa xodimlarining moddiy rag'batlantirish tizimi davr talabiga javob bermagan;

Beshinchidan, ushbu muassasalarda ko'ngillarni ko'taruvchi ma'naviy-ma'rifiy kechalar va madaniy tadbirlarni tashkil etishda yetarlicha muammolar mavjud bo'lgan;

Oltinchidan, odam savdosi iskanjasida qolgan jabrdiydalarga ko'rsatilgan tibbiy hamda ijtimoiy reabilitasiyalar xolati va psixologik yordam sifati zamon talabi darajada bo'lmagan.

Mana shunday muammolarni bartaraf etish xalqimizning munosib va farovon hayot kechirishlari maqsadida so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshi ulug' ota-onalarimiz va nogiron bo'lgan yurtdoshlarimizni ijtimoiy himoya qilish va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqib ularni amalga oshirish maqsadida:

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasi bilan Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi shuningdek, uning tarkibida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish Agentligi va hududiy bo'linmalari tashkil qilindi.

Mazkur qarorda ustivor vazifalar aniq qilib belgilab berildi:

Mazkur agentlik yoshi ulug' keksalar, nogiron shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholining boshqa qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanishi va faoliyati bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga bo'ysungan xolda har yili hisobot berishi;

Agentlikning direktorini hamda uning o'rinbosarlarini Prezident tasdiqlashi va lavozimdan ozod etishi ham bu sohaga Yurtboshimizning o'zi nazoratga olishi ham Yangi O'zbekistonda saxovat tushunchasining davlat darajasiga ko'tarilganligiga yana bir misoldir.

Qarorga muvofiq agentlik tizimiga quyidagi muassasa va tashkilotlar o'tkazildi:

a) "Muruvvat" va "Saxovat" uylari, nogiron bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilish va protezlash milliy markazi va ularning hududiy markazlari, urush qatnashchilari va mehnat faxriylari uchun dam olish pansionatlari va sanatoriylar, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va hududdagi uning bo'linmalari, odam savdosidan

jabrlanganlarga ko‘mak berishga ixtisoslashgan Respublika reabilitasiya markazi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi “Muruvvat” va “Saxovat” internat uylari (byudjetdan tashqari) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda nogiron shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi.

Mazkur agentlikning vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1. Yoshi ulug‘ keksalar, nogiron shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining boshqa qatlamlari tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasi bo‘yicha ustivor davlat siyosatini izchil davom ettirish;

2. “Saxovat” va “Muruvvat” uylarining keksa hamda nogiron bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatish faoliyatini samarali va tizimli tashkil etish va uni boshqarish;

3. Keksalar, nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda tashkilot va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirgan holda ularga uslubiy rahbar bo‘lish;

4. nogiron shaxslarni davolashda tibbiy va ijtimoiy reabilitasiya qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish hamda mutaxassislar tayyorlash ishlarini tashkil etish;

5. protez-ortopediya buyumlariga muhtoj bo‘lgan shaxslarni doimiy va tizimli ravishda texnik vositalar bilan ta‘minlash faoliyatini yangicha yondashuv bilan davom ettirish;

6. tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda olingan natijalarni ilg‘or tajriba va xorijiy rivojlanish tendensiyalariga asoslangan holda tahlil qilish va doimiy monitoring tahlilini qilib borish;

7. odam savdosidan jabr ko‘rganlarni tibbiy-ijtimoiy himoyaga olish va reabilitasiya qilish va ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash;

“Saxovat” va “Muruvvat” uylarida amalga oshirishni nazarda tutuvchi vazifalari ham belgilab berildi:

1. yoshi ulug‘ keksalar va nogiron shaxslarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ularni sog‘lomlashtirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun munosib sharoitlarni yaratish va ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni ta‘minlash;

2. nogiron shaxslar, shuningdek, bolalarni ijtimoiy himoyaga olish va ularni ma‘naviy qo‘llab quvvatlash, o‘zlarining iqtidoridan kelib chiqib o‘zlari tanlagan ixtiyoriy kasb-hunarga yo‘naltirish va o‘rgatish;

3. sog‘liqni saqlash tizimidagi yetuk mutaxassislarni jalb etish, ularga dastlabki tibbiy yordamni ko‘rsatish, keksalar yoshdagilar va nogiron

shaxslarni yiliga ikki marta dispanserizasiyadan o'tkazish, ixtisoslashtirilgan sanatoriylarda va pansionatlarda davolanishlarini tashkil qilish;

4. keksa yoshdagilar va nogironlarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitasiya vositalari ya'ni eshitish uskunalari, nogironlik aravalari va yurish moslamalari, gigiyenik vositalar bilan ta'minlab borish, bundan tashqari, ularni ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali munosib hayotga qaytarish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

5. yurtimizdagi qadamjolar va diqqatga sazovor dam olish zonalari va ziyoratgohlarga tashriflar uyushtirish;

6. odam savdosidan jabr ko'rganlarni yashash uchun qulay va gigiyena vositalar bilan ta'minlagan holda sharoitlar yaratish, shuningdek, ularga oziq-ovqat, dori-darmon va tibbiyot jihozlari bilan ta'minlash;

7. odam savdosi vabosidan jabr ko'rganlarga o'zi tanlagan ixtisoligidan kelib chiqib kasb-hunarga o'rgatish va ularga munosib ish o'rinlari yaratishga ko'maklashish kabi bir qator ustivor vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan mazkur islohotlarning ijtimoiy-falsafiy negizida Yangi O'zbekistonni erkin va baxtli odamlar yashaydigan qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, nuroniy keksalarimiz va yangi jamiyatning navqiron avlodlariga munosib hayot sharoitlari, keng imkoniyatlar yaratish yotadi.

Shuningdek mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlardan biri ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining ehtiyojmand qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatiga aylangan. Aslini olib qarasaq, bu ishlar jonajon xalqimizning savobli ishlarining mantiqiy davomidir.

Mazkur davlat siyosati orqali so'nggi yillarda mamlakatimizda yangi tizimli ishlar amalga oshirildi. Unga muvofiq, Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi 1 ming 500 ga yaqin bolalar oilalarga farzandlikka berildi, 116 ta "Oilaviy mehribonlik uyi" tashkil etilib, 700 nafarga yaqin murg'ak bolalar ota-onalar bag'rida kamol topishi uchun sharoit yaratildi.

Birgina, 2021 yilda esa 757 nafar ko'ngli yarim bolalarga davlat tomonidan uy-joylar berildi. Davlat byudjeti tomonidan 4 mingdan ortiq bolalarda murakkab jarrohlik operatsiyalari amalga oshirildi. Eshitish qobiliyati zaif bo'lgan 555 nafar bolalarga koxlear implant jihozlari bilan ta'minlandi. 4 ming nafar ko'zi ojiz bolalarga Brayl alifbosi bepul yetkazib berildi.

Shuningdek, bolalikdan nogiron hamda nogironli boʻlgan shaxslar oyligining 2 million 500 ming soʻmgacha qismi daromad soligʻidan ozod etildi. Ish beruvchi korxonalar tomonidan nogiron boʻlgan shaxslarga toʻlanadigan ijtimoiy soliq summalari byudjet hisobidan toʻliq qaytarib berilmoqda. Bundan tashqari, pensiyalar va nafaqalarning eng kam miqdori 40 foizga oshirildi. Nafaqa oluvchilarning umumiy soni 2016 yilda 466 ming nafar boʻlgan boʻlsa, 2022 yilda 1 million 860 ming nafarga yetkazildi.

Bundan tashqari, Ulugʻ Vatan urushi qatnashchilariga 9 may arafasida bir martalik 15 million soʻm pul mukofoti berildi. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan sohaga oid quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Jumladan, Birinchi, nogiron boʻlgan ehtiyojmand aholini qoʻllab-quvvatlash maqsadida 2022 yil 1 maydan boshlab ularni ishga olgan korxonalarga 6 oy mobaynida har bir bunday xodimlari uchun 400 ming soʻmdan subsidiya mablagʻi ajratildi;

Ikkinchidan, oʻzini oʻzi ish bilan band qilgan va hunarmandchilik bilan shugʻullanuvchi nogironlarga kerakli asbob-uskunalar va mehnat qurollarini sotib olishlari uchun subsidiya mablagʻlari ajratilishi belgilab qoʻyildi va ular kasb-hunarlariga davlat hisobidan bepul oʻqitilishi yoʻlga qoʻyildi;

Uchinchidan, nogiron boʻlgan shaxslar bilan ishlovchi nodavlat korxonalar va tashkilotlar va ularning boʻlinmalari xodimlariga oylik toʻlash maqsadi uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi;

Toʻrtinchidan, koʻzi ojiz va koʻrish qobiliyati cheklangan bolalarni toʻliq taʼlimga qamrab olish maqsadida “Nurli maskan” maktablarida qoʻshimcha 850 ta oʻquv xonasi va 1 ming 200 ta nafar oʻquvchiga moʻljallangan yotoqxonalar tashkil etildi. Shuningdek, davlat buyurtmasi asosida mazkur maktabning kutubxonasi Brayl yozuvidagi darslik va oʻquv qoʻllanmalar, badiiy adabiyotlar bilan toʻliq taʼminlanishi;

Beshinchidan, tegishli vazirliklarga maktab yoshigacha boʻlgan ojiz bolalarga bosqichma-bosqich bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etildi;

Oltinchidan, yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan talabalarga oziq-ovqat va kiyim-kechak xaridi uchun 10 million soʻmdan ajratish amaliyoti nodavlat oliygohlarda ham joriy etildi;

Yettinchidan, 376 ta Saxovat va Muruvvat uylari, maxsus maktab-internatlarni taʼmirlash va ularni jihozlash boʻyicha 600 milliard soʻmlik alohida davlat dasturi qabul qilindi.

Xulosa oʻrnida, mehribonlik uyidan ketib, mustaqil hayotga qadam qoʻygan yoshlarning boshi berk koʻchaga kirib qolishi, ularni tergaydigan,

to'g'ri yo'lga soladigan yaqinlari nazorati yo'qligidan juda ko'p xatolarga yo'l qo'yishi va bu adashishlar ularga juda qimmatga tushishi ham achchiq haqiqat. Eng yomoni bu yerda tarbiyalanuvchilar o'zining "yopiq" dunyosiga o'ralib qolganligida... Ularning taqdiriga, peshonasiga bir kemptikli ta'nali yoziq yozilganligida va bu "tamg'a" ularni umr bo'yi ta'qib qilishida... Mehribonlik uyida sharoitlar yaxshi, lekin tarbiyalanuvchilarning 18 yoshdan keyingi mustaqil hayotiga ko'maklashuvchi mas'ul idoralarning mas'ulligi yetarli emas.

Ajdodlarimiz necha yillik asrlar davomida jannatmakon yurtimizda ahil va hamjihat, insoniy qadriyatlar e'zozlab yashab kelgan. Xozirda ham tabiatning o'zi xalqimizni ana shunday hayot kechirishga chorlayotganini ta'kidlash zarur. Bugungi murakkab va shiddatli zamonda, bir tomondan pandemiya balosi xali nari ketmagan, ikkinchi tomondan dunyo mamlakatlaridagi notinchlik, radikalizm, terrorizm, odam savdosi va giyohvandlik kabi illatlarning yengib o'tish xalqimizning matonati, sabr-bardoshi, hamjihatligining mustahkamligiga bog'liqdir. Zero, taraqqiyotga - faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi.

Bugun biz tarixiy davrning yangi bosqichi — xalqimiz o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, o'z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og'ir va sinovli kunlarda ham hamjihatlik bilan yana taraqqiyot sari odimlab borayotgan pallada yashayapmiz.

Mumtoz adiblarimizdan birida bunday bayt keladi: "Kimda gar saxiylik odati yo'qdir, Yaxshilik kutmoqning hojati yo'qdir". Bir hakimdan "Kishining barcha hunarlarini yo'qqa chiqaradigan narsa nima?" deb so'radilar. U esa "Baxillik", deb javob berdi. Yana undan "Kishining barcha ayblarini berkitadigan narsa nima?" deb so'radilar. U esa "Saxiylik", deya javob qaytardi.

Odatda saxiylikni ko'proq badavlat odamlardan kutamiz. Aslida har birimiz imkoniyat darajasida saxovat ko'rsatishimiz insoniy burchimizdir. Qolaversa, saxovatning ko'p yoki ozi bo'lmaydi. Shunday ekan, qalbimizda saxiylikni yuksaltirib borish g'oyat muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumoti 2021 y.*
2. *Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahridagi 102-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatdagi fikr-mulohazalaridan. 2022 yil 8 aprel*

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisa Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr

4. Abay - Ibrohim Qo‘nonboyev - XIX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod etgan qozoq she‘riyatining mash‘ali, bastakor, faylasuf va qozoq yozma adabiyotini asoschisi, ma‘rifatparvar shoir

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., 2021 yil

6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma‘ruzasidan. 2022 yil 29 aprel.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-5038-son qarori

MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH – DAVR TALABI

Rajabova Sanobar Sabirovna

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 3-MFChO‘IMI

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishda maktab va oilaning o‘rni, amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, ma‘naviyat, barkamol inson, ta‘lim muassasalari, samaradorlik

Har qanday jamiyatning kelajagi unda kamolga yetayotgan yoshlarning qay darajada ma‘rifatli va ma‘naviyatli shaxs sifatida kamolga yetayotganiga bog‘liq. Donishmandlarimiz inson ma‘naviyati masalasiga jamiyatning asosi deya baho berganlar. Shu sababli jamiyat har bir a‘zosining xulqi-odobiga alohida e‘tibor berilishi bejiz emas. Asrlar davomida bu mavzuda qanchadan qancha asarlar yaratilgan. Muqaddas Qur‘oni Karimda, hadislarda barkamol inson axloq-odobiga oid qimmatli ma‘lumotlar o‘z aksini topgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi minglab asarlar axloq ilmidan saboq beradi.

Inson hayot yo‘lida turli xil sinovlarga uchraydi. Ular turli ko‘rinishda, har xil darajada bo‘lishi mumkin. Hayot yo‘lidagi to‘siqlarni qay taxlit

bartaraf qilish, dovonlardan qaysi yo‘l orqali oshib o‘tish, hayot sinovida nechog‘lik jasorat ko‘rsata olish har insonning olgan ta‘lim-tarbiyasi va uning irodasiga bog‘liq.

Bugungi globallashgan zamon, fan-texnika asrida o‘quvchi-yoshlar ma‘naviyati jamiyatning muammoli masalalaridan biriga aylanmoqda. Ularning, ustozga va kattalarga behurmatlik, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil bachkana qiliqlar, ommaviy madaniyat ko‘rinishlari, vandalizm– bu illatlarning yoshlar orasida keng ommalashayotgani nihoyatda achinarli holdir.

Ta‘lim muassasalarida keng qamrovli, tizimli ravishda tashkil qilinayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar samaradorligini yanada oshirish zarurligini bugungi voqelik ko‘rsatib turibdi. Savodsizlik tugatilganiga ancha yillar bo‘lgan. Hamma o‘qish-yozishni biladi, lekin...

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi sifatida shu jarayonning bevosita ishtirokchisi bo‘lganimiz uchun maktabdagi shu bilan bog‘liq muammolarga to‘xtalmoqchi edik.

Jaholatning davosi- bilim, kitob. Yoshlarning kitob o‘qishga qiziqishini oshirish uchun qilinayotgan ishlar sezilarli natijasini bermoqda, lekin yoppasiga kitobxon millatga aylanishimiz uchun ancha ishlar qilinishi zarur.

Maktab o‘quvchilaridan uylarida shaxsiy kutubxona bor-yo‘qligi so‘ralganda 30 nafar o‘quvchi ta‘lim oladigan sinfdan 8 nafar o‘quvchidan ijobiy javob olingani achinarli hol. O‘quvchilarga hafta davomida pul tejab (saqich, chips, pepsi kabilardan) o‘zlarining shaxsiy kutubxonasi uchun ilk kitoblarni xarid qilish, ularga sotib olingan sanasi va imzosini qo‘yish va shu tariqa oilalarda kutubxonalar tashkil qilinishiga rag‘bat uyg‘otish ham bu borada sezilarli turtki bo‘la olishiga amalda guvoh bo‘ldik.

O‘quvchi-yoshlar orasida kitobxonlikni urfga aylantirish hayotiy zarurat sanaladi. Tuman markazlaridagi hashamatli kutubxonalarga qatnovchilar sonini faqat qog‘ozda emas, amalda oshirish vaqti keldi. O‘quvchilarni jalb qilish uchun kreativ yondashuv shart. Shundagina xorijdagi kabi turnaqator navbatlar kutubxonalar eshigi oldida paydo bo‘ladi.

Qishloq hududlarida yashaydigan aksariyat oilalar boquvchisi-ota tirikchilik uchun xorijda, farzandlar esa ona tarbiyasida. Farzandlar qo‘lida zamonaviy rusumdagi telefonlar, afsuski, ba‘zi onalar shu telefonlar orqali fanzandining qayerlarga “kirib-chiqib” yurganini nazorat qilish u yoqda tursin, o‘zining qo‘lidagi oddiy tugmachali telefondan to‘liq foydalanishni bilishmaydi ham. Ba‘zida sinf rahbarlariga farzandini kechasi nazorat qilib

berishini so‘rab murojaat qilayotganlarini eshitganimizda muammoning ildizi qayerda ekanligi birmuncha oydinlashganday bo‘ladi. Turli xil internet o‘yinlarga berilib ketgan, kecha-yu kunduz telefon ekraniga termulib umri o‘tayotgan, soxta obro‘ uchun video olaman deb turli xil xunuk holatlarga tushib qolayotgan yoshlar tarbiyasi, aksariyat hollarda, faqat maktab zimmasiga tushib qolishi maktablarning ta‘lim dargohi muqaddas joy ekanligi kabi qadriyatga aylangan tushunchalarni shiddat bilan yo‘q qilib yuborayotganiga siz-u biz holis guvoh sifatida kuzatuvchisiga aylanmoqdamiz.

Tarbiya, ma‘naviyat oiladan boshlanishi kerak degan tamoyil hamma oilalarga taalluqli bo‘lmay qolmoqda. Sababi kundalik maishiy ehtiyojlar hayotimiz uchun zaruriyligi jihatdan birinchi ehtiyojga aylanib borayotganodadir. Erta-yu kech ishlab topgan pullarimizni orzu havas uchun sarflash bilan ovora bo‘lib, kelajagimiz ertasi bo‘lgan bolalarning ta‘lim tarbiyasi singari muhim ehtiyojimiz, ikkinchi darajali ehtiyojlar qatoriga qo‘shilishi farzand va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarning uzoqlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Aksariyat oilalarda, oila a‘zolarining bir-biridan begonalashuvining guvohi bo‘lamiz. Har bir oila a‘zosi televizor oldida soatlab band yoki qo‘lida uyali aloqa vositasi bilan o‘z hududiga berkinib olishi natijasida o‘zaro sovuq munosabatlar namoyon bo‘lmoqda. Ayrim oilalarda ota-ona ertalabdan kechgacha tirikchilik tashvishida jamiyatning turli jabhalarida ish bilan band. Bir-birini tushunmaydigan, samimiy suhbatlar o‘rnini sovuqqina zaruriy savol-javobli dialoglar egallamoqda. To‘g‘ri, biz axborot texnologiyalari asrida yashayapmiz. Biroq, shuni unutmasligimiz lozimki, tarbiyada loqayd bo‘lsak, farzandlarimizni yot oqimlar-u, begona madaniyatlar ta‘siriga qo‘sh-qo‘llab topshirib qo‘yamiz.

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlardagi salbiy illatlarga qarshi kurashda o‘qituvchilar zimmasiga juda mas‘uliyatli vazifa yuklanadi. O‘z axloqiy burchini to‘g‘ri angelaydigan, o‘z xatti-harakatlariga baho bera oladigan, noto‘g‘ri xatti-harakatni qoralaydigan o‘quvchigina ma‘naviyatli inson bo‘lib kamolga yetadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, oilalarda sog‘lom ma‘naviy, axloqiy muhit hukmron bo‘lsa, maktablarimizda ma‘naviy tarbiya takomiliga yetsa, kutubxonalarimizdagi navbatlar uzaysa, jamiyatimiz mustahkam bo‘ladi, mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to‘kinlikning barqarorligi ta‘minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. –Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 252.

2. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-қисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. /Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқалар. – Тошкент: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – Б. 256. (2020 йил, январь)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

B.R. Chariyev
mustaqil tadqiqotchi

Bugungi jahondagi va mintaqamizdagi keskin o‘zgaruvchan harbiy-siyosiy vaziyat, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar kuchayayotgan bir davrda O‘zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy potensialining o‘sishi hamda milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan dadil harakatlari ayrim yot kuchlar tomonidan jiddiy ko‘rinmas to‘siqlarga va qarshiliklarga uchramoqda. Shu sababli, bugungi zamonaviy siyosiy ziddiyatlar, rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi turli xil axborot xurujlari, dunyoning turli nuqtalarida diniy ekstremistik va terroristik harakatlar avj olayotgan bir davrda, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa va xavfsizlik qobiliyatini rivojlantirish, milliy va davlat manfaatlarini himoya qilish, chegara makonida xavfsizlikni ta‘minlash Qurolli Kuchlarning eng dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu esa, davlatning hududiy yaxlitligini, mustaqilligini va xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha konstitusiyaviy huquq va majburiyatlarini to‘laqonli amalga oshirilishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimini shakllantirishda va rivojlantirishda uni qurol-aslaha va texnik jihozlashdan tashqari, asosiy e‘tibor soha harbiylarini yuqori bilim va salohiyatga ega malakali mutaxassis bo‘lishi bilan bir qatorda, yuksak ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlikka ega hamda Vataniga sadoqatli kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Ma‘lumki, o‘tgan davrda uzoq yillar davomida harbiy sohada, ayniqsa, kadrlar ta‘minoti va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya masalalarida,

yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qator tizimli muammolar yig'ilib qolgan. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi bugungi zamon talablariga hali to'la javob berishi uchun davr bilan hamnafas bo'lmog'imiz lozim, kerak bo'lsa, vaziyatni oldindan ko'ra bilishimiz global dunyo talablari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash tizimi Qurolli Kuchlar tizimida tubdan farq qilib, ushbu tarmoq mutaxassislari maxsus tayyorgarlikka, kreativ fikrlash qobiliyatiga, nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish xususiyatiga, psixologik barqarorlik darajasiga ega bo'lishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimi tarixidan ma'lumki, bunday o'ziga xos kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yishning davr sinovlaridan o'tgan normativ-huquqiy asoslari hamda amaliy tajriba natijalari mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.09.2022 yildagi PQ-371-son qarori bilan **Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovor ruhini oshirish Konsepsiyasi tasdiqlangan.** Ushbu Konsepsiyada boshqa muhim vazifalar qatorida turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini yuksaltirish, harbiy jamoalarda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlar tizimidagi kadrlarni yuksak ma'rifatli va ma'naviy qurollangan mutaxassis sifatida tayyorlash bilan bog'liq tizimli muammolar yechimini topish orqali sog'lom tafakkurga ega dunyoqarashlar va metodologik yondashuvlar birligiga asoslangan kadrlar siyosatining uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish hamda kadrlar bilan ishlash jarayonini modernizasiya qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va uni muttasil takomillashtirib borish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kundagi ijtimoiy hayotning barcha bo'g'inlariga bozor munosabatlarining dadil kirib kelishi, olib borilayotgan mafkuraviy siyosatning hali talab darajasida emasligi, yot "ommaviy madaniyat" targ'iboti ta'siri natijasida yoshlar orasida ma'naviy va milliy qadr-qimmatlar deformasiyasi kuzatilmoqda. Jamiyatdagi bu kabi holatlar Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar tomonidan tanlanib, harbiy xizmatga o'rganilayotgan nomzodlar dunyoqarashining shakllanishi, ularda vatanparvarlik hislarining uyg'onishi hamda mafkuraviy immunitetning mustahkamlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu kabi salbiy holatlar harbiy ta'lim muassasalari ayrim kursantlarida ham kuzatilishi, ayniqsa, tashvishli holdir. Bu holatlar esa kelgusida harbiy xizmatchining oldiga qo'yilgan strategik va taktik vazifalarni bajarishda jiddiy muammolar va tahdidlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish dolzarb bo'lib, bu quyidagi o'ziga xos yo'nalishlarda faoliyatlarni jadallashtirishni taqozo etadi:

kursant va tinglovchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish va ularni ma'naviy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va dinamikasini kursantlar va tinglovchilar tushunishini va o'z faoliyatiga moslashtirgan holda, kasbiy o'sish va rivojlanishga intilishini oshirish;

kursant va tinglovchilar doimiy asosda axloqiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy tayyorlash, shuningdek, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlari va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, sodir bo'layotgan hodisalarga daxldorlik va Vatan taqdiri uchun ularda javobgarlik tuyg'usini mustahkamlash;

kursant va tinglovchilar ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega yosh ofiserlarni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, jismonan sog'lom va barkamol avlod etib tarbiyalash uchun yetarli sharoitlar yaratish;

kursant va tinglovchilarning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

Respublika harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ular o'rtasida turli xil sport musobaqalarini faollashtirish, ularning intellektual va madaniy (badiiy-estetik) saviyasini oshirish maqsadida kitobxonlikni targ'ib qilish, jahon ilm-fani, san'ati namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish orqali zamonaviy fikrlaydigan, bilim va dunyoqarashi keng, bugungi kun talablariga javob beradigan harbiy kadrlarni tayyorlash.

Qurolli Kuchlar tizimida o'tkazilayotgan islohotlar va ularning keng qamrovliligini doimiy ravishda yetkazish va unda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash;

harbiy xizmatchining jamiyatda yuqori obro'-e'tibori, shaxsiy namunasi, shu bilan birga, xavfsizligi, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik va huquqiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash.

Ta'kidlash lozimki, harbiy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan kursantlarning belgilangan o'quv dasturidagi fanlarni qanchalik sifatli o'zlashtirishi, zamonaviy qo'shinlarni mohirona boshqarishi kelajakdagi harbiy mutaxassislar uchun chambarchas bog'liqligi hammamizga ayon. Shu bilan birga, harbiy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan yosh ofiserlarning ma'naviy dunyosining shakllanishi, ularning mafkuraviy immunitetining qanchalik bardoshliligi, Vatanga sadoqati ular o'rganayotgan harbiy ilmlar bilan yanada mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida birlashtirilgan ustozlar (kurs, fakultet rahbarlari) hamda professor-o'qituvchilar har bir kursantning va tinglovchining kelajakdagi kasbiga sadoqati, yurtiga va xalqiga fidoyi shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun mas'uliyat hissini chuqur anglashi lozim.

Alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda internet orqali yoshlarning tarbiyasiga kuchli salbiy ta'sir qilayotgan ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yot g'oyalar, saviyasi past madaniy mahsulotlar ularning shaxs sifatida shakllanishida va kelgusida harbiy xizmatga jalb qilishda jiddiy to'siqlarni yaratmoqda.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'ida avj olib borayotgan terrorism, turli ekstremistik qarashlar va buzg'unchi g'oyalar, tekshirilmagan va bo'htondan iborat axborotlar oqimining erkin almashinuvi, ulardan g'arazli kimsalarning o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinishlari odatiy holga aylanib borayotgan ushbu vaziyatda milliy-ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanmagan, yot g'oyalarga berilgan yoshlardan vatanparvar, o'z xalqi va millatiga sodiq kadrlarni yetishtirib chiqarish juda katta muammo hisoblanadi. Ushbu toifa yoshlarning siyosiy-huquqiy tafakkuri buzilgan, ongi deformatsiyalashgan hamda uning ijtimoiy-madaniy muhit va qadriyatlarga amal qilmasligi kuzatiladi. Bizningcha, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlarni mukammal shaxs qilib yetishtirish oson kechadi, chunki uning siyosiy bilimini oshirish, yot g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, Vatan himoyasiga zarur kadr qilib tarbiyalash qiyin kechmaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyev alohida to‘xtalib, ushbu yo‘nalishni yanada takomillashtirish bo‘yicha aytgan fikrlari oliy harbiy ta‘lim muassasalari uchun konseptual va amaliy ahamiyat kasb etadi: “Ayni vaqtda shaxsiy tarkib o‘rtasida milliy o‘zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Shu maqsadda yosh askar va kursantlar uchun harbiy qasamyod qabul qilishdan avval “O‘zbekiston tarixi” fani va “Temur tuzuklari” kitobi bo‘yicha sinov o‘tkazish tartibini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir”.

Darhaqiqat, mamlakatimiz rahbariyatining Qurolli Kuchlar tizimi oldiga qo‘ygan vazifalarini samarali amalga oshirish hamda har qanday vaziyatda o‘z xizmat majburiyatlarini to‘la-to‘kis bajarishi bugungi axborot asrida har qachongidan ham dolzarb ekanligini yon-atrofdagi qo‘shni davlatlarda bo‘layotgan voqeya-hodisalar ko‘rsatmoqda.

Shu bois, kadrlarni tanlash, o‘qitish, o‘rgatish va tarbiyalash ishlarini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama yetuk va vatanparvar yoshlarni Qurolli Kuchlarga jalb etishga qaratilgan mutaxassislarini tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

bir tomondan, bugungi zamonaviy tahdidlar va ularning yoshlarimiz ongiga, ma‘naviy dunyosiga ta‘sirini e‘tiborga olgan holda, ikkinchi tomondan, eskicha mexanizmlar bilan ishlash jarayonida sarflanayotgan ortiqcha resurslarni ratsionallashtirish zaruratidan kelib chiqib, harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralash va o‘rganishning yangi mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq.

Shu orqali biz har tomonlama yetuk, vatanparvar, ma‘naviy dunyosi shakllangan, zamonaviy bilimlarni egallagan, Vatan himoyasi ishiga o‘z hayotini bag‘ishlashga tayyor fidoiy yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish kabi asosiy maqsadimizni samarali va natijali ro‘yobga chiqarishga erishamiz.

O‘ZBEKISTON YOSHLARINING HUQUQIY ONGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Y.O. Ernazarova – *falsafa fanlar bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent*

A.D.Hojiyev – *mustaqil tadqiqotchi*

Bugungi kunda dunyo aholisining 26,3%ni, mamlakatimiz aholisining 60%dan ortig‘ini yoshlar tashkil qilmoqda. Ushbu raqamlar O‘zbekistonda yoshlar masalasi nihoyatda dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” deb ta’kidlagandi.

Yoshlarimizning davlat va jamiyat institutlari, boshqa fuqarolar bilan munosabatlarini ratsional tashkil qilishi ulardan yuqori huquqiy ong va madaniyatni talab qiladi. Shu sababli, ushbu tezisda ayrim xorijiy mamlakatlarning yoshlar huquqiy ongini oshirish bo‘yicha tajribalari tahlil qilindi.

Xususan, AQShda yoshlar huquqiy ongini oshirishga qaratilgan alohida umummilliy dasturlar qabul qilinmagan. Ammo, AQShda huquq va qonunga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish yoshlarning bolalik davridan boshlanadi hamda huquqiy savodxonlik xalq ta’limi muassasalari orqali shakllantiriladi. Keyingi huquqiy bilim berish jarayoni jamiyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlar orqali, ya’ni, yuridik jamiyatlar, huquqiy assotsiatsiyalar va huquqiy yordam fondlari orqali amalga oshiriladi.

AQSh Kongressining yoshlar xizmati tomonidan huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshiriladi. Ular doirasida 100 ga yaqin 16 yoshdan katta bo‘lgan kollej talabalari Kongressda stajer yoki kurer bo‘lib ishlaydi.

Bundan tashqari, “Amerika legioni” va “Amerika yordam legioni” NNT mahalliy darajada shtat va federal hokimiyat ishlari bilan talabalarni tanishtirishga yo‘naltirilgan dasturlarga homiylik qiladi. “Amerika legioni” har bir shtatdan talabalar qonunchilik jarayonidagi o‘yin tarzidagi mashg‘ulotlarda ishtirok etadigan “Millat o‘g‘illari” nomli yozgi dasturga homiylik qiladi. “Amerika yordam legioni” qizlar uchun shu kabi “Millat qizlari” dasturlarini amalga oshiradi.

Shuningdek, AQShda 1971 yilda professor O'Brayn tomonidan "Street Law" maxsus dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, unda "O'smir, jinoyatchilik va jamoatchilik", "O'qitishda o'yin shaklidagi sud jarayonlarini o'tkazish", "Inson huquqlari hamma uchun" o'quv-uslubiy majmualari tayyorlangan. Hozirgi paytda "Street Law" AQShning 50 ta shtatida o'quv qo'llanma va dastur sifatida o'qitiladi.

Yaponiyada yoshlar huquqiy ongini oshirishga qaratilgan umummilliy dasturlar qabul qilinmagan. Ammo, yoshlar siyosatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 2010 yil aprelda "Bolalar va yoshlar rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishiga yordam to'g'risidagi" akt qabul qilingan. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi kotibiyati qoshida maxsus Boshqarma tashkil qilingan, unga Bosh vazir boshchilik qiladi.

Yaponiyada yoshlar rivojlanishiga ko'maklashish, jinoyatchilikni oldini olish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar markazlari tashkil qilingan. 2013 yilda butun mamlakatda 703 ta bu kabi markazlar faoliyat yuritgan bo'lsa, ulardan 45 tasi (6,4%) Bosh maslahat markazlari maqomiga ega bo'lgan. Ular tomonidan 2011 yilda 220 mingta yoshlar, ota-onalar va maktablar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgan.

Yaponiya huquqiy madaniyatida turli kelishmovchiliklarni sudlarsiz hal qilishga ya'ni, o'zaro yarashuvga ustivorlik beriladi. Yaponlar yarashuv yo'li bilan bir qarorga kela olmasa, shundagina Arbitraj sudga yoki kelishmovchiliklarni hal qiluvchi suddan tashqari Markazga murojaat qilishadi. Ularning o'zaro yarashuvga bo'lgan hurmatini yuqoriligini Yaponiyada 22 000 ta (AQShda 1 mln.) advokat mavjudligidan ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, Yaponiyada har 100 ming aholiga 22 ta litsenziyalik yurist to'g'ri keladi bu boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda kam. Masalan, Germaniyada Yaponiyadan 9 marta, Buyuk Britaniyada 10 marta, AQShda 17 marta ko'pdir.

Xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida kuzatildiki, yoshlar huquqiy ongini oshirishda ularning parlament bilan hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Xususan, Belgiyada "Gloublink" NNT Antverpenda o'qituvchilar bilan hamkorlikda maktablarda yoshlar (15-18 yosh) uchun "Mahalliy parlament" tashkil qilgan. Har yili Senat Bryusellik 80 ta bola ishtirokida "Bolalar dunyosi" aksiyasini o'tkazadi. Har yili "Bola huquqlari kuni" munosabati bilan parlament va Bolalar Fondi bilan hamkorlikda parlament a'zolari hamda yoshlar (15-20 yosh) o'rtasida suhbat tashkil qiladi. Shuningdek, parlamentda "Demokratiya portali" mavjud bo'lib unda bolalar va yoshlar "haqiqiy" siyosiy arboblarning singari "o'yinlar"da ishtirok etadi.

Fransiya universitetlari saytida (*masalan: Lill 2 universitetida*) “Ombudsman sizning xizmatingizda” xizmati joriy qilingan bo‘lib, unga talabalar, ota-onalar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar murojaat qilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Gresiyada har yili parlament qoshida “Yoshlar parlamenti” tashkil qilinadi, unga yoshi 16 da bo‘lgan 300 ta yosh qabul qilinadi. Ushbu parlamentga kirish uchun yoshlar qator protseduralardan (*masalan, esse yozish*) o‘tadilar. “Yoshlar parlamenti” sentabr boshida 3 kun davomida faoliyat olib boradi. Shuningdek, ular Gresiya parlamenti komissiyalari ishlarida va yig‘ilishlarida ishtirok etadilar.

Italiyada Deputatlar palatasiga har yili 100 mingga yaqin talabalar tashrif buyuradi. Deputatlar palatasi va Ta‘lim vazirligi hamkorlikda “O‘qish kunlari” tadbirlarini o‘tkazishadi. Har hafta o‘rta maktabning katta sinflari yil davomida parlament faoliyatini o‘rganadi va palata deputatlari bilan uchrashadi. Senat kutubxonasi parlament to‘g‘risidagi bosma va elektron kitoblar yarmarkasini o‘tkazadi. Shuningdek, “Senatda bir kun” dasturi ham amalga oshiriladi.

Malayziyada “Yoshlar parlamenti” (113 ta a‘zo)da 18-30 yoshdagi yoshlar faoliyat yuritadi. U bir yilda 3 marta o‘tkaziladi va har bir sessiya 3 kun davom etadi. “Yoshlar parlamenti” rasmiy saytida 15-40 yoshdagi fuqarolar saylovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega. Nomzodlarga 2 hafta mobaynida rasmiy sayt orqali saylovlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston yoshlarining huquqiy ongini oshirishga yo‘naltirilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini ta‘minlashda, xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

- hozirigi kunda respublikamizda mavjud bo‘lgan “Yoshlar parlamenti” tajribalaridan hududlardagi viloyat, tuman, shahar mahalliy deputatlar kengashlari doirasida ham unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Bunda mahalliy deputatlar kengashlari yig‘ilishlarida yoshlarning muntazam ishtirokini tashkil etish va natijalarini OAVda yoritib borish;

- Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, oliy ta‘lim muassasalari rasmiy veb-saytlarida yoshlar uchun “Ombudsman sizning xizmatingizda” yoki “Huquqiy maslahatlar” xizmatlarini joriy qilish;

- parlament saytida alohida “demokratiya portali” yaratish (unda turli masalalarni muhokama qilishda yoshlarning “haqiqiy” siyosiy arboblar singari “o‘yinlar”da ishtirok etishlarini joriy etish) maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi mamlakatimizda yoshlarning huquqiy ongi yanada rivojlanishiga, ularning davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini chuqurroq anglashiga ko‘maklashadi.

MA'NAVYIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING TA'SIRCHANLIGINI YANADA OSHIRISHNING SAMARALI SHAKL, USLUB VA VOSITALARI

Xudaybergonova Anabibi Qurbanbayevna

TTA Urganch filiali Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i.

Annotasiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror saqlash, yoshlarni turli qiziqarli tadbirlarga uzluksiz jalb qilish, milliy qadriyatlarimizni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish natijasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'sirchanligi oshirish va yoshlar ongida milliy g'oyani singdirishning turli shakl va texnologiyalari keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Vatanparvarlik, ta'lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy g'oya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ona tili, xalq, ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.*

Mustaqillik yillarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy ijtimoiy subyekti – targ'ibotchi ziyolilar guruhlarini shakllantirildi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan ziyolilar jalb qilingan holda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat ta'sirchanligini oshirish, yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishning turli shakl va texnologiyalari ishlab chiqildi.

Hozirgi davrda jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror saqlash va uni yanada yuksaltirishda aholini, ayniqsa yoshlarni turli qiziqarli tadbirlarga uzluksiz jalb qilish juda muhim rol o'ynaydi. Tadbirlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi ruhiy individuallikni bartaraf etadi, shaxslarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Ommaviy sport, kitobxonlik bilan bir qatorda ushbu tadbirlarning tarkibiy qismi sifatida milliy o'yinlarimizni ham tavsiya etish mumkin.

Milliy o'yinlarimiz – bolalarni hayotga tayyorlovchi benazir maktab. Milliy o'yinlarimiz ota-bobolarimizni abjir, chidamli, irodali, dovyurak qilib tarbiyalagan. Chunki o'yin orqali irodani charxlab, turli shartli hayotiy to'siqlarni, "raqiblar"ni o'z kuchi bilan yengib o'tishga o'rgatgan. Chiniqtirgan. O'yinlarda mardlik rag'batlantirilib, g'irromlik qoralangan. Xullas, o'yinlar bolalarni katta hayotga tayyorlash, kurashishga, yengishga o'rgatishning o'ziga xos mashqlari vazifasini o'tagan. Shu tariqa o'zbek bolalar o'yinlari milliy tarbiyaning ajralmas sharti bo'lib xizmat qilib kelgan.

O'zbek xalqi o'yinlarning bolalar yoshiga, jinsiga mos o'nlab turlarini ijod qilgan. Olimlar ularni buyumli o'yinlar, buyumsiz o'yinlar, doimiy, kalendar o'yinlariga bo'lishadi. "Yashin-topoloq",

“Pakka”, “Qora ko’rdim”, “Quvlashmashoch”, “Yashinmashoch”, “To’p oti”, “Lappak”, “Besh tosh”, “Xola-xola”, “Bobo taka”, “Oq terakmi-ko’k terak”, “Chori chambar”, “Shapalak” va h.k. Xorazmning, Farg’ona vodiysining, Samarqandu Surxondaryo, Qoraqalpoq bolalarining o’ziga xos o’yinlari bor. Ular bolalarning xarakteri, jismoniy va ma’naviy shakllanishi uchun “mashq maydoni” vazifasini bajargan. Bolalarimiz do’stlik, mardlik, qiynalib bo’lsa-da g’alabaga erishishning ilk nashidalarini tuyishgan.

Milliy qadriyatlarimiz qatorida bolalarimizning milliy o’yinlarini ham sobiq sho’rolar “eskilik sarqiti” deb kamsitdi. Faqat mustaqillik bolalarimiz o’yinlarini “oqladi”. “O’zlikka sodiqlikda gap ko’p ekan, – deb yozadi bu haqda professor M.Quronov. – “Mustabid sho’rolar davrida ham o’zbek o’zining milliy, insonparvar bolalar o’yinlarini saqlab qoldi. Bugun jahon uni o’rganishga kelayotir! Yapon pedagoglari o’smirlarining kompyuter ludomaniyasiga berilib, harakatsizlikdan sog’liqlarini, ma’naviy tahdidlardan o’zliklarini yo’qotayotganliklarini ko’rib, chora qidira boshlashibdi. Chunki bu millat kelajagini xavf ostiga qo’yishi mumkin. Ular yosh yaponlar avlodi sog’lig’ini saqlab qolish davosini qidirib-qidirib... O’zbekistondan, Forishdan topishdi. Shaharu qishloqlarimizni kezib, bolalarimiz “zamonaviy emas”, deb o’ynamay qo’yg’an harakatli o’yinlarni o’rganib, to’plab, olib ketib, o’zlarining superzamonaviy bolalariga o’rgatishayotgan ekan. Sababini so’rashsa: “Zamonaviy bolalar o’yinlari haddan ortiq texnokratlashib ketgan. Ularda insoniy ruh, joziba, zavq, tuyg’ular kam. Shuning uchun bolalar harakatli o’yinlarga qiziqishmayotir. Insoniy ruh, joziba,zavq, tuyg’ularning barisi o’zbek milliy bolalarining o’yinlarida bor”, – debdi yapon pedagogi”.

Intellektual o’yinlar bolalardagi o’yinlar bilim, aql-zakovatning yanada ortishiga, shaxs dunyoqarashining kengayishiga, o’zligini anglashiga,barkamollik sari intilishiga yordam beradi.

Shu bilan birga intellektul o’yinlardan milliy ma’naviyatni targ’ib qilishda keng foydalanish mumkin. Masalan, “Zakovat”, “Intellektual ring”, “Qilni qirq yorib”, “Oltin toj”, “Mo’jizalar maydonchasi”, “O’yla, izla, top”, “Zinama-zina”, “7x7”, “Bilimdon” o’yinlari va boshqa shu kabilar ana shunday o’yinlar qatoriga kiradi. “Zakovat” intellektual teleo’yini. U 2001 yilda tashkil etilgan. Bu o’yinda ko’plab savollar orqali yoshlarimiz, aholi orasida milliy g’oya targ’ibotiga xizmat qilmoqda. Misol uchun, ilk o’yinning birinchi savoli quyidagicha edi: 1980 yillari O’zbekistonda Navro’zga qarshi hujum boshlangandi. Odamlar eski udumlarga berilishmasin, har xil irimlar qilib tog’lardagi qayrag’ochlarga lattalar bog’lashmasin deb, o’sha

daraxtlarni kestirib tashlaganliklarining ham guvohimiz. O'sha daraxtlar ostidan buloqlar chiqardi. Negadir qayrag'ochlar kesilgach, buloqlarning ham ko'zlari bekilib ketgan. Nega shunday bo'lgan?

(Javob: buloqlarning bekilib qolishiga sabab, ildizlar qurigach, o'z-o'zidan tuproq ham qota boshlagan. Shuning hisobiga buloqlar ko'zi yopilib qolgan.)

Buning milliy ma'naviyat, g'oyamiz targ'ibotiga qanday aloqasi bor? Gap shundaki, avvalo, bunda sovet tuzumi tomonidan amalga oshirilgan vayronkorlik qoralanmoqda, ya'ni "Navro'z bayramini yo'qotish uchun" daraxtni kesish oqibatida buloq suvining ham qurib qolishi, shu orqali o'zbek xalqining ham suvsiz, ham toza ekologik muhitsiz, ham qadriyatsiz qolishiga olib kelgani ko'rsatib beriladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarali, amaliy-intellektual turlaridan biri **rolli o'yinlar**dir. Bunday o'yinlar sirasiga "Adolat o'lkasiga sayohat", "Maktab o'rtoqlik sudlari", "Rasmiy tashrif", "Xalqaro

brifing", "Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish", "Kasbiy faoliyatimning ilk kuni", "Mehmon kutish", "Oromgoh (ta'lim muassasasi) hayotidan bir lavha", "Mo'jizalar maydoni" va hokazolar kiradi.

"Rolli o'yin" metodi – ishtirokchilar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. "Rolli o'yin" metodida ishtirokchilar moderator tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etadi. Rollarni o'ynashda har bir ta'lim ishtirokchining individual xarakteri, ma'naviy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ishtirokchilarning bilim o'zlashtirish darajalariga mos bo'lishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda yangi g'oyalarni targ'ib qilib, ularni amalga oshirishga motivasiyani shakllantirishga yordam beradi.

Turli xil tadbirlar orqali milliy ma'naviyatni singdirish. Mavjud ma'naviy-ma'rifiy adabiyotlar tahlili ushbu masalaning ma'naviy jihatlari hali to'liq yoritib berilmaganini ko'rsatadi. Tadbirlar mazmuni albatta har bir korxonalar, jamoa, ta'lim muassasalarining xususiyatlariga bog'liq. Ta'lim muassasalaridagi tonggi saflanish, mehnat jamoalaridagi majlis va yig'ilishlar, to'y va marosimlar, harbiylar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning saf yig'ilishlari ham ma'naviyat targ'ibotini tashkil qilishning faol shakllari bo'la oladi. Chunki bu tadbirlar davomida ma'naviyatimiz, milliy g'oyamizning bosh va asosiy g'oyalari hamda ularning bugungi kundagi ro'yobi haqida so'z yuritilib, ishtirokchilar rag'batlantiriladi, shavqlantiriladi.

To'y va marosimlarning ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlarini ilmiy tadqiq qilish holati ham qoniqarli emas. Asrlar davomida ular jamiyat ma'naviy hayotining keng tarqalgan, o'ziga xos, xalq hayot tarziga, kelajagiga ta'siri kuchli shakllari bo'lib kelmoqda. Bu tadbirlarda aholining turli qatlamlari ishtirok etadilar. To'y marosimlarida otaxonu onaxonlarning qiladigan duolari, aytilayotgan fikrlar ma'naviy qadriyatlarimizga uyg'un.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar: davra suhbatlari, seminarlar, treninglar, konferensiyalar, bayram tadbirlari, anjumanlar, ko'rgazmalar, iqtidorli talabalar bilan ishlash, ijrada yashovchi talabalar bilan ishlash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy g'oyani targ'ib qilish eng avvalo samimiyat talab etiladi. Shundagina uning samaradorligi yuqori bo'lishi va maqsadga erishilishi mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tadigan joylar to'g'ri tanlanishi kerak. Tadbir o'tishi belgilangan joy ko'rimsiz bo'lmasligi lozim. Agar tadbir o'tadigan joy zamonaviy texnologiyalar vositalari bilan jihozlanmagan bo'lsa, bu ishtirokchilarning ma'ruzachi targ'ib qilayotgan g'oyalarga qiziqishini susaytiradi. Tadbirga mo'ljallangan joylar qanchalik tantanavor jihozlansa, ishtirokchilarda ham g'urur, faxrlanish tuyg'ulari paydo bo'ladi hamda o'tkaziladigan tadbirning samaradorligi ortadi. Bu joylarni jihozlashda milliylik va zamonaviylikka e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Umuman, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda yuksak samaradorlikka erishishda "Tadbir samaradorligining o'n sharti"ga rioya qilinishi shart.

Davra suhbatlari– aylana stol atrofida o'rtaga tashlangan muammo va savollar yuzasidan ishtirokchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirishlariga asoslangan uslub. Bunda hamma o'z fikrini erkin bildirish huquqiga ega. Bugun suhbatni moderator boshqarib boradi. Davra suhbat mavzulari rang-barang bo'lishi mumkin. Odatda, eng dolzarb masalalar mavzu sifatida tanlanadi va uning yechimi qidiriladi.

Daftarlar, kundaliklar, darsliklar orqali milliy g'oya targ'iboti. Har bir daftarning muqovasida insonlarni ezgulikka, ilm olish va ma'rifatparvarlikka, mehnatsevarlik va vatanparvalikka, yurt tinchligiga daxldorlik va ijtimoiy hamkorlikka, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka chorlaydigan hikmat va maqollar, she'r va hadislar, fan, texnika, adabiyotni rivojlantirishga hissa qo'shgan allomalar, mutafakkirlar, buyuk siymolar, tarixiy shaxslar, davlat arboblari, yozuvchi va shoirlarning

suratlarini, ular haqida qisqacha ma'lumot, ularning hikmat darajasiga yetgan so'zlarini berish maqsadga muvofiqdir.

2009 yilgacha mamlakatimiz ichki bozoriga har yili Xitoy, Turkiya, Qozig'iston, Rossiyadan millionlab daftarlar, kundalik daftar, umumiy daftar va rasm daftarlari kiritildi. Ushbu daftarlar muqovasidagi milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan rasmlar orqali yoshlarimizga "ommaviy madaniyat" elementlari, shafqatsizlik va boshqa g'arb mamlakatlariga xos bo'lgan xislatlar tarqala boshladi. Bu o'z-o'zidan mamlakat jamoatchiligi, ayniqsa, ziyolilar, ota-onalarni tashvishga solib qo'ydi. Natijada Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 18 sentyabrdagi 234-sonli "Iste'mol bozorini yozuv daftarlari bilan ta'minlashni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ishlab chiqildi.

2010 yilda milliy ma'naviyatimizga mos bo'lgan, sifatli daftarlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada respublika matbaa korxonalaridan 2010 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida muqovalariga milliy qadriyatlarimizga mos suratlar joylashtirilgan, buyuk bobokalonlarimizni hikmatli so'zlari yozilgan 54,7 mln dona maktab daftarlari, 26 mln dona umumiy daftar, 4,8 mln dona rasm daftar hamda 4,6 mln dona kundalik reyting daftari, jami 90,1 mln dona daftar mahsulotlari ishlab chiqarilib, iste'mol bozoriga taqdim etildi.

Ko'rgazmali vositalar (baner, plakat, devoriy lavhalar, devoriy gazetalar). Targ'ibot samaradorligini oshiradigan eng asosiy jihatlardan biri ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish, tadbirlarda shiorlar, tasviriy san'at asarlari, hikmatli so'zlar, diagramma, xarita va rasmlar, multimediya asarlari, slaydlarni unumli ishga solish targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshiradi.

Kitobxonlik targ'iboti. Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish, ularni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash, dunyoqarashini kengaytirishning eng muhim vositalaridan biri – kitob.

Kitob ma'naviy-ma'rifiy funksiyalarni bajarib, qalbni yumshatadi, xotirani, fikrlash qobiliyati va miya faoliyatini yaxshilaydi, insonga hayotda aniq maqsadni anglash va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, ezgulikka undaydi. Aholi, ayniqsa yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturida alohida yo'nalish sifatida belgilab berildi.

"Odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko'p gapiramiz. Lekin bu borada engoddiy va

ayni paytda eng ta'sirchan vosita – bu kitob emasmi? Men shunga aminman – kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

Albatta, hozirgi vaqtda axborot-kommunikasiya sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda, televideniye, radio, internet, kompyuter, mobil telefon kundalik hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Biz ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Buning uchun kitob nashri, kitob savdosi bilan bog'liq ishlarimizni tanqidiy ko'rib chiqishimiz kerak. Ta'lim-tarbiya muassasalari, idora va tashkilotlar, mehnat jamoalarida shu masala bo'yicha turli tanlov, festival va aksiyalar, kitob bayramlarini tashkil etishimiz kerak. Mavjud axborot-resurs markazlarini boyitish, kutubxonalar yo'q joylarda ularni tashkil etishimiz lozim.

Ushbu siyosatning izchil davomi sifatida 2017 yil 13 sentyabrda Respublika Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari. Ota-bobolarimiz pand-nasihatlar, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, buyuk jasorat sohiblarining botirliklari, xalqimizning milliy urf-odatlar, yuksak axloqiy fazilatlarimiz san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va xalq og'zaki ijodining boshqa janrlardagi namunalari o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodidan ma'naviy-ma'rifiy ishlada faol foydalanish zarur.

Ushbu yo'nalishda respublika miqyosida to'rt bosqichli tanlov va festivallar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Eng yaxshi maqolchi”, “Eng yaxshi ertak aytuvchi”, “Eng yaxshi dostonchi”, “Eng topqir bola”, “Eng qiziq askiya guruhi”, “Eng sho'x laparchilar”, “Xalq qo'shiqlari ustasi” kabi nominasiyalarni o'z ichiga olgan ko'rik tanlov o'tkazish mumkin.

Bularning barchasi bugungi kunda Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini, ayniqsa, milliy g'oyani chuqur singdirishda o'ziga xos xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Quronov. *Ezgu g'oyalar ro'yobi*. T.: "Ma'naviyat", 2011. – 136-138-betlar.
2. M.Quronov va boshqalar. *Tadbir samaradorligining o'n sharti*. T.: "Ma'naviyat", 2006.
3. M.Quronov. *Targ'ibot tamoyillari*. – T.: "Ma'naviyat", 2015. – 11-20-betlar.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz*. Toshkent. O'zbekiston. 2017. B-114

YANGI MA'NAVIY MAKONDA MILLIY RUHNI YARATISH MASALALARI

Sharipov Dilshod Baxshilloevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi,

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan ishlab chiqilgan "ma'naviy makon" atamasining ilmiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlari, tengsiz ahamiyati va bunda milliy ruhning o'rni haqida ayrim mulohaza va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, yangi ma'naviy makon, milliy ruh, uzluksiz ta'lim, shaxs, ma'rifatli shaxs, taraqqiyot, reyting, top 1000talik, oliy ta'lim, oliy ta'lim tashkiloti, innovatsion makon, bayroq, ma'naviy-axloqiy muhit, hissa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarining "Ma'naviy taraqqiyot" bobida "Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar" belgilangan. Unda "Yangi ma'naviy makon" quyidagicha ta'riflangan: "Yangi uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir. Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir"[1].

Insoniyat tarixidan va zamonaviy rivojlangan davlatlar davlatchilik qurilishidan ma'lumki, ma'naviy makon deganda, avvalo, ilmiy-tadqiqot

erkinligi makoni, ilm-fan mustaqilligi ta'minlangan, shaxs yuzaga chiqishi uchun yaratilgan teng va adolatli makon, taraqqiyot, fikr taraqqiysi ta'minlanadigan, ijtimoiy ravnaq va farovonlik olib keladigan, barcha fuqarolar uchun bir xil va qulay bo'lgan qadriyatlar makoni tushuniladi. Taraqqiyot, jumla taraqqiyot, ma'naviy makondan paydo bo'ladi. Ma'naviyat va ma'naviy ong jumla taraqqiyotni asoslaydi, xuddi, ma'naviy makonni yaratgani kabi.

Ma'naviy makon bo'lsagina ma'rifatli shaxsni tarbiyalash mumkin. Bunda ulug' ajdodlarimizning ilm va din makonlari bo'lgan markazlarga borib tahsil olishgani yaqqol dalildir: bunga o'rta asrlardagi Xorazmda tashkil qilingan Ma'mun akademiyasi, g'arbda "arab olimlari" deya e'tirof etiladigan markaz – Bog'dod akademiyasi kabilarni misol qilish yetarlidir.

Bundan tashqari, hozirgi kunda ilg'or xorijiy tajriba namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, AQSHda shakllangan ilmiy va aql markazlari hisoblangan oliy ta'lim tashkilotlarini olish mumkin. U erda bir universitet bir ilmiy maktab deganidir. Xalqaro tan olingan QS – Quacquarelli Symonds World University Rankings (rasmiy veb sayti: www.topuniversities.com) tashkiloti tomonidan e'lon qilingan oliy ta'lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatiga kiritilgan hamda ta'lim to'g'risidagi hujjatlari to'g'ridan-to'g'ri (sinovlarsiz) tan olinadigan oliy ta'lim muassasalarining 2022-yil uchun ro'yxatida dastlabki o'ntalikning 7 tasi AQSH OTMlari bo'lib, 1-o'rinda MIT – Massachusetts texnologiyalar instituti (Massachusetts Institute of Technology (MIT)), 3-o'rinda Stenford universiteti, 5-o'rinda Garvard universiteti, 6-o'rinda Kaliforniya texnologiyalar universiteti, 10-o'rinda Chikago universiteti egallagan. Buyuk Britaniyaning 4 ta OTMsi esa: 2-o'rinda Oksford, 4-o'rinda Kembridj, 7-o'rinda London imperial kolledji, 9-o'rinda UKL (UCL) egallagan, 8-o'rinda Shveysariyaning Syurix-Shvetsiya federal texnologiyalar instituti (ETH Zurich – Swiss Federal Institute of Technology) mavjud. Singapurning 2 ta OTMsi 11-o'rinda Singapur Milliy universiteti (National University of Singapore (NUS)) va 12-o'rinda Nanyang texnologiyalar universiteti (Nanyang Technological University (NTU)) egallagan. Bundan tashqari, yillar davomida AQSH va dunyo olimlari markazi hisoblangan 3 ta OTM farqlanadi: Chikago, Yeyl/Prinston, Garvard universitetlari, Britaniyadagi London iqtisod va siyosat maktabi ham Oksford, Kembridj kabi anchayin e'tiborga molik mumtoz ilm markazlaridan biridir. Bularning barchasini keltirishdan maqsad ham ilm-fan va ta'limning o'ziga xos "Xab" – markazi bo'lgan bu kabi OTMlarida erkin shaxs tanlovi, ta'limda, ilm-fan yaratishda, turmush tarzida, hamma narsani hal qiladi. Talabani tanlovi mustaqil va har doim o'z kuchiga ishonishga, ta'lim

olishga (masalan, internet ma'lumotlariga ko'ra, AQSHda ijtimoiy-gumanitar sohada o'qiydigan talaba haftasiga 500 bet material o'qishi kerak ekan) va qisman mehnat qilib (ham o'qib, ham ishlab), mustaqil bo'lishga yo'naltirilgan. Ko'pgina manbalardan ma'lumki, AQSH universitetlari yotoqxonasiidagi xonasida AQSHlik talaba o'z davlat bayrog'ini o'rnatib qo'yadi; sport va olimpiada musobaqalaridan ko'ramizki, (yengil) atletlarining kiyimiga butunligicha davlat bayrog'i tushirilgan bo'ladi.

Shubhasiz, bunda kichik emblemalar bilan katta bayroqlarni olib bo'lmaydi, albatta. Biz, milliy ruhni yaratish borasida gapiryapmiz, unga uzluksiz ta'lim, xususan, oliy ta'lim orqali qaysi davlatlar qanday darajalarga erishganini ko'rsatmoqchimiz, xolos. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu masalada shunday ta'kidlaydilar: "Mening qat'iy ishonchimga ko'ra, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish – bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir" [1].

Vatan tuyg'usini yetkazish/singdirishning eng yaxshi usuli – "Bu mening Vatanim!" deya shaxsning o'zi iqror bo'lishidir, bunga esa uzluksiz ta'lim tizimida shaxsni tarbiyalashni maqsad qilishdan erishiladi. Bundan tashqari, "El-yurt umidi" jamg'armasidan ko'pgina yoshlarimiz foydalanishyapti, va albatta, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilib berishlari kerak. Shuningdek, dunyodagi eng zo'r oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishning o'zi buyuk bir natija bo'lishi bilan birga u yerda ta'lim beradigan vatandoshlarimiz ko'paysa va yurtimiz oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yishsa, Bolonya deklaratsiyasi talablari darajasiga chiqishimizga ko'maklashilsa, eng ulug' ishlardan bo'lardi. Chunki Yevropada va Bolone deklaratsiyasiga a'zo davlatlardagi akademik mobillik orqali yoshlar boshqa xalqlar madaniyatini, tarixini, hamki rivojlanganlik darajasini turmush tarzlarini qiyoslash orqali anglaydi, servis tizimi va shaxsiy kompetensiya nimaligini fahmlaydi. Inson insonga xolis xizmat qilish orqali mablag', kar'era qilishini va hayot tarzini qurishini idrok etadi, o'zini kelajakda nima ish qilishi va qaysi yo'ldan borishini belgilab oladi. Albatta, bunda ilm umumiydir, o'rgangannikidir, o'zlashtirgan kishinikidir. Bunday masalalarda ayrim yoshlarimiz ancha puxta va aniq rejalarga ega.

Ma'lum malakalar, fikrlar, uqtirma va bilimlarning mag'zi ayni yoshlik chog'ida olinadi, shu paytdan shaxs shakllana boshlaydi, fikrga va mustaqil nuqtai nazarga intiladi. Bunda ahli ilmlar orasidagi "ustoz-shogird" yo'nalishi nomigagina bo'lmasligi kerak. Taraqqiyotning asli ong taraqqiysidir, agarki, u ma'naviyat, milliy ruhiyat bilan sug'orilgan bo'lsa. Milliy ruhni aynan shunday vatanparvar, asl o'g'lonlar yaratadi. Milliy ruh[2]

milliy salohiyat va qudratni aks ettiruvchi omilki, taraqqiyot omiliki, bunda Vatan tuyg'usi va bag'rikenglik, ijtimoiy farovonlik va ma'rifat, jamiyat bosh bo'g'iniga, taraqqiyparvarlik g'oyasiga aylanishi darkordir. Albatta, bularning barchasi ta'limning mag'zi, buguni, mavjudligining asosi va kelajagidir.

Shunday qilib, ma'naviy makonning negizi uzluksiz ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqot ishlari bo'lishi kerak. Chunki muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'riflarida 4ta xususiyat ko'rsatildi: 1. Eng rivojlangan jamiyatlar talablariga javob beradigan; 2. Erkin fikrli; 3. Zamonaviy; 4. Innovatsion makon – bularning barchasi OTM kompetensiyasiga to'g'ri keladiki, pirovardida yurtimizdan top 1000talikka kirib, undan yuqoriroq pozitsiyani egallaydigan OTMlar yuzaga chiqishi kerakligini ko'rsatadi. Qabul qilinishi nazarda tutilgan “O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot strategiyasi”[1] va uni “amalga oshirish Dasturi”da va “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi” va uni amalga oshirish “Milliy Dasturi”da yuqoridagilar inobatga olinishi joiz, deb bilamiz.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Faylasuflar jamiyati va tegishli vazirlik, idoralar homiyligi va hamkorligida “Ma'naviyat ensiklopediyasi” (kamida 2 jildilik), “Ma'naviy taraqqiyot ensiklopediyasi”, “Milliy g'oya va ma'naviyat ensiklopediyasi”, “Milliy g'oya va geosiyosat” ensiklopedik lug'ati, “Geosiyosat asoslari”, “Taraqqiyot falsafasi”, “Sivilizatsiya va renessans”, “Etika” kabi milliy manba, darsliklarni qayta yaratish va oliy ta'limga qayta joriy etish fursati yetildi, deb hisoblaymiz. Ushbu masalalarni hal qilish zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual-nazariy asoslari va amaliy faoliyat mezonlarining ilmiy asoslari bo'lib xizmat qiladi, albatta. Shubhasizki, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bu masaladagi tanqidiy tahlillari o'rinlidir: “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparlik tarbiyasi, xalqimizning ezgu ideallari va oliyjanob maqsadlariga sadoqat g'oyalari shior darajasidagina qolib, milliy g'oyaning jahon tajribasidan o'tgan umuminsoniy qonuniyatlari va O'zbekistonga xos zamonaviy tamoyillarini amaliyotga tadbir etishning samarali mexanizmlari joriy etilmagan. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o'z o'zni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo'lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo'shliq mavjudligini yana bir marotiba isbotlamoqda”[1].

O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasining birinchi moddasining ilk bandida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan *suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat*”[3], deyilishida 5 ta shart ko‘rsatildi: suveren davlat, demokratik davlat, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat. Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatparvar davlat”, [1] g‘oyalarida ham shu barcha shartlar inobatga olinib, davlatning ijtimoiyligi, ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarda keluvchi “*farovon davlat*” falsafasiga hamohang keladiki, bu yaqin kelajakda quriladigan davlatchilik tajribamiz bo‘ladi, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida ham yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “*Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*” degan hayotbaxsh g‘oyaning keng targ‘ib etish orqali jamiyatda *sog‘lom dunyoqarash* va *bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish*[4] ta’kidlangandi. Ushbu qaror ijrosi doirasida ilm-fan, san’at va madaniyat, axborot texnologiyalari, badiiy ijod, arxitektura va dizayn, tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi turli sohalarda faoliyat yuritayotgan, tashabbuskor va *fidoyi yoshlar* o‘rtasida “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” loyihasini amalga oshirish belgilangandi. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida vazirlik darajasidagi respublika bosqichigacha ega bo‘lgan va har bir oliy ta’lim dargohida avval fakultetlar, institut darajasida so‘ng viloyat, respublika bosqichiga ega bo‘lgan “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” mavzusida esseylar (insholar) tanlovini muntazam tashkil qilish va o‘tkazish, har yili an’anaviy tarzda tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki mustaqil va zamonaviy fikrlovchi, kreativ va innovatsion tafakkurni yoshlarda shakllantirishda bu kabi ijtimoiy (rag‘batlantiruvchi) mexanizmlarning ahamiyati kattadir, shu bilan birga, yangi ma’naviy makon qadriyatlarini mustahkamlagan bo‘lardik, deb o‘ylaymiz. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019-yilgi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham konsepsiyaning amalga oshirilishi pirovard maqsadida “*jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa*” *qo‘shishi*,[5] ta’kidlanadi.

Albatta, navbatdagi muhim vazifa yangi ma’naviy makonning nazariy asoslarini mustahkamlash, milliy ruh haqidagi ijtimoiy-siyosiy sistemalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – T.: “O'zbekiston”. 2022.
2. AQSHlik mashhur siyosatshunos olim Nikolas Spaykmen (1893-1943) o'zining “*Jahon siyosatida Amerika strategiyasi*” nomli asarida davlat geosiyosiy qudratini 10 ta kriteriya bilan belgilaydi: 1. Maydonning kengligi; 2. Chegaralar tabiati; 3. Aholi soni; 4. Foydali qazilmalar salohiyati; 5. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyot; 6. Moliyaviy qudrat; 7. Etnik birlik (bir millatlilik); 8. Ijtimoiy integratsiyaning darajasi; 9. Siyosiy barqarorlik; 10. Milliy ruh.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz>
4. PQ-5040-son 26.03.2021. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5344692>.
5. 1059-son 31.12.2019. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-4676839>

SIYOSIY MADANIYAT TUSHUNCHASI MOHIYATI

Abdilrashid Anvarxonov,
O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan siyosiy madaniyatning tushuncha va ta'riflari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayon.

Ilmiy adabiyotlarda “siyosiy madaniyat” tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati»da: “Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat azolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatni tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z hatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati. Oldindan ko'ra bilish iste'dodi, harakat yo'nalishini o'zgartirish, nazariy va amaliy yo'nalishlarini aniqlay olish, tarafdorlar topish, ijtimoiy jarayonlarning tezligiga ta'sir o'tkazish siyosiy madaniyatning jihatlaridan sanaladi” [1, 191], deb yozilgan. Yana bir

lug'atda "Siyosiy madaniyat – siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligini ifodalaydi va shaxs, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiradi" [2,365], degan ta'rif berilgan. Politologiya o'quv qo'llanmasida esa unga bir qator kengroq qaralib quyidagi fikrlar berilgan. "Siyosiy madaniyat" – bu o'ziga siyosiy ma'rifatni, siyosiy onglilikni hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir; siyosiy madaniyat bu- o'z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo'lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma'naviy madaniyatning bir qismidir; siyosiy madaniyat – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsга tegishli bo'lgan siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor sterlatiplari yig'indisidir; siyosiy madaniyat – tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy sub'ektining (shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyatning) o'z siyosiy bilimlari, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda mo'ljallangan niyatlarini xamda o'ziga xos siyosiy xulq-atvorini namoyon qilishi, amalga oshirishidir. Siyosiy madaniyatning yuqorida keltirilgan umumiy talqinlaridan kelib chiqqan holda, unga quyidagicha ta'riflarni berish mumkin: "Siyosiy madaniyat bu – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo'lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir" [3, 178].

O'rganishga molik ushbu fikrlar va ta'riflarda siyosiy madaniyatning o'ziga xos jihatlari o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda ham yoshlarimiz bu tushunchaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari va siyosiy jarayonlarga tayyor bo'lib borishlari talab etiladi. O'z navbatida, bu boradagi ishlarimizni zamonga mos ravishda takomillashtirish ham uning ayrim nozik jihatlarni tushunib olishimiz zarur bo'ladi. Ana shu fikrlardan kelib chiqib, mazkur tushunchaga o'zimizning munosabatimizni bildiramiz.

Birinchidan, yuqorida siyosiy madaniyatni jamiyat ma'naviy madaniyatining bir qismi, degan fikrga qo'shilgan holda, uning dunyoqarash, xulq-atvor, siyosiy vazminlik va siyosiy ogohlik kabilarni mujassamlashtirishini alohida ta'kidlamoqchimiz. Chunki, umuman madaniyat haqida fikr yuritganimizda, uning asosiy mezoni barcha salbiy ko'rsatkichlarni emas, balki ularni bartaraf eta bilishdagi salohiyat va mahorat nazarda tutiladi. Shu ma'noda siyosiy madaniyatni ma'naviy madaniyatning uzluksiz bir qismi deganimizda, barcha jamiyat hayotida va davlat faoliyatida turli obyektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq holatda yuzaga kelgan turli siyosiy ziddiyatlar hamda mojarolarni siyosiy vazminlik va siyosiy ogohlik fuqarolar, sinflar, ijtimoiy tabaqalar va siyosiy kuchlarni

ma'nan yuksaklik bilan yondashuvda o'z ifodasini topishi tushuniladi. Jamiyatda va davlat hayotida sodir bo'ladigan barcha siyosiy ziddiyatlarni vazminlik va siyosiy ogohlik bilan hal etilishida ma'naviyatining o'rnini e'tirof etishimizga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat siyosiy jarayonlarda ishtirok qiladigan fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning ko'rsatkichi va mezon, deyish mumkin. Ammo, har doim ham bunday darajaga erishish murakkab kechadi. Sababi shuki, siyosiy jarayonlarda fuqarolar, ijtimoiy tabaqalar bilan birga davlat hokimiyati ham qatnashadi.

Uchinchidan, davlat hokimiyati faoliyatida siyosiy madaniyatning amal qilishi ham siyosiy jarayonlarning ijobiy tarafga rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

. Davlat hokimiyati faoliyatida siyosiy madaniyatning amal qilishi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: a) qonunlarning jiddiy muhokamasi va uni qabul qilish jarayonida; b) qonunlarning ijrosi ta'minlanishida fuqarolarning faol ishtirok etishida; v) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni adolat tamoyiliga asoslangan holda yechilishida; g) mamlakat miqyosida milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda.

Yuqoridagi omillarning siyosiy ahamiyatini hisobga olsak, davlat va hukumatimiz yoshlarning barkamol bo'lib o'sishi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib qo'yishi lozim. Bugungi yosh avlod kechagi va o'zi yashayotgan davrdagi to'plangan bilimlar, boy tajribadan foydalanish hisobiga shaxsiy taraqqiyotga erishadi. Agar ular kutgan siyosiy bilimlar bilan oziqlanmagan taqdirda, tashqi kuchlarning turli ta'siriga tushib qolishlari mumkin. Globallashuv sharoitida internetdagi ijtimoiy tarmoqlar, ko'ngilochar saytlar bu borada "abjirlik" qilib qolishi kuzatilmoqda. Shuning bilan birga, yoshlar hayotiy tajribaga ega bo'lmagan ijtimoiy guruh bo'lganligi bois, ularning bir qismi nimani ko'rsa shunga amal qilishga, taqlidchilikka moyil bo'ladilar. Bundan ayrim siyosiy kuchlar va oqimlar foydalanishga harakat qiladilar hamda yoshlarni o'zlarining izmiga solishiga urinadilar. Afsuski, bu salbiy holat ko'pgina mamlakatlar hayotida bugun sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ularda siyosiy beqarorlikni, chuqur iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozlarni vujudga keltirmoqda. Ana shu salbiy holatlarning yuzaga kelmasligining oldini ola bilish va yoshlarning ehtiyojlariga jiddiy e'tibor bilan qaray bilish davlat hokimiyati faoliyatidagi siyosiy madaniyatning yana bir muhim ko'rsatkichi bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, siyosiy madaniyat keng qamrovli tushuncha bo‘lib, jamiyat hayotida muhim o‘rinni egallaydi. Siyosiy madaniyat siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni o‘zida uyg‘unlashtirgan tushuncha, deyishga ko‘pgina asoslar mavjud. Qolaversa, siyosiy madaniyatning shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning siyosiy beqarorlik, yoxud siyosiy mojarolarni hal qilishdagi ijobiy faoliyatining ko‘rsatkichi ekanligini ko‘zdan qochirmaslik kerak. Zero, xalqimiz ajoyib qadriyati bo‘lgan madaniyat ham, shaxs rivojining yangi bosqichiga aylanadigan siyosiy madaniyat ham jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki sub‘ektlar faoliyatining mahsuli natijasida shakllanadi va takomillashib boraveradi. Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini izchillik bilan rivojlantirish jahonning ayrim mamlakatlarda sodir etilayotgan turli nomdagi “inqiloblar”ga ularni jalb qilinayotganligi sharoitida yanada dolzarblashib, siyosiy tarbiyani jonlantirish va yoshlarimizning siyosiy madaniyatini mustahkamlashga e‘tiborni yanada kuchaytirish masalasini o‘rta qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 *Mustaqillik izohli ilmiy-ommavbop lug‘at. Toshkent.: Sharq, 1998. 191-bet.*
- 2 *Falsafa. Qomusiy lug‘at. Toshkent.: Sharq, 2004. 365-bet.*
- 3 *Politologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: A.Qodiriy, 2002. 178-bet.*

INSONNING BIOIJTIMOIY MAVJUDOT SIFATIDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevna

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Inson va olam mutanosibligida falsafiy jihatlarini keng yoritilgan. Unda inson va olamning mohiyati, chet-davlatlardagi turli davrlardagi mavjud holat, tabiatshunoslik fanga bo‘lgan munosabat, o‘sha davrda ijod qilgan faylasuflar va ularning ilmiy merosi haqida keng bayon etgan va o‘z xulosalarini bergan. Aynan insonning mohiyatini aniqlash falsafaning asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi.*

Kalit soʻzlar. *Inson, mafkura, maʼnaviyat, maʼnaviy qadriyatlar, insonning “mohiyati”, insonning “tabiati”, tabiat, jamiyat, funktsional va genetik korrelyatsiya.*

Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va taʼlim beqiyos rivojlandi. Odamzod oʻzining aql-zakovati va mehnati bilan dunyoning koʻplab sir-asrori kashf etdi, juda koʻp yangiliklar, buyuk ixtirolar qilib kelmoqda.

Insonlarning mafkuraviy olami yanada boyidi. Ayniqsa, yoshlar maʼnaviyatning jamiyatda tutgan oʻrnini, insonlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyatini mushohada orqali seza boshlaydi hamda olam toʻgʻrisida yaxlit tasavvurlarga ega boʻladilar. Zero, maʼnaviyat dunyo xalqlari, olim-u fuzalolari tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan hamda inson hayotining mazmuniga aylangan.

Darhaqiqat, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Maʼnaviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”, – degan edi.[1]

Bugungi kunda inson tushunchasini mazmunini bilmaslik, inson menini yoʻqligi va inson qadrini yerga urish, uni kamsitish, loqaydlik va beparvolik juda dolzarb mavzularga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini taʼminlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat koʻrsatish, sifatli taʼlim, ijtimoiy himoya tizimi, sogʻlom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”.

Inson faoliyatining maqsadni belgilash xususiyati insonning nafaqat atrof-muhitga, balki oʻziga ham qiziqishini belgilaydi. Maʼlumki, koʻpgina fanlar inson muammosi bilan shugʻullanadi: biologiya, psixologiya, sotsiologiya, tarix va boshqalar, lekin ularning barchasi inson mavjudligining individual jihatlari haqida tushuncha beradi, yaʼni maʼlum bir shaxsning aniq namoyon boʻlishidir. Albatta, insonning mavjudligi ham oʻziga xos hisoblanib, koʻp bosqichlidir. Uni oʻrganish katta nazariy va amaliy qiziqish uygʻotadi. Va shu bois maʼlum bir qiyinchilik tizimli organik yaxlitlik doirasida ushbu darajalarning toʻgʻri funktsional va genetik korrelyatsiyasida – inson aqlning tashuvchisi sifatida yotadi. Insonning

yaxlitligi nuqtai nazaridan nima ekanligini tushunish uchun bu yaxlitlikning o'ziga xos ko'rinishlari haqida tasavvurga ega bo'lish yetarli emas, ya'ni uning mavjudligi mohiyatini aniqlash kerak. Aynan insonning mohiyatini aniqlash falsafaning asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi. Bu vazifaning ahamiyatini yirik matematik va faylasuf Prokl (milodimizning V asrida yashab ijod etgan) o'z davrida juda to'g'ri ta'kidlagan: "To'g'ri parvarish qilish uchun amalga oshiriladigan ishlar bizning mavjudlik mohiyatimizni bilishga bog'liq va shu bilimga muvofiq belgilanadi. Axir, barcha odam o'z-o'ziga murojaat qilish orqali o'z-o'ziga bo'lgan harakatni amalga oshiradi. Oxir oqibat, o'zini bilgan odam o'zi uchun g'amxo'rlikni topdi, o'zini bilmagan esa g'amxo'rlik shaklini bilmaydi".[2]

Eng muhimi, inson muammosini shakllantirish va ko'rib chiqish tarixiga murojaat qilishdan oldin, asosiy qo'llaniladigan insonning "mohiyati" va insonning "tabiati" tushunchalarning ma'nosini aniqlab olish kerak bo'ladi. Falsafiy adabiyotlarda bu tushunchalardan foydalanishda ma'lum noaniqliklar mavjud, ularni ham bir xil, ham bir-birini to'ldiruvchi sifatida tushunish mumkin.

Inson mavjudligining o'ziga xos xususiyatlari muammosiga qaytsak, mutafakkirlar doimo bu mavjudlikning nomuvofiqligini, uning antinomiyasini his qilganlar, bu esa hammani qoniqtiradigan aniq va bir ma'noli ta'riflarni imkonsiz qiladi. Qadim zamonlardayoq olam va inson kosmogonik miqdar doirasida aniq o'zaro bog'liq tushunchalar makro va mikro-kosmos, dunyo-inson aloqalari sifatida ko'rib chiqilar edi. Inson mohiyatining o'ziga xosligi, uning mavjudligi muammosi tarixiy-falsafiy jihatdan ham mahalliy, ham xorijiy falsafiy adabiyotlarda juda ko'p va batafsil ko'rib chiqildi.

Mutafakkirlar fikricha, inson boshqa hayvonlarga o'xshash bo'lsa-da, u ulardan sifat jihatidan farq qiladi.

Qadimgi miqdarda ham tashqi dunyo bilan solishtirish mumkin bolgan "mohiyati" Kosmos – borliqning uyg'un tartibiga oid inson haqidagi tushunchalar mavjud. Shunday qilib, qadimgi yunon an'analarida insonning mikrokosmos sifatidagi ta'rifi umume'tirof etilgan. Ular Mifologiyani buzgan holda, insonning o'ziga xosligi haqida o'zlarining oqilona ta'riflarini berishgan. Odatda inson mavjudligining yaxlitligini e'tiborsiz qoldirish bilan bog'liq bo'lgan bunday urinishlar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmagan.

Bundan tashqari Antik davrda Afina faylasuflaridan biri bo'lgan Aristotel insonni ruhga ega tirik foniy mavjudot ("iroda tug'ilgan" aqlli ruh)

deb ta'riflagan.[3] Va budan keyingi davrlarda ham turli ta'riflar berilgan. Masalan, XVII-asrda yashagan K.A.Gelvetiy insonni "irodasi bor, o'ylaydigan, maqsadiga erishish uchun harakat qiladigan" tabiiy aqli mavjudot deb atagan. Biroq, K.A.Gelvetiy "Tabiatning o'zi inson zoti zaif buloq bo'lgan haqiqiy mashinadan boshqa narsa emas", chunki "tabiat tomonidan yaratilgan mavjudot uchun u bir qismi bo'lgan buyuk butunlikdan yuqori hech narsa yo'q", deb ta'kidlagaydi. B.Franklin esa insonni mehnat qurollari ishlab chiqaruvchi jonzot deb ta'riflab, unda inson mavjudligining asosiy o'ziga xosligini ko'rsatadi.[4]

Haqiqatdan ham, inson mohiyatini anglashda nemis klassik falsafasi insoniyat tafakkuri tarixida muhim o'rin tutadi. Masalan, Yevropa faylasuflarining birinchisi I.Kant borliqning barcha shakllarini inson sifatidagi asosda tushuntirishga harakat qilgan va uning falsafiy konsepsiyasining asosiy savoli "Inson nima?" degan savolga javob berish bo'lgan. Kant insonning mohiyatini uning ongida, instinktlardan ustun turish va dunyoni bilish qobiliyatlarida ko'radi. Bundan tashqari, I.Kant olamda aql-idrokli mavjudotlar ko'pligi va ularning ratsionallik darajasi ular bilan bog'liq bo'lgan materiyaning xususiyatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqadi. Umuman olganda, I.Kant ongni Olam evolyutsiyasining maqsadi, deb hisoblagan.

Shuningdek, Falsafiy tafakkur rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan marksistik falsafa asosiy e'tiborni insonning ijtimoiyligiga, uning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tarixiy shakllanishiga qaratdi. K.Marks va F.Engels insonning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib, shunday yozgan edilar: "Odamlarni hayvonlardan ongi, dini, umuman, har qanday narsa bilan farqlash mumkin. Ularning o'zlari o'zlariga zarur bo'lgan tirikchilik vositalarini ishlab chiqarishni boshlashlari bilanoq hayvonlardan farqlana boshlaydilar. K.Marks insonning mohiyatini o'ziga xos tushunishga asos solgan, uning doirasida tizimining bir qismi sifatida harakat qilgan, faqat uning doirasidagina inson o'z boyligini haqiqiy mohiyat sifatida shakllantiradi". K.Marks kontsepsiyasini (bu mening vazifam bu holatda emas) batafsil tanqid qilishdan uzoqlashmasdan, faqat shuni ta'kidlayman – agar "insonning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisi" degan haqiqatdan kelib chiqadigan bo'lsak "inson "inson-jamiyat" va butun tarix inson tabiatining doimiy o'zgarishidan boshqa narsa emas, – demak, yakuniy tahlilda tarixiylikni tan olish zarurligini bildiradi.

Qolaversa, inson kognitiv muammolarni, shu jumladan insonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqal barcha muammosini hal qila oladi.

Chunki: birinchidan, inson dunyoni bilish orqali o'zining kosmik funksiyasini amalga oshiradi, ichki va tashqi muhitni tashkil etishning yangi shakllari va boshqalar ikkinchidan, u o'zini o'rab turgan dunyoni (uning organik qismi bo'lgan) u bilangina mavjudligi tufayli idrok eta oladi.

Antik davr (birinchi navbatda, Platon va Aristotel tushunchalarida) insonning o'ziga xos xususiyatlarini klassik tarzda aniqlash uchun asos yaratdi, Evropa falsafasi tomonidan an'anaviy ravishda inson aqlli mavjudot sifatida, tirik mavjudotlar orasida alohida o'rin tutadi. Insonning o'ziga xosligi uning jismoniy, tana tuzilishiga kamaymaydi va inson rivojlanayotgan mavjudotdir va kosmosga potentsial mos keladi. Agar faylasuflar belgilab bergan o'ziga xos xususiyatlarni umumlashtirsak, Inson, eng avvalo, jonli mavjudotdir; oqilona (ong va o'z-o'zini anglashga ega); ijtimoiy va axloqiy; ozod; ramziy; tabiiy voqelik chegarasidan tashqariga chiqish, instrumental faoliyat – ishlab chiqarish yordamida o'zini va atrofini o'zgartirishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson mavjudligini tahlil qilar ekanmiz, tarixning falsafiy tajribasiga tayangan holda, falsafaning an'anaviy yondashuvidan kelib chiqadi, bu esa Inson muammosini klassik “mohiyat” atamaları bilan ko'rib chiqishga asos bo'ladi, ya'ni ichki ma'noni ifodalaydi. Insonning mavjudligida muntazam, o'zgarmas va “mavjudlik” – mohiyatning ayrim imkoniyatlarining o'ziga xos namoyon bo'lish, aktuallashuv jarayonini ifodalanadi.

Darvoqe, mohiyat har doim aniq va ma'lum fazo-zamon va vaziyat chegaralari bilan chegaralangan borliq bilan bir xil bo'lishi mumkin emas. Shaxsning yagona o'zgarmas umumiy mohiyati va bu mohiyatning har doim o'ziga xos, o'ziga mos va o'zgaruvchan namoyon bo'lishining nisbati – mavjudlik (individual shaxs, jamiyat) doimiy bir hil bo'lishi mumkin emas.

Inson qadri degani, sodda qilib aytganda, insonni ulug'lash va insonlar o'rtasidagi o'zaro mehr-muhabbatni qadrlash deganidir.

Tabiatning gultoji hisoblangan insonga berilgan qisqagina umrda hayotimizni go'zal bo'lishi muhim o'rin egallaydi. Insondagi har bir fazilat sabrga muhtojdir. U hayotidagi qiyinchiliklarni mulohazalab, kuchli iroda va yuksak tafakkur bilan qarshi olib, sabr-toqat bilan ma'naviy yuksalishi mumkin. Ma'naviy yuksaklikka erishgan shaxsgina insonning “mohiyati” va insonning “tabiati” nima ekanligini anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent. O'zbekiston. 2021 y. -B. 267.
2. *Prokl Diad ox. Kommentariy na «Alkiviad 1» Platona // Voprosy filosofii*. 2001. №4. S. 124.
3. Sm., *naprimer: Aristotel. O dushe // Aristotel. Soch. V4 t. M., 1976. T.1. S.441.*
4. Sm.: *Franklin V. Istoricheskiy ocherk konstitutsii i pravitelstva Pensilvanii // Franklin V. Izbr. proizv. M., 1956.*

ADABIYOT – MA'NAVIY TARBIYANING BOSH MEZONI

Bekzod Ashurov,

NamDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarib bormoqda.

O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda. Shu o'rinda ulug' marifatparvar adib Abdulla Avloningning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan jumalari yodimizga tushadi.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Yurtimizda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-metodik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy kompetensiyalar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Jumladan, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, oliy ta'lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish, ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Bu boradagi ishlarni yanada mukammal amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda

adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", – deya ta'kidlangan muhim ko'rsatmasi ham, mamlakatda adabiyot, kitobxonlik va ma'naviy tarbiyaning nufuzini oshirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining oldida turgan muhim vazifalarni belgilab beradi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilish, jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni adabiyot orqali ilmiy asosda yo'lga qo'yish har bir professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalar ko'pligiga ishoradir.

Ayni kullarda O'zbekistonda uchinchi Renessans atamasiga katta urg'u berilmoqda. "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", – deydi Shavkat Mirziyoyev. Bundan tashqari davlatimiz rahbari buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlarini keltirib birinchi Renessans to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuz beragani, bu davrda Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimiz, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar yetishib chiqqani, O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab bergani, Bu davrda esa Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqqanligini alohida ta'kidlagan edi.

E'tibor bersak, Yurtboshimiz tomonidan yoshlarga juda katta e'tibor berilayotganligi, ilm ahllariga hurmat ko'rsatilayotganligi, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi va ularni tinch, farovon, osoyishta

yashashiga harakat qilinayotganligining guvohi bo‘lamiz. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar mana necha yillar bo‘lganiga qaramay, hali hanuz xalqni boy ijodiy merosi bilan boqyapti, ularga ko‘mak beryapti. Bugungi kunda ham olimlar, yoshlar va shu kabi bir qator ilm ixlosmandlari badiiy asarlarni chuqur o‘rganib dissertatsiya, ilmiy maqola, monografiyalar yozib, ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu kabi tadqiqotlar natijasida turli xil mukofot, stipendiya hamda sovrinlar olishmoqda.

Badiiy asarlar ajdodlarimiz ma‘naviy holatining ko‘zguasi bo‘lib, unda o‘tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan.

Bugungi kunda Namangan davlat universiteti 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi talabalariga 1-bosqichda tanlov fan sifatida “Adabiyot va ma‘naviy tarbiya” fanining o‘qitilayotgani ham shular jumlasidandir.

Ushbu fan muassasamizda 2020-yilda birinchi marta tanlov fan sifatida o‘quv rejaga kiritildi. Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish, badiiy asarlar orqali mutolaa madaniyatini kuchaytirish, badiiy asarlardagi ma‘naviyat, tarbiyaga oid jihatlarni kengroq o‘rganish va tahlil qilish, adabiyot orqali og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishlarida yuqoridagi jihatlarga e‘tibor qaratish, ularda fan bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratiladi. Shuningdek, talaba-yoshlarga zamonaviy ta‘lim-tarbiya bilan birgalikda qon-qonimizga singib ketgan muqaddas dinimizning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirib berish va ezgu g‘oya asosida tarbiyalash g‘oyat muhim masaladir. Zotan, bugun har bir yoshni muqaddas dinimizning ezgu g‘oyalari asosida, milliy qadriyatlar va keksa nuroniylarimizning pand-nasihati quvvati bilan tarbiyasiga e‘tibor qaratishni dolzarb deb bilsak, ertangi kunda milliy ma‘naviyatimizning mustahkamligi va yosh avlodning teran fikr va yuksak namunadagi tarbiya egasi sifatida komil inson bo‘lib ulg‘ayishidagi ishlarimiz o‘z samarasini beradi.

Adabiyotning inson ma‘naviy-axloqiy kamolotidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritilganda Adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, adabiyot bilan milliy ma‘naviyatning uzviy aloqadorligi, adabiyotda odob-axloq, ilm-ma‘rifat va tarbiya masalalarining talqini, buyuk allomalar va adiblarning adabiyot haqidagi fikr-mulohazalaridan namunalar keltirish, badiiy asarlar orqali inson ma‘naviy ongini boyitish mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyati va tarbiyasiga oid qarashlarini, adabiyot va kitobxonlik borasidagi qarashlarini, 2019-yil mart oyida ilgari surilgan "Besh muhim tasabbus"larini alohida ta'kidlash zarur. Bu orqali ko'pgina ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga jiddiy urg'u berilmoqda. Bu kabi tadbirlar albatta yoshlar tarbiyasi, ma'naviyatini yuksaltirishda o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Yusuf Xos Hojib o'z davrining zukko adabiyotshunosi va mutafakkiri sanaladi. "Qutadg'u bilig" dostoni turkiy yozma adabiyotning ilk adabiy namunasi hisoblanadi. Unda odob-axloq masalalarini va tarbiyaviy jihatlarini atroflicha o'rganish mumkin. Asarda komil inson qiyofasi ham tasvirlangan.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari, hikmatlarida insoniy go'zallik, insonparvarlik, ma'naviy poklik, saxovat, diyonat, xolislik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik kabi go'zal axloqiy sifatlar tasvirlangan. Boqirg'oniy Sulaymon asarlarida esa inson kamoloti va ma'naviy yetukligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar yuritish mumkin. Ilm-u ma'rifatning so'nggi manzili haqiqat bo'lib, unga tahsil bilan erishgan kishi axloqiy poklikka va ma'naviy yetuklikka erishgan komil inson hisoblanadi, deb ta'kidlanadi. Mutafakkir ijodida ilgari surilgan insonparvarlik, barkamollik, insofli, diyonatli bo'lishga undovchi, inson ma'naviy-ruhiy pokligi xususidagi mulohazalari yoshlarni axloqiy jihatdan yuksaltirish, ularda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarini ham muhim ahamiyatga ega. "Hayrat ul abror" dostonini axloqiy-ta'limiy va ma'rifiy-falsafiy doston sifatida o'rganiladi. Dostondagi maqolatlarning mushtarakligi va undagi inson tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berilgan. "Mahbub ul-qulub" asarida shoirning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari ifodalangan.

O'zbek xalq maqollarida ham tarbiya va odob masalalarini ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina badiiy asarlarda o'zbek xalq maqollarini uchratamiz. Masalan, Abdulla Qahhor o'zining ko'pgina hikoyalarda maqollardan namunalar keltiradi. "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat" kabi hikoyalari shular jumlasidandir. Maqollar inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy ma'naviyat targ'ibi ham ko'rishimiz mumkin. Asardagi odob-axloq, tarbiya motivlari, adibning asardagi badiiy mahorati va davr ma'naviyatini asardagi obrazlar

orqali yoritib berilgan. Asaridagi qahramonlarning o‘zaro muomala va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini “siz”lab gapirishi misolida ota –bobolarimizning oila ma’naviyatiga qanchalik katta e’tibor berganiga guvoh bo‘lamiz.

Tohir Malikning ijodiy merosi – tarbiya va axloq masalalari xazinasi hisoblanadi. Adib asarlarida: odob-axloq, ilm-ma’rifat, diniy-ma’naviy tarbiya uchratamiz. Yuqoridagi fikrlarimiz yozuvchining “Odamiylik mulki” va “Vijdon uyg‘onur” kabi asarlarida aks etgan.

Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” va “Xandon pista” asarlaridagi obrazlar orqali tarbiyaviy ta’sir qilish jihatlari, hajv va tarbiya uyg‘unligi yozuvchining badiiy mahorati hisoblanadi.

Jadid ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shaxs erki, tarbiyasi va ma’rifati masalalari yoritilgan. Asardagi badiiy mukammallik va bugungi axloqiy jihatlarga mosligini asarning mazmun-mohiyati va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda internet tarmog‘i kundalik ehtiyojga aylanib ulgurdi. Internet tarmog‘ida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, ongda ma’naviy bo‘shliq yuz berishining oldini olishda adabiyotdan foydalanish, ta’lim jarayonida eng ko‘p foydalaniladigan internet saytlaridan samarali, o‘rinli foydalanishini o‘rgatish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirgan adiblarimizning ijodiy merosi, qoldirgan asarlari “Adabiyot va ma’naviy tarbiya” fanimizning obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

“Adabiyot va ma’naviy tarbiya” fanini o‘qitish O‘zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish, talabalarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish, talaba-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, adabiyot va kitobxonlik yo‘nalishida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishga zamin yaratadi.

Ushbu fan mazkur yoʻnalishdagi oʻquv-tarbiyaviy hamda maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tashkil etish, talabalarni mutolaa madaniyatini oshirish va adabiyot fani doirasida egallashlari shart boʻlgan bilim, koʻnikma, malakalarining zaruriy meʼyorini asoslab beradi. Talabalarining ixtisosliklari doirasida adabiyotni, maʼnaviyatni tahlil qilgan holda yuksak salohiyatli, maʼrifatparvar va maʼnaviyatli yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga erishish hamda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy koʻnikmalar, qiyoslay olish, ilmiy-maʼnaviy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

1. Pand-nasihathidagi badiiy asarlar syujetida maʼnaviy tarbiya bilan bogʻliq jarayonlarni ahamiyatini oʻrgatish.

2. Adabiyot va umumtarbiyaviy terminlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish.

3. Mavzularga oid nasriy va nazmiy asarlarni badiiy-estetik tahlil qilish.

4. Tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyati shaxs maʼnaviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini bilish.

5. Maʼnaviy tarbiyani adabiyot orqali mustahkamlash koʻnikmalarini shakllantirish.

6. Muayyan tarbiyaviy asarlar doirasida talabalarga zaruriy maʼnaviy-axloqiy bilimlarni berishdan iborat.

Pand-nasihathidagi asarlarni oʻrganish yoshlarda maʼnaviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, masʼuliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish bilan dolzarflik kasb etadi. Shuningdek, ajdodlarimiz qoldirgan va bugungi kunda yaratilayotgan boy adabiy merosni maʼnaviy hamda tarbiyaviy jihatlarini oʻrganish boy xazina boʻlib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi, uni kitobxonlikka undaydi, badiiy asarni teran anglash va tahlil qila olish malakasini hosil qiladi. Talabalarda ogʻzaki va yozma muloqot yuritish, tahliliy fikrlash, ongli muhokama qilish, maʼnaviy dunyoqarashini kengaytirish masalalarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2021-yil 26-mart, PQ-5040-son.*

2. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020, 2021, 2022.*

3. Каримов И.А. *Адабиётга эътибор маънавиятга, келажакка эътибор.* – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

4. Каримов И.А. *Юксак маънавият – энгилмас куч.* – Тошкент: *Маънавият*, 2008. 108 bet.

5. Sulaymonov M., Ashurov B. *Adabiyot va ma'naviy tarbiya. O'quv-uslubiy majmua.* Namangan – 2023. 387 bet.

6. <http://www.literature.uz>.

JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY MUHITI

Kamolov Dostonbek Rustam o'g'li,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universitetining Jizzax filiali

Fakultetlararo kafedrasida o'quv-metodik kabinet mudiri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti muayyan xalq, millat turmush tarzi, ma'naviy ruhiy holati, jamiyatning turli tabaqalari subyektlari kayfiyatlarini, qarashlarini, intilishlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi omil sifatida ko'rinishligi bilan ijtimoiy muhitdan farq qilishi, shu bilan birga, hozirgi kungacha ijtimoiy muhit o'rganilganda mikro, makro muhitga bo'lib o'rganilgan, vaholanki, ma'naviy-axloqiy muhitda mikro va makro muhitdan tashqari bog'lovchi muhit, mezo muhit ham mavjudligi, bunda nafaqat muhitlarning hajmi, hududiy sifatlari, balki muhitlararo aloqadagi axloq strukturasi o'ziga xos rol o'ynashligi qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, axloq, episentr, etika, axloqiy struktura, axloqiy ong.*

XXI asr shu bilan xarakterlanadiki, bugungi kunga kelib, insoniyatning jami borlig'ini belgilaydigan episentr iqtisodiyotdan, siyosatdan o'tib ma'naviyatga borib taqaldi. Chunki aynan ma'naviyat kishilar borlig'ining barcha parametrlarini belgilaydigan konsensusga aylandi. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit muammosining yechimlari masalasi nihoyatda dolzarbligini belgilaydigan indikatorlardan biri hozirgi zamon global etikasi va milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ularning rivojlanishi va takomillashishini jahon chorrahasida tahlil qilinishi O'zbekistonda axloqiy, ma'naviy munosabatlarni yoritishga nisbatan yangicha yondashuvdir.

Haqiqatan ham, hozirgi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy muhit tushunchasi keng o'rganilgan va uning tarkibiy qismlari: siyosiy, madaniy, axloqiy, adabiy, geografik, sun'iy muhitlarga bo'linib tadqiq etilgan. Ijtimoiy

muhit insonlar ko'rayotgan va insonlararo munosabatni aks ettirgan hamda jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarni qamrab olgan makon sifatida ikkita yo'nalishda – mikro va makro muhit sifatida o'rganilgan. Mikromuhit inson va uning atrofidagi bo'layotgan voqeahodisalarni nazarda tutsa, makromuhit umuman jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy voqeliklari mavjudligini nazarda tutadi. Demak, ijtimoiy muhit insonni, ijtimoiy guruhlarni o'rab turgan va uning ongi hamda xulqiga, faoliyatiga ta'sir etuvchi va boshqaruvchi shart-sharoitlar va munosabatlar majmuidir. Ma'naviy-axloqiy muhit esa, muayyan jamiyat ijtimoiy muhitining tarkibiy qismi sifatida jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muhitlarga xos bo'lgan barcha murakkab ijtimoiy voqeliklarni o'ziga xos xolda aks ettiradi. U ma'lum bir xalq, millat, jamiyatning tarixiy tarqqiyoti davomida shakllangan, ularning dunyoqarashi, maqsad muddaosi, turmush tarzi va an'analari, ideallarini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlarning mushtarakligidagi mavjudlik makonidir.

Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti muayyan xalq, millat turmush tarzi, ma'naviy ruhiy holati, jamiyatning turli tabaqalari subyektlari kayfiyatlarini, qarashlarini, intilishlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi omil sifatida ko'rinishliligi bilan ijtimoiy muhitdan farqlanadi. Shu bilan birga, hozirgi kungacha ijtimoiy muhit o'rganilganda mikro, makro muhitga bo'lib o'rganilgan, vaholanki, ma'naviy-axloqiy muhitda mikro va makro muhitdan tashqari bog'lovchi muhit, mezo muhit ham mavjuddir. Bunda nafaqat muhitlarning hajmi, hududiy sifatlari, balki muhitlararo aloqadagi axloq strukturasi o'ziga xos rol o'ynaydi. Albatta, axloq strukturasi jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining muhim qismini tashkil etadi va u birinchidan, jamiyat axloqiy strukturasi axloqiy psixologik va axloqiy nazariy darajasi sifatida ko'rinadi. Ikkinchidan, jamiyat axloqiy strukturasi axloqiy psixologik va axloqiy nazariy darajalarining elementlari bir-birlari bilan uzviy bog'liqlik holatida mavjud bo'ladi. Bulardan tashqari axloqiy ong, axloqiy munosabat, axloqiy xatti-harakatlar kesimi ham axloq strukturasi muhim ahamiyatga ega. Chunki ayni vaqtda axloqiy xatti-xarakatlar va axloqiy munosabatlarning o'zi ham murakkab strukturaga ega. Hamma masala ushbu strukturalarning uyg'unlik, mavjudlik holatlarini ma'naviyat bilan bog'liq xolda tushunishda va ulardan foydalanishdadir. Hozirda ma'naviy-axloqiy muhit muammolarini tadqiq etish ijtimoiy va axloqiy muhitga yangicha, ya'ni ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan qarashni taqozo qilmoqda.

Shu jumladan, bu muammolarni bevosita jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti bilan manfaatlar nuqtai nazaridan bog'lash o'rinli bo'lib, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida doim ham manfaatlar ijobiy yo'nalishga xizmat qilmasligi oydinlashadi. Uning salbiy omillari ham bo'lganligi bois, bevosita jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitidagi muammolarni falsafaning umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir tamoyili, taraqqiyot tamoyili, sabab va oqibat, mohiyat va hodisa, abstraktlikdan konkretlikka tamoyillaridan kelib chiqqan holda nazariy asoslash hozirgi kun talabidir. Bizningcha, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti muammolariga quyidagilar kiradi:

- siyosiy xarakterga ega bo'lgan gegemonchilik, diniy mutaassiblik, diniy jamiyatni orzu qilishdagi "ko'rinmas niqoblar", millatchilik, shovinizm, radikalizm, terrorizm, separatizm, mafkuraviy xurujlar bilan bog'liq bo'lgan;

- ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar, milliy madaniyatga bepisandlik, axloqiy vestirinizatsiyaning salbiy oqibatlari, kosmopolitizm, ijtimoiy faolsizlik, loqaydlik, shafqatsiz individualizm targ'iboti, gedonizm, huquqiy savodsizlik, odamovilik, hayot mazmuni va yashashdan maqsad omillarining sustlashuvi, jinoyatchilik, manqurtlik bilan bog'liq bo'lgan;

- iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan iqtisodiyotni bir yoqlama tushunish, tirikchilik niqobi ostidagi talvasa, konservativlik, iqtisodiy riyokorlik, risoladagi [1] "xalol rizq" va "harom luqma" ilinjidagi "noinsof" tadbirkor, hunarmand, fermer, ishlab chiqaruvchilar;

- ma'naviy xarakterga ega bo'lgan globalizatsiyaning salbiy ta'siri natijasida kirib kelayotgan illatlar, ma'naviy tahdidlar, ma'naviy tajovuzkorlik, axloqsizlik, imon-e'tiqodsizlik, loqaydlik, giyohvandlik, axloqiy buzuqlik, g'arbona hayotga ko'r-ko'rona taqlid qilish "ommaviy madaniyat" kabilarni sanash mumkin.

Jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida shaxs imon va e'tiqodi masalasiga falsafiy yondashuv muhim o'rin tutadi. Zero, shaxsning ichki olami – "meni" tashqi bir butun olam bilan birlashuvida imon va e'tiqod go'yoki birlashtiruvchi omil rolini o'ynaydi. Binobarin, uning axloqiy qarashlari va amallari shu dunyoqarashga muvofiq yo'nalish oladi. Muayyan dunyoqarash asosida inson ongi va ahvoli ruhiyati (psixologiyasi)da vujudga keladigan nodir hodisa – imon tufayli odam jamiyat qonun-qoidalariga, tartib-intizomlari, tarixan shakllangan odob-axloq normalariga qattiq rioya qilib yashash irodasiga ega bo'ladi. Har kuni foydali bir amal, savobli ish qilish, jamiyatdagi huquq me'yorlarini dunyoviy

talqin etish, ularni buzmaslikka intilish kabi xatti-harakatlar ham imondan bo'lib, mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda har ikki dunyoqarash haqligiga ishonib, unga e'tiqod (ixlos) [2] qilgan shaxslarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Chunki jamiyat ma'naviy hayoti aynan shu ikki asos, ikki tayanch nuqtaning ustida mustahkam turishi lozim. Jamiyat muhitida mazkur asoslardan birortasi bo'shshgudek bo'lsa, yuqorida sanab o'tilgan destruktiv kuchlarning domiga tushish imkoniyati ortib boradi.

Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirish, axloqiy muvozanatning mazmun-mohiyatini, maqsadlarini aniqlashtirish, dunyoviy va diniy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligiga erishish orqaligina bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laonli javob topish, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining barqarorligiga erishish mumkin.[3]

Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining mazmun-mohiyati, muammolari va kontseptual yechimlarini kompleks tadqiq etish, ulardan milliy-ma'naviy taraqqiyotda samarali foydalanish nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Ya'ni:

– jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini axloqiy qonuniyat va tamoyillarini ilmiy asosda o'rganish va uning muammolarini yechish;

– jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining konstruktiv tomonlarini yuksaltirish, zamonaviy milliy taraqqiyotning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'naviy-axloqiy jihatlarini izchillik bilan ijtimoiy, axloqiy tahlil etish;

– ma'naviy-axloqiy muhitda insonlarning o'zaro ma'naviy hamkorligini kuchaytirish, shaxsda axloq ko'nikmalarini hosil qilish, uni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, irodasini shakllantirish va mustahkamlash, haqiqatgo'y va insonparvar qilib voyaga yetkazish;

– jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish va muntazam ravishda takomillashtirish hamda uzluksiz ta'lim jarayoniga tatbiq etish, chinakam ma'naviy-axloqiy muhitga mos milliy, ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni xalqimiz, shu jumladan, yoshlar ongi va qalbiga chuqur singdirish;

– axloqiy merosga vorislik mexanizmlarini kuchaytirish, imon butligiga erishishga doir amaliy tadbirlarni ishlab chiqish;

– O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat va u asoslanayotgan omillar tizimi nisbatan yangiligi, muayyan tajribalarga boyligi va pozitiv xususiyatlarni mujassam etishi bilan diqqatga sazovor. Shu sababli 130 dan ortiq millat va elatga mansub O'zbekiston xalqi ahil,

inoq va totuv yashab kelmoqda. Bu hol hozirgi mavjud ma'naviy-axloqiy muhit indikatorlarini rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куронов М. // <https://t.me/bayonoff>. (4 ноябрь 2019 йил).
2. Каримов И. (2010). *Иймон ва маслак тарихи*. Тошкент: "Шарқ".
3. Kamolov, D. R. O. G. L. (2022). O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA VA AXLOQNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 348-352.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK MASALALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich

*Namangan muhandislik-qurilish
instituti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari borasida amalga oshirilayotgan islohotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender yondoshuv, kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, taxminlash, bashorat qilish, feministik nazariya, gender nomutanosiblik, didaktika, ratsionalizatorlik.

Xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'likni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan [1].

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi bo'lg'usi mutaxassislar ijtimoiy faolligining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishiga yordam beradi.

Shu jihatdan gender yondashuv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan talaba-qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma'naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirish yo'lida to'laroq foydalanishga yordam beradi. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogika tarixida Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Elbek (Mashriq Yunusov) kabi allomalarimizning ilmiy yo'nalishlari asosini tashkil etgan.

Zamonaviy sharoitda jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy yo'nalishlarda amalga oshirilayotganligi ko'zga tashlanadi. Ularning falsafiy-metodologik jihatlari Simona de Buvuar, R.Xov, J.Lorber, K.Uest va D.Zimmermann, Ye.Kuchkina, V.Fesenko, ijtimoiy yo'nalishda V.M.Xvostov, O.Voronina, B.Fridan, Ye.Zdravomislova, gumanitar yondashuv asosida N.Vulf, K.Mishar-Marshal, K.Riberi, G.Mur kabi olimlarning ilmiy ishlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida chuqur tahlil etilgan.

Pedagog olimlardan M.Quronov, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Egamberdieva, E.Turdiqulov, A.Zunnunov, S.Ochil, J.Hasanboev, U.Mahkamov, R.Safarova kabilarning ilmiy izlanishlarida jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ayrim xususiyatlarga e'tibor qaratilgan. [2].

Zamonaviy sharoitda jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki izlanishlar BMT taraqqiyot dasturi YuNESKO, «Ochiq jamiyat» Ko'mak jamg'armasi instituti tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda o'quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Gender tenglik va farqlarni hisobga olgan holda taqdim etilgan o'quv materiallari yordamida talabalarda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, taxminlash, bashorat qilish ko'nikmalari izchil shakllanib boradi. Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quv jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi.

Respublikamiz olimlarining fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari

ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Mamlakatimizda o'tgan asrning oxirlarigagina kelib ta'lim jarayonida gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olish haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. Aslida gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvdir [3].

YUNESKOning 1998 yil 9 oktyabrdagi anjumanida oliy ta'lim tizimining maqsadi zo'ravonlik va zulmdan xoli bo'lgan jamiyatni barpo etish ekanligi e'tirof etildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullarni qo'llagan holda o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Yangidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida erkak va ayollar tengligi, qolaversa, barcha fanlarning gender omillari hisobga olingan. Jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki urinishlar BMTning «Taraqqiyot» dasturi, YUNESKO, «Ochiq jamiyat» «Ko'mak» jamg'armasi instituti tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi. Natijada gender tadqiqotlari kursi Moskva davlat universiteti, Xarkov universiteti va MDH davlatlarining qator oliy ta'lim muassasalari dasturlariga joriy etildi.

O'zbekistonning ba'zi oliy ta'lim muassasalarida 2001 yildan boshlab, tashabbuskor o'qituvchilar tomonidan maxsus kurslar shaklida gender tadqiqotlarining u yoki bu jihatlarni yorituvchi ma'ruzalar o'qilmoqda. Bu boradagi tajribalar talabalarning gender tadqiqotlariga qiziqishi kuchli ekanligini ko'rsatdi. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida gender tadqiqotlarining o'rganilishi bo'lg'usi mutaxassislar tafakkurining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishigagina emas, balki mazkur sohaning O'zbekiston ilm-fanida yanada rivojlanishiga yordam berishi, shubhasiz.

Gender farqlar hamda o'xshashliklar ta'lim jarayonida qiz va o'g'il bolalar o'quv faoliyatidagi o'xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu

esa, o'z navbatida, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. U yoki bu jinsga mansublik o'quvchi shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi. Qiz va o'g'il bolalar orasidagi gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan tadqiqotlar amalda gender pedagogikasi hamda psixologiyasida bir qadar keng ko'lamda amalga oshirilmogda. Bu, ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo'nalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jinsga asoslangan ta'lim-tarbiya – o'quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy vositalar yig'indisidir [3].

Bugungi kunda o'quv-biluv jarayonida gender farqlar va o'ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilmogda. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. O'quv-biluv jarayonida gender farqlarga oid o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta'lim natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislariga ayon bo'lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

«Gender tenglikka erishish strategiyasi asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash shular jumlasidan.

Darhaqiqat, qadim yunon Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791 yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligie'tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchiliknitarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish joiz. Albatta, barchamizga ma'lumki, 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda

huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan. BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, «Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktida ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi». Aynan mazkur xalqaro norma “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir”, - degan moddaning amaliy va huquqiy asosidir. Demak, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining sababi ham asoslidir.

Xulosa.

Gender strategiyasini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishiladi:

- Yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi.

- Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi.

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalar xotin-qizlarini ish bilan ta'minlash, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'zini o'zi band qilishga erishiladi.

- Eng asosiysi — xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda ularga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi.

Gender tenglik bu – huquqlarning tengligi demakdir. Hayotning har jabhalarida, jumladan ta'lim tizimida ayol va erkaklarga bo'lgan munosabat hamda imkoniyatlarning tengligini anglatadi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”нашриёти, 2021. – Б. 53.
2. Курбонова Г.М. Гендер тенглик ва фарқлар асосида таълим бериш имкониятлари// *Замонавий таълим*. 2015, 12. – Б. 59-63.
3. Курбонова Г., Абдуллаева З. Гендер ёндашув асосида талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириши назарияси// *Замонавий таълим*. 2014, 6. – Б. 37-40.
4. Маматов Н. Гендер тенглик. Болалар ва мажбурий меҳнатдан фойдаланишга қарши курашиш бўйича Халқаро меҳнат ташиқлотининг конвенциялари ва миллий қонунчилик. – Тошкент, 2018. – 78 б.
5. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований. / *Пол, тендер, культу-ра*. // *Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер*. – М.: 1999. – С. 23-53.

“PROBATSIIYA HISOBIDAGI YOSHLARNI MA’NAVIY TARBIYALASH, HUQUQIY ONGINI OSHIRISH VA IJTIMOIIY MOSLASHTIRISH”.

Abdilxamedov Abbas Abilatibovich,

Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya boshqarmasi muxim topshiriqlar bo‘yicha inspektori

Annotatsiya. *Maqolada mamlakatimizda yoshlarni ma’naviy tarbiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Yoshlar, jinoyat, huquqbuzarlik, yoshlar bandligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.*

“Ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi, xavfsizligimiz masalasi!”

SHAVKAT MIRZIOYEV

Bugun hayotimizning har jabhasida o‘zgarish, yangilanishlar kuzatilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida xalq manfaati va farovonligini ta’minlash maqsadi mujassam. Ana shunday ezgu amallar samarasida davlat va xalq o‘rtasidagi muloqot yangi bosqichga ko‘tarilib, xalq og‘irini yengil qilishga xizmat qiladigan yangicha tizim ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-

avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan va Prezidentimiz tomonidan 2016-yil 16-sentyabr kuni imzolangan, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni xalq va davlat idoralari o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini bajarmoqda.

Qonunning 2-moddasida "Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat" – deb belgilab o'tilganligi ham buning yaqqol misolidir.

Qonun qabul qilingandan so'ng ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh etish sari dadil qadam qo'yildi.

Qonunning 5-moddasida, Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari- "qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflikdan iborat" – deb belgilab o'tildi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-7 noyabr kunidagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida 2019-yil

1-yanvar kundan Ichki ishlar organlari tizimida mutloqo yangi Probatsiya xizmati tashkil etilib, xizmat vazifalari va funksiyalari belgilab berildi.[2].

Qaror talablari asosida Probatsiya yo'nalishida nazorat ostidagi shaxslarning jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishini oldini olish, ularni qayta tarbiyalash va **nazorat ostidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan profilaktik ishlar tashkil etildi.**

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 26-mart kuni PF-6196-sonli "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga

ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi. [3]

Farmon asosida **Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"** tasdiqlanib, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini kunlik nazorat qilishda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik mexanizmlarini joriy etgan holda probatsiya bo'linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish belgilandi. Shu bilan birga Prezidentimizning 2021 yil 29 noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli Farmoni qabul qilinib, Probatsiya xodimlarini xizmat faoliyatini tashkil etish belgilandi.

Farmonga ko'ra, probatsiya inspektorlarining faoliyati hududiy profilaktika inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etilishi belgilab berildi.

probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagilarning shaxsini o'rganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklanadi. [4]

Jumladan, 2023 yil 5 oy yakuniga ko'ra jami 5177 nafar shaxslar xisobga olinib, ularga jazoni o'tash tartib-qoidalari tushuntirildi. Tahlillarga ko'ra, adashib jinoyat yo'lga kirgan, sodir etgan qilmishidan chin ko'ngildan pushayomon bo'lagan va o'ziga to'g'ri xulosa chiqargan shaxslarga yengilroq jazo tayinlash, ularni ozodlikdan maxrum etish jazosini tayinlamay oilasidan ajratmagan holda qayta tarbiyalash, bilmay jinoyat sodir etgan shaxs ham avvalo inson ekanligini inobatga olib, ularning huquqlarini himoya qilish hamda ozodlikdan maxrum etish jazosi tayinlanib, qa'tiy tuzalish yo'lga o'tgan shaxslarni jazosini yengilrog'i bilan almashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Endilikda, Probatsiya hisobiga olingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, ularni hayotda o'z o'rnilarini topishlari va takroran jinoyat ko'chasiga kirib qolishlarini oldini olish, bu borada mahalla, ichki ishlar, hokimlik, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari, xotin-qizlar bilan ishlash, Yoshlar ishlari agentligi, prokuratura va boshqa mutasaddi tashkilotlar zimmasiga keng ko'lamli amaliy tadbirlar tashkil etish vazifasini yukladi. Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh boshqarmasi Probatsiya

boshqarmasi va uning hududiy bo'limlarida hisobda turgan 2078 nafar yoshlar bilan keng ko'lamli profilaktik tarbiyaviy tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yilning 5 oyi davomida yoshlarni bo' vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ish bilan bandligini ta'minlash, ular tomonidan takroran jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda Probatsiya hisobida turgan nazoratdagi shaxslarni o'zlariga munosib bo'lgan ish o'rinlari bilan ta'minlash borasida 116 marotaba "Ishga marxamat" mexnat yarmarkalari tashkil etilib, 931 nafari bandligi ta'minlandi. [5]

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. [6]

Bu boradagi ishlar izchil davom ettirilib, Probatsiya hisobida turgan, kasb-hunarga ega bo'lmagan 267 nafar nazoratdagi shaxslar "MONOMARKAZ"larda qayta kasbga o'qitilib, bugungi kunda talab yuqori bo'lgan, sartoroshlik, payvandchi, texnika ta'mirlash, yog'och o'ymakorligi va boshqa hunarlarga o'qitilib, kasb egasi bo'lishlariga ko'maklashildi.

Shuningdek, 421 nafar Probatsiya hisobida turib, jazoni o'tashga halol munosabatda bo'lgan, jazoni o'tash tartibi va shartlarini bajargan nazoratdagi shaxslarning jazosi jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ajrimiga asosan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan jazoni o'tashdan muddatidan avval shartli ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyun kungi "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №.299-son Qarori talablari asosida "tadbirkorlik, me'morchilik va hunarmandchilik" bilan shug'ullanish istagini bildirib, ariza bilan murojaat etgan 5 nafar yoshlarga subsdiyalar ajritilib, bandligi ta'minlandi.

E'tiborlisi shundaki, fuqarolarni jinoyat sodir etgandan keyin jazolash emas aksincha ularga o'z vaqtida nojo'ya qilmish uchun jazo muqarrarligini tushuntirish bu borada zamonaviy usulda shaxslarga psixologik yondoshish samarali foyda bermoqda.

Bu borada O‘zbekiston Islom Akademiyasi, “Intilish” nodavlat notijorat markazi va Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh boshqarmasi Probatsiya boshqarmasi hamkorlikda, Probatsiya hisobida turgan yoshlar ishtirokida joriy yilning o‘tgan 5 oyi davomida, 9 marotaba “O‘z-o‘zini anglash”, “Zo‘riqish holatlarini oldini olish”, “Favqulotda holatlarda birinchi yordam”, “O‘zaro muloqatchanlikni oshirish” mavzularida Psixologik treninglar tashkil etilib, yoshlarning bilim va ko‘nikmalari shakllantirildi.

Yoshlarni ma‘naviy jihatdan shunday tarbiyalash lozimki, ular Internet – axborot bozoriga kirganda faqat o‘zi, el-yurti uchun zarur, foydali, ma‘naviy asoslarga daxl qilmaydigan narsani olsin. Yoshlarga Internetdan, axborotdan foydalanish, axborot iste‘moli madaniyatini o‘rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma‘lumot kelmasin, qanday ma‘naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma‘naviy-ruhiy jihatdan ogoh va hushyor, turli axboriy xurujlardan o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi ma‘naviy tarbiyaning asosiy mezon bo‘lmog‘i lozim. [7]

Bu borada Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati Bosh boshqarmasi, Ichki ishlar Bosh boshqarmasi va boshqa mutasaddi organlar bilan hamkorlikda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ona vatanga muxabbat ruhida tarbiyalashda, qanday ota-onaga hurmatda bo‘lish, ustozning otadan ham ulug‘ ekanligini ta‘kidlash, Mahallaning tarbiya o‘chog‘i ekanligini tushuntirish mavzularida davra suxbatlari o‘tkazilib, ma‘naviy tarbiyasi oshirildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan PQ-4006-sonli qaror, PF-6196-sonli Farmon va PF-27-sonli Farmon hamda Vazirlar Mahkamasining 84-sonli qarorlarida aynan probatsiya inspektorlarining faoliyati mahalla, xotin-qizlar, Yoshlar ishlari bo‘limlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan uzviy bog‘liqlikda va hamkorlikda tashkil etish, bunda nazorat ostidagilarning ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda ularni qayta jinoyat sodir etish havfini aniqlash va tegishli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish vazifalarini belgilab berilishi ham bugungi kunda jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etilishini aniqlash, barvaqt oldini olish va profilaktik chora-tadbirlar belgilash uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o‘zgartirmoqda. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish

uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, yoshlarni hayotda o'z o'rnini topishlarida ko'maklashishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabr kunidagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 407-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabr kunidagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 aprel kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.

5. Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya boshqarmasining 2023 yil 5 oylik xisoboti.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr kunidagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-1059-son qarori.

7. J.Xasanboev, M.Turoпова va O.Xasanboeva. "Ma'naviy ahloqiy tarbiya asoslari" metodik qo'llanma. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashiryoti. Toshkent -2000 y.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОСТИ

Касимова Зумрад Сабиржановна
ТУИТ, кафедра «Гуманитарные науки»

Аннотация. В данной статье раскрыт вопрос о роли и значении ценностей, который сегодня оказывают большое влияние на формирование духовности, активной жизненной позиции, гражданского самоопределения молодого поколения.

Ключевые слова. Социальные ценности, образовательно-воспитательный процесс, Молодежная политика, патриотизм, нравственное и духовное развитие.

Международное сообщество признает, что решающую роль в прогрессе любого общества играет здоровое и гармонично развитое молодое поколение, энергичная, инициативная, всесторонне развитая, владеющая современными знаниями и навыками молодежь, от которой зависит будущее этого общества. Молодежь - реально действующая общественно-политическая, движущая сила перемен, которая привносит в жизнь новые тенденции и технологии. Молодым людям доверена задача раскрыть свой потенциал, построить мир для лучшей жизни будущих поколений, но для этого молодые люди должны быть вовлечены в образовательно-воспитательный процесс, где будет идти формирование социально-устойчивой личности, гражданина и патриота, конкурентно-способного на современном рынке труда, имеющего потребность в постоянном профессиональном развитии.

Понимание ценностей как совокупности идеалов, принципов, нравственных норм, представляющих приоритетное знание в жизни людей, имеют, как для отдельного социума, так и общечеловеческого уровня вполне конкретное гуманитарное значение. Ценности объединяют людей на основе их общезначимости, знание закономерностей их интегративного и консолидирующего характера вполне оправдано и продуктивно. Каждый человек живет в определенной системе ценностей, предметы и явления которых призваны удовлетворить его потребности. Разные ценности имеют различное значение и с этим связана иерархия ценностей. Как и сами ценности, их иерархическая структура носит конкретно-исторический и личностный характер.

В наше время остро стоит вопрос о ценностных ориентациях современного общества и, в частности, молодежи. Молодежь - это новое поколение, которое должно сменить родителей и поддержать общество и государство. В нынешней ситуации значительное внимание следует уделять молодежи как естественной среде формирования будущего и элиты государства. В современных условиях развития гражданского общества большое внимание уделяется воспитанию молодых людей, формированию у них социально-значимых ценностей.

Для того чтобы страна оставалась на уровне обеспечения благосостояния людей, нужно стимулировать (материально и морально) интеллектуальное развитие человека, создавать условия в социуме для востребованности образованных, талантливых людей. Отвечая потребностям изменившегося общества, новая парадигма образования должна быть не на словах, а на деле ориентирована на человека. Для этого необходимо, особенно при формировании новых структур, изучать ценностные ориентации индивидов, являющихся потенциальными ее объектами воздействия. Кроме того, влияние моральных факторов на развитие общества, стало ощущаться сейчас намного сильнее, чем раньше. Проблемы ценностных ориентации личности связаны с динамикой их приоритетов в процессе развития общества.

Образовательный фактор является, пожалуй, самым позитивным, поскольку связан с системным процессом образования, в которое помимо специальных профилирующих дисциплин включаются аспекты гуманитарного образования, которое имеет огромное значение в деле формирования ценностных ориентаций молодежи.

В Послание Олий Мажлису и народу Узбекистана, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, четко высказался по этому вопросу. “Как вы знаете, приоритетной задачей проводимой в Узбекистане государственной политики мы определили заботу о человеке и обеспечение его интересов. Действительно, самое дорогое наше богатство – это человек, наш народ-созидатель, уважаемые ветераны, молодое поколение страны.

И мы всегда будем делать все для того, чтобы жизнь каждого человека в нашей стране была мирной и счастливой, он был здоровым, получал хорошее образование, обеспечивал благополучие своей семьи.

Повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана”.[1]

Повышение качества образования является одной из актуальных задач педагогической науки и практики. Качество образования складывается из качества обучения и качества воспитания, которое тесно связано с формированием духовно-нравственных начал личности. Под воспитанием же мы понимаем создание условий для активной жизнедеятельности молодого человека, гражданского самоопределения и самореализации, максимального удовлетворения потребностей в физическом, интеллектуальном, культурном и нравственном развитии. В недавнем прошлом успех воспитания оценивался по тому, насколько удалось старшему поколению передать

детям накопленный опыт, знания и ценности, но сегодня этого явно недостаточно, так как детям предстоит жить в мире, существенно отличном от мира их родителей. Необходимо не только передать молодым опыт, но воспитать в них самостоятельность, инициативу, профессионализм и социальную ответственность, т. е. те качества, которых так не хватает предшествующим поколениям. Сегодня приходит понимание того, что молодежь не только объект воспитания, но и субъект социального действия, что требует принципиально иного типа социальной политики, одним из мест реализации которой становятся учебные заведения. Воспитательная среда представляет собой социально-ценностные установки, влияющие на личностное развитие субъекта и содействующие его вхождению в современную культуру. Также под воспитанием мы понимаем создание условий для активной жизнедеятельности молодого человека, гражданского самоопределения и самореализации, максимального удовлетворения потребностей в физическом, интеллектуальном, культурном и нравственном развитии.

Под социальным воспитанием в его современной трактовке понимается создание условий и стимулирование развития человека, его социального становления с использованием всех социальных влияний и воздействий. Социальное воспитание создает возможности для овладения человеком необходимыми с точки зрения общества социальными, духовными и эмоциональными ценностями (знаниями, убеждениями, умениями, нормами, отношениями, образцами поведения).[2]

Система принципов воспитательно-образовательной и социальной деятельности: гуманизация, взаимодействие, уважение, целенаправленность, ответственность, соответствие нормам национальных культур, демократизм, толерантность, учет индивидуальных особенностей, социально-профессиональная ориентация, понимание социальной значимости профессиональной деятельности.

В заключение нужно сказать, что отношение к молодежи всегда являлось актуальным для государства и общества. Оно вбирало в себя освоение новыми поколениями достигнутого уровня развития общества и государства и выражалось в том, во-первых, как молодежь воспринимает жизнь данного общества и функционирование данного государства; во-вторых, как оценивает молодое поколение свой вклад в общественное развитие и деятельность государства, и, в связи с этим, какова реакция предшествующих поколений на молодежь.[3]

Молодежная политика на предыдущих этапах не всегда отвечала потребностям развития молодежи как новой социальной силы. В этой связи наука и практика поставлены перед необходимостью осмыслить новую ситуацию, в которой находится сегодня молодежь. В результате этого осмысления в обществе должен выработаться новый взгляд на многие проблемы, в том числе на место и роль молодого поколения в жизни нашего общества, взгляд, более полно отвечающий требованиям новой исторической ситуации.

Государство призвано создать оптимальные условия для вовлечения юношей и девушек во все сферы социальной жизни, развивать творчество и самодеятельность молодежи, формировать у нее уверенность в собственных перспективах, обеспечить защиту социальных интересов молодежи.

Духовное и физическое здоровье молодежи - стратегический капитал страны и важный фактор ее современного развития. Формирование нравственных и духовных ценностей подростков и молодежи должно основываться на изучении и пропаганде мировых и национальных культурных ценностей и исходить из возрастного уровня. Характеристика ценностей, присущих молодежи, отражает многообразие жизненных условий и судеб молодых людей, широкий спектр ценностных ориентиров. Необходимо учитывать, что на формирование эстетических и нравственных ценностей молодежи существенно влияют средства массовой информации, особенно электронные. Пропаганда культа жестокости и насилия оказывает массирующее давление на психологическое состояние молодежи, формирует соответствующие модели поведения и стереотипы восприятия жизни. Ограничение пропаганды культа силы, рекламы сигарет и спиртных напитков - одна из первоочередных задач государства в деле духовного и физического оздоровления молодого поколения.

Усилия средств массовой информации, прогрессивной интеллигенции, направленность воспитательного процесса в целом должны способствовать созданию в обществе благоприятной среды, при которой престижными будут такие личностные качества, как порядочность, достоинство, патриотизм, профессионализм, уважение к старшим, осознание ответственности за себя и близких. Для того чтобы воспитывать юного гражданина, в первую очередь нужно привить ему духовность. Вопрос формирования духовности у молодежи выходит на первый план как проблема проявления

осознанности взрослой жизни для молодого поколения данного времени в определенной стране

В своем выступлении, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, на торжественной церемонии, посвященной Дню молодежи сказал: что «Никогда не забывайте о том, что вы являетесь создателями Нового Узбекистана и Третьего Ренессанса.

Мы и впредь будем мобилизовать все силы и возможности для осуществления ваших устремлений стать достойными такой чести и обрести свое место в жизни.[4]

Список использованных литератур:

1. *Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана, от 20.12.2022*

2. *Матвиенко, М. А. Ценности современной молодежи/ М.А. Матвиенко, Е.Егушев, Н.О.Пименов, Р.Р. Файрузов. //Молодой ученый. 2015.№10*

3. *Матвиенко, М. А. Ценности современной молодежи/ М.А. Матвиенко, Е.Егушев, Н.О.Пименов, Р.Р. Файрузов. //Молодой ученый.2015.№10*

4. *Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной Дню молодежи 01.07.2021 <https://president.uz/ru/lists/view/4463>*

O‘QUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA KITOBXONLIKNI KENG TARG‘IB QILISH ORQALI MA‘NAVIY – MA‘RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

Yusupova Dilnoza Fayzullaevna

*A.Avloniy milliy tadqiqot instituti
monitoring bo‘limi uslubchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchi yoshlarni ma‘naviyatini shakllantirish, kitobxonlikni keng targ‘ib etish orqali turli jinoyatchilik va huquqbuzarlik, yot g‘oyalar ta‘sirini oldini olish ayniqsa, farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilish eng dolzarb vazifa ekanligi to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *Mafkuraviy tahdid, tajavvuz, yot g‘oya, jinoyatchilik, xavf-xatar, ma‘naviyat, xuquqiy madaniyat, mafkuraviy immunitet.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Barchamizga yaxshi ayon, bugungi shiddatli zamon, dunyodagi ayovsiz raqobat muhiti bizdan juda katta mas’uliyat va safarbarlik bilan ishlashni, hamma sohada yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Mana shunday keskin sharoitda biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlar o‘rtasida hamjihatlik muhitini ko‘z qorachig‘idek asrashimiz zarur. Ayniqsa, farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilishga eng dolzarb vazifa, deb qarashimiz kerak. Agar biz ta‘lim-tarbiya, madaniyat va ma‘naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizimli asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qo‘rolmaymiz, o‘z maqsadlarimizga yetolmaymiz” [1] deb ta‘kidlaganliklari bejiz emas. Sababi, bugungi kunda ayrim yoshlarimiz o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik va xuquqbo‘zarliklar va turli yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishi oiladagi tarbiyaga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki, tashqi muhit va hoxish – istak, qurboni va irodaning sustligi, ilm o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qligi, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil etilmasligi kabi bir qator omillarga bog‘liq.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta‘lim tizimi oldida yosh avlodga zamonaviy bilim va hunarlar bo‘yicha mustahkam ta‘lim berish bilan birga, ularni har qanday mafkuraviy tahdid va tajovuzlarga nafaqat berilmaydigan, balki ularga qarshi faol kurasha oladigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan, katta ishonch va maqsad bilan yashaydigan fidoyi, yuksak ma‘naviyatli insonlar etib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar turibdi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an‘analari, urf-odatlar, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg‘unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg‘usini o‘quvchilar qalbi va ongiga yetkazish, ularni vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollik, mardlik, sabr-bardoshlilik, bilim va ma‘rifat egallashga intilish kabilar orqali tarbiyalash shaxs ma‘naviy kamolotiga olib boruvchi, qolaversa, turli yot g‘oyalar, mayda bezorilik va xuquqbuzarlik ta‘siridan himoyalashda eng samarali yo‘ldir. Ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kitob o‘qish va mutolaa qilishga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar o‘zlarini juda erkin, tetik seza boshlaydi, atrofidagi voqeahodisalarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko‘proq o‘zlari qiziqqan mashg‘ulotni kattalardan yashirincha bajarishga harakat qiladi. Yolg‘on so‘zlash, qilgan aybini yashirish va kattalar oldida o‘zini aqli raso qilib ko‘rsatishga urinadi. Bu yoshdagi o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazayotgani, nimalar bilan mashg‘ul bo‘lishini ota-ona, o‘qituvchi, murabbiy, mahalla faollari doimo nazoratga olishlari lozim. Keyingi yillarda

yuqori sinf o'smir yoshdagi maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlari ko'proq televizor ko'rish, kompyuter, internet ma'lumotlari, har xil ko'ngilochar tomoshalar bilan band bo'lmoqda. Bu o'smir yoshdagi o'quvchilarning turli yot g'oyalarni o'zlashtirishida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oldini olishda maktabda turli ma'naviy tadbirlarni o'tkazish samarali natija beradi. Masalan, 2-aprel – “Xalqaro bolalar kitoblari kuni”, 23-aprel – “Butunjahon kitoblar va mualliflik huquqi kuni”, “ Kitobxonlik kechalari”, “Yosh kitobxonlar tanlovi”ga bag'ishlab ijodkor shoirlar, qiziqarli asar mualliflari bilan uchrashuvlar, o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlik kechalari, turli mushoiralar, kitob marafonini tashkil etish maqsadga muvofiq. Yoshlarni kitobga qiziqishini orttirish vazifasining dolzarbligi jamiyatda yangi avlodning paydo bo'lishiga olib keladi. Yoshlarning har bir yangi avlodi oldingi avlodlar tajribasi, milliy an'ana va tarixini o'rganib, yangi ijtimoiy munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Bu, o'z navbatida, huquqiy madaniyatni shakllantirishning yangi usul, shakl va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Yuragida milliy iftixor tuyg'usi, vatan muhabbati jo'sh urgan bilimdon, dono, tadbirkor insonlar har bir mamlakatning salohiyati, kelajagini belgilaydigan buyuk kuchdir. Haqiqatan ham, o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ilmiy, tarixiy asarlarni o'qish, o'rganish, tahlil etishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish orqali ularda turli yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilinadi. Ilm-fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshiroq do'st yo'qligi xususidagi fikr va g'oyalarni juda ko'p eshitamiz. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini rivojlantiradi. Bugungi kunda kitob o'qishga bo'lgan munosabatning sustligi huquqiy ong va huquqiy bilimlarni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'quvchi yoshlarning huquqiy bilimlari yetarli emasligi, kundalik hayotda o'z o'rnini topishda, maktabdan keyingi faoliyatini tashkil etishda kasbiy huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Buning uchun maktab direktorlarining borshqaruv faoliyatidagi strategik qarorlar qabul qilishda pedagoglar va o'quvchilarning huquq majburiyatlarini to'g'ri tartiblantirishda huquqiy bilim, savodxonlik talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrda № 4884-son qarorida belgilanganidek, “Yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti.

Darhaqiqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas.

O‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ana shunday keng shart-sharoitlarni muassasada maktab direktori o‘z vakolatidan samarali foydalanib imkoniyatlarni yaratib berishi zarur. Buning uchun esa maktab direktori qat’iyatli startegik qarorlar qabul qilaoladigan va yuqori tashkilotlar bilan diplomatik aloqalarni o‘rnata olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, maktablarda faoliyat yuritayotgan sinf rahbarlari va kutubxona mudirlarinining ma’suliyatini kuchaytirish va nazoratini yangicha yondashuvlar asosida yondashishni talab etmoqda.

Xulosa o‘rnida quyidagi takliflarni keltirib o‘tish lozim:

- maktablarda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish;
- moddiy-texnik ta’minotni yaxshilash;
- kutubxona fondini mahalliy va xorijiy adabiyotlar bilan boyitish;
- har bir maktab uchun elektron kutubxon tashkil va o‘quvchilar, otanonalar faolligini ta’minlash;
- faol kutubxonlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida maktab rahbariyati va o‘qituvchilar jamoasini shaxsiy namuna bo‘lishini ta’minlash;
- muassasada kitobxonlar burchagini tashkil etish o‘quvchi-yoshlarni kelajakda ma’nan barkamol shaxs bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: «O'zbekiston», 2017. -104-b.

2. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (o'qituvchi uchun metodik qo'llanma). – T.: «O'qituvchi», 1996. -208-b.

3. Xayrullayev M.M. Abu Nasr Forobiy. (Hayoti, faoliyati va ta'limoti haqida qisqacha ocherk). – T.: «O'zbekiston Fanlar akademiyasi» nashriyoti, 1961. -88-b.

4. Yusupova D.F. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi turli yot g'oyalar ta'sirini bartaraf etish masalalari // Himoyaga muhtoj guruhdagi bolalar va ularning oilalariga majmuaviy yordamning samarali modeli – ularning jamiyatga ijtimoiylashuvini ta'minlash omili sifatida: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2020. –B.133-138.

5. Yusupova D.F. O'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish orqali jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish // Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar: 3-son Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Farg'ona, 2020. –B.195-201.

TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIIY – MA'NAVIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTLARNING O'RNI

G'oyibov Elyor Ilhomovich

*Yoshlar muammolarini o'rganish
va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti
tayanch doktranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning turli xil sohalarida yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishida ishtirokini kengaytirish, hamda ularni umuminsoniy va milliy

qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularda ijtimoiy manaviy faolligini oshirish ustuvor yoʻnalish hisoblanadi.

Kalit soʻzlari: *Vatanparvarlik, ijtimoiy – maʼnaviy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar, qonuniy manfaat, siyosat, jamiyat, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanga sadoqat, ustuvor yoʻnalishlar.*

Bugun jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan oʻzgarishlar va tub islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deya taʼriflanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy faollikni talab etmoqda. Xoʻsh, ijtimoiy faollik oʻzi nima? Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi boʻlishidan, qanday lavozimda ishlashidan qatʼiy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qoʻshishga, zamondan ortda qolmaslikka boʻlgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u oʻzini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Bugun yurtdoshlarimizning ijtimoiy faollashayotganini koʻrib turibmiz. Ijtimoiy tushkunlik, oʻzgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri oʻtdi, yurtdoshlarimizda tashabbusni, yangilikka boʻlgan intilishlarni guvohimiz. “Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi”, degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud.

Soʻnggi yillarda, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash, ularga qulayliklar yaratish, faoliyati erkinligini kafolatlash, davlat organlari va ular oʻrtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda

Taʼkidlash lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat tomonidan qulaylik va yengilliklar yaratish, ular faoliyatining erkinligini taʼminlash sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilayotgan boʻlsada, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ajratiladigan davlat ijtimoiy buyurtmalari sonini oshirish, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy ahamiyatga ega grant loyihalarini tayyorlash hamda ularni amalga oshirish boʻyicha bilim va koʻnikmalarini oshirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining huquqiy bilim va savodxonligini oshirish, qonunchilikda belgilangan talablardan xabardor etish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda malaka oshirish kurslari va turkum seminar tadbirlarini tashkil etish lozim.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mavzusi hech bir davrda o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan masaladir. Unga davlatning muhim, dolzarb ijtimoiy masalasi, deb qaraladi.

2022-yil 29-yanvar kuni "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" qabul etilgani to'g'risida xabar tarqaldi. Hujjatning 70-maqsadi: "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" etib belgilangan. Xususan, bunda "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" mas'uliyati yuklatilgan.

Demak, davlat rahbari takroran bundan buyon ham yoshlarning harbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish ishlarini jadal davom ettirilishini urg'ulamoqda.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarda Vatanni sevish, uni fidokorona himoya qilishga tayyorgarlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning ma'naviy-ma'rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatani va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi.

Yoshlarni turli yot g'oya va tahdidlardan asrash, o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash eng asosiy maqsadlardan biriga aylanmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, "Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi".

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini yaratish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog'i kerak.

Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzuimiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda. Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasiga jamuljam bo‘ldi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”, deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlatning xavfsizligini ta‘minlash barcha zamonaviy davlatlari qatori O‘zbekiston uchun ham hayotiy zaruratdir. Shularni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida o‘zining mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, shuningdek, davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarimasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslaydi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to‘laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to‘liq namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo‘lish jamiyatda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviy ongni shakllantirishimiz kerak. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo‘lida fuqarolar o‘rtasida kelishuv bo‘lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiymadaniy omillar ta‘sirida fuqaroviy ong o‘zgarib boradi va fuqaroviylik to‘g‘risidagi g‘oyalar taraqqiyotida o‘z aksini topadi. Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo‘lsa ular jamiyatdagi ijtimoiy faolligi shunchalik faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI:*

10.24411/2181-1385-2021-01132 Academic Research, O'zbekistan 885
www.ares.uz Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari
bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. –
Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

2. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan
birga quramiz. Toshkent: O.,zbekiston, 2017. - 488 b.

3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: "Ma'naviyat", 2003.

4. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. -
Andijon. 2003. 260 b.

5. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar
takomillashmoqda. G'.G'. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.

6. A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv
(ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdusamiyeva Dilrabo Abduvaxob qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

o'qituvchisi, doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda ta'lim muassasalarining o'rni, barkamol avlodni shakllantirishda turli bosqichdagi ta'lim muassasalari o'rtasida uzviylik mavjud bo'lishi lozimligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda bevosita ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozimligi, ta'lim muassasalarida diniy tarbiyaga ham qisman urg'u berish maqsadga muvofiqligi yoritilib, uning oqibatida erishilishi mumkin bo'lgan natija asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim muassasalari, ta'lim, ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ma'rifat, tarbiya, o'qituvchi, uzluksiz tarbiya, jamiyat, davlat, diniy ta'lim

Barchaga ma'lumki, har qaysi zamonda va makonda ta'lim, tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat masalalari bir biri bilan chanbarchas bog'liqlikda muhim ahamiyat kasb etgan va, albatta, mazkur masalalar tegishli jamiyatlarning qadriyatlariga monanad ravishda rivojlantirilgan. Huddi shuningdek, O'zbekiston hududida ham ta'lim, tarbiya, ma'naviyat masalasi doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu o'rinda, tarixga batafsil

to'xtalmaymizda, yuqoridagi fikrimizni dalillash uchun ayrim misollar keltirib o'tamiz.

XX asr boshlarida jadid bobolarimiz tomonidan xalqimizni ilmi, ma'rifatli qilish, o'zligini anglatish yo'lida anchagina say-harakatlar qilindi. Bu yo'lda, xattoki, o'z hayotlarini qurbon qilishdi. Ta'lim tarbiyaning ahamiyatini o'zlarining turli asarlarida ko'rsatib o'tdilar. Buni buyuk jadidchi bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najod, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan so'zlaridan ham anglashimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim-tarbiyaga e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi. Xalqimizni ma'naviyatini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ma'naviyat, marifat masalalariga bag'ishlangan "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari yozildi va bu kitobda mazkur sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etildi[1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham mazkur siyosat davom ettirilib, 2021-yil 26-martda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi, qarorda mazkur yo'nalishda oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib qilish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi[2].

Ma'lumki, har bir shaxs bolalik, o'smirlik davrini muayyan shakldagi ta'lim muassasasida o'tkazadi, shuning uchun aynan ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol shaxs sifatida kamol topishi uchun tarbiyaviy, ma'naviy-marifiy ishlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlardan quyidagilarni ahamiyatini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin:

bugungi kunda maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, oliy va professional ta'lim sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, bu borada boshqa tashkilot va idoralar bilan hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli yo'nalishlari o'quv rejalariga

bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma’naviyat” fanlari kiritildi.

2021-yil 1-apreldan boshlab oliy ta’lim muassasalarida Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor lavozimi joriy etildi.

Albatta, yuqorida sanab o’tilgan ishlar tahsinga sazovor, lekin biz mazkur sohada amalga oshirilishi lozim bo’lgan barcha ishlarni amalga oshirib bo’ldik deb, ayta olmaymiz. Oldimizda bu sohada qator yechim talab qilayotgan muammolar mavjud. Ya’ni bugungi kunda hech qanday chegara bilmas jahon internet tarmog’i dunyoning eng chekka hududlarigacha kirib bordi va uning foydalanuvchilarining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Internet tarmog’ida axborot tarqatuvchilar esa xilma-xil, aksariyati foydali ma’lumotlar tarqatsa, ayrimlari qasddan shaxslarni ma’nan qoloq qilishga qaratilgan ma’lumotlarni yoki faqatgina pul topish maqsadini ko’zlagan holda o’zi bilgan-bilmagan holda jamiyatimizni qadriyatlarida yod bo’lgan har xil ma’lumotlarni tarqatishni o’zlariga kasb qilib olgan. Achinarlisi shuki, aynan shu materiallar aksariyat yoshlar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilinyapdi va ularni o’zlari uchun namuna sifati ko’rishyapdi.

Mana shu muammolarni qanday bartaraf etishimiz mumkin? Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklabmi? Yo’q, albatta. Bu yo’l bilan ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmastligini hamma tushunib yetdi. Mazkur muammolarni faqat bitta va to’g’ri yo’l bilan – jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob berish orqali bartaraf etishimiz mumkin. Bunda:

birinchidan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish lozim;

ikkinchidan, ta’lim muassasalari bilan ota-onalar hamkorligini yo’lga qo’yish lozim,

uchinchidan, ta’lim muassasalariga diniy ta’limni ham olib kirish lozim.

Birinchi masalaga to’xtalsak, ta’lim muassasalari ma’naviyat, ma’rifat o’chog’i hisoblanadi, shuning uchun faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim oluvchilarning tarbiyasi bilan ham shug’illanish muhim ahamiyatga ega. Shu o’rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 23-avgust kuni bo’lib o’tgan videoselektrdagi ayrim masalalarga to’xtalsak. Videoselekt xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag’ishlandi. Yig’ilishda ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so’z bordi. Mazkur yig’ilishda davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to’xtalib, “Maktab – bu hayot-mamot

masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", - deya alohida ta'kidladi.

Bundan tashqari, yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizning 52-moddasida o'qituvchilarga bag'ishlangan yangi norma kiritilib, ularning asosiy vazifasi sifatida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitish ekanligi belgilandi[3]. Mazkur normadan kelib chiqadiki, o'qituvchilar o'quvchilarning ta'limi bilan bir vaqtda tarbiyasiga ham mas'uldirlar. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: tarbiyaviy ishlar qanday amalga oshirilishi mumkin? Avvalo, ta'lim muassasalariga qabul qilinuvchi kadrlarga qo'yiladigan talablardan biri ularning ma'naviy barkamol shaxs ekanligi bo'lishi lozim. Chunki hech kim o'zida bo'lmagan narsani boshqalarga bera olmaydi. Ikkinchidan, turli bosqichdagi ta'lim muassasalari o'rtasida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda uzviylik mavjud bo'lishi lozim, masalan, bog'chada tarbiyalanuvchilarni bir birlariga o'zaro hurmat va tenglik ruhida tarbiyalash, ya'ni muayyan bir tarbiyalanuvchi she'r aytayotganda qolganlar uni hurmat qilgan holda tinglashga o'rgatish, maktabda, oliy talim muassasasida ham mazkur harakatni davom ettirish orqali boshqa shaxslarni, ularning huquqlarini hurmat qiladigan shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Bu juda oddiy misol bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin maqsadga erishilsa, juda katta ijobiy natijaga olib kelishi mumkin. Shaxs bolalik paytida nima eshitsa, ko'rsa yoki o'qisa ularni tez o'ziga qabul qilib oladi va shu narsani to'g'ri deb hisoblaydi, shuning uchun mana shu to'g'ri bo'lgan narsalarni uzliksiz berish lozim, zero uzilish bo'lgan paytda uning o'rnini boshqa tushunchalar egallab olmasligi uchun.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari bilan ota-onalar o'rtasida doimiy hamkorlik bo'lishi lozim. Shaxs asosiy tarbiyani oiladan oladi, oilada tarbiyaviy masalada muammolar mavjud bo'lsa, ta'lim muassasasi ularni bartaraf etishga ko'maklashishi lozim yoki aksincha.

Shuningdek, barkamol avlodni shakllantirishda, diniy ta'limga e'tibor qaratish ham maqsadga muvofiq. Ya'ni ta'lim muassasalarida pedagoglar ta'lim oluvchilarga har darsni avvalida eng ibratli bo'lgan, yaxshilik va yomonlikni bir biridan farqlashga ko'maklashadigan hadisni aytib berishdan boshlashi mumkin. Bu esa, o'qituvchining shunchaki vatanni sevish kerak deb aytgan so'zlaridan ta'sirliroq bo'ladi. Bog'chadan universitetgacha

uzluksiz har kun ezgulikka chorlovchi soʻzlarni hurmatli oʻqituvchisidan eshitgan oʻquvchi, albatta, maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan barkamol shaxs boʻlib kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. I.Karimov. *Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch*. Toshkent. *Maʼnaviyat nashriyoti*. 2008 y. -B. 176.

2. 2021-yil 26-martda qabul qilingan PQ “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Prezident qarori. *Lex.uz*

3. 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. *Lex.uz*

OLIV TAʼLIMDA TAʼLIM VA TARBIYA UYGʻUNLIGI

Saburova Juldizxon Axmetovna,

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq taʼlimi” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy taʼlim muassalarida taʼlim va tarbiya jarayonining uygʻunligi ochib berildi. Maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarning yoʻnalishlari va taʼsirchanligini oshirish boʻyicha takliflar ilgari surildi.*

Kalit soʻzlar: *maʼnaviy-maʼrifiy ishlar, tarbiya, yoshlarga oid davlat siyosati.*

“Dunyoda ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlmagay” deyilgan Imom Buxoriyning “Al jomeʼ as sahih” kitobida. Ushbu haqiqat zamonlar osha oʻzining isbotini topib kelmoqda. Oʻsib kelayotgan yosh avlodni taʼlim olishga, ilm-fanning zamonaviy yutuqlarini egallashga boʻlgan qiziqishini oʻstirish, ularning bu boradagi tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqlarida takror va takror taʼkidlashi ushbu jarayonning uzluksiz davom ettirilishi, doimiy eʼtibor markazida ekanligini koʻrsatadi.

“Taʼlimni tarbiyadan tarbiyani esa taʼlimdan ajratib boʻlmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir” degan hayotiy gʻoyadan kelib chiqib, mamlakatimizda taʼlim va tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy-meʼyoriy asoslar yaratildi [1]. “Oliy taʼlim

tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishni yangi bosqichga ko'tarish vazifasi qo'yilgan edi [2]. Binobarin, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli yuritish ushbu tashkilotlar faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Barcha ta'lim muassasalarning har bir o'quv yili nihoyasida shakllantiriladigan yil yakunlari bo'yicha hisobotlari buni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularning o'zlari qatnashadigan turli tadbirlar samarasini kuchaytirishga yo'naltirilgan siyosiy-huquqiy va madaniy-ma'rifiy faoliyatini samarali tashkil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunday tadbirlarda oliy ta'lim muassasalari pedagoglari va xodimlarining faol ishtirokini ta'minlash muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda, ta'lim muassasasining barcha tarkibiy bo'linmalari tomonidan ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni reja asosida ijro etilishiga erishish kutilgan natijalarni berishi mumkin.

"Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon"dir [3]. Ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'quv-tarbiya jarayoni bilan uyg'unlikda olib borilishi, ularni yuqori saviya va ko'tarinki ruhda o'tkazilayotgani, jozibador tasvirlar, filmlar hamda ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilayotgani bu boradagi chora-tadbirlar ta'sirchanligini yanada oshirmoqda. Aynan shu tadbirlar tufayli yoshlarda ona yurtiga sadoqat, milliy qadriyatlarimizga hurmat, o'zligimizga begona, jamiyatimiz hayotiy tamoyillariga zid bo'lgan oqimlarga kirishining oldini olish, ularda ibratli xulq va yuksak madaniyatni shakllantirishga muhim asoslar yaratilmoqda.

Bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi – deyiladi 2017-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonida [4]. Shu maqsadda ko‘plab oliy ta‘lim muassalarida butun xalqimiz uchun e‘tiborli sanalar va milliy bayramlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, belgilangan rejalarga asoslanib ishlarning tashkil etilayotgani hozirgi davrga mos, zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Milliy universiteti tashkil topganligining 105 yilligi hamda “Yangi O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz” shiori ostida “Milliy universitet – keng imkoniyatlar maskani” nomli talabalar festivali doirasida o‘tkazilayotgan ilmiy va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ana shunday ko‘tarinki ruhda, talaba-yoshlar va pedagog xodimlarning faol ishtirokida o‘tkazilgani buni yorqin isbotlaydi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida oliy ta‘lim muassalarida barcha xodimlar va talaba-yoshlarga ta‘lim muassasasining “Odob-axloq qoidalari” muntazam ravishda tushuntirib borilishi natijasida mazkur qoidalar ruhiga mos sog‘lom ijtimoiy muhit yaratiladi. Ta‘lim muassasasi ichki tartib qoidalarining samarali ishlashida ushbu hujjatning ta‘siri yuqori bo‘lib, jamoaviy tartib-intizomni saqlashga xizmat qiladi.

Shu bilan bigra, talaba-yoshlarning o‘quv jarayonlaridan bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etishda yurtimizdagi madaniyat markazlariga, xususan muzeylar, teatrlar va turistik manzillarga tashriflar uyushtirilishi natijasi o‘laroq madaniy-ma‘rifiy tadbirlar oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.* – T.: “Ma‘naviyat”. 2008. 39-bet
2. “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son. [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-3171590#-3171628> (Murojaat sanasi 26.06.2023 yil)
3. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-5013007> (Murojaat sanasi 26.06.2023-yil)
4. Ramatov J. “Ta‘lim-tarbiya – barcha islohotlar zanjirining eng muhim xalqasi” 09.09.2021 [Elektron manba]. URL: <https://kun.uz/news/2021/09/09/talim-tarbiya-barcha-islohotlar-zanjirining-eng-muhim-halqasi> (Murojaat sanasi 26.06.2023-yil)

MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBAR XODIMLARI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI

Umarova Nilufar Xasanovna

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar xodimlari kommunikativ kompetentligining ma'rifatli shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, kommunikativ kompetensiya, uning xususiyatlari, kommunikativ kompetentlik, uning komponentlari, ta'lim islohotlari jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ko'rsatkichlari to'g'risida mushohada yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *rahbar, ta'limni boshqarish, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, kommunikativlik, kommunikativlik qobiliyati, kommunikativ mahorat, kommunikativ madaniyat, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy, huquqiy-siyosiy, ma'rifiy-dunyoviy jihatdan mustahkamlash va takomillashtirish "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida kelajakda buyuk davlatga aylantirishning muhim omili bo'lib, uning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalari Respublikamizning yangi tahrirda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida har tomonlama teran belgilab berilgan.

O'zbekiston uchinchi ming yillikda jamiyat hayotining turli sohalari jumladan, ta'lim tizimi sohasini tubdan isloh qilish jarayoniga qadam qo'ydi. Ta'lim har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, ma'naviyati va madaniyati darajasining ko'rsatkichi shuningdek, taraqqiyotining asosidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz [1] deb ta'kidladilar.

Shuningdek, hukumatimizning “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo’lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo’naltirildi. Ushbu konsepsiyada yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo’nalishlar bilan birga ma’rifiy shaxs tarbiyasining bir qator jihatlari belgilab berilgan [2].

Ma’rifat arabcha “arafa” – “bilmoq” ma’nosini anglatib, ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g’oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o’stirishga qaratilgan faoliyat. Ma’rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi [3].

Ma’rifat - xalqimiz, millatimiz qonidadir. An’anaviy sharqona qarashga ko’ra, ma’rifatlilik - faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma’naviyat, komil inson deganida aynan shunday odamlarni ko’z oldiga keltiradi [4].

Ma’rifat - bilim va madaniyatning qo’shma mazmuni bo’lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi [3].

Demak, ma’rifatni targ’ib qilishdek vazifani amalga oshirishda belgilangan maqsadlarga erishish uchun soha menejerlaridan qator kompetensiyalarga egalik talab etiladi. Bunday kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetensiyadir. Kommunikativ kompetensiya - bu kommunikativ qobiliyatlarni, bilim va ko’nikmalarni, ishbilarmonlik aloqalari sohasidagi hissiy va ijtimoiy tajribani o’z ichiga olgan insonning umumlashtiruvchi kommunikativ xususiyatidir.

Kommunikativ kompetensiya - bu kasbiy faoliyatda umumiy madaniyat va uning o’ziga xos ko’rinishini sintez qiladigan ajralmas sifat.

Kommunikativ kompetensiya – rahbardan to’laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda o’quvchi va jamoa a’zolari bilan ijobiy munosabatda bo’lishni taqozo etadi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojiga kommunikativlik, kommunikabellik, kommunikativlik qobiliyati, kommunikativ mahorat, kommunikativ madaniyat kabi xususiyatlar o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Kommunikativlik – shaxslar orasidagi o’zaro axborot almashinuv, aloqa, munosabat o’rnatilishida ifodalansa, kommunikabellik – aloqa va munosabatlar o’rnatish, muloqotga moyillik layoqati bo’lib,

kommunikabellik xususiyatiga ega bo'lgan shaxs muloqotda yoqimli va atrofdegilar bilan oson munosabat o'rnatadi [5].

Kommunikativlik qobiliyati - bu xodimlar bilan muloqotda bo'lishga, boshqaruv muloqotini to'g'ri tashkil etishga, bo'ysunuvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir [6].

Kommunikativ mahorat insonlarni to'g'ri tushunish, ular bilan hamkorlikda harakat qilish, muloqot qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalardan tashkil topadi.

Kommunikativ madaniyat - yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik [5] deb ta'riflanadi.

Kommunikativ kompetensiya quyidagi subkompetensiyalarni o'z ichiga oladi: lingvistik (lingvistik), sotsiolingvistik (nutq), ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy (pragmatik), strategik (kompensatsion), diskursiv, sub'ekt.

Kommunikativ kompetensiya og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarining moslashuvchanligi va ulardan foydalanish erkinligini nazarda tutadi va insonning o'ziga, tabiiy va ijtimoiy olamga bo'lgan munosabatlari tizimini tartibga soluvchi kategoriya sifatida qaralishi mumkin. Kommunikativ kompetensiya - bu murakkab muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlariga egalik qilish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda yetarli malakalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy me'yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, aloqa sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga hurmat, milliylikka xos bo'lgan kommunikativ vositalar yo'nalishi haqida xabardor bo'lish.

Demak, har bir umumta'lim muassasalari rahbar xodimlari o'z faoliyatlarida aniq belgilangan vazifalarni bajarish asnosida kommunikativ kompetentlik komponentlariga ega bo'lishi lozim. Bunday komponentlar bir qator ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari:

- o'zgalar fikrini hurmat qilishini namoyon qila olish;
- o'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish;
- o'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarini o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruxlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish;
- ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojini qondirish maqsadida o'z hamkasblari bilan axborot

kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa oʻrnata olish va hamkorlik qilish;

- taʼlim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish;

- oʻzgalar bilan oʻzaro hurmat asosida qurilgan munosabatlarni oʻrnata olishi;

- oʻzini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda ahloq normalariga rioya etish;

- milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning masʼuliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish [7].

Demak, umumiy oʻrta taʼlim muassasalari rahbar xodimlari kommunikativ kompetensiyasi taʼlim faoliyatini tashkil etishni bilish, bagʻrikenglik bilan ish yuritish, ziddiyatli vaziyatlarda oʻzini munosib tuta bilish, jamoasini demokratik boshqarish va oʻz-oʻzini boshqarish faoliyatida ishtirok etishi, xodimlar ijtimoiy faoliyati uchun koʻmaklashishi, oʻzining ilmiy-metodik faoliyati natijalarini taqdim etishni bilishi va rahbarning amaliy koʻnikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarini qay darajada namoyon eta olishi orqali maʼrifatli shaxs tarbiyasida ibrat boʻla olishi hamdir.

Xulosa qilib aytish lozimki, mamlakatimizda uzluksiz taʼlim islohoti jadallik bilan olib borilayotgan bugungi kunda maʼrifatli shaxs tarbiyasida maktab rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligi muhim oʻrin tutadi. Zero maktab rahbarlari kommunikativ kompetentligining takomillashishi avvalo dunyoqarashni oʻzgartirish, oʻz faoliyatiga tanqidiy nuqtai nazar bilan qarash, taʼlim va tarbiya sohasidagi maʼrifatli shaxsni tarbiyalash kabi maqsadga erishish yoʻlida tinmay izlanish va oʻzining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirib borishini taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan Oʻzbekiston xalqiga bayram tabrigi.*

2. *Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining“Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 1059- sonli Qarori 2019 yil 31 dekabr.*

3.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Maʼrifat>

4. *R.Sh.Ahldinov. Maktabni boshqarish sanʼati. – T.: “Fan”, 2006, 303 bet.*

5.*Pedagogik atamalar lugʻati. // 2008.*

6.R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. *Ta'lim menejmenti Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari uchun qo'llanma*. T.: "Voris-Nashriyoti" -2006, 263 bet.

7. *Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limining mazmuni hamda sifatiga qo'yiladigan davlat talablari /2018-yil 16-mayda O'zStandart agentligida ro'yxatdan o'tkazilgan.* – T.:2018.

ВЫСОКИЙ УРОВЕНЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ПЕДАГОГА КАК ФАКТОР УСПЕШНОГО ВЛИЯНИЯ НА МОЛОДЕЖЬ С ЦЕЛЬЮ ПОВЫШЕНИЯ ИХ УРОВНЯ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ.

Каланходжаева Камила Ботировна

*студент докторантуры факультета
Социальных наук кафедры Психология, НУУз*

Аннотация. В настоящее время все больше усугубляющийся духовно-нравственный кризис общества предъявляет новые требования к уровню духовного развития молодежи, трансформированию ее взглядов на окружающую действительность, изменению ее отношения к людям, себе и собственной деятельности. В статье рассматриваются вопросы эмоциональной культуры педагога как фактора успешного влияния на молодежь с целью повышения их уровня духовного развития, так как эмоциональная компетентность и культура педагога лежит в основе формирования доверительных отношений между субъектами учебной деятельности, что влечет за собой прививание духовно-нравственных качеств молодежи посредством положительного влияния педагога на них.

Ключевые слова: духовное развитие, духовно-нравственное воспитание, эмоциональная культура, эмоциональная компетентность, эмоциональная гибкость, эмпатия, эмоциональная устойчивость, педагогический такт, самоконтроль.

В современном мире динамично изменяются моральные и духовно-нравственные ценности и идеалы людей. На первый план все больше выходят материальные ценности, что приводит к духовно-нравственному кризису общества. В связи с этим одной из актуальных проблем стоящей перед обществом и государством является проблема

повышения уровня духовного развития молодежи, а также их духовно-нравственного воспитания в целом.

В современном мире человек живет и развивается, окруженный множеством разнообразных источников сильного воздействия на него как позитивного, так и негативного характера (СМИ, интернет и т.д.), которые ежедневно обрушиваются на неокрепший интеллект и чувства молодого человека, на его формирующуюся сферу нравственности. Противостоять этому может системная работа по духовно-нравственному воспитанию и развитию подрастающего поколения, ведь в противном случае в будущем могут возникнуть большие проблемы, связанные с отсутствием духовных общественных идеалов и бездуховности общества.

Духовно-нравственное воспитание и развитие способствует становлению у человека таких нравственных чувств, как патриотизм, гражданственность, совесть, долг перед родителями, ответственность за свои слова и поступки; таких черт нравственности, как терпение, милосердие; нравственной позиции в противоборстве злу, в проявлении любви; нравственного поведения, проявляющегося в готовности служения Родине, в проявлении доброго отношения к окружающим людям [1; 2; 3; 4; 5].

В современном мире, где часто можно встретить проявления жестокости, все больше и больше возрастает роль духовности и нравственных ценностей в воспитании человека. Педагог, имеющий возможность влияния на субъект, должен уделять духовно-нравственному воспитанию первостепенное значение. Именно педагог может прививать субъекту чувство патриотизма, социальную активность, гуманизм и другие положительные качества личности. Решающим фактором в нравственном воспитании молодежи является личный пример педагога. Если взаимоотношения между педагогом и воспитанниками характеризуются гуманизмом, душевностью, отзывчивостью, заботой, то данный фактор будет способствовать духовно-нравственному развитию молодежи. А для того чтобы их взаимоотношения были на высоком уровне доверия, большое значение имеет высокая эмоциональная культура педагога в контакте с подрастающим поколением.

К эмоциональной культуре педагога относится эмоциональная гибкость, эмпатия, эмоциональная устойчивость, педагогический такт, самоконтроль эмоционального состояния. То есть способность педагога понимать свои чувства и эмоции, контролировать их,

правильно понимать, искренне принимать переживания обучающихся, проявлять к ним теплоту и участие, способность к сопереживанию, сочувствию: отразить чувство, принять его, не растворяя полностью чувства другого в своих чувствах. Это понятие имеет некоторый оттенок интеллектуальности и входит в эмоциональную педагогическую компетентность [7].

Положительное, комфортное общение педагога с детьми возможно при грамотном умении выражать свои чувства, раскрыть свой внутренний мир. Выступая в роли эталона и норм человеческих отношений, учитель должен обладать способностью нравственно-волевой саморегуляции поведения, во взаимоотношениях с учащимися учитывать особенности саморегуляции каждого из них, так как эти особенности лежат в основе духовной жизни школьников и определяют эффективность педагогических воздействий.

Являясь авторитетом для молодежи, педагог с высокой эмоциональной культурой может оказывать существенное влияние на подрастающее поколение, прививать им систему духовно-нравственных ценностей, сформировать у молодежи такие нравственные качества, как любовь к Родине, доброта, коллективизм, трудолюбие, ответственность за свою судьбу и за все человечество.

Духовно-нравственное воспитание не только способствует формированию внутреннего духовного стержня человека, но и, безусловно, влияет на взаимоотношения человека с окружающим миром, на его этическое развитие и на гражданскую позицию, на особенности формирования мировоззрения.

Таким образом, обобщая проблему духовного воспитания и развития молодежи, можно сделать вывод, что эффективнее всего оно осуществляется в рамках гуманно ориентированного образования. Для современного общества характерно искажение базовых ценностей и подмена их материальными индивидуалистическими «ценностями». В связи с этим возникает необходимость расширить диапазон возможностей образовательного учреждения, в значительной мере усовершенствовать педагогический процесс духовно-нравственного воспитания в условиях гуманизации образовательного процесса, содействовать гармоничному развитию молодежи путем приобщения к истокам менталитета, к сокровищам духовной культуры народа, при этом уделяя внимание совершенствованию педагогических кадров и повышению их эмоциональной культуры и компетентности.

Список использованных литератур:

1. Амонашвили Ш.А. *Размышления о гуманной педагогике*. М.: Издательский дом Шалвы Амонашвили, 1995. 496 с.
2. Белинский В.Г. *Полное собрание сочинений. В 13-ти т. Т. I*. М.: Изд-во АН СССР, 1953. 457 с.
3. Вентцель К.Н. *Свободное воспитание: сборник избранных трудов*. М.: Профессиональное образование, 1993. 172 с.
4. Водовозов В.И. *Избранные педагогические сочинения*. М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1958. 236 с.
5. Добролюбов Н. А. *Литературная критика. Статьи и рецензии // Полное собрание сочинений / под общ. ред. П. И. Лебедева-Полянского. В 6-ти т. Т. 1*. М.; Л.: ГИХЛ, 1934. 675 с.
6. Кряжева Н.Л. *Развитие эмоционального мира детей*. Екатеринбург: У. — Фактория, — 2004.
7. Кулеба О.М. *Эмоциональная культура как компонент профессиональнопедагогической культуры вузовского преподавателя. — Теория и практика физической культуры. — 2007—№2*.

SHARQ MUTAFAKKIRLAR MEROSI ASOSIDA TALABA-YOSHLARDA POZITIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Yakubova Shaxnoza Erkinbaevna,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlar merosi asosida talaba-yoshlarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishda metodlardan foydalanishning ahamiyati va mohiyati yoritilgan.*

Kalit soʻzlar: *Metod, pozitiv, dunyoqarash, taʼlim, tarbiya, innovatsiya, bilim, intilish, reproduktiv, tushuntirish, mushohada*

Ajdodlarimiz merosining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati beqiyos boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosatida mazkur meros vositasida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning maʼnaviy-ijtimoiy mobilligini oshirish, madaniy olamini boyitishga alohida ehtibor qaratish nazarda tutilgan. Sharq mutafakkirlar merosi asosida talaba-yoshlarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishda metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Tarixiy madaniy tajribalardan inson komlotini ta'minlovchi vositalar va metolarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan. Pozitiv dunyoqarash har bir shaxsning o'z-o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda atrofdagilarga nisbatan aksiologik nuqtai nazardan yondashadi. O'z-o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, talaba-yoshlarni o'ziga nisbatan talabchanlik bilan yondashish, kasbiy rivojlantirish sari intilishga undaydi.


Mutafakkir ajdodlarimiz inson o'zi va atrofdagilarning xatti-harakatlari, yurish turishini muntazam nazorat qilishi zarurligini uqtirganlar. Talabalarda mazkur tajribani hosil qilish uchun tahlil qilish, umumlashtirish, refleksiyalash metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan bir qatorda pedagogik hamkorlik, suhbat, ishchan muloqot, dialog metodlari yordamida ham talaba-yoshlarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish keng imkoniyatlari mavjud. O'qituvchi-o'quvchi orasidagi munosabat shaxslararo munosabatning muhim ko'rinishi bo'lib, bu jarayonda suhbat, dialog, savol-javob, bahs-munozara metodlari alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlarni puxta o'zlashtirishlari uchun har bir talaba hamkorlikda ishlash, individual faoliyat ko'rsatish, guruhli hamda juft-juft bo'lib ishlash metodlaridan foydalanish tajribasini o'zlashtirish zarur[1].

Imitatsiya metodi talabalar ko'z o'ngida tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslarni gavdalandirishga xizmat qiladi. Bunda professor-o'qituvchilar kichik guruhlar, juftliklarda ishlash hamda guruhli ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq. Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli [2].

Keys. Ushbu metod yordamida talabalarga Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan pedagogik ta'limotlar taqdim etiladi. Natijada ularda madaniy-axloqiy va kasbiy sifatlar ezgu amallarni bajarishga rag'bat va ijtimoiy madaniy mobillik kabi sifatlar shakllantiriladi. Mazkur metod yordamida bo'lajak o'qituvchilar taqdim etilgan bilimlar ijtimoiy-madaniy modellarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar.

Keys metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan [2].

Natijada ajdodlarimizning merosini o'rganishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar qiziqarli, kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy- kasbiy sifatlarini namoyon qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.



Tushuntirish metodi. Bunda mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan barkamol shaxsni tarbiyalashning kontseptual asoslari talabalar ongiga tushuntirish metodi yordamida yetkaziladi. Barkamollikning tarkibiy qismlari va unga oid asosiy tushunchalar tahlil qilinadi. Professor-o'qituvchilar mutafakkirlar ilgari surgan asosiy g'oyalarni ajratib olib ularni talabalar bilan birgalikda muhokama qiladilar, aniq dalillar va misollar yordamida tushuntirishga intiladilar[3].

Ajdodlarimizning talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan tajribalarini talabalar ongiga yetkazishda reproduktiv metod ham bir qadar samarali hisoblanadi. Talabalar faoliyat algoritmlari yordamida bosqichma bosqich mutafakkirlarning shaxsni ezgu amallarni bajarishga undovchi g'oyalarni tahlil qiladilar va o'zlashtiradilar. Bunda bo'lajak o'qituvchilar amaliy harakatlarini o'zaro o'xshash xolatlariga

qiyoslagan holda bajarishga muvaffaq bo'ladilar. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning bunyodkorlikka asoslangan faoliyati timsolida atrofdagilarga ko'makdosh bo'lish, jamiyat farovonligi yo'lida harakat qilish, ijodkorlikka yo'naltirilgan faoliyat usullarini amalga oshirish motivlariga ega bo'ladilar [3].

Mutafakkirlarning pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan tajribalari va amaliy harakatlari professor o'qituvchilar tomonidan muammoli bayon metodidan foydalangan holda talabalar ongiga yetkaziladi. Bunday bayon talabalarni bahs-munozaraga kirishishga undaydi. Tarixiy tajribalar ustida mantiqiy fikrlash chuqur o'ylash operatsiyalari amalga oshiriladi. O'quv materiallarni muammoli bayon qilish metodida qo'llash natijasida talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan ko'plab metodlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishda mutafakkir asarlarining mazmuni bilan bog'liq xolda aniq topshiriqlar qo'yiladi talabalar tomonidan ularga qaytirilgan javoblar professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda aniq dalillarga tayangan holda talabalar o'z nuqtai nazarlarini bayon qiladilar, bir birlarining fikrlarini tinglab muammoli masalalarni muhokama qilishga intiladilar[4].

Evristik izlanish metodi yordamida ham mutafakkirlarning pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga oid g'oyalari talabalar tomonidan to'planadi, tahlil qilinadi va o'zlashtiriladi. Bunday metod sirasiga evristik suhbatlarni kiritish mumkin. Talabalarni mutafakkir ajdodlarimizning merosini o'rganishga nisbatan qiziqish uyg'otishda evristik suhbatlar alohida o'rin egallaydi. Professor-o'qituvchilar evristik suhbat metodi yordamida mutafakkirlarning hayotbaxsh, shaxsni ezgu amallarni bajarishga undovchi g'oyalardan bo'lajak o'qituvchilarni xabardor qiladilar. Natijada talabalarga mutafakkirlarning pedagogik hamda badiiy estetik mazmundagi asarlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish shakllanadi. Mazkur metod talabalarni izlanishga kitobxonlikka, mustaqil bilim olishga da'vat qiladi.

Tadqiqotchilik metod. Ushbu metod yordamida mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan didaktik hamda badiiy asarlar ustida talabalar kichik tadqiqotlar o'tkazadilar, referatlar, kurs ishlari va malakaviy bitiruv ishlarini yozadilar. Shu bilan bir qatorda mazkur asarlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham hosil qiladilar. Shu tariqa ularda turli manbalarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanib, ilmiy tadqiqot faoliyatini

amalgaga oshirish motivlari shakllanadi. Mazkur metod talabalarga mutafakkirlarning asarlari bilan yaqindan tanishish ularni har tomonlama chuqur tahlil qilish ushbu asarlar haqidagi ilmiy manbalarni o'rganish imkonini beradi[4].

Buyuk mutafakkirlarning pedagogik ta'limotlari yordamida metodlardan foydalanish talabalarda shakllangan pozitiv dunyoqarash, ularda xissiy irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Talaba o'z o'quv mehnati natijalaridan qoniqish, kasbiy faoliyat sirlarini qat'iyatlilik bilan o'rganish, bilimlarni o'zlashtirishda tirishqoqlilikning ifodalanishi, o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish, pedagogik ta'limotlarni o'rganish jarayonida o'z kuchini intellektual rivojlanish yo'lida safarbar qilish orqali namoyon bo'ladi. Pozitiv dunyoqarash talabalarda quyidagi shaxsiy sifatning shakllanganishiga ko'maklashadi: shijoatlilik, qiziquvchanlik, faollik, tezkorlik, intiluvchanlik, atrofdagilarga nisbatan qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo'lish, jamiyat ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatish, xayrixohlik, erkinlik, maqsad sari intilish, xissiy kechinmalarning barqarorligi, tashabbuskorlikning namoyon bo'lishi, Sharq mutafakkirlarining merosini o'rganish ehtiyojining namoyon bo'lishi, diqqatning markazlashganligi, qiyinchiliklarni bartaraf etish layoqatiga egalik kabilar[5].

Xulosa. Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari yoramida talabalarda pozitiv dunyoqarashni rivojlantirishning kognitiv va metokognitiv modellari: ijtimoiy va kasbiy faollikning namoyon bo'lishi, kasbiy rivojlanish motivlariga egalik, kasbiy kompetnsiyalarni puxta o'zlashtirishga intilish, bilimlarni muntazam boyitib borishga tayyorlik, topshiriqlarni bajarish jarayonida intellektual faollik ko'rsatish, faoliyat algoritmlarining qulay shakllarini qo'llash, kasbiy rivojlanish imkonini bera oladigan qo'shimcha manbalarni izlab topishda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Rahimov S. Abu Ali ibn Sino tahlil va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1997. – 93 b.*

2. *O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017*

3. *Salayeva M.S. O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish. Ped.fan.dokt.(DSc) dissertatsiyasi. - Nukus: 2019. 288 b.*

4. Sh.E.Yakubova. *Pedagogik ta'limotlar - talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllanishiga xizmat qiluvchi manba sifatida. Science and innovation. Volume 1 Issue 8. 2022-yil. 2179-2185 bet*

5. Sh.E.Yakubova. *The influence of the principle of nekbinism on the development of students (on the example of the spiritual heritage of eastern thinkers). In volume 20, of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) May 2023. Genius Journals publishing Group, Brussels, Belgium. 81-84*

BOLALAR MILLIY O'YINLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Maxammatov Ziyodullo Abdullajon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va qirg'iz xalqlari bolalar milliy o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi. Maqolada bolalar milliy o'yinlarining shakllanishi, uning turlari va ularning bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy o'yinlarning maktab ta'lim jarayonida, dars jadvalida bo'lishi zarurligi haqida ham fikr-mulohazalar bildiriladi.*

Tayanch so'zlar: *bolalar milliy o'yinlari, to'p o'yinlari, jismoniy tarbiya, aqliy kamolot, zukko bola, tarbiyaviy ahamiyati, ritmik izchillik.*

Kirish. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, qaysiki davlatda ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa o'sha davlatda rivojlanish, farovonlik bo'lganini ko'ramiz. Yana shu ayon bo'ladiki, milliy an'analar, milliy urf-odatlar, qadriyatlarga qat'iy amal qilingan davlatlarda yoshlar tarbiyasi, jismonan kuchli, mard bo'lib kamol topgan. E'tirof etish kerakki, Osiyo xalqlari, jumladan, bolajon o'zbek, qirg'iz xalqlari azal-azaldan yosh avlod tarbiyasiga eng muhim masala sifatida qaraydi. Ota-bobolarimiz farzandlar davrasida ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi mavzular muhokamasini: "Bolalar oldida bu haqda gapirib bo'lmaydi", - degan jumla bilan to'htatib qo'yishgan. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek, qirg'iz oilalaridan kattalar bolalar bilan, albatta, turli o'yinlar o'ynashgan va shu jarayonda "Voy, mening polvonim!", "Sen kuchli bo'lib ketyapsan-a!", "Aqli bolajonim-e, savollaringga tez javob topding-a!", "Siz hammadan kuchli, hammadan bilimdon bo'libsiz!" degan maqtovlar bilan ularni rag'batlantirib, ruhlantirib turishgan. Har qanday milliy o'yinlar bolalarni jismoniy chiniqtirish bilan birga aqliy kamolotiga katta xissa qo'shgan.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov G.Mardonovanning “O‘zbek milliy o‘yinlari” kitobiga bitgan so‘z boshida: “Ko‘p harakat qilgan organizm yashovchan bo‘ladi. Bobolarimiz kechirayotgan hayot tarzlariga, harakatlarga qarab o‘yinlarni kashf etganlar”, - deb yozadi. “Odam umri davomida qiladigan hatti-harakatlar, tirikchilik tashvishi, chetdan bo‘ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o‘yinlarga mavzu bo‘lgan. Dastlabki o‘yinlar insoniyatning bolaligi bo‘lgan terib yeyish davri bilan bog‘liq. Keyinchalik o‘yinlar mundarijasiga ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq turlari kirib keldiki, bu hayotiy jarayonlar, yashash uchun harakat qilish, intilish bilan bog‘liqdir. Bu o‘yinlar o‘sha davrdayoq odamlarning tabiat injiqliklariga dosh berishlariga, turli kasalliklarni yengib o‘tishlariga zamin hozirlab borgan” [1].

M.Murodovanning “Folklor va etnografiya” o‘quv qo‘llanmasida bolalar o‘yinlariga: “Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o‘yinlari o‘z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma‘no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sintetik hodisadir”, - deya ta‘rif berilgan [2]. Shuningdek mazkur o‘quv qo‘llanmada, bolalar o‘yinlarining muayyan bir qismi insoniyatning o‘z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllanganligi e‘tirof etiladi. O‘zbek, qirg‘iz xalqlari o‘z farzandlarini yaxshi chavondo, mergan, kuragi yerga tegmagan pahlavon, zukko, chaqqon qilib tarbiyalash maqsadida elning barcha marosimlarida ot o‘yinlari, kurash, turli tosh, arqon, koptok o‘yinlariga alohida e‘tibor qaratilgan. E‘tiborlisi, XI asrda yashab o‘tgan turkshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham bolalar o‘yinlari, jumladan, to‘p o‘yini – chavgon haqida alohida qaydlar mavjud.

“O‘yinlar – bolaning ham aqlan, ham jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O‘yin bolani jamiyatga aralashtiradi, jamiyatdagi o‘rnini topishiga sababchi bo‘ladi. Chunki o‘yinda bola o‘yinboshi bo‘ladi, ishtirokchi bo‘ladi, unga jamiyat, dunyo haqida bilim beradi. Eng qizig‘i bu bilimlar bolaga majburan emas, unga zavq uyg‘otib o‘rgatiladi. Bizning xalq pedagogikamiz mohiyati ham shundan iborat”, - deydi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti filologiya fakulteti folklor bo‘limi rahbari Shomirza Turdimov. O‘zbekiston hududida tarixan juda ko‘p milliy bolalar o‘yinlari bo‘lgan va ular avloddan avlodga o‘tib kelgan. “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Berkinmachoq”, “Oshiq”, “Boychechak”, “Xola-xola”, “Qorxat”,

“Ko‘pkari” kabi o‘yinlar ro‘yxatini mingga yetkazish mumkin. “O‘zbek xalq milliy o‘yinlari” kitobi muallifi Ro‘ziqul Mustafouqulov ana shunday milliy bolalar o‘yinlarining yuzdan ortig‘ini yig‘gan [3].

T.S. Usmonxo‘jayev, Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov muallifligidagi “Milliy va harakatli o‘yinlar” darsligida o‘zbek xalq o‘yinlari quyidagicha toifalangan:

1. Harakat sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar.
2. Darsning ayrim qismlarida qo‘llaniladigan o‘yinlar.
3. Turli yoshdagi bolalar faoliyatida qo‘llaniladigan o‘yinlar.
4. Bolalar jinsiga qarab qo‘llaniladigan o‘yinlar.
5. Ruhiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
6. Yorug‘ va qorong‘u sharoitlarda qo‘llaniladigan o‘yinlar.
7. Hayotiy zarur malakalarni egallashga yordam beruvchi va takomillashtiruvchi o‘yinlar.
8. Sport faoliyatida qo‘llaniladigan o‘yinlar [4].

Asosiy qism. Milliy o‘yinlar hayotiy zaruriyat zahirida xalqning asriy tajribasi asosida shakllangan bo‘ladi. Bolalar o‘yinlarining asosi jismoniy harakatlardan iborat va yosh avlodni faollikka o‘rgatishga qaratilgan. O‘zib kelayotgan yosh avlod milliy o‘yinlar bilan jismonan chiniqtiriladi. Har qanday yoshda ham jamoa tarzda o‘ynaladigan “Quvlamachoq”, “Otildi quyon”, “Oq terakmi, ko‘k terak” kabi milliy o‘yinlar bolalarning tez yugurishga, harakatlarini tezlik bilan o‘zgartirishga, o‘z kuchini aniq bir tarafga yo‘naltirishga o‘rgatadi. O‘yin davomidagi turli jismoniy harakatlar natijasida yosh organizmda yengil charchoq yuzaga keladi va bu organizmni tunda tiniqib dam olishiga sabab bo‘ladi.

Bolalar o‘yinlarida xalq donishmandligi mujassamlashgan. Bolalar uchun o‘yinlar ularning yosh darajasiga qarab tanlanadi. Kichik yoshdagi bolalar kam harakatli o‘yinlar – “Mehmon keldi”, “Echki bolalari”, “Halqaga tushirish” kabi o‘yinlarga jalb etilsa, o‘smirlik yoshidagi bolalar “Chillak”, “Lanka”, “Eshak mindi”, “Uzoqqa otish” kabi jismoniy kuch talab etiladigan o‘yinlar o‘ynashadi.

Farzandlar tarbiyasi doimiy e‘tiborda bo‘lgan o‘zbek, qirg‘iz xalqlarida bolalar jinsiga qarab qo‘llaniladigan o‘yinlar ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Qizlarga xos o‘yinlar ularni bir-biriga mehribon, e‘tiborli, sirdosh, sabrli bo‘lib kamol topishlariga qaratilgan. “Nina, ip va tuguncha”, “To‘ptosh”, “Arqoncha bilan tutish”, “Arg‘amchi bilan sakrab yugurish”, “Kim chaqqon”, “Chambaraklarga joylashish” kabi o‘yinlar qizlarni zehni, chaqqon, hozirjavob bo‘lib tarbiyalanishiga xissa qo‘shgan. Yigitlarimiz esa

“Tosh ko‘tarish, “Arqon tortish”, “Tortishmachoq”, “Tez yugurish”, “Ushlasang-minasan” kabi milliy o‘yinlarda kuch-quvvat to‘plashgan, mardlik, jasurlik, topqirlikka o‘rganishgan.

Biz bilamizki, Osiyo xalqlari kuchli ruhiyatga ega, mashaqqatlarga bardoshli, vaziyatlarga hozirjavob. Turli sinovlarga sabrli bo‘lgan o‘zbek, qirg‘iz xalqlarining bolalar o‘yinlarida ham ruhiy tarbiya ko‘rinishlari asosiy tamoyillardan biridir. Ruhiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar - “Signalga muvofiq harakatlar”, “O‘ylab top”, “Tulkilarni topish”, “Qatorlar bo‘ylab to‘plar poygasi” kabi o‘yinlar bolalarga fikrni bir joyga jamlash, mulohaza qilish, e‘tiborlilik, so‘zlarni tahlil qilish ko‘nikmalarni shakllantiradi. Osiyoning o‘zgaruvchang tabiatiga mos ravishda kamol topishga yordam beruvchi “Oq ayiqlar ovi”, “Doiradan surib chiqarish”, “Bo‘ron”, “Podachi” kabi milliy o‘yinlar esa tog‘li, tabiat qo‘ynidagi hududlarda keng ommalashgan. “G‘ozlar – oqqo‘shlar”, “Podsho va vazir” kabi faqatgina dam olishga qaratilgan, xushkayfiyat beruvchi o‘yinlar esa barcha yoshdagi bolalarning sevimli o‘yinlaridan bo‘lib har qanday sharoitda, har qanday hududda o‘ynash imkoniyatini beradi.

Xulosa. O‘sib kelayotgan bola atrofga hayrat bilan boqadi. Har bir voqea-hodisa bolaning tasavvurida o‘z izini qoldiradi. O‘zi tengqur bolalar bilan sho‘x kulgu ila o‘ynalgan milliy o‘yinlar inson hayotining so‘nggi lahzalarigacha yorqin xotira sifatida qoladi. O‘yin davomida shakllangan o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik, kechirimlilik, hamdardlik, topqirlik, hozirjavoblik, tezlik, mag‘lubiyatni tan olishlik, qiyin vaziyatdan chiqishlik, g‘oliblik hissi kabi bir qator tuyg‘ular borki, bular insonni komillikka yetkazadi. Har bir o‘yinning asl maqsadi bo‘lgan jismoniy chiniqishlik esa bolalar ta‘lim-tarbiyasidagi yetakchi tamoyil (prinsip)lardan biridir. Shuning uchun milliy o‘yinlar maktab ta‘lim-tarbiya jarayonidan – dars soatlari, dars jadvalidan o‘rin olishi kerak.

Xalq milliy o‘yinlariga maktablarda o‘quvchilarni har kuni, har bir dars soati avvalida yoki har bir oying, haftaning ma‘lum bir kunida jalb etish mumkin. Faqatgina bunda o‘quvchilarning yoshi, maktab joylashgan hududning tabiati, milliy an‘analaridan kelib chiqqan holda o‘yinlar tanlanishi kerak. Bu masalaga maktab psixologi, pedagogik kengash alohida e‘tibor qaratishi kerak. E‘tirof etish kerakki, maktab o‘quvchilarining talablariga to‘g‘ri keladigan milliy o‘yinlar tanlanganda ularning ta‘lim-tarbiyasida juda katta o‘zgarishlarga - yutuqqa erishish mumkin. Milliy o‘yinlar o‘quvchilarni, avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, xalqiga,

ona yurtiga boʻlgan muhabbatini oshiradi. Xalqiga, ona yurtiga muhabbatli yoshlar esa Vatanni obod etadi, millatni dunyoga tanitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mardonova G. *Oʻzbek milliy oʻyinlari*. T.: 2022. 3-b.
2. Murodova M. *Folklor va etnografiya*. -T.: 2008. 96-b.
3. <https://kun.uz/news/2022/03/20/otma-tayoq-girboydi-dim-dim-yoqolib-borayotgan-xalq-oyinlaridan-qaysilarini-bilasiz>.
4. Usmonxoʻjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulotov Sh.A. *Milliy va harakatli oʻyinlar: Darslik*. T., 2015. 49-b.

TAʼLIM MUASSASALARIDA MAʼNAVIY-MAʼRIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI

Bobojanov Safar Baxromovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
1 bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarining mazmuni, meʼyoriy-huquqiy asoslari, shaxs maʼnaviyatini shakllantirishdagi ahamiyati toʻgʻrisida maʼlumotlar oʻrin olgan.*

Kalit soʻzlar: *Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy gʻoyalar, fuqorolik jamiyati, ijtimoiy-maʼnaviy ehtiyojlar.*

Oʻzbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi oʻrni, mavqeyi, ahamiyatini belgilovchi ijtimoiy omillardan biri – maʼnaviyatdir. Bu Oʻzbek davlatchiligining uch ming yillik tarixidagi taraqqiyot tajribasida tasdiqlangan va shu sababli milliy mustaqillikning ilk yillaridayoq maʼnaviy qadriyatlar masalasi, ularni tiklash istiqloq davrining dolzarb ehtiyojiga aylandi. Shu sababli umumtaʼlim maktablarida olib boriluvchi maʼnaviy-maʼrifiy ishlar mohiyatini toʻla ochib berish uchun “maʼnaviyat” va “maʼrifat” tushunchalarining lugʻaviy maʼnolarini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Maʼnaviyat soʻzi – arabcha “maʼnolar majmui” – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuini anglatadi. Insoniyat oʻzining koʻp ming yillik tarixida hayotiy tajriba toʻplab, tabiat bilan hamkorlik qilib, jismlar, ularning oldidagi hossalari, hayot,

o'lim, o'zining Vatan, millat, qarindosh-urug'lari oldidagi burchlari va boshqalar to'g'risida tasavvur, bilim, tushunchalarni to'plab, yosh avlodga o'rgatib kelgan.

O'zbek xalqi ham barcha millatlar orasida o'ziga xos va mos bilimlar boyligi, ma'nolar majmuini to'plab, asrab, rivojlantirib kelmoqda. Milliy ma'naviyat uzviy rivojlanib keldi. Biroq 130 yildan ortiq davom etgan tutqunlik milliy ma'naviyatimiz asosi va uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy, milliy, ma'naviy rivojlanish sinfiylik natijasida edi. Millatni o'z ajdodlaridan ma'naviy uzoqlashtirish siyosati amalga oshirildi. Shu sababli mustaqillikning birinchi yillardan boshlab milliy ma'naviyatni tiklash, to'ldirish va boyitish davlat siyosatiga aylandi. "Chunki, har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z aql-farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirish millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan e'tiqod va qadr hissini boyitadi. Bu esa ibtido davridagi hukmron mafkuraga zid edi. Ana shu sababli "ma'naviyat" so'zi tilimizdan siqib chiqarilgan edi" [1].

Ma'rifat tushunchasi esa harakatni ifodalab, arabcha – "bilmoq" degan ma'noni beradi. ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat "ma'rifat" so'zining lug'aviy mazmunini tashkil qiladi. Ma'rifat so'zi tasavvuf ta'limotining markaziy tushunchalaridan biri. Ilmlarni tashqi va ichki bilimlarga bo'lgan so'fiylar ma'rifatini "ilmi botiniy" deb tushunishgan. Turkistonda ibtidoiy maktablar, madrasa va qorixonalarni ma'rifat maskani deb bilishgan. Hozirgi paytgga kelib ma'rifat maskanlari va vositalarining shakl va turlari ko'paydi, ta'sirchanligi oshdi. Bunga misol tariqasida kutubxona, teatr, kitob, gazeta va jurnallar, ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye, videoroliklar, kompyuter, internet tarmoqlari va boshqalar ma'rifiy ishlarning keng tarmog'ini hosil qilmoqda.

Sobiq sho'rolar tizimi davrida ma'rifat vositalari sobiq kommunistik mafkurani targ'ib qilish maqsadlarga bo'ysundirildi. Milliy mustaqillik bizga o'z ma'rifat tizimimizni yaratish imkoniyatini berdi. Shu tariqa Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati, milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etilib, rivojlanib bormoqda.

Fuqarolik jamiyati taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi ma'naviyatning yuksalishiga ta'sir qiladi. Ma'naviyat rivojlanishi esa ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqdir. O'zbekistonda ham ma'naviy-ma'rifiy

islohotlarga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab e'tibor kuchaytirildi. Chunki bugungi yosh avlodning ochiq axborotlashgan jamiyatda yashayotganligi, ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridan tarqatilayotgan umumjahon ma'naviy illatlarining ma'naviy bo'shliqqa kirib kelishi yoshlar ongi va dunyoqarshiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Uning oldini olish uchun jamiyatni g'oyaviy, ma'rifiy, axloqiy jihatdan yangilab borish, fikr va dunyoqarashni modernizatsiyalash yo'lga qo'yilishi lozimligi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yili 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-sonli farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha islohotlar olib borilishida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Ushbu belgilangan vazifalar yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrleydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va takomillashtirishning ma'naviy-madaniy asoslarini o'rganish va tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ushbu rivojlanish dasturida ma'naviy boyliklarni tiklash, millatning axloqiy namunasini takomillashtirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish [2] asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki shaxs ma'naviyati jamiyat ma'naviyatini tashkil etadi. Ular zamon va makon nuqtai nazardan kelib chiqib turlicha fikr bildirgan. Hozirgi kunda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, o'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar pedagogik muammo sifatida imkon darajasida tashkil etilgan, ammo davr talabi ularni yanada takomillashtirishga undamoqda. Maktablardagi

ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmundai o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada takomillishtirish o'quvchilar ota-onalari uchun mo'ljallangan tadbirlarni mazmunan boyitish lozim ekanligi aniqlandi.

O'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qiziqishini oshirish Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyotdagi ahvoli muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerakligini ko'rsatadi. Maktabda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariyalarini tuzish, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz haqida batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya'ni axborot ko'rinishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rasm-rusumlar va urf-odatlar, an'analar va h. k.) ajratish ijobiy pedagogik samara beradi. Maktablarda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni takomillash-tirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoini o'zida mujassam qilgan ozod va obod Vatan qurishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy musiqiy tadbirlar orqali bo'lajak barkamol avlodlarimizni badiiy-estetik tarbiyalash ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilari maktagacha, maktabdan tash-qari muassasa rahbarlari, tarbiyachilarining muqaddas burchlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at* (A.Jalolova, Q.Xonazarov umumiy taxriri). – T.: Sharq. 2000. 230-b.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda)
3. Mirziyoyev Sh. *Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – T.: O‘zbekiston, 2017-yil.
4. “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, faoliyatini yanada takomillashtirish, va samaradorligini oshirish Farmoni. 1996-yil 9-sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi ‘Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi Ustavi. To‘plam. Toshkent, 1997-y, 18-b.
5. Musurmonova O. *Oilada milliy tarbiya – shaxs milliy xarakterini shakllantirishning muhim vositasi. O‘zbek xarakterining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari. Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari.* T.: TDPI. 1999.

V. IJTIMOY AXLOQ MEZONLARI HAMDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMASIYASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

BUGUNGI YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY ONG RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA YOSHLAR.

Allayarova Marxabo Mavlonovna,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
SamDU dotsenti
Nekov Ikrom. SamDU magistri.

Annotatsiya: *Globalashuv jarayonida milliy ong rivojlanishining tendensiyalari, uning yuzaga kelish shart-sharoitlari o‘rganilishida milliy taraqqiyotni turli xavf xatarlaridan asrashga qaratilgan yoshlar milliy ongining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ushbu masala obyektiv o‘rganilmaganligi oqibatida bu sohada o‘ta murakkab muammolar yuzaga kelib, sobiq sho‘ro davlatining halokatga uchrashiga sabab bo‘lganligi ta’kidlangan. Boshlanayotgan yangi bosqich- Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarimizni yanada takomillashtirishga qaratilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida milliy ongni muhim vazifasi inson qadr- qimmat, manfaati va ma’naviy taraqqiyoti uchun xizmat qilishi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *globalashuv, milliy ong, tendensiyalar, milliy ong ma’naviy mezonlari, inson qadr- qimmat, inson manfaati, vatanparvarlik, Yangi O‘zbekiston, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar.*

Globalashuv jarayonida milliy ong rivojlanishining tendensiyalari, uning yuzaga kelish shart- sharoitlari o‘rganilishi, milliy taraqqiyotni turli xavf xatarlardan asrash masalasini tadqiq etish davr talabidir. Millatning o‘zini o‘zi turli xavf-xatarlardan himoya qilinishi uning ongi qay darajada rivojlanishiga bog‘liq. Ayniqsa, bugungi globalashuv sharoitida keskin urushlarning ortishi, yirik davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy jarayonlar ortishi, dunyoni bo‘lib olishga intilishlar, migratsiyaning oshib borishi, mintaqalarda tinchlikni asrash va taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmaslik milliy ongning yuksak darajada rivojlanishi va uning o‘zini asrab qolish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu yerda faqat bitta millat yoki xalq haqida emas, balki butun dunyo bo‘ylab millatlar va xalqlarning o‘z borlig‘ini, madaniyatini, ma’naviyatini asrab qolishi, kerak bo‘lsa o‘zini ma’naviy halokatdan saqlab qolish masalasi turibdi. Ushbu masalaning qanchalik darajada dolzarbligi va mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo

etishdagi islohotlarni amalga oshirishdagi ta'sirini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev bu borada "Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'ylaydi, bu borada amaliy choralarni ko'radi, aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi. Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini g'oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda"-deb ta'kidlanadi.[1:292]

XXI asr boshidan, butun insoniyat ma'naviy-etikologik inqirozlar keskinlashayotganligini anglay boshladi. Ayniqsa, XX asr oxirida ikki qutbli dunyoning bartaraf etilishi bilan: yangi tipdagi demokratik munosabatlar vujudga kelishi haqidagi bashoratlarning o'zini oqlamaganligi, aksincha, umuman xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga, xususan ma'naviy munosabatlarga, millatlarning o'zligini saqlab qolish va ma'naviy tahdidlar kuchayishi jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Ana shu jarayonlarda millatlar taqdiri, ularning o'zligini anglashi va istiqbolini o'ylash har bir fuqaro yoki millat vakilining asosiy muddaosi bo'lishi kerak. Bu masala hech bir davlat manfaatiz amalga oshmaydi. Ushbu tushuncha sobiq sho'ro hukmronligi davrida Ittifoq respublikalaridagi tadqiqotchilar uchun «yopiq» masala edi. Uni faqat sobiq markazdagi tadqiqotchilar uning manfaatlari yo'lida tegishli tashkilotlarga ma'lumotlar berish nuqtai nazaridan «pinhona» o'rganganlar. Bunday o'rganilishidan ko'zlangan asosiy maqsad — milliy ong rivojlanib, o'z huquq va erkinliklarini talab qilib chiqadigan millatlarning tanobini tortib turish bo'lgan edi. Shu boisdan mazkur masala oshkora ravishda ilmiy jihatdan fundamental tarzda o'rganilmay kelingan. Hatto, bu tushunchaga ta'rif sho'ro hukmronligi davrida e'lon qilingan lug'atlarda ham uchramas edi. Ushbu masala obyektiv o'rganilmaganligi oqibatida bu sohada o'ta murakkab muammolar yuzaga kelib, sobiq sho'ro davlatining halokatga uchrashiga sabab bo'lgan edi. Shu boisdan ham milliy ongni fundamental tarzda o'rganish faqat sho'ro hukmronligi barbod bo'lganidan keyingina boshlandi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham faqat mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan keyin bu masalani o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.

Bugun O'zbekistonda «milliy ong» tushunchasiga turli qarashlar shakllandi. Jumladan, akademik Erkin Yusupov milliy ongga quyidagi ta'rifni beradi: «...Milliy ong oddiy his-tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy,

huquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir»[2:165]. Psixolog olimi Zuxra Abduraxmonova fikricha "... milliy ong tariximiz va taqdirimiz birligini, bir ota-onaning farzandi ekanimizni anglashdir"[3:16].

Milliy ong tushunchasiga barcha qarashlarda unga milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaraydilar. Milliy ongning asosiy o'zagini e'tiqod tashkil etadi. Zero, e'tiqod (E. Yusupov) bo'lmasa, millat taraqqiy qila olmaydi, ayni paytda u millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida yuksak darajada rivojlansagina, u millatni taraqqiyotga yetaklaydi. E'tiqod shu millatga mehr-muhabbat, ishonch, qadrlash sog'inch, qayg'urish tuyg'ularini ifodalaydi. Shu bilan birga u millat vakillarining yagona tarix, taqdir birligini, bir ota-onaning farzandi (Z.Abduraxmonova) ekanligini anglash, bir millatga daxldorlik tuyg'usini ifodalagan holda millat istiqboli uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Milliy ong — millatning mavjud bo'lishi, uning tarixiy taraqqiyoti va istikboli bilan bog'liq. U millat shakllanishi, taraqqiy etishi va barqarorligini ta'minlaydi. Milliy ong millatning o'zi bilan shakllanib keladi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o'zigagina aloqador manfaatlari va maqsadlarining shakllanishigina yo'naltiradi. Shuning uchun xam milliy ong, millat bilan mutanosib ravishda uzoq tarixiy davrda uning turmush tarzi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va keng ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ta'siri natijasida shakllanib keladi. Shu ma'noda ham Millat taqdiri va manfaatini o'ziga qamrab olgan harqanday qarashlarlar tizimida milliy ong shakllanadi. Ayni paytda unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Milliy ong u yoki bu millatning o'z tarixi va o'zligini anglagan holda oldiga taraqqiyparvar maqsadni qo'yishi, uning manfaatlari hamda o'zga millatlar bilan bo'ladigan muloqotlarda ularning mavjudligini anglashi, uning taraqqiyoti yo'lida muammolarini tushunib yetishi va bartaraf etishda bilim va tafakkur ila jonkuyarlik bilan faol harakatga kelishi, uning istiqboli yo'lida yangi g'oyalar va qarashlarni namoyon qilishi, deyish mumkin.

Chunki millatda uning manfaat va maqsadlarini ifoda etuvchi ong bo'lsa-yu, ammo uni amalga oshirishga harakat qilinmasa, millatning ongliligi o'z ifodasini topa olmaydi. Shu ma'noda, milliy ong har bir millat manfaat va maqsadlarini amalga oshirish borasida faollik ko'rsatish darajasi ham hisoblanadi. Milliy ong milliy manfaatlarni aks ettiruvchi omil sifatida millatning moddiy va ma'naviy boyluklarini ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanib boradi. Ana shu jarayonda har bir millatga xos bo'lgan xususiyat, urf-odat, an'ana va qadriyatlar shakllanadi.

Milliy ongning rivojlanishida millatning ichki ma'naviy-ma'rifiy intellektual salohiyati va uning vatanparvarlik tuyg'usi muhim ahamiyatga ega. Millat o'zining shakllanish jarayonida o'z yaxlitligi va o'ziga xos bo'lgan barcha omillarni ham rivojlantirib boradi. [4:73] O'z o'rnida ana shu omillar ham milliy ong taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ya'ni har bir millat milliy ong rivojlanishida o'z salohiyatini yaratadi. Milliy ong rivojlanishining ma'naviy asoslarini milliy til, meros, tarixiy xotira, urf-odat, an'ana, axloq, qadriyatlar, milliy ta'lim-tarbiya tizimi kabilar tashkil qiladi. Uning ushbu xususiyatlari faylasuf olim S.Otamurodov tomonidan qayd etilgan[5:315] Mana shu omillardan millat ma'naviy ozuqa oladi, ular orqali inson va millat o'z-o'zini anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida butun dunyo bo'ylab millatlar va xalqlarning o'z borlig'ini, madaniyatini, ma'naviyatini asrash, o'zini ma'naviy halokatdan saqlab qolish masalasi yanada kuchayib bormoqda, uni hal qilishda jamiyat milliy ongini shakllantirish, boyitish dolzarb ahamiyatga kasb etmoqda. Ushbu masalaning qanchalik darajada dolzarbligi mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usini oshirish, intellektual salohiyatini oshirish, milliy qadriyatlarni boyitish, mamlakat istiqbolidagi faolligini oshirish va yangi marralarni belgilashga chorlash barcha ta'lim muassalari faoliyati tizimiga nazariy va amaliy hihatdan joriy etish lozim.

Ayniqsa, bugungi yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarimizda qabul qilinayotgan Konstitutsiyamizning yangi loyihasi Inson farovon yashashi, davlat barqaror rivojlanishi uchun samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi joriy qilinishiga, parlamentarizmni kuchaytirish uchun xizmat qilishga qaratilgan bo'lib, bu fuqarolarimiz va yoshlarimiz milliy ongining bir muhim fenomeni sifatida anglab yetishi sari dadil qadam qo'yiladi. Bu o'z navbatida yoshlarda milliy ongning yangi qirralari va omillarini his qilish, o'z hayotining ehtiyojiga aylantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoev: "Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag'rikenlik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, biz ana shu mustahkam zaminga tayanib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz" [1:50],- deya ta'kidlab o'tganlarida yoshlar milliy ongida yangi maqsadlarni qo'yishga chorlaydi. Boshlanayotgan yangi bosqich- Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarimizni yanada takomillashtirishga qaratilayotgan Uchinchi

Renessans jarayonida milliy ongni muhim vazifasi inson qadr qimmatini, manfaatini va ma'naviy taraqqiyoti uchun xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil, 292,50-betlar
2. Yusupov E. *Inson kamolotining ma'naviy asoslari*. -T.: "Univkrsitet", 1998, 165-bet.
3. Aburahmonova Z. *Milliy birlik tuyg'usining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari*. -T.: falsafa va huquq instituti, 2010. 16 –bet.
4. Quronov M. *Bolam baxtli bulsin desangiz*. Toshkent. 73-bet.
5. Otamurodov S. *Globalashuv va miliy- ma'naviy xavfsizlik*. Toshkent. 2015 yil, 315-bet.

YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONALARNING O'RNI

Haqberdieva Dilnoza Kamol qizi,
Respublika bolalar kutubxonasi matbuot kotibi
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Annotatsiya: *Maqola Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasida kitob va kutubxonalarining o'rni muhimligi, davlatning kitobxonlikni rivojlantirish borasidagi siyosati, yoshlarni kitobdan chalg'itayotgan omillar, o'quvchi-yoshlarni kitobxonlikka jalb etishning an'anaviy va yangi usullari haqida.*

Kalit so'zlar: *ma'rifatli shaxs, kitobxonlik, kutubxona, ma'naviy tahdid, onlayn to'garak.*

Insoniyat ilk so'z belgilari va harf kashf etilganidan buyon o'z tarixini, ma'naviy boyligini, bilimlarini toshlarga, daraxt پوستloqlariga, hayvon terilarga, qog'ozlarga bitib kelgusi avlodlarga qoldirib kelmoqda. Maqsad – ortdan kelayotgan avlod o'zlaridan ko'ra yaxshi yashashi, qalbi pok bo'lishi, vataniga, xalqiga sodiq bo'lishiga erishish. Deyish mumkinki, antik davrlardan bugungi kunimizgacha ana shu harakat, ana shu ezgu maqsad o'zgargani yo'q. Faqat imkoniyatlar va vositalar misli ko'rilmagan darajada o'zgardi – toshlar va terilar o'rnini kitoblar, kutubxonalar, elektron vositalar egalladi.

Lekin bu taraqqiyot, bu sivilizatsiya inson ongi va hayot tarzidagi qadriyatlarini, axloqiy mezonlarni o'zgartirib yuborayotgani ham sir emas. Bu muammoni o'rganayotgan olimlar, faylasuf va psixologlarning aksariyati asosiy sabablardan biri sifatida odamlarning, xususan yoshlarning kitobdan uzoqlashib borayotganini ko'rsatishadi. Kitobdan uzoqlashish haqida taniqli shoir Eshqobil Shukur shunday yozadi: "Odamzod qancha taraqqiy etmasin, qancha g'aroyib texnik vositalarni o'ylab topmasin, baribir hali o'z tafakkuri tarbiyasi uchun kitobdan yaxshi vositani o'ylab topgani yo'q. Kitob mutolaasi bizga hayotni mutolaa qilishni, insonni va xudoni mutolaa qilishni o'rgatadi. Kitobdan uzoqlashish bu tafakkurdan uzoqlashish, tafakkurdan uzoqlashish esa, odamning o'z-o'zidan uzoqlashishidir."1 Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmedov esa bu holga: "Hozirgi zamonda axborot juda ko'p. Bolalar kattalarga nisbatan ko'p narsani erta bilayapti, ikkinchi tomondan, kitobdan mahrum bo'lib borayapti. Bugun biz zamonaviy yo'llar bilan bolalarga kitobni targ'ibot qilaveraylik, bunda ota-ona o'ziga mas'uliyatni olsa, katta natija berishiga ishonaman. O'ylaymanki, kitobdan uzoqlashish, o'zlikdan, tarixdan uzoqlashishdir"2, deb ta'rif beradi. Tomchida quyosh aks etganidek shu ikki fikrdan ko'rinib turibdiki, uchinchi ming yillik boshiga kelib odamlarning, asosan, yoshlarning ongida axloq mezonlari va insoniy, milliy qadriyatlar o'zgarishining asosiy sababi kitob o'qimay qo'yish ekan. Kitob jamlash, o'qishga imkon yaratib berish, kitobxonlikka da'vat qilish vazifasini ma'lumki, qadimul ayyomdan hozirga qadar avvalo kutubxonalar bajarib kelgan. Buning uchun eramizdan taxminan 2600 yillar avval paydo bo'lgan ilk kutubxonalardan tortib Abbosiylar davridagi xalifa Ma'munning "Dorul hikma"sini, Buxorodagi Somoniylar sulolaviy kutubxonasini, G'aznadagi Mahmud G'aznaviyga qarashli saroy kutubxonasini, Amir Temurning Shahrisabz va Samarqanddagi saroy kutubxonasini, Mirzo Ulug'bek kutubxonasini3 eslash kifoya. Bugungi kunga kelib butun dunyoda inson ongi va qalbi tarbiyasi masalasiga an'anaviy kutubxonalar bilan birga elektron kutubxonalar ham xizmat qilmoqda. Shu o'rinda, "hozir kutubxonalar, kitob ahamiyatli emas, elektron kutubxonalar mutolaa ehtiyojini qondiradi" deb fikrlovchilarga bir faktni qayd etib o'tish juda muhim – texnik jihatdan taraqqiy etgan Yaponiyada 94 foiz, Koreyada 90 foiz kitobxon elektron E-Booklardan ko'ra kitobning o'zidan mutolaa qilishni afzal ko'rar ekan.4

Bugun qalbni, aqlni, axloqiy mezonlar va qadriyatlarini zabt etayotgan ommaviy madaniyat, seriallar, shoular, kompyuter o'yinlari, keraksiz axborotlar, aqidaparastlik g'oyalariga kitobxonlikni targ'ib qilish bilan qarshi turayotgan kutubxonalarning o'rni va vazifasi har doimgidan muhim

bo‘lib turibdi. Shu uchun ham mamlakatimizda kutubxonalarni boyitish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash, bu maskanlarga yoshlarni ko‘proq jalb qilish maqsadida Prezidentimiz tomonidan qator qarorlar qabul qilinmoqda. Yurtboshimiz 2019 yil 19 mart kuni bayon etgan 5ta muhim tashabbusning to‘rtinchi yo‘nalishi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilganligi, 2019 yil, 7 iyundagi PQ-4354 sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori⁵, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda 781-sonli “2020 - 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ana shular jumlasidan⁶.

2023 yil 5 iyulda esa Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuv chog‘ida prezidentimiz Shavkat Mirziyoev kelgusi yetti yildagi rejalariga to‘xtalib shunday degan edilar: “Har yili 100 ta eng yaxshi badiiy asar hamda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 50 ta badiiy kitoblar yaratish uchun ijodiy buyurtma berilib, mualliflarga 100 million so‘mdan qalam haqi to‘lanadi. Bu kitoblar 20 ming nusxadan nashr qilinib, maktablar va kutubxonalarga bepul beriladi. Bunga har yili 200 milliard so‘m yo‘naltiramiz.

Shuningdek, kelgusi yetti yilda kutubxonalarning 40 millionga yaqin kitob fondi to‘liq raqamlashtiriladi va ularning yagona katalogi yaratiladi. Umuman, 2030 yilga qadar mamlakatimizdagi barcha kutubxonalar to‘liq ta‘mirlanadi. Shu maqsadda 500 milliard so‘m ajratamiz”⁷. Shuningdek, kutubxonalar xodimlari ish haqi kelgusi yetti yilda 3 karra oshirilishi va maktab kutubxonachilarining ish haqi pedagog xodimlar oyligiga tenglashtirilishi ham ta‘kidlandi.

Bu degani davlatimizning kitobxonlikni rivojlantirish borasidagi sa‘y harakatlari yangi bosqichga o‘tayotganidan, yoshlarimizni yuksak qadriyatlarga ehtirom ruhida tarbiyalash vazifasini bajarishda davlat, otanonalar, pedagoglar va kutubxonachilar birgalikda ezgu maqsad yo‘lida harakat qilishida yangi istiqbollar ochilayotganidan darak beradi.

Bular albatta – imkoniyatlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, g‘amxo‘rliklar. Ammo, yoshlarni kitobga jalb etish faqat da‘vatlar bilan yoki kitob sovg‘a qilish bilangina bitib qolmaydi. Shuning uchun Respublika bolalar kutubxonasi o‘quvchi-yoshlarni kitobxonlikka jalb etishning an‘anaviy va yangi usullari qo‘llamoqda. O‘quvchi bilan yuzma-yuz va onlayn muloqot, turli konkurs va tanlovlar, shoir-yozuvchilar bilan onlayn uchrashuvlar, eng yaxshi kitoblarning targ‘iboti va taqdimotlari kabi vositalarlardan foydalanish ham ana shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda kutubxonamizda tashkil qilingan “Ijodkor bolalar” onlayn va offlayn adabiy to‘garagi faoliyatini alohida ta’kidlashim lozim. To‘garak tashkil etilgandan buyon yosh iqtidorlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy ijod namunalarini muhokama qilish, ularga ijod jarayoni va sirlarini o‘rgatish maqsadida doimiy mashg‘ulotlar o‘tkazib kelinadi. To‘garakning 300 nafardan ortiq a‘zolari o‘rtasida munatazam ravishda “Insholar tanlovi”, “Mushoira kechasi”, “Yilning eng iste’dodli yosh shoiri”, “Haftaning eng yaxshi kitobsevar bilimdoni”, “Eng iste’dodli kitobxon”, “Kun hikoyasi” kabi qator tanlov va viktorinalar o‘tkazilib kelinadyotgani katta samara beryapti. Eng asosiysi, to‘garak a‘zolarini ijodkorlikka da’vat etish, ijodiy ishlarini rag‘batlantirish ularni kitob mutolaasiga qiziqtirishda muhim rol o‘ynayapti. Hozirga qadar to‘garak a‘zolaridan 51 nafari ijod maktablariga qabul qilingani, ularning 400 dan ortiq she’rlari O‘zbekiston radiosidan o‘qib eshittirilgani, 160 ta ijodiy ishlari bosma nashrlarda chop etilgani, 1500 dan ortiq ijodiy ishlari ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgani, 10 xil nomdagi kitobxonlik tanlovlari muntazam o‘tkazib kelinayotgani, yozuvchi va shoirlar bilan 40 dan ziyod ijodiy uchrashuvlar, 100 dan ortiq she’riyat kechalari o‘tkazilgani o‘z samarasini bermoqda.

Yoshlarimizning milliy qadriyatlarimizga ehtirom, vatanparvarlik ruhida kamol topishlarida, ular ongini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishda kutubxonalarning, kutubxonachilarning roli va ahamiyati har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Omochdan kosmik kemagacha yoxud axborot ochko‘zligi» Maqola. (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/eshqobil-shukur-omochdan-kosmik-kemagacha-yoxud-axborot-ochkozligi.html>)

2. «Kitobdan uzoqlashish tarixdan uzoqlashishdir». Suhbat.infolib. №3.2017.

3. Sodikova, M. R. “Ilk va o‘rta asrlarda vatanimiz hududida faliyat olib borgan milliy va sulolaviy kutubxonalar, ularning milliy madaniyatimizdagi o‘rni va ahamiyati”. Maqola. <https://moluch.ru/archive>.

4. <https://islom.uz/maqola/7225>

5. <https://lex.uz/docs/4372449>

6. <https://lex.uz/docs/5160827>

7. <https://kun.uz/news/2023/07/05/shavkat-mirziyoyev>

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Жамалова Гулнора Гуломовна

*Ташкентский государственный экономический
университет, к.полит.н, доцент,*

Айматова Фариды Хуразовна

*Ташкентский государственный экономический
Университет старший преподаватель*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье рассмотрены вопросы воспитания совершенной личности в демократическом государстве, дальнейшей демократизации и либерализации страны, воспитания нравственно зрелой молодежи в социально-экономической сфере.*

Изучена роль непрерывного образования в обеспечении духовной зрелости молодежи нашей страны и повышении правовой культуры, вопросы воспитания нравственно зрелых, всесторонне развитых людей в социально-экономической сфере, также рассмотрены вопросы повышения правовой культуры и расширения мировоззрения.

Ключевые слова: *правовое демократическое государство, демократизации и либерализации страны, нравственно-устойчивая молодёжь, экономические реформы, политическая и правовая культура.*

Конечная цель реформ, осуществляемых сегодня в нашей стране - построение правового демократического государства, гражданского общества, воспитание совершенной личности. Как отметил глава нашего государства, успех реформ напрямую зависит от скорости наших усилий по дальнейшей демократизации и либерализации страны, общественно-политической активности наших граждан, высокого уровня их политической и правовой культуры.

Зрелая профессиональная молодежь, способная взять на себя ответственность за завтрашний день и развитие нашей страны, является мощной силой, прилагающей усилия для развития нашей страны. Повышение политической и правовой культуры играет важную роль в воспитании молодежи в духе патриотизма и гуманизма. Формирование правовой культуры молодежи означает заботу об ее культурном, духовном, физическом и умственном развитии.

В нашей стране с первых лет независимости особое внимание уделяется воспитанию молодежи. Тот факт, что защита прав молодежи поднялась до уровня государственной политики, является ярким тому подтверждением. Конституция Республики Узбекистан, принятые законы «Об образовании», «Об основах государственной политики в отношении молодежи в Республике Узбекистан», «Национальная программа подготовки кадров», «О гарантиях прав ребенка», «О защите инвалидов в Республике Узбекистан», «Школа ряда мероприятий по повышению политической и правовой культуры молодежи в государственных программах развития образования», «Комплексная программа совершенствования правового воспитания молодежи», «Год молодежи», «Год крепкой семьи», **«Год поддержки активного предпринимательства, инновационных идей и технологий»**, «Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения» и другие нормативно-правовые документы.

Главной целью политики нашего государства является создание достойных условий жизни для всех проживающих в нашей стране, укрепление нашей мирной жизни.

Благодаря независимости идея формирования духовности гражданского общества, которая помогает демократическим ценностям глубоко укорениться в мышлении и политическом поведении членов нашего общества, служит прекрасной основой для повышения политической и правовой культуры нашего народа. Сегодня в нашей стране создаются все условия для тех, кто признает свои права, самостоятельно реагирует на происходящие вокруг события, формирует свои личные интересы в гармонии с интересами страны. Повышение правосознания и правовой культуры в обществе является одним из важных условий обеспечения верховенства закона и укрепления законности.

За последние годы в стране проведена значимая работа по коренному реформированию национальной системы права, формированию в обществе правовой культуры и подготовке квалифицированных юридических кадров.

Вместе с тем сохраняется ряд проблем и недостатков, препятствующих формированию уважительного отношения к правам и свободам человека, повышению правосознания и правовой культуры населения, уровня правовой грамотности граждан в обществе.

В частности, осуществляется системная и взаимосвязанная работа по повышению нравственной культуры, прежде всего в сфере образования и воспитания. Долгие годы данный вопрос воспринимался как задача только правоохранительных и других отдельных государственных органов, при этом не обеспечивалось должное участие семьи, махали и других институтов гражданского общества. Высокая правовая культура является основой демократического общества и показателем зрелости правовой системы» показывает, насколько актуален этот вопрос на сегодняшний день.

В построении развитого правового демократического государства и гражданского общества важно, чтобы молодежь обладала широкими знаниями и кругозором. Для формирования у молодежи высокой духовности и нравственности необходимо с детства прививать уважение к традициям и обычаям нашего народа, воспитывать ее в духе гармоничного сочетания национальных и общечеловеческих ценностей, повышать интеллектуальный потенциал.

В настоящее время особенно важно оказывать юношам и девушкам всемерную и постоянную помощь в получении более полной и достоверной информации о происходящих в нашей стране демократических реформах и преобразованиях посредством разъяснения сути действующих законодательных актов. По данным социологов, сегодня примерно более 60 процента населения Узбекистана составляют молодые люди в возрасте до 30 лет. И потому воспитание полноценной, всесторонне развитой и свободно мыслящей личности является одной из актуальнейших задач. В целях повышения политической грамотности молодежи, осознания ею сути демократических реформ, общественно-политических и экономических процессов нижней палатой парламента в девяти областях республики в рамках молодежного фестиваля «Мы - сыны великой Родины!» реализован проект «Депутат и молодежь». В ходе этих мероприятий молодежь была ознакомлена с сутью и значением Концепции дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране, в которой обоснована верность модели поэтапного развития нашей страны и необходимость дальнейшего следования по этому пути.

В повышении политической и правовой культуры молодежи проведение семинаров, круглых столов и других политико-культурных и просветительских мероприятий по различным темам общественно-

политических процессов, проблем и угроз в мире играет важную роль в расширении их мировоззрения и повышении их политическое мышление.

Поскольку развитие нашей страны находится в руках молодежи, на что следует обратить больше внимания, чтобы обеспечить всестороннюю и нравственную зрелость молодежи, повысить ее правовую культуру?

- обеспечение системности на всех этапах непрерывного образования;

- воспитать молодежь нравственно зрелыми людьми, устойчивыми в социальных и экономических сферах;

- воспитание мировоззрения молодежи в духе современных требований за счет повышения качества и эффективности образования.

Правовая культура является одной из составляющих общечеловеческой культуры. Ее рост происходит через совершенствование и знание законодательства, имеющее непосредственное отношение к жизни и деятельности людей. По мере роста политического самосознания, правовой культуры и политической активности людей необходимо постепенно передавать государственные задачи негосударственным организациям и органам самоуправления граждан. Это напрямую направлено на решение задач углубления демократических реформ, реализуемых в нашей стране, формирования основ гражданского общества. В нашей стране действуют такие национальные правозащитные институты, как Уполномоченный по правам человека, Национальный центр по правам человека, Общественный центр «Общественное мнение», Институт мониторинга действующего законодательства и ряд других организаций.

Повышение правовой культуры членов нашего общества, повышение их политической активности будет происходить за счет достижения желаемых результатов политических реформ, реализуемых сегодня в обществе, и той степени, в которой эти реформы поддерживаются гражданами общества. Гарантией развития служит уникальное социальное сотрудничество государства и общества.

Одним из актуальных вопросов являются экономические реформы, направленные на развитие предпринимательства и

укрепление его нормативно-правовой базы в условиях экономической либерализации. Не будет преувеличением сказать, что управление бизнесом, который требует небольших инвестиций, может быть быстро модернизирован и может хорошо адаптироваться к изменяющимся требованиям рынка, стало потребностью часа. Малый бизнес является важнейшим сектором, наполняющим рынок необходимыми товарами и услугами и определяющим структурную основу экономики.

В нашей стране предпринимательство издавна свойственно нашему народу и имеет высокий статус в обществе. В частности, Амир Темур очень ценил в своем царстве предпринимателей и мужественных людей: «Я видел, что один человек с твердой решимостью, предприниматель, трезвый, воин, смелый, честолюбивый человек лучше тысячи беспечных, беспечных людей». «Один человек с большим опытом может дать работу тысячам людей».

С этой точки зрения, сегодня проводится большая работа, чтобы сделать день более предпринимательским, особенно для того, чтобы всячески помочь молодежи реализовать свои бизнес-идеи. В Узбекистане сформирована прочная законодательная и правовая база для развития предпринимательства, которая регулярно совершенствуется. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию системы государственной защиты законных интересов бизнеса и дальнейшему развитию предпринимательской деятельности» предусматривает развитие предпринимательской деятельности и защиту законных интересов бизнеса, а также как коренное улучшение деятельности Торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан. В указе определены важнейшие задачи Торгово-промышленной палаты, такие как защита прав предпринимателей, улучшение деловой и инвестиционной среды, поддержка предпринимательской деятельности, взаимное сотрудничество с государственными органами, образование и обучение субъектов предпринимательства, привлечение внешнеэкономической деятельности и инвестиций.

На основании решений от 7 июня 2018 г. о реализации программы «Каждая семья – предприниматель» № ПП-3777 и от 14 июля 2018 г. «О мерах по совершенствованию и повышению эффективности работы по обеспечению занятости населению» № УП-3856 льготные кредиты предоставляются населению и субъектам хозяйствования,

изъявившим желание заниматься определенной трудовой деятельностью, направленной на получение дохода и расширение своей деятельности, по ставке 8 процентов годовых, с льготным периодом от 3 до 6 месяцев на срок не более 3 лет. В связи с этим с 1 января 2020 года создана возможность выдачи кредитов по ставке рефинансирования Центрального банка Республики Узбекистан через АТ Халк Банк, Микрокредит банк и Агробанк.

Молодежь также является большой силой в развитии экономики страны. В нашей республике работает около 230 тысяч молодых предпринимателей, фермеров, квалифицированных мастеров. Государство создает необходимые условия для их дальнейшего расширения. Только в рамках программы «Молодежь – наше будущее» было выделено более 1 трлн 630 млрд сумов льготных кредитов около 8 тыс. бизнес-проектов представителей молодого поколения, в результате чего создано около 40 тыс. новых рабочих мест. созданный. «Молодые предприниматели» и «Молодые работники» приобретают все большее значение в поддержке предпринимательства нового поколения. Молодые люди, получившие предпринимательские навыки, начинают свою самостоятельную деятельность. В сельской местности в результате реализации проекта «Каждой молодежи по гектару» около 65 тысяч молодых фермеров было выделено более 54 тысяч гектаров земли.

Кроме того, принято постановление президента в целях привлечения молодежи и женщин к предпринимательской деятельности и развития предпринимательства. Основные направления поддержки населения, особенно молодежи и женщин, а также представителей бизнес-сектора в реализации задач, указанных в постановлении Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы привлечения населения к предпринимательству и развитию предпринимательства» от 13 октября 2020 года № ПП - 4862 служит. В частности, решение предусматривает широкое вовлечение населения, особенно молодежи и женщин, в предпринимательство, совершенствование системы микрофинансирования, внедрение системы государственной поддержки предпринимательства, координацию со стороны единой государственной организации.

Положительный результат всех реформ, проводимых в Узбекистане по сей день, основан на том, что отношения между

государством и обществом подняты на уровень гражданского общества, а правовые знания наших граждан основывается на том, что повышается уровень политической культуры, и что такая деятельность основана на уважении Конституции и других правовых норм, связанных с такими аспектами, как всегда чувство ответственности за стабильность общества.

И так, известно, что правовая культура, как и правовое образование, является важным комплексным компонентом механизма правовой социализации личности - процесса усвоения, принятия и реализации субъектами правовых ценностей общества, идей, переживаний, чувств и эмоций людей, правовых оценок, норм и моделей поведения.

Сложность, многогранность и комплексность проблемы правового образования являются причиной того, что некоторые его аспекты разработаны не в достаточной мере. Сегодня существуют различные подходы к формированию правовой культуры через образование, разнообразные концепции правового и патриотического воспитания, системы демократического гражданского образования и т.д. [3, с. 4-5].

Эффективность формирования гражданского общества зависит от уровня и качества правовой образованности молодежи и учащихся при помощи правовых дисциплин, что, в свою очередь, утверждает предположение о том, что среди многообразия внешних и внутренних условий для формирования право образованной личности необходимы:

- опора на различные виды и организационные формы право образовательной деятельности, что позволит молодежи овладеть высокой правовой культурой и занять достойное положение субъекта социальной действительности в обществе;

- разработка и систематические обновления учебных методик и программ по правовому образованию для достижения высокого уровня правовой культуры и формирования гражданского общества;

- создание в школьных и студенческих сообществах демократического микроклимата, который способствовал бы повышению уровня правового образования подрастающего поколения;

- широкое использование региональных традиций и компонентов правового образования граждан.

Список использованных литератур:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе», от 09.01.2019 г. № УП -5618
2. О. Усаров. Правовая культура молодежи - основа демократического общества. Народное слово, 25 октября 2012 года.
3. Я.В. Зубова. Правовое образование в развитии правовой культуры формирующегося гражданского общества в современной России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора социологических наук. Майкоп 2010.

TARIX FANINI O'QITISHNING MA'RIFATLI JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Narmanov Feruz Asfandiyorovich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ma'lumki, tarix fani jamiyat bilan uzviy va chambarchas holda taraqqiy etib rivojlanib keladi. Mazkur maqolada tarix fanining ahamiyati, uni o'qitish masalalari, Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fani va uni o'qitish hamda tadqiq qilishga bo'lgan munosabat, tarix fanining ma'rifatli shaxsni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalar ilmiy va maxsus adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarix fani, taraqqiyot strategiyasi, ma'rifati jamiyat, ma'rifatli shaxs, Murojaatnoma, milliy tarix, tarixiy tafakkur, Uchinchi Renessans, ma'naviy taraqqiyot, ta'lim islohotlari.*

Tarixdan ma'lumki, jamiyatdagi kishilar ongi va tafakkuri shakllanishi va rivojida tarix fani va uni o'qitish asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugun mamlakatimizda ta'lim tizimi taraqqiyoti o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu jarayon ta'lim bosqichlarida uzviylikni ta'minlash, ta'limning turli bosqichlari uchun yaratilayotgan o'quv-materiallarida ham aks etadi. Mustaqillik yillarida milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy fanlarni o'qitish tizimini takomillashtirish mamlakat taraqqiyotining asosiy

harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan salohiyatli, ma'rifat bilan sug'orilgan kadrlar yetishib chiqishi uchun ham xizmat qiladi.

Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori yaratilayotgan Yangi O'zbekistonda ham tarix fanini o'rganish va o'qitish jarayonlari yangi bosqichga qadam qo'ydi. 2018-yil 28-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zligimizni anglash uchun Vatanimizning qadimiy va boy tarixinni o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" - deya ta'kidlagan edi [7].

Davlat rahbari tomonidan mamlakatimiz tarixiga bunday bahoning berilishining o'ziyiq tarixni o'rganish jarayonida uni turli mafkuralardan holi, xalqimizning boy tarixidagi yutuq hamda kamchiliklarni xolisona o'rganish orqali uni yosh avlod qalbi va tafakkuriga singdirishdek muhim vazifani ham belgilab bergandi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning yanvarida Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida ta'kidlangan "Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"ligi [4.] haqidagi fikrlari masalaning nechog'li dolzarb yekanligidan dalolatdir.

Tarix fanining mamlakat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatining yuqoriligini inobatga olgan holda bugun mamlakatimizda tariximizni milliy ruhda yaratish tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bu ayniqsa, asosiy mazmuni O'zbekistonda tarix fani sohasi joriy holatining tanqidiy tahlili va mavjud muammolar, ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimi, axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini samarali yo'lga qo'yish talablaridan kelib chiqib, ilg'or milliy va jahon tajribasini inobatga olgan holda, bosh maqsadi, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga qaratilgan "O'zbekistonda 2021-2030 yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasining yangi ishlab chiqilishi va keng jamoatchilik hamda tarixchi olimlar muhokamasiga taqdim etilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalaning nihoyatda dolzarbligi va ahamiyatining yuqoriligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarida e'lon qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-sonli farmonda ham o'z aksini topdi [3].

Farmonning “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” deb nomlangan V-bo‘limi 77-maqsadi esa bevosita “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish” deb nomlanib mamlakatimizda tarix fani sohasini rivojlantirish, uni butunlay yangicha asosda va tizimli ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonda tarix fanini o‘qitish uni bugungi kun talablari asosida yosh avlodga yetkazib berishga qaratilgan tadbirlar va tarixni xolisona o‘rganish, pirovard maqsad “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” [2] konsepsiyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ta’lim eng muhim ijtimoiy institut sifatida shaxsning jamiyat rivojidadagi o‘rni va rolini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy fanlar bilan birga tarixiy bilimlarni o‘qitish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu shundan dalolat beradiki, asosiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vazifalarni hal etish bilan birga tarixiy taraqqiyot bosqichida O‘zbekiston hududida tarixiy bilimlarni o‘qitish va o‘rganish masalalarining hal etilishi, uning yo‘lga qo‘yilishi va uning mazmun-mohiyati tarix fani misolida muhim jihatlarga ega.

Ma’lumki, sovet hokimiyati yillarida tarix faniga mafkuraviy jihatdan baho berilishi natijasida fanni o‘rganish, tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi va amaliyotiga nisbatan bir qator cheklovlar belgilangan edi. Natijada qattiq mafkuraviy nazorat sovet davlati tarkibida bo‘lgan hududlarda ham iste’dodli tarix tadqiqotchilari va keng tarixiy dunyoqarashga ega bo‘lgan kishilarning tarix fanini o‘rganish tizimidan siqib chiqarilishiga olib keldi. Akademik A.Asqarov ta’biri bilan aytganda, tarix fani sovet imperiyasi davrida totalitar tuzumining nazariy asoschilari va bolsheviklar partiyasi mafkurasining mankurt quroli bo‘lib keldi [5.24].

Tarixchi olim X.Ziyoyev o‘zining “Vatan tarixini qanday o‘rganmoq kerak” maqolasida sobiq sovet davrida dinga zarba berilishi ma’naviy hayotning qashshoqlanishiga olib keldi. Nihoyat, orziqib kutilgan kunlar kelib, dinning ravnaq topishi uchun keng yo‘l ochildi. Biroq bir necha o‘n yillar mobaynida «dinsiz» jamiyatda suyagi qotgan odamlar ongiga islom asoslarini singdirish oson ish emas. Shuning uchun ham dinga ko‘r-ko‘rona ergashib, mutaassiblikka beriluvchi kishilar topiladi. Hozirgi vaqtda jahonda asosan konstitutsiya, parlament va demokratiya tartiblari hukm surayotgan sharoitda dinni «siyosiy qurol»ga aylantirish g‘ayritabiiy hol bo‘lganligini qayd etib o‘tadi [6. 274].

Sovet hokimiyati hukmronligi paytdayoq ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ning «qoldiq» prinsipiga amal qilinishi hukmron mavqega ega bo‘lgan. Bu ayniqsa O‘rta

Osiyo mahalliy aholisi ta'limi sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ittifoqning partiya-sovet rahbariyati tomonidan maktablar va boshqa o'quv yurtlarida ta'limning rus tilida olib borilishiga bo'lgan xayrixohlik ustunligi aniq ko'rinib turibdi. Bunda mahalliy aholi, avvalo milliy ziyolilarning dunyoviy bilimlarga intilishlari hisobga olinmagan yoki rasmiyat yuzasidangina ba'zi jihatlari hisobga olingan xolos [8. 177.].

Ya'ni O'zbekistonning yaqin o'tmishida sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar o'sha davrda tarix fanining zamon talabidan kelib chiqqan holda soxtalashtirilganligini, haqiqiy tarixni bilishga va o'qishga yo'l qo'yilmaganligini ko'rsatib turadi. Hozirgi kunda esa tarix ta'limining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi. Tarixning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash, "Raqamli O'zbekiston – 2030" [1] dasturiga ko'ra tarix fanini o'qitishni modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Tarix ta'limida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi mazmun-mohiyatini o'quvchilarga singdirish tarix ta'limini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan hisoblanadi. Tarix ta'limini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash, zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, chuqur bilimli va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini egallaganlik jihatidan rivojlantirish; bitiruvchilarda dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi tarixiy bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda tarixni milliy ruh bilan yaratish va o'rganish bosqichi boshlandi. Bu esa jamiyatdagi har bir shaxsdan O'zbekistonning nafaqat yaqin o'tmishini o'rganish balki uning turli bosqichlari haqida ham yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish vazifasini qo'yadi. Mazkur vazifalarning bajarilishi jamiyatda ma'rifatli kishilar sonining ortishiga, har bir shaxsda o'zining tarixi va o'tmishiga nisbatan vorisiylik tuyg'ularining mustahkamllanishi uchun xizmat qiladi.

Shu bilan birga bugun ta'limning turli bosqichlarida o'quv dasturlariga kiritilgan tarix fani soatlarini qisqartirmaslik, zarur hollarda ulardagi mavzularni davr talabidan kelib chiqqan holda mustahkamlash, bugun oliy ta'lim muassasalarida o'qitilib kelinayotgan "O'zbekistonning yangi tarixi" fani soatlarini kamaytirmaslik maqsadga muvofiqdir. Chunki, yoshlarni bugungi kun bilan tanishtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan tarixiy islohotlarning haqiqiy mazmun-mohiyatini ularga yetkazib berishda ushbu fanning o'rni nihoyatda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.
2. “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” // *Xalq sўzi*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60 sonli Farmoni.
4. Азамат Зиё. Янги Ўзбекистонда миллий тарих ва миллий рух // *Xalq sўzi*. 2021-йил. 24-июль.
5. Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари // *Ўзбекистонда ижтимоий фанлар*. – Тошкент: Фан, 1992. 7-8 сонлар.
6. Зиёев Х. Тарих – ўтмиш ва келajak кўзгуси. – Тошкент: Фофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018-йил Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
8. Ҳасанов Б.В. Ўзбекистонда халқ таълими ҳамда фан соҳасида совет сиёсати ва миллий зиёлилар (20-йиллар иккинчи ярми — 50-йиллар бошлари). Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар: *Даврий тўплам, № 2 // Таҳрир ҳайъати: Д.Алимова (Масъул муҳаррир) ва бошқ.* – Т.: Шарқ, 1999. – 177.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIGA G‘OYAVIY TA‘SIR O‘TKAZISH IMKONIYATLARI

Hamroyev Sanjar Samiyevich

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongiga g‘oyaviy ta‘sir etishning turli imkoniyatlari siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo‘lib, bunda OAV(ommaviy axborot vositalari), san‘at, ta‘lim-tarbiya tizimi kabi yumshoq kuch vositalariga e‘tibor qaratilgan va ularning davlat suverenitetiga ta‘siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, yoshlar, ma‘naviyat, yumshoq kuch, ommaviy axborot vositalari, san‘at, ta‘lim, tarbiya.

Bugungi kunda g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Globallashuv insoniyat ma'naviy-madaniy hayotida ham o'zining misli ko'rilmagan ta'sirini o'tkazmoqda. Albatta, bunda fan, texnika va texnologiya sohasidagi taraqqiyot natijalarining o'rni benihoya katta. Ayniqsa, informatsion-kommunikatsion tizimlar rivoji har qanday axborotni butun dunyo bo'ylab ommalashishiga imkon bermoqda. Bu orqali muayyan kuchlar uning imkoniyatlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinmoqdalar. Hatto insonning ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan turli mafkuraviy hurujlarni ham ommalashtirmoqdalarki, natijada butun millat ma'naviy tanazzul girdobiga tushish ehtimoli ayon bo'lib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shunday deydi: «Globallashuv va axborot hurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda»[3].

Globallashuv ommaviy axborot vositalarini, avvalo, kishilarning ongiga ta'sir o'tkazuvchi kuchli qurolga aylantirdi. Agar o'tgan asrning birinchi yarmida xalqaro radioeshittirishlar siyosatning muhim quroli bo'lgan bo'lsa, asrning ikkinchi yarmiga kelib sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni namoyish qilish, global kompyuter tarmog'ini yaratish orqali insoniyatning ma'naviy-madaniy hayotiga ta'sir o'tkazishning qulay imkoniyati yaratildi. Shu munosabat bilan insonlarda qaysi qadriyatlar, g'oyalar, timsollar, tasavvurlar barcha uchun umumiy, universal xarakter kasb etadi, degan savol paydo bo'la boshladi. Aytish mumkinki, hozir g'oyalar, ma'naviy-madaniy qadriyatlarning jahon bozori paydo bo'lib, unda kuchli tomonning biznes manfaati va siyosiy ta'siri ta'minlanmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongini zabt etish orqali davlat xavfsizligiga, suverenitetiga dahl qilinmoqda.

So'nggi paytlarda G'arb sivilizatsiyasi texnik va texnologik innovatsiyalar, demokratiya va inson huquqlari kabi g'oyalar bilan birga «ommaviy ma'naviyat»ning turli xil ko'rinishlarini namoyon qilmoqda hamda endi rivojlanayotgan xalqlar, millatlarning taqlid obyektiga aylanib bormoqda. Jumladan, 2014 yil «Yevrovidenie» qo'shiqlar tanlovida g'alaba qozongan avstriyalik «soqolli xonim» Konchita Vurst ko'pchilikning nazarida faqat zamonaviy G'arb musiqa madaniyatining emas, balki bugungi G'arb jamiyatining axloqiy holatini ham aks ettiruvchi timsolga aylandi. Shu sababli G'arbning o'zida ham «ommaviy ma'naviyat» ko'pchilik faylasuflar, sotsiologlar va madaniyatshunolar tomonidan juda tashvishli hodisa sifatida qaralmoqda. U olamni o'ta jo'n qabul qilishga chorlagani uchun

ma'naviy buzilish manbai sifatida ta'riflanmoqda. Odatda «Yevrovidenie» tanlovi Yevropaning yumshoq kuch (Soft power) quroli bo'lib qolmoqda. Go'yoki ushbu tanlov orqali Yevropa integratsiyasi, birdamligini namoyish qilishadi. Lekin masalaning boshqa tomoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu kabi tanlovlar butun dunyoga «vesternizatsiya», ya'ni «g'arb madaniyati»ni targ'ibot va tashviqot qilishga juda qulay imkon hamdir. Aynan iqtisodiy qudratli davlatlar tomonidan moliyalashtiriladigan shu kabi tanlovlarda kichikroq davlatlarning san'atkorlari ham ishtirok etib, o'z qobiliyatlarini namoyish qilishlari va shu orqali ular o'z milliy madaniyatlarini «boyitish»ga xizmat qilishlari mumkin. Eng qizig'i bunda yuksak qadrlanadigan mumtoz kuylar emas, yengil-yelpi, ommabop taronalar tanlanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin»[1]. Afsuslanarli tomoni shundaki, so'nggi yillarda jinsiy ozchilik qatlamlarni rag'batlantirish tendensiyasi kuchayib, ular orqali milliy davlatlar ma'naviy-madaniy olamini «g'arblashtirish» siyosati yuritilmoqda. Birgina insonning ma'naviy borlig'iga kuch beradigan san'at geosiyosat quroliga aylanib bormoqda. Bu esa milliy davlatlar ma'naviy-madaniy suverenitetida katta rezonansga sabab bo'lmoqda. Bir tomondan «g'arblashtirish»ni ko'r-ko'rona qabul qilib, uni targ'ibot va tashviqotchisiga aylangan qatlam bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy va diniy qadriyatlarga sobit qatlam o'rtasidagi «kurash». Bu «kurash»da davlatning roli jamiyatdagi ko'pchilik irodasidan kelib chiqishi darkor. Ayniqsa, O'zbekistonga o'xshagan aholisining aksar qismi musulmon bo'lgan, o'zbek millati vakili hisoblangan milliy davlatlar ma'naviy-madaniy siyosatida G'arb «taklif etayotgan» madaniyatga munosib «javob bera oladigan», zamon bilan hamnafas milliy qadriyatlar ruhida shakllantirilgan muqobil tanlovlarni ishlab chiqish va ommalashtirish majburiyati yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning tashabbuslari bilan 2017 yil 7 noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3391-son, 2018-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi PQ-3990-son qarorlari maqomchilik va baxshichilik kabi bir qator milliy qadriyatlamizni saqlab qolishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi va rivojlanishiga zamin tayyorladi. Bu shubhasiz «Yevrovidenie»ga o'xshagan tanlovlar orqali yaratilayotgan «sun'iy», yengil-yelpi san'atni emas, aksincha haqiqiy san'atning yashab qolishi

uchun imkon bermoqda. Hatto, 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marta «ro‘yi zamin sayqali» bo‘lgan Samarqand shahrida o‘tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining jahon jamoatchiligi tomonidan keng e‘tirofga sazovor bo‘layotgani insoniyatning asl san‘atga ma‘naviy-madaniy ehtiyoji so‘nmaganligi, aksincha unga ko‘proq muhtoj ekanligidan dalolat bermoqda. Shubhasiz, bu kabi tadbirlar milliy davlat suverenitetini globallashuvning «ma‘naviy-madaniy ekspansiyasi»dan asrashga xizmat qiladi.

Endilikda global axborot makonida hokimiyatni qo‘lga kiritish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada axborot orqali bevosita hamda bilvosita inson ongi, xulq-atvori hamda faoliyatiga ta‘sir etib, uning ustidan mafkuraviy nazorat o‘rnatish imkoniyati vujudga keldi. Yirik davlatlar va kuchlar global axborot makonidan o‘zlarining geostrategik manfaatlari uchun foydalana boshladi. Bunda global OAV va elektron tarmoqlari muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki OAV istalgan davlat to‘g‘risida jamoatchilik fikrini shakllanishiga, o‘ziga xos «ma‘naviy standartlar»ning yuzaga kelishiga, bu orqali milliy davlatlar siyosatiga muayyan ta‘sir o‘tkazishga olib kelmoqda. Shuning uchun ham AQShning sobiq prezidenti Richard Nikson milliy xavfsizlik kengashida budjet harajatlari masalasida nutq irod eta turib: «axborot va targ‘ibot uchun sarflangan 1 dollar qurol-yarog‘ tizimini yaratishga sarflangan 10 dollardan qimmatliroq, chunki axborot har soatda har qayerda ishlaydi, qurol-yarog‘ tizimi qachondir ishga solinadimi-yo‘qmi, noma‘lum»ligini aytgandi [2]. Yoki O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor: «Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf qilish kerak emas», deganda haq edi. Bu orqali muallif uning kuchini jamiyat va davlat taraqqiyoti, turli illatlarga qarshi kurash uchun sarf qilishni nazarda tutgan.

San‘at ham yoshlar ongiga ta‘sir ko‘rsatishning «yumshoq kuch» vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, boshqa mamlakatni bosib olishda «yumshoq kuch»dan foydalanish g‘oyasi qadimdan ma‘lum. Bu miloddan oldingi VI asrda yashagan xitoylik faylasuf Sun szining asarlarida ham uchraydi. U «yumshoq kuch»ni qattiq jismlarni vayron qila oladigan mayin suvga yoki erkaklarning qattiq kuchini yengadigan ayollar jozibasiga o‘xshatadi[4].

Ma‘lumki, musiqa, kino san‘ati kabilarning insonlar ehtirosini qo‘zg‘ata olish imkoniyati jamiyat orqali davlat siyosatiga ham ta‘sir o‘tkazadi. Bugun san‘atning turli ko‘rinishlari orqali inson qalbi va ongini egallash hamda ular orqali milliy davlatlar suverenitetini «madaniy ekspansiya» qilish avj olmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida milliy davlatlar madaniyatini mamlakatning strategik zaxirasi, davlatning suverenligi va ravnaq topishi negizi deb hisoblash darkor. Chunki san‘at niqobi ostida yot g‘oyalarni

muayyan millat ongiga singdirish amaliyoti manfaatdor kuchlar uchun ancha xavfsiz, «qonuniy» va kamchiqimdir.

Bugun aksar rivojlangan davlatlar taraqqiyotiga aynan oʻz vaqtida samarali tashkil etilgan taʼlim-tarbiya tizimi bosh omil hisoblanadi. Ayniqsa, milliy gʻoya asosida tashkil etilgan taʼlim-tarbiya tizimi millat va uning suverenitetini kafolatlaydi. Biroq taʼlim-tarbiya tizimi orqali milliy davlatlar suverenitetini shubha ostiga qoldirish holatlari ham uchramoqda. Albatta bunga «yumshoq kuch» vositasi sifatida qaralmogʻi lozim. Maʼlumki, Rossiya postsovet oʻlkalarida ittifoq vorisligini saqlab qolish ilinjida barcha xatti-harakatlardan qaytmasligini isbotlagan. Hatto Markaziy Osiyo respublikalari taʼlim tizimida rus tili taʼlimini rivojlantirish bahonasida oʻz taʼsirini saqlab qolishga urinayotgani buning yorqin dalilidir. Chunki **til tafakkurga taʼsir oʻtkaza oladigan kuchli quroldir**. Muayyan xorijiy tilni oʻrganayotgan shaxs oʻzi bilmagan holda oʻsha xorijiy madaniyatni ham maʼlum qismini qabul qiladi. Markaziy Osiyodagi milliy davlatlar aholisi esa aksar axborotlarni rus tili orqali, boshqacha aytganda, Rossiya «koʻzi» bilan qabul qilmoqda. Bu shubhasiz Rossiyaning kelajakda ham mintaqadagi milliy davlatlarga taʼsirini uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qilishi mumkin. Rossiya tomonidan rus tilini oʻqitish boʻyicha har yili yuzlab mutaxassislar MDH respublikalariga joʻnatilishi ham bejiz emas. Zero, shuni unutmaslik kerakki, har bir millat, mamlakat uchun oʻz manfaatlari ustuvor boʻlib, hech kim bir-biriga «begʻaraz» yordam bermaydi. Shuning uchun ham ular oʻz manfaatlari yoʻlida boshqa millatlarni, davlatlarni «qurbon» qilishi mumkinligini bugungi kundagi geosiyosiy ahvol isbotlab turibdi. Bu esa endi rivojlanayotgan milliy davlatlar uchun «ogohlik belgisi» boʻlishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov I.A. *Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch*. – T.: Maʼnaviyat, 2011. – B.12.
2. Леонов N.S. *Информационно-аналитическая работа в заграничных учреждениях*. – М.: 1196.
3. Mirziyoev Sh.M. *Yangi Oʻzbekiston strategiyasi*. T.: Oʻzbekiston, 2021. – B. 268.
4. Quronov M. *Ogohlik: tarix va zamon saboqlari*. T.: Manaviyat, 2015. – B.43.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MILLIY YUKSALISH G'OYASINING AHAMIYATI

Xasanov Boburjon Xakimovich,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatning yusalishida milliy g'oyaning ahamiyati, hozirgi globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarurati, mafkuraviy tahdidlarning ko'rinishlari va ularga qarshi kurashish yuzasidan fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Mafkuraviy immunitet, milliy yuksalish, mafkuraviy tahdid, ommaviy norozilik.*

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar inson etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida ifodalaydigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy – siyosiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyotimizning muhim sharti bo'lib qoldi. Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddalarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etdi [2].

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida milliy yuksalish g'oyasini xalqimiz ongu shuuriga singdirish va hayot tarzida amaliy aks ettirish muhim masaladir. Bugun xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan taraqqiyot strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo'llari chuqur tahlil etilgan.

Bugungi kunda milliy yuksalish g'oyasini rivojlantirishning ijtimoiy-ma'naviy asosi - manbalarini, uning nazariy muammolari va amaliy tajribalarini chuqur o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Bunda ularni aniq tarixiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda olib o'rganish zarur. Chunki, uning rivojlanish bosqichlari va darajalari har bir konkret davrlarning o'ziga xos ijtimoiy ehtiyojlarini va imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tarixiy haqiqat shundan dalolat beradiki, hech qanday jamiyat va millat, milliy g'oyasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan milliy g'oyasi bo'ladi [3]. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashashidan qat'i nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, ta'limotga asoslanib ish ko'rishi, faoliyat ko'rsatishi kerak. O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy jihatdan taraqqiy ettirish uchun milliy yuksalish g'oyasi suv bilan havodek zarur.

Xalqimiz turli g'oyaviy tahdidlardan asrash jamiyatimiz a'zolarining ma'naviy - ahloqiy tarbiyasini shakllantirish uchun, avvalo, ularni milliy yuksalish g'oyasi va mafkurasi bilan qurollantirish zarur [4]. Mamlakatimizda ijtimoiy adolat, xavfsizlik, ijtimoiy muhofaza, millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini, qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-siyosiy muhitni buzadigan, odamlar fikrini chalg'itadigan noxush holatlarga barham berish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashish, hamjihat bo'lish, barcha imkoniyatlardan ehtirolarga berilmay, aql-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan jamiyatimizdagi ma'naviy-axloqiy yuksalish ishlarini jadallashtirishga bugungi kunda ham zarurat sezilmoqda. Milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyot rivojiga qarab takomillashib, yangilanib boradi. Davr talabi bilan o'rtaga tashlangan muayyan qoidalar o'z vazifasini o'tab bo'lib, o'rnini yanada dolzarbroq boshqa xususiyatlarga bo'shatib beradi. Milliy yuksalish g'oyasi ayni ana shunday doimiy yangilanish mahsuli, ong va tafakkur hosilasi hisoblanadi.

Milliy yuksalish g'oyasi O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va uni buyuk davlatga aylantirish haqidagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik,

falsafiy, ilmiy, ekologik, diniy, demografik tarixiy qarashlar yig'indisi bo'lib, O'zbekiston xalqini istiqbolga yuksak ishonch, iymon-e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyat qudratli ma'naviy qurol, g'oyaviy omil hisoblanadi.

Ana shu sababdan ham mamlakatimiz hududini mafkuralar poligoniga aylanishiga yo'l qo'ymay, O'zbekiston xalqining ongi, dunyoqarashi, hayotga ijtimoiy munosabati, hatti-harakatlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib, milliy yuksalish mafkurasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bugungi kundagi muhim vazifadir.

Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash [4]. Ularning tafakkurida o'zligini unutmashlik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qarortoptirishdir.

Rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda globallashuvni chetlab o'tish mumkin emas, u jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy jarayondir. Ammo bugun globallashuvning jamiyatdagi muayyan qatlamlar va tuzilmalarga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Shunisi e'tiborliki, globallashuv jarayonining ta'siri bilan birga ma'naviy tahdidlar va turli yot begona madaniyatlarning "hujumi" kuchayib bormoqda. Ushbu tahdidlarning asosiy uch ko'rinishi mavjud va ular quyidagilardan iborat [5]:

Birinchi ko'rinishi – mafkuraviy xurujlar bo'lib, bularga: shaxs fikrini buzish; shaxs dunyoqarashini aynitish; shaxs pozitsiyasini o'zgartirish kabi funksiyalar kiradi.

Ikkinchi ko'rinishi – g'oyaviy tahdidlar bo'lib, bular: shaxs xulq-atvorini aynitish; shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishdan iborat.

Uchinchi ko'rinishi – informatsion hujumlar va kibertahdidlar bo'lib, bular: shaxsga noto'g'ri ma'lumot berish; shaxs bilimni qoloqlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratilgan xatti-harakatlardan iboratdir.

Shuningdek, ushbu ma'naviy tahdidlar orasida eng keng yoyilgani va bugungi kunda jamiyat hayotizga shitob bilan kirib, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, bu "ommaviy madaniyat"dir. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylilik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatleri, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. “Ўқитувчи ва мураббийларимиз, Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта кучдир” нутқи. 2020.
2. Ахмедов Х. “Ёт ғояларга қарши иммунитетни мустаҳкамлаш асослари” ўқув услубий қўлланма” Т-2021, -Б. 53.
3. Назаров Қ. Миллий ғоянинг асосий мақсад ва вазифалари. –Т.: 2002. –Б. 96.
4. Тўраев Б. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. –Т.: 2002. –Б. 53, -Б.74.
5. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат. – Т.: Янги авлод, 2008. – Б. 56.

IJTIMOIIY MA’NAVIY TARAQQIYOT VA TA’LIMNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Tosqo‘ziyeva Madinabonu Burhonjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ta’limning ijtimoiyligi doirasida yurtimizda ilm-fan yutuqlarining hayotimizga kirib kelganligi, ilm-fan sohasiga davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarga qaramay yoshlar orasida ommaviy yengil-yelpi, mazmunsiz turmush, internet qaramligi, tayyorga ayyorlik, “mashhurlik sindromi” kabi illatlarning avj olishi ham jamiyatda ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirish, hayot haqidagi qarashlarni o‘zgartirish, baxt haqidagi mezonlarni qayta baholashni talab etmoqda.

Kalit so‘zla: ta’lim, dialektika, tarqqiyot, jamiyat, ijtimoiylashuv

Xalqaro maydondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy muammolarning jiddiy keskinlashuvi bilan urush olovi, fuqarolar urushi, ayniqsa, diniy ekstremizm va terrorizm, bioterroizm, inson huquq va erkinliklariga doir kelajak umid va orzulari ro‘yobi haqida qizg‘in baxs va munozaralar avj olmoqdax[1]. Shu bilan birga, insoniyatning ilm-fan, texnika sohasida erishgan yutuqlari zamonaviy sivilizatsiyaga tahdid solishi ham e’tirof etildi. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy taraqqiyotning shiddatkor rivojida uning poyoni (siklli) haqidagi fikrlar tufayli din omilining faollashuvi kuzatilmoqda. Shu ma’noda ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligi, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning muhim yechimlari,

O‘zbekiston hukumatining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” yuzasidan taklif va tashabbuslari respublikamiz olimlari tomonidan ilmiy tahlil etilmoqda[2]. Ilmiy tadqiqotlarda olimlar ijtimoiy taraqqiyotning inson uchun zararli tomonlari, hamma o‘zgarishlar xayrli bo‘lavermasligi, turli madaniyatlarda turfa oqibatlariga olib kelayotganligini ham e’tirof etishgan[3].

Jamiyatning taraqqiyoti haqida tarixan shakllangan qarashlar, bashariyatning orzu-umidlari, xohish-irodalariga siyosiy lider va yetakchilarning mosligi bilan ham ommaviy ta’limning o‘rni yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, ta’limning majburiyligi bilan birga uning ommaviylikini shakllantirish, milliy manfaatlar asosida yoshlarning o‘z taqdirini o‘z qo‘llari bilan yaratishi uchun ma’rifatli bo‘lishlari kerakligining keng targ‘ib va tashviqi shartlanmoqda. Zero, ijtimoiy taraqqiyot yoshlarning ongli va maqsadli faol harakatga kelishi uchun chuqur bilimni talab etadi. O‘zbekistonda Harakatlar strategiyasi ta’limni ijtimoiy institut sifatida universal inklyuziv shakllantirib, milliy ko‘p asrlik ma’naviy meros: ilmiy bilim va malaka ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan yoshlarning ijodiy (kreativ) tafakkuri ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. “Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, – deya ta’kidlaydi O‘zbekiston Prezidenti, – buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”[4]. Yoshlarning kuch-g‘ayrati, tashabbuskorligidan oqilona foydalanish O‘zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot, ayniqsa, ma’naviy Uyg‘onish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy fanlarida mazkur muammoning tadqiqi bir qator ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilayotganini aniqlashga erishildi:

– jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan “Ijtimoiy taraqqiyot va ta’lim” dasturlarining ustuvorligi ostida “Milliy taraqqiyot va ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish tufayli aholining umumiy savodxonligida yuqori ko‘rsatkichlarga erishilmoqda;

– jamiyat taraqqiyotida ta’limning o‘zaro aloqadorligi xorijiy Yevropa davlatlarida insonning huquq va erkinligi, ijtimoiy-madaniy kamsitishlardan huquqiy himoyasi sifatida e’tirof etiladi;

– O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun mohiyati, boshlang‘ich ta’limning majburiyligi, ta’limning barcha sohalarini liberallashtirish, yoshlar uchun ta’lim olishda barcha shart-sharoitlarni yaratishga O‘zbekiston Prezidentining bevosita g‘amho‘rligi yurtimizning

kelajak istiqbollari – uchinchi Renessans ta’lim va tarbiya bilan uyg’un holda izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning Inson taraqqiyoti yuzasidan Ming yillik sammitiga sheriklik asosida qo‘llab-quvvatlashini bildirgan. Shu ma’noda uning ijtimoiy taraqqiyot va ta’lim aloqadorligi va rivojlanish ko‘rsatkichlari odamlar uchun farovon va sifatli hayotni ta’minlashdan iborat ekanligi alohida ta’kidlangan[5]. Bu ko‘rsatkich va mezonlar yurtimizda ijtimoiy taraqqiyot va ta’limning umuminsoniy va milliy dialektikasi ifodasidir.

Jamiyat taraqqiyoti yangi bosqichining maqsadi har bir fuqaro uchun farovon turmush darajasi, sog‘lom turmush shart-sharoitida o‘zining imkoniyatlarini to‘la namoyish etish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muhitni yaratish hisoblanadi. Shu ma’noda O‘zbekiston hukumatining BMTda Inson taraqqiyoti yuzasidan qilgan ma’ruzasida “Ta’lim aholining salomatlik darajasi va kutilayotgan umr ko‘rishi, ya’ni inson rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘qimishli aholi o‘z sog‘ligini asrab-avaylaydi, profilaktika choralarini yaxshi qo‘llaydi, asosan sog‘lom turmush tarziga ko‘ra hayot kechiradi, kasallikni o‘z vaqtida aniqlaydi, o‘ziga birinchi yordam ko‘rsatadi, malakali tibbiy xizmatga murojaat qiladi” degan asosli fikrlar bildirilgan[6].

O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning ijtimoiy taraqqiyotga erishishda milliy ma’naviy merosga tayangan “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir” tamoyilida yoshlar zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirib, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lishi g‘oyasi bizning tadqiqotimizning ilmiy dasturilamali hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekistonning 2019 yilda – “Yil mamlakati” deb e’lon qilinishi amalga oshirilayotgan yaratuvchilik islohotlarida ta’limning ijtimoiy qimmatini tasdiqlaydi[7].

Jamiyatning rivojlanishida shaxsning ijtimoiylashuvi, tayanch va tarkibiy hissiyotda ratsional dunyoqarashni ma’rifiy tadbir va tarbiyaning obyektiv va sub’ektiv omillari inson hayotiga bevosita ta’sir etadi. Ijtimoiy taraqqiyot va ta’lim dialektikasida inson o‘ziga xos indikator vazifasini o‘taydi. Shu bois, ta’lim ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili vazifasini o‘tashi bilan birga ijtimoiy taraqqiyotning global jarayoni ilg‘or pedagogik texnologiyalar jarayoniga dunyo xalqlarini tortadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jamiyatda yashash qulayliklarini, axborotning aylanish tezligini oshiradi, imkoniyatlarning beqiyos darajada o‘shishiga olib

keladi. Chunki axborot oqimi ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bogʻliq holda inson bilim va dunyoqarashini belgilab beradi. Soha boʻyicha mutaxassis olimlar zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti tufayli yoshlar orasida internet qaramligi tufayli kunlik vaqt budjetining asosiy qismi internet maʼlumotlari bilan bogʻliq ekanligini taʼkidlab oʻtishgan[8]. Ayni vaqtda taʼlim taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti munosabatlari dialektikasida axloqiy maʼrifatning roli jiddiy ortib borishi tufayli tadqiqotchilar oʻta murakkab ijtimoiy hodisa, degan xulosaga ham kelganlar[9].

Ijtimoiy taraqqiyot va taʼlim uygʻunligi sharoitida oliy taʼlimning xalq xoʻjaligi ishlab chiqarishining tarkibiy qismiga aylanishi bilan taʼlim va tarbiya omili milliy taraqqiyot konsepsiyasiga bogʻlik faoliyat mezonini qilib olindi[10].

Mustaqillik tajribasi jamiyat taraqqiyotida taʼlimning moddiy-texnika bazasini yaratish orqali amalga oshirilishi munosabati bilan 2011 yilda yetti mingdan ortiq maktab va akademik litseylarning binolari yangidan qurilib yoki taʼmirlanib, oʻquvchilarning bilim olishi uchun yuksak sifatli taʼlim muhiti tashkil etildi. Bu hol taʼlim tizimida xorijiy investitsiya va xususiy sektor ishtirokini tajriba sifatida jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik va nodavlat taʼlim muassasalarini ham taʼlim va tarbiya sohasiga jalb etishga olib keldi. Natijada, “davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilayotgan xususiy maktabgacha taʼlim maskanlari soʻnggi 2019 yilda ikki barobar koʻpayib 568 tani tashkil etdi. Yana mingta shunday bogʻcha ochish boʻyicha amaliy ishlar boshlandi”[11].

Taʼlimning jahon ijtimoiy taraqqiyotiga dialektik aloqadorligi yuzasidan tadqiqotchilarning fikrlarida, umumiy boʻlsa-da, ijobiy yondashuv mavjud, yaʼni ular “...yoshlar bilan uzviy bogʻliq holda mamlakatni barqaror rivojlantirish gʻoyasi zaminida bilimli va aql zakovatli yetuk avlodni ulgʻaytirish tarbiyasi yotadi. Zero, oʻqimishli, bilimli, aqlzakovatli, ruhan bardam va jismonan baquvvat yoshlarga istiqloq va taraqqiyot yoʻlini bosib oʻta oladi, mamlakatni barqaror rivojlantirishga erishadi. Ota bobolarimiz qadimdan bebaxo boylik boʻlmish ilm maʼrifat, taʼlim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti”, deya taʼkidlaydilar[12]12

. Shu maʼnoda “Inssad” xalqaro biznes maktabi tomonidan “Innovatsiyalarning global indeksi”da Oʻzbekistonning 35-oʻrinni egallashi jamiyat taraqqiyotidagi taʼlimning aloqadorligini ifodalaydi.

Oʻzbekistonda ijtimoiy taraqqiyotda taʼlimning sifati va samaradorligi ustuvor yoʻnalish maʼnosida oliy taʼlim professional sifatini jahon

andozlari darajasiga yetkazish ko'zda tutildi. Oliy ta'lim sifatini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror sur'atlarda rivojlanishida har tomonlama yuksak malakali zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablaridagi muhandis kadrlar oliy ta'lim muassasasining mehnat bozorida faoliyatni yangilab bordi. Ayni vaqtda ta'lim va taraqqiyotning ziddiyati: madaniyatlar, dinlar, mintaqalarning murosasiz ziddiyati "ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas" tamoyilida ham kun tartibiga qo'yilishi ilmiy jamoatchilikni xavotiriga sabab bo'lmoqda.

Hozirda jamiyatning turli sohalarida tub islohotlar, fan va bilish sohasida esa paradigmal yangilanishlar sodir bo'layotgan tarixiy davr boshlandi. Jamiyatda ijtimoiy rivojlanganlik darajasining asosiy ko'rsatkichi insonning shaxsiy faolligi, ya'ni yoshlarni har tomonlama murakkab, tobora takomillashayotgan ijtimoiy hayotga tayyorlash asosida komil insonni shakllantirish, uning ijtimoiy, iqtisodiy mazmundagi vazifalari yechimi ustuvor o'ringa chiqib oldi. Ta'kidlash lozimki, jamiyatda ijtimoiy rivojlanish jarayoni nomuntazamlik xarakteriga egadir. Ijtimoiy o'zgarish, siljish va rivojlanish jarayoni nomuntazamlilik xususiyatiga ega ekanligi tasdiqlandi.

ZAMONAVIY KIBERMAKONDA YOSHLAR TARBIYASIGA, SIFATLI TA'LIM OLISH JARAYONIGA SALBIY TA'SIR ETAYOTGAN OMILLAR

Yazdonova Soxiba Kurbanovna

Samarqand davlat universiteti

Falsafa va milliy g'oya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda qaror topib borayotgan kibermakon fenomeni va uning tarkibiy elementi hisoblangan "kiber tahdid"larning namoyon bo'lish xususiyatlari, ulardan kelayotgan ijtimoiy xavflar, jamiyat "genofondi" hisoblangan yoshlar ongida, tafakkurida, dunyoqarashida shakllanib borayotgan "zararli illatlar" ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, metodologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kibermakon, kiber tahdid, ta'lim va tarbiya, bukmekerlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, beparvolik, milliy ma'naviy qadriyatlardan begonalashuv.*

Nafaqat shakliy, balki mazmuniy jihatdan ham yangilanib borayotgan dunyoda – kibermakon omilini harakatga keltiruvchi texnologiyalardan

(telefon, planshet, kompyuter, televideniye, internet) foydalanmaslikning real imkoni yo'qolib bormoqda. Zero "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi.

Demak, "kibermakon imkoniyatlaridan qay tariqa foydalanish maqsadga muvofiq?" doirasidagi savollarga javob topish asnosida, uning mamlakatda olib borilayotgan ta'lim va tarbiya tizim samaradorligi pozitiv ta'sirini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin. Buning uchun avvalo zararli kibertahdid omillaridan himoya qiluvchi "ijtimoiy kiber xavfsizlik" konsepsiyasini yaratish kerak. Sabab, ta'lim va tarbiya yoshidagi bolalarimiz ongi shuurini "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan madaniyatsizlik urflari, "onlayn o'yinlar", "G'arb mafkurasi bilan boyitilgan seriallar, musiqiy videorolik, reklama, yoki kinofilm"lardan himoyalaniish mexanizmi hanuz yaratilgan emas. Borlari ham bir-biriga zid bo'lgan, ya'ni jamiyat va davlat manfaatlaridagi "tutash chiziqlar"da yuzaga kelayotgan nomutanosibliklar bilan izohlanmoqda.

Bugun ilm olish yoshidagi farzandlarimizning nafaqat tarbiyasiga, balki, ta'lim olish jarayoniga ham salbiy ta'sir etuvchi "kiber tahdid"lar ko'lami oshib bormoqda. Masalan, ko'pchilik yoshlarimizni o'ziga tortib kelayotgan onlayn qimor o'yinlari (bukmekerlik). Xush "bukmekerlik" xizmati o'zi nima? U qanday faoliyat turi hisoblanadi!

Bukmekerlik (inglizcha bukmeykerlik konserni) – turli xil bo'lajak tadbirlarga (ko'pincha sport) naqd pul tikishlarni qabul qiladigan, shuningdek, yutuq to'lovi bilan shug'ullanadigan professional kasb[1]. Bukmekerlik aksariyat zamonaviy sport turlarining vatani bo'lmish Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan. Bukmekerlar manfaatlarining predmeti sifatida shakllangan ilk sport turi ot poygasidir. Bugunga kelib esa sportning barcha turlariga pul tikilmoqda. Shu o'rinda keltirib o'tish kerakki, har qanday faoliyatda bo'lgani kabi bukmekerlikning ham kamida ikki jihati mavjud. Bular *axloqiy va ijtimoiy jihatlar*dir. *Bukmekerlikning axloqiy jihatlari*. Kundalik hayotimizda mavjud hodisani inson tabiati hech qachon rad etolmaydi. Bu tabiiy jarayondir. Ammo shunday holatlar bo'ladiki, bu vaqt oralig'ida inson o'zini o'zi xarob etayotganligini sezishi qiyin kechadi. Masalan, bukmekerlikning inson ruhiyati, axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sirini shunday izohlash mumkin – u shaxsning chiniqmagan ruhiyatini buzadi, bu xuddi noqonuniy totalizatorlar bilan bog'liq g'alati holatga o'xshaydi. Unda bema'ni va sizni o'ta ranjituvchi psixologik zo'riqish holatlari aql bovar qilmas darajada ro'y beradi. *Bukmekerlikning ijtimoiy jihatlari*. Xuddi futbol o'ynaganimizda yoki sevimli jamoamiz, bokschilarimiz, kurashchilarimiz, tennischilarimizga xayrixohlik qilganimiz kabi, biz o'z jamoamiz uchun har

qanday holatda pul ekvivalenti mavjudmi yo'qmi, ularni yutug'iga umid bog'laymiz. Aslida ijtimoiy hodisa sifatida bukmekerlik, garchi ko'pincha biz buni anglamasak-da, allaqachon ongimizdan o'rin olgan[4]. Xulosa shuki, kibermakon insoniyat tomonidan yaratilgan "mega makon" bo'lib, undan unumli foydalanishning turlari ko'p. Agar ma'naviy ozuqa olish uchun intilsangiz – cheksiz imkoniyat. Agar ko'ngilxushlik, vaqt o'tkazish, nimadir qilish yoki daromad topish ilinjida foydalansangiz – "tubsiz jar", "ma'naviy og'u", "noinsoniy madaniyat eskalatsiyasi", iqtisodiy tanazzul sifatida o'zligingizdan judo etuvchi "kiber makondir". Zamonaviy kibermakonning psixologik tahdidlaridan yana biri bu – yoshlar o'rtasida avj olib borayotgan mas'uliyatsizlik, loqaydlik, beparvolik, milliy ma'naviy qadriyatlardan begonalashuv bo'lib qolmoqda. Ularda shakllanayotgan bu illatlarning ta'siri nafaqat ta'lim va tarbiya jarayoniga, balki, butun "jamiyat kelajagi"ga tahdid sifatida baholanishi kerak[3]. Chunki, yoshlar dunyoqarashida, ijtimoiy turmush-tarzida shakllanayotgan bu "ma'naviy qusurlarni" oldini olish o'ta dolzabr muammo hisoblanadi. Agarda tarbiyada yuzaga kelayotgan "ma'naviy uzilishlar"ni oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa, uning ortidan ko'plab yo'qotishlarni kelib chiqishi tarixan isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni asoslovchi tadqiqot xulosalarimizni hamda jamoatchilik fikri va mulohazalarini qiyosiy tahlil etgan holda keltirib o'tamiz:

Mas'uliyatsizlik. Bugun ayrim ota-onalarimiz tomonidan qo'pol ravishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar ortidan yoshlar mas'uliyatsizligi ortib bormoqda. Masalan, ilmga bo'lgan mas'uliyatsizlikni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Bu borada olib borgan so'rovnoma natijalari. Ya'ni *Siz uchun qaysi turdagi bilim olish imkoniyatlari muhim hisoblanadi?* mazmunidagi savolga, jami 15-20 yoshlar oralig'idagi 350 ta respondentlarni bergan umumiy javobi quyidagicha bo'ldi:

- qiziqishga qarab olingan bilim 91 ta (26 %);
- ota-ona bergan bilim 42 ta (12 %);
- maktab darsligidan olingan bilim 49 ta (14 %);
- mustaqil kitob o'qish orqali olingan bilim 73 (21 %);
- internet xizmatlaridan, ijtimoiy tarmoqlardan, onlayn kurslardan olingan bilim 95 ta (27 %).

Bundan xulosa kelib chiqadiki, yoshlar tafakkurida kibermakon imkoniyatlariga "suyanib qolish, tayanish" orqali fikrlar qobiliyati oshib bormoqda. Boshqacha aytganda, ota-onalarimiz berayotgan tarbiya qoniqarli emas, maktab darsliklarida keltirib o'tilgan ma'lumotlar "internet saytlaridan" olinadigan axborot shaklidagi bilim o'rnini bosa olmayapti. Agar muammoga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, masalaning ikkinchi

tomon ham ochiladi. Ya'ni kutubxonada kitob o'qish yoki 45 minut maktabda, 80 daqiqa oliy ta'lim dargohlari auditoriyasida berilayotgan (*o'qituvchi yoki domlalar tomonidan*) bilimdan ko'ra – internet makonidan axborot izlash orqali bilim olish qo'layroq degan tushuncha, yoshlar ongida muqim o'rin tutmoqda.

Xush! bu hol yaxshimi yoki yomon? degan haqli savol tug'iladi. Bizning javob:

Yaxshi deydigan bo'lsak. Demak, bolalarimiz o'ziga qo'lay bo'lgan tartibda, vaqtda, shart-sharoitda turli variantlarda bilim olishi mumkin.

Yomon deydigan bo'lsak. Demak, maktab o'qituvchisi yoki oliygoh domlasi bilan munozaraga kirishish, fikrlarni qiyosiy tahlil etish, ma'lum bir vaqt me'yoriga amal qilish, berilayotgan savolga ham, olinayotgan javobga ham mas'uliyatni chuqur his etmaslik – ko'nikma darajasiga chiqib, yoshlar kundalik tarzida doimiy qaror topadi. Buning oqibatlari qanday bo'ladi? kabi savollarga javob bitta: ilm qadri tushadi, ilmsizlik ortadi, o'qituvchi, domla kabi ustozlar mavqei, obro'si toptaladi. Tom ma'noda jamiyat tanazzul sari yuz tutadi. *Loqaydlik.* Ilmsizlik loqaydlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, qilayotgan ishingizda, bajarayotgan amalingizda ilmiy dalil, isbot yoki aniq asosingiz bo'lmasa, to'g'ri yo'ldan borayotganligingizga to'liq ishonchingiz komil bo'lmaydi. Bu bajarayotgan amalingizdan qoniqish hosil qilmayotganligingizni anglatadi va o'z navbatida – kasb, vijdon, davlat, jamiyat oldidagi vazifangizga nisbatan loqaydlik bilan yondashayotganligingizni ko'rsatadi. Shu sababli, bugungi yoshlarning aksariyatida ilmga bo'lgan loqaydlik avj olmoqda. Masalan, mamlakatimizning oliy dargohlariga 2022-2023 o'quv yili uchun e'lon qilingan kvotalar bo'yicha olingan test imtihonlarining umumiy natijalariga e'tibor qaratsak, yoshlarni ilmga bo'lgan passiv munosabati yaqqol ko'rinadi. *Ma'lumot uchun:* O'zbekistonda 2022/2023-o'quv yilida 1 million 73 ming 821 nafar abituriyent testga kirgan bo'lib, ularning yarmidan ko'pi o'tish ballini to'play olmagan. *DTMning mandat.dtm.uz saytidagi ochiq ma'lumotlarga ko'ra,* testga kirgan abituriyentlarning 550 ming nafari (51,2 foizi) o'tish balining eng quyi chegarasi bo'lgan 56,7 ballni ham to'play olmagan[5]. Bundan xulosa shuki, davlatimiz tomonidan yoshlarni ilm olishiga, o'z mutaxassisligi bo'yicha zamon talablariga javob beradigan yetuk kadr bo'lib yetishishlariga keng imkoniyatlar yaratilib berilgani sari, ularning ilm olishga bo'lgan loqaydligi ham oshib bormoqda. Albatta buning obyektiv va subyektiv sabablari bor. *Obyektiv sabablar:* aksariyat maktab va oliygohlarda o'z kasbini chuqur biladigan, zamonaviy bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollangan pedagog kadrlarning yetishmovchiligi, texnik, texnologik, axborot resurs ba'zalarining taqchilligi, global axborot

xurujlarini oshib borayotganligi, inson ongini chalgʻituvchi dezinformatsion maʼlumotlar oqimiga boʻlgan “ijtimoiy talab” rivojlanib borayotganligini misol qilish mumkin. *Subyektiv sabablar*: ota-onalar faoliyatida – farzand uchun moddiy taʼminotni birinchi oʻringa chiqib qolishi, maʼnaviy ozuqaga (tarbiyaga) yetarli darajada eʼtibor bermayotganligi, farzandlar uchun barcha shart-sharoitni ota-ona tomonidan yaratib berishga urinilayotganligi, farzandlarni mehnatkash, oʻz kelajagi uchun avvalo oʻzi masʼul ekanligini uqtiruvchi tarbiya oʻrniga “men bor nima gʻaming bor”, “meni davrimda yashab qol”, “men qiynalib katta boʻldim, farzandim bunday boʻlmasligi kerak”, “oʻqiganlar nima boʻlayapti, muhimi pul topishni bilish kerak” va boshqa shu kabi “aqlsizlarcha fikrlashimiz” ortidan – farzandlarimiz kelajagi mavhumlashib bormoqda. Yuqorida keltirib oʻtilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirib oʻtamiz: 1. Oila, mahalla, maktabgacha taʼlim muassasalari hamda maktab taʼlimida bilim va koʻnikma olayotgan yosh avlodni kiber tahdidlar qurshoviga tushib qolmasligini taʼminlash zarur. Buning uchun, ular ongida “urugʻ sochishi” mumkin boʻlgan kiber tahdidlar, ularning oqibatlarini haqida axborot berish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

2. Oliy taʼlim dargohlarida tahsil olayotgan talabalar bilimini qiyosiy tahlil etish, ular foydalanayotgan manbalar sofligini nazorat qilish, kelishi kutilayotgan “axborot xuruji”ni oldini olish, “axborot seleksiyasi”ni tashkil etish, yoshlar dunyoqarashini mafkuraviy tahdidlardan himoyalash boʻyicha davlat dasturi ishlab chiqilishi kerak.

3. Kiber tahdidga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish, ular faoliyati orqali – jamiyatning har bir qatlamida “daxldorlik masʼuliyati”ni shakllantirish mexanizmini yoʻlga qoʻyish zamon talabi boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Скаржинский Н. С. Деятельность букмекерских контор при работе с молодежью (на примере киберспорта)//Молодежная политика: история, теория, практика. 2020. –С. 166-171.

2. Shakambarov A. A. Maʼnaviy marginallashuv yoshlar maʼnaviyati shakllanishiga xavf soluvchi tahdid sifatida//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –№ 6. 2023. –S. 418-422.

3. Yazdanov, U. (2017). *Jamoatchilik fikrini transformatsiya qilish imkoniyatlari. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari.* –B. 114

4. <https://kun.uz>

5. <https://bugun.uz>

YOSHLARDA IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.

Davletov Xurshid Yuldashevich,
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va
ma’rifat bo‘limi boshlig‘i..*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanishlarida milliy va diniy qadryatlarni o‘rni, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ma’naviy tarbiyani yuksaltirish, ota-onalarning farzand tarbiyasida e’tiborli bo‘lishlari, ta’lim muassasalarida milliy-ma’naviy qadryatlarni yoshlarga anglatish borasida olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar. *Ma’naviy tarbiya, madaniyat, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy tarmoq, milliy qadriyatlar, milliy g‘oya, ogohlik, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ona tili, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat.*

Hozirgi kunda internetga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Natijada axborot va kommunikatsiya sohasida ulkan o‘zgarishlar yuz beryapti. Oxirgi ellik yilda axborot uzatish tizimining ishi uch yuz ming marta tezlashdi. Narx esa ming barobar arzonlashdi. Bunday hodisa yer yuzida ulkan axborot makoni – xalqaro internet tarmog‘i yuzaga kelishiga omil bo‘ldi.

Bugungi kunda ma’naviy-mafkuraviy ishlarning markazida turishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri – bu yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, ularni foydali va qiziqarli mashg‘ulotlar bilan band qilishdan iborat. Chunki hayotdagi turli noxushliklar bekorchilikdan, yoshlarning hayotga to‘g‘ri yo‘llanma olmaganidan kelib chiqadi. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar ayrim “shaxslar” uchun g‘oyaviy qurolga aylanayotgani masalaning eng muammoli jihatidir. Yaqin o‘tmishda biror davlatni zabt etish uchun qurol, tank va shu kabi vositalardan foydalanilgan bo‘lsa, hozir bunday qurollarning ahamiyati pasayib boryapti. Bularning o‘rnini axborot vositalari, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda. Shundan ko‘rinadiki, hozir biror xalqni yoki mamlakatni tobe qilish uchun, o‘sha mamlakat yoshlarining ongini zabt etish kifoya. Bu fikrning isboti sifatida “Arab bahori” bo‘hronlari yoki Yevropaning ayrim hududlaridagi notinchliklarni aytish mumkin.

Agar begona axborot oqimlarini to'xtatishning iloji bo'lganida, bunday imkoniyatlardan ko'p mamlakatlar foydalangan bo'lardi. Biroq hamma ham bundan manfaatdor emas va bunday shartnomani qabul qilishga yo'l bermaydilar. Bunday sharoitda eng to'g'ri yo'l har bir davlat o'z fuqarolarini o'zi yot ta'sirlaridan himoya qilishdir.[1]

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimiz o'zlariga kerakli ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan olayotgani, lekin ma'lumotlarni olish davomida turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlari, qimmatli vaqtlarini behuda sarflashlari xavfi kattaroqdir. Buni oldini olishda albatta kitob o'qish, ma'naviy tarbiya, yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirishda muhim o'rin tutadigan milliy g'oyamiz muhim ahamiyat kasb etadi. Donishmandlardan biri "Har bir millatning ma'naviy boyligi uning qancha kitob o'qishiga qarab belgilanadi" degan ekan. Cho'lpon aytganidek, "adabiyot yashasa – millat yashaydi". Kitob o'qib, ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosimizni o'rganish, uni hayotga tatbiq etish va yoshlarimizga o'rgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.[2]

Shubhasiz ijtimoiy tarmoqlar millionlab insonlar uchun qator yengilliklar yaratadi. Jumladan, istalgan paytda, sayyoramizning istalgan joyidan ijtimoiy tarmoqqa ulanib, o'z do'st-birodarlaringiz, qarindoshlaringiz bilan muloqot qilishingiz mumkin, ular holidan boxabar bo'lib, jahonda ro'y berayotgan yangiliklar, turli qiziqarli ma'lumotlar, hayotingizning muhim onlari aks etgan fotosuratlar, videolavhalar va boshqa turdagi axborot bilan o'rtoqlashishingiz mumkin.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Rossiyada har bir foydalanuvchi bir kunda o'zining 10,4 soat, Angliyada 5,3 soat, Turkiyada 7,8 soat, yurtimizda esa taxminan 6 soat vaqt sarflayapti. Afsuski, mazkur gapning kesimi yoniga "behuda" so'zini qo'shib qo'yish, yoki uni "isrof qilgan" jumlasiga aylantirish ham mumkin.[6]

Misrosoft kompaniyasi asoschilaridan biri bo'lgan Bill Geyts "internet addiksiyani giyohvandlik kabi kasallik sifatida baholashini hamda undan oson qutilib bo'lmasligi, maxsus reabilitatsion muolajalar orqaligina undan xoli bo'lish mumkinligini e'tirof etgan".

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi yoshlar quyidagi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar:

- tarmoqqa "nomaqbul" fotosuratlar joylashtirishadi;
- muloqot davomida be'mani, axloqsiz gaplar,so'zlardan foydalanishadi;
- noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanishadi.
- sahifalar ijtimoiy bo'lsa-da tarmoqni siyosilashtirishadi.
- o'z ism-sharifidan foydalanmaydilar.[3]

So'zlashuvda jargon (so'zlarni buzib gapirish), vulgarizm (fahsh, so'kinish, haqoratli so'zlar) va varvarizm (boshqa tillardaga so'zlardan qo'pol foydalanish)dan erkin foydalaniladi va bu bevosita milliy tilning buzilishiga olib keladi. Shuningdek, inson tomonidan ishlatilayotgan barcha qo'pol va behayo so'zlar ma'lum vaqt o'tib yoki o'sha vaqtning o'zidan boshlab psixikada o'z in'ikosini vujudga keltirib boradi.

Yoshlarni tajovuzkor g'oyalar tuzog'iga tushib, qurbon bo'lishidan asrash, barkamol avlodda mafkuraviy xurujlarga qarshi immunitetni hosil qilish uchun quyidagi tavsiyalarni beraman:

- yoshlarda tashqi tahdidlar, buzg'unchi ta'sirlarga qarshi o'z vaqtida to'g'ri munosabatni shakllantirish;

- ishonchli manbalar va tekshirilgan saytlarning axborotlaridan foydalaning;

- yoshlarning bilimni oshirish, ularda voqea-hodisalar mohiyatini tahlil qilish malakasini shakllantirish. Toki yosh avlod oqni qoradan ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lsin;

- yoshlarga internetdan nazoratsiz foydalanishning salbiy oqibatlarini tushuntirish;

- ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy tarmoqlarga kirish vaqtida birga bo'lish;

- axborot oqimida mahalliy axborotlarning yoshlarga tez yetib borishi va ishonchli bo'lishini ta'minlash. Agar bu vazifa amalga oshirilsa, tashqaridagi g'arazli axborotlarning yoshlar ongiga ta'sir kuchi keskin kamayib ketadi;

- milliy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali yoshlarni to'g'ri e'tiqoddan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrash;

- yoshlarda axborotni saralay olish, ya'ni axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish uchun,eng avvalo, yosh yigit-qizlarda sog'lom e'tiqod va sezgirlik tuyg'ularini shakllantirish muhim.

- barcha ta'lim muassasalarini "Internetdan foydalanish madaniyati" mavzusida o'quvchilarga ko'proq ma'lumotlar berib borish;

Shu bilan birgalikda, inson o'z irodasi, iymon-e'tiqodi va odob-axloqini kuchaytirib borish zarur. Buning uchun esa shonli tarix, buyuk allomalar o'g'itlari, ajdodlarimiz pand-u nasihatlarini o'rganish, milliy- ma'naviy va diniy manbalarda insonni ezgulik va kamolotga chorlovchi ta'limotlarni o'zlashtirishi kerak.

Yoshlar behayolikni targ'ib qiluvchi saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi axloqqa zid suratlar, videolavhalarni ko'rish mumkin emasligini bilishlari va salbiy oqibatlarga olib kelishini anglashlari lozim. Bugun internet, uyali

telefonlar orqali hayosiz tasvirlarning ommalashib borayotgani jahon jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda.

Xulosa qilib aytganda, internet ikki taraflama – ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin. Yoshlarning vazifasi uning imkoniyatlarini yaxshilikka xizmat qildirib, yomonligidan ehtiyot bo‘lish choralarini ko‘rishdir.

Yoshlar ongini chalg‘itish uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma‘naviyat, odob-axloq masalasiga e‘tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, yoshlarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Vaqt, imkoniyat boy berilsa, keyin kech bo‘lishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘minov F. *Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot. O‘zbekiston matbuoti 2007. y N^o5.*

2. I.A.Xadjayev, Sh.D.Abdullayev, N.S.Matyazova. *Komil inson tarbiyasi: Ma‘naviyat va ma‘rifat uyg‘unligi.*

3. “Internetdagi tahdidlardan himoya” Muhammad Amin Yahyo, “Movoraunnahr” 2016 yil, To‘ldirilgan qayta nashr.

4. G‘ofurjon Shodiyev. *Ma‘naviyat va yoshlar.*

5. Azamat Haydarov. *Inson kamoloti va milliy-ma‘naviy qadriyatlar.*

6. <https://stat.uz> - Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

ILM SARI SAODATLI YO‘L

Otabek Do‘styorov

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi

1-toifali mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda ta‘lim tizimida mavjud muammolar, davlatimiz tomonidan ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xalqaro tajriba va ta‘lim olishda yoshlar o‘z oldiga qanday maqsad qo‘yishi lozimligi, jadid bobolarimizning ta‘lim, tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari, vatanparvarlik g‘oyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Vatanparvarlik, ta‘lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, jadidlar, milliy g‘oya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ona tili, xalq, ma‘naviyat, moddiyat, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.

Har qanday xalq, mamlakat nufuzini belgilaydigan omillardan eng muhimlaridan biri jahon andozasiga javob bera oladigan kadrlar tizimi hisoblanadi. Yurtimizda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish uchun Malayziya, Singapur, Yaponiya, Xitoy, Koreya va boshqa ko'plab davlatlar oliy ta'lim tizimlari o'rganilib, ularning ayrimlari hayotga tadbiiq etilayotgani bejiz emas.

Masalan oliygohlar qabul kvotalarini doimiy oshirib borilishi, kirish imtihonlarining soddalashtirilib, davlat grantlari sonining ikki baravarga orttirilgani, ta'lim sohasida korrupsiyaga yo'l qo'yimaslik bo'yicha qator choratadbirlarning belgilanib, hayotga tadbiiq etilayotgani buning isboti bo'lmoqda.

OTMga o'qishga kirishi uchun yoshlarimizga yigirmaga yaqin imtiyozlarning berilgani va abituriyentlarning asosiy qismi shu imtiyozlar sabab davlat granti asosida o'qishga qabul qilingani kabi yangiliklar nafaqat yoshlar, balki umumjamiyat intellektual salohiyati oshayotganidan ham dalolat bermoqda. Yoshlarimizning ilm olishga harakat va qiziqishlarini yanada oshirmoqda.

Ammo shu bilan birga hozirgi yoshlar orasida o'qish, ilm olish o'rniga o'zlari nazdidagi yaxshi hayotga, baxtga erishish yo'li faqat pul topishda deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas. Bunday yoshlarning aksariyati oltinga teng vaqtini nuqul huda-behuda hoyu-havaslariga sarflayotgani kishini o'ylantirib qo'yimoqda.

Bunga yaqinda "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi bir maqolada ko'tarilgan muammoda nega oliy ta'lim muassasasini "a'lo" baholarga bitirganlardan ko'ra zo'rg'a "qoniqarli" bahoga o'qiganlar hayotda ko'p pul topayotgani haqida gapirilgani ham sabab bo'ldi.

Beixtiyor o'ylanib qolasiz. Avvalo bunday so'roqning o'ziyoq boshqa bir savolni yuzaga keltiradi: qachondan buyon bilim faqat moddiy ehtiyoj manbai hisoblana boshlandi? Bir insonning ilm darajasi uning qancha mablag' topayotgani bilan bog'liq omadi yoki muvaffaqiyatsizligi bilan o'lchanishi to'g'rimi? Bunday qarash oliy ma'lumotli bo'lishga intilayotgan millionlab yoshlarning asosiy maqsadi kelajakda o'z moddiy ehtiyojini qondirish uchungina harakati kabi mantiqsiz tushunchani yuzaga keltirmayaptimi? Mayli, jamiyatda fikrlar xilma-hilligi tabiiy holat ham deylik. Chunki turlicha qarashlar o'z-o'zidan emas, balki ko'plab tashqi omillar ta'sirida vujudga keladi, rivojlanadi. Qolaversa, tan olish kerak, aynan o'zimiz – yoshi kattalar orasida ham farzandlarini oliy ma'lumotli qilishdan asosiy maqsad – moddiy manfaatdorlik yoki yosh avlodining

kelajakda qiyinchiliksiz turmush kechirishinigina o'z nazdimizda ta'minlashdan iborat ekanligi ham bor gap.

Bu ham yetmagandek televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi yengilelpi, saviyasiz "soxta madaniyat"ning tinimsiz ko'z-ko'z etilishi, shu kungacha ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy g'urur, did va farosatimizni o'tmaslashtirib qo'yayotgani, yoshlarning bilim va ma'rifatlilar qolib, ko'p pul topadigan yoki mashhur bo'lib ketganlarga havas qilishi butun jamiyatimizning ma'naviy jabr ko'rayotganidan ham dalolat emasmi?

Yoshlar-ku mayli, ko'pchilik ota-onalar farzandining sifatli ta'lim olishini pullik bo'lsa ham nufuzli maktabda o'qitishda deb biladilar. Kezi kelsa, bola fanlarni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'zi ham harakat qilishi kerakligi emas, pul to'lanadigan repetitor hizmatidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Farzand voyaga yetgach esa uni o'zlari "serdaromad" hisoblaydigan kasbni tanlashga undaydilar. Yoki "muhimi diploming bo'lsin, pichog'ing moy ustidadir" kabi "maslahat"lari bilan "qo'llab-quvvatlaydi"lar. Bularning barchasi oxir-oqibat ilm faqat pul topish uchun xizmat qilsagina zarur, yo'qsa undan nima foyda degan tor qarashimizni yoshlar ongiga singdirish emasmi?

Bunday qarashimiz oqibatida Abdulla Avloniyning barchamizga yaxshi tanish "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo falokat, yo saodat yo halokat masalasidir", degan fikridan hayotni tanlamoqdamizmi, mamotni? Najotnimi yo falokatni? Farzandlar kamolotida ma'naviy bo'shliqni o'z qo'llarimiz bilan yaratmayapmizmi?

Shu o'rinda "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan, yosh ijodkor Feruza Xayrullayevaning "Yurtning bir bo'lagimiz" maqolasidagi ushbu parchani yodga olsak. "...Bir vaqtlar o'qigandim, sirkda fillarni bolaliligidan qo'lga o'rgatishar ekan. Albatta, o'rmonda erkin yurgan hayvonning qo'lga o'rganishi qiyin, ular doim qochishga harakat qiladi. Shuning uchun o'rgatuvchilar fil bolalarining oyog'idan qalin arqon bilan bog'lab qo'yishadi. Filchalar avval boshida qochishga ko'p harakat qilishadi, ammo qalin arqonlarga kuchi yetmaydi. Bora-bora ular qutulib ketolmasligiga ishonib, qochishga harakat qilmay qo'yadi. Keyinchalik ulg'ayib, kuchga to'lib, arqonni uza oladigan bo'lganlarida esa o'sha bolalilikdagi qocholmasliklariga bo'lgan ishonch sabab, arqonni uzmaydi. Va bir umr erksizlikda qolishadi. Bugun allaqachon ozod bo'lgan yurtda yuqoridan topshiriq kutadigan, o'zidan qo'yidagilarning fikrini bo'g'adiganlar shu fillar kabi tuyuladi menga. Shu fillardek bir joyda aylanaveradigan, kengliklarni unutkan, o'z kuchini bilmaydigan va faqat qorin to'yishini kutib yashaydiganlar..."Endi o'ylab ko'ring. Biz hatto ta'limni ham pul topish

manbai sifatida ko‘rishimiz va o‘z harakatlarimiz bilan yoshlarga ham shuni uqtirishimiz farzandlarimizni shu filchalar holatiga solib qo‘ymaydimi? Axir ilm olishdan maqsad – biror lavozim egasi bo‘lish, moddiy manfaat ko‘rish, asosiysi diplomli bo‘lish degan tushunchalarning zamoni allaqachon o‘tib ketdi.

Bu bilan hamma ham shunday fikrlaydi demoqchi emasman, yo‘q. Ko‘plab ziyoli, o‘qimishli oilalar farzandlari qaysi oliy ta‘lim muassasasiga kirish va o‘qishni o‘zlari tanlashadi. Tahsil davrini esa shunchaki o‘quv kurslarini “eson-omon” bitirib olish emas, o‘zi qiziqqan sohasini yanada chuqur o‘rganishga bag‘ishlaydi. Shu bilan birga ular bilan bir auditoriyada o‘tirganlarning qancha-qanchasi esa “amallab o‘qishni tugatib olay, u yog‘i bir gap bo‘lar” deb yurishibdi, xolos. Va aynan ular aytgandek bo‘ladi ham: oyog‘idan tushovlangan filchalar ulg‘aygani, kuchga to‘lgani, bundan ko‘ra ko‘p narsalarga qodirligini mushohada ham qilib o‘tirishmaydi. Boshida oilada berilgan va uqtirilgan mantiq bo‘yicha sohasiga doir bo‘lmagan, ammo diplom so‘raladigan biror ish yoki lavozimni egallab, imkon qadar shu joyda muqim qolish harakatida bo‘ladilar. Oqibatda o‘sha – buni qarang, zo‘rg‘a o‘qiganlar a‘lochilarga nisbatan ko‘proq pul topayapti-ku, kabi mantiqsiz xulosalar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘laveradi.

Bunday xulosalarni chiqaruvchilar kim? Farzandini oliy ma‘lumotli qilishga urinsa-da, ammo o‘zi kitob o‘qimaydigan odam. Ilmning qadri puldan ko‘ra yuqori, ancha baland turishini anglamaydigan inson.

Chunki kitob o‘qimaydigan odam o‘zining emas, atrofdagilar, ko‘cha fikri bilan yashaydi. Mas‘uliyatni bo‘yniga olib harakatlanishdan ko‘ra boshqalar ko‘rsatmasiga amal qilib yashashni afzal biladi. Va shu tariqa hayoti qanday o‘tib ketganini ham sezmay qoladi. Achinarlisi, ular farzandlarining ham oyog‘idan bog‘lab, shu tushovdan uzoqlashmay yashashiga sabab bo‘ladilar.

Chunki mustaqil fikrlamaydigan insonning o‘z yo‘li va maqsadiga erishishi mushkul. Bu maqsadni topishi, anglashi ham qiyin kechadi. Eng yomoni fikrsizlik – inson qanday ma‘lumotga ega bo‘lishidan qat‘i nazar madaniyat kushandasi, ma‘naviy o‘lim bo‘lib qolaveradi.

Fikr yo‘q joyda esa johillik ko‘pchiydi. Bunga dunyoda bo‘lib o‘tayotgan favqulodda holatlar ham guvohlik berib turibdi.

Masalan hozirgi kunda dinni niqob qilib olgan radikal g‘oyalar ko‘p. Ular ta‘siriga tushib qolayotganlarning aksariyatini esa yoshlar tashkil etmoqda. Hayron qoladigan jihati, bunday yoshlarning hammasi ham “ko‘cha bezorilari” emas, o‘qimishlilari ham bor.

Endi o‘ylab ko‘ring: muqaddas dinimizga soya solishga ham xizmat qilayotgan bunday “radikal kuch”lar nega aynan yoshlarni o‘ziga oson va tez

jalb qilmoqda? Buning javobi oddiy: demakki biz farzandlarimizga bermagan diniy, ma'naviy, ma'rifiy tarbiya o'rnidagi bo'shliqni internet, g'arblashish yoki radikallashish kabi "bilim" egallab bormoqda. Agar biz yoshlarga bolaligidan to'g'ri tarbiya berib, nima yaxshi-yu nima yomonligini o'z vaqtida tushuntira olganimizda, ularga yashashdan, ta'lim olishdan maqsad tanlagan sohasining ustasi bo'lish, atrofadagi boshqa insonlar va jonajon vataniga nafi tegadigan mutaxassis bo'lib yetishish ekanligini uqtira bilganimizda, ular ongida soxta g'oya yoki tarbiyaga joy qolmasdi. Bilim olishdan maqsad yaxshi pul topishdangina iborat deb hisoblanmasdi. Chunki o'z kasbining mohir ustasi bo'la olgan ilmi insonning pul ortidan yugurishga ehtiyoji yo'qoladi. Pul uchun o'ziga noma'lum yo'llarga kirib ketmaydi. Yetuk mutaxassis, ilmi, o'z ishining ustasi bo'lganlarni pulning o'zi topib keladi. Bunday insonga ishonuvchilar, ergashuvchilar ko'payadi.

Buning uchun farzandlarimiz muvaffaqiyati aslida bizning ularga nisbatan munosabatimizga bog'liq ekanligini yodda tutishimiz shart. Yoshlar o'z to'g'ri yo'lini tanlaganda maqsadni pul emas, balki qunt bilan bilim olishda deb bilishi ularni hayotdagi omadsizliklar, xatolar, qiyinchilik yoki boshqa muammolardan yuz foiz va kafolatli asray olmasligi mumkindir, ammo ichki – bilim deb ataluvchi mayoq har qanday vaziyatda ham eng to'g'ri yo'lni ko'rsatishga qodirligicha qolaveradi.

Ya'ni poydevori mustahkam imorat insonlarga qay darajada uzoq hizmat qilgani kabi farzandlarimizga beradigan ilk tarbiyamizning o'zidayoq komillik, tugallik, butunlik bo'larkan, ular o'z kelajagini moddiy yetishmovchilik qarshisidagi qo'rquvlarsiz ham ta'minlay oladi.

"Bilim" atalmish so'nmas mayoq esa, avvalo, bolani mutolaaga o'rgatishdan boshlanadi. O'qish va uqishning ilk zavqini oilasida, yaqinlaridan ola bilgan farzand kelgusida qay yo'nalishni tanlashidan qat'i nazar birinchi o'rinda sog'lom tafakkur qiladi. Yaqinlari, Vatani, kelajak oldidagi mas'uliyatini chuqur his etadi. Uning o'z mustaqil ongi boshqa fikrlar oqimini to'g'ridan-to'g'ri emas, tahlil g'alviridan o'tkazib, faqat foydali va kerakli bo'lganlarinigina olishga harakat qiladi.

Har qanday shaxsning bilimli, ma'rifatli, keng fikrli bo'lishning asosiy omili esa kitob hisoblanadi. Shunday ekan, mutolaaga mehr birinchi o'rinda oilada shakllantirilishi kerak. Chunki ilmga muhabbatni bola maktabga chiqquniga qadar dastavval o'z uyida kitobni sevadigan, mutolaani ardoqlaydigan, ilmga chanqoq insonlari – ota-ona bo'lsin, bobo yo buvi, aka-opalari, umuman kattalar muhitidan oladi. Avvaliga kitobdagi matnlarni o'qishni o'rgansa, keyinroq esa ularni mazmun-mohiyatiga ko'ra tanlaydi. Payti yetib aynan shu jarayonlar tahliliy, mantiqiy fikrlashning ilk saboqlari sifatida ongidan o'rin egallay boshlaydi. Bejizga qayerda o'qiganlik

emas, balki o'qimishli bo'lish hamma zamonlarda, barcha xalqlarda qadrlanib kelinmaydi. Chunki ilm har bir insonni baxt sari yetaklovchi eng ishonchli yo'l hisoblanadi.

Shunday ekan, hayot har qancha shiddat bilan rivojlanmasin, o'zgarmasin, yosh avlod ma'naviyati har doim ham eng dolzarb masala ekanligini unutmaylik. Ularga beradigan tarbiyamiz saodatli bo'lishiga harakat qilaylik. Ana shundagina ilmga pul topish emas, xalq farovonligini ta'minlash uchun intiluvchi yoshlar safi yanada kengayadi. Yurtimizda Al Beruniy, Ibn Sino, Samarqandiy, Al Xorazmiylar, Termiziy, Nasafiy, Avloniy kabi jahonga mashhur olim va ixtirochilar soni yanada ko'payadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021 y.*
1. *Falsafa komusiy lug'at. Faylasuflar milliy jamiyati.*
2. *Al-Farobiy Filofofiya politiki.*
3. *Beruniy A. Tanlangan asarlar. 1 jild.*
4. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_guliston*
6. *Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodriy nomidagi xalq merosi nashiryoti.*

САМЫЙ ВЕЛИКИЙ ПОДВИГ – ПОДВИГ ДУХОВНЫЙ

Хидирова Гулнора Нарзиевна –

кандидат филологических наук

и.о. доцента кафедры общественно-гуманитарных

и точных наук Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье проанализирована работа Первого Президента Республики Узбекистан И.Каримова «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса», в которой обозначены магистральные направления во внутренней и внешней политике нашего государства.

Ключевые слова: геополитика, угроза стабильности, региональные конфликты, политизация ислама, великодержавный шовинизм,

агрессивный национализм, коррупция, преступность, экологическая безопасность.

***Мудрое управление государством –
уменьшать и отводить от народа опасности.***

Абу Наср Фараби

Ислам Каримов – был политический лидер нашей страны, несомненный патриот и самоотверженный государственный деятель, обозначивший в своих трудах магистральные направления во внутренней и внешней политике нашего государства. В своих трудах Первый Президент, очертив опасности на пути молодой независимости, указал на приоритеты в развитии нашей страны, оставил нам, по сути, «дорожную карту» действий, с которой Узбекистан настойчиво и успешно будет двигаться вперед. Вся его жизнь была посвящена делу укрепления узбекского государства и благоустройства достойной жизни узбекского народа.

Особо хочется выделить его фундаментальную, на мой взгляд, и весьма оригинальную работу – «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса». Прошло уже четверть века, как была написана эта книга. Но те вызовы современности и угрозы безопасности, описанные нашим лидером, стали более очевидными и явными.

Уверенность в своей правоте и силе, спокойствие и рассудительность веет с каждой страницы этой книги. Здесь мы можем наблюдать сам процесс осознания места, роли и будущего узбекского народа, когда «человечество вступит в новый XXI век» [с.3].

Уже во вступительной части Ислам Каримов открыто, без обиняков, описывает общественно-политическую ситуацию, сложившуюся к 1997 году; определяет главную проблему, решить которую должна была молодая независимая республика. Хладнокровие и рациональность в суждениях Первого Президента сочетаются, в тоже время, с большой верой и любовью к своему народу. Во многих высказываниях и суждениях автора, в которых критически анализируются проблемы реальной действительности, чувствуется неподдельная озабоченность, но всё же, нет страха на страницах книги.

Во введении наш Первый Президент отмечает «в чем особенность времени, в котором мы живем», каково историческое значение тех перемен, которые «коренным образом изменили геополитическую

структуру и карту мира» [с.3]. Под геополитическими изменениями подразумевается появление на карте мира новых государств, «вставших на путь самостоятельного развития и обновления общественных отношений». К числу таких государств относилась и наша страна. Перед независимым Узбекистаном стояли поистине масштабные, радикальные, а потому судьбоносные задачи в «построении подлинно демократического общества с современной рыночной экономикой» [с.4].

В это сложное время перемен и обновления автор задается вопросами: «А достаточно ли четко мы представляем себе, с какими проблемами, трудностями, испытаниями мы можем столкнуться на этом пути?». «И, пожалуй, один из самых трудных вопросов – осознаем ли мы угрозы нашей стабильности? И что мы можем противопоставить этим угрозам?» [с.4].

«Как обезопасить себя и где искать импульсы для развития» - вот те стратегические проблемы, освещению которых и посвящена настоящая книга. Вот, что явилось для нашего лидера побудительным моментом в ее написании.

Одним из угроз безопасности являются региональные конфликты, которые «характерны и для развитых, и для развивающихся регионов мира» [с. 19]. Региональный конфликт нужно рассматривать «не только как вооруженное противоборство в очерченных рамках», но и как противостояние, оказывающее «влияние на все стороны жизни конкретного общества и соседних государств» [с.23]. Как подчеркивает И.Каримов, военно-политический кризис в Афганистане не является угрозой безопасности Узбекистана, а существует зримо.

Игнорирование такого вида конфликтов неминуемо приводит к его «неконтролируемому расползанию» [с. 23], поскольку происходит так называемая «интернационализация» конфликта. Наш Первый Президент детально описывает те негативные, трагические последствия, которые, в сущности, мы наблюдаем в настоящее время. В них заложен значительный негативный потенциал, способный привести к катастрофическим последствиям мирового масштаба [с. 31]. Сегодня этот региональный конфликт «от Бадахшана до Каспия» распространился на территории от Бангладеша до Средиземного моря, а негативные последствия ощутили не только граничащие государства - многомиллионная волна беженцев захлестнула страны Западной Европы, Россию и Соединенные Штаты Америки.

Известно, что на рубеже 80 - 90 годов прошлого столетия возобновляется роль религии в обществе, и в связи с этим формируются предпосылки к конфликтам на этой основе. Помимо этнического аспекта в афганский конфликт был привнесён и религиозный. Произошёл резкий процесс политизации ислама.

Религиозный экстремизм и фундаментализм характеризуется приверженностью к крайним, иногда насильственным действиям. Подтверждением тому служит военное противостояние Сирии, Пакистана и некоторых африканских стран с самопровозглашённым Исламским государством (ИГИЛ). «Стремление вовлечь Узбекистан в число своих политических сторонников и союзников ... уже обретает форму вполне конкретных действий» [с.42]. Наш лидер перечисляет угрозы исламского фундаментализма в отношении Узбекистана. Это, во-первых, подрыв доверия верующих мусульман к государству-реформатору; во-вторых, люди (особенно молодежь) становятся заложниками чужой воли, которая распоряжается не только их умами, но и судьбами; в-третьих, происходит раскол нации по принципу «истинной» и «ложной» религиозности. В итоге Узбекистан превращается в исламское государство, в котором религия утверждается как универсальное средство разрешения всех проблем и противоречий. Это, в свою очередь, приводит к формированию глобального противостояния между исламской и неисламскими цивилизациями [с. 45].

Теперь, по истечению времени обрел особую прозорливость вопрос нашего лидера, как бы обращённый к нам: «Хватит ли всем **нам** мудрости, опыта и настойчивости, чтобы локализовать и нейтрализовать глобальные последствия региональных конфликтов?» [с. 31]. Ясно, что «дальнейшая эскалация региональных конфликтов не может не сказаться и не повлиять на выбор стран этого региона» [с. 32].

Известно, Республика Узбекистан – многонациональное государство. В период становления независимого государства решение проблемы межэтнических и межнациональных отношений требует «тонкого и деликатного подхода». В книге дано следующее определение нации: «...любая нация, будь она самая малая - есть богатство человечества, и исчезновение любой национальной общности с ее языково-культурными и другими особенностями приводит к обеднению культурного и генетического фонда Земли, возможностей личности» [с. 70]. Это потрясающее своим

человеколюбием изречение определяет нашего лидера, как мудрого политика, помыслы которого полны добротой и бережным отношением к человеку.

Если агрессивный национализм можно отнести к внешним угрозам, то соотносимой внутренней угрозой являются этнические и межнациональные противоречия. Они обусловлены отсутствием гармонии в межнациональных отношениях. Данный вопрос имеет особую актуальность для Республики Узбекистан, которая относится, как известно, к полиэтничному типу государств. В своем труде наш лидер подчеркивает стратегическое значение межнациональных и субэтнических взаимодействий в регионе, требующих особого внимания при построении межгосударственных отношений.

Коррупция и преступность являются еще одной из значительных угроз безопасности молодому государству. На пути к демократии и рыночным отношениям происходит «ломка основных политико-экономических структур», которая сопровождается ростом преступления и коррупции. «Каждый честный гражданин нашей страны, каждый, кому дороги ее будущее и авторитет, должен помнить об этой угрозе» [с.85]. Появляющаяся криминальная «теневая» экономика ослабляет моральные устои общества, формирует негативное отношение к осуществляемым преобразованиям, порождает недоверие к самой идее реформ. Особой тревогой и горечью проникнуты строки о пагубных последствиях криминальной экономики для общества и государства.

В суждениях и вопросах, обращенных к читателю, чувствуется, что автор не пытается скрыть или умолчать хоть какой-либо аспект этой угрозы. Вместо самоуспокоенности, он предпочитает правду. Проводя смелый и откровенный анализ коррупции и преступности, наш лидер убедительно доказывает, что самой невосполнимой утратой будет нравственное растрепание и потеря поколения. Сейчас, спустя 25 лет, наблюдая за событиями современности, понимаешь насколько были дальновидными суждения и оправданными его опасения.

Говоря о местничестве и клановых отношениях, наш лидер так определяет их: «...на основе родственного, территориального или этнического принципа в государственных или иных структурах формируются образования (чаще всего неформальные), движимые узкогрупповыми интересами, выдвигающие на первый план именно эти интересы – в ущерб общему делу, в ущерб интересам

общегосударственным, общенародным, когда ради достижения своих целей подобные образования стремятся к продвижению своих членов в существующей государственной, властной и иной иерархии...» [с.95].

Такая система отношений в обществе, когда интересы отдельной группы людей или отдельных территорий доминируют над общими, чрезвычайно порочна и опасна. Это ведет к росту социальной напряженности в обществе, таит в себе угрозу государству – его стабильности, целостности, способности к прогрессу [с. 98]. Одной из главных стратегических задач нашего государства является стремление избавиться от такого порочного наследия. Автор имеет ясное представление о том, что необходимо делать, чтобы не допустить появления на этой основе критической массы. Он предостерегает нас, что противоречия на местнической и клановой основе способны в условиях Центральной Азии перерасти в межнациональные и этнические конфликты.

Борьба с местничеством и клановыми отношениями, подчеркивает И. Каримов, должна вестись под флагом приоритета общечеловеческих ценностей и общенациональных интересов Узбекистана, приоритета общегосударственных законов на всей его территории. Основой объединения всех членов общества должна стать не их родовая, территориальная или этническая принадлежность, а осознанная общность корпоративных (предприниматели, интеллигенция, аграрии и т.д.) интересов на общегосударственном уровне. Необходимо сбалансировать интересы всех регионов, всех этнических и социальных групп. Признание жителями нашей страны правомерности действующих институтов власти является препятствием для возникновения и развития местнических настроений и клановой борьбы. «Необходимо предоставить большую самостоятельность местным властям. Перенос значительной части ответственности за реформы на местные власти позволит максимально включить их инициативу и привлечь местные ресурсы» [с.104]. И условием такой регионализации должно стать безусловное признание приоритетности общегосударственных интересов.

Еще одним из важных условий в этой борьбе, как подчеркивает наш лидер, придать духовному развитию и просвещению нации и народа значение общегосударственной политики. Наряду с воспитанием у граждан национальной гордости, развивать уважение к истории, культуре и достоинству других наций. И вновь помыслы

Первого Президента обращены к подрастающему поколению: «Воспитывать у современной молодежи и будущего поколения понимание и осознание необходимости наряду с безусловным знанием истории своего государства и народа, и глубокого изучения достижений мировой истории и культуры. Все это абсолютно необходимые условия для того, чтобы мы могли уверенно смотреть в свое будущее, быть спокойными за судьбу и благополучие наших детей» [с.104].

Проблему экологической безопасности и охраны окружающей среды наш лидер рассматривает в качестве потенциальных угроз национальной безопасности. Стало очевидным, что экологические угрозы это далеко не праздные вопросы для нашей молодой независимости. «Проблема экологической безопасности давно вышла за рамки национальной и региональной, она стала глобальной проблемой человечества» [с.108].

Перечислим основные аспекты экологических проблем для Узбекистана.

Во-первых, постоянно сокращаются площади посевных (а это значит - плодородных) земель. Бурно идущий с конца XX века процесс антропогенного опустынивания лишь усугубляет эту проблему. Агрессивная, безответственная человеческая деятельность порождает «эрозию грунтов, засоление почв, высокую степень засоленности земель» [с. 113-114]. Не будет преувеличением тот факт, что в условиях Центральной Азии от качественного состава земли зависит благополучие жизни всего населения республики, будущее страны.

Во-вторых, одной из важнейших проблем является качественное состояние водных ресурсов. С точки зрения экологической безопасности Узбекистана большую тревогу вызывает острая нехватка и загрязненность водных ресурсов, в том числе поверхностных и подземных вод. Интенсивное строительство оросительных систем по всей территории Центральной Азии стало причиной и глобальной катастрофы – гибели Арала [с. 118]. «Экологическая катастрофа, связанная с высыханием Аральского моря и опустыниванием региона, – это боль всех народов, проживающих в его бассейне». Воздействие Аральской проблемы уже сегодня сказывается на нарушении биологического баланса, пагубно влияет на генофонд населения на обширных территориях.

В связи с этим для усиления экологической безопасности, как подчеркивает наш лидер, необходимо срочное внедрение водосберегающих технологий полива сельскохозяйственных культур; полностью прекратить слив сточных вод в реки и водохранилища; внедрить систему современных эффективных очистных установок.

Одним из главных факторов охраны окружающей среды является рациональное использование полезных ископаемых республики.

В целях устранения отрицательные последствия современной урбанизации и создание благоприятных условий жизни населения в городах и селах необходимо вводить систему научно обоснованного градостроительства и районной планировки. Задачей первостепенной важности, подчеркивает наш лидер, является привлечение ресурсов, возможностей и инвестиций международных структур для решения этих проблем.

И снова раздумья Первого Президента направлены к молодому поколению, к экологичному и социальному благоустройству будущего нашей страны: «Реализация мер по защите окружающей среды позволит искоренить многие изъяды и упущения в области экологии, ликвидировать нависшую угрозу глобального экологического кризиса, создать необходимые условия и экологически чистую среду обитания для населения республики, рождения и развития физически здорового подрастающего поколения» [с. 128].

Есть известные слова русского поэта: *Лицом к лицу - Лица не увидать. Большое видится на расстоянье.* Теперь, по истечению времени, мы в полной мере осознаем значение Первого Президента в судьбе Узбекистана. Как должны мы быть благодарны этому человеку! Счастливой судьбе – жить в одно время с ним и вместе переживать судьбоносные моменты в истории нашей Родины! На наших глазах зарождалась и крепла новая свободная демократическая страна. И все эти преобразования, весь груз ответственности он не побоялся взять на себя. Его мужество, настойчивость и прозорливость, проявленные в годы молодой независимости, представляют собой настоящий нравственный подвиг, вдохновением которому была его великая любовь к Родине и своему народу!

TASAVVUF ALLOMALARI MEROSIDA MA'NAViy KAMOLOT SIRLARI

Toxir Xatamov Abdumutalovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada sayyoramizdagi globallashuv jarayoni natijasida inson ongi, qalbi uchun kechayotgan kurashlarda xalqimizni, yoshlarimizni g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish muammolari yoritilgan. Xususan, yoshlar tarbiyasida yuz berayotgan salbiy evrilishlarning oldini olish va barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga doir bir qator mulohazalar, tahlillar hamda tegishli tavsiyalar berilgan.*

Tayanch iboralar: *Islom, qadriyatlar, allomalar, tasavvuf, odob, axloq, milliy urf-odatlar, internet, yoshlar, globallashuv, ijtimoiy hayot.*

O'zbekiston mustaqil davlatga aylanganidan so'ng, o'z milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarini yana qayta tiklash huquqiga erishdi. Bugungi kunda diniy-ma'rifiy merosimizni qayta tiklash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarni O'zbekistonning eng yangi tarixidagi muhim tarixiy jarayonlardan biri sifatida alohida ta'kidlashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2016 yil Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida *“Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi.”* [1:1] deya islom dinining insonparvarlik g'oyalarini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq yurtimizda tasavvuf allomalari merosini qayta tiklash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilib, ularning merosiga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatildi. Jumladan, 1993 yilda Xoja Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyi nishonlangan bo'lsa, Xoja Abduholiq G'ijduvoniyning 910 yilligi 2003 yilda, Xoja Ahror Valiyning 600 yillik yubileyi 2004 yilda keng nishonlandi [2:410]. 2008 yildan buyon “Naqshbandiya” ilmiy-irfoniy, adabiy-ma'rifiy jurnali har uch oyda nashr etilishi yo'lga qo'yildi.

Ilm-fan yoʻnalishida tarixchi, adabiyotshunos, islomshunos, manbashunos, faylasuf, sharqshunos, pedagog, sotsiolog, jurnalist kabi soha mutaxassislari tomonidan tasavvuf taʼlimotini oʻrganishga bagʻishlangan 50 dan ortiq dissertatsiya ishlari himoya qilindi [6:1]. Allomalarimizning hayoti va ilmiy-maʼrifiy merosiga oid asarlar tarjima qilinib, nashr etildi. Jumladan, 1991 yil Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” toʻplami, 1993 yilda Xoja Bahouddin Naqshband hayot yoʻli va maʼrifiy merosini yoritishga bagʻishlangan “Maqomati Xoja Bahouddin Naqshband” manqibi, 2003 yilda Hakim Termiziyning “Manozil ul-ibod min al-iboda” asari, 2004 yilda Xoja Ahror Valiyning toʻrt asari jamlanib “Tabarruk risolalar” nomida nashr etilib xalqimizga taqdim etildi [5:47].

Koʻp asrlik tariximizdan maʼlumki, *YAssaviya*, *Kubroviya*, *Xojagon-Naqshbandiya*, *Hakimiya* kabi tasavvuf maktablariga ajdodlarimiz tomonidan katta ehtirom koʻrsatilgan. Nima sababdan ota-bobolarimiz tasavvuf maktablari va ularning ustozlarini eʼzozlashgan, ular tomonidan aytilgan oʻgʻitlar, asarlarida yozilgan xikmatlariga amal qilishgan. Javob sifatida aytishimiz mumkinki tasavvuf ustozlari umuminsoniy qadriyatlarga qatʼiy amal qilishgan, inson shaʼnini tahqirlash, huquqini poymol etib, zulm va zoʻravonlikka qarshi turishgan. Insonlar bilan oʻzaro munosabatlarida yuksak odob-axloq namunasi bilan ibrat boʻlib, oʻz shogirdlaridan ham ushbu ezgu gʻoyalarga qatʼiy amal qilishini talab qilishgan.

Insonparvarlik gʻoyalari ustuvor boʻlgan Naqshbandiya maktabi asrlar davomida shakllanib Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar) davrlarida yuksak bir holatga etdi [3:47]. Naqshbandiyalar taʼlimoti jahon tasavvuf maktablari oʻrtasida katta yutuqlarga erishganligi koʻplab tarixiy asarlar, manqib va tazkiralarda taʼkidlanadi.

Ammo ming afsuslar boʻlsinkim, Naqshbandiya tariqati, sobiq shoʻrolar tuzumi davrida notoʻgʻri talqin etildi va xalqimizga xurofiy gʻoyalarni targʻib etuvchi, baʼzi holatlarda esa din vositasida boylik va hokimiyatga intiluvchi taʼlimot sifatida ham koʻrsatildi. Aslida naqshbandiylik taʼlimoti sharqona qadriyatlar asosida insonni kamolot bosqichlariga olib chiqishga bagʻishlangan maʼrifiy yoʻl ekanligi xalqimiz tarixida oʻz isbotini topgan edi.

Naqshbandiylikda shogirdlarni bosqichma bosqich tarbiyalashda oʻn bir qoida muhim ahamiyat kasb etgan, bu qoidalar shogirdlarga bir xil tatbiq etilmagan, chunki har bir insonning feʼl-atvori, iqtidori, ilm darajasi, himmati, ustozga ergashishi har xil boʻlgan, ushbu farqlardan kelib chiqib, ustozlar tomonidan oʻn bir qoidani shogirdlarga tatbiq etishda turli uslublardan foydalanilgan.

Ushbu o'n bir qoida bir necha asrlar mobaynida to'plangan tajriba asosida shakllanganligini ham alohida ta'kidlashimiz zarur. Jumladan, dastlabki to'rtta qoidaga Xoja Yusuf Hamadoniy (XI-XII asrlar), keyingi to'rtta qoidaga Xoja Abduholiq G'ijduvoniy (XII asr) va so'nggi uchta qoidaga Xoja Baxouddin Naqshband (XIV asr) kabi allomalarimiz asos solishgan. Quyida ushbu o'n bir qoidaning ketma-ketligini ko'rishimiz mumkin: 1. Xush dar dam, 2. Nazar bar qadam, 3. Safar dar vatan, 4. Xilvat dar anjuman, 5. Yod kard, 6. Boz gasht, 7. Nigoh, 8. Yod dosht, 9. Vuqufi zamoni, 10. Vuqufi adadiy, 11. Vuqufi qalbiy [4:43-46].

Ko'plab tarixiy manbalarda bu qoidalarning sharhlari va komil inson tarbiyasidagi o'rni yoritib berilgan. Jumladan, ushbu qoidalarda insonlar ruhiyati(nafsi)ni tarbiyalash orqali ularni komillikka etaklash asosiy maqsad sifatida e'tiborga olingan. Ammo tasavvufga kirgan barcha insonlar ham katta natijalarga erishgan deb ayta olmaymiz. Tasavvufda eng katta kurash bu insonning nafsi – ya'ni, o'zi bilan sodir bo'ladi. Insondagi nafsi ammora (yomonlikka undovchi) o'z tabiatiga ko'ra insonni doim xudbinlikka, yomonlikka, faqat o'z rohat farog'atini o'ylashga chorlaydi. Nafsning bunday hohishlari o'z navbatida zaif irodali, ilmi oz insonlarga ma'qul kelib, nafsining istaklariga osongina itoat etadi. Buning natijasida, jamiyatlarda axloqiy buzuqliklar va ijtimoiy tanazzullar ham kuchayib boradi.

Tasavvuf allomalarining ma'naviy-ma'rifiy merosi sharq-musulmon dunyosida inson axloqining shakllanishi va kamolotga erishishida alohida o'ringa ega hisoblanadi. Yer sayyorasida yuz berayotgan bugunga kundagi globallashuv jarayoni barcha insoniy qadriyatlarni yagona andozaga solib, "yer odami" kabi sun'iy avlodni shakllantirishga katta urg'u bermoqda. O'z milliy va diniy qadriyatlaridan uzoqlashayotgan yoshlar o'rtasida, modaparastlik, qadriyatlarni mensimaslik, hasad, kibr, g'azab, yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, o'zgalarni kamsitish, noshukrlik kabi ko'plab salbiy xislatlar avj olmoqda. Insoniyat oldida turgan bunday axloqiy evrilishlar va ma'naviy inqirozlar echimini topishda, ajdodlarimizning ulkan ma'rifiy merosi ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Ochigini tan olib aytishimiz kerak-ki, bugungi kunda internet tarmog'i orqali farzandlarimiz hohlagan ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Ota-onalar har doim ham o'z o'g'il-qizlarini nazorat qilish, surishtirish, kuzatib borish kabi imkoniyatlariga ega emas, shu sababli yoshlarda axborotlarni saralash, tahlil qilish va eng manfaatlilarni tanlashni o'rgatish masalasi bugungi kunda dolzarbdir masalaga aylangan. Chunki, internet saytlaridagi behayo lavhalar, zo'ravonlik, turli qimor o'yinlari, firibgarlik va "ommaviy

madaniyat” tushunchalarining targʻib qilinishi kun sayin shiddat bilan ortib bormoqda.

Ushbu ijtimoiy-axloqiy muammolarga qarshi kurashishda, maʼrifatparvar allomalarimizning pand-nasihatlaridan foydalanishimiz kelajak avlodlarimizning baxtli hayotlari uchun juda katta foydalarni beradi. Ajdodlarimiz merosi yoshlarimizda insoniylikning ortib borishi, oʻz mehnati evaziga halol hayot kechirishi, imkoniyati darajasida odamlarga yordam koʻrsatishi va eng kichik ishlarda ham oʻzgalar haqqiga hiyonat qilmaslik kabi ijobiy xislatlarni shakllantiradi.

Xulosa oʻrnida aytishimiz mumkinki, insonning kamolotga erishishi mumkinligi haqidagi gʻoyalar, yoʻnalishlar, uslublar va kamolot bosqichlari deyarli barcha dinlar va falsafiy taʼlimotlarda targʻib etilgan. SHuni ham alohida taʼkidlash kerak-ki, aksariyat din, taʼlimot va tamaddun vakillari oʻz kamolot yoʻllarini eng toʻgʻri yoʻllardan biri deb hisoblashgan. Etuk olimlar va ziyolilar insonlarni, jamiyatlarni ilm-maʼrifat yoʻli bilan tarbiyalab kamolotga olib chiqish mumkin deya hisoblashgan. Yurtimizda rivojlangan tasavvuf taʼlimoti ham yetuk olimlar, ulamolar, ziyolilar, ustozlar tomonidan asrlar mobaynida tadqiq etilib, taraqqiy etgan irfoniy yoʻllardan biri hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan asos solingan bu kabi maʼrifiy maktablar merosini tadqiq etish, yosh avlodga etkazish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. Zero, insoniyat axloqiy tanazzullarga yuzlanayotgan XXI asrda, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning milliy oʻzligini, insoniy qiyofasini saqlab qolishda sharq allomalari merosiga tayanish, oʻqish va oʻrganish eng dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi: Tinchlik, maʼrifat va bunèdkorlik yoʻlida hamkorlik // Xalq soʻzi. – 2016 yil 19 oktyabr.*

2. *Joʻraev N., Fayzullaev T. Mustaqil Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. 410 b.*

3. *Maqomati Xoja Bahouddin Naqshband. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2019. B.47.*

4. *Razzoqov Gʻ., Rahimov K. – Xojagon-Naqshbandiya tariqati va etti pir. Toshkent.: Oʻzbekiston, 2020. – B.43-46.*

5. *T.Xatamov Mustaqillik yillarida tasavvufga oid ilmiy-maʼrifiy merosning tadqiq etilishi // “Islom tafakkuri” jurnali. – T.: 2022. №2. – B.47.*

6. www.diss.natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining “Dissertatsiya va avtoreferatlarning ilmiy elektron kutubxonasi” bo‘yicha rasmiy sayti.

ЕДИНСТВО НРАВСТВЕННЫХ И ЭСТЕТИЧЕСКИХ КОМПОНЕНТОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНОГО МИРА ЛИЧНОСТИ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Юсупова Наргиза Рустамовна

и.о. доцент кафедры

*«Спортивного права, общественных и
естественнонаучных дисциплин», УзГУФКС*

Аннотация. Обосновывается необходимость преодоления порожденного глобализацией духовно-нравственного кризиса, обострившего негативные явления, традиционно существовавшие в молодежной среде и запустившего процесс смены культурных кодов. Показывается важность и необходимость формирования этического сознания будущего учителя, «распознающего», что такое «добро в себе и для себя», воспроизводящего в себе и в другом – учащемся.

Ключевые слова: учитель, этическое сознание, формирование, нравственный опыт, содержание процесса формирования этического сознания, элементы содержания.

В условиях происходящего на наших глазах процесса радикальной ценностной трансформации современного социума, следует с новых позиций осмыслить духовно-парадигматические основания деятельности наиболее активной и быстро адаптируемой части общества – молодежи. Современное узбекское общество характеризуется крупными социальными и духовно-нравственными изменениями, затронувшими всю систему базовых ценностей индивида. В центре этих изменений стоит человек – и как участник реформационных процессов, и как субъект ценностных композиций кризисного общества.

Современная жизнь узбекского социума, изменения в материальной и духовной жизни человека требует переосмысления многих философских категорий и переоценки системы ценностей. Нынешний человек оказался лишенным как установок официальной

идеологии, так и нормативно-ценностного контекста. Образовавшийся "вакуум" в духовном развитии общества постепенно заполняется, но не столько новыми идеологическими схемами, сколько ценностями и приоритетами, выработанными мировой и отечественной социально-исторической мыслью. С этой точки зрения проблема духовных основ и ценностных параметров в формировании личности молодых людей.

В Новым Узбекистане создается принципиально новая духовная и ценностная атмосфера, в которой, наряду с отрицанием негативного прошлого, должно получить отражение и то положительное, что было раньше, в том числе и опыт государственных учреждений и институтов по формированию нового поколения, вовлечению молодежи в активную общественную жизнь.

Если задаться этой целью то, прежде всего, следует определиться в выборе главной, то есть доминантной сферы в духовно-нравственном мире современного молодого человека. Эта сложная теоретико-гуманитарная задача, как и ее практическая реализация, позволит в должной мере выработать наиболее оптимальные и эффективные варианты решения теоретических и практических задач духовно-нравственного обновления личности, а затем и придать этому процессу социально прогнозируемый и управляемый характер.

Сложность решения данной проблемы связана с тем фактом, что сегодня в реальной жизни проявляется множество самых различных противоречий в системах субъект-объектных отношений и взаимодействий и поэтому реально осуществить всестороннее и гармоничное развитие общества и личности не представляется возможным. Кроме того, до сих пор не утихают дискуссии о том, какую сферу в духовном мире человека исследовать в качестве основного средства и объекта воздействия, через которую и посредством которой можно наиболее эффективно выдвигать и решать задачи духовного обновления личности в современных условиях.

На данной предметной основе возникает возможность для более четкой типологической классификации аксиологических компонентов и нравственных императивов в целеполагающей деятельности личности. Речь идет о том, с помощью чего и через что в конкретно-исторических условиях можно наиболее целостно влиять на личность, прежде всего на формирование ценностного личностного модуса-мировоззрения, идеалов, убеждений, мотивов, целей, интересов,

оценочных критериев, потребностей и так далее, то есть всего того, из чего складывается не только социально ориентированная личность, но и ее отношение к миру, обществу, к другим людям, самому себе. Соответственно, эта сфера должна включать в себя следующие элементы:

1) целостно выражать аксиологические доминанты современной эпохи, прежде всего те, которые определяются изменившимся социальным положением человека в мире;

2) обладать высокой степенью социальной устойчивости, которая состоит прежде всего в коррекции мировоззрения, мотиваций, убеждений и идеалов, направленных в первую очередь на сохранение самого человека через создание универсальных нравственных кодексов и их реализацию в системах духовной ориентации;

3) обладать способностью к активному взаимодействию со всеми сферами духовно-нравственного мира личности, оказывать на них соответствующее влияние[1].

Такой предметной сферой в духовном мире личности в современных условиях становится сфера нравственных и социально-профессиональных ценностей, а также складывающаяся на ее основе система ценностных ориентации в целеполагающей деятельности молодого поколения. Соответственно и управление этим процессом на уровне общего, особенного и единичного составляет важнейшее направление духовного обновления личности.

Здесь прежде всего следует раскрыть значение ценностей в жизни человека и общества. В связи с этим, необходимо подчеркнуть, что обновление духовного мира личности по характеру осуществления должно представлять процесс развития ее сфер с учетом их диалектического взаимодействия и взаимовлияния друг на друга; грубо говоря, с учетом "соответствия" между ними, которое, в свою очередь, представляет динамичное, изменяющееся явление. В этом и состоит суть методологических оснований подхода к проблеме обновления духовного мира личности. Дело другое как реально этот процесс осуществляется. Это вопрос всех вопросов, поскольку социально-гуманитарные науки все еще находятся в состоянии осознания и поиска подходов к формированию духовного человека.

В связи с этим, особенно важным представляется положение о том, что вольное или невольное игнорирование диалектики сфер духовного мира, а также несвоевременное реагирование на характер ее

проявления в системе мотивации и деятельности личности может привести к "разбалансировке" способности человека целостно осознавать и адекватно реагировать на воздействия внешнего и внутреннего мира. Это в итоге может выражаться в нарушении "устойчивости" субъект-объектного взаимодействия. При этом, даже в рамках одной и той же сферы духовного мира, например, социально-культурной, также важно следовать идее всестороннего развития и не отдавать предпочтения, скажем, идеологическому воздействию, принижая значение этического, эстетического и т.д [2].

Если в прежние годы деформирующее воздействие на личность оказывала идеология вульгарного социологизаторства, то сегодня это происходит в силу других причин. Прежде всего, потому, что отдается предпочтение тому или иному средству воспитания, вне учета механизмов и последствий их влияния на человека. Так, например, старая система этических знаний была недостаточна, хотя бы потому, что опиралась только на внешние силы регулирования нравственного поведения (общественное мнение, государство, коллектив и тому подобное). Как только эти внешние подпорки были устранены, внутренняя структура, связанная с формированием совести, чести, достоинства личности, потребности в нравственном самосовершенствовании оказалась недостаточной, чтобы противостоять возрастающим негативным явлениям. Результатом является развитие нигилизма, цинизма и пагубного отрицания по отношению ко всей системе высших духовно-нравственных ценностей и идеалов. Причем, сегодня это выражено не только чисто вербально, но и в конкретных структурах мотивации и поведения нынешнего молодого поколения[3].

Поэтому все более значимым становится преодоление некоторой раздвоенности в духовно-нравственном состоянии общества, где, с одной стороны, плюрализм есть определенный качественный этап на пути демократизации всех сфер его жизни, а с другой, он же может утратить позитивное значение, поскольку на его почве произрастает идеология невежества и чистогана в духовном обновлении. Тем не менее, «издержки» современного этапа общественного развития не должны заслонять главного: общество и личность стоят перед проблемой духовного обновления, и ее надо решать на основе разработки наиболее конструктивных программ, учитывающих специфику ценностных ориентации молодого человека в современном

мире. Нельзя не учитывать и тот факт, что общество как целостность удерживается в таком состоянии в случае стабильно «удержания» собственной духовной целостности каждым конкретным индивидуумом. Это, в свою очередь, обязывает нас к поиску наиболее оптимальных путей взаимодействия всех сфер социальной реальности и нравственного мира человека в процессе его духовного обновления.

В современных условиях аксиологические проблемы воспитания и образования молодых специалистов в высших учебных заведениях представляют собой обширные культурные системы, основанные на причинно-смысловом единстве и на трех культурных уровнях - идеологическом, поведенческом и материально-практическом. Вузовское образование занимает в системе социального действия такое положение, когда оно является высшей динамической точкой изменений между обществом и личностью, моментом преобразования социальной культуры в личностную.

В условиях преобразования общества и в соответствии с требованиями социального и научно-технического прогресса происходит изменение целей и задач, усложнение форм и методов эстетического воспитания студенчества - будущих ведущих специалистов производства, управления, науки и культуры, будущих интеллигентов нового типа. Свойство интеллигентности не дается механически с получением диплома о высшем образовании. Оно приобретает в результате громаднейшей внутренней работы разума, чувств и воли, повседневного неустанного труда по освоению всех богатств культуры, по выработке чувства социальной ответственности и творческому использованию всех знаний, способностей и убеждений в разносторонней социальной деятельности[5].

Эстетическое воспитание в едином комплексе средств с воспитанием нравственным должно выработать у будущего специалиста стойкую систему внутренних эстетических побуждений, мотивов, связанных с творчеством, интересом к искусству, потребности в эстетическом характере деятельности и эстетических убеждений.

При этом, наиболее общей целью эстетического воспитания в высшей школе является формирование и развитие у будущего молодого специалиста высокого уровня личной эстетической культуры и творческих установок профессиональной деятельности. Развивая у него эстетическое отношение к труду, природе, социальной или

политической деятельности, науке, искусству, общению, спорту, эстетическое воспитание в его органичном единстве с нравственным активно формирует творческий потенциал личности. Особенности студенчества (специфика сознания, структура деятельности, стиль поведения и образа жизни) определяют в известной мере формы развития его эстетической культуры. Они характеризуются и большей глубиной и интенсивностью познавательных ориентации, и активностью в поиске оригинальных форм самовыражения. Наряду с целым рядом положительных сторон, эстетическая культура части студентов обладает и некоторыми негативными свойствами: умозрительностью и максимализмом идейно-эстетической позиции, повышенным интересом к развлекательным жанрам современной культуры. Отражением сложности развития эстетической культуры студенчества является ее типология, определяемая по уровню (низкая, средняя или высокая степень развитости), по характеру отношения личности к культурной деятельности (ориентация на проблемность, престижность или развлекательность содержания), по форме проявления (пассивная, активная).

Немаловажное значение имеют и культурные традиции региона, профиль вуза и факультета, социально-психологические черты каждого набора студентов, культурная среда вуза, курса, академической группы. Понятно, что эстетические потребности разных групп, курсов, факультетов, вузов могут значительно различаться. И поскольку в целом в высшей школе принцип системности эстетического воспитания не всегда выдерживается и организация культурно-воспитательной работы зависит от уровня понимания ее роли в подготовке специалиста, постольку эстетическое развитие студентов строится по-разному. Есть еще одна проблема: разная степень эстетического развития абитуриентов вузов. Она зависит от многочисленных факторов -уровня культурного развития семьи, качества школьного образования и внеклассного воспитания, воздействия социальной среды[4].

Существует немалая трудность в том, чтобы достичь сформированности культуры каждого студента. Анализ культурного уровня абитуриентов разных вузов показывает, что существующую неравномерность их интеллектуального и эмоционального развития вуз не ликвидирует.

Одна из причин заключается в различии структуры интересов, потребностей и способностей студентов. Существует и другая причина - процесс эстетического развития, выступающий в определенных моментах как эстетическая социализация личности, включает в себя и целенаправленное и нецеленаправленное воздействие. Все факторы среды в целом и каждый в отдельности по-разному влияют на личность. И это влияние может оказаться эффективнее некоторых форм целенаправленного воздействия. Еще одна из причин кроется в недостатках организации системы эстетического и духовно-нравственного воспитания молодого поколения.

Здесь названы причины разнохарактерные, но все они связаны с одной проблемой - каким образом каждого студента воспитать эстетически? Ведь 17-20 лет – это довольно важный этап в эстетическом развитии личности. Молодой человек овладел определенным запасом знаний, у него обнаружались способности и выработались некоторые навыки творчества, сложились и ценностные ориентации. Но это еще не главное. Главное -насколько эти качества реализуются в структуре его деятельности и поведения. Их содержание определяет формы реализации эстетической культуры. У школьника содержание деятельности на несколько порядков ниже, чем у специалиста. Деятельность студента (от курса к курсу) приближается к структуре его практической деятельности как специалиста.

Студенческая молодежь занимает как бы промежуточное положение: она еще учится, но это уже не школа; она овладевает специальными навыками, но функции специалиста освоены еще не полностью. Вуз ставит цель выработать устойчивые творческие интересы и потребности студента. В этом смысле вуз помогает практически осваивать то содержание его эстетической культуры, которое сформировано в результате воздействия на него школы, семьи и среды. Но бывает, что ее "основы" надо порой воссоздавать заново. Особенно это характерно для технических вузов, поскольку там техническая специализация стоит на первом месте, а задачи формирования общих культурных качеств будущего специалиста рассматриваются порой как второстепенные. Нередко наличная система эстетического воспитания охватывает прежде всего тех студентов, у которых уже развиты стойкие эстетические интересы и потребности. Те же студенты, чья эстетическая культура сформирована недостаточно, зачастую оказываются за пределами системы эстетического воспитания. Для части студентов вуз вынужден ставить преимущественно компенсаторные задачи воспитания сформировать

основы эстетической культуры, "исправлять" недостатки семейного и школьного воспитания.

Если представить студентов, которые не участвуют в художественной самодеятельности, не "охвачены" другими формами эстетического воспитания, не изучали системно курса эстетики, так как в вузах преподавание этики и эстетики, к сожалению, далеко не повсеместно, а в результате процент выпускников со стихийно сложившимися эстетическими критериями довольно высок.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Апресян Р.Г., Гусейнов А.А. *Нравственный опыт // Этика: учебник.* М.: Гардарики, 2009. С. 309–390.

2. Бездухов А.В. *Структура этического сознания учителя // Вестн. Твер. гос. ун-та. Сер. «Педагогика и психология». Вып. 4. 2013. No 26. С. 254–263*

3. *Задачи и содержание общего и политехнического образования // Дидактика средней школы. Некоторые проблемы современной дидактики: учеб. пособие/под ред. М.А. Данилова и М.Н. Скаткина. М.: Просвещение, 1975. С. 33–81.*

4. Никитина О. Ю. *Социальная трансформация ценностных ориентаций современной молодежи: диссертация ... кандидата философских наук : 09.00.11.- Ставрополь, 2003.- 155 с.: ил. РГБ ОД, 61 03-9/517-1*

5. Шадрин И.М. *Об опыте ценностно-ориентационной деятельности учителя // Вестн. Оренбург. гос. ун-та. 2014. No11 (172). С.212–216.*

SAROYMULK XONIM VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI

Ishanchayeva Shoiraxon Baxramdjanovna

Andijon davlat tibbiyot instituti Akademik litsey

“Ijtimoiy” fanlar kafedrasi mudiri. Andijon, O‘zbekiston

Annotasiya. *Mazkur maqolada yurtimizda ko‘p asrlik milliy davlatchiligimiz tarixiga ulkan xissa qo‘shgan ma‘rifatparvar ayollar Saroy Mulk xonim o‘zining mardlik tuyg‘ulari, tafakkuri, va ijod falsafasi bilan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va jamiyat rivojida tutgan o‘rni to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *saltanat tayanchi, millat tarbiyachisi ayol, ibratli ayol “ko‘ragon”, o‘rta asr yilnomasi, san‘at homiysi, ta‘lim homiysi, “ikki*

raqib”, “Samarqand hayoli”, ma’rifatparvar ayollar, mardlik tuyg’ulari, “katta xonim”, “Bibixonim”, “vaqtli pul”, nafosat egasi, xayr-saxovat.

Kirish. Yurtimizda ko‘p asrlik milliy davlatchiligimiz tarixiga ulkan xissa qo‘shgan ma’rifatparvar ayollar o‘zining mardlik tuyg’ulari, tafakkuri, va ijod falsafasi bilan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida doimo alohida mavqyega ega bo‘lganini ko‘ramiz. Ayollari pok, dono va oqila millatni aslo o‘zligidan judo qilib bo‘lmaydi. Millatni ayol tarbiyalaydi va kamolotga yetaklaydi. Mana shunday buyuk jasorat sahibalaridan Saroymulk xonim (Bibixonim), Gavharshodbegim, Gulbadanbegim, Anjumand bonu (Mumtoz Mahal begim), Xonzoda begim, Zebuniso kabi ko‘plab keltirishimiz mumkin. Xindistonning mashhur davlat arbobi Javoharlal Neru “Dunyoning o‘tmishini, erkaklar bilan birga buyuk ayollar amalga oshirgan ulug‘ ishlar to‘g‘risida fikrlash maroqlidir” - deb, bekorga aytmaganlar.

Ibratli ayol, sadoqatli umr yo‘ldosh, saltanat tayanchi, o‘zining falsafiy qarashlari bilan mamlakat siyosiy hayotida ustun bo‘lgan ma’rifatparvar Saroymulk xonimdir.

Amir Temur va u tuzgan saltanat haqida, Temuriy malikalarning ijtimoiy falsafiy qarashlari haqida to‘g‘risida bir qator o‘zbek va yevropa olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, T.Jalolov, T.Fayziyev, F.Boynazarov, M.Lafasov, A.G‘ofurov, N.Vasilyev, A.Vigasin, M.Dandomayev shuningdek, ingliz tilida olimlar Avari Burjor, Faruqi Munis D., Gandhi M.K., Nazir Ahmad Chaudhry, Hameed, Afzal Husain, Ali K, Burton Stein, Hermann Kulke, Dietmar Rothermund, Mahmood T, Peter Lyon va davriy nashrlarda Bajpai Sh.K. Burns R.N ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bundan tashqari, Saroymulk xonim haqida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mu‘iniddin Natanziy, Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Fasiq Havofiy, Rui Gonsales de Klavixo hamda zamondosh olimlar B.Ahmedov, T.Fayziyev, A.Ziyo, A.Berdimurodovlar asarlarida Saroymulk xonimning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Xurshid Davronning “Samarqand hayoli” kitobidagi “Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston” tarixiy-badiiy asari ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur tarixiy asarlarda Bibixonimning oqila, fozila va nufuzli ayol bo‘lganligi tasdiqlaydi. Lekin xanuzgacha aynan Saroymulk xonimga bag‘ishlangan to‘liq ijtimoiy-falsafiy va tarixiy asarlar yaratilmagan.

Salohiddin Toshkandiy o‘zining “Temurnoma” asarida ham mazkur fikrlarimizni tasdiqlaydi. Mazkur kitobda Bayonqulixon saltanatining poytaxti Buxoro shahrida navqiron Temur va malika Saroymulk xonim bilan tanishgan voqyeasi quyidagicha bayon qilinadi: “Bir kecha Bayonqulixon

tushida Shayx ul-a'lamni ko'rib, aydilar: xilofi shar'iy qilmagil, turgil, qizlaringni erga bergil. Bayonqulixonning to'qqiz nafar qizi bor edi. Uyqudan turib barcha qizlarini ja'm qildi... Barchasidan kichigi Saroy Mulk xonim edi, aydi, ey ota, sizning davlatingiz soyasidan hyech joyga bormasmen, er ham qabul qilmasmen, dedi...”

Podshoh kunlarning birida yana bir bor Shayx ul-a'lamni ko'radi. Bu safar mo'tabar zot podshohdan Saroymulk xonimni turmushga uzatishini so'raydi. Tongda xon qizini huzuriga chorlaydi. Saroymulk xonim “maning xohishimga qarasangiz?! Mani Tarag'ay Bahodir o'g'liga (Amir Temurga) beringiz” deb aytadi. Ammo, Shahrisabz begi bo'lgan Tarag'ay Bahodir bilan xon orasidagi munosabatlar jiddiy tus olganligi sababli Bayonqulixon ushbu taklifga rozilik bildirmaydi. “Temurnoma”da Saroymulk xonim Bayonqulixonning qizi deb ko'rsatilsa-da, aslida, u Qarshi shahrining hokimi amir Qozonxonning qizi bo'lganligini va 1341 yil Qarshida tug'ilganligi haqida tarixiy manbalar dalolat beradi.

Bayonqulixon dono qizini Amir Temurga uzatishga kunmagach, malika otasiga “kimda kim men bilan shaxmat o'ynasa va yutsa, g'olibga turmushga chiqaman, xatto u cho'pon bo'lsa ham” deydi. Xon bu taklifga rozi bo'ladi. Malika qullar kiyimini kiyib, shaxmat musobaqasiga boradi; Tong otgach shaxmat ustalari musobaqaga birin ketin tashrif buyuradilar. Xonning jarchilari butun Buxoroga bu haqida xabar qildilar. “Odamlar-o, odamlar! Eshitmadim demanglar!” Ammo musobaqaga tashrif buyurganlarning hyech biri Saroymulk xonimga bas kelolmadi. U xonlikdagi mashhur shaxmat ustalarini ham mag'lub etadi. “Andin keyin jarchi bozorlarda nido qilur edi. Amir Sohibqiron bu ovozni eshitib, chiqib so'rdi, jarchi voqyeani bayon qildi. Ammo shatranj o'ynamoqqa misli yo'q erdi. Amir aydi; Men ham bilurman. Andin keyin Amir Sohibqironni olib bordilar. Xon ko'rdikim, bir turk bacha, egnida chakmon, boshida telpak... Xon buyurdikim, qulbachani (Saroymulk xonim) kelturinglar. Darhol kelturdilar. Amir bildikim, o'g'il libosini kiyibdur, ammo o'zi qizdur. Filhol, ko'rib bir-biriga ko'ngil berdilar”. Shundan so'ng shaxmat olib kelindi, Amir Temur xonga o'z shartini bildirib o'tdi: “Sohibqiron dedikim: man bir shart bilan o'ynagaymen. Xon dedi: shart shundan iboratki, agar yutsang, bu qulbacha senga tuhfadir. Amir aydi: agar yutquzsam evaziga nima qilurmen? Xon dedi: Sandan hyech tama' yo'qdir. Amir dedi: gar man boy bersam shu bachaga qul bo'lurmen. O'zi maxfiy oshiq bo'lib erdi. Emdi shatranj o'ynay berdi uch bisotgacha. Har bisotigacha bir kecha kunduz o'tib keta berdi”. Ko'rinadiki, bu “ikki raqib” shaxmat o'yinini ustasi. Biz bayon etayotgan bu voqyea bir afsonadir, biroq, Saroymulk xonim Sohibqiron Temur singari hayotda ham zamonasining tengsiz shaxmat ustasi bo'lgan.

Bu haqida tarixchi Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” kitobida Saroymulk xonim Sohibqiron Temur kabi katta shaxmat o‘ynaganini qayd etadi.

Saroy Mulk xonim kelib chiqishi chig‘atoy ulusidan bo‘lgan mo‘g‘ul xonilaridan biri Qozonxonning qizidir. U 1341 yilda tavallud topgan. Qozonxon taxtdan tushurilib, qatl etilgan vaqtida Saroy Mulk xonim endigina besh yoshga to‘lgan edi. Saroy Mulk xonim voyaga yetgach, Movarounnahr hukmdori amir Husayn uni o‘z nikohiga oladi.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni nikohiga olgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bo‘lgan. Lekin Saroy Mulk xonim barcha malikalardan ma‘rifati, aql-zakovati va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan yuksak bo‘lganligi uchun, “katta xonim” yoxud “Bibixonim” degan unvonga musharraf bo‘ladi. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, Saroy Mulk xonim zamonasining tenggi yo‘q noyob zakovat sohibasi, yuksak idrokli, azmu-shijoatli, farosatli, saxiy tadbirkor va husn-malohatda ham benazir malika edi. Saroy Mulk xonim insonparvarlik, vatanni madh etish, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy ahvoli, iqtisodiy va madaniy hayotidan doimo xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarini boshqarishda o‘zining umr yo‘ldoshiga dono maslahatlarini berib turgan komil inson edi. Ayniqsa, ilm-ma‘rifatni qadrlab, tolibi ilmlarga alohida g‘amho‘rlik qilgan sahovatli homiy edi.

Saroy Mulk xonim Sohibqironning harbiy yurishlarida ham o‘z maslahatlarini berib borgan. Tarixiy manbalarda ta‘kidlanishicha, o‘ta ziyrak va benazir tafakkur egasi bo‘lgan Saroy Mulkxonim saltanatni idora etishda yuzaga kelgan muammolarni hal etishda o‘zining falsafiy qarashlari bilan maslahatlarini berib borgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga bo‘ysunmasa-da, uning oqilona va odil maslahatlariga quloq solib, doim o‘zida unga ehtiyoj sezilib turgan. Masalan, kunlarning birida Amir Temur Eronga qarshi yurishda, Isfaxon qamali cho‘zilib ketadi, qo‘shinga ozuqa ta‘minlashda mablag‘ tugab qoladi. Amir Temur Saroy Mulk xonimga noma yo‘llaydi. Maktub qisqacha mazmunda, “Qo‘shinning zahirasi tamom bo‘ldi, xazinadan zar yuboring” tarzida ifodalanadi. Saroy Mulk xonim maktubni o‘qigach, maktubning orqa tarafiga “Ulug‘ amirim, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimu?”-deb yozadi va uni maktubni olib kelgan choparga beradi.

Amir Temur saroyida o‘rnatilgan qoidaga ko‘ra, xorijlik elchilarni kutib olish marosimida podsho bilan birgan xotinlari ham ishtirok etgan. Ispaniya qiroli Genrix III ning Samarqand hukmdori Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning yozishicha, 1404 yilning sentyabr oyida Amir Temur Samarqand atrofida barpo etilgan “Dilkusho” bog‘ida elchilarni kutib oladi. Kutish marosimi tantanali va to‘kin dasturxonlar solinib boshlanadi. Klavixoning ma‘lumoti bo‘yicha, ushbu tantanada

hukmdor Temurning yonida Saroy Mulk xokim bo'lgan va boshqa xotinlari esa yuzlarini berkitgan holda o'tirganlar. 1404 yil oktyabr oyida Saroy Mulk xonim ham ziyofat uyushtiradi. Ziyofatda ko'plab elchilar orasida ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo ham bo'ladi. Klavixo Saroy Mulk xonimning aql-zakovatiga qoyil qolib, mamlakat bog'laridagi to'kin-sochinligi, ipak chodirlarning rang-barang tovlanishi, undagi oltin va kumush jihozlarning o'ta nafis did bilan jihozlangani haqida taajjub ila bayon qilgan.

Ma'rifat homiysi bo'lgan Saroy Mulk xonim kunlarning birida o'zining jamg'armasi hisobidan, yurtda ilm-fan ravnaqi uchun Oloh yo'lida madrasa qurdirishga Amir Temurdan ruhsat so'raydi. Hukmdor rozi bo'lgach, otasi Qozonxon sovg'a qilgan bir juft olmos baldog'ini sotadi va mazkur mablag'ni barchasini madrasa qurilishiga sarflaydi. Saroy Mulk xonim madrasaning qurilishi jarayonida u yerga tez-tez borib ko'rsatmalar berib boradi. Madrasa qurilishi tugayotganda ham katta xonim o'z kanizlarini olib bilan qurilish maydoniga borib, ustaboshiga madrasani kam-ko'stlarini aytib o'z fikrlarini beradi. Ustaboshi Bibixonimning yuzini ko'rmagan bo'lsa ham, uning jozibali so'zlari, oqila va o'tkir zehqli sohibasi ekanligiga lol bo'ladi. Malika ketgandan so'ng, ustaboshi bir lahzalik muloqotdan so'ng xonimning aql-zakovatidan taralgan so'z iforidan o'zini yo'qotib, ichiga sig'may, hissiyotini jilovlay olmay, atrofidagi ustalarga:

— Yo qudratingdan Oloh, ayol zoti shunchalik oqila va dono bo'lurmu?.. Xonim to'g'risida eshitgan ta'riflarning barchasi to'g'ri ekan. Qaniydi, barcha ayollar shunday nafasat egasi bo'lsa, -deb, chuqur oh tortadi.

Saroy Mulk xonim tomonidan qurilgan bu madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqandda o'zining mahobatligi bilan ajralib turadi. Madrasaga ilm ahillari, yetuk mudarrisalari tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy fanlardan dars berganlar. Xonim madrasada tahsil olayotgan tolibi ilmlar xolidan xabar olib turar, ularga onalarcha mehr ko'rsatish bilan birga homiylik ham qilardi. Rivoyat qilinishicha, Saroy Mulkxonim odatiga aylangan qolgan udumi bo'yicha, kunning qosh qoraygan vaqtida, yaqin kanizalarini kiyimlarini o'zgartirib, madrasaga yo'l oladi. Sababi, Saroy Mulk xonim madrasa tolibi ilmlarining ruhiy ahvoli, tunda qanday ish bilan band ekanligini pinxona tekshirib borar edi.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko'rmagan. Buning o'rmini esa hyech narsa bilan qiyoslab bo'lmas darajada mehr-muhabbat egallagan. Sohobqiron o'z o'g'li Shohruh Mirzoni, suyukli nabiralari yer yuzi qolib oyni va yulduzlarni zabt etgan Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton Mirzo va Xalil Sulton Mirzoni uning tarbiyasiga topshiradi. Bibixonim birgina shu xizmatlari uchun ham qalblarda mangu yashaydi.

Amir Temur hayotining soʻnggi kunlarida ham sadoqat va vafo timsoli Saroy mulk xonim uning yonida boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ahmedov B. Amir Temur. (Tarixiy roman) Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995 y.
2. Boʻriyev O. Turon tarixining oltin davri. T., “Voris-nashriyot” 2019 y.
3. Ahmedov B. Amir Temur. (Tarixiy roman) Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995 y.
4. Jalolov T., Oʻzbek shoiralari, T., 1980 y.
5. Fayziyev T. Temuriy malikalar, T., 1994. // Temuriylar shajarasi, T., 1995 y.
6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai saʼdayn va majmai bahrayn: II jild. 2-3 qismlar: 1429-1470 yil voqyealari / Fors tilidan tarjima, soʻzboshi va izohlar muallifi A. Oʻrinboev. Geografik nomlar izohli koʻrsatkichi O. Boʻriyev. Tarixiy shaxs, voqyea va atamalarga izohlar muallifi Gʻ. Karimov va E. Mirkomilov. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2008 y.
7. Vasilyev N. Istoriya Vostoka. 1-2 tom. M., 2004 y.

IJTIMOY AXLOQ MEZONLARI HAMDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

Madraimova Sanobar Rahmonberdiyevna,
Toshkent viloyati Angren shahar
7-umumtaʼlim maktabi maʼnaviy-maʼrifiy
ishlar boʻyicha rahbar oʻrinbosari.

Annotatsiya. ushbu maqolada barcha davrlar uchun dolzarb hisoblangan bola tarbiyasi, ularning bugungi kunda ijtimoiy ododblarga rioya etishi va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar hamda yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklar tahlil doirasiga olinadi.

Kalit soʻzlar. ijtimoiy odob, maʼnaviyat mezoni, maʼrifat kuchi, ota-ona masʼuliyati, maktabgacha va maktab taʼlimi.

Yurtimizda bola tarbiyasi, yoshlar axloqiga eʼtibor har doim hukumat va jamiyat eʼtiborida boʻlib kelgan. Bu borada bugungi kunda ham eʼtirof etishga arziydigan ishlar amalga oshirildi, qonun va qarorlarda bu haqda maʼlum moddalar bilan mustahkamlab qoʻyildi. Agar olib borilayotgan

amaliy ishlarimizni davr va zamonning yuksak texnika va texnologiyalar rivojlangan maydoni va uning bolalar va yoshlar tarbiyasidagi ta'siri bilan qiyoslab ko'radigan bo'lsak, maqtana olarmikanmiz? Axborotlar xuruji, insoniylikni, inson ekanligimizni unuttirishga chorlovchi, shaxs ruhiyati va qalbini ojiz etishni maqsad qilib, shunga moslab chiqarilgan ko'rinishlar aks etgan o'yin va videolar iskanjasidan qutqarib qolishga, himoya qilishga qay darajada tayyorgarlik ko'ryapmiz? Bu haqda kim o'ylashi kerak o'zi? Faqat bir kishi o'ylasa yetadigan darajadagi ishmi bu va yoki jamiyat bir butun holda kurashib erishiladigan masalami?

Xalqimizda shunday naql bor: "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi". Tarbiyaning mukammal bo'lishi esa tarbiyachining mahorati va maslagiga bog'liq jarayon, albatta. Bu tarbiyachi – siz, men, hamma. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'kidlagan ushbu so'zlarini esga olaylik:"[1]...yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz." Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, kelajagimiz qo'lida bo'lgan insonlarning taqdiri: ta'limi va tarbiyasi, odobi-yu axloqi har birimizni o'ylashga, mushohada qilishga undashi lozim.

Hozirgi kunda "G'arb madaniyati" niqobi ostidagi axloqsizlik butun dunyoni qamrab olmoqda, "ommaviy madaniyatsizlik" esa azaliy qadriyatlar ildizini yemirmoqda. Yoshlar, bolalar buni to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olmoqdalar, hayotlariga osonlik bilan o'zlashtirmoqdalar, ya'ni ilmiy til bilan aytganda, transformatsiya qilmoqdalar. Eng achinarlisi shuki, ushbu iskanja domida buni yoshlardan-da o'tkazib "o'rinlatadigan" katta yoshlilarimizning o'zi ham uchrab turibdi. O'tgan asr allomalarimizdan biri bo'lmish Abdulla Avloniyning 100 yil oldin aytgan gaplari hech qachon eskirmagandek go'yo: "Tarbiyani kimlar qilur... boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar? Mana bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondirar."[2] Bola jamiyat izdihomiga kirar ekan, albatta, oila tarbiyasini namoyon etgan holda muloqotga kirishadi. Ona tarbiyasi, ota ta'limi qoniqarli ahvolda bo'lmagan bolalar, yoshlarni o'z holiga tashlab qo'ymaslik bizning, mahalladoshlarning, ta'lim muassasalarining zimmasidagi masaladir. Chunki bunday noqobil muhitda ulg'ayayotgan bolalar bugungi kunda kam emasligi ham ko'z yumib bo'lmas haqiqat.

Mashoyixlarimiz: "Kim nimaga erishsa, faqat odob tufayli erishadi.[3] Kim nima bilan qulasa, faqat beodoblik vajhidan qulaydi", - degan ekanlar. Darhaqiqat, odob-axloq tushunchasi bo'lmagan joyda tarbiya haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar o'zagida faqatgina bir tilak mujassam. U ham bo'lsa, ma'naviyatli, komil inson tarbiyasidir. Mavzu haqida bahs qilar ekanmiz, avvalo, "odob", umuman, "ijtimoiy odob" haqida so'z yuritish joiz. "Odob" – yaxshilikka chaqirish ma'nosini anglatga, "ijtimoiy odoblar" – jamiyatda, ko'pchilik orasida muloqot va munosabatga kirishishda amal qilinishi zarur bo'lgan odoblar majmuidir. Bunday odoblar sirasiga kiyinish odobi, suhbatlashish odobi, jamoat joyida o'zini tutish odobi, telefonda so'zlashish odobi, zamon bilan hamnafas holda ijtimoiy tarmoqlarda yozishish kabi odoblarni misol qilsak bo'ladi.

Kiyinish masalasida qizlarimizning haddan ortiq ochiq kiyinishi va buning urf maqomiga yetishishi ham kishilar o'rtasida hayoning ko'tarilishi, odobning chekinishiga olib keladi. Hatto ayollarimizning kiyinishi oldida erlar kiyinishining ancha yopiqligini ham tan olishimiz kerak.[4] To'g'ri, ta'lim muassasalarida bunga cheklovlar Xalq ta'limi vazirining 2022- yil 28-iyuldagi 246- qaroriga ko'ra tartibga solinadi.[5] Ammo jamoat joylarida ham ma'lum tartiblarni o'rnatish masalasini ko'rib chiqish lozim deb o'ylaymiz, negaki maktabda odobga rioya qilgan holda kiyingin-u, ko'chaga chiqqach, xohlaganingdek ish tut deyishimizning o'zi to'g'ri bo'larmikan?

Telefonda so'zlashish borasida avtobusda, ko'pchilik orasida baland ovozdagi, ustiga-ustak qo'pol muomalada gaplashish ham kishilar uchun yoqimsiz tuyuladi. Telefonda so'zlashish odobi, me'yorlariga rioya qilmaslik oqibatida yoshlar o'rtasida turli janjallar, hatto qotillik holatlarining yuz berayotganligi va bunga odobsizlik, ma'naviyatsizlik sabab bo'layotganligi achinarli. Ular hayotini asrab qolish odob bilan bo'lishini bosh borib devorga urilganda anglash kech emasmi?

Taraqqiyotning o'zg'ir qadamlari har jabhada mavjud. Illo, rivojlanish shu tarzda kechishi lozim. Ammo har qanday yangilikni faqat xayrli shaklda, yaxshi niyat uchun qo'llash har bir shaxsning o'zligiga, tiyatiga bog'liq. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatiladigan suhbatlarni uchratar ekanmiz, ijtimoiy odobimiz, millatimiz, xalqimiz kelajagi, nabiralarimiz, abiralarimiz turmush tarzida qo'llanilish uchun odobning qancha qirrasini yetib borishi mumkinligini o'ylab bosh qotadi kishining. Xo'sh, buni kim o'rgatishi lozim? Buni hamma o'rgatishi kerak, kerak bo'lsa, qonuniy kuchga kiritilishi

lozim bu masala. Lekin eng ta'sirlisi, qadriyatlar timsolida tarbiya orqali oila, mahalla, ta'lim dargohi, hukumatning birgalikdagi harakatidir.

Bu ro'yxatni ancha davom ettirishimiz mumkin, biroq bu muammolarga yechim izlash undan ko'ra muhimroq. Bizningcha, ilm-ma'rifat kuchi eng zo'r himoya qurolidir. Zero, ilm bilan oziqlangan qalbdan johillikka o'rin qolmas, balki, ilm olish mashaqqati bilan o'tkazilgan vaqt johiliyat uchun sarflanmas ham.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axloqiy yetuk va saodatli insonlarni tarbiyalash faqat ilm va ma'rifat kuchi, ma'naviyat amali, yoshi ulug'lar namunasi bilan kechadi. Yoshlar tarbiyasidagi bo'shliq esa nafaqat bir inson hayotining, balki millatning ham tanazzulidir. Yuksak jamiyat orzusini amalga oshirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligini hech qachon yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/5774> sayti
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: "O'qituvchi", 1992. -160- bet
3. Ismoilov A. Ijtimoiy odoblar tushunchasi. <http://fitrat.uz> sayti
4. Murat Tosun. Olim yetishtirgan onalar. Toshkent. "Factor Press", 2021. -103- bet. URL: <https://kitobxon.com/oz/kitob/olim-etishtirgan-onalar>.
5. Xalq ta'limi vazirining 2022- yil 28- iyuldagi 246- qarori 2-bob 14-bandi.

MANIPULYATSIYA – OMMAVIY MADANIYAT QUROLI SIFATIDA YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Allanazorov Muxiddin Xayitovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Maskur maqolada bugungi globallashtirish davrida "Ommaviy madaniyat" mamlakatimiz yoshlari ongiga ta'siri va jamiyatda yoshlar o'rnining susayishi muammosi yoritilgan.

Аннотация. В статье освещается влияние «массовой культуры» на сознание молодежи нашей страны и проблема ослабления роли молодежи в обществе в современную эпоху глобализации.

Dunyoning bugungi mafkuraviy manzarasiga quydagicha tarif berish mumkin: Barchaning barchaga qarshi qaratilgan urushidir. Urushning usullari ham o'zgarib bormoqda. Avvallari urush uchun qurol-aslaxa vosita bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda g'oyalar, mafkuralar vosita vazifasini bajarmoqda. Globallashuv ham yangi usuldagi jahon urushidir. Bu urushda betaraf turish yoki taslim bo'lish bilan qutulib bo'lmaydi. Yagona yo'l qarshi turishdir. Prezidentimiz ham bugungi kunga to'g'ri baho bergan holda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashmoq kerakligini ta'kidlagan edi [1]. Buning uchun insonlar ham birlashishi, o'zligini anglamog'i zarur. Aniqrog'i insonlar olamon holatidan chiqib, xalq sifatida, millat sifatida birlashishi kerak. Shunday olimlar borki, ular xalqni olomon deb biladilar va xalqqa shunday munosabatda bo'lishni targ'ib qiladilar. Fransuz olimi Gustav Lebon shulardan biri edi. "Omma bu – doimo ongli shaxsning yo'qolishi va tuyg'u hamda fikrlarning biror yo'nalishga qaratilishi demakdir. Demak, olomoni boshqarish uchun avvalo uning tuyg'ulariga va tasavvurlariga ta'sir ko'rsatish kerak. Buning uchun esa g'oyalarni obrazlarga aylantirish kerak. Ana shunda g'oyalar ongostiga kirib boradi, tuyg'ularga aylanadi. Tuyg'ular omma xulq-atvorining asosiy stimulyatoriga aylanadi". Globallashuv jarayonining tezlashuvi natijasida manipulyatsiya qilish kengroq qamrov kasb eta boshladi. Manipulyatsiya bu obyekt ustidan nazorat o'rnatish yoki insonlarga nisbatan obyekt sifatida munosabatda bo'lish deb tushunish mumkin. Soddaroq qilib aytganda inson hayotiga qandaydir yo'llar bilan kirib borish va g'oyaviy qaram qilishdir. Bugungi kunda ommaviy madaniyat asoschilari va targ'ibotchilari manipulyator vazifasini bajarmoqdalar. Gustav Lebon tabiri bilan aytganda ommaviy madaniyat insonlarning tuyg'ulari va tasavvurlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Insoniyat tuyg'ulari va tasavvurlariga ta'sir etishning eng samarali yo'li sifatida ommaviy axborot vositalari va san'atni keltirish mumkin. Zamonaviy "ommaviy madaniyat" ijtimoiy psixologiyaning ana shu metodlariga tayanadi. Televideniye, kinematografiya, gazeta, jurnallar, reklama odamlarda reaksiya, fikr va munosabatlarni tarbiyalashga qaratiladi.

Masalan, reklama aqlga emas, tuyg'ularga, ong ostiga qaratiladi. "Agar siz shu tovarni sotib olsangiz, hayotingiz butunlay o'zgarib ketadi",

deyishadi. “Ommaviy madaniyat” tovarlari avvalo oddiy va “ko’cha odami”ga mo’ljallangan. Albatta, bunday mahsulotlar intellektual jihatdan yetarlicha rivojlanmagan odamlar uchun edi, xolos. Shuning uchun ham “ommaviy madaniyat”ning “eng qiziqarli” va hammaga tushunarli mavzulari –muhabbat, oila, karyera, jinoyatchilik va xo’rlash, sarguzasht, qo’rqinch. Chunki yuqoridagilar insonlarda qiziqish uyg’otadi va odamlarni ular bilan mashg’ul bo’lishlari uchun ma’lum bilim va ko’nikma talab etilmaydi [2].

G’arbda odamlar ongi manipulyatsiya qilinayotganligi to’g’risida ko’p yozishgan. Bu ham “ommaviy madaniyat” “tongi”dan boshlangan. Bu haqda ispan faylasufi Ortega Gasett: “Ko’pchilik odamlarda fikr yo’q. Xalq hech qachon, hech qanday fikrga ega bo’lmagan. Chunki u borliqni nazariy anglay olmaydi. Bu esa uning to’g’ri qarorlar qabul qilishiga xalaqit beradi. Shunday ekan, fikrni odamlarning miyasiga tashqaridan, xuddi mashinaga moyini siqib quygandek, bosim bilan quyish kerak,” degan edi.

Ortega Gasett jamiyatga ijtimoiy fikrni bosim ostida, zo’rlab singdirish yaxshi emasligini biladi. “Biroq, – deydi u, – ma’naviy hukmronlik bo’lmasa, yo’lboshchilar bo’lmasa, odamlar manipulyatsiya qilinmasa, jamiyatda anarxiya vujudga keladi. Bu esa jamiyatni inqirozga olib keladi. Jamiyat nuraydi. Yemiriladi. Ommaviy odam, – deydi u, – o’ylay olmaydi. Uning fikrlari – mantiq qobig’iga o’ralgan instinktlardan boshqa narsa emas. Shunday ekan, ijtimoiy fikrni shakllantirish bu – siyosiy tarixning umumtortilish qonunidir”. Ispan faylasufining fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, davlatda insonlar ustidan kuchli boshqaruv o’rnatilishi kerak. Lekin bu kuchli boshqaruv asosida erkinlik va tenglik tamoyillari ustuvor bo’lishi kerak

“Ommaviy madaniyat”ni o’ziga xos tomoni shundan iboratki, u taqlidga andoza beradi. Asta-sekin odamlar ko’ngilochar ko’rsatuvlar bergan ma’lumot, bilimlarga tayanib yashay boshlaydilar. Chunki o’ylashga vaqt, so’zlashishga hamdam yo’q. Millionlab odamlar orasida tanho qolgan, atomlashgan odam o’zi bilmagan hikmatlarni bolalariga aytib bera olmaydi. Natijada yosh avlodlarga momolari, bobolari bilgan, qo’llagan, tajriba, empirik bilimlar yetib kelmay qoladi. Milliy donishmandlik ajdodlardan avlodlarga o’tmay qoladi. O’ladi. Odamlar televideniye bo’lmasa, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olmay qoladilar. Shuning uchun ham yurtimizda yoshlarimizni qadriyatlarga, urf-odatlariga, ananalarga sodiqlik ruxida tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda.

Biz yemoqchi, kiymoqchi bo'lgan narsalarimizni obdon tekshirib, keyin olamiz. Lekin ko'rayotgan, eshitayotgan (iste'mol qilayotgan) narsalarimizga, ochig'i, e'tiborsizmiz. Vaholanki, globallashuv "ommaviy madaniyat"ni yoymoqda. U odamlarning tafakkuriga, musiqasiga, didiga, kiyinishiga, o'zaro muomalasiga, oilasiga, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda.

AQShlik Bernard Rozenberg fikricha, "Ommaviy madaniyat"ning asosiy sababi – zamonaviy texnika yutuqlaridir. Na milliy xarakter, na iqtisodiy, na siyosiy tizim bu masalada hal qiluvchi ahamiyatga ega emas", deydi. XXI asrga kelib texnika taraqqiyoti har qanday milliylikni, har qanday siyosiy va iqtisodiy tizimni yorib qiraoldi. Bu qaysidir ma'noda fanning yutug'i va davr talabidir

Shuningdek, "Ommaviy madaniyat" globallashuv davrining maxsuli bo'lgan ommaviy axborot vositalarining yangi ko'rinishlari ta'sirida dunyo mamlakatlarining barchasiga "zamonaviy madaniyat" sifatida kirib bordi. U XX asr o'rtalarida ommaviy muloqot va axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruhlar uchun yetarli bo'lishi natijasida shakllangan hamda mohiyatan barcha yoshdagi aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari, qadriyatlaridir [3]. "Ommaviy madaniyat"ning keskin rivoji XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shu vaqtdan boshlab u keng qamrov va hujumkorlik bilan tarqala boshladi.

Chunki globallashuv davrida har qanday jarayon dunyoning u chetidan bu chetiga tez sur'atlar bilan ko'chib o'tishini inkor eta olmaymiz. Eng umumiy ma'noda, globallashuv muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer yuzini qamrab olganini hamda ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi [4].

Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati uning mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rinadi. "Mana shunday vaziyatda, – deb yozadi Yurtboshimiz, – odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol".

Xulosa qilib aytganda, Globallashuv jarayonining salbiy oqibati, faylasuf Bandi ta'biri bilan aytganda milliy chegaralarning yuvilishi bilan bog'liq. Milliy chegaralarning yuvilishi yagona madaniyat-ommaviy

madaniyatni o'rnatilishiga olib keladi. Natijada dunyo bir umumiylikka keladi: yagona davlat, yagona madaniyat. Tarixdan bilamizki davlatlar o'zgarishi yoki davlatlarning nomi o'zgarishi mumkin. Shuningdek jamiyatlarning ham umri mavjud. Bir jamiyatning inqirozi ikkinchi bir farovon jamiyatning o'rnatilishiga sabab bo'ladi. Lekin milliylikning yo'q bo'lishi millatning yo'q bo'lishiga olib keladi-ku, buni chuqurroq o'ylab ko'rish kerak emasmi?.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
[2]. Религия: Энциклопедия / Сост. И общ. Ред. А.А. Грцанов, Г.В. Синило. – Мн.: Книжный дом, 2007.
[3]. См: Основы религиоведения Учеб./ Ю. Ф. Борунков, И. Н. Яблоков, [М. П. Новиков], и др.; Под ред. И. Н. Яблокова. - М.: Высш. шк., 1994.
[4]. См: Ю.А. Кимелев. Философия религии: Систематический очерк. Москва: Издательский Дом "Nota Bene", 1998.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI MASALALARI

M.A. Xakimova

*TIQXMMI – Milliy tadqiqot universiteti
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan Respublikamizda, yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas'uliyatini yurakdan his qilish tuyg'ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustahkam hayotiy pozitsiyasi e'tiqodini hamda maslagini shakllantirish haqida so'z boradi. Shu bilan birga yoshlar tafakkuridagi o'zgarishlar Yangi O'zbekistonni jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishida muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yangilanayotgan O'zbekiston, Yoshlar ishlari Agentligi, O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi, milliy o'zikni anglash, qonun ustuvorligi, yoshlar tafakkuri, siyosiy faollik, jamoat tashkilotlari, milliy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash.

Yangilanayotgan O'zbekistonda jamiyat va xalq hayotining barcha sohalar qatori, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati bilan bog'liq jabhalarida tub burilishlar yasadi. Ushbu jarayonning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishi tufayli davlatning yoshlarga oid siyosati to'g'risidagi qarashlar va bunda ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi natijasida yosh avlod qiyofasidagi o'zgarishlar hamda bu o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri muammolarini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, davlatning yoshlarga oid siyosatida bozor munosabatlari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitida jamiyat ijtimoiy negizida yuz berayotgan o'zgarishlar, yoshlar ijtimoiy qatlamlari orasidagi tabaqalashuv jarayonlari natijasida vujudga kelayotgan yangi guruhlar, shuningdek, ularning rang-barangligini ta'minlovchi tamoyillarni hisobga olishga to'g'ri kelmoqda. Aynan ana shu tamoyillarga tayanib ish olib borish bu siyosat tayanadigan ijtimoiy negiz va iqtisodiy omillarning asosini tashkil etmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi, nafaqat jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, balki yana ko'plab sohalar, hatto uni boshqarishga ham ijobiy jihatdan ta'sir etib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojini ta'minlay olishi ma'lum bo'lmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy fanlar tizimida davlatning yoshlarga doir siyosati bilan ushbu masala chuqur o'rganilishi bir qator ijtimoiy, jumladan siyosiy fanlarda e'tibor bilan tahlil qilinishi lozimligi davr talabiga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda qonun ustuvorligi qaror topib, davlatning yoshlarga doir siyosati ijtimoiy-iqtisodiy asoslari mustahkamlanayotgan ekan, Yangi O'zbekiston rivojini ushbu bosqichida mazkur soha bilan bog'liq tizimda jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganligini hisobga olib, ularni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ziga xos tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalaning bu jihatini tadqiq qilgan ba'zi olimlar samarali yoshlar siyosati G'arb sivilizatsiyasining bir necha asrlik taraqqiyoti natijasi va bugun uning yutuqlari ushbu sohada aks etmoqda deb hisoblaydilar. Ammo masalani keng tahlil qilish, ayniqsa Sharq qomusiy olimlarining merosini chuqur o'rganish, bu qarashlarning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi, ularda ko'proq yevropamarkazchilik tendensiyalari ustivorligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlil Sharq xalqlariga xos yoshlar tarbiyasi tamoyillari va bu sohada uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan ma'naviy omillar va urf-odat hamda milliy an'analar Yangi O'zbekistonda

yoshlarga doir davlat siyosatini tashkil qilish va amalga oshirishning muhim asoslaridan biri bo'layotganidan dalolat beradi. Ayni shu ma'noda, "...Sharq ...ni teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o'tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo'lish, o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir" [3].

Jamiyatning iqtisodiy ta'minlanganligi bilan yoki tegishli qonunlar qabul qilinishining o'z yoq davlatning samarali yoshlar siyosatini to'lato'kis shakllantirib qo'ya olmaydi. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri yoshlar ongini, ma'naviyatini o'zgartirish va ularning yangi zamonga mos tafakkurini dunyoga keltirishdan iboratdir. Bunday nihoyatda murakkab va serqirra vazifani amalga oshirishda aynan ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati ayniqsa, beqiyosdir.

O'tmishdan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma'naviyat sohasi hamisha dolzabr masala sifatida e'tibor qaratilgan. Aslini olganda, ma'naviyat insonni o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuch- qudratga egadir. Ma'naviyat shunday qudratli kuchdirki, u millatimiz, xalqimizni buyuk va ulug'or maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroqdir. Bugun dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

Globalashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchayotganligini namoyon etmoqda. Zero, dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni keskin tus olishi har qanday xalq, millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, xushyor hamda ogoh bo'lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi globalashuv sharoitida xalq va millatning madaniyati hamda ma'naviyatiga rahna solish orqali uni izdan chiqarishga bo'lgan harakatlar tobora oydinlashmoqda.

Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ma'naviyat va ma'rifatning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari bejiz bo'lmagan. "Hujjatul Islom" Imom Abu Homid al-G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida ta'kidlaganidek: "Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir. Hayvon rivojlanmaydi,

chunki uning kamolot quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok ilohiy nurdan iborat, Chunki insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud”[4].

Ma‘naviy tarbiya – taraqqiyot taqozosi, jamiyat rivojining o‘ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtda u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya‘ni, shakllanib kelayotgan avlodning ma‘naviyatiga katta ta‘sir qiladigan, bu sohadagi ma‘naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Uzluksiz va keng qamrovli bu jarayon tufayli mamlakatimiz aholisi, endigina hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizni yot va begona g‘oyalar ta‘siridan himoyalash, ularda mustaqillik tafakkuri va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish davlatimiz siyosatining nihoyatda dolzarb jabhalaridan biriga aylantirmoqda. Ammo, bu sohada muammolar yo‘q, deb bo‘lmaydi, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar ham talaygina.

Shu ma‘noda, 2021 yil 26 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-5040 sonli Qarorida ta‘kidlanganidek mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarimoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda[1].

O‘tmishdan ma‘lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o‘zligi, tarixi, ma‘naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e‘tibor qaratishgan. Zero, ma‘naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma‘naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an‘anaviy usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga raxna solish orqali ma‘naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo‘l qo‘ymaslikni o‘z siyosatining “asosiy maqsadi” sifatida e‘tibor qaratgan. Mazkur fikrlarni bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy o‘z imperatoriga shunday “maslahat” bergan ekan: “Hoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u erda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha erda yashayotgan xalqni o‘z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma‘naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora

qilish oson kechadi"[5], - deya ta'kidlab o'tgani e'tiborga molikdir. Binobarin, madaniyat va ma'naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarni taraqqiy etishiga izn bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini istilochi ya'ni bosqinchilar doimo juda yaxshi anglagan. Aynan, mazkur omillarni doimo e'tiborda tutgan mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan "maslahat"ni oldindan rejalashtirib qo'yishadi. Zero, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma'naviyati va ma'rifatini barbod etishi oqibatida har qanday xalq, millat e'tiqodsizlik girdobiga maxkum bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviyati izdan chiqqan bunday o'lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatida xalqning mentaliteti milliy g'urur, iftihar, milliy qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kundagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustivor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: "Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz"[2].

Ushbu fikrdan ko'rinadiki, aynan yoshlar siyosatini amalga oshirishda yuksak ma'naviyatli kishilarni, ya'ni ma'nan barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos yoshlarga xos bo'lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo'lmaydi.

O'zbekistonning so'nggi yillaridagi tajribasini tahlil qilish mamlakatimizda bu masalaga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Shu sohada qabul qilingan qonun va qarorlar, farmon va hukumat hujjatlarida yoshlarga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish jarayoni avvalo, butun jamiyat miqyosida ma'naviyatni yuksaltirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarda namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-5040 sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi – Xalq so'zi 2016 yil 8 dekabr

3. G'ulomov S. Ma'naviy rivojlanish – milliy tiklanish omili // Falsafa va huquq – T.: 2008. – Maxsus son. – B9.

4. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoiy saodat. -Toshkent.: Adolat. 2005. B29

5. Mamatqobilov T., Musaeu M., Jo'raev H. Xalqimizni Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga safarbar qilishda ma'naviy – ma'rifiy ishlarning roli. – T., "Sano-standart".2017.– B. 15.

6. Tayloqova Sh.N O'quvchi – yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish (teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar va internet xabarlari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019. – B22.

YOSHLAR IJTIMOYILASHUVIDA MILLIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING AHAMIYATI

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna

*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada milliy qadriyatlar transformatsiyasining yoshlar ijtimoiylashuviga ta'siri ilmiy yondashuvlar asosida bayon qilingan. Globallashtirish davrida sodir bo'layotgan jarayonlar va ularning salbiy oqibatlari orqali bugungi zamonaviy muammolar va ularni yechimiga takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyat, umumbashariy qadriyat, yoshlar ijtimoiylashuvi, hurmat, mehr-oqibat.

Qadriyat [قدریت] – qiymat, ahamiyat, qimmatbaho buyumlar, xalq boyligi degan ma'nolarni anglatib, voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha [2.207]. Qadriyat umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'linishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar bashariyat

uchun muhim hisoblansa, milliy qadriyatlar ma'lum bir millatga hududga tegishlilikini ifodalaydi. Milliy qadriyatlar ma'lum hududda zamonlar osha insonlar tomonidan e'zozlanib, avloddan avlodga o'tib sayqallanib boradi.

Milliy qadriyatlar orqali millat iftixori, o'zaro munosabatlari, turmush-tarzi, millatning boshqa millatlardan ajratib turuvchi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar insonlarni bir g'oya ostida birlashtiradi, mehr-oqibat, insoniylik fazilatlarini rivojlantiradi. O'zaro hurmat, mehr-oqibat bor jamiyatda voyaga yetgan farzandlar ham kelajakda shu jamiyatga munosib inson bo'lishga intiladilar. Yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish orqali, ularda vatanparvarlik tuyg'ulari ham shakllanib boradi. Natijada jamiyat hamfikrlikda rivojlanadi.

O'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlari bo'lib, ular or, nomus, andisha, ibo, hayo, hurmat kabi bir qator me'yorlarda namoyon bo'ladi.

Qadimdan hozirgacha yetib kelgan milliy qadriyatlar mavjud bo'lib, ularni biz toshbitik yodgorliklarida, xalq og'zaki ijodidan, jumladan, "Alpomish", "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarda saqlanib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ma'naviy me'ros orqali o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlarini ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalqiga xos bo'lgan, mardlik, jo'mardlik, halollik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, adolatlilik kabi bir qator xislatlar borligini ifodalaydi. Ushbu yurt insonlari haqida gapirilganda o'zidanda o'zgalarni manfaatini ustun qo'ya oladigan mard insonlar, bir so'zli alp o'g'lonlar, ibo-hayosi go'zal lohar qizlar, vafodor va sadoqatli bekalar, uying farishtasi bo'lgan nur yuzli otaxonu-onaxonlar ko'z oldimizda gavdalanadi.

Tarixdan ma'lumki o'zbek xalqi ko'plab qora kunlarni, bosqinchiliklarni, qaramlikni, urush va boshqa mashaqqatli kunlarni ko'rdi. Lekin shunday vaziyatlarda ham o'z milliy qadriyatlariga va xalqiga bo'lgan sadoqatni saqlay oldi.

Bugungi kunga kelib o'zbek milliy qadriyatlarida Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Modernizatsiya jarayonlarida milliy qadriyatlar transformatsiyasi kuzatilmoqda. Muayyan qadriyatlarga kundalik hayotda ehtiyojning kamayishi sababli ayrimlari o'zgarib, ba'zilar butunlay yo'q bo'lib ketmoqda.

G'arbdan kirib kelayotgan ilmiy texnikaviy yutuqlar bilan bir qatorda ommaviy madaniyat milliy qadriyatlarga putur yetkazuvchi, milliy mentalitetimizga xos bo'lmagan va butunlay teskari bo'lgan g'arb madaniyati O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatilishi

natijasida ayrim yoshlar orasida o'zaro hurmatsizlik, kiyinish madaniyatidagi salbiy holatlar, ota-onalar va farzandlar orasidagi o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir etmoqda.

Keyingi vaqtlarda yoshlar hayotida muhim o'rinni egallab kelayotgan ijtimoiy tarmoqlar ham milliy qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlarga turli milliy mentalitetga to'g'ri kelmaydigan yot g'oyalar targ'ibotini uchratish mumkin. Yot g'oyalar orqali yoshlar ongiga milliy mentalitetga xos bo'lmagan qarashlar shakllanib borishi, bunday g'oyalar iskanjasiga tushgan yoshlar kelajakda o'z vatanini qadrlamasliklari mumkin.

Bugun avlodlar davomiyligini ta'minlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilada sog'lom muhitni yaratish, shu bilan birga, millat kelajagini saqlab qolishni davr taqozo etmoqda. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda [3.141].

Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etar ekan, bugun yoshlarni bilim olishi, kasb-hunar egallashlari, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

O'zbekiston rivojlanish yo'lida bir qator islohotlarni amalga oshirar ekan, eng ko'p e'tibor qaratilayotgan soha yoshlar masalasi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishida jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi masalalar belgilab berildi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm,

separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish kabi bir qator islohotlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi, Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi kabi bir qator Prezident Farmonlari, Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi kabi Prezident Qarorlari qabul qilindi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi kabi bir qator Vazirlar Mahkamasi Qarorlari qabul qilindi.

Ushbu islohotlar orqali yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berish, ularni bo‘sh vaqtini qoldirmaslik, O‘zbekiston yoshlarini boshqa yoshlardan kam bo‘lmasligini ta‘minlash maqsad qilib olingan. Zero yoshlarga beriladigan bunday imkoniyatlar kelajakda ularni o‘z ona vataniga muhabbat, sadoqat kabi tuyg‘ularini rivojlantiradi. Xalqaro maydonda o‘z obro-e‘tiboriga, hurmatiga ega bo‘lishlariga zamin yaratadi.

Yoshlari milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yurt o‘z milliy mentalitetini saqlab qola oladi. Va aynan milliy qadriyatlar yoshlarni bir g‘oya ostida birlashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh., *“Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”*. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti 2016-y.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida *“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”*. Toshkent.

3. Fayzieva M., Jabborov A. *Oilaviy munosabatlar psixologiyasi*. – Toshkent, 2007-y.

4. Hayitxon Ismoilova, *Oila qadriyatlari va va urf-odatlarining huquqiy-falsafiy tahlili*. *Eurasian journal of academic research*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6798324>

5. LEX.Uz

YOSHLAR TARBIYASIDA AXLOQIY MEZONLAR: ISHONCH VA UNING QADRIYAT SIFATIDA YUKSAK BAHOLANISHI

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

“Gumanitar fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarni buyuk kelajagimiz avlodlari sifatida tarbiyalashda ishonch, vijdon, sadoqat kabi axloqiy mezonlar haqida tahliliy mulohazalar yuritilgan, shuningdek, ularning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanishi yoshlar tarbiyasida alohida o‘rni mavjudligi bildirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar. *Yoshlar, kelajak avlod, vatanga sodiqlik, inson qiyofasi, ishonch, axloq, jamiyat, ta’lim, tarbiya, maqsad.*

“Aqlli deb shunday insonga aytamizki, unda o‘tkir zehn - idrok bo‘lishi bilan birga fazilati ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yurutuvchi deb atash mumkin.

Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste‘molga ega: yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deyдилar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn – idrokka ega bo‘lganlarni aqlli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim”. [4]

Yoshlarni buyuk kelajagimiz avlodlari sifatida tarbiyalashda avvalombor Sharq faylasufi Abu Nasr Forobiyning yuqorida insonga bergan ta‘rifini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davr globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab yetish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o‘ta og‘ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil yechimlarga ega bo‘lmagan ishdir. Ayni vaqtda bu muammolarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog‘liqdir. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe‘l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda yoshlarga e'tibor qaratilishining asl maqsadi, ular o'zining zamonasini asl kishisi, jamiyat tayanchi, yurtini, elini, Vatanini asrab – avaylaydigan, haqiqiy inson qiyofasini o'zida mujassam etgan shaxsni tarbiyalashdir. Bularning barchasi yuksak qadrlanadigan asosiy tuyg'u – ishonch tuyg'usida aks etadi. Zero, bu, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonunida ham batafsil belgilab berilgan. Jumladan, 5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan borat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;
- yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart - sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish va b.[3]

Bugun yosh avlod kelajakka ildam qadamlar bilan intilmoqda. Ular yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish borasida doimiy ravishda harakat qilib, o'zlarini namoyon etmoqdalar. Ta'lim munosabatlarining barqarorligi yosh avlodni bilim olish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Bugun bilim olish bosqichlari ikki davr istiqbolini yani, oliy o'quv yurtiga kirishdan oldingi va keyingi bosqichni o'z ichiga oladi va u kontseptual tizim asosida amalga oshiriladi. Bu davr istiqbollari tavsiflashning turli jarayonlarni nazarda tutadi: birinchisi ishonch jarayoni, ikkinchisi esa kelishuv jarayoni tasvirlangan.

Iшонch jarayonini farqlash ishonch obykti to'g'risida ma'lum darajadagi bilim uyg'unligiga asoslanadi. Bu kontseptual tizim ta'lim muassasalariga kirishdan oldin shakllangan ishonch turlari keyinchalik esa ta'lim munosabatlarini qanchalik barqaror bo'lishini aniqlaydi. Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z

hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy izlanish kerak" - degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun mezon bo'lishi lozim. [1]

XXI asrda turli hayot tarzlari va g'oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor hududlarni egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan. Shu sababli bugun yoshlar ongida bir - biriga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllantirish o'rta avlod va keksa avlod vakillarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat'iyatli va omilkor bo'lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ma'ruzalarida "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il - qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat - hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota - onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq" - deb ta'kidlagan edilar. [2]

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, bir-biriga bo'lgan ishonch tuyg'usi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar.

Isonchni axloqiy mezon sifatida tahlil qilar ekanmiz, shu o'rinda u bilan yonma-yon, doimiy ravishda unga murojaat qiluvchi axloqiy mezonlardan

vijdon haqida ham ma'lumotlarni berish lozim. Vijdon — axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash. U shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdon dastlabki axloqiy mayl bo'lib, tashqi ta'sir tufayli rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. U ehtiros, hissiyot shaklida shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun uyalish, pushaymon bo'lish yoki axloqiy qoniqish sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, yaxshilik, burch, baxt, halollik kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog'liq. Jamiyatning rivojlanishi, ma'naviy, axloqiy yuksalishi bilan vijdon tushunchasining mazmuni va mohiyati boyib boradi. Uning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Vijdon erkinligi tushunchasi vijdon tushunchasining muayyan qismini tashkil etadi.

Ishonchning asosiy va yana bir muhim belgisi - bu har qanday munosabatlarda kishilarning bir – biriga bo'lgan sadoqatidir. Bu esa, o'zaro munosabatlarda, kelishuvchanlik, muhim aloqadadorlik va muhim ma'lumotlarni almashish istagi, shuningdek, subyektlar o'rtasidagi muayyan maxsus amalga oshirilgan axloqiy harakatlardir. Ishonch belgilangan qoidalarga rioya qilish darajasiga, shuningdek, ba'zi qoidalar ko'zda tutilmagan hollarda ham subyektlar uchun belgilangan maqsadga erishish, to'g'ri harakat qilish qobiliyatiga, inson irodasiga bog'liqdir.

Oilaviy tarbiya va ishonchga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan edi. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel axloqiy tarbiya haqida fikr yuritib, tarbiya nazariyasi zamirida axloqiy va ruhiy qarashlar yotadi: tarbiyadan maqsad — ruhning oliy jihatlari bo'lmish aql – zakovat va irodani kamol toptirishdir. Tarbiyaning o'zaro chambarchas bog'liq uch jihati — jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya — ruhning uch turiga muvofiq keladi, ya'ni kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari — tabiiy qobiliyat, ko'nikma va aql – idrokdan iborat hamda tarbiya ishi ayni shu kuchlarga asoslanishi zarur. [5]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ishonch va ochiqlik - bu yaqinlarimiz orasida iliq munosabatlarni o'rnatish uchun eng muhim vosita va omildir, ammo hamma vaqt va hammaga beparvolik bilan ishonish ham mumkin emas. Chunki, insonlar har xil, bizning tanlagan muhitda turli toifadagi insonlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda ishonish qobiliyatidan tashqari, insonlarni o'rganish, ularni ruhiy olamlarini bilish, ular nimani istayotganliklarini anglab yetish va tushunish qobiliyati ham muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. "O'zbekiston", 2022. 8 - bet.
2. Sh.M. Mirziyoyev. *Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi*. 07.12.2016.
3. *O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" qonuni*, 14.09.2016, O'RQ-406-son. Lex.uz.
4. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti., 1993, 182 – bet.
5. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. Ziyouz.com. kutubxonasi. A harfi, 621 – bet.

YOSHLAR ONGIDA ANTIKORRUPSION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Habibullaev Ma'rufjon Odiljon o'g'li
*Namangan davlat universiteti, Iqtidorli
talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korrupsiya tushunchasi, kelib chiqish omillari va korrupsiyaga qarshi kurashda yangi O'zbekiston yoshlarining o'rni va pozitsiyasi, shuningdek, bugungi kunga kelib korrupsini oldini olish bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Korrupsiya, yangi O'zbekiston, fuqarolik pozitsiyasi, jamoatchilik nazorati, antikorrupsion tafakkur, ma'naviy immunitet.*

Jadid ma'rifatparvarlarimizdan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat – yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'ldan tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mutlaqo mumkin emas degan fikrlarni ilgari surgan edi.

Haqiqatan ham yoshlar ertangi kunning hal qiluvchi eng asosiy kuchi hisoblanadi. Bushungi kunga kelib yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning taqdiri, samarasi, birinchi navbatda, yoshlarning ta'lim – tarbiyasi, saviyasi, shuningdek, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'li javob bera olishiga bog'liq.

Har qanday davlat, jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan sog'lom muhitni shakllantirishga urinar ekan – bunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartirishi, ularning ongu-shuurida, vatanparvarlik, insoniylik, mehr – oqibat, halollik, ijtimoiy dahldorlik kabi ko'plab bunyodkor g'oyalarni rivojlantirish eng asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonlarda jamiyatdagi eng asosiy kuch hisoblanmish yoshlar dunyoqarashida antikorrupsion taakkurni shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. Zotan, mamlakatimizda korrupsiya balosining har qanday ko'rinishiga qarshi olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini hamda milliy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kun yoshlari korrupsiyaga nisbatan qanday munosabatda? Qanday bilim va tasavvurlarga ega? Ular bu ijtimoiy illatga qarshi kurashishda o'z ishtirokini qanday baholaydi? Aslida muammoning ildizi qaerda? Kabi savollarga aniq javobini topish bu borada amalga oshirib kelinayotgan ishlarimizning mazmunan boyitilishga xizmat qilishi tabiiy xol, albatta.

Korrupsiya bu – davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti kushandasidir. Shuning uchun ham ayni damga kelib nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali va ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotni o'zi taqazo qilmoqda.

Korrupsiya – vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyot izdan chiqadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, hokimiyatga ishonch yo'qoladi, jamiyat ma'naviyati buziladi. Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi – yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi[1].

Shunday ekan, jamiyat rivojida yoshlarning antikorrupsion tafakkurini shakllantirish va bu jarayonlarda uning huquqiy asoslari bilan bir qatorda,

ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning ham ta'sirini sezilarli darajada oshirilishi kerakligini sharoitning o'zi taqazo qilmoqda. Chunki, yangi davr shiddati jamiyatda antikorrupsion tafakkurni shakllantirish tizimiga ham o'zining aniq va qat'iy talablarini qo'yimoqda.

Afsuski, hozirgi vaqtda kelib bizning jamiyatimizda ham korrupsiya illatining turli ko'rinishlari mavjud. Ijtimoiy kasallik deya baholanadigan korrupsiya balosi millatning ma'naviy hayoti va mamlakat taraqqiyotiga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, jamiyat hayotida xaqiqiy ma'naviy muhitni yaratib bo'lmaydi va tan olib aytishimiz kerakki, bunga juda qattiq murosasizlik bilan kurashmay turib jamiyatning ham birorta tarmog'ini rivojlantira olmaymiz. Biz yuqoridagi salbiy illatlarga faqatgina ma'naviy – axloqiy jihatdan yetuk, o'zining faol fuqarolik pozitsiyasiga va shaxsiy dahldorlik hissiga ega bo'lgan yoshlar bilangina qarshi kurasha olishimiz mumkin.

Mamlakat kelajagi bog'liq bo'lgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi ta'lim va tarbiyasi ommaviy ong, huquqiy va siyosiy madaniyat bilan bog'liq bo'lgan sabablarni bartaraf etish orqali ushbu muammoni hal etishga xizmat qiladi.

Korrupsiya yosh avlodda jamiyatdagi ijtimoiy adolatga, haqiqatga, davlat organlari va mansabdor shaxslarga, eng achinarlisi insonlarning o'zaro bir – birlariga bo'lgan ishonchini ham susaytiradi. Bu esa, millatning milliy birdamlik tuyg'ulariga juda katta zarar keltiradi. Shunday ekan, ertangi kunimizning davomchisi yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi mutlaqo murosasizlik va toqatsizlik kayfiyatini shakllantirish masalalari bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu muammoni tahlil qilib, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bunday xatti-harakatlar nafaqat huquqiy normalardan, balki axloq normalaridan ham chetga chiqadi. Xulq-atvorning ushbu kichik turining jadal rivojlanishi ijtimoiy anomaliyaga, yoshlarning noto'g'ri ijtimoiylashuviga, qonun va huquq tizimiga dastlabki ishonchsizlikka, ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining pasayishiga, noqonuniy xatti-harakatlar stereotiplarining ildiz otishiga olib keladi. Yoshlarga oid siyosat doirasida yoshlar o'rtasida xulq-atvor darajasidagi korrupsiya hodisasiga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Davlat jamiyatning korrupsiyaga qarshi ta'limi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishning hal qiluvchi omili ekanligini aniq tushunadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev yoshlar masalasiga to'xtalar ekan, shunday deydi, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va

xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Bunday yondashuv – davr talabidir”[2] – degan fikrlari barchamiz uchun dasturilamal vazifasini bajarib bermog‘i lozim.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlari o‘zbek jamiyatining rivojlanishiga, hususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga ham har jihatdan xalaqit bermoqda. Eng achinarli tomoni jamiyatda poraxo‘rlik illatini yengib bo‘lmaydi, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani eng katta kamchiligimiz. Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimizni tizimli ravishda olib borib, yoshlarning ongu – shuurida antikorrupsion tafakkurni shakllantirish ishlarini davomli olib bormasak, oldinga qarab sezilarli siljish qilmasak, o‘zbek jamiyatining ichki va tashqi qiyofasiga soya solib turaveradi.

Darhaqiqat, bugungi yangi O‘zbekistonda korrupsiyadan holi jamiyat yaratish eng dolzarb masalalardan biri sifatida baholanar ekan, bunda yoshlarning ma’naviy – ma’rifiy bilimlari muhim ahamiyat kasb etishini zinhor unutmasligimiz joizdir. Batahqiq, yoshlar masalasi, ularning ta’lim – tarbiyasi millat ma’naviyati va uning ma’rifati davlatning, jamiyatning mavjudligini, kelajagini, taraqqiy darajasini ko‘rsatib beruvchi eng asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarning mafkuraviy va huquqiy immuniteti qanchalik rivojlantirilib borilsa, kuchli ma’naviy – ma’rifiy muhit va sog‘lom avlod shakllanadi. Biz bugun mana shunday yosh avlodni tarbiyalash uchun bor kuch – g‘ayratimizni sarflamog‘imiz va bu yo‘lda bir daqiqaga bo‘lsa ham sustkashlikka yo‘l qo‘ymasligimiz shart bo‘ladi. Eng asosiysi, bu yo‘lda barchamiz inson ongini zaharlovchi korrupsiya illatlaridan ogoh bo‘lishimiz, har qanday salbiy holatlarning oldini olishda yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘lga chorlashda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishimiz kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda, “dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Bunday yondashuv – davr talabidir”[3].

Yangi O‘zbekiston yoshlari korrupsiya va uning ta’sirlarini tushunish, korrupsiyaga qarshi kurashuvning ahamiyatini anglash va qat’iy nazar bilan korrupsiya bilan kurashish uchun harakat qilish kerak. Bu, Yangi O‘zbekiston yoshlarining davlatimizning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida o‘rta va uzoq muddatli maqsadli ishlarni amalga oshirishda ularga yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bugun biz yoshlarni korrupsiyaga qarshi tarbiyalashning asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish kerak: talabalarni korrupsiya fenomeni (tushunchasi, xususiyatlari, turlari, tasnifi, sabablari, oqibatlari, tarqalish mexanizmlari va boshqalar) bilan tanishtirish; korrupsiya ko‘rinishlariga toqatsizlikni shakllantirish; korrupsiyaga qarshi kurashish imkoniyatlari va mexanizmlari bilan tanishish; korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar va munosabatlarni tarbiyalash. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning alohida turini, jumladan, maxsus o‘quv kursini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *The Anti-Corruption Plain Language Guide.*
2. Mirziyoev Sh.M. *Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.* - T.: O‘zbekiston, 2020. –B.39.
3. *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.* -T.: “O‘zbekiston.2017. –B.27.

ВОСПИТАНИЕ ПРОСВЕЩЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Назарова Нилуфар Авазовна
Яккасаройский район, школа № 26,
учитель русского языка

Аннотация: В этой статье рассказывается о проблемах и решениях просвещенного воспитания личности в новом Узбекистане. индивидуальное развитие рассматривается и анализируется как формирование человечества.

Ключевые слова: возможность, удача, будущее, поколение, потребность, культура, образование, учитель, ученик.

Как известно, проблема личности и ее идентичности, индивидуальности до сих пор приобретает значение спорного и интересного предмета в таких науках, как общая психология, дифференциальная психология, психология личности. На наш взгляд, индивидуальность предполагает специфический подход к изучению личности, содержательно выражая такие вопросы, как поведенческие качества личности, качества характера и их динамика, высшая нервная система и особенности ее проявления.

Понятие индивидуальности происходит от латинского слова "individuum", что означает "неделимый". Индивидуальность - это специфическое психическое проявление каждого человека, которое на протяжении всей своей жизни и деятельности участвует в личности как субъект и служит для развития социально-исторической культуры. Он определяется процессами целостности и единства в росте уникальных способностей и потребностей человеческой психики. Только в процессе деятельности она формируется за счет вступления в отношения с живыми объектами. Именно индивидуальность остается необратимым представителем культуры.

Индивидуальность - это совокупность психических, физиологических и социальных особенностей конкретного человека, его уникальности, неповторимости. Индивидуальность - это самое узкое по содержанию понятие среди рассматриваемых понятий. Он концентрирует в себе черты личности и личности, отличающие человека от других людей. Индивидуальность проявляется в разнообразном опыте, знаниях, различиях во мнениях, различиях в характере и темпераменте, в тех особенностях, которые мы сами доказываем, подтверждаем. Мотивы, темперамент, характер, способности-основные показатели индивидуальности.[1]

Наше общество - это такой коллектив, в котором каждому гражданину отведено определенное место. В наше время, которое модернизируется с нынешней интенсивностью, необходимо пройти несколько ступеней, чтобы достичь уровня совершенной личности. Если сначала остановиться на самом понятии личности, то личность - это отдельный индивид, по сути, целостный социально-нравственный мир. Он воплощает в себе сущность человека, его ценность как существа. Личность трактуется в социально-гуманитарных науках по-

разному с точки зрения ее направленности, объекта исследования и цели.

Известно, что в течение жизни человек меняется физически и духовно. Но в детство и в подростковом возрасте развитие становится невероятно интенсивным. Ребенок в эти годы созревает как личность благодаря своему росту, изменениям, как физическим, так и умственным. Вот степень созревания человека как личности в эти 3 периода протекает по-разному. Первые 2 периода: в детстве и подростковом возрасте изменения происходят с более физической стороны. Постепенно проявляя интерес к окружающей среде, вступая в продолжительное общение с окружающими людьми, свободно высказывая или спрашивая свое мнение о чем-то или событии, которое ему интересно, ребенок сначала взаимодействует со своей матерью, с другими членами семьи, со своими сверстниками в детском саду, со своими одноклассниками в школе, в то время как с более мелкими слоями общества начинает процесс.[2]

Удобства - это не просто счета за коммунальные услуги, которые всегда стучатся в дверь. Некоторые знают это, а некоторые не знают об этом и упускают удачу и возможность, которые приходят к ним. Это продлевает конец прочного фундамента, на котором он должен быть построен для своей жизни, своего будущего. Фактически, мы видим, что у некоторых людей нет основы для этого будущего. Среди нас много молодых людей, которые не видят возможностей, созданных для себя, которые не используют их, которые на самом деле не знают, что возможность для них.

Возможности должны быть использованы с максимальной эффективностью. Нужно искать возможности. Если нет возможности, человек должен создать ее для себя. Человеку, который не воспользовался настоящим моментом, новые возможности завтрашнего дня могут показаться ему более легкими, но завтрашний день по-прежнему остается завтрашним днем. Он не ждет нас завтра, как он не ждет нас сегодня, он подчиняется течению времени сегодня и завтра. Это означает, что мы должны использовать его в достаточное, но недостаточное время.

Отрадно видеть новые реформы, которые сейчас проводятся в нашей стране. В каждой области создаются и широко продвигаются различные структуры, здания или новые возможности. В области культуры ведется масштабная работа. Повышается внимание к деятелям искусства и культуры. Есть большая надежда, что развитие образования, повышенное внимание к образованию внесут большой

вклад в процветание “Нового Узбекистана”. Инициативы нашего главы, президента Шавката Миромоновича Мирзиёева, лозунг “Вместе строим новый Узбекистан” придали особую силу представителям всех отраслей по всей стране.[3]

Девиз главы нашего государства “Вместе строим новый Узбекистан” может с легкостью доказать, что для всех отраслей созданы и существуют огромные возможности. Например, на общественное обсуждение был представлен и проект “дорожной карты” по проведению экономических исследований и реформ, стратегии развития и развития.

Проект Стратегии развития состоит из семи приоритетных направлений и разработан исходя из задач, обозначенных в докладе Президента Шавката Мирзиёева на совместном заседании палат Олий Мажлиса, посвященном открытию вновь избранного президента.

В инфографике Центра экономических исследований и реформ обозначено третье направление стратегии “Новый Узбекистан” – развитие национальной экономики и обеспечение ее роста.

В частности, ожидается, что в ближайшие пять лет ВВП на душу населения увеличится в 1,6 раза, а к 2030 году доход на душу населения достигнет 4 тысяч долларов, в результате чего в Узбекистане будет ряд средних доходов. страны с высоким уровнем.

Само собой разумеется, что особое внимание уделяется развитию экономики, интересам человека и увеличению личных доходов. Отсюда следует, что создаются и создаются широкие возможности, от наших фермеров до наших плотников.

Под вышеупомянутым девизом “Вместе строим новый Узбекистан ” основу всех развивающихся направлений, безусловно, составляет качество и процесс образования. Ни для кого не секрет, что в нашей стране уделяется большое внимание качеству образования в любой сфере и создаются поздние возможности. Регулярно проводятся читательские конкурсы, международные конкурсы. Неспособность эффективно использовать возможности, предоставляемые нашим президентом в сфере образования, в некотором смысле является “радостью насыщения”. Действительно, глава нашего государства создает рабочие места для студентов, не окончивших университет, и привлекает их к работе.[4]

Однако в подростковом возрасте его основное время проходит в кругу одноклассников в школе. Обычно, когда все равные дети получают одинаковое воспитание или передают информацию, у них разное восприятие. Потому что уровень развития у каждого человека

разный. Здесь семья тоже стоит на главном звене. Потому что, когда каждое воспитание, полученное в детстве, считается начальными этапами его развития, все воспитание, полученное в подростковом возрасте, начинает проявляться. Именно в этот период, когда ребенку дается правильное направление, не пренебрегая его воспитанием, определяя его интересы и давая начальные навыки воспитания, по мере взросления ребенка это становится основой для развития и взросления как личности. В подростковом возрасте бола воспитывалась под влиянием внешних факторов, а именно окружающей среды, окружающих ее людей. В этот период, по мере того как психологическая сторона успевает сформироваться, в ней формируются или успевают сформироваться особенности умения самостоятельно решать свои проблемы, принимать нужные для себя решения, глубоко осознавать свою мысль и донести ее до окружающих. С учетом этих аспектов влияние слов на детей в этот период будет более эффективным.

Воспитание - это внешние факторы, влияющие на созревание человека, такие как окружающая среда. Особенность воспитания состоит в том, что оно преследует конкретную цель и систематически осуществляется под руководством воспитателя на пути закрепления в человеке положительных качеств. Чтобы человек повзрослел как личность, воспитание в нем в первую очередь должно быть прочным, а также правильно направленным. Если ответственным за это в первую очередь в семье является родитель, то самым главным воспитателем является зрелый квалифицированный педагог. Родитель воспитывает ребенка как образец для подражания в отношении общей дисциплины. На этом этапе ребенок должен быть в состоянии подавать пример, а не влиять на него речью, или мотивировать ребенка так, как он должен, обращая внимание на все, что он делает правильно. Только тогда у ребенка начнут развиваться начальные формы воспитания.[1]

Любая педагогически правильно организованная деятельность влияет на психическое, нравственное, эстетическое физическое и волевое развитие личности ребенка. Когда ребенок поступает в школу, он занят учебным трудом. Это важный фактор формирования в ней трудового воспитания. Наряду с тем, как дети осваивают азы науки в школе, у них постепенно развивается мировоззрение. Из вышеизложенного видно, что воспитание, полученное в школьный период, является этапом, на котором ребенок остается на всю жизнь, а также важным фактором, повышающим уровень его готовности к

жизни. Воспитание, получаемое в коллективе, также играет свою роль в процессе воспитания.

Человек в течение жизни проходит сложный процесс развития, в результате которого становится личностью. По этой причине мы должны понимать человека как продукт определенного социального строя. Процесс социализации представляет собой сложный процесс, в ходе которого проявляется воспитание и знания, полученные человеком. Степень зрелости дает четкое представление. Овладение желаемыми для себя качествами, осуществляя общение со многими людьми в обществе, а также умение понимать поведение, которое является излишним, свидетельствует о зрелости личности.[3]

Таким образом, при осознании сознания ребенка необходимо воспитывать, напоминать ему о будущем становлении зрелой личности, а также давать представление о том, что он имеет место в сообществе, а также в обществе. Они проявляются поэтапно на практике.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Pedagogika Rahima Mavlonova, Oysha To‘rayeva, Karim Xoliqberdiyev. Toshkent “O‘qituvchi” 2002*
2. *Pedagogika nazariyasi va tarixi. R. Mavlonova, N. Vohidga, N Rahmonqulova. Toshkent-“Fan va texnologiya” – 2010*
3. *Yuz.uz*
4. *Review.uz*

YOSHLAR QADRIYATLAR DUNYOSINI SHAKLLANTIRISHDA IDEALNING AHAMIYATI

Yusupova Feruza Zoyirovna

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrası, katta o‘qituvchi*

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada yoshlar qadriyatlar dunyosini shakllantirishda idealning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ideal intellektual qadriyat sifatida inson kamolotining timsoli, eng yuqori cho‘qqisi bo‘lib, u insonda mukammallik, har jihatdan komillik, haqiqiy insoniylik kabi*

qadriyatlarining qaror topishida muhim ahamiyat kasb etishi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: *yoshlar, axloqiy tafakkur, qadriyat, ideal, dinamik, axloqiylik, axloqiy kodeks, milliy-etnik, g‘oya, komil inson.*

Yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda ma’naviy-diniy qadriyatlar, allomalarning ilmiy merosi hamda xalq tafakkuri ijtimoiy ahamiyatga ega. Axloqiy idealning tub mohiyati ham insonpavarlik g‘oyalari sifatida deyarli barcha xalqlarning diniy va falsafiy, ijtimoiy-axloqiy tasavvur, tushuncha va qonun-qoidalari bilan uyg‘un holda o‘z ifodasini topgan.

Insonning yashashdan maqsadini belgilovchi yaxlitlik bu – qadriyatli olamidir. Inson o‘z etnik makonida dastlabki qadriyatlarni angelaydi, ahamiyatli, qadrlil narsalarni o‘zlashtiradi. Bu borada S.L.Rubinshteyn “.....qadriyat - bu dunyodagi biror narsaning inson uchun ahamiyatliligidir. Bu ahamiyatlilarga, ya’ni qadriyatlarga u ideal g‘oyasini kiritgan”[1,383], deydi. Qadriyat va ideallar olami insonga yashashdan maqsad, ma’no beradi. Haqiqat, adolat, go‘zallik tushunchalarini o‘zlashtirishga drayver vositasini o‘taydi. Qadriyatlar afzalligiga, ko‘lamiga, xususiyatiga ko‘ra turlarga bo‘linib ketadi. Lekin inson uchun barchasi o‘z ahamiyatiga ega. Idealchi? Ideal qanday ahamiyatga ega. Ideal insonga maqsadni qo‘yib intilishga, haqiqat, adolat va go‘zallikni hamma uchun umumiy bo‘lgan jihati haqida tasavvurni shakllantirishda katta ko‘mak beradi. Masalan, axloqiy tafakkur tarixida ko‘plab o‘gitlar, pand-nasihatlilar va didaktikaga boy ma’naviy meros mavjud. Ularni aksariyatida sof insoniy axloq, diniy talablarni bajarishga majburlovchi, jamiyatdagi tartibotni saqlovchi g‘oya, axloqiy nazariyalar va yuksak ma’naviy ideallar tarannum qilinadi. Axloqni mukammal holati – bu komil inson bo‘lishga birinchi qadam sifatida ko‘rsatiladi. Buni dinamikasi diniy qadriyatlar bilan mustahkamlanadi. Demak, axloqiy tafakkurda ideal va qadriyatlar yonma-yon keladi va bir-birini taqozo qiladi.

Insonning ongli va intellektual intilishi, joiz bo‘lsa e’tiqodini shakli bu idealdir. Ideal intellektual qadriyat sifatida inson kamolotining timsoli, eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. U insonga mukammallik, har jihatdan komillik, haqiqiy insoniylik kabi qadriyatlarni shakllanishiga katta yordam bergan. Ideal obyektiv tarzda jamiyatning madaniy rivojlanish belgisini va hukmron qadriyatlarini tizimlashtirishni belgilasa, sub’ektiv tarzda ijtimoiy idealni anglashga yordam beradi.

Ideal qadriyat sifatida insoniyatning yuksak maqsadlarga, konstruktiv mohiyati tufayli hayotni mohiyati va yashashdan maqsadni belgilashda, kelajakka ishonch sifatida yuksak insoniylik tamoyillariga egadir.

Idealni turkumlashda qadriyatlarni barcha shakllariga qarab emas, inson, shaxsning millati, ma'naviyati, intilishi, maqsadi, ruhiyati asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'lardi. "Ideal muammosi qadimdan to hozirgacha inson ma'naviy borlig'ining mukammallik (*barkamollik namunasi, yagona nazariya*), farovon hayot (*baxt, orzu va go'zallik*), yashashning umuminsoniy andazasi va yagona intilish obykti (*abadiy qadriyatlar, transsendent, yagona, mutloq borliq*) bo'yicha izlanishlarining markazida bo'lib kelgan"[2,30]. Ideal qadriyat sifatida insoniyatning yuksak maqsadlarga, konstruktiv mohiyati tufayli hayotni mohiyati va yashashdan maqsadni belgilashda, kelajakka ishonch sifatida yuksak insoniylik tamoyillariga egadir.

Ideallar qadriyatlarga nisbatan bir qator funksiyalarni bajaradi. Ideal qadriyatlarga nisbatan bashorat qiluvchi, mezonni belgilovchi, baholovchi, tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Insonning yaratuvchanligi, ijodkorligi turli muammolarga yechim izlaydi, qarama-qarshiliklarni barham toptirish uchun ham uyg'un, to'ldiruvchi ideal topishga majbur. Insoniyat yutuqlaridan biri bu qadriyatlarni ierarxiyasini yaratish, ahamiyat va ahamiyatsizga bo'lish, mutlaq va nisbiyligi o'zgarib turishi idealni bahoviy salmog'ini oshiradi. Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarni birin-ketin ularni ongida joy egallashi uchun estetik idealni shakllantirmoq zarur. Yoshlar go'zallik, ezgulik va haqiqat haqidagi qadriyatlarni o'z ideallari bilan solishtirishadi, o'zlari uchun dunyoni kashf qilishadi. Bu kashfiyotlar qaysi qadriyatlar asosida, qancha vaqt olib borilishi, tasavvurlarni shakllanishi, yoshlarda estetik didni rivojlantirish darajalarini albatta ideal belgilab beradi.

Demak, axloqiy tafakkur taraqqiyotida ideal va qadriyatlar insonning ma'naviy mukammallikka intilishini ifodalab, uni olamni o'zlashtirishda, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda, o'tmish va kelajak haqida orzu, o'y-xayollarini tartibotini amalga oshirib kelgan. Qadriyatlar dunyosini shakllantirishi va rivojlantirishida idealning ahamiyati juda katta bo'lib, unda inson hayoti davomida qadriyatlarni o'zlashtirish dinamik yo'lidan o'tib, komillik intilish salohiyatini rivojlantirib boradi, makon va zamondan qat'iy nazar ideal murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida shaxs ongi va ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Ideal individual qiyofa, namuna, obraz tarzida har bir inson qalbi va ongida shakllanadi. Uning tarbiyaviy mohiyati

shundan iboratki, ideal har bir shaxsga tabiat, jamiyat va insonga nisbatan shaxsiy munosabatlarni oldindan belgilashga va shunga yarasha ijodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishda o'z tafakkur va faoliyat yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рубинштейн С.Л. *Бытие и сознание. Человек и мир* / С.Л.Рубинштейн. – СПб.: Питер, 2003. –508 с.
2. Samadov A.R. *Estetik ideal: shakllanish va rivojlanish muammolari. Monografiya.* – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2021, - 312 bet.

SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Usmonaliyeva Risolat Umaraliyevna

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxs shakllanishida unga ta'sir etuvchi omillar, shaxsning rivojlanishida unga ta'sir etuvchi ijtimoiy ta'sirlarning sabablari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, shaxs, jamiyat, pedagogika, ta'lim, oila.

O'sib va rivojlanib boruvchi **inson** - tarbiya obhakti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. U turli o'zgarishlarni, jismoniy, psixik, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga uning bo'yini o'sishi, vaznini og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarini, ichki organlari va asab tizimini o'zgarib borishi kiradi.

Psixik o'zgarishlar esa, uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda shaxsning psixik sifatlarini shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarini tarkib topishi hisoblanadi.

Inson bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga

muvofig ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Odamning munosabatlari doirasiga kishilar bilan aloqasigina emas, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shu xil ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati va qiziqishini, o'z bilimi va uquvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, Vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar faqat tarbiyaning mashulidir.

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat ahzosi.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmog'i kerak.

O'zini rivojlantirish shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishidir.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- biologik omil,
- ijtimoiy omil,
- pedagogik omil,
- mustaqil faoliyat.

Ta'limda "Shaxs" tushunchasi "Inson" tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Insonning psixik xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatani, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilishi, imonli bo'lishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarni ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? Pedagogika bola tarbiyasiga, uning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi, deydi. Bu muammo

pedagogikada azaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi. Ko'p asrlik ana shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtai nazar vujudga keldi. Ulardan bir toifasi odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy biologik omillar hal qiluvchi o'rinda deb biladilar.

Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlargina rivojlanadi. Bu nuqtai nazar tarafdorlari tarbiyaning o'rnini cheklab qo'yadilar, fanda biologik yo'nalish deb nomlanadi. Ularning vakillari Aristotel, Platonlarning fikrlaricha taqdir, tole har kimning hayotidagi o'rnini, mavqeini avvaldan belgilab bergan.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalarining fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Preformistlar ham naslning shaxs rivojlanishidagi o'rniga favqulodda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning o'rnini mutlaqo inkor etadilar. Bu nazariyaning yana bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan bixeviorizm oqimi bo'ldi. Bixeviorizm oqimiga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan ojiz deb biladi.

Xuddi shunday nuqtai nazarni yana bir amerikalik progmatik pedagog D.Dyui va A.Komboslar yoqlab chiqadilar. Ular tarbiyaning shaxsga bo'ladigan faol ta'sirini inkor etib, rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Odam qanday sifatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bilim olish, ko'nikma va malaka hosil etishi natijasida shu sifat va xususiyatlar rivojlanib boradi degan fikrni ilgari suradilar.

Ammo psixologiya va pedagogika fanlarining keyingi yillardagi inson tarbiyasiga, kamolotiga oid ilmiy mahlumotlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishiga, kamolotga yetuvchiga murakkab jarayon deb hisoblashga imkon beradi.

Uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit ham, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya alohida o'rinda. Bu ilmiy ma'lumotlar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb qarashga imkon yaratadi. Shunga ko'ra, unda tabiiy kuch va imkoniyatlar bor, ular shaxsning rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadilar.

Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, rivojlanishi uchun tarbiya kerak deb tahkidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi ekan.

Haqli savol tug'iladi – tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi? Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir.

Shunga ko'ra pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi alohida o'rin tutadi, maqsadga muvofiqlashtirilgan holda amalga joriy etiladi.

O'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi jarayonida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatib o'tilgan barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishlari qonuniyatlari va tamoyillariga asoslangan holda yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Quronov M. Milliy tarbiya. - T., "Ma'naviyat", 2007, 238-6.*
2. *Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...T.: "Ma'naviyat", 2014.*
3. *Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010. -141 b.*
4. *Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Falsafa fan. nom. diss. – T.: 2006.*
5. *Muxsieva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005.*
6. *Norliev R.I. Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning o'zaro aloqadorligi va ta'sir xususiyatlari. Falsafa fan. nom. diss. – T.: 2011.*

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI – IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA (BOLALAR VA YOSHLAR MISOLIDA)

Abduxamidov Islombek Abduxalim o'g'li

Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Globalashuv davrida tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bilan bir qatorda migratsiyaning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri ham o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. Tadqiqotda tashqi mehnat migratsiya jarayonlari ijtimoiy jihatdan tahlil qilinib, migratsiya ta'sirida qoldirilgan bolalar va yoshlarning dunyoqarashi va ma'naviy barkamollikka*

yetishishlaridagi salbiy ta'sirlari ochib berilgan. Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasining bolalar va yoshlarga salbiy ta'sirlarini bartaraf etish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Migratsiya, mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari, ijtimoiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoya, bolalar, yoshlar, odam savdosi, qadriyat, xulq-atvor, ota-ona, tarbiya.

Jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi migratsiya jarayonlarida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, 2000 yillarda xalqaro migrantlar soni 173 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda esa ularning soni 281 mln. kishiga yetdi. Ularning 62 foizi xalqaro mehnat migrantlari hisoblanadi [1]. Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2000-yilda migrantlar tomonidan o'z mamlakatlariga yuborilgan pul o'tkazmalari 128 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rssatgich 2022 yilda 762 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan [2].

Mehnat migratsiyasi iqtisodiy to'kinlikni ta'minlash bilan bir qatorda ba'zi salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishini unutmaslik kerak. Jumladan, migratsiya ta'sirida qolgan bolalarda deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishi, normal oilaviy munosabatlarning buzilishi, ijtimoiy himoyalangan migrantlarning jismoniy yoki ruhiy zo'ravonliklarga uchrashi va odam savdosi kabi nohush holatlarni misol sifatida aytib o'tish mumkin.

E'tiborlisi shundaki, xalqaro migrantlarning 48 foizini ayollar, 16,4 foizini esa bolalar tashkil etadi [3]. Migrant bolalarning 13 foizini 18 yoshga to'lmaganlar bo'lib [4], ularning soni 36,5 mln.ni tashkil etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida postsovet mamlakatlarida yetilib pishgan o'gir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat namoyon bo'lishi ortidan Markaziy Osiyo davlatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimlaridan biri sifatida ko'rila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi aholi nufuzi jihatidan Markaziy Osiyo davlatlarida yetakchi bo'lib, 2022-yil holatiga ko'ra doimiy aholi soni 35,3 mln [5] nafardan ortiq bo'lib, ularning 19,4 mln [6] nafari mehnat resurslarini tashkil etadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil mart oyi holatiga 2 mln 356 ming 954 nafar O'zbekiston fuqarolari chet elda mehnat qilmoqda [7]. Agentlikdan olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, mehnat migrantlarining 86 foizini erkaklar, 24 foizini esa ayollar tashkil etadi. Umumiy mehnat migrantlarining 35 foizini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat ekanligini ko'rish mumkin.

Bu 800 mingdan ziyod yoshlar (16-30 yosh) o'z vatanidan, oilasidan, yaqinlaridan yiroqda mehnat qilayotganligini anglatadi. Natijada ayrim yoshlarning turli g'oyalarga ergashib qolish holatlarini afsus bilan qayd etish mumkin.

Masalaning ikkinchi tomoni esa shundaki, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining 65 foizi yoki 1,5 mln. nafari 30 yoshdan yuqori ekanligini inobatga olsak, ularning aksariyat qismi oilali hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqotlarda o'zbekistonlik migrantlarning aksariyat qismida 2 nafardan farzand bor ekanligi aniqlangan [8]. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, 3 mln nafarga yaqin bolalar tarbiyasida noto'kislik mavjud deyishimiz mumkin. Chunki, aksariyat bolalar otasiz, ayrimlari esa ota-ona tarbiyasidan yiroqda yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vasiylari tomondan tarbiyalanmoqda. Milliy qadriyatlarimizga, an'analarimizga suyanadigan bo'lsak, yoshlarning tarbiyasida oila mustahkamligi, farzand tarbiyasida otaning o'rni beqiyos hisolanadi. Mustahkam oila va ota-onasining bag'rida ulg'aygan bolalardan kelajakda yetuk barkamol avlodni kutish mumkin.

YUNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumannning ta'kidlashicha dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda migratsiyadan jabr ko'rgan bolalarning eng katta ulushi Osiyoga to'g'ri keladi [9]. Migratsiyaning salbiy ta'sirini kamaytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, YUNISEF tashabbusi bilan "Janubi-Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyoda migratsiya ta'siridan jabrlangan bolalarni himoya qilish" loyihasi amalga oshirilgan. Ushbu loyiha YUNISEF va O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida 2018-2020 – yillarda O'zbekistonning migratsiya ko'rsatkichi yuqori bo'lgan – Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida amalga oshirilgan. Loyiha davomida olib borilgan tadqiqot natijasida bolalar uchrashi mumkin bo'lgan uchta asosiy potensial salbiy ta'sir aniqlangan [8].

1. Bolaga g'amxo'rlik qilish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyat qismi farzandlari bo'lishiga qaramay, o'zlari yolg'iz migratsiya qilishni afzal ko'radilar va ko'p hollarda bolalarni ota-onaning biri yoki birona qarindoshning nazorati ostida qoldiradilar. Xatto ba'zi hollarda bolalarni internat shaklidagi muassasalarga joylashtiradilar.

Otalar migratsiya qilganida, onalar odatda bolalarning asosiy homiysi hisoblanadi. Ota-ona migratsiya qilgan hollarda qarindoshlarning vasiy sifatida jalb qilinishi eng keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Ko'p hollarda, qarindoshlar tomonidan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik bolalar uchun

eng xavfsiz va barqaror muhit sanaladi. Biroq, bunday vasiylik rasmiy ravishda rasmiylashtirilmaydi yoki tegishli organlarda ro'yxatdan o'tkazilmaydi va vasiylar iqtisodiy muammolarga duch kelgan holatlarda, bolalar beparvolik, ekspluatatsiya va tahqirlash xavfi ostida qoladilar.

2. Bolalarning psixologik holatiga ta'siri. Oiladagi vaziyatdan qat'i nazar, bolalarning aksariyati migratsiya paytida ota-onalarini sog'inadilar. Ota-onalarning migratsiyasi bolalarning emotsional farovonligiga eng jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Otalar migratsiyasi bolalarning emotsional farovonligini eng past ko'rsatkichga olib tushadi [11]: otasiz yashagan bolalarning aksariyati kayfiyatning tushishi va g'amginlik hissi vujudga kelishi taqdqiqotlarda o'z aksini topgan. Shuningdek, bolalar o'z ota-onalariga bo'lgan sog'inchning qondirilmasligi ularning ruhiy holati buzulib, ularning hulq-atvorlaridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

3. Bolalarning himoyasi va farovonligiga ta'siri. Ota-onalar migratsiya qilib, o'z farzandlarini tashlab ketishga majbur bo'lganlarida, ularning farovonligi va himoyasiga jiddiy ziyon yetadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vasiylar odatda bolalarni tarbiyalash va nazorat qilishning turli usullaridan foydalanadilar. Bolalarning 7 foizga yaqini jismoniy jazolalardan, uch foizi oiladagi zo'rvonliklardan va 6 foizi maktabdagi tahqirlashlardan aziyat chekadi.

Bolalarning uchdan bir qismi ota-onalarining migratsiyasidan so'ng o'z zimmalariga uy yumushlar, bolalarni parvarish qilish va aka-uka va opa-singillarga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha majburiyatlarni oladilar. Bolalar zimmasida uy yumushlari ko'lamining kengayishi ularning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasining jamiyatga ta'sirini o'rganish orqali bolalar huquqlarini himoya qilish, migratsiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro darajadagi asosiy hujjat 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ushbu konvensiya 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan. Shu asnodan bola huquqlarini ta'minlash doirasida xalqaro qonunchilik normalari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topib, yillar davomida takomillashtirib borilmoqda [12].

Shuningdek, Toshkent shahar ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi ham migratsiya ta'sirida jabrlangan bolalarning huquqiy manfaatlarini amalga oshiruvchi davlat organlaridan biri hisoblanadi. Ushbu markaz 2018-yilda markaz MDH

mamlakatlaridan O'zbekistonga 45 migratsiyadan jabrlangan nafar bolalarni qaytarishda ishtirok etgan [13].

Yuqoridagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra tashqi mehnat migratsiyasi oilalardagi iqtisodiy vaziyatni ta'minlash bilan bir qatorda o'ziga xos ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday ekan, tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy-ijtimoiy ta'sirlarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish sohadagi mavjud muammolarning bartaraf etilishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aholining munosib ish sharoitlari bilan bandligini oshirish ham xalqaro migratsiya oqimlarining kamayishiga olib keladi.

Umuman olganda tashqi mehnat migratsiyasini iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini chuqur tadqiq etgan holda o'rganish va migratsiyaning bolalarga salbiy ta'sirini shu orqali kamaytirishga erishish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, bolalarni migratsiyaning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish bo'yicha Davlat Dasturlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, migratsiya muammolarini tadqiq etish borasida ilmiy tadqiqotlarni yanada ko'paytirish maqdaga muvofiq.

Uchinchidan, migratsiyaning salbiy ta'sirlarini kamaytirish borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish va uni amaliyotga tadbiiq etish lozim.

To'rinchidan, aholining munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish borasida xorijiy investorlar keng jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elektron manba: <https://www.migrationdataportal.org/sites/g/files/tmzbd1251/files/2023-03/One-pager-2023-EN-Final.pdf>

2. Jahon Banki ma'lumotlari. Elektron manba: <https://data.worldbank.org/indicator/BM.TRF.PWKR.CD.DT>

3. International Organization for Migration. WORLD MIGRATION REPORT 2022. P.12.

4. Jahon Banki ma'lumotlari. Elektron manba: <https://data.worldbank.org/indicator/BM.TRF.PWKR.CD.DT>

5. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi saytidan olingan. Elektron manba: <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/doimiy-aholi-soni-jami?lang=uz&format=xlsx>

6. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi saytidan olingan. Elektron manba: <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/mehnat-resurslari-soni?lang=uz&format=xlsx>

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligidan olingan ma'lumot. 30.09.2022.

8. Краткий отчет. Влияние миграции на детей в Узбекистане. Elektron manba: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2941/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-Russian.pdf>

9. Elektron manba: <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/project-protect-children-affected-migration-launched-uzbekistan>

10. Gulmira Toshniyozova. "Otamiz borligini his qilmay ulg'ayyapmiz" – migrantlarning bolalari // <https://kun.uz/news/2023/04/26/otamiz-borligini-his-qilmay-ulgayyapmiz-migrantlarning-bolalari>

11. Batafsil qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.04.2019 yildagi PQ-4296-son // <https://lex.uz/ru/docs/-4302023>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.04.2019 yildagi PQ-4296-son // <https://lex.uz/docs/4302023>

PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O'QUV AMALIYOTLARNINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

To'xtasheva Nodira Qahramonovna,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi
boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini
oshirish institutining tayanch doktorant

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning ijodiy sifatlarini shakllanishi o'qitish jarayonida o'quv amaliyotlarini samarali olib borish faolligi bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'langan. Professional ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi dars rejasiga ijodiy yondoshuvlarni moslashtirish va o'quvchilarni rang-barang, jozibali materiallar bilan qiziqtirish, bu o'quvchilarni kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Metakognitiv, kognitiv, konstruktiv, ekzentik, komponent kombinatsiya.

Agar o'qituvchida faqat ish uchun muhabbat bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchining faqat o'quvchiga muhabbati bo'lsa, Ota, ona kabi - u o'sha o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi, hamma kitoblarni o'qigan, lekin na sababga, na talabalarga muhabbati yo'q. Agar o'qituvchi mehnat va o'quvchilarga bo'lgan muhabbatni birlashtirsa, u mukammal o'qituvchidir.
L.N. Tolstoy

O'quvchining ijodiy muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilovchi yagona omil o'qituvchi, deb da'vo qilish nohaqlik bo'ladi. Lekin o'qituvchining kognitiv, individual va motivatsion omillari o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi yoki qanday ta'sir qiladi, degan savollarni o'ylab ko'rish muhim ahamiyatga ega ekanligi, muhit ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tashkil etilishi kerak. Ta'lim jarayoniga rahbarlik qilish yo'lida allaqachon muhim qadamlar qo'yilgan.. va kimni ijodiy o'qituvchi deb hisoblash mumkin, degan savolga javob oddiy – o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlanishi haqida qayg'uradigan kishi.

Bugungi dunyo har qachongidan ham tez o'zgarmoqda. Shunday qilib, yangi turdagi muammolar va vaziyatlarni engishga yordam beradigan ko'nikmalar odamlar uchun juda muhim bo'lib qoldi. Bugun insoniyat tarixida hech qachon bo'lmaganidek, inson zamonaviy dinamika bilan hamnafas bo'lishni istasa, umrining oxirigacha o'zini o'quvchi deb bilishi kerak. Aynan shu zamonaviy dinamika oilada yoki ishda, uyda yoki tashqarida bizga doimo yangi muammolar va muammolarni taklif qiladi va ularni hal qilish uchun bizga moslashuvchan, ijodiy, ta'lim va bilimga asoslangan bilimlar kerak. Bu borada, eng avvalo, jamiyatga zamonaviy shaxsni taklif etishda hal qiluvchi o'rin berilgan. Zamonaviy auditoriyada o'quv jarayoni tobora muntazam bo'lib, bilimlarni uzatishga qaratilganligini tez-tez eshitasiz. O'qituvchi shunchaki ma'lumot beruvchi va o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga vaqt qolmaganligi, ularni ijodkorlikka undash uchun ularni tezkor va faol ishtirokchisiga aylantirishimiz kerak; darsda biz ularning potentsialini haqiqatda qanday amalga oshirish mumkinligini boshdan kechirishimiz kerak. Chunki bu ijodkorlik o'quvchilarning bilimlari va qadriyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi platformaga aylanishi mumkin; ularning munosib fuqaro, quvnoq inson va malakali mutaxassis bo'lib yetishishini qo'llab-quvvatlash darkor.

Bugungi bilimga asoslangan axborot texnologiyalari davrida o'qituvchilar uchun o'z bilimlari va qadriyatlarini rasmiy yoki norasmiy, shaxsiy yoki jamoat, bevosita elektron muhitda etkazish muammosi sezilarli

darajada qiyinlashdi. Jamiyat o'qituvchidan o'zining individual xususiyatlari bilan qanday bo'lsa, shunday qabul qilishni, uning iste'dodi va salohiyatini psixologik xavfsiz va ijtimoiy-madaniy jihatdan sog'lom muhitda rivojlantirishni talab qiladi. Hech bir davlatning o'qituvchisi o'qitish jarayoniga ijodiy yondashmasa, bu eng murakkab vazifani bajara olmaydi. O'quv jarayonining ijodkorligi haqida so'z yuritilganda o'qituvchining bu boradagi maqsadi nimadan iboratligini aniqlash kerak: o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, bunga a'maliy o'qitish sharoitida erishish mumkin. Bu yanada xilma-xil va qimmatli oqibatlariga olib keladi. Dars rejasiga ijodiy yondoshuvlarni moslashtirish va o'quvchilarni rang-barang, jozibali materiallar bilan qiziqitirish haqiqatdan nafaqat o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, balki umuman ta'lim-tarbiya jarayonini ham yaxshilaydi.

Ta'limdagi ijodkorlik ba'zan chetga suriladi. Chunki ko'pincha o'zining yangi, hatto shakllanmagan g'oyalarini taklif qiladiganlarga emas, balki o'qituvchining g'oyalarini rivojlantiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor va e'rkinlik beriladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'quv jarayonida ijodkorlikka e'tibor qaratish o'qitishdagi qat'iylikni va akademik talablarni zaiflashtirishni anglatmaydi. Aksincha, ko'plab tadqiqotlar buning aksini isbotlaydi, isbotlangan akademik ko'rsatkichlar ijodkorlikka sezilarli darajada bog'liq. Ijodkorlikka asoslangan ta'lim-tarbiya usullari o'quvchining bilim olish motivatsiyasiga, umuman olganda o'quvchining munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijodiy qobiliyat haqida gapirganda, ijodkorlikning o'zi shunday deb ataladigan narsa ekanligini unutmashimiz kerak "Qobiliyat" o'zining substansional mavjudligiga ega emas, insonning ma'lum qobiliyat va ko'nikmalarini tavsiflovchi yoki tushuntiruvchi sifat turidir. Ma'lum bir odamning fikrlash tarziga yoki xatti-harakatlariga bog'liq. Ba'zida tadqiqotchilar ijodkorlikni turli komponentlarning kombinatsiyasi deb hisoblashadi. Fikrlash uslubi va boshqa individual xususiyatlar bilan bir qatorda, bilim, motivatsiya va qobiliyat.

Barcha nazariyotchilar aqliy vakuumda hech qanday ijodiy g'oya rivojlana olmaydi, degan fikrga qo'shiladilar. Bilim ijodkorlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki hech kim bilimsiz ijodiy muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Garchi bilim ijodkorlik uchun zarur, ammo yetarli emas. Ko'pincha bilim berish orqali o'z mas'uliyatini tugatadi. Bunga uzatiladigan ma'lumotlarning ko'pligi, o'qituvchilarning malakasizligi, ta'limning ahamiyatini to'liq tushunmasligi sabab bo'lishi

mumkin. O'qituvchi uchun to'plangan bilim ijodkorlikning asosi bo'lishi kerak. U faqat tushunarli va darsni qiziqarli tarzda aniq ma'lumotlarni etkazishning qiziqarli va xilma-xil usullarini bi'lishi kerak. Ya'ni, o'qitishni ijodiy jarayon sifatida ko'rish kerak, Tegishli bilimlar bilan jihozlangan o'qituvchi o'z darsida o'ziga xos ijodiy mustaqillikni yaratadi. Ijodkor o'qituvchilar maqsad va natijalarni to'g'ri belgilaydi, o'quvchilarda asosiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, o'quvchilarni u yoki bu sohaga xos bo'lgan aniq bilimlarni to'plashga undaydi, ularda qiziquvchanlik va izlanish qobiliyatini rivojlantirishga undaydi, ularning motivatsiyasi, o'ziga ishonchi, tavakkalchiligi haqida g'amxo'rlik qiladi. O'quvchilarda yuqori ijodkorlikni taklif qilish, ularga tanlov va kashfiyotlar qilish imkoniyatini berish, o'zlarining xatti-harakatlarini boshqarish va metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, doimiy ravishda o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishi mumkin bo'lgan ijodiy va mavzuga mos, konstruktiv muhitni yaratadigan faoliyat va usullarni taklif qilish orqali yordam beradi.

Motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida ko'rib chiqing. Qilayotgan ishingni sevmasang, qimmatbaho ijod mahsulini yaratib bo'lmaydi. Ushbu kuchli ichki motivatsiya yoki harakatsiz haqiqiy ijodiy munosabatlarni rivojlantirish qiyin bo'ladi. O'quvchida jozibali shakllarda taqdim etilgan masalalar mavzuni sevishga olib kelishi mumkin.

Ijodiy fikrlashning rivojlanishiga noqulay ta'lim muhiti osongina to'sqinlik qilishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijodkorlikni "o'ldiradigan" omillar ko'p. Shuning uchun ham o'qituvchining atrof-muhitni ijodiy tashkil etishda qanday g'amxo'rlik qilishi ayniqsa muhimdir.

Bu erda ba'zi tavsiyalar mavjud:

1. O'quvchining maxsus g'oyalari yoki javoblariga e'tibor berish va ularni rag'batlantirish;
2. Muvaffaqiyatsizlik yoki xatolik sabablarini tahlil qilish, qo'llab-quvvatlovchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitda aniq natijalarga erishish yo'llarini aniqlashning ijobiy usuli sifatida foydalanish;
3. O'quv jarayonida o'quvchilarning qiziqish va g'oyalarni imkon qadar inobatga olish;
4. Honada o'quvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan, o'qituvchi nazorati ostida ham, mustaqil ravishda ham o'quvchilar o'z fikrlari bilan o'rtoqlasha oladigan, bir-biridan saboq olishlari mumkin bo'lgan kelishilgan muhitni yaratish;
5. Turli xil o'quv faoliyati uchun ariza berish;

6. Faol tinglash texnikasini qo'llang. Issiq, xayrixoh muhit o'quvchini erkin va xavfsiz his qiladi, bu tafakkurni rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitdir;

7. O'quvchilarga tanlov qilishga va ularni qaror qabul qilish jarayonining bir qismiga aylantirishga imkon bering; Tarqatish, ularning o'zlari o'zlarining ta'lim va o'quv jarayonining nazoratchilari ekanligiga mas'uliyat hissini uyg'otish;

8. O'quvchilarning loyihalari yoki g'oyalarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun boshqa manfaatdor tomonlarning o'quv jarayoniga sog'lom jalb qilinishiga yordam bering.

O'quv muhitini tartibga solish va tashkil etish haqida gapirganda, tabiiyki, biz faqat o'quv jihozlari va infratuzilmasi bilan ta'minlashni nazarda tutmaymiz. Bu, birinchi navbatda, ta'lim maqsadlari va ustuvorliklariga mos keladigan muhitni yaratishni anglatadi. Ta'lim maqsadlari va ustuvorliklariga muvofiq muhit yaratish deganda nimani nazarda tutayotganimni yaxshiroq tushuntirish uchun men Singapurdagi ertak qahramonlari bilan bezatilgan va qiziqarli bezaklar bilan bezatilgan o'quv kutubxonasini eslamoqchiman. O'quvchining ko'zlari bu muhitga qadam qo'yishi bilanoq, nega xalqaro ta'lim tadqiqotlariga ko'ra, Singapur savodxonlik bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan biri ekanligini tushundim.

Nafaqat ta'lim maskanimizda, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish qanchalik muhimligi haqida ko'p muhokama qilinadi. Professional ta'limining bir xil darajada sharafligini maqsadi - o'quvchilarning tanqidiy fikrlash (g'oyalar rivojlanishiga olib keladi) va ijodiy fikrlash (g'oyalar avlodiga olib keladi) ni rivojlantirishdir. Tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'pincha bir-biridan ajralib turadi. Tanqidiy fikrlovchi jiddiy, obyektiv va tahliliy shaxs, ijodiy fikrlovchi esa muvozanatsiz, ba'zan ekzentik konstruktiv shaxs hisoblanadi. Biroq, eng to'liq ta'lim natijalari ikkalasining muvozanati va sintezi orqali olinadi. Ikkalasidan biriga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratish, shaxsiyatning muvozanatsiz bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Demin, V.A. *Kasbiy kompetentsiya: kontseptsiya, turlari [matn]* / VA Demin // *Ta'lim jarayonining monitoringi*. - 2000. - No 4. - S. 35-39.

2. Mayer, A.A. *Maktabgacha tarbiyachining kasbiy muvaffaqiyatiga hamrohlik qilish [matn]: uslubiy qo'llanma* / A.A. Mayer. - M.: TC Sphere, 2012. 128s.

3. Bolalarning ijtimoiy tajribasini shakllantirish sharti sifatida maktabgacha ta'limning GEFni amalga oshirish istiqbollari [matn]: Rus tilidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, Kemerovo, 2014 yil 19-20 fevral: 2 soat.

4. Ed. Polkovnik: E.A. Paxomov, A.V. Chepkasov, O.G. Krasnoshlikova va boshqalar - Kemerovo: KRIPKiPRO nashriyoti, 2014. - 1-qism. - 288

5. Troyan, A.N. Maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarish [matn]: qo'llanma / AN Troas. - Magnitogorsk, 2001. - 276

6. Ya'ni Unti. Ta'limni individuallashtirish va differentsiallashtirish M. Pedagogika, 1990;

MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA NUTQIY MADANIYAT OMILINING AHAMIYATI

To'xtarov I.M.

Farg'ona politexnika instituti dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Maqolada hozirgi davrdagi juda muhim muammolardan biri bo'lgan nutq madaniyatini shakllantirishning ayrim masalalari ko'tarilgan. Xususan, yoshlarimizning nutqiy madaniyatida uchraydigan ayrim nuqson va kamchiliklar tahlil etilishi asnosida ularning asosiy sabablari va bartaraf etish yuzasidan takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: shaxs, ma'rifatli shaxs, ma'rifatli shaxs tarbiyasi, nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutq, nutqiy nuqsonlar, Yangi O'zbekiston, jamiyatning yangilanish omillari.

Ma'rifiy jarayonlar tizimida shaxs tarbiyasining dolzarb vazifalaridan biri o'quvchi-talabalarda nutqiy fazilatlarni qaror toptirishdan ham iboratdir. Zero, namunali nutq madaniyatiga erishish Yangi O'zbekistonda jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi sifatida mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda ma'rifatli shaxsni shakllantirishda har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiiyki, jamiyatning yangilanishi jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda ma'rifatli shaxsni raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlash zaruriyati tufayli bugungi kunda barcha sohalar singari ona tilimiz imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini topish masalalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga xos bo'lgan masalalarni hal qilish, yoshlarimiz tomonidan ona tilimizning

jozibadorligi, ravonligi, go'zalligi va teranligi kabi jihatlarini puxta egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Respublikamizning «Davlat tili to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi va boshqa tarixiy huquqiy-normativ hujjatlarida nutqiy madaniyat va til tarbiyasiga oid masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zero, har bir shaxs, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmog'i lozim. Bu to'g'rida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta'kidlaganidek, «o'z fikrini mutlaqo mustaqil, o'z ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, ... bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»[1;235]. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ham bugungi kun voqeiligidan kelib chiqqan holda "...komillik va ma'rifat sari intilish tuyg'usi xalqimiz mentalitetidan mustahkam joy olgan" fazilatlaridan biri bo'lishi lozimligini qayta-qayta ta'kidlashmoqda[2;17].

Biroq ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan ko'plab talabalarimizning og'zaki va yozma nutqida ayrim kamchiliklar mavjudligi ma'rifatli shaxs kamolotining barkamolligiga salbiy ta'sir etayotgan nuqsonlar ekanligi kishida tashvish uyg'otadi.

Aslida, talabaning nutq madaniyati adabiy tilimiz va uning normalarini passiv emas, balki faol egallaganligi hamda kundalik so'zlashuv-muomala jarayonlarida ularga rioya eta olishini anglatadi. Adabiy til normalarini bilmaslik natijasida ba'zi talabalarimiz nutqida o'z fikrlarini to'liq va tushunarli bayon qilib bera olmaslik, ko'pchilik hollarda shevachilikka berilish kabi hollar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Nutqiy madaniyat egasi bo'lish uchun esa talaba o'z nutqiy malakalarini shakllantirish jarayonida doimo zarur bo'lmagan so'zlarni qo'llamaslikka harakat qilishi, ortiqcha takrorlarga berilmasligi, shuningdek, shevachilikka oid iboralarni qo'llashdan ham tiyilishi kerak. Nutqning cho'zilib ketishi, unda takrorlar bo'lishi, zarur bo'lmagan so'zlarning ko'p uchrashi talaba nutqini siyqalashtirishi, uni zerikarli qilib qo'yishi, g'alizlashtirishi mumkinligini yodda tutish lozim. Boshqacha qilib aytganda nutq jarayonida shunday fikrlash va so'zlashga erishish uchun intilish kerakki, bunda nutqdagi birorta so'zni olib tashlab ham bo'lmasligi, o'zgartirib ham bo'lmasligi, ayni paytda birorta so'z qo'shish ham mumkin emasligini uqtirgan ma'qul.

Buning uchun esa talabadan tilni faol egallash talab etiladi. Tilni faol egallash esa adabiy til normalarini ongli ravishda puxta o'zlashtirish va

undan ogʻzaki hamda yozma nutq amaliyotida oqilona va xatosiz foydalana olish demakdir. Afsuski, baʼzi yoshlarimizning oʻzbek tilida nuqsonsiz va mantiqiy ravon yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin soʻzlay olmasligi ularning oʻzbek adabiy tilini puxta egallashga nisbatan beeʼtibor boʻlayotganliklaridan darak beradi. Zero, Kaykovusning: «...Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir... Nutqni juda yaxshi va sanʼatkorona oʻrganib ol, doimo gapga chechan boʻlishga harakat qil. ... Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham koʻp boʻladi», degan oʻgitlari bugungi kun yoshlari uchun ham bevosita tegishlidir. Bu oʻgitlar bugun ham eskirgan emas. Notiqlik mahoratini egallash, adabiy til normalarini puxta oʻzlashtirish, omma oldida nutq soʻzlashni doimiy mashq qilish va soʻz ustida jiddiy ishlash auditoriyaga taʼsir oʻtkazish, ularning diqqatini jalb etish imkoniyatini beradi.

Odatda odamlarni majbur etish ularni ishontirishdan koʻra osonroq yumushdir. Xuddi shu bois koʻpgina rahbarlar majburlash yordamida ommani oʻzlariga boʻysundirishni boshqaruvning eng maʼqul usuli deb bilishadi. Bu esa fikr erkinligini boʻgʻish, jamiyat hayotida buyruqbozlikning avj olishi, kishilar ongida norozilik kayfiyatining koʻpayishi kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shu maʼnoda nutq yordamida ishontirishning majburlashdan koʻra afzal jihatlari benihoya koʻpdir. Ishontirish esa inson qalbi va ongiga kirish imkonini beradi, hamfikrlilik, hamnafaslik tuygʻularini tarkib toptiradi, pirovardida, shunday deyish joiz boʻlsa, suhbatdoshingizning aqli va tafakkurini egallash imkonini beradi. Nutq yordamida siz oʻz fikrlaringizni oʻzga kishining ongiga singdiringiz, ular oʻsha odamning oʻz shaxsiy fikridek hatti-harakatlarini yoʻnaltiruvchi kuchga aylanadi va oqibatda u sizning doimiy taʼsiringiz ostida qoladi. Tasavvur qiling, taqdir taqozosi bilan talabangiz turli lavozimlarda faoliyat yuritayotgan kezlarda uning maʼnaviy mulkiga aylangan sizning fikrlaringiz u boshlagan ezgu ishlarni amalga oshirishda eng yaqin koʻmakchi boʻladi.

Biroq bu boradagi mavjud vaziyatni sinchkovlik bilan oʻrganish yoshlarimizning nutq madaniyatida uchrayotgan kamchilik va nuqsonlarning sabablari orasida keyingi paytda kitobxonlik madaniyatining tobora oqsab borayotganligi, kitob mutolaasiga nisbatan eʼtiborning susayib borayotganligi bilan ham bevosita bogʻliqligini koʻrsatmoqda. Haqiqatan ham yaqindan muloqot chogʻida koʻpgina yosh oʻqituvchilarning juda kam kitob oʻqishi, buning oʻrniga televidenie, internet singari zamonaviy axborot almashinuv manbalari bilan oshno boʻlishning maʼrifatli boʻlish uchun yetarli ekanligini roʻkach qilib koʻrsatilayotganligi koʻzga tashlanmoqda.

Hammasidan achinarlisi, bu salbiy hol bugun o'sib kelayotgan yosh avlod ongida mustahkam o'rnatilib qolayotgan an'anaga o'xshab tuyuladi.

Inson tafakkurini charxlash, xotirasini o'stirish, so'z boyligini orttirish va zahirasini kengaytirishda kitobga teng keladigan omil yo'q. Jamiyatshunoslarning ta'kidlashicha, bugungi kunda yaxshi va a'lo baholarga o'qib, o'rta ma'lumot to'g'risida attestat olayotgan bitiruvchilarning xotirasidagi so'z zahirasi 4-5 ming termin va tushunchalardan oshmayotgan ekan. Bundan 50-60 yil ilgari esa xuddi shu toifadagi bitiruvchilarni 9-10 ming so'zdan iborat bo'lgan ekan. Endi izoh talab qilmaydigan savol tug'iladi: qaysi o'quvchining yozgan inshosi yoki og'zaki nutqi yordamidagi javobi mazmunliroq va qoniqarliroq chiqadi? Shunday ekan, bugun o'quvchilarni kitobga oshno qilish, ommaviy kitobxonlikka qaytarish ta'lim tizimi va keng jamoatchilik oldida turgan juda muhim yumushlardan biridir.

Hech qachon unutmaslik lozimki, ona tilini o'rganmasdan va kitob o'qimasdan turib nutq madaniyati to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Axir ma'rifatli dunyoning har bir a'zosi o'zidagi har qanday fazilatlar uchun kitobdan minnatdor bo'layotganligi mutlaq haqiqat fikr. Zero, har bir kishining so'z boyligi, fikrlash doirasining kengligi, mantiqiy izchil mulohazaga kirishish, aqli so'zlashish, ma'nodor muomala qila olish kabi insoniy sifat va fazilatlarining zaminida o'qimishlilik degan mohiyat yotadi. Shunday ekan, kitob mutolaasi insonni barkamol shaxs etib tarbiyalaydi, uni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida voyaga yetkazadi.

Kezi kelganda, bizningcha, nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etayotgan yana bir omilni ham qayd etib o'tmaslik mumkin emas. Gap shundaki, keyingi yillar mobaynida oliy ta'lim olish maqsadida kirish imtihonlari o'rniga test sinovlarining joriy etilganligi oliy ta'lim olish istagidagi da'vogarlarining bilimni xolis baholash uchun xizmat qilayotganligini to'liq e'tirof etgan holda, unda ona tili va adabiyoti fani bo'yicha testlarning uchinchi blok fani etib belgilangani ham o'quvchi-yoshlarning nutq madaniyatini o'stirish uchun xizmat qilmoqda, deb bo'lmaydi. Chunki ona tili va adabiyoti bo'yicha har bir to'g'ri yechilgan test uchun eng kam ball berilishi tartibining joriy etilganligi, o'z-o'zidan ravshanki, aksariyat bitiruvchilarning ushbu fanga kamroq e'tibor qaratib (agar umuman e'tibor bermay qo'ygan bo'lishmasa), ko'proq ball to'plash imkonini beradigan boshqa blok fanlarini chuqurroq o'rganish uchun harakat qilishga undamoqda. Oqibatda ona tili va adabiyotini o'rganishga nisbatan yuzaki munosabat qaror topish an'anasi avj olmoqda va bu hol yaqin kelajakda mutaxassis sifatida faoliyat boshlayotgan ko'pgina kadrlarning notiqlik fazilatlarini yomon egallaganliklarida o'z aksini topmoqda. Bu ayni haqiqat

bo'lib, bizningcha, mamlakatimizdagi tegishli tuzilmalar tomonidan ushbu muammoga ijodiy yondashuv zarurligi masalalarini ko'tarish fursati yetdi [4;156].

Shaxsni ma'rifatli etib tarbiyalashda o'qituvchi asosiy figura va yetakchi kishi bo'lib, unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Bu jarayonda u talabalarda muayyan muomala madaniyatini shakllantiruvchi sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini ham unutmash lozim. Chunki talabalar ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlari tanlagan mutaxassisliklar bo'yicha muayyan bilim va ko'nikmalarni egallash bilan birga umuminsoniy va milliy axloqimizning norma va mezonlarini ham o'zlashtiradi. Bunda ko'p hollarda muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Boshqacha qilib aytganda, yuksak nutq madaniyati sohibi bo'lgan sevimli ustoz shogird talaba uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi hayotiy haqiqatdir.

Tabiiyki, talabalarda nutq malakalarini shakllantirish o'qituvchi tomonidan ular o'rtasida muntazam ravishda o'tkazib turiladigan samimiy suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu suhbatlar va har xil chiqishlarning talabalarga qay darajada ta'sir qilishi, ularni ishontirish, kayfiyatlarini o'zgartirish, ularning diqqatini qo'yilayotgan masalalarga tortish o'qituvchidan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki har bir nutq talabani ishontira oladigan, ularga tushunarli, yorqin, ta'sirchan, mantiqli va aniq bo'lgandagina o'zgacha ijobiy ta'sir qiladi. Ana shularni ta'minlay olgan o'qituvchining shogirdi ham notiqlik talablaridan yaxshi xabardor bo'lishi bilan birga uni o'z fe'l-atvorida ham qaror toptira oladi.

Xulosa qilib aytganda, notiqlik san'atini yaxshi egallash ma'rifatli shaxs uchun so'z qudratidan oqilona foydalanib, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi bilan birga uning rivoji va taraqqiyoti uchun ham munosib hissa qo'sha olishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida: T., 6-T.: O'zbekiston, 1998 yil.*

2. Mirziyoev Sh.Yangi *O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" 2022.*

3. Kaykovus. *Qobusnoma. Toshkent, 1997 yil.*

4. To'xtarov I. *Talabani nutq madaniyati. FarPI ilmiy-texnika jurnali. 2019 yil, 1-son.*

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI ONGIDA SIYOSIY QADRIYATLAR TIZIMINING O‘ZGARISHI

Abdullayev Barxayotjon Bo‘riyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti,

Berdiyeva Muattar Ibodullayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyati qadriyatlar tizimining o‘zgarishi jarayoni, qadriyatlarning antropogen xususiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Yoshlar jamiyatga ijtimoiylashib borayotgan guruh sifatida mavjud siyosiy qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayoni modellari tahlil qilingan. Postindustrial jamiyatga xos postmaterializm, siyosiy qadriyatlar tizimidagi barqarorlik va o‘zgarishlarning mezonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Yangi O‘zbekiston yoshlari, siyosiy madaniyat, siyosiy qadriyatlar, qadriyatlar tizimi, transmissiya, manipulyativ ta‘sir, konformistik moslashish, indentifikatsiya, ehtiyojlar iyerarxiyasi, postmaterializm, qadriyatlar tizimidagi barqarorlik va o‘zgarishlar.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyati qadriyatlar tizimining o‘zgarishi jarayonida qanday siyosiy qadriyatlar ustuvorlik qilayotganligini ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganishni davr taqozo qilmoqda. “Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat...” [1], ekanligini e‘tirof orqali ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniq tasavvur etish mumkin.

Qadriyatlar antropogen xususiyatga ega, ularning bosh mezoni, ularni qadrllovchi, o‘z manfaatlari, ehtiyojlari uchun foydali va ahamiyatli tomonlarini anglab, e‘zozlovchi subyekt – insondir. Yoshlar jamiyatga ijtimoiylashib borayotgan ijtimoiy guruh sifatida mavjud siyosiy qadriyatlarni bevosita qanday bo‘lsa shundayligicha o‘zlashtirishi (transmissiya), siyosat subyektlarining manipulyativ ta‘siri vositasida ularni ustuvor deb anglashi, o‘z ijtimoiy mansubligidan kelib chiqib siyosiy me‘yorlar va qadriyatlarga konformistik moslashishi, siyosiy qadriyatlarni namoyish etishiga qarab oladigan mukofotlar yoki jazolar bilan siyosiy qadriyatlarni singdirishi, siyosiy voqelikni mustaqil kuzatishi va o‘z

manfaatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib ma'lum bir siyosiy qadriyatlar kontekstida o'zini indentifikatsiya qilishi mumkin.

Amerikalik psixolog Abraxam Maslou (1908-1970) qadriyatlarni inson ehtiyojlari bilan bog'lab tushuntiradi va qadriyatlar tizimini ehtiyojlar iyerarxiyasidan keltirib chiqaradi. Qadriyatlar esa, insonning kundalik hayotidagi maqsadlarini belgilaydi. Uning psixologiya fanida keng qo'llaniladigan ehtiyojlar iyerarxiyasi beshta tayanch ehtiyojlar guruhidan iborat. Insonning quyi ehtiyojlari qondirmaguniga qadar yuqori ehtiyojlarini anglamaydi, deb hisoblagan A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiasiga piramida ko'rinishida eng qo'yida fiziologik ehtiyoj (oziq-ovqat, suv, uyqu va sh.k.), keyingi o'rinda xavfsizlik ehtiyoji (o'zini xavsiz xis qilish, qo'rquv va omadsizlikdan himoya, barqarorlik), navbatdagi o'rinda muhabbat va ijtimoiy guruhga mansublik ehtiyoji (oila, do'stlik, jamiyatda tomonidan e'tirof etilish, insonlar bilan muloqot), keyingi darajada hurmat va e'tirofga bo'lgan ehtiyoj (o'zgarlar hurmatiga sazovor bo'lish, o'z-o'ziga hurmat, mavqe, obro') va eng yuqorisida o'zini namoyon etish ehtiyoji(o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini boyitib borish)ni joylashtiradi. Ehtiyojlarning har bir darajasi ortib borishi qonuni qadriyatlar tizimidagi qadriyatlarni qayta baholash, ularning mazkur iyerarxiyadagi o'rni almashib o'zgarishini keltirib chiqaradi. Ayni paytda yoshlar ijtimoiy guruhi qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarning tashuvchisi, subyekti va resursiga aylanadi.

Postindustrial jamiyatga xos postmaterializm – yuqori ta'lim, madaniyat va daromad darajasiga ega ekanligi uchun moddiy ta'minot masalasi hal etib bo'lingan, o'z-o'zidan mavjud holat deb baholaydigan yosh va o'rta yoshdagi kishilarga xos dunyoqarash va siyosiy amaliyotdir. R.Inglxart tomonidan kiritilgan bu tushuncha rivojlangan davlatlarga xos hodisa bo'lib, postmaterializmda ijtimoiy va siyosiy faollik, an'anaviy siyosiy partiyalarga ishonchsizlik, nodavlat tashkilotlari faoliyatida ishtirokka intilish, fuqarolik faolligi, siyosiy ishtirokning yangi shakllari kuzatiladi. Postmaterializmda ijtimoiy qadriyatlar shaxsiy manfaatlardan ustuvorlik qiladi. Uning nazariyasi ikkita oddiy gipotezaga asoslanadi: "Tanqislik va ijtimoiylashuv gipotezasi. Birinchisi, shaxs uchun ustuvor yo'nalishlar uning ijtimoiy-iqtisodiy muhitini aks ettiradi, ikkinchisi esa, uning asosiy qadriyatlari ko'p jihatdan uning voyaga yetmagan davridagi sharoitlarni aks ettiradi. Ochlik, tashnalik, uy-joy va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj kabi quyi ehtiyojlarni materialistik deb ataydi. Bundan tashqari, ijtimoiy integratsiya, hurmat va o'zini o'zi anglash istagi kabi yuqori

ehtiyojlar mavjud. Inglxart bu ehtiyojlarni postmaterial deb ataydi. Ehtiyojlar iyerarxiyasi mantig'ida quyi ehtiyojlar qondirilmaguncha yuqori ehtiyojlar ustunlikka ega bo'lmaydi" [2] deb xulosa qiladi. Muallifning "Sokin inqilob: g'arb jamiyatlarida qadriyatlar va siyosiy uslubning o'zgarishi" nomli monografiyasida ikkinchi jahon urushidan so'ng G'arb jamiyatlarida yuzaga kelgan farovonlik va tinchlikning qadriyatlardagi o'zgarishlarga sabab qilib ko'rsatadi hamda "odamlar xavfsiz va ularning qorni to'q. Bu ikki asosiy omil keng qamrovli ta'sirga ega" [3] bo'lganini ta'kidlaydi. Demak, Inglxart siyosiy qadriyatlarni baholashda insonning moddiy ehtiyojlari qondirilgali holatini belgilovchi mezon sifatida qayd etadi.

Siyosiy-falsafiy fikr va ta'limotlar taraqqiyoti tarixida siyosiy qadriyatlar, ularning ularning qadriyatlarini belgilovchi mezonlarni tahlil qilib qadriyatlarining mezonlarini, qadriyatlar tizimi hamda iyerarxiyasi mezonlarini farqini kuzatish mumkin.

Yoshlar siyosiy qadriyatlari tizimida turli mezonlarga ko'ra ahamiyatli bo'lgan siyosiy qadriyatlar iyerarxiyasi subyektning o'zi anglangan ehtiyojlari nuqtai nazaridan qadri va dolzarb deb hisoblagan qadriyatlar, jamoaviy qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki samarasi o'laroq qadri deb baholangan qadriyatlar, ijtimoiy guruhga xos, jamiyat taqozo etayotgan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan qo'llab quvvatlanayotgan qadriyatlardan iborat ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Siyosiy qadriyatlar tizimidagi barqarorlik va o'zgarishlarning mezonlari subyektiv va obyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, uning statikasi, dinamikasi, motivatsion quvvatida aks etadi. Subyektiv omillar yoshlar siyosiy qadriyatlar tizimida yoshlarning o'z ehtiyojlarini anglashi, o'zi uchun manfaatli, foydali, ahamiyatli deb baholash mezonlaridagi barqarorlikda ifodalanadi. Subyektiv omillar obyektiv reallikdagi mavjud siyosiy qadriyatlarni baholashda yoshlarning subekt sifatida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ongi xususiyatlari bilan belgilanadi, ya'ni siyosiy qadriyatlarni baholovchi subyektning o'zigagina bog'liq bo'ladi. Obyektiv omillar esa, yoshlar siyosiy qadriyatlar tizimi siyosiy tizim, siyosiy institutlar, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari siyosiy partiyalar, yoshlar tashkilotlari, ta'lim muassasalari, OAV, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabilarda ko'rinadi. Siyosiy qadriyatlar tizimining statikasi uning iyerarxiyasidagi qadriyatlarining ichki o'rin almashinuvi, ahamiyati ortib borishi yoki qadrsizlanishi natijasida muayan siyosiy qadriyatlarining o'zaro o'rin almashinuvi va ketma-ketligining o'zgarishidagi mutanosiblikdir.

Siyosiy qadriyatlar tizimining dinamikasi tashqi obyektiv omillar ta'sirida siyosiy qadriyatlar tizimiga kirib kelayotgan, maqsadli kiritilayotgan, targ'ib va tashviq qilinayotgan siyosiy qadriyatlar, mavjud qadriyatlar tizimidagi qadriyatlarni obro'sizlantirishga, ahamiyatsiz, foydasiz, manfaatsiz deb ko'rsatishga qaratilgan intilishlar, harakatlar hamda urinishlar bilan bog'liq o'zgarishlarda ifodalanadi.

Qadriyatlarni baholash tizimiga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan urinishlar siyosiy tafakkur paradigmasiga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. Qadriyatlar tizimining motivatsion quvvati o'zgarishi tizimdagi terminal va instrumental qadriyatlarining o'zgarishi natijasida yoshlarning faoliyat hamda harakatlarga undovchi, faol, tashabbuskor, yangiliklarga ochiq bo'lishga pozitiv yoki negativ ta'sir bilan belgilanadi. Shu o'rinda siyosiy qadriyatlar tizimidagi barqarorlik tarkibiy o'zgarishsiz yoki kuchli o'zgarishsiz ushbu tizimning o'z oliga qo'ygan maqsadlari tomon harakati va ma'lum bir vaqt oralig'ida shu tizimning o'z sifatlarini saqlab qolishida ifodalanadi. Siyosiy qadriyatlar tizimidagi barqarorlik jamiyatning siyosiy tizimi barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Bayon etilgan qarashlar, fikrlar va ta'limotlardan ko'tarilgan masala yuzasidan quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

Yoshlarning siyosiy qadriyatlari tizimi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi: ijtimoiylashuv, ta'lim, tarbiya, moddiy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari.

Qadriyatlar insonning ehtiyojlari bilan belgilanadi va uning hayotiy ustuvorliklari hamda maqsadlarini shakllantiradi. Qadriyatlarining ustuvorligi ehtiyojlar iyerarxiyasi bilan belgilanadi.

Yoshlarning qadriyatlar tizimida moddiy boylikdan postmaterialistik qadriyatlarga, moddiy farovonlikka qiziqishdan o'zini namoyon qilish va ijtimoiy faollik qadriyatlariga o'tish kuzatilmoqda.

Yoshlarning siyosiy qadriyatlari tizimi dinamikada, subyektiv va obyektiv omillar ta'sirida o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Ushbu tizimning barqarorligi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir.

Yoshlar o'rtasida fuqaroviylik, mas'uliyat va siyosiy ishtirok qadriyatlarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu siyosiy tizimning uzluksizligini va yoshlarning muhim ijtimoiy va davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlariga jalb qilinishini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasining XI s'ezdidagi nutqi. URL: <https://uzlidep.uz/news-of-party/14426> (murojaat sanasi: 22.06.2023)

2. Postmaterialism. International encyclopedia of political science / edited by Bertrand Badie, Dirk Berg-Schlosser, Leonardo Morlino. SAGE Publications, Inc. USA. 2011. –R.2093.

3. Inglehart R. The Silent Revolution: Changing Values and Political Styles Among Western Publics. New Jersey. Princeton University Press. 1977.

МОЛОДЕЖЬ И СОЦИАЛЬНАЯ ПРАВСТВЕННОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ, ВЫЗОВЫ И СТРАТЕГИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕННОСТЕЙ

Жанонова Ситора Бердиназаровна

докторант Самаркандского филиала
Ташкентского государственного
аграрного университета.

Аннотация: Социальная нравственность играет важную роль в формировании ценностных ориентаций у молодежи. В настоящей статье рассматриваются проблемы и вызовы, связанные с социальной нравственностью, а также стратегии, направленные на трансформацию ценностей у молодежи. Анализируются факторы, влияющие на эти процессы, и предлагаются практические подходы к поддержке и развитию социальной нравственности среди молодежи.

Ключевые слова: молодежь, социальная нравственность, ценности, трансформация, проблемы, вызовы, стратегии.

Молодежь является ключевым субъектом социальных изменений и развития в обществе. Возникающие проблемы и вызовы в современном мире влияют на социальную нравственность и ценностные ориентации молодежи. Вместе с тем, социальная нравственность играет важную роль в формировании стабильных и этических ценностей, которые определяют поведение и принятие решений молодыми людьми. Цель данной статьи – рассмотреть проблемы и вызовы, связанные с социальной нравственностью, а

также представить стратегии, направленные на трансформацию ценностей у молодежи.

В исследовании использовалась система теоретических методов: анализ философской, психологической, педагогической и методической, лингвистической литературы; моделирование, синтез эмпирического материала.

Проблемы и вызовы, связанные с социальной нравственностью у молодежи:

1. Сокращение влияния традиционных нравственных ценностей: Современное информационное общество сталкивается с ростом разнообразия ценностей, что может вызывать дезориентацию у молодежи и снижение влияния традиционных нравственных критериев.

2. Моральные дилеммы и этические конфликты: Молодежь сталкивается с различными этическими вызовами и дилеммами, такими как моральные выборы в сфере политики, экономики, науки и технологий. Это может вызывать конфликты между существующими социальными нравственными критериями и индивидуальными ценностями молодежи.

3. Глобализация и культурный плюрализм: Современная молодежь живет в глобальном мире с разнообразными культурными влияниями и ценностными системами. Это создает вызовы для формирования стабильных социальных нравственных критериев, поскольку молодежь может сталкиваться с конфликтом между различными культурными ценностями и ожиданиями.[1,14]

Концепция социальной нравственности является ключевой в современном обществе. Она описывает систему ценностей, которые формируют поведение и отношение людей к другим людям и окружающей среде. Молодежь, как субъект социальной деятельности, играет важную роль в формировании и трансформации ценностей в обществе. В данной статье мы рассмотрим проблемы, вызовы и стратегии трансформации ценностей среди молодежи.

Проблемы: Одной из главных проблем, связанных с социальной нравственностью среди молодежи, является отсутствие четких ценностных ориентиров. Молодые люди часто не знают, какие ценности имеют для них значение, и как их следует применять в повседневной жизни. Это может привести к нежелательным последствиям, таким как нарушения закона, агрессивное поведение и другие негативные проявления.

Еще одной проблемой является недостаточное внимание к социальной нравственности в образовании. Многие образовательные учреждения не уделяют достаточного внимания формированию социальной нравственности у своих учеников. Это может привести к тому, что молодые люди не будут иметь необходимых навыков и знаний, чтобы принимать правильные решения в сложных ситуациях.

Вызовы: Одним из основных вызовов является изменение ценностей в обществе. Социальная нравственность в обществе меняется со временем, и молодежь должна быть готова к этим изменениям. Например, в настоящее время в обществе все больше внимания уделяется экологии и здоровому образу жизни. Молодежь должна быть готова к этим изменениям и принимать новые ценности.

Другим вызовом является развитие технологий. Технологический прогресс может иметь как положительные, так и отрицательные последствия для социальной нравственности. Например, социальные сети могут способствовать развитию коммуникационных навыков, но также могут привести к нарушениям конфиденциальности и другим социальным проблемам.

Стратегии трансформации ценностей: Одной из стратегий трансформации ценностей среди молодежи является образование. Образовательные учреждения должны уделять большее внимание формированию социальной нравственности у своих учеников. Например, в рамках учебных программ можно проводить специальные занятия и тренинги по формированию навыков межличностного общения, развитию эмпатии и других социальных навыков. [3,74]

Еще одной стратегией является создание благоприятной социальной среды. Молодежь должна быть окружена людьми, которые поддерживают и пропагандируют социальную нравственность. Например, в рамках общественных организаций можно проводить различные мероприятия, направленные на формирование социальной нравственности.

Молодежь должна развивать навыки информационной грамотности, чтобы критически оценивать и фильтровать информацию, с которой они сталкиваются. Это включает умение проверять источники, анализировать данные, различать факты от мнений и развивать критическое мышление в отношении социальных нравственных вопросов.

Родители и семья играют важную роль в формировании социальных нравственных критериев и ценностей у молодежи. Семейное воспитание, обсуждение этических вопросов и поддержка со стороны семьи могут помочь молодежи осознать и принять стабильные социальные нравственные критерии.

Молодежь и социальная нравственность взаимосвязаны и имеют важное значение для развития устойчивого и этического общества. Рассмотрение проблем и вызовов, связанных с социальной нравственностью у молодежи, а также применение стратегий трансформации ценностей помогут сформировать этически грамотное и ответственное поколение. Основываясь на образовании, общественной активности, ролевых моделях, информационной грамотности и поддержке семьи, можно создать благоприятные условия для развития у молодежи стабильных социальных нравственных критериев и ценностей.

Список использованных литератур:

1. Бондарева, Е. В. Социальная нравственность как феномен современной культуры / Е. В. Бондарева // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2010. – № 2. – С. 31-42.

2. Голубев, В. А. Социальная нравственность: проблемы и перспективы / В. А. Голубев // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Философия. – 2016. – Т. 20. – № 1. – С. 51-60.

3. Кузнецова, Е. А. Социальная нравственность молодежи: проблемы и перспективы / Е. А. Кузнецова // Социально-гуманитарные знания. – 2015. – № 6. – С. 94-100.

4. Леонтьев, Д. А. Социальная нравственность и ее роль в современном обществе / Д. А. Леонтьев // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2016. – № 3. – С. 72-81.

5. Шевцова, Е. В. Формирование социальной нравственности молодежи в условиях современной культуры / Е. В. Шевцова // Вестник Томского государственного университета. – 2014. – № 382. – С. 156-162.

6. Абсаламова, Г. (2021). О воспитании детей. Общество и инновации, 2(5/S), 390-402.

7. Яздонов, У. Т. (2020). ВЗАИМОСВЯЗЬ НАУКИ, ИСКУССТВА И РЕЛИГИИ С ОБЩЕСТВЕННЫМ МНЕНИЕМ PUBLIC OPINION–MULTIDISCIPLINARY INTERACTION WITH THE PHENOMENON OF SCIENCE, ART AND RELIGION. ВВК, 91, 1033.

TALABALARDA VOQELIKKA ESTETIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Matkarimov Azamat Farhod o'g'li

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Maqolada insonning voqelikka estetik munosabati haqidagi g'oyalar haqida ma'lumot berilgan. Insonning mazmunli estetik bahosi obyektning haqiqiy jismoniy va ma'naviy mazmunini ochib berishga asoslanadi va ma'naviy mazmun ustuvor ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, estetika, estetik unosabat, sezgi, idrok, epistemologik, psixologik, inson, voqealik, xotira, tasavvur, estetik obyekt, estetik munosabat, faoliyat, estetik faoliyat.*

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, ta'sviriy va amaliy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda kasbga yo'naltirish maqsadida o'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzalarida «Farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga» ko'tarish zarurligini aytib o'tadilar. [1]

Har bir ota-ona farzandini tarbiyali, nafosatli, aqlli, baquvvat va mard bo'lishini istaydi. Estetik ruhda tarbiyalash, uning qiyofasiga - his-tuyg'ulariga, irodasiga samarali ta'sir qiladi. Estetik ruhda tarbiyalash g'oyat murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, nafosatni tushunibgina qolmay, balki uni yaratishga qodir bo'lgan barkamol avlodni kamolga yetkazish maqsadini ham ko'za tutadi. [2].

Bizning Respublikamizda talabalarni estetik ruhda tarbiyalashga kerakli hamma shart-sharoitlar mavjuddir. Muzey va teatrlar, kutubxonalar, kinoteatr va rasmlar galereyalari, takrorlanmas o'tmish obidalari, qolaversa butun hayot tarzimiz, urf-odatlarimiz ham - barkamol avlodni estetik ruhda tarbiyalash va kamol toptirishga yordam beradigan asosiy vositalardir. [3]

Estetik tarbiya - talabalarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish hamda hayotiga go'zallik baxsh etuvchi qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari. [4].

Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga, shuningdek estetik faoliyatga, voqelikni go'zallik qonun-qoidalari asosida o'zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

Estetik munosabat- bu voqelikning estetik obyektlari va hodisalarini o'zlashtirish usuli va shu sababli u san'at falsafasi va pedagogikasining asosiy toifalaridan biridir.

Estetik-falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan, "estetik munosabat qobiliyati har bir oddiy odamga xos bo'lishi mumkin, u insoniyatning tarixiy tajribasida shakllangan, ammo insonning estetik munosabatlarga tayyorligi ma'lum shartlarni talab qiladi" degan xulosa muhimdir. [5].

Estetik munosabat- estetik idroksiz mumkin emas, bu bir tomondan bilimning birinchi hissiy bosqichi va boshqa tomondan estetik mavzuni to'liq o'zlashtirish (bilimning ikkinchi bosqichi) sifatida namoyon bo'ladi. Estetik idrok etish uchun zarur shart-sharoitlar, boshqa har qanday narsa kabi, idrok, faoliyat va kuzatuv faoliyati uchun muhim hisoblanadi. [6].

Idrok-bu refleksli yaxlit jonli tafakkur, shu bilan birga estetik idrokning o'ziga xos xususiyati uning hissiy asosining alohida ahamiyatidir, chunki u obyektning amaliy foydaliligiga emas, balki uning mazmuni va ichki qonunlariga qaratilgan. [7].

Obyektning tashqi xususiyatlariga qaratilgan estetik idrok keyinchalik uning o'ziga xos mazmunini aniqlashdan oldin chuqurlashadi, "ammo bu obyektning o'ziga xos hissiy shaklidan ajralmaydi, balki unda mavjud, ya'ni voqelikni estetik rivojlantirishning ikkinchi bosqichi, xuddi birinchisi kabi, obyektivdir"

Shunday qilib, estetik zavqlanish kishida mehnat ilhomini yanada jo'sh urdiradi, insonni ulug'laydi va uning turmush sharoitini bezaydi. Umuman estetik tarbiya yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan bo'lishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchining gumanitar va badiiy kompetentsiyasining asosi uning atrofdagi voqelikka (tabiat, jamiyat, san'at asarlari) va o'ziga estetik munosabatlari majmuasidir. Estetik munosabatlar tizimi nafaqat estetik ong faoliyatining natijasi, balki uning rivojlanish darajasining ko'rsatkichidir. Estetik ongning yaxlitligining namoyon bo'lishi sifatida

estetik munosabat uning hissiy va analitik jarayonlarini sintez qiladi, birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezident iShavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

2. O'.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. PEDAGOGIKA. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. 187 b.

3. O'.M.Asqarova, M. Xayitboyev, M.S.Nishonov. PEDAGOGIKA. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. 189 b.

4. Amirjanova A.Sh., Tolmacheva G.V., Timofeeva M.R. Shaxs estetik madaniyati va estetik tarbiya tizimi. Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. 2019 yil - 3-son; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=28814>

5. Bezrukova V.S. Pedagogika: darslik. Rostov / D.: Feniks, 2013. 381 p.

6. Bekhterev V.M. Psixologiya va pedagogika. Tanlangan asarlar. Moskva: Yurayt, 2019. 286 b.

7. Babanskiy Yu.K. Tanlangan pedagogik ishlar. Moskva: Pedagogika, 1989. 558 b.

8. Smirnov V.I. Ta'lim nazariyasi va metodikasi. III qism. Gumanistik ta'lim tizimlari: darslik. Nijniy Tagil: Nijniy Tagil davlat ijtimoiy-pedagogika akademiyasi, 2012. 348 p.

9. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Estetik tarbiya va rivojlanish: darslik va seminar / E.A. Dubrovskaya, S.A. Kozlova, Z.A. Gritsenko [va boshqalar] / ed. E.A. Dubrovskaya. Moskva: Yurayt, 2016. 186 b.

10. Nemenskiy B.M. San'at pedagogikasi. Moskva: Ta'lim, 2012. 272 p.

YOSHLARNING MA'NAVIY – MAFKURAVIY YUKSALISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sattarov Fozil Faxritdinovich

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jamiyatimizda yoshlar o'rtasida keng tus olayotgan deviant xulq-atvornig sodir bo'lishi, deviantlikning turlari, kelib chiqish sabablari va unga qarshi profilaktik choralar haqida so'z yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Deviant xulq-atvor, deviant xulq-atvor turlari, qonuni buzish, tarbiya, giyohvandlik, alkogalizm, anomiya, stress, social meyor

Mamlakatimizda oʻsmirlar oʻrtasida deviant xulq-atvorni bartaraf etish borasida davlat va jamoat idoralari oʻzlariga berilgan vakolat doirasida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Davlat va jamoat idoralari zimmasiga oʻsmirlar oʻrtasida axloqiy tamoyillarga mos kelmaydigan xulq-atvorning mavjud boʻlishi va keng tarqalishiga olib keluvchi omillar, sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, tarbiyasi ogʻir voyaga yetmaganlarga alohida taʼlim-tarbiya berish va shunga oʻxshash vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan. Oʻsmirlar oʻrtasida deviant xulq-atvorli vaziyatlarni oldini olish borasidagi faoliyatning vazifalari, vakolatlari, yoʻnalishlari, tamoyillari va mazmuniga qarab unda ishtirok etadigan davlat va jamoat tashkilotlarini umumiy vakolatli organlar, ixtisoslashmagan organlar, qisman ixtisoslashgan organlar, ixtisoslashgan organlar kabi turlarga klassifikatsiyalanadi.

Bugungi zamonaviy sharoitda oʻsmirlar xulq-atvori motivlarini barqarorlashtirish maqsadlarini rejalashtirish jarayonida ilgari mavjud boʻlgan andozalar, xulq-atvor, va tafakkur modellaridan quruqdan-quruq nusxa koʻchirish, baʼzi bir jozibador boʻlib koʻrinadigan xorijiy tarbiya tizimlarini oʻzlashtirib olish yaxshi natija bermaydi. Bunda zamonaviy tarbiya modellarini ishlab chiqish, oʻsmirlar hayotidagi globallashuv davri bilan bogʻliq dolzarb muammolarini echishga qaratilgan yangi, innovatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Bu jarayonda zamonaviy jarayonlarga tarbiyaviy jihatlarni moslashtirish, bu jarayonning yangi, ragʻbatlantiruvchi shakllarini, oʻsmirlarni ijtimoiy-maʼnaviy hayotga ijtimoiylashuvi va integratsiyalashuvning yangi-yangi qoidalarini yaratish boʻyicha rejali ish olib borish talab etiladi.

Oʻsmirlar xulqidagi salbiy jihatlarni oldini olishda olib boriladigan jarayonlarning zamonaviylashuvi va liberallashuvi bu voqelikda ishtirok etadigan davlat va jamoatchilik subʼektlari masʼuliyatini oshirish bilan birga, bu jarayonga doir zarur boʻladigan barcha qonun-qoidalar, koʻrsatmalarga amal qilinishiga hamjihatlikda ish olib borilishi talab qilinadi. Bu jarayonda olib boriladigan dasturiy ishlarda yangiliklar, innovatsion yondoshuvlar mustahkam joy olishi lozim. Shuning bilan birgalikda oʻsmirlarning ongiga chetdan suqilib kiradigan yot gʻoyalar, nomaʼqul-nomaqbul xatti-harakatlarga undaydigan daʼvatlarning kirib qolishiga yoʻl qoʻyilmasligi lozimdir.

Q.Quronboevning ta'kidlashicha, "Oila, maktab va mahallada barqarorlashgan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar teran tafakkurli barkamol shaxsni voyaga etkazadi[2]. Bugungi yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilishga o'rgatish, mamlakatimiz istiqboli va taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat farzand qilib tarbiyalashda ota-onalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalarining hamkorligi izchil va tizimli ravishda olib borishni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

O'smirlar o'rtasida deviant-xulq-atvorni barqarorlashtirish, ular o'rtasidagi turli huquqbuzarliklarni oldini olishda qisman ixtisoslashgan sub'ektlarga ijtimoiy xizmatlar, ta'lim-tarbiya, yoshlar, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish, nazorat-taftish va maslahat, kovorking tashkilotlari kiradi. Huquqni muhofaza qilish organlari o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning ixtisoslashgan sub'ektlari hisoblanadi. Ular huquqbuzar o'smirlar bilan to'g'ridan-to'g'ri tarbiyaviy va profilaktika ishlari olib boradi. Bular sud, prokuratura, ichki ishlar, adliya organlari va boshqa muassasalardir.

O'smirlar bilan ishlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, oila hamda fuqarolik jamiyatining boshqa bir qator institutlari ham faol ravishda shug'ullanadilar. Chunki, mazkur tashkilotlar voyaga etmaganlar bilan ishlashda jamoatchilikni jalb etish, davlat organlariga bu borada ko'makchi bo'lish borasida keng qamrovli, dasturiy ishlarni olib boradilar. Ular voyaga etmaganlar o'rtasida turli huquqbuzarliklar va nojo'ya xatti-harakatlarni olib borish holatlarini oldini olish yuzasidan manfaatdor hisoblanadi[3].

O'smirlar ijtimoiy turmush tarzini sog'lomligi bilan shug'ullanuvchi muhim institutlardan biri voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalari hisoblanadi. Voyaga etmaganlar bilan ishlashda joylardagi ijro hokimiyati organlari huzuridagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar birlamchi va muvofiqlashtiruvchi idoralar hisoblanadi. Mazkur komissiyalar voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik holatlari va huquqbuzarliklar sodir etishlariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi, o'smirlarning tegishli huquqlari va ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etadi. Ushbu komissiyalar o'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bo'yicha profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi organlar ish tajribasini umumlashtiradi va tarqatadi.

Shuningdek, mazkur idoralararo komissiya o'z faoliyatida o'smirlarning huquqbuzarlik sodir etishlari bo'yicha sababalar va shart-sharoitlarni o'rganish va tahlil etish ishlarini olib boradi, ularning ijtimoiy-huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida ustuvor yo'nalishlar, yondashuvlar, dasturiy chora-tadbirlar, loyihalar, "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqadi[4]. Shuning bilan birgalikda komissiya o'smirlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, ularning ma'naviy-axloqiy muhitida sodir bo'ladigan turli salbiy vaziyatlarni oldini olish yuzasidan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga takliflar beradi.

O'smirlarning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarini ta'minlash, ularning umuminsoniy fazilatlari, islohotlar va o'zgarishlar ko'lami bilan bog'liq voqea – hodisalarga nisbatan loqayd, befarq bo'lmasligi, o'z haq-huquqlarini poymol qilishga yo'l qo'ymaslik, jamiyatdagi illatlar va ijtimoiy muammolarga qarshi doimiy kurashi kabi uzluksiz faoliyatini tarbiyalash mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyati orqali ham namoyon bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari o'smirlarning ijtimoiy voqeliklarni teran anglab etishlari, inson jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, bu borada namoyon bo'layotgan olamshumul yangiliklarni o'z ongida tezkor tasavvur etishlarida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

O'smirlarning ma'naviy-axloqiy hayotini barqarorlashtirish, ularni ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy eihatdan qo'llab-quvvatlashda Nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni ham kattadir[5]. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'smirlarning huquqiy, ijtimoiy va ijodiy jihatdan faoliyatiga ko'maklashish, ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlari yoshlar hayotida ijtimoiy adolat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish, buning evaziga ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ta'lim, tibbiyot va ekologiya sohasidagi uchraydigan dolzarb masalalarni hal etish kabi faoliyatni tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston respublikasining qonun hujjatlari to'plami*. — 2006 yil № 6. 99-M
2. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008 yil.
3. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". nos'hir taxriri Ostida T. 2020-yil.
4. Mendeleovich V.D. "Psixologiya deviantnogo povedeniya". M.:2016-yil
5. G'.Umarov B, Akramova F. "Yos'hlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar". Toshkent.:2015 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI HARBIY
XIZMATCHILARIDA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISHNING
MA’NAVYIY-MA’RIFIY OMILLARI**

Shoyimov Ilhom Qurbonovich,

*Chirchiq Oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
Malaka oshirish fakulteti katta o‘qituvchisi,*

Isamatov Ravshan Sunnatovich,

*Chirchiq Oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
Malaka oshirish fakulteti katta o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarida vatanparvarlikni kuchaytirishning ma’naviy-ma’rifiy omillari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada qurolli kuchlari harbiy xizmatchilariga hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mamlakat, jamiyat, mafkura, ichki ishlar, tahdid, birdamlik, milliy yuksalish, maqsad, manfaat.*

Bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli avj olishi tinchlik va barqarorlikka nisbatan taxdid va xatarlarni kuchaytirib bormoqda. Ana shunday murakkab va taxlikali davrda ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy soxada amalga oshirilgan ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilariga hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida jamiyatni ulug‘vor maqsad sari birlashuvida Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarida g‘oyaviy birdamlikni ta’minlashda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirchan ma’naviy-ma’rifiy

targ'ibot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratib o'tgan edi. Bu xaqda Prezident Shavkat Mirziyoev: "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[1]. Zero, dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan tahlikali jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonida harbiy xizmatchilarini ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi O'zbekistonning tapanqiyot ctpategiyaci»ning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham «Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish»[2] asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, mamlakatimiz Qurolli kuchlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. **Bugungi kunda globallashuv sharoitda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va g'oyaviy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik va mafkuraviy immunitetni tizimli ravishda takomillashtirib borish, eng avvalo, harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik tuyg'usini, millatning urf-odat va an'analarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.** Bu haqida fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarib, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda"[3] deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va g'oyaviy kurashlar kuchayotgan bir vaqtda g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliqqa nisabat muntazam ogox bo'lishni taqoza etmoqda.

Dunyo miqyosida turli taxdidlar kuchayib borayotgan hozirgi vaqtda harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuygʻusini shakllantirish hamda yuksak axloqiy-ruhiy fazilatlarni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ayniqsa, yurtga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilish, bilim va tajribasini vatanga baxshida etuvchi yosh avlodni tarbiyalash dunyoning eng rivojlangan davlatlarda asosiy strategik vazifa sifatida eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va taʼsirchan targʻibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish, maʼnaviy-maʼrifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani oʻrganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash[4] muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv muhiti bugungi kunda gʻoyalar aniq va sogʻlom, yetuk va eʼtiqodi butun, har qanday yot gʻoyalarga qarshi kurashuvchan mafkuraviy immuniteti mustahkam haqiqiy vatanparvar harbiy xizmatchilarni tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Maʼlumki, tomirida milliy gʻurur, Vatan ishq joʻsh urgan oriyatli maʼnaviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir boʻladi.

Xalqimizning tarixi, azaliy qadriyatlari zamirida vatanparvarlik tuygʻusining nafadar ulugʻvorlik kasb etishini anglash mumkin. Buyuk sohibkiron Amir Temur oʻz saltanatini tashqi dushmanlardan himoya qilish orqali mamlakat yaxlitligi va xalqning osoyishtaligini taʼminlagan edi. Ulugʻ alloma Najmiddin Kubro oʻz mamlakatini dushmanlardan himoya qilishda shahid boʻlib, yuksak vatanparvarlik namunasini koʻrsatgan edi. Vatan tarixini bilgan, ulugʻ ajdodlar merosini chuqur oʻrgangan har bir inson qalbida milliy gʻurur va milliy iftihor tuygʻulari yanada joʻsh urib, el-yurtga, Vatanga boʻlgan sadoqati ortib boraveradi.

Millat maʼrifatining fidoiysi Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida taʼriflaydi. “Vatan. Har bir kishining tugʻulub oʻskan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tugʻulgan, oʻsgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto, bu vatan hissi-tuygʻusi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon oʻz vatanidan - uyuridan ayirilsa, oʻz yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx boʻlub, hap vaqt dilining bir goʻshasida oʻz vatanining muhabbati turar”[5].

Vatanparvarlik tuygʻusi insonda quyidagi omillarni shakllanishiga xizmat qiladi:

yurtimizga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishida;

insonlarni vatan ravnaqi va yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashga tashabbuskor bo'lishga;

vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash, unga fidoiylik bilan xizmat qilishga;

vatanning o'tmishiga oid qadriyatlarni e'zozlash, yurtimizda bugungi kundagi kishilarning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyati va ma'naviy salohiyatni avlodlarga yetkazishga; vatan uchun jonini fido qilgan shaxslarni xotirasini doimo yod saqlashga kishilarni ilhomlantiradi. Zero, vatanga munosib fuqaro bo'lish insonda mas'uliyatni oshirib, unda milliy uyg'onish ruhiyati kuchayadi. Tarix kishilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur va iftixor yo'lida tarbiyalab, ularda Vatanni sevib, unga sadoqat bilan xizmat qilish fazilatlarini ruyobga chiqaradi. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, milliy mahdudlik o'rnini milliylik g'oyalari vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega bo'lgan insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat va Vatan sha'ni va manfaatlarini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi. Harbiy xizmatchilarni Vatanparvarlik ruhida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash masalalarida quyidagi jihatlarga jiddiy e'tibor berish lozim:

- harbiy xizmatchilarni ma'naviy-ma'rifiy va bilim darajasini kuchaytirish orqali ularning aql-zakovatining mukammal sohibiga aylantirish;

-o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk jahoniy e'tirofga sazovar bo'lgan siymolarining ijodiy merosini puxta o'rganish orqali mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi;

-o'z xizmat faoliyatida mas'uliyatli bo'lish, mamlakat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish va ularga xolisona baho bera olishi;

-bugungi globallashuv sharoitida ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining yangiliklari va yutuqlaridan muntazam xabardor bo'lish, chuqur va puxta bilimni egallash, o'z ustida mustaqil ishlashi, ijodiy izlanishi rahbariyat tomonidan talab etiladigan ishlarni amalga oshirishning uddasidan chiqa olish. Bu kabi mas'uliyatli vazifalarning amalga oshirilishi natijasida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ma'lumki, har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatda o'zining

milliy g'oya va qadriyatlariga bo'lgan munosabati, uning ishonch va e'tiqodiga aylanishi bilan ham bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: "Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi"[6] , - deya ta'kidlashi ayni haqiqatdir. Binobarin, Vatan sha'ni, millat or-nomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurol vazifasini o'tashini bugungi davr va zamon taqoza etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Shavkat Mirziyoev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir* https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni.* <https://lex.uz/docs/5841063>

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.* <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-urolli-kuchlari-tashkil-etilganining--13-01-2017>

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori.* <https://yuz.uz/news/manaviy-marifiy-ishlar-tizimini-tubdan-takomillashtirish--chora-tadbirlari-tog'risida>

5. A.Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* Toshkent, "O'qituvchi", 1992. –B 28.

6. *Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.* <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>

AXBOROT TIZIMI RIVOJILANISHI SHAROITIDA MAFKURAVIY JARAYONLARNING TRANSFORMATSIYASI

Sultanov Javlon Djurayevich,
*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot sohasi va tizimi rivojilanishi sharoitida mafkuraviy jarayonlarning transformatsiyasi va tendensiyalarining namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalar mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi ilmiy asoslantirilgan. Globallashuv jarayoni birinchi navbatda mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi uchun zamin yaratishi va jamiyatda mafkuralar almashinuvi ro'y berishi asoslantirilgan.*

***Kalit so'zlar.** axborot, axborot makonitizim, mafkuraviy jarayon, transformatsiya, tendensiya, globallashuv, jamiyat, mafkuralar almashinuvi*

Axborot sohasi va tizimining yuqori sur'atlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin o'zgarishlarning yuz berishiga sabab bo'lib, insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Inson axborot yordamida, nafaqat, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, balki jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta'sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Globallashuv jarayonlari bir tomondan ishonchli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojni ortib borishiga olib kelayotgan bo'lsa, boshqa tomondan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimni mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday vaziyatda eng avvalo, axborotni olish, tarqatish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish ushbu sohadagi muvaffaqiyatning birinchi garovi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu jarayon davlatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga kirib, o'zaro munosabatlarda bir-biriga nisbatan bog'liqlik holatlarini kuchaytirmoqda. Shu bois ham, axborot davlatning milliy boyligi, xalqaro maydonda esa strategik resursga aylanib bormoqda.

Davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdidlar negizida axborot katta ta'sir kuchiga ega. Shu sababli, dunyoda kuzatilayotgan global ijtimoiy o'zgarishlar har tomonlama chuqur tahlilni va axborot sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Xususan, axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalar mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Hatto axborot oqimlari nazorati kuchli bo'lgan davlatlarda ham bugungi kunda axborotni nazorat qilish osonlikcha amalga oshirilmayotganligini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda destruktiv axborot xurujlarining ortishi, ularning davlat milliy xavfsizligiga ta'sirini kuchayib borayotganligi axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini chuqurroq o'rganish, global tarmoq yordamida uyushtirilayotgan axborot xurujlarini vaqtida aniqlash, ularni oldini olish choralari ko'rish dolzarb vaziflardan biri hisoblanadi. Dunyo axborot olamidagi o'zgarishlar davlatimizda axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalardan himoyalaniish masalasini qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda [2].

Axborot va axborot texnologiyalari asri sifatida e'tirof etilayotgan ayni davrda milliy o'zlikni saqlab qolish, davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini tiklash bilan bir qatorda global axborot maydonida o'zining manfaatlarini himoya qilish, chetdan sodir etilayotgan axborot xurujlariga qarshi tura olish, bir so'z bilan aytganda axborot xavfsizligining qay darajada ta'minlangani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qarashda ushbu muammolarning xatarli yoki qo'rqinchli tomoni yo'qdek tuyuladi. Biroq, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalash nuqtai-nazaridan axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalarni oldini olish, ularning manbalarini doimiy monitoring qilish talab etiladi. Jahon axborot bozorining tobora kengayib borayotganligi, axborot makonining shiddat bilan rivojlanayotganligi davr taraqqiyotining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq, aynan, dunyo miqyosida keng ko'lamda axborot maydonining shakllanishi hamda axborotning intellektual mulk sifatidagi qiymatining ortib borishi axborotga egalik qilish uchun intilishning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Axborot makonida ro'y berayotgan tendensiyalarning shiddat bilan rivojlanishi esa insonning ularga nisbatan tobeligini orttirmoqda.

Shiddatkor globallashuv davrida voqelik hech nima, aloqa (axborot) esa hamma narsadan ustun, sivilizatsiyalarning taqdiri axborot yetkazib berish tezligiga bog'liq hisoblanadi. O'z vaqtida axborotga ega bo'lgan, unga ta'sir qilish imkonini topgan davlat, jamiyat hammadan ham qudratlidir.

Bugun asosiy kurash maydoni hisoblanadigan axborot makonida asosiy maqsad inson ongini egallash ekanligi bejizga e'tirof etilayotgani yo'q. Bu e'tirof axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalarga qarshi tura

olishning ahamiyatini hamda jamiyat, davlat manfaatlarining ko'p jihatdan axborot sohasida milliy xavfsizlikni insonlar ta'minlashi masalalari bilan bog'liqligini yanada dolzarblashtiradi.

Har bir davlatning axborot sohasi va tizimi shaxs, jamiyat, davlatning manfaatlaridan kelib chiqib, konstitusiyaviy tuzumiga qarshi bo'lgan g'oyalardan, mafkuraviy jarayonlardan, millatlararo va diniy konfessional munosabatlaridan, ma'naviy va turli ko'rinishdagi harakatlardan qonuniy ravishda himoyalangan bo'lishi lozim [3].

Jamiyatning axborot muhiti deganda, inson hayotining axborotni yaratish, o'zgartirish va iste'mol qilish bilan bog'liq sohasi tushuniladi. Axborot muhiti insonga bevosita yoki bilvosita, bevosita yoki masofadan ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar majmui bilan tavsiflanadi.

Axborot sohasi va tizimi rivojlanishi sharoitida mafkuraviy jarayonlarning transformatsiyasi va tendensiyalari namoyon bo'ladi. YA'ni, axborot ta'siri psixologik tabiatga ega bo'lib, inson ruhiyatiga ta'sir qiladi va "shaxs harakatlarining psixologik xususiyatlari, holatlari va shakllari"ni o'zgartirish orqali samaraga erishadi.

"Transformatsiya"ning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, transformatsiya [lot. *transformatio* –qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish (genetikada)] –hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishi; prokriotlarda genetik material almashinish usullaridan biri . Ushbu tushunchalardan ma'lumki transformatsiya tushunchasi bu birinchi navbatda genetik va biologik tushuncha sifatida fanga kirgan. Axborotlashgan jamiyatda axborotning keng ko'lamda ishlatishi, unga talabning keskin oshishi barchaning global axborot makoniga birlashuviga olib keladi. Ushbu birlashuv o'z navbatida jamiyat hayotini, xususan mafkuraviy jarayonlarni o'zgartiradi. Mana shu o'rinda transformatsiya termini ishlatish bizningcha ma'qul. Xususan, mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi bu –inqilob yoki katta o'zgarish emas. Bu mavjud mafkuraning boshqa bir mafkurani ko'rinmas unsurlari natijasida muntazam o'zgarib borishi jarayoni hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu tushuncha genetik, biologik tushuncha hisoblanib, ma'lum bir virusni organizmga kirib ichidan ushbu organizmni o'zgartiradi. Lekin, tashqarida ushbu o'zgarish sezilmaydi. Globallashuv jarayonlari birinchi navbatda madaniy jarayonlar transformatsiyasi uchun zamin yaratadi va jamiyatda mafkuralar almashinuvi ro'y bera boshlaydi.

Mafkuraviy jarayon tushunchasi o'zida ilm-fan, ma'naviyatni aks ettiradi. Ushbu jarayonda milliy qadriyat va milliy-ma'naviy merosni

yuksaltirish orqali madaniyatni aslligini, milliy o'ziga xosligini saqlab qolish imkoni bo'ladi. Globallashuv va transformatsiya jarayonlari mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda. Ta'kidlash lozimki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning intensivlashuvi bilan bevosita bog'liq holatda yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi. Bu -ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichidir va uning paydo bo'lishi fan-texnika yutuqlari tufayligina mumkin bo'ldi. U inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'layotgan ko'pdan-ko'p teran o'zgarishlardan tarkib topadi. Mazkur o'zgarishlar o'zida madaniy jarayonlar transformatsiyasini aks ettiradi. Madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi nazariy asoslariga murojaat qiladigan bo'lsak, madaniy jarayonlar transformatsiyasi jarayonlari – birinchi navbatda jamiyatning ma'naviy sohasini buzib tashlashga yo'naltirilgan degan fikrni ilgari surmoqchimiz. Chunki milliy ma'naviy tafakkur, milliy ma'naviy salohiyat jamiyat taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biridir. Mana shunday mafkuraviy xurujlar harakatida bo'lgan ayrim rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari, axborot va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositalari orqali keng ko'lamdagi geosiyosat yuritish bilangina cheklanmay, o'z xalqining milliy tabiati, madaniy jarayonlariga, mafkurasiga xos jihatlarni muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ongu shuuriga singdirishga intilmoqdalar. Bu hol ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar xalqining milliy o'zligi, madaniyatining vorisiylik an'analari hamda mentalitetiga putur yetkazishi turgan gap. Milliy mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganligidan keyin jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinliginie'tiborga olishimiz shart [4].

Tadqiqotchilar fikricha, hozirgi kunda insonning axborot muhitini soxta va zararli ma'lumotlar bilan to'ldiruvchi ortiqcha va yolg'on ma'lumotlardan himoya qilish, ushbu manbalarning mafkuraviy jarayonlarga ta'sirni kamaytirish muammolari yuzaga kelmoqda .

Zamonaviy axborot muhiti shaxs ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish uchun katta salohiyatga ega. Manipulyatsiya insonga salbiy axborot ta'siri ko'rsatish shakllaridan biri hisoblanadi. Manipulyatsiya ta'siri ko'rsatish

uchun nishon deganda, o'zgartirilishi manipulyatsiyani amalga oshiruvchi (manipulyator)ning maqsadiga erishishini ta'minlaydigan ruhiy tuzilmalar tushuniladi. Insonning ongi, uning dunyoni ko'rishi, dunyoqarashi, voqelikka munosabatlari tizimi shunday nishon-tuzilmalar hisoblanadi. Obyektning holatida va ruhiyati xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berishi esa ta'sir ko'rsatish natijasi hisoblanadi.

Axborot makonida ro'y berayotgan o'zgarishlar yer yuzida mafkuraviy jarayonlar avj olishiga olib kelib, ana shu jarayonlarning kaysi tomonga karab harakatlanishi muayyan mamlakatlardagi axolining mafkuraviy jipsligiga bog'liq bo'lib kolmoqda. Uning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarining namoyon bo'lishi ham milliy mafkuralarning usha mamlakat axolisi ongiga singdirilishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021 y. -B. 270.*
2. *Ochilidiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: "Muharrir", - 2009. -B.6*
3. *Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya - taraqqiyot strategiyasi. - T.: "Fan", -2017. -B.320.*
4. *Yuldasheva M.M. Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo'lish ining xususiyatlari va ularning oldini olish yullari: Fals. fan nomz. diss. ... T.2010.*

AXLOQ ME'YORLARI HAMDA MILLIY QADRIYATLAR ALMASHINUVI VA ULARNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Oqilov Ahrorjon Bahromjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi

To'rayev Laziz Abdivali o'g'li

TDSHU bo'lim boshlig'i, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqola globallashuv jarayonida axloq mezonlarining ahamiyati va yoshlar tafakkuridagi o'rnini yoritish masalalariga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, axloqiy mezonlar, qadriyatlar, glaballashuv, transformatsiya.*

***Endi hamma rahbarlar yoshlarning ovozini eshitadi,
talablarini amalga oshiradi.***
SHAVKAT MIRZIYOYEV

Inson biopsixosotsial mavjudot hisoblanadi. Insondagi tiriklik va ruhiyat hamda uning atrof muhit bilan muomalasi har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Biz ijtimoiy axloq tushunchasiga to'xtalishdan oldin ijtimoiy va axloq so'zlarining ma'nosini keltirib o'tish lozim.

Ijtimoiy so'zining o'zagi arabcha *jamo*a hisoblanadi. Jamoa so'zi to'plangan, jamlangan ma'nolarini ifoda qiladi. Ikki va undan ortiq insonlarning birikuvi o'z-o'zidan jamoani hosil qiladi. Ijtimoiy so'zi esa shu jamoaga xos degan ma'noni bildirib, bir jamoaning boshqasi bilan birlashtiruvchi va ajratuvchi xususiyatlarni jamlaganligini bildiradi.

Axloq so'zi arabcha xulq so'zining ko'plik shakli hisoblanadi. Xulq bu kichik guruhlar, masalan, oila, qarindoshlar kabi tor doiradagi sifatlarga nisbatan qo'llanilsa, axloq insonning keng jamoatchilik, mahalla, maktab, oliygoh kabi joylarda aksar odamlar bilan muloqotdagi munosabatlarning xususiyatiga ishlatiladi. Axloq ilmiy jihatdan etika fanida o'rganiladi.

Muayyan me'yorlar, andozalar, bilim va qadriyatlar majmuasi jamiyatni barqarorligini ta'minlashga yaqindan yordam beradigan tushunchalar hisoblanadi.

Har qaysi jamiyatda insonlar amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlar va ko'rsatmalar mavjud. Agarki, insonlar mana shunday me'yorlar va ko'rsatmalarga amal qilib, rioa etib yashasalar, faoliyatlarini amalga oshirsalar jamiyat bir tekisda rivojlanishda davom etadi.

Jamiyat tomonidan o'zaro munosabatlarda qabul qilingan normalar, rag'batlantirishlar va sanksiyalar umumiy qilib ustanovkalar deb yuritiladi. Biz bularni yana boshqacha qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiy axloq mezonlari deb atashimiz mumkin.

Qadriyat-voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan ijtimoiy-falsafiy va aksiologik tushuncha.[1] Qadriyat tushunchasining asosi qadr so'zi bo'lib, u bir inson yoki jamoa tomonidan e'tirof etilgan, tan olingan va asrab avaylanadigan ma'naviy va moddiy boyliklar majmuasidir. Qadriyatlar aksiologiya fanining predmeti vazifasini bajaradi.

Umuman qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuini tushunamiz.

Shuning uchun ham xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganish, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirish, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Mazkur maqolada berilgan fikr va takliflar ayni vaqtida aytilganligini ta'kidlash zarur. Undagi takliflarni amalga oshirish orqali jamiyatni yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bu turli xil ommaviy axborot vositalari-internet saytlari, messenjerlar orqali yoshlarning ongiga singdirilayotgan turli xil buzg'unchi g'oyalar va ta'sirlardan milliy, axloqiy qadriyatlarimizga tayangan holda himoyalanişdir. Shu bilan birgalikda o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkurida ajdodlarning xotirasiga mehr va ularga izdoshlik ruhini shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir.

Buning uchun mamlakatimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yoshlar soni 2022-yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra 9 mln 685 mingdan ziyodni tashkil qilmoqda. Bu adad O'zbekiston aholisiga nisbatan hisoblanganda taqriban mamlakat aholisining uchdan bir qismiga teng bo'ladi. Shu hisob-kitoblarning o'zi ham yoshlar davlatning eng muhim qismi ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi.[2] Bu Qonun mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish va ularning ilmiy va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun keng shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan. Qonunning asosiy prinsiplarining uchinchi - ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi hisoblanadi.

Shuningdek, bu Qonunning yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan bo'lib, asosiy yo'nalishlarning to'rtinchisi yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish hisoblanadi. Bu boradagi ishlar samarasi o'laroq O'zMTRKda "Mahalla", "Madaniyat va Ma'rifat", "O'zbekiston tarixi" telekanallari ish boshladi.

Aholimizning dunyoqarashi va yoshlarimizning bugungi kundagi xohish-istaklarini inobatga olgan holda respublikamiz hududida mahallabay kesimida yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish uchun turli xil to'garaklar, sport musobaqalari tashkil etilmoqda. 2022-yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra respublikamizda 52417 ta sport majmuasi faoliyat

ko'rsatyotganligi haqida ma'lumot berilgan.[3] Bu orqali yoshlarning bo'sh vaqtlari samarali tashkil etilmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida maxsus dastur 2018-yilda "Harakatlar strategiyasiga" muvofiq ravishda ishlab chiqildi. Dasturdagi vazifalar to'rt bosqichdan iborat bo'lib yosh kesimida taqsimlab chiqilgan. Dasturning maqsadi yoshlarni vatandan uzoqlashishdan asrash va ularda vatanparvarlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Yosh ilmiy xodimlar faoliyatini yoritish uchun "Yosh tadqiqotchi" jurnali va "Yoshlar kengashi" faoliyat yuritmoqda. Bu kengash faoliyatida yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratish, ulardan yetishib chiqayotgan iste'dodli va malakali kadrlarni tayyorlashga diqqat qaratadi.

Yuqorida ta'kidlangan islohotlardan yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish, turli yot g'oyalardan ogoh etish va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat paydo qilish ko'zda tutilgan.

Taklif va mulohazalar

Birinchi, yoshlar uchun bo'sh ish o'rinlari sonini keskin ko'paytirish zarur deb hisoblayman. O'zbekistonda 2022-yilning 1-yanvardagi hisob kitobga ko'ra ishsizlik ko'rsatkichi mehnatga layoqatli qatlamga nisbatan 9.6 foizni tashkil etgan. Bu 16-30 yoshlilar orasida tegishli 15.1 foizni tashkil etgan.[4] Bu muammoning yechimi sifatida erkin tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlar o'rtasida online kasblar masalan IT mutaxasisi, online buxgalteriya kabi faoliyat turlarini kengaytirish zarur.

Ikkinchi, yoshlarning kitob mutolaasi uchun hududlarda kutubxonalar sonini oshirish zarur. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kutubxonalar va axborot resurs markazlarining soni 2000 yilda 6027 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 400 dona qolgan.[5]. Shuningdek imkoniyati cheklangan yoshlar ko'zi ojizlar va boshqa jismoniy nuqsonga ega kishilar uchun qadriyatlarimiz va milliy merosimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladigan kitoblarning Brayl alifbosi va audio shaklidagi versiyalari hajmini ko'paytirish lozim.

Uchinchi, yoshlarning ilmiy mehnatlarini munosib qadrlagan holda, maktabda yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ichki, oliy ta'limda tahsil olayotgan namunali talabalar uchun tashqi turistik sayohatlar uchun qo'shimcha mablag' ajratilishi zarur.

To'rtinchi, madaniy meroslarimiz va qadriyatlarimizni rivojlantirishga xizmat qiladigan, milliyligimizga yo'naltirilgan holda global ilovalarni yangi variantlarini ishlab chiqish va uni ommalashtirish zarur.

Beshinchi, yoshlardagi alkagol iste'moli va tamaki mahsulotlarining narxini ko'tarish va xarid yoshini yuqoriroq qilish hamda buni qat'iy nazoratga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Falsafa qomusiy lug'at. T.: "Sharq" NMAK-2004.*
2. <https://lex.uz/docs/-3026246>
3. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26270-respublikamizda-52-417-ta-sport-inshootlari-mavjud>
4. <https://mehnat.uz/oz/news/ozbekistonda-ishsizlik-darajasi-96-foizni-tashkil-etdi>
5. <https://kun.uz/uz/news/2021/10/27/kutubxonalar-yoppasiga-yopilgan-ilm-maskanlari>

BUGUNGI GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT XURUJLARIDAN HIMOYALASH

Axmatova Durdona Daniyar kizi
Bektemirova Zuxra Omonjon qizi
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
4-bosqich talabalari

Annotatsiya. *Maqolada bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongu tafakkurini o'zgartirishga qodir bo'lgan turli axborot xurujlarining, g'oyalarning tobora chuqurlashib borayotganligi va uni oldini olishga qaratilgan ba'zi masalalarga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, madaniyat, axborot, ijtimoiy turmush, submadaniyat, depressiya, modernizatsiya, ta'lim.*

Globallashuv insoniyat tarixi qadar uzoq tarixga ega bo'lib, tarixning barcha formatsiyalari yoki bosqichlarida uning elementlari kuzatiladi. Biroq, o'tgan XX asrning ikkinchi yarmida bu jarayon sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, G'arb va Sharq madaniyatida tafovutlar ko'lami kengaydi. Telegraf, telefon aloqalari, televizion axborotlar uzatish ko'laminin g'engayishi, axborot uzatish erkinligining paydo bo'lishi ijtimoiy turmushda o'zining zararli oqibatlariga olib keluvchi axborotlarning paydo bo'lishidagi asosiy vositalar sifatida maydonga chiqdi. Bular oqibatida millatlar va

millatlarning turmush tarzi hamda madaniyatlarida ham tafovutlar o'sib bordi. Ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillarida "Rok" va "Pop" musiqa guruhlari, 90-yillarda "Roker" (mototsiklchilar) va "Metalistlar", asr oxirida yoki 2000 - yillarda "Taqirboshlar" kabi fashistik guruhlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu dunyoning turli mintaqalarida ayovsiz tajovuzkorlikga, narkomaniya, suitsid, ya'ni o'z joniga qasd qilish holatlarining o'sishiga, ularda egoistik va gedonistik tafakkur hamda intilishlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Gedonizm: (grekcha: hedone-lazzatlanish, aysh-ishrat) hayotdan maksimal darajada lazzatlanishga qaratilgan individual harakat bo'lib, uning belgilari qadimgi grek kirenaik maktablarida namoyon bo'lgan. Gedonizmni nemis faylasufi Immanuil Kant ruhiyatdagi asosiy o'zgarish emasligini qayd etadi va uni inkor qiladi. Utilitarizm esa, uni depressiyalardan chalg'ish uchun lazzatlanish sifatida baholaydi. Xulosa qilib aytganda, gedonizm axloqiy egoizm uchun zamin yaratadi.

XXI asrga kelib esa, emo-sub madaniyati (ing. emo: emotional-emotsional) yoshlar sub madaniyati, emo-kidlar (kid-yosh yigit) yoki emogyorl (ing. girl-qiz) lar paydo bo'ldi. Masalan, 2000 - yilda Rossiyada emo-sub madaniyat g'arb pop (musiqa) madaniyati ta'sirida paydo bo'lib, uning asosiy motivi o'z joniga qasd qilishga qaratiladi. Shu boisdan bu masala Rossiyada 2008 - yil 2 - iyunda Davlat dumasida davlat siyosati konsepsiyasiga zid targ'ibot bilan bog'liq muammo sifatida ko'tarilgan edi. Yoshlarning kompyuter va boshqa axborot tarqatish vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish va bunda o'quvchining axborot tanlashidao'qituvchi eng birinchi ko'makchi bo'lishi lozim. Ularga elektron o'quv darsliklari bo'yicha etarli ta'minotni yaratish va o'quv-ta'lim tizimini modernizatsiya qilish barobarida texnik uskunalarga dasturiy xizmat qilishni rivojlantirish shart bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarga doimiy metodik xizmat ko'rsatib borish tizimini modernizatsiya qilish asosida ularni respublikada milliy alifbo va tildagi dasturlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlab borish zarur bo'ladi. Chunki, bu dasturlar o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ustoz-shogird ta'lim olish usulining barqarorlashuvini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning dars mashg'ulotlari davomida yoki darsdan bo'sh vaqtlarida ularni internet tarmog'idan so'nggi axborotlarni olishlariga to'g'ri yo'naltirishda nafaqat informatika, balki boshqa barcha fanlar o'qituvchilarning ham ishtiroki ta'minlash zarur. Jumladan, adabiyot, tarix, geografiya, biologiya, kimyo, fizika fanlari o'qituvchilarining o'zlari dars mashg'ulotlari davomida internetinternet tarmog'idagi saytlardan o'tilgan

mavzuni mustahkamlash uchun foydalanishlari, har darsda ular tomonidan o'quvchilarga saytlar tavsiya etilib, ularning nomlari va manzillari yozdirilib borilishi, ovozli multimediya va animatsiyali darslar taqdimotlarini o'tkazishda va o'quvchining bilimini boyituvchi va mustahkamlovchi axborotlar bilan ta'minlashda kollegial usuldan foydalanishlari lozim. Kollegial usul hozirgi maktab, kollej o'qituvchilarining mustaqil malaka oshirishlarini ta'minlaydi. O'qituvchilarning o'zaro yoki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilim berish va o'zlashtirishdagi maqsadlarini umumlashtiradi.

O'qituvchilar malakasini oshirishda masofaviy qo'shimcha ta'limning rolini kuchaytirish orqali ular o'z ustida davomli ishlashlarini rag'batlantirish tizimini kuchaytirish zaruriyati yuzaga keladi. Jumladan bugungi kunda maktab direktori fondi, tadbirkorlik va homiylik moliya resurslari hisobidan ustama rag'batlantirish respublikada keng yo'lga qo'yilgan. Biroq, o'quvchilarni zamonaviy bilimlar va axborotlar bilan ta'minlovchi o'qituvchilar toifasini oshirish kriteriyalarini qayta ishlab chiqish va rag'batlantirish ishlarining nazorat tizimini yaratish zarur.

Masalan, bugungi maktab o'quvchilari ertaga kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy o'quv yurtlari talabalariga aylanadi, kelgusida iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning turli sohalarida qaltisliklar hamda yuzaga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolardan chiqib keta olishda immunitetni tarbiyalash lozim bo'ladi. Talaba yoshlarning ijobiy ma'lumotlarni o'zlashtirishlarida nafaqat o'qituvchi, balki birinchi navbatda ota-onalar va jamoatchilikning ishtiroki ham muhimdir.

Shuningdek, o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyasida maktab-oila-mahalla tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtini nazorat qilish, fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda jamoaviy ta'sir va kollegial usullaridan keng foydalanilgan holda, suhbatlar, kechalar uyushtirish orqali namunaviy bilimli va yaxshi xulqli o'quvchilarga boshqa o'quvchilarning ergashishi va ibrat namunalarini o'zlashtirish uchun zamin yaratish, bir so'z bilan aytganda ibrat va yaxshi xulqli bolalarga biriktirish usulidan keng foydalanish lozim bo'ladi.

Yoshlarni milliy axloqqa zid axborotlardan himoyalashdagi hamkorlik ko'lamida maktab, oila va jamoatchilik etakchilik qiladi. Maktabda maktab ma'naviyat va ma'rifat xodimlari, Yoshlar ittifoqi etakchilari va fan o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning etakchi kuchlaridir. Ota-onalar qo'mitasi maktab va oilani, mahalla, oila va jamoatchilikni bog'lab turadi. Yoshlarning axborot olishlarida ommaviy muammolar yuzaga kelganda tadbirkorlar

palatasi, ichki ishlar organlari va prokuratura xodimlari aralashuvida muammolar bartaraf etilishiga ko‘maklashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Kant I. Kritika chistogo razuma. -M.: ACT, Neoclassic, 2022.*
2. *Karimov I. Yuksak ma‘naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma‘naviyat, 2008.*
3. *Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -T.: O‘zbekiston, 2017.*

MUNDARIJA

№	Muallif, maqola mavzusi	
I. TA'LIM VA TARBIYA: MAKTABGACHA, MAKTAB VA OLIY TA'LIM TIZIMLARIDAGI YANGI IMKONIYATLAR		
1.	G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish masalalari.	3
2.	O'.N. Sultonova Ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli – ta'limda yuqori samaradorlik garovidir	8
3.	Ziyoda G'afforova Navoiy asarlaridagi ayollar timsolida komillik talqini	15
4.	Samatov Dilshodbek Toxirjonovich Zamonaviy oliy ta'limda falasafa fanini o'qitishning dolzarbligi va zarurati	20
5.	Narzieva Mastura Sog'lom oila- sog'lom tarbiya ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'limiy imkoniyatlar manbai	24
6.	Mahsudjonov Otabek Zokirjon o'g'li Shaxs ijtimoiy qarashlarining shakllanishi jarayonida ijtimoiy mentalitet va tarbiya mutanosibliigi	29
7.	Karimova Mavlyuda Madaminovna Yoshlar ongiga moddiy madaniyatimiz - milliy cholg'ular merosini singdirish	35
8.	Ubaydullaev Shuxrat Narzullaevich Yangi O'zbekiston sharoitida shaxs tarbiyasi va ajdodlar merosi	41
9.	Safarov Firuz Sulaymonovich Boshlang'ich ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	46
10.	Abduvaliyev Ulug'bek Shavkat O'g'li Tarbiya – bebaxo ne'mat isaev sardor alisherovich,	51
11.	Toshboltayev Faxriddin O'rinboyevich Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	56
12.	Toshkanov Nurbek Bahriddinovich Ta'lim va tarbiyaning barcha ta'lim bosqichlarida uzviyligini ta'minlash – muhim masala	62
13.	B.M.Yalgashev O'zbekistonda maktabgacha va maktab ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni takomillashtirish istiqbollari	69
14.	Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li Ta'lim sohasi samaradorligini oshirishda psixologik-pedagogik yondashuvlar	73
15.	Ahmedova O'g'ilhon Nomozovna "Tarbiya" fanining joriy etilish ma'naviy tarbiya strategiyasining vositasi sifatida	78
16.	Xaitov Bahodir Tursunovich Yoshlar va oliy ta'lim islohotlari	82
17.	G.To'rayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarda akmeologik qobiliyatni tarkib toptirish	90
18.	Sotiboldiyev G'ayratjon Otamirzayevich Internet texnologiyalarining masofaviy ta'limni joriy etishdagi roli: muammo va yechimlar	95
19.	To'rayeva Sayyora Sattorovna "Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar"	99

20.	Egamova Anbarjon Atanazarovna Texnologiya fani o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari va tarkibiy qismlari	105
21.	Axmedov Akmal Yusufovich Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o'rganilganligi	111
22.	Amirov Nurbek Ta'lim sohasidagi islohotlar: muammolar va yechimlar	119
23.	Qulmatov Norqobil Eshmamatovich Yangi O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni ma'rifatli qilib tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari	124
24.	Najimova Dilnavoz Bolalar adabiyoti ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtiruvchi vosita sifatida	128
25.	Toshpulatova Kamola Xurshed, qizi Alikulov Abdumo'min Ismatovich Maktab o'quvchilarida ma'naviy - ma'rifiy tarbiyani shakllantirishda buyuk siymolar obrazidan foydalanish	132
II.TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOY-MA'NAVY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISH METODIKASI HAMDA TARG'IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI		
26.	Nabiyev Farxod Xamidovich Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samardorligini oshirishda "halollik vaksinasi"ning o'rni	137
27.	Xudayberdiyev Oybek Gafurovich Umumta'lim maktabi o'quvchilarida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning refleksiv modeli	142
28.	Садыкова К.А Формирование экологической культуры подрастающего поколения при выполнении внеклассной работы на уроках биологии	147
29.	Abbasov Behzod Baxtiyorovich O'quvchilarda altruistik fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili	152
30.	Yorqulov Hakimbek Otaqulovich O'zbekiston sanoatlashishidagi yetishmayotgan bo'g'in	157
31.	Tilloyeva Shahlo, Aminjonova Charosxon, Asrorov Akmal Chiniqqan talaba qizlarimizni qo'llab-quvvatlash - sog'lom kelajagimiz garovidir	160
32.	Karimova M.A, Khodjaeva G.A Fan etikasi: olimning axloqi va mas'uliyati	166
33.	Xalikov Yuldosh, Soriyev Xolmurod Harbiy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi samarali targ'ibotda ofitser-o'qituvchi (komandir)lar o'rni va roli	172
34.	Boyzaqova Umida Ashirali qizi Innovatsion texnologiyalar vositasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	178
35.	Усманов Алишер Шарафиддинович Роль и значение физической подготовки в образовательных учреждениях мвд в процессе формирования патриотизма у курсантов	182
36.	Raximov Minhojiddin Ta'limning turli bosqichlarida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etish yo'llari	188

37.	Janonova Sitora Berdinazarovna Ta'lim va tarbiya maskanlarida yosh kadrlarni tayyorlashda kompetentlikni takomillashtirish	192
38.	Maxmudova Feruza Haliljanovna Ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy ko'nikmasini shakllantirishda axloqiy madaniyatni tarbiyalash muammolari	196
39.	Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalalari (<i>talabalardan iborat folklor-etnografik jamolarni tashkil etish uslublari misolida</i>)	199
40.	Bo'stonov Abduqahhor Sodiqovich Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlar tarbiyasining dolzarb vazifalari	204
41.	Mirzaeva Feruza Salimovna Ta'lim tizimida inson resurslarining o'rni	208
42.	Sirojov Qilichbek Ochilovich O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar	212
43.	Yusupov Bekzod Ergashevich Oliy ta'limda kognitiv faoliyatni takomillashtirishda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi	216
44.	Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich Komil insonni tarbiyalashda ta'lim-tarbiya va ilm-ma'rifatning o'rni haqida buyuk ajdodlarimiz qarashlari	219
45.	Mamadaliyev Muzaffar Umarovich Talaba yoshlar ijtimoiy ma'naviy kamolotida falsafiy bilimlarning ahamiyati	224
46.	Kayumova Mexribonu Sheraliyevna Ta'lim muassasalarida korporativ madaniyatni shakllanish sxemasi va modeli	228
47.	Raximberganova Bonu Davlatnazarovna Pedagoglar mehnatini huquqiy tartibga solish –ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning asosi sifatida	235
48.	Sohibjonov Zohidjon Sohijon o'g'li Globallashtirish jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri	240
49.	Fayzullayev Abror Faxriddin "Ta'lim muassasalarida o'qitishning yangi texnologiyalari"	243
50.	Холбаева Дилором Дусияровна Ташева Дилором Салимовна Характеристика основных компонентов учебных комплексов как составляющей части процесса обучения русскому языку	247
51.	Тлеумуратова Нуржамал Махсетовна Развитие креативного мышления на уроках истории	251
52.	Аллаярова Дильфуза Кличевна Значение использования интерактивных методов в развитии самостоятельного мышления учащихся	256
53.	Usmonova Moxiraxon Maxammadjon qizi Talabalarning ijtimoiy faolliklarini shakllantirishning pedagogik- psixologik imkoniyatlari	259
54.	Yuldasheva Nilufar Abdullayevna Uzluksiz adabiy ta'lim – ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning asosi	263
55.	Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna Ta'lim muassasalarida ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari	270

III. TA'LIMNI TURLI BOSQICHLARIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEZONLARI		
56.	A.Sultonov Tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishning konseptual asoslari	278
57.	Rajapov Pirnazar Sardor o'g'li O'rta asrlarga oid vizantiya, arman va suryoniy manbalarida saljuqiylar davri tarixining yoritilishi	280
58.	Absalamova Gulmira Sharifovna Oila va farzand tarbiyasi mutafakkirlar nigohida mo'ydinov aslbek ma'rifatli jamiyat qurishda inson sensualistik qarashlarining zarurati	283
59.	Mo'ydinov Aslbek Ma'rifatli jamiyat qurishda inson sensualistik qarashlarining zarurati	288
60.	Севара Асанбаевна Курбанова Восточная философия о современном образовании	293
61.	Suyunov Asror G'ulomovich Yangi O'zbekistonda tarix o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi – ijtimoiy va ta'limiy muhitni rivojlantirish omili sifatida	296
62.	Abdiyev G'ayrat Ergashevich Siyosiy ong tushunchasining falsafiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi	301
63.	Ro'zmetova Zuxra Kurbondurdiyevna Ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etish	304
64.	Baqoeva Mubina Ibodilloevna Ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs tarbiyasining zamonaviy mezonlari	308
65.	Abdullayeva Madina, Raupova Mushtariy Yoshlar ma'naviy kamolotida ilmiy yondashuvlarning amaliy ahamiyati	312
66.	Mavlonov Feruz Oblakulovich Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi	316
67.	To'ychiyev Tohirjon Sahodillayevich Nurli maskan maktab internati tahsil oluvchi dzyudo kurashchilarni jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari	320
68.	Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarning rivoji va takomillashuvi	330
69.	Jalilov Baxtiyor Norqulovich Ma'naviyat va milliy qadriyalarning yoshlar ongiga ta'siri	333
70.	Rasulova Sanobar Mamatkulovna XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari	337
71.	Алиева Шоира Рузибановна Повышения эффективности духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях	340
72.	Bozorova Nazokat Jamiyatni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni	345
73.	Matyoqubova Yulduzxon Qurbonovna Ta'limning turli bosqichlarida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etish	350

IV. TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI		
74.	N.Mamatov Ma'rifatli shaxs tarbiyasi omillari integratsiyasi	356
75.	Samandarova Shaxnoza Yoshlar madaniyatida bugungi kun axloq masalasi	361
76.	Sanobar Nasrullayevna Xodjayeva Yangi o'zbekistonda ma'rifiy islohotlar: yutuq, muammo, qiyosiy tahlil va taklif	366
77.	Haqberdieva Dilnoza Kamol qizi Yoshlar ongida qadriyatlarni shakllantirishda kutubxonalarning o'rni	373
78.	Abdikadirova Nigora Sabirjanovna O'zbekistonda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishning istiqbolli yo'nalishlari	376
79.	Badalbayeva Irodaxon Habibulayevna Hukumatimiz tomonidan "sahovat uylari", "mehribonlik uylari"ga ko'rsatilayotgan e'tiborning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati	382
80.	Rajabova Sanobar Sabirovna Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish – davr talabi	389
81.	B.R. Chariyev O'zbekiston respublikasi harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning o'ziga xosligi	392
82.	Y.O. Ernazarova A.D.Hojiyev O'zbekiston yoshlarining huquqiy ongini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish	397
83.	Xudaybergonova Anabibi Qurbanbayevna Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ta'sirchanligini yanada oshirishning samarali shakl, uslub va vositalari	400
84.	Sharipov Dilshod Baxshilloevich Yangi ma'naviy makonda milliy ruhni yaratish masalalari	406
85.	Abdilrashid Anvarxonov Siyosiy madaniyat tushunchasi mohiyati	411
86.	Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevna Insonning bioijtimoiy mavjudot sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari	414
87.	Bekzod Ashurov Adabiyot – ma'naviy tarbiyaning bosh mezon	419
88.	Kamolov Dostonbek Rustam o'g'li Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti	425
89.	Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich Oliy ta'lim tizimida gender tenglik masalalari: muammolar va yechimlar	429
90.	Abdilxamedov Abbas Abilatibovich "Probatsiya hisobidagi yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, huquqiy ongini oshirish va ijtimoiy moslashtirish".	434
91.	Касимова Зумрад Сабиржановна Роль и значение социальных ценностей в воспитании молодежи в условиях современности	439
92.	Yusupova Dilnoza Fayzullaevna O'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish orqali ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish	444
93.	G'oyibov Elyor Ilhomovich Ta'lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy – ma'naviy faolligini oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni	448

94.	Abdusamiyeva Dilrabo Abduvaxob qizi Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish: muammo va yechimlar	452
95.	Saburova Juldizxan Axmetovna Oliy ta'limda ta'lim va tarbiya uyg'unligi	456
96.	Umarova Nilufar Xasanovna Ma'rifatli shaxs tarbiyasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar xodimlari kommunikativ kompetentligining ahamiyati	459
97.	Каланходжаева Камила Ботировна Высокий уровень эмоциональной культуры педагога как фактор успешного влияния на молодежь с целью повышения их уровня духовного развития	463
98.	Yakubova Shaxnoza Erkinbaevna Sharq mutafakkirlar merosi asosida talaba-yoshlarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish metodlari	466
99.	Maxammatov Ziyodullo Abdullajon o'g'li Bolalar milliy o'yinlarining pedagogik ahamiyati	471
100.	Bobojanov Safar Baxromovich Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi	475
V. IJTIMOY AXLOQ MEZONLARI HAMDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMASIYASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR		
101.	Allayarova Marxabo Mavlonovna Nekov Ikrom Bugungi yangi o'zbekistonda milliy ong rivojlanishining tendensiyalari va yoshlar	479
102.	Haqberdieva Dilnoza Kamol qizi Yoshlar ongida qadriyatlarni shakllantirishda kutubxonalarning o'rni	483
103.	Жамалова Гулнора Гуломовна Айматова Фарида Хуразовна Духовно-нравственное воспитание молодёжи экономических специальностей	487
104.	Narmanov Feruz Asfandiyorovich Tarix fanini o'qitishning ma'rifatli jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	494
105.	Hamroyev Sanjar Samiyevich Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari	498
106.	Xasanov Boburjon Hakimovich jamiyat taraqqiyotida milliy yuksalish g'oyasining ahamiyati	503
107.	Tosqo'ziyeva Madinabonu Burhonjon qizi ijtimoiy ma'naviy taraqqiyot va ta'limning o'zaro aloqadorligi	506
108.	Yazdonova Soxiba Kurbanovna Zamonaviy kibermakonda yoshlar tarbiyasiga, sifatli ta'lim olish jarayoniga salbiy ta'sir etayotgan omillar	510
109.	Davletov Xurshid Yuldashevich Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish yo'llari	515
110.	Otabek Do'styorov Ilm sari saodatli yo'l	518
111.	Хидирова Гулнора Нарзиевна Самый великий подвиг – подвиг духовный	523
112.	Toxir Xatamov Abdumutalovich Tasavvuf allomalari merosida ma'naviy kamolot sirlari	531

113.	Юсупова Наргиза Рустамовна Единство нравственных и эстетических компонентов в совершенствовании духовного мира личности в высшей школе	535
114.	Ishanchayeva Shoiraxon Baxramdjanovna Saroy Mulk Xonim va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari	542
115.	Madramova Sanobar Rahmonberdiyevna Ijtimoiy axloq mezonlari hamda yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasi	547
116.	Allanazorov Muxiddin Xayitovich Manipulyatsiya – ommaviy madaniyat quroli sifatida yoshlar tarbiyasiga ta'siri	550
117.	M.A.Xakimova Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyati masalalari	554
118.	Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna Yoshlar ijtimoiylashuvida milliy qadriyatlar transformatsiyasining ahamiyati	559
119.	Abdullayeva Ziyoda Nabiyevena Yoshlar tarbiyasida axloqiy mezonlar: ishonch va uning qadriyat sifatida yuksak baholanishi	563
120.	Habibullaev Ma'rufjon Odiljon o'g'li Yoshlar ongida antikorrupsiyon tafakkurni shakllantirishning dolzarb muammolari	567
121.	Назарова Нилуфар Авазовна Воспитание просвещенной личности в новом узбекистане: проблемы и решения	571
122.	Yusupova Feruza Zoyirovna Yoshlar qadriyatlar dunyosini shakllantirishda idealning ahamiyati	576
123.	Usmonaliyeva Risolat Umaraliyevna Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	579
124.	Abduxamidov Islombek Abduxalim o'g'li Tashqi mehnat migratsiyasi – ijtimoiy muammo sifatida (bolalar va yoshlar misolida)	582
125.	To'xtasheva Nodira Qahramonovna Pedagogika kolleji o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan o'quv amaliyotlarini tashkil etish metodikasi	587
126.	To'xtarov I.M. Ma'rifatli shaxs tarbiyasida nutqiy madaniyat omilining ahamiyati	592
127.	Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevich Berdiyeva Muattar Ibodullayevna Yangi O'zbekiston yoshlari ongida siyosiy qadriyatlar tizimining o'zgarishi	597
128.	Жанонова Ситора Бердиназаровна Молодежь и социальная нравственность: проблемы, вызовы и стратегии трансформации ценностей	601
129.	Matkarimov Azamat Farhod o'g'li Talabalarda voqelikka estetik munosabatni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	605
130.	Sattarov Fozil Faxritdinovich Yoshlarning ma'naviy – mafkuraviy yuksalishiga ta'sir etuvchi omillar	607
131.	Shoyimov Ilhom Qurbonovich, Isamatov Ravshan Sunnatovich O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarida vatanparvarlikni kuchaytirishning ma'naviy-ma'rifiy omillari	611
132.	Sultanov Javlon Djurayevich Axborot tizimi rivojlanishi sharoitida mafkuraviy jarayonlarning transformatsiyasi	616

133.	Oqilov Ahrorjon Bahromjon o'g'li To'rayev Laziz Abdivali o'g'li Axloq me'yorlari hamda milliy qadriyatlar almashinuvi va ularning jamiyatda tutgan o'рни	620
134.	Axmatova Durdona Daniyar kizi Bektemirova Zuxra Omonjon qizi Bugungi globallashuv davrida yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoyalash	624

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
(IKKINCHI QISM)

Nashriyot litsenziya raqami
AAN^o 0039 10-dekabr, 2019-yil.

«Ganjina» nashriyoti Toshkent, Yunusobod 11-2-14.
Telefon: (71) 225-82-99, +99 893-549-13-66

2023-yil 10-iyulda bosishga ruhsat etildi. Bichimi 70x100 1/16.
« PT Serif» garniturası. 19,9 bosma taboq. Adadi 140 nusxa.

«MERIT PRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Sh.Rustaveli ko‘chasi 91-uy.
Tel: +998 90 000 06 63